O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi V an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2021-yil, 26-aprel

Toshkent – 2021

UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi V an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent – 2021.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi tomonidan tashkil etilgan.

Mas’ul muharrirlar:
M.Abdullayeva f.f.nomzodi, dotsent
X.Xamrakulova f.f. doktori, dotsent
Taqrizchilar:
H.Homidiy f.f.doktori, professor
J.Jo‘rayev f.f.doktori

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar
S.Kambarova, Sh.Rahmonova, A.Xayrullayev, Q.Mamiraliyev,
Y.Ziyayeva, O‘.Yo‘ldoshev

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2021-yil 7-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

GLOBAL TA’LIMDAN MILLIY MAQSADLAR TOMON....

Shuhrat Sirojiddinov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU rektori
filologiya fanlari doktori, professor

Bugun yurtimizda kichik sohadan tortib xalq turmushi farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardagi o‘zgarishlar, islohotlar shu qadar shiddat bilan amalga oshirilayotirki, shu vatanga qondosh har qanday millat kishisi, bunday tarixiy o‘zgarishlarga loqayd qarab turolmaydi.

Davlatimiz rahbari istiqboldagi taraqqiyotning kafolati ilm ahli va ziyolilar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini har bir uchrashuv, murojaatlarida ta’kidlab, uning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun bir qancha qaror va farmonlarni qabul qildi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosida ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni izchil amaliyotga joriy etish yotadi. Xususan, milliy metodika va maktab darslikarini xalqaro standartlar asosida isloh qilish, ta’limdagi mavjud muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, nufuzli davralarda ko‘p bora muhokama qilindi. Bunday xayrli harakatlar farzandlarimizning jahon standartlarida belgilangan mezonlar asosida bilim olishlariga, o‘zbek tili va adabiyoti ta’limida ham xalqaro standartlardan milliy strategik maqsadlarimizga moslarini tanlab, izchil joriy qilishga, ta’limda yanada samarali natijalarni qo‘lga kiritish uchun, avvalo, xorijiy tajriba asosida uning ilmiy va metodik asoslarini yaratishga imkoniyatlar ochib berdi. Bunday islohotlar, ayniqsa, yoshlarning maqsadli harakatlariga rag‘bat berish barobarida o‘z kuchiga ishonish hissini ham uyg‘otdi.

Bugun adabiy ta’limga yangicha yondashuvlar, talablar o‘quvchilarda ham adabiyotga munosabatini o‘zgartirdi. Xususan, yoshlarimiz adabiyot fanini faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik

nuqtayi nazaridan emas, balki o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o‘rganish zarurligini his qila boshladilar.

Darhaqiqat, badiiy adabiyot odam ko‘nglini tarbiyalaydi. Bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma’naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o‘zanini yo‘qotgan, selday oqib kelayotgan zararli g‘oyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina milliy immunitet hosil qila olishi mumkin. Chunki adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi.

Universitetimiz tashkil qilingan vaqtdan buyon “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kafedrasi jamoasi tomonidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani har yili ana’anaviy ravishda o‘tkazib kelinadi. Mazkur konferensiyaning asosiy maqsadi adabiyot o‘qitish metodikasini xalqaro standartlar va jahon tajribasi asosida yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish, o‘qitishning innovatsion usullarini yaratish, umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni badiiy asar mutolaasiga qiziqtirishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat. “Global ta’lim va milliy metodika” taraqqiyoti ilmiy-amaliy anjumaniga taqdim etilayotgan maqolalar mazmun-mohiyati jihatidan takomillashib borayotgani, maqolalarda jiddiy konseptual masalalarning qo‘yilishi va ularning adabiy ta’limdagi bo‘shliqlarni to‘ldirib, milliy manbalarni boyitishga xizmat qilayotgani, milliy adabiy ta’limda mavjud bo‘lmagan yoki u qadar keng yoritilmagan nazariy qarashlar tahliliga e’tibor berilayotganidan adabiyot o‘qitish metodikasi universitetning strategik maqsadlariga mos taraqqiy etyapti degan xulosaga kelish mumkin.

Mazkur anjuman global ta’lim imkoniyatlaridan milliy maqsadlarimizga mos tarzda foydalanib, milliy metodika sohasidagi bo‘lg‘usi tadqiqotlarni rivojlantirishga, milliy manbalarni boyitishga, adabiy ta’limning yangi ilmiy-amaliy asoslarini yaratishga o‘z hissasini qo‘sha oladi deb ishonaman va konferensiya tashkilotchilarining kelgusi ishlariga muvaffaqiyat tilayman.

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA

ADABIYOT O‘QITISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

Marg‘uba Abdullayeva
ToshDO‘TAU f.f.n., dotsent,
O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi
kafedraasi mudiri

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o‘tkazish, unda ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni o‘quvchilarga to‘laroq yetkazish uchun didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning dolzarb talabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki o‘yin texnologiyasi o‘quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi. Adabiyot o‘qitishda asosiy faollik o‘qituvchining o‘zida bo‘lishi kerak. Shundagina o‘quvchilar orasidagi faollikni ta’minlay oladi. O‘yin texnologiyalari nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, ularning amaliy malaka va ko‘nikmalarga aylanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga o‘quvchilarda muayyan axloqiy-irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi. D.B.Elkoninning fikriga ko‘ra, “Xuddi shu oddiygina o‘yin orqali o‘sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi” [Эльконин, 1978]. Bir qancha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin bu – taraqqiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chiqadigan qonun-qoidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunishi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv jarayoniga didaktik vazifa qo‘yishi aniqlashtirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

• didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajariishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Didaktik o‘yinli texnologiyalar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari:

1.Intellektual (aqliy) o‘yinlar

2. Harakatli o‘yinlar

3. Aralash o‘yinlar.

Mazkur o‘yin turlarini amaliy jarayonda adabiyot darslarida ko‘rib chiqamiz.

1. “TO‘G‘RI TOP” o‘yini uchun ikkita plakat kerak bo‘ladi. O‘qituvchi birinchi navbatda biror maqolning boshlanishini yozib qo‘yadi, ikkinchisi esa tartibni o‘zgartirgan holda maqolning davomini yozadi. O‘yinni *5 sinflarda “Maqollar”* mavzusini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

1. Har toycha o‘zi ……..bo‘log‘ini maqtar
2. ……..... pari bilmas
3. Otdan tushsa ham.....
4. ..... yomon qopib gapiradi.
5. O‘z uying.....
6. Yer haydasang ……..hayda, kuz haydamasang ……hayda.
7. Qazisan, ……..- axir ……ga tortasan.
8. Olma ……..dan uzoqqa tushmaydi.
9. O‘zga yurtning ……o‘z yurni……yaxshi
10. Ilmi borni ……dema, ilmi yo‘qni……dema.
11. Uzga yurtning …….bo‘lguncha, o‘z yurtingni ……..bo‘l.
12. Oltin ……..da bilinar, Odam …….da.
13. . Qarg‘a.....ko‘zini chuqimaydi
14. Ayrilgan ……. qolar, bo‘lingan ……..
15. Ayrilganni ……..yer, bo‘linganni …….

2. “ERTAKLAR OLAMIGA SAYOHAT” o‘yini quyi sinflarda o‘tkaziladi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Mustaqil va sinfdan tashqari o‘qish soatlarida qanday ertaklar o‘qilgan bo‘lsa(o‘quvchilar tomonidan) ertaklar nomi, qahramonlar ismi yoziladi. Qaysi qator yoki o‘quvchi ko‘p yozsa g‘olib sanaladi.

5-sinfda ”Ertaklar olamida” ruknida “To‘maris” rivoyati, Nazariy ma’lumot: Rivoyat va afsona tushunchalari. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi,

“Susambil” ertagi. Nazariy ma’lumot: ertaklar va ularning turlari. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida bu o‘yindan foydalanish mumkin.

Ertaklar nomi	Ertak turi	Qahramonlar nomi

3. 8-sinfda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni mavzusida “ZANJIR O‘YINI”dan foydalanish mumkin. Bu o‘yinda guruhlarga mavzu bo‘yicha savollar tarqatiladi. Kim savolga to‘g‘ri javob berolmasa, zanjirni uzgan hisoblanadi.

1. U benuqson aql timsoli, vazirning o‘g‘li bo‘lib, davlat ishlarida emas, dunyo ishlarida aql, idrok bilan ish ko‘radi (O‘g‘dulmish).

2. U taqvodor, zohid, davlatning qarindoshi qanoat timsoli bo‘lib, foniy dunyoni o‘tkinchi deb biladi. U dunyoviy ishlarning barchasi kerak, u hayotiy zarurat, lekin bu dunyo tuzilishi yo‘lida umrini qurbon berish donolik belgisi emas deb biladi (O‘zg‘urmish).

3. “Qutadg‘u bilig” asarining lug‘aviy ma’nosi – (Saodatga eltuvchi bilim).

4. “Qutadg‘u bilig” asarining nechta qo‘lyozma nusxasi bor? (Vena, Qohira, Namangan).

5. Quyosh hammaga bir xil yorug‘lik beradi. Hammani birdek isitadi. U uchun katta-kichik, boy kambag‘alning farqi yo‘q. Uning nazarida haqiqiy inson xalqqa ezgulik qilgan inson? (Kuntug‘di).

6. Dostonning asosiy 4 qahramoni? – (Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmish).

7. Dostonda mamlakat boshlig‘i, hukmdor qanday nomlangan? – (elig, bek).

8. Kuntug‘di kim va nimaning ramzi? – (Hukmdor – adolat ramzi).

9. Oyto‘ldi kim va nimaning ramzi? – (vazir – davlat ramzi).

10. O‘gdulmish kim va nimaning ramzi? – (vazirning o‘g‘li –aql ramzi).

11.O‘zg‘urmish kim va nimaning ramzi?- (Zohid – ofiyat – qanoat ramzi).

12. “Bahor madhi” dostonning qaysi qismida bayon etilgan? (Kirish qismida).

4. ZAKOVAT O‘YINI

Bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab auditoriyani o‘yinga moslashtirish lozim bo‘ladi. O‘yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi. O‘yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo‘yiladi. Guruh sardori savolni olib o‘qituvchiga beradi. O‘qituvchi savolni o‘qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan, yuqori sinfda o‘tkazish tavsiya etiladi.

Zakavot o‘yinlarida asosan, o‘rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

9 sinfda Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganishda bu o‘yinni qo‘llash va quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Savol: Ogahiy kimning tarbiyasida bo‘lgan?

Javob: Amakisi Munisning

2. Savol; Ogahiyning Xiva xonligini aks ettirgan asari?

Javob: “Riyoz ud-davla” (Saodat bo‘g‘lari).

3. Savol: Ogahiy nima uchun tushakka bog‘lanib qoladi?

Javob: 1845-yilda miroblik ishlari bilan safarda yurganda tasodif tufayli oyog‘ qattiq shkastlanadi va yigitlik chog‘ida tushakda qoladi.

4. Savol: Shoir she’rlarida mumtoz adabiyotning qaysi san’at turlaridan foydalangan. Misollar keltiring.

Javob: Ogahiy o‘z baytlarida ma’no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni qo‘llab **tanosub** san’atini yaratgan. Masalan:

Ne tong ko‘nglum kushi gar etsa maqsad oshyonig‘a,

Ki, sa’yu shavqdin uchmoqda bolu par qilur paydo.

Ogahiy **iyhom** san’ati xususiyatlaridan ham mohirona foydalangan:

Meni bemor o‘lar holatga yetganda ikki la’lin,

So‘rub bildim alarning biri shakar, biri kavsardur.

5. Savol: Ogahiyning kuyga solingan mashhur g‘azali qaysi va uning matla’si qanday?

Javob: “Ustina” radifli g‘azali Ogahiyning mashhur g‘azallaridan biridir. U ishq mavzusida, vasf va izhor uslubida bitilgan yakpora g‘azaldir. Bu g‘azal taniqli xonandalar (Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoshukurov va b.) tomonidan qo‘shiq qilib ijro etilgan. G‘azal to‘qqiz band, o‘n sakkiz misradan iborat. G‘azalning matla’si:

Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlam uchun “nas” keltirur “nun” e’tibor “sod” ustina.

6. Savol: “Musoviyattarafayn” nima?

Javob: Musoviyattarafayn – bu ikki tomonlama teng, bir xil yozilgan she’r. she’rni ikki xil – odatdagi yon tarafga hamdayuqori past tomonga o‘qiymiz, bir xil matn hosil bo‘laveradi. Masalan: “Ul sho‘xki ochildi xat-u ruhsoring…”

Ul sho‘xki	ochildi	xat-u	ruxsori
Ochildi	rayhonida	Yuzi	gulnori
Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man man
Ruxsori	gulnori	man man	zori

7. Savol: Tashxis nima?

Javob: Tashxis – arabcha so‘z bolib, “shaxs” o‘zagidan hosil bo‘lgan bo‘lib “shaxslantirish” degan ma’noni bildiradi. Tashxis faqat insonga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy holatlarni, tabiyat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hayotdagi tushunchalarga ko‘chirish san’atidir. M:

“Ochulur sahar sabodin dema g‘uncha mushti har tun,

Ochilibon qo‘lu oyosin qilodur sanga duo gul”.

8. Savol: “Taviz ul-oshiqin” devoni haqida ma’lumotlar zanjirini tuzing?

Javob: Sheriy devon, ma’nosi “Oshiqlar tumori”, Feruz – Muhammad Rahimhon Soniy II ning maslahati bilan tuzilgan.

9. Savol: Ogahiy kimlarning qaysi asarlarini tarjima qilgan?

Javob: Kaykovus “Qobusnoma’, Nizomiy “Haft paykar”, Sa’diy Sheroziy “Guliston”, Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asarlarini tarjima qilgan.

10. Savol: Ogahiyning “Taviz ul-oshiqin” devoni necha misra va nechta janrni o‘z ichiga oladi?

Javob: 20 dan ortiq janrda 21 ming misrali lirik merosi jamlangan. Ularning 1300 misradan ortig‘i fors tilida bitilgan.

Intellektual, harakatli va aralash o‘yin turlarini qo‘llash va shu texnologiyaga mos yangi usullarni ishlab chiqish, o‘qitishni jonli va qizaqarli tashkil etish imkonini beradi. O‘qituvchilarning kasbiy malakalarini oshiradigan, o‘quvchilar faolligini kuchaytiradigan o‘yin texnologiyalari ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, adabiyot o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish dunyoqarashi keng, tafakkur olami boy, hozirjavob, ishbilarmon avlodni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –T.: Iste’dod/ 2003. – B. 180.
2. Usmonov Z. Adabiyot o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari// Til va adabiyot ta’limi. 2005. 3-son. – B. 20–22.
3. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradoligini oshirish yo‘llari. Tuzuvchi: R.Ishmuxammedov. –Toshkent: 2003. – B. 3–11.
4. K.Usmonova. Adabiy ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: 2004. –B. 3–13.
5. D.Abdurazzoqova. Interfaol usullardan foydalanish. – Toshkent: 2005. –B. 3–9.
6. Эльконин Д.Б. Психология игру. – Москва. Педагогика. 1978.
7. Umumta’lim adabiyot darsliklari. 5,8,9-sinflar.

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANINING O‘QUV TAHLILINI AMALGA OSHIRISH METODIKASI

Qozoqboy Yo‘ldosh
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori

Qodiriy romanlariga xos alohida bir xususiyat shundaki, ularda qaysi davrda yashab o‘tgan odamlarning qanchalik murakkab taqdirlari aks ettirilgan, qanchalar fojiaviy voqealar ko‘rsatilgan bo‘lmasin, o‘qirmanda o‘tmishga nafrat uyg‘otmaydi, undan jirkanish paydo qilmaydi. Romanlarda millat hayoti va ruhiyatining kishi g‘ururlansa arziydigan, namuna olishi lozim bo‘lgan qirralari san’atkorlik bilan tasvirlanadi. O‘rta maktabning 7-sinfida «Mehrobdan chayon» asaridan olingan boblarni o‘rgatishda ham ayni shu jihatlar ko‘zda tutilishi lozim.

Asarni o‘rgatishda Abdulla Kodiriyning hayot yo‘lini bildirishga alohida vaqt ajratmaslik, yozuvchi umr yo‘lidan o‘rganiladigan asarni teranroq tushunishga xizmat qiladigan ba’zi faktlar keltirilsa, yetarli bo‘ladi.

Adabiyot o‘qituvchisi «Mehrobdan chayon»dan olingan boblarni o‘rganishga bag‘ishlangan har bir darsga aniq tarbiyaviy va didaktik maqsadlar qo‘yishi darkor. Yettinchi sinf “Adabiyot” darsligiga romanning turli boblaridan olingan parchalar kiritilgan. Romanni o‘rganayotganda shu holatga e’tibor berish kerak.

O‘qituvchi romandan olingan parchaning sinfning o‘zida to‘liq o‘qilishiga erishish kerak. shunday qilinganda, o‘quvchilar Qodiriy so‘zining tarovatini, ifodaning musiqasini his qilishadi. Ayrim o‘qituvchilar badiiy matnni navbati bilan sinfdagi o‘quvchilarga o‘qitishga harakat qiladilar. Shu yo‘l bilan o‘quvchilarni faollashtirmoqchi bo‘ladilar. Endi tanishilayotgan badiiy matnni bu yo‘sinda o‘qitish uning badiiy tarovatini yo‘qqa chiqaradi. Shuning uchun ham o‘qituvchi badiiy matnni o‘zi o‘qib berishi kerak.

Dasturda asarni o‘rgatishga to‘rt soat vaqt ajratilgan. Ilk mashg‘ulotda «Baxmalbofda faqir bir oila», «Taniysanmi shu jajji qizni», «Chin o‘rtoq» boblarini, ikkinchi soatda romanning «Maxdumning baxti», «Ikki sadoqat» boblarini, uchinchi

soatda «Xayr endi, Ra’no» va «Qo‘rqinch bir jasorat» boblarini o‘qib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir soatda asarning o‘qilgan qismi o‘quvchilarning faol ishtirokda didaktik tahlil ham etilishi kerak. Shunda o‘quvchilar asarni chuqur tushunib yetadilar. To‘g‘ri anglamagan o‘rinlar yuzasidan savollar berilib keragiday tushunishning yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatiladi. To‘rtinchi soatni esa to‘lig‘icha asarning umumiy tahlilga bag‘ishlagan ma’qul.

Xo‘sh, o‘qituvchi Qodiriy asarini o‘rganishga ajratilgan to‘rt soat darsning har biriga qanday maqsadlar qo‘yishi mumkin va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun nimalar qilishi kerak?

Ma’lumki, adabiyot o‘qitish metodikasi fani talabiga ko‘ra adabiyot darslarida qirq besh minutlik mashg‘ulot davomida o‘qituvchi o‘rganilayotgan badiiy matn yordamida o‘quvchilarda muayyan axloqiy sifatlarni shakllantirishni (tarbiyaviy maqsad), ularga oldin ma’lum bo‘lmagan qandaydir yangi bilim berishni (ta’limiy maqsad) hamda shakllantirgan axloqiy sifati hamda bergan bilimi yordamida o‘quvchi shaxsining qaysidir darajada rivojlanishiga erishishni (rivojlantirish maqsadi) maqsad sifatida belgilaydi. «Mehrobdan chayon» romanidan olingan parchani o‘rgatayotganda o‘qituvchi har bir dars oldiga qo‘yishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni to‘g‘ri belgilab olish saboqlarning samaradorligini oshiradi.

Birinchi soatda o‘tilishi kerak bo‘lgan mashg‘ulotning maqsadlari quyidagicha belgilanishi mumkin:

Tarbiyaviy maqsad: Sinfda o‘rganiladigan parchaga tayangan holda o‘quvchilarni asar obrazlaridagi ezgu insoniy sifatlarini payqashga odatlantirish.

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarni asar matni va uning qahramonlari tabiatiga xos yetakchi xususiyatlar bilan tanishtirish.

Rivojlantirish maqsadi: O‘quvchilarni ezgu ma’naviy sifatlardan ulgu oladigan hamda badiiy asarning unsurlariga e’tibor bilan qaraydigan qilib shakllantirish.

Saboqlardagi barcha didaktik tadbirlar ana shu maqsadlarning amalga oshirilishiga qaratiladi.

O‘qituvchi dars oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishmog‘i uchun matnni o‘qish jarayonida asarda aks ettirilgan har bir obrazning xarakter xususiyatlariga o‘quvchilar e’tiborini torta bilishi lozim. Yozuvchi qahramonlarining tili, so‘zlashuv tarzlari orqali ularning shaxsiyatlari borasida o‘quvchilarda fikr uyg‘ota oladi.

Asarni o‘rganishga bag‘ishlangan ikkinchi darsda ham, xuddi avvalgisidagi kabi maqsadlar belgilab olinishi va o‘qituvchi amalga oshiradigan jamiki pedagogik usullar ana shu maqsadlarning ro‘yobga chiqarilishiga qaratilishi darkor.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarda asardagi obrazlar tabiatiga xos xususiyatlarni ilg‘ash ko‘nikmasini shakllantirish.

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarni asar voqealari bilan tanishtirish.

Rivojlantirish maqsadi: O‘quvchilarda odam ma’naviy qiyofasini uning xatti-harakatlariga qarab baholash ko‘nikmasini qaror topdirish.

Bu darsda Nodira, Mohlaroyim, Nigoroyim, maxdum timsollarining o‘ziga xosliklarini adib ko‘proq ularning nutqi orqali berishga erishganligiga o‘quvchilar e’tibori qaratilishi kerak. Negaki, nutq har qanday inson tabiatining oynasidir. Asar matniga shu nuqtai nazardan yondashilsa, Nodiraning bolalikdan Anvarga boshqacha mehr qo‘yganligining sababi, Mohlaroyimdagi bag‘rikenglik, Solih maxdumdagi tirishqoqlik, bilim, xasislik, pastkashlik, Ra’noga xos odob, erkalik, bola Anvar tabiatidagi do‘stga sadoqat, o‘z haddini bilish, mag‘rurlik, iste’dod singari jihatlarni o‘smirlar bilib olishadi. Buning uchun asar o‘qilayotganda o‘quvchilarning diqqat bilan quloq solibgina qolmay, balki obrazlarning nutqiga e’tibor qaratib, ularning ruhiy holatini his qilishlariga erishish zarur.

Ikkinchi soat davomida asarning o‘qilishi zarur bo‘lgan qismlarida yechimga o‘ziga xos tayyorgarlik borgan bo‘lsa, uchinchi soatda tanishilishi zarur bo‘lgan boblarida roman voqealari shiddat bilan rivojlanadi. Keskin to‘qnashuvlar hamda qaltis vaziyatlar tasviri asnosida qahramonlarning ma’naviyatiga xos jihatlar ochiq namoyon etiladi. O‘quvchilar ana shu evrilishlarni sezishlari, qahramonlarning xatti-harakatlaridan ta’sirlanib, voqealarning qatnashchilariga aylanishi lozim. Romandan olingan parchaning qolgan qismini o‘qish jarayonida o‘quvchilar qahramonlarning

xususiyatlarini ularning ishlariga qarab baholab borishlari muhim. Shunday qilinganda darsning maqsadlari amalga oshgan bo‘ladi.

To‘rtinchi mashg‘ulotda romanning o‘qilgan barcha qismlari yaxlit holda umumiy tahlil etilishi kerak. Chunki adabiyot saboqlari uchun faqat badiiy asarni o‘qib, mazmunini o‘zlashtirishning o‘zi maqsad emas. O‘qilgan asarni tahlil qilish, uning sirtdan ko‘zga tashlanmaydigan ma’nolarini kashf etish, so‘zning tovlanishlarini payqash va zavqlanish, eng muhimi, asarda tasvirlangan obrazlarga tuyg‘udosh bo‘lish o‘quvchilarning estetik idrokini o‘stiradi, ularni ezgu ma’naviyatli barkamol shaxslarga aylantiradi. Odam o‘zganing dardini his qilgandagina dardkash odamga aylanadi. Dardkash bo‘lmagan odam esa, kamolot yo‘liga kira olmaydi. Shuning uchun to‘rtinchi dars oldiga qo‘yiladigan maqsadlar ham o‘ziga xos bo‘ladi.

To‘rtinchi saboqning ***tarbiyaviy maqsadi:*** Asarni tahlillash asnosida ezgu xislatli qahramonlarning xatti-harakatlari sabablarini topish orqali o‘quvchilarda ezgu axloqiy xislatlarni yuzaga keltirish.

Ta’limiy maqsad*: O‘*quvchilarda «Mehrobdan chayon» romanidan olingan boblar yuzasidan chuqur bilim hosil qilish.

Rivojlantirish maqsadi*:* O‘smirlarda badiiy so‘zdan zavqlanish xususiyatini tarbiyalash.

O‘zbek nasrining eng iste’dodli vakili tomonidan 1928-yilda yaratilgan «Mehrobdan chayon» romanida o‘zbek xalqining unchalik olis bo‘lmagan o‘tmishida ro‘y bergan voqealar tasvirlanadi. Ana shu voqealar girdobiga tushgan insoniy taqdirlar butun murakkabligi bilan haqqoniy aks ettiriladi. Sinfda o‘qilgan parchada millat uchun g‘oyat fojiali davr bo‘lmish Turkiston rus bosqinchilari tomonidan zabt etilgan paytda Qo‘qon xonligidagi ba’zi kishilar taqdiri jozibali tasvirlanadi.

Yettinchi sinf o‘quvchilari hali odamlarning tabiatiga xos jihatlarni payqashdan ko‘ra voqealarni kuzatishga moyil ekanliklari tufayli hamda tahlil jarayonida syujet tizgini qo‘ldan chiqib ketmasligi uchun tahlilni asardagi voqealar rivoji tartibiga

tayangan holda amalga oshirish ma’qul bo‘ladi. Shu ma’noda o‘quvchilar e’tibori tinimsiz ishlagani holda biri ikki bo‘lmagan Salim bo‘yoqchi, mushfiq va baxtsiz Anorbibi, haddan tashqari qashshoq yashashiga qaramay, yuksakka intilgan, o‘zi yetolmagan orzularga inisining yetishini istagan va bu yo‘lda har qanday qiyinchilikdan cho‘chimagan Nodira, tabiatan uquvli, talantli, og‘ir-bosiq, o‘z qadrini biladigan Anvar, boylik orttirish, foyda ko‘rish yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan Solih maxdum, ilonning yog‘ini yalagan makkor mulla Abdurahmon va uning hamtovoqlari, Qobilboy va uning dali-g‘uli sheriklariga xos mizoj xususiyatlarini aniqlashga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qodiriy o‘z qahramonlarini tavsiflab, ularga baho berib o‘tirmay, ularni harakatda, muomala-munosabatda ko‘rsatadi. romandagi timsollar gap-so‘zlari, qiliqlari orqali o‘zlarining qanday ma’naviy sifatlarga ega shaxslar ekanliklarini namoyon etadi. Mohlaroyim, Sultonmurod, Safar bo‘zchi, Muhammad Rajabbek kabi pesonajlarning insoniy qiyofalari ularning xatti-harakat, gap-so‘z hamda mavjud voqelikka munosabatlari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar ana shu jarayon qanday yuz berganini payqab olishga odatlanishlari zarur.

Safar bo‘zchining biroz shoshqaloq, o‘jar, ayni vaqtda, nohaqlikka toqat qilolmaydigan, unga qarshi tezda chora ko‘rishga urinadigan yigitligi, Sultonmurodning bosiq, mulohazali, o‘rni kelsa, do‘stlik va adolat uchun boshini tika oladigan inson ekanligi bolalar tomonidan payqab olinishi kerak. O‘quvchilar Qobilboyda ham ukasi singari bosiqlik, shoshmaslik xususiyatlari borligiga, joyi kelganda, o‘ta qaltis yumushlarga ham qo‘l urishga qodir yigit ekaniga matn tahlili asosida tanig‘ bo‘ladilar. O‘smirlar umumiy mulohazalardan imkoni boricha saqlanib, bildirayotgan har bir fikrini asar matnidan olingan misol bilan asoslashga urinishi tahlilning yutug‘ini ta’minlaydi. Tahlil jarayonida o‘qituvchi darslikda berilgan savol-topshiriqlardan foydalanibgina qolmay, asarning chuqur tushunilishiga xizmat qiladigan boshqa didaktik materiallar tayyorlashdan erinmasa, asar o‘quvchilar tomonidan teran o‘zlashtiriladi.

«Xayr endi, Ra’no» bobini tahlil qilishda darslikda berilgan parchada bo‘lmagan bir holatga o‘quvchilar e’tibori alohida qaratilishi kerak. Ya’ni, romanning avvalgi boblaridan birida Xudoyorning tajovuzidan qochib qutulish fikri avval Ra’nodan chiqqanligi tasvirlanadi. Shunday jasur qiz «Xayr endi Ra’no» bobida barcha o‘zbek qizlari singari ko‘z yoshlarini tiya olmaydigan, o‘z tuyg‘ularining asiriga aylangan, mantiqdan ko‘ra tuyg‘uga, hissiyotga tayanib ish tutishga moyil oddiy ojiza sifatida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda o‘quvchilarni inson ichki olamining murakkabligi, uning ruhiyatidagi tovlanishlarning turfaligi haqida mulohaza yuritishga chorlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bironta odamda sira o‘zgarmaydigan, har qanday vaziyatda ham bir xilda namoyon bo‘ladigan axloqiy fazilat bo‘lmasligini o‘quvchilarga bilishlari kerak. Shunda Ra’noning bolalarcha istagi tasvirlangan lavha undan o‘quvchining ko‘nglini qoldirmaydi, aksincha, obrazning hayotiyligini ko‘rsatadi. O‘quvchilar bu obrazni o‘sha yaxshi-yomon jihatlari bilan sevib qoladilar.

Anvarning tadbirli, topqir va sheryurak yigitligi tasvirlangan lavhalarning o‘quvchilar tomonidan to‘liq tushunib olinishiga erishish darsning samaradorligi uchun juda muhimdir. Negaki, Anvar asarning bosh qahramoni ekanidan tashqari, o‘rganilayotgan boblardan chiqarilishi lozim bo‘lgan axloqiy-estetik xulosaning yo‘nalishini belgilab beradigan obraz hamdir. Shuning uchun ham adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilarni Anvar taqdirining shunchaki kuzatuvchilari emas, balki qizg‘in tarafdorlariga aylantirish tadbirini ko‘rishi lozim. Anvarning boshiga o‘lim kelganda ham g‘oyat sovuqqonlik bilan fikr yuritishi, ko‘rgan tadbirlarining mantiqli va asosli ekanini o‘quvchilar tuyushlari darkor. Anvarning Sultonali zindonga tashlanganini eshitgach, ko‘rgan dastlabki tadbiriga o‘quvchilar diqqati tortilishi kerak. U, avvalo, Sultonalining xotinini xotirjam qilish lozimligini tayinlaydi. Shunday qilinmasa, erining o‘limga hukm qilinishidan xavfsiragan ayol o‘zini yo‘qotib, butun ishni buzishi, Anvarga ham, eriga ham o‘nglab bo‘lmaydigan zarar keltirishi mumkin edi. Buni o‘quvchilar to‘g‘ri tushunsalar, Anvarning tadbirkorligiga, tiniq aqliga qoyil qoladilar.

Anvarning Ra’noga o‘zining aniq o‘limga ketayotganini bildirmasligi, shu bilan suygan qizini tahlikaga solishni istamasligi uning qanchalik kuchli shaxs ekanidan dalolat beradi. Tuyg‘ularini idora etishdagi cheksiz qudrati, tadbirlar belgilashdagi chuqur mantiq va topqirlik Anvarning har tomonlama yetuk, Ra’noga munosib, zamonidan oldinga ketgan, millatning faxri bo‘ladigan inson ekanini ko‘rsatadi.

Xon o‘rdasidagilardan hech kim Sultonalining o‘limiga shubha qilmaydi. Chunki nobop zamona, adolatsiz tuzum, erksizlik, inson sha’nining yerga urilishi ma’naviyatni xarob qiladi, odamni mayda va tuban mavjudotga aylantiradi. O‘quvchilarga ana shu haqiqat romandan olingan parcha matniga tayangan holda yetkazilishi o‘ta muhimdir. Tantilik, mardlik oyoq osti qilingan, sotqinligu qo‘rqoqlik turmush tarziga aylangan sharoitda odamning boshqacha bo‘lishi qiyin. O‘shanday sharoitda ham insoniyligini yo‘qotmaganlar, odamlik sha’niga dog‘ tushirmaydigan shaxslar bo‘lganligi ezgulik tantanasining asosidir. Anvar – o‘zi uchun o‘zganing halok bo‘lishiga yo‘l qo‘yadigan odam emas. Ayni vaqtda, Sultonali – o‘lsa ham Anvarni sotmaydigan shaxs. Shu o‘rinda chin o‘zbek yigitlariga xos tantilik, jo‘mardlik sifatlarining Anvar, Sultonali, Qobilboylar siymosida bor bo‘yi bilan namoyon bo‘lishini o‘quvchilar anglashlari darkor. Ularda ma’naviy qadriyatlarimizdan faxrlanish, o‘tmish bobolarimizning insoniy fazilatlaridan g‘ururlanish tuyg‘ulari shakllantirilishi zarur.

Anvarning Xudoyorxon bilan to‘qnashuvi roman bosh qahramoni ma’naviy qiyofasi yorqin aks ettirilgan eng ta’sirli badiiy lavhadir. Asardagi obrazlarning tabiatiga xos xususiyatlar shu xildagi tarang vaziyatlar, avj nuqtaga yetgan ziddiyatlar tasviri jarayonida to‘liq namoyon etiladi. Kundalik oddiy turmush lavhalari misolida biror shaxsning ma’naviy dunyosi haqida xulosa chiqarish mushkul. Lekin manfaatlar, qarashlar, ma’naviyatlar o‘rtasidagi keskin to‘qnashuvlarda qarama-qarshi qutbdagi kishilarning fazilat va illatlari «yarq» etib ko‘zga tashlanadi. Anvarning jasorati shunchaki qiziq ustida qilingan shovvozlik emas. U har bir bosajak qadamini, har bir aytajak so‘zini obdon o‘ylagan. Begunoh

odamni xalos qilish uchun o‘limga tik bora bilish pokiza qalb egasining, iymoni but kishi faoliyatining ko‘rinishi ekanini o‘quvchilar anglaydilar.

Anvarning so‘zlaridagi mantiq Xudoyorxonni shunchalik shoshirib qo‘yadiki, u jallod chaqirishdan bo‘lak tadbir ko‘rolmaydi. Hatto, jallod qilichi bo‘ynida turganida ham Anvar gunohsiz Sultonalini ozod ettirmay turib, xon amriga bo‘ysunmaydi. Umrining so‘nggi damida ham o‘zgani o‘ylay biladi. Hamisha jazoga hukm etilganlarni adabsiz so‘zlar bilan haqoratlaydigan xon Anvarga qarshi og‘iz ham ocholmaydi. Negaki, shaxsiyati kuchli, haq yo‘lini tutgan mahkum shaxsiyati ojiz, nohaq yo‘ldan ketayotgan hokimdan qudratliroq. Anvarning shaxsiyatida ham shu qadar adoqsiz qudrat borki, xon Sultonalidan gumon qilmasligi uchun undan yolg‘ondakam «gina» qilishga ham o‘zida kuch topadi. O‘quvchilar mana shu o‘rinlardagi badiiy ma’noni, hayotiy xulosalarni payqay olishlari darkor.

O‘quvchilar tahlilga chuqurroq kirishganlari sayin Anvarning dor tagida o‘zini tutishi, Abdurahmonning hayosiz yuzidagi niqobi haqiqat tig‘i bilan yirtib tashlanishi kabi lavhalarni o‘rganish jarayonida bosh qahramon siymosi tobora yiriklashib, uning qiyofasidagi oliyjanoblik chiziqlarining yorqinlashayotganini ko‘radilar. Bu holat, shubhasiz, ularning ma’naviyatida o‘z izini qoldiradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga odam deb atalmish yaratiqning o‘ta murakkab ekanligini, xususan, o‘tmishda yashab o‘tgan bobolar ma’naviyatini baholashda qat’iy hukm chiqarishga ehtiyot bo‘lish kerakligini o‘rgatishi zarur. «Mehrobdan chayon» ayni shu sifatni o‘quvchilarga singdirishda qo‘l keladigan badiiy asardir.

Adolatsizlik botqog‘iga tamomila botgan, ma’naviyati pokiza odamlar qatag‘on qilinadigan muhit yaratilgan xon saroyida ham insoniylik qiyofasini saqlab, odamlik sha’niga isnod keltirmaydigan kishilar bo‘lganini o‘quvchilar bilishlari kerak, albatta. Xudoyorxonning ko‘zi qonga to‘lib, Anvarni jallodga topshirgan bir tahlikali vaziyatda Muhammad Niyoz domlaning: «***Shu odobsizning gunohini mening uchun kechsinlar***», - deya xonga murojaat qilishi o‘z boshini jallod kundasiga qo‘yish bilan baravar edi. Yozuvchi Niyoz domlaning harakatini

sharhlab o‘tirmaydi, uning ma’navny sifatlariga baho ham bermaydi. Domlaning insoniy qiyofasiga asarni tushunib o‘qigan o‘quvchining o‘zi baho beraveradi. O‘quvchi chinakam san’at asarida aks ettirilgan har bir obrazga, uning barcha xatti-harakatlariga e’tibor berishi, undagi nozik imo-ishoralargacha tushunishga odatlanishi lozim.

O‘qituvchi Abdulla Qodiriyning tasvir mahorati haqida to‘xtalganda, asar voqealari yuksak mantiqiy izchillik bilan rivojlantirilganiga, har bir obraz o‘z tabiati mantig‘iga mos harakatlanganiga, barcha personajlar o‘ziga mos til bilan ta’minlanganiga, timsollar xatti-harakatida sun’iylik, zo‘rakilik yo‘qligiga o‘quvchilar diqqatini qaratishi kerak. O‘quvchilarning o‘zlari Anvarning tili bilan Ra’noning nutqi o‘rtasidagi yaqinlik va ayirmalarni topib, buning sabablarini tushuntirishga urinsinlar. Shuningdek, o‘quvchilar bosh qahramonlar nutqidan buxorolik yigitlar nutqining farqli jihatlarini obrazlar jug‘rofiyasi va sa’jiyasiga bog‘liq ravishda izohlashga harakat qilsinlar.

Abdulla Qodiriyning daho san’atkorligi shundaki, na asar voqeasi rivojida, na obrazlar xatti-harakatlari tasvirida, na muallif bayonida yasamalik, taxminga yo‘l qo‘yadi. Adibning qalamidan to‘kilgan tasvir hayotning o‘zidagidan ham mukammalroq, tabiiyroq, asosliroqki, o‘quvchilar bu holni payqashlari juda ham muhim.

«Mehrobdan chayon» romanidan olingan parchani tahlil etishda biz tavsiya etayotganlardan tashqari qanday usullar qo‘llash, qanday qo‘shimcha didaktik materiallar hozirlash, qanday ish turlaridan foydalanish singari masalalar o‘qituvchilarning saviyasi, imkoniyatlari va o‘quvchilarning faollik darajasiga qarab, har bir maktabda o‘ziga xos tarzda hal etilishi mumkin.

Asar tahlili ko‘ngildagiday amalga oshirilgach, o‘qituvchi o‘quvchilarga «Jasorat», «To‘qnashuv», «Mardlik» singari mavzulardan biri bo‘yicha sinf inshosi yozishga tayyorgarlik ko‘rishni topshirishi mumkin.

O‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishmog‘i uchun matnni o‘qish jarayonida asardagi obrazlarga xos xarakter xususiyatlariga o‘quvchilar e’tiborini

torta bilishi lozim. Yozuvchi qahramonlarining so‘zlashuv yo‘sinlari orqali ularning qanday shaxslar ekanliklari haqida o‘quvchilarda fikr uyg‘ota oladi. Ayniqsa, Anvarning Abdurahmon domlaga qarata aytgan o‘tli gaplarini o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishda qahramonga xos qat’iyat va nafratni o‘qish chog‘ida aks ettira bilish, kerakli joylarda ohang orqali mantiqiy urg‘u qo‘yishi lozim. Quyida ana shu mantiqiy urg‘u oladigan so‘zlar ajratib ko‘rsatildi.

«***Anvar titradi, Abdurahmon iljaydi.***

— Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o‘ch olasiz!— dedi Anvar. Birdan hammaning ko‘zi Abdurahmonga tushdi.— Faqat siz ifloslik natijasida kulasiz, men… men to‘g‘rilik samarasini o‘raman; siz iflos vijdon bilan g‘olibsiz, men sof vijdon bilan mag‘lubman… Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? Ifloslik emasmi, taqsir?»

Jallod Anvarni qatl qilishga tutinganda, “ozgina to‘xtang” ishorasini qilib, domlaga oxirgi ma’naviy zarbani beradi. O‘qituvchi shu o‘rinlarni o‘qir ekan, so‘zlarining zalvorli zarbaga aylanayotganini urg‘u orqali ohang yordamida ko‘rsatishi kerak:

— Mening holimni ko‘ringiz, domla,— dedi Anvar kulib,—qo‘lim bog‘langan, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman… Nima uchun bunday, taqsir! Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq!.. Durust, men ko‘milgach, qabrim ustida ko‘ksi dog‘liq qizil lolalar ko‘karar... Nimadan bu? Bu — sizning kabi tubanlar solgan iz!..

O‘qituvchi Abdulla Qodiriyning asari bugungi odamlar ma’naviyatida ezgu fazilatlar shakllantirish uchun ham zarur ekanligiga urg‘u berishi, shu bois bu roman eskirmasligini ta’kidlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2021-yil 5-aprel

ADABIY TA’LIMGA KONSEPTUAL YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Mirzayeva Zulxumor Inomovna
ToshDO‘TAU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori, f.f.d.

Bugungi kunda adabiyot o‘qitish metodikasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda keksa va o‘rta avlod vakillarining uzoq yillik tajribasi va zamonaviy dunyoqarashga ega yoshlarning xalqaro miqyosdagi bilimlari uyg‘unligiga asoslangan yondashuv muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Zotan, bugun milliy adabiy ta’limda ham ustozlarimizning tajriba sinovlaridan o‘tib o‘zini oqlagan, o‘zbekona ruh, tarbiya, milliy tutum asosiga qurilgan metod va usullar, an’anaviy yondashuvlar ham mavjudki ular uzoq yillardan beri o‘z samarasini berib kelmoqda. Ammo, taassufki, samarali yondashuvlar qatorida adabiyot o‘qitishnni qandaydur qoliplarga solib qo‘yayotgan, adabiy ta’limda mohiyatga emas, balki shaklga asoslangan stereotip yondashuvlar, texnologiyalar ham paydo bo‘lganki, ularning “joziba”si, ayniqsa, ijodkorlik qobiliyati bo‘lmagan, tajribasiz, yosh pedegoglarni o‘z domiga tortib ketmoqda. Shunday ekan, yuqorida ta’kidlanganidek, boshqa sohalar qatorida adabiy ta’limda uzoq yillar samara bergan usullar, an’anaviy yondashuvlarni rivojlantirgan holda global ta’lim imkoniyatlaridan milliy strategik maqsadlarimizga moslarini tanlab, ularni bosqichma-bosqich joriy qilish orqali ta’limning barcha bosqichlarida adabiyot o‘qitish metodikasini yangi o‘zanga burish vaqti keldi. Holbuki, adabiy ta’limning ilmiy va metodologik asoslarini bugungi nuqtai nazar, milliy va jahoniy tafakkur uyg‘unligida, yangicha tartibda yaratish orqali o‘rganuvchilarning adabiyotga, kitobxonlikka munosabatini o‘zgartirish darkor. Bugun umum o‘rta ta’lim tizimidagi adabiyot darslari aksar holatlarda o‘quvchining hayotiy ehtiyojini qondirish, uni hayotga tayyorlash, o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish emas balki oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtai

nazaridan o‘qitilayotgani hech kimga sir emas. Modomiki, bugungi murakkab globallashuv sharoyitida ma’naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o‘zanini yo‘qotgan, selday oqib kelayotgan zararli g‘oyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina immunitet hosil qila olishi mumkin ekan, bolalarimizda adabiyotga muhabbatni juda erta yoshdan singdirish lozim.

Bugungi o‘quvchi (shu jumladan, talaba va har qanday o‘rganuvchi) dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtai nazaridan kechagidan farq qiladi. Endi ular qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, o‘zlariga tanish ma’lumtolarni qayta bayon qilib berishdek eskicha yondashuvlar bilan murosa qilolmaydi. Agar adabiyot o‘quvchilar (o‘rganuvchilar) tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari o‘laroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq g‘oylar majmui bo‘lib qolaveradi.

Ingliz metodist olimlari Elli Chambers va Marshal Gregoriy “bugun badiiy asarlarni o‘rganish avvalgidek “buni to‘g‘ri deb qabul qil” *(to get it right)* mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi. Bugungi o‘quvchi badiiy asar haqidagi **mustaqil talqinlarini** bemalol, o‘z dunyoqarashi, fikrlash, tafakkur darajasiga ko‘ra bayon qila olish imkoniga egadirlar. Ammo ko‘p holatlarda o‘qituvchining magistral (qonuniy) huquqi o‘quvchining erkin fikrlariga daxl qilib, uni ***“buni to‘g‘ri deb qabul qil”*** [1] kabi mezonlarga ergashishga majbur qiladi. Oqibatda asar mohiyati o‘quvchilarning fikri, idroki va anglovidan chiqarilgan xulosalar emas, balki o‘qituvchining yoki adabiyot darsligi mualliflarining shaxsiy qarashlaridan paydo bo‘lgan yagona xulosani tashkil etadi.

Ingliz metodist olimlarining badiiy asar tahlilidagi qolipangan yondashuvlar haqidagi tanqidiy fikrlari bugun uzliksiz ta’lim bosqichlaridagi adabiyot darsliklaridagi “asar haqida” degan bo‘limni eslatib yuboradi. Chunki badiiy asar haqidagi muallif (yoki mualliflar) o‘z idroki hosilasi o‘laroq namoyon bo‘lgan xulosalari “asar haqida”da aks etadi va bu biz yuqorida qayd etgan “buni to‘g‘ri deb

[1] E.Chambers, M.Gregory. Teaching and Learning English literature. Sage Publications. London, 2006, P.11. Bu tamoyil jahon adabiy ta’limidagi an’anaviy “o‘qituvchi faol” (teacher centered- approach) ga yaqin tushuncha bo‘lib, adabiy tahlilda yakka fikrlilikka asoslanadi.

qabul qil” yondashuviga olib keladigan dastlabki faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. “Asar haqida”gi ma’lumotning o‘quvchi ongiga singishi, uni “to‘g‘ri deb qabul qilish” i mavjud ma’lumotning dominant (yetakchi) lik xususiyati undagi “boshqacha bo‘lishi mumkin” degan qarashiga mone’lik qiladi yoki eng kamida o‘quvchini fikrlashdan to‘xtatadi. O‘quvchilarda badiiy asarni tushunish darajasini baholash ham huddi matn tahlilidagi kabi o‘ta zerikarli, adiblarning hayoti, ijodi haqidagi faktologik ma’lumotlarni, asar syujetidagi muayyan detallarni eslab qolish kabi o‘quvchining tafakkuri, tasavvurini yuksaltirmaydigan, aksincha, badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan usullar orqali tekshiriladi. Oqibatda, o‘quvchilarda “adabiyot, asar o‘qish, tahlil qilish faqat shunday ikir-chikirlarni esda saqlashdan iborat” degan munosabatni shakllantirdi.

O‘quvchilar ulg‘aygan sari ruhiyati va dunyoqarashida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi. Ana shunday o‘zgarish bosqichlarida ular umid va umidsizlik, topish va yo‘qotish, sevgi va nafrat, sadoqat va hiyonat, qadriyat, insoniylik kabi masalalar mohiyatini to‘g‘ri va atroflicha anglashga ehtiyojmand bo‘ladilar. Ko‘pchiligi esa “pul hamma narsani hal qiladi” qabilidagi noto‘g‘ri qarashlarga ergashib boshi berk ko‘chalarga kirib qoladi. Moddiylik g‘am alamni, gunohni, yo‘qotishlarni, umidsizlik bilan bog‘liq muammolarni hal qila olmasligini anglashda esa ulardagi hayotiy tajriba yetmaydi. Mana shunday davrda ular ongidagi ma’naviy bo‘shliqni adabiyot to‘ldiradi. Adabiyot ularga najot quroli bo‘lib xizmat qiladi. Zotan inson huquqlarini ilk bora himoya qilish va ularni zalolatdan qutqarish maqsadida nozil bo‘lgan Ollohning kalomi QUR’ONI KARIM yaratilgan davrdan boshlab so‘z san’ati insoniyatning og‘ir kechmishi, qirg‘in va halokatida, unga ozodlik, erkinlik, o‘zlikni anglash kabi eng ulug‘ tuyg‘ularni in’om etib, muallimlik qilganligi isbotlangan. Hayot hech kimga ***“qanday qilib”*** degan savolga javob bermaydi, shunigdek inson muammolarining yechimiga ko‘rsatmalar berish imkoniga ham ega emas. Qolaversa, turli xil tur va janrlarga xos badiiy asar namunalari, jumladan, roman, hikoya yoki drama ham bugun yoshlarimizni o‘rab olayotgan muammolarni to‘laqonli bartaraf etish kuchiga ega emas. Aniqroq qilib

aytganda, adabiyot davolash shakli emas ammo ***o‘rganish vositasidir***. Chunki asarlarda savob va gunohlar, hayotiy yo‘qotishlar, adolat, yaxshilik, yomonlik va yana bir qancha umuminsoniy xususiyatlar aks etgan voqea hodisalar bayon qilinadi. Keng doiradagi nuqtai nazarlar, konsepsiyalar, munosabatlar, tushunchalar eshigini ochadiki, badiiy asarda aks etgan voqea hodisalar orqali o‘quvchi eng kamida o‘zini taftish etish, tahlil qilish majburiyatini his qiladi, hayot haqidagi chalkash tushunchalarning asl mohiyatini anglaydi. O‘zi sevib, ma’naviy, hayotiy ehtiyoji o‘laroq mutolaa qilgan badiiy asar namunasi va undan olgan xulosalari o‘quvchining hayot haqidagi qarashlarini, tushunchalari tartibga solishda, to‘g‘ri tushunchalar strategiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar orqali o‘quvchi yangi dunyoni ko‘rishni o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, barcha ta’lim bosqichlarida adabiyotga shaxsni shakllantirishdan iborat bo‘lgan hayot darsi sifatida qaralmog‘i lozim.

Konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar, o‘rganish uslublariga xos ***klassifikatsilar,*** badiiy tahlilga ***kulturologik yondashuv***, badiy tahlilda ***metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi,*** ta’limda ***integrativ yondashuv nazariyalari, ta’limni individuallashtirish*** **va** ***personallashtirish*** kabi ko‘plab yangi nazariy tushunchalar vositasida shakllantirilgan metod, texnologiya va interfaol usullar rivojlangan mamlakatlardagi nafaqat umumo‘rta balki OTM laridagi adabiy ta’lim asosini tashkil qiladi. Qayd qilingan nazariyalar, yondashuvlarda asosiy e’tibor:

1.O‘rganuvchilarning ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil faoliyat olib borishga;

2.Adabiy figuralar biografiyasi, yozgan asarlari haqidagi ma’lumotlarni yodlashga, o‘tilgan qoidalarni mustahkamlashga emas, balki konkret asar tahlili orqali uning milliy va jahon adabiyoti ravnaqida tutgan o‘rni haqida tushunchalarni shakllantirishga;

3. O‘rganuvchilarga “asar haqida” giga o‘xshash muayyan badiiy asarning tayyor talqinlarini singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchilar (talabalar) ning asarga o‘z munosabatlarini shakllantirishga;

4. O‘rganuvhcilarning hayotiy tajribasiga suyanish orqali boshqa fanlardan olgan bilimlarini faollashtirishga;

5. Va adabiyotdan beriladigan vazifalarni real hayotda uchraydigan muammolar yechimi bilan bog‘lab berish kabi konseptual masalalarga qaratiladi.

Anglashiladiki, mavjud nazariyalarga ko‘ra, adabiyot darslarining maqsadi badiiy asar haqidagi tayyor ma’lumotlarni o‘rganuvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga imkon yaratib berishdan iborat. O‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilar (har qanday o‘rganuvchi) ning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida bugun ta’lim jarayonlarida muhim bo‘lgan **“o‘quvchi (talaba) – faol” yondashuvi** *(student-centered learning)* yuzaga kelgan. Ushbu yondashuvning muhim xususiyatlari o‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish va ta'lim jarayonlarini individullashtirishdan iboratdir. “O‘quvchi – faol” yondashuvida keraksiz qog‘ozlar, ahamiyatsiz ta'limiy manbalarning kamayishi va eng muhimi – o‘rganuvchilarga allaqachon ma'lum bilimlarni qayta bayon qilish orqali vaqtni bekorga sovurish muammosi bartaraf etiladi.

Adabiy ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvini tadbiq qilish imkonini beradigan muhim nazariyalardan adabiyotshunoslikdagi **reseptiv (qabul qiluvchi) estetika (**ko‘p manbalarda ***tranzaksiya nazariyasi*** deb beriladi***)*** nazariyasi asosida shakllangan, xalqaro miqyosda ham sinovdan o‘tgan samarali yondashuv sifatida qo‘llanilib kelayotgan ***“kitobxon javobi” (reader response*****)** yondashuvidir.

Reseptiv estetika so‘zi nemischadan “Rezeptions-Asthetik”, lotinchadan “retseptio” so‘zidan olingan bo‘lib, asarning kitobxon (o‘quvchi) tomonidan qabul qilinishidir.

Kitobxon javobi konsepsiyasi (bu yagona metodologiyaga asoslanmasligi nuqtai nazaridan manbalarda “nazariya”, “yondashuv”, “konsepsiya” shaklida turlicha talqin qilingan) o‘tgan asrning 70-yillarida Tompkinning “Hikoyada kitobxon” nomli kichik tadqiqoti orqali kirib kelgan[2]. Keyinchalik mazkur nazariya turli xil olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Jumladan, nemis adabiy tanqidchisi Volfgang Izer *(Wolfgang Iser)* reseptiv estetika rivojiga hissa qo‘shgan olimlardan biri bo‘lib, u asarni **yozilgan** va **yozilmagan** qismlarga ajratadi. Kitobxon asarni o‘qish jarayonida, undan ruhiyatiga yaqin qarashlarni, g‘oyalarni qidiradi. Aksar holatlarda bunday ma’lumotlar badiiy asarning yuza qismida aks etmaydi, ya’ni, muallif ko‘p savollarga javoblarni ochiq qoldiradi. Bunday holatda bo‘shliqlarni o‘quvchining o‘zi to‘ldiradi. Bu bo‘shliqlar asarning yozilmagan qismi hisoblanadi. Yozilmagan qismlar – bo‘shliqlar har bir kitobxon tomonidan turlicha “to‘ldiriladi”. Bunda adabiyot ijro san’ati sifatida akslanib kitobxonning mutolaa tajribasi asosida “yangi asar”, noyob matn yaratilishi ham mumkin. Bu jarayonni Izer juda go‘zal qilib quyidagicha tasvirlagan edi: “tunda yulduzlar to‘la osmonga qaragan ikki kishi bir xil yulduzlar turkumiga qarasa-da, ularda biri omochni ko‘rsa, ikkinchisi echo‘michni tasavvur qilishi mumkin”[3].

Aslida ham badiiy asar mutolaasi **faol jarayon** bo‘lib badiiy asardagi yashirin ma’nolarning yangi talqinlarini yaratishda kitobxonning tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 18-20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg‘otsa, yillar o‘tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo‘lgan 30-35 yoshli ayni kitobxon-resipiyent (qabul qiluvchi) endi Kumushni hudbinlikda ayblashi, Zaynabni esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurboni” sifatida

[2] Tompkins. Jane. ed. Reader-Response Criticism. From Formalism to Post-Structuralism. Baltimore: Johns Hopkins. 1980.

[3] Iser W. The Reading Process: a Phenomenological Approach. // New Literary History, 1972, Vol. 3, No. 2, p. 287.

ko‘rib uning harakatlarini, hatto oqlashi ham mumkin bo‘ladi. Yoki, O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi onaning harakatlarini kitobxon o‘z hayotiy vaziyatlaridan kelib chiqib oqlamasligi, Umri xolaning o‘zini hatto fojeaning asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishi ham mumkin. Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi yozuvchi estetikasi emas, **kitobxon (resipiyent) qarashi, tafakkur hosilasi** sifatida diqqat markazda bo‘ladi. O‘quvchi adabiy aloqaning yakunlovchi bo‘g‘iniga aylanadi[4]. O‘quvchi o‘z fikrlari bilan asarning “yozilmagan qism”larini yaratadi.

Demak, yuqoridagi kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, “kitobxon javobi-reseptiv estetika” nazariyasi asosidagi yondashuv adabiyot darslarida o‘rganuvchilar faolligiga rag‘bat berishi nuqtai nazaridan uni adabiy ta’limga tadbiq etish muhim va ahamiyatlidir. Kitobxon javobi yondashuvi perspektiv talqinlarni yuzaga chiqarishi bilan birga badiiy asar tahliliga individual hayotiy tajriba, bilim, tafakkur, hayotiy ehtiyoj orqali kirib kelish tamoyilini ham shakllantiradi. Badiiy matnga shunchaki mutolaa obyekti sifatida emas, balki yozuvchi, badiiy matn va kitobxon o‘rtasidagi aloqa faoliyati sifatida qarashga rag‘bat beradi. Shu sabab ko‘plab metodist olimlar adabiy ta'lim, xususan badiiy asarni turli xil rakurslarda tushunish badiiy asar anglovining muvaffaqiyatli kechishida aynan mazkur yondashuv ko‘proq samara berishini ta’kidlaydilar. “Mazkur nazariyaning adabiyot darslarida tadbiq etilishi adabiy ta’limda yangicha yo‘nalislarni yuzaga chiqarish barobarida badiiy asar tahlilida o‘rganuvchilar rolini qayta kashf etishda ham ahamiyatli” [5] deb hisoblaydilar.

Amerikalik olim Hovard Gardnerning *(Hovard Garner)* ta’kidlashicha, har qanday inson tug‘ma iste’dod egasidir. Har bir insonga xos xususiy holatlar, masalan, mantiqiy fikrlash, muayyan voqelikni turli xil rakurslarda ko‘ra olish, muayyan masalaga yondashuv prinsipi va yana bir qancha individual qobiliyatlar

[4] А.Н. Ковылкин. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.

[5] Sonja Pfister Darlington. Literature as visual response and aesthetic experience: An alternative approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Dotor of Philosophy. Iowa State University. USA, Iowa, 1990, P.56.

o‘quvchilarda bir xil ko‘rinish, holat yoxud vaziyatlarda namoyon bo‘lavermaydi. Ularni yuzaga chiqarish uchun muayyan vositalar, subektiv yoki obektiv sabablar kerak bo‘ladi. O‘rganuvchilarning individual qobiliyatlarini badiiya asar tahliliga bog‘liq holatda faollashtirish esa matn asosidagi savol va topshiriqlarning saviyasiga, o‘qituvchining badiiy didi, kuchi va mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Xotirani tiklashga qaratilgan milliy adabiyot darsliklarida tez-tez uchrab turadigan, adiblar haqidagi ma’lumotlarni va asar syujetidagi detallarni eslab qolishga qaratilgan “Mirtemir hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering”, “shoirning birinchi she’ri va to‘plami qanday nomlanadi”, “ular qachon e’lon qilingan?”, “shoir ijodidagi bosh mavzular haqida so‘zlang” singari sayoz savol va topshiriqlar nafaqat o‘quvchi tafakkuriga balki badiiy asar saviyasiga ham putr yetkazadi.

Xorijiy davlatlar ta’lim tizimida qo‘llaniladigan adabiyot darsliklarida berilgan o‘qishdan keyingi kulminatsion topshiriqlardan ayrim namunalar:

- Siz rassomsiz va sizning oldingizga o‘qilgan hikoyaga faqat bitta illyustratsiya chizish vazifasi qo‘yilgan. Siz bu illyustratsiya uchun hikoyaning qaysi joyini tanlaysiz? Bu joyni illyustratsiyada qanday aks ettirasiz? Guruh bo‘lib hikoyaning eng xarakterli epizodi asosida illyustratsiya ishlab ko‘ring. (Kutuzov A.V. va boshqalar. “Adabiyot olamida”, 8-sinf uchun darslik, Moskva, 2007 y.)

- Pushkin asarlarida qahramonlar tushlari har doim muhim ahamiyat kasb etadi. Grinyov ko‘rgan tushni siz qanday talqin qilasiz? O‘z talqiningiizni bering va izohlang. (Voloshuk Y. va Slobodyanyuk Y. “Adabiyot: integratsiyalashgan kurs”, 8-sinf uchun darslik, Kiyev, 2016)

- Edgap Po hikoyalari ruhida “qo‘rqinchli” hikoya tuzing. (Bedalov Ch. va boshqalar. “Adabiyot”. 10-sinf uchun darslik. Boku, 2017.)

- Bob va Jimmi uchrashib birgalikda ovqatlanishsa nimalar haqida gaplashishgan bo‘lishardi? Bob va Jimmi o‘rtasida restoranda, kechki taom ustida kechishi mumkin bo‘lgan dialog yozing. (Alan Prurves va boshqalar. “Adabiyot va integrallashgan fanlar. 7-sinf”. Illinoys, 1997)[6]

Yuqorida qayd etilgan savollar va topshiriqlar konstruktivizm, tranzaksiya (reseptiv estetika) nazariyalari asosida shakllantirilgan va bularning barchasi

[6] Z. Mirzayeva, K.Jalilov. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent, 2020

o‘rganuvchi (o‘quvchi, talaba) ni adabiyotdan bezdirish emas balki uni sevishga o‘rgatadi, badiiy adabiyot hayot darsi ekanligiga ishontiradi.

Yoshlarni milliy adabiyotimiz kuchi, qudratini borligicha anglash, o‘zbek adabiyotiga xos yuksak ma’naviy, badiiy- estetik zalvorni to‘laligicha idrok etish qobiliyatini shakllantirishda jahon adabiyotshunosligidagi nazariyalarni, global ta’lim asosidagi yondashuvlarni adabiyot o‘qitish metodikasiga tadbiq etish lozim. Zotan, adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi. Biz nimaniki o‘ylamaylik, bajarmaylik, buning negizini ma’naviyatga bog‘lab tushunadigan xalqmiz. Qalbimizdagi ana shu yuksak ma’naviy kuchning anglanishi, tanlanishi va hayotda o‘zini namoyon etishiga ona tilimiz va milliy adabiyotimiz betimsol quvvat baxsh etadi. Aslida ham o‘z hayotini umummilliy qarashlar tizimi asosida barpo etgan, ajdodlardan meros muqaddas buloqlardan suv ichib, tomir yozgan avlodlarni esa hech qanday kuch yengolmaydi.

ADABIY TA’LIMDA KITOBXONLIK MUAMMOSI

Safo Matchonov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarni kitob o‘qishga o‘rgatish, kitobxonlikning ijodiy jarayon ekanligi, mutolaa madaniyatini yoshlikdan tarkib toptirish mazmuni tahlilga tortiladi. Shuningdek, muntazam o‘qish kitobxonning qiziqishi, o‘qishga munosabati, adabiyotlarni tanlay bilishi, ularni qabul qilish darajasi bilan aloqadorligi masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kitobxon, kitobxonlik, mutolaa, ontogenetik mutolaa, filogenetik mutolaa, yozuvchi – kitobxon muloqoti.*

Badiiy adabiyot rivojini kitobxonlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun adabiyot tarixi ma’lum ma’noda kitobxonlik tarixi hamdir. Adabiyotga iste’dodli kitobxonlar zarur. Kitobxon iste’dodi duch kelgan asarni o‘qib, u haqda fikr bildirish bilan o‘lchanmaydi, balki tanlab o‘qish, o‘qiganlari yuzasidan ijodiy fikrlash, to‘g‘ri xulosa chiqarish, zarurat tug‘ilganda undan amaliy foydalanish iqtidoriga egalik bilan xarakterlanadi.

Kitobxonlik jo‘n tushuncha emas. U o‘quvchidan muayyan darajada bilim bilan birga ma’naviy-ruhiy tayyorgarlikni ham taqozo etadi. Iste’dodli kitobxon belgilangan mavzu bo‘yicha kitob tanlay oladi. Kitob o‘qish uning uchun majburiyat emas, hayotiy zaruriyatga aylanadi. Kitob o‘qishni o‘rgangan bolani kitobxon deb bo‘lmagani kabi o‘qiganlarini eslab qoladigan va qayta hikoya qiladigan o‘quvchi ham hali to‘la ma’noda kitobxonlik madaniyatiga erishgan hisoblanmaydi. Zero, kitobxonlik madaniyati yozuvchi tasvirlagan hayot voqeligini qayd qilish bilan cheklanmaydi, uning ma’qul va nomaqbul jihatlarini farqlay bilishni, o‘z munosabatini bildira olishni ham taqozo etadi.

“Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, – deb yozadi Xudoyberdi To‘xtaboyev, – kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir [To‘xtaboyev, 1992: 3].

Shu ma’noda kitobxonlik – ijodiy mehnatdir. Kitobxonlik mehnati tanlangan adabiyotning turiga qarab o‘zgaradi. Masalan, ilmiy asarlarda ilgari surilgan farazlar, fikrlar va xulosalar mazmuni muayyan mehnat asosida o‘zlashtiriladi. Badiiy asarlarni o‘qiganda esa, bir qarashda bunday mehnatga ehtiyoj sezilmaydi. Aslida-chi?

Har qanday o‘quvchi qo‘liga kitob olar ekan, biror yangilikni bilishga chog‘lanadi. Juda bo‘lmaganda, qahramonlar boshdan kechirgan voqealarga qiziqadi, o‘qish jarayonida o‘sha voqealarni o‘z xayolida qayta tiklaydi, qahramonlar taqdiri ustida bosh qotiradi. Demak, u diqqatini jamlaydi, tafakkurini ishga soladi. Boshqacha aytganda, asar voqealarini shunchaki fahmlaydi, ijod qiladi. Shusiz badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini, yozuvchi maqsadini anglab bo‘lmaydi.

Aytaylik, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” nomli asarlari xalqimizning asrimiz boshlaridagi hayoti tasviriga bag‘ishlangan. O‘zbekiston tarixiga oid ilmiy asarlarni o‘qiganda bunday ma’lumotlar qahramonlarning xatti-harakatlari, kechmish-kechirmishlari, hayot manzaralari

tasviridan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Bu holat kitobxonlikning ijodiy mehnat ekanligini inkor etmaydi, aksincha, tasdiqlaydi. Kitobxonlikni mohiyat e'tibori bilan san'at, kitobxonni esa, san'atkor deyish mumkin. Aks holda, u yozuvchi ishlatgan bo'yoqlar, badiiy tasvir vositalari, obrazlar tiliga tushunmagan bo'lardi.

Badiiy asarni o'qish o'zicha hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qiganni qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik, o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki tushunib o'qish, maqsadli o'qishdir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxon o'quvchining yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni nechog'li uqishi, ya'ni asar "tili"ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, iste'dodi darajasini ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyot iste'dodli yozuvchilar bilan birga, iste'dodli kitobxonlarga ham ehtiyoj sezadi.

Tarixga nazar tashlansa, taniqli davlat va jamoat arboblari, din peshvolari, ilm-fan, san'at va adabiyot namoyandalari tom ma'nodagi kitobxon bo'lganlarini ko'rish mumkin. Beruniy, Forobiy, Xorazmiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ulug'larimiz buning yorqin dalilidir.

Bu borada umumjahon madaniyati tarixidan qiziqarli misollar keltirish mumkin. Jumladan, eramizning birinchi asrida yashagan rimlik Pliniy degan zobitning kitobga bo'lgan munosabati alohida e'tiborga loyiq. Uning xizmat vazifasi nihoyatda mas'uliyatli va umrining ko'p qismi sayohatlarda kechsa-da, o'z hayotini kitobsiz tasavvur qilolmagan. Pliniy xizmatdan bo'sh paytlarida, yo'lda, sayohat chog'ida, hatto hammomda (qadimgi Rimda hammom yuvinib tozalananishdan tashqari, yaqin tanish-bilishlar uchrashib suhbatlashadigan, eng so'nggi yangiliklar yuzasidan har xil bahs-munozaralar o'tkaziladigan oromgoh vazifasini bajargan) muttasil kitob mutolaasi bilan band bo'lgan. Pliniy shunchaki o'qimagan, balki o'qiganlarining mazmunini qisqacha bayon qilib, sharhlar, qaydlar ham yozib borgan. Uning o'z ichiga tarix, astronomiya, fizika, geografiya, zoologiya, botanika, qishloq xo'jaligi, tabobat, mineralogiya kabi talay sohalarga oid ma'lumotlarni qamrab olgan qomusiy "Tabiiy tarix" kitobini yozish uchun 2000 dan ortiq asarni o'rgangani zamirida qanchalik fidoyilik yotganini sezish qiyin emas.

Buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham 976–991-yillar mobaynida arab tilida yaratgan qomusiy asari “Mafatix al-ulum” (“Fanlar kaliti”)da huquq, tibbiyot, falsafa, mantiq, poetika, arifetika, xandasa, kimyo, astronomiya, grammatika, ish yuritish, tarix, musiqa, mexanika kabi 15dan ortiq fan va shariat qonun-qoidalari bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Bunga son-sanoqsiz kitoblarni o‘qimasdan erishib bo‘lmasligi kunday ravshandir.

Shuni ham aytish kerakki, kitobxonlik iste’dodi tug‘ma bo‘lmay, insonning o‘z ustida ishlashi orqali, tarbiya vositasida kamol topa boradi. Ko‘pchilik o‘quvchilarning kitob o‘qishni yoqtirmasliklari sir emas. O‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra majburiyat ostida o‘qish esa yuzaki mutolaaga, badiiy matndagi tinish belgilariga amal qilmaslikka, urg‘u tushgan so‘zlarni boshqa so‘zlardan farqlamaslikka, matndagi musiqiy ohangni sezmaslikka, ma’no tovlanishlarini tushunmaslikka, so‘z sehrini anglamaslikka sabab bo‘ladi. Natijada o‘quvchilar o‘qigan asarlarini juda ko‘p qabul qiladilar, kosa tagidagi nimkosani fahmlamaydilar. Har xil teleko‘rsatuvlardan bo‘shamaydigan bunday bolalar kitob o‘qishni yozuvchi bilan birga yangi badiiy olamni kashf etish, ijodkorlik emas, balki og‘ir mehnat, zerikarli mashg‘ulot tarzida qabul qiladilar. Bunday chog‘da o‘qilgan asarlar yuzasidan umumlashma xulosalar chiqarish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Holbuki, asar g‘oyasi anglanmas, ma’no tovlanishlari tushunilmas, so‘z sehri his qilinmas va muayyan xulosalar chiqarilmas ekan, bunday kitobxonlik harfxo‘rlikdan nariga o‘tmaydi.

Kitobxonni, avvalo, asarda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Bunday qiziqish asta-sekin uning hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatadi, ijobiy kuchlarning tantanasi uni sevintiradi, mag‘lubiyati xafa qiladi. Kitobxonda asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslash mayli uyg‘onadi. “Hoshimjonning sehrli qalpoqcha yordamida qilgan ishlari bizni qoyil qoldirdi, – deb yozadi Xudoyberdi To‘xtaboyevga “Sariq devni minib” romanini o‘qigan bir guruh o‘quvchilar. – Ayniqsa, uning davlat mulkini talon-taroj qiluvchilarni fosh qilishi bizni ruhlantirib yubordi”.

Bunday o‘qish badiiy asardan faqat estetik lazzatlanish bilan cheklanmay, balki tushunib o‘qishdir. Tushunib o‘qish ayrim hollarda bir asarni qayta-qayta o‘qishni taqozo qiladi. Chunki haqiqiy san’at namunasini har safar ko‘zdan kechirganda, uning zamiridagi oldin payqalmagan bir fikrni uqish mumkin.

“Badiiy asar mazmuni, – deb yozadi faylasuf Asmus, – bir ko‘zadan ikkinchisiga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga o‘z-o‘zidan quyila qolmaydi. U aqliy, ruhiy, ma’naviy faoliyat orqali asarda keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, kitobxonning o‘zi tarafidan qayta yaratilib, qayta ishlab chiqiladi [Асмус, 1968: 62].

“Qayta yaratib, qayta ishlab chiqish” o‘ziga xos tayyorgarlikni taqozo etadi. Buning uchun, avvalo, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning kelib chiqish sabablari, natijasi, qahramonlar taqdiri yuzasidan mulohaza yurita olish malakasini egallash zarur. Mustaqil mulohaza yuritish malakasiga asar g‘oyaviy mazmunini esda saqlash, uni shunga o‘xshash boshqa holatlarga taqqoslash orqali erishiladi.

Tadqiqotlar asar mazmunini faol o‘zlashtirish yordamida esda saqlash mexanik tarzda esda saqlashga qaraganda 25 marta samarali bo‘lishini ko‘rsatadi. Ayrim asarlarni 2, 3 bor qayta o‘qimasdan mazmunini o‘zlashtirish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo‘lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug‘ilgan g‘oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari – adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasviridan umumiy xulosalar chiqarish yo‘lini tutadi.

Demak, kitobxon mutolaasi sust faoliyat bo‘lmay, balkit tezkor ijodiy faoliyatdir.

“Badiiy asarni anglash – deb yozgan edi Anatoliy Frans, – uni ichki dunyoda qayta yaratishdir”. Qayta yaratish esa jiddiy ijodiy mehnatni taqozo etadi.

Chinakam san’at asarlari qayta-qayta o‘qishni taqozo etadi. Qayta o‘qish shunchaki takror bo‘lmay, bunda har safar mutolaa qilinayotgan asarning ilgari sezilmagan yangi qirralari namoyon bo‘ladi. Qolversa, muallif nutayi nazarini qayta

o‘qish jarayonida chuqur tushunish mumkin. Kitobxonning asar haqidagi nuqtayi nazari ham shu tariqa bexato va aniq shakllanadi.

Rus tadqiqotchilari “qayta o‘qish” tushunchasini “ontogenetik mutolaa” va “filogenetik mutolaa” tarzida talqin qiladilarki, biz ham shunga qo‘shilamiz.

Ontogenetik mutolaa u yoki bu asarning bir kishi tomonidan umrining turli davrlarida o‘qilishini anglatadi. Necha-necha avlodlar Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Abdulla Qodiriy asarlarini shu yo‘sinda o‘qib keladilar. Chinakam san’at asarlarini majburiyat ostida emas, balki hayotiy tajribaning o‘sishi, dunyoqarashining o‘zgarishi va aqliy taraqqiyot tufayli yillar osha qayta-qayta o‘qishga to‘g‘ri keladi.

Filogenetik mutolaa bir asarning har xil avlodlar tomonidan o‘qilishini anglatadi. Masalan, A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani nasrdagi ilk tajribalardan bo‘lishiga qaramay, asar e’lon qilingan 20-yillar kitobxonlari ham, yozuvchi kitoblarini o‘qish man qilingan mash’um 1937–1956-yillar o‘quvchilari ham, adibning hozirgi davrdagi muxlislari ham birdek sevib o‘qigan va o‘qimoqdalar.

Ontogenetik mutolaa asarning yuksak badiiy saviyasi, inson umrining barcha yoshida ham ma’naviy oziq bera olishi bilan xarakterlansa, filogenetik mutolaa shunday mutolaaga asos bo‘lgan, kitobxonlarning ma’lum yosh doirasidagi ma’naviy-ruhiy qiziqishlariga mos kelishi bilan xarakterlanadi. Ko‘rinadiki, kitobxonning hayotiy tajribasi ortib, dunyoqarashi, madaniy saviyasi shakllana borgan sari qiziqish doirasi ham o‘zgara boradi. Inson ruhiyatidagi bunday murakkablik uning yosh xususiyatlariga ham bog‘liq.

Alisher Navoiy inson umrini ruhiy, ma’naviy-jismoniy jihatdan to‘rt faslga: bolalik, yoshlik, o‘rta yoshlik, keksalikka ajratadi. Bunday bo‘linish insonning kitobxonlik taqdirida ham o‘z aksini topadi. Binobarin, bolalikda ko‘proq sarguzasht xarakteridagi ertak, hikoya, masal, doston va qissalar zavqlantirsa, yoshlikda muhabbat haqidagi asarlardan ko‘ngillarda kechayotgan ajabtovur hamohanglik va ko‘tarinki kayfiyat yuzaga keladi. O‘rta yoshlik va keksalik davrlarida bolalik

sho‘xliklari, yoshlik g‘aroyibotlari allaqachon orqada qolgan, har jabhada hayotga jiddiy munosabat shakllangani bois adabiyotga bo‘lgan qiziqish ham yangicha mazmun kasb etadi. O‘qiladigan asarlar mundarijasi butunlay o‘zgaradi. Kitobxonlik madaniyati shu tariqa shakllanadi.

Kitobxonlikni har kim har xil tushunadi. Birovlar vaqt o‘tkazish uchun o‘qisa, boshqa birovlar bir xil janr yoki mavzudagi (masalan, sarguzasht yoki urush haqidagi) asarlarga qiziqadi. Yana bir toifa kitobxonlarning esa alohida mehr qo‘ygan yozuvchilari (masalan, Ch.Aytmatov, E.Vohidov, A.Oripov, X.To‘xtaboyev) bo‘ladi. Ba’zilar faqat she’riy asarlarni sevib o‘qisalar, she’riyatga umuman ixlosi bo‘lmaganlar ham ko‘plab topiladi. Lekin har qanday holatda ham kitob mutolaasi shunchaki ermak bo‘lmay, uning zamirida ruhiyatimizdagi kemtiklarni to‘ldirishga chanqoqlik va taniqli bolalar shoiri Q.Muhammadiy ta’biri bilan aytganda, “odam va olam sirlari” bilan yaqindan tanishish, ruhan “tozarish” (Aristotel) ishtiyoqi yotadi...

Shunisi xarakterliki, bunday ishtiyoq asar mutolaasini yozuvchi bilan kitobxonning o‘ziga xos muloqoti darajasiga ko‘taradi. Zero, san’at, shu jumladan, so‘z san’ati kishilar o‘rtasidagi muomala-munosabat vositasi hamdir. “O‘tkan kunlar”ni o‘qish chog‘ida Otabek – Kumush – Zaynab taqdiriga bog‘liq muhabbat mojarolari-yu, Yusufbek hoji – Azizbek o‘rtasidagi davrning o‘ta keskin ijtimoiy muammolari ustidami, o‘ylaganda hamisha ko‘z o‘ngimizda buyuk adibning tiyrak nigohi va o‘ta mulohazakor qiyofasi gavdalanadi. Muallif timsolidagi suhbatdoshimizning teran aql-idroki, fahm-farosatiga tahsinlar aytamiz, har bir imo-ishorasiga quloq tutamiz, zarurat sezsak, bahslashamiz.

Yozuvchi – kitobxon muloqoti garchi erkin tarzda qurilsa-da, unda o‘quvchi manfaati ustun turadi. Chunki u kitob o‘qir ekan, albatta, bir maqsadni ko‘zlaydi. Binobarin, A.Oripov she’rlarini o‘qigan kitobxonning shoir bilan yuzma-yuz muloqotdan hissiyoti boyishiga shubha yo‘q. U lirik qahramon – muallifning qalb kechinmalarini o‘z kechinmalariga taqqoslaydi va tegishli xulosalar chiqaradi. Afsuski, yozuvchi – kitobxon muloqoti hamisha ham bir xil kechavermaydi. Yuzaki

suhbat, tabiiyki, ko‘zlangan natijani bermaydi.

Yozuvchi – kitobxon muloqotining samarali kechishi shu tariqa faqat muallif-suhbatdoshgagina emas, kitobxon-suhbatdoshga ham birdek taalluqli. O‘qiganlari yuzasidan mustaqil mulohaza yurita olmaydigan kitobxonni kitobxonlik madaniyatini egallagan deb bo‘lmaydi. Adabiy ta’lim faol kitobxonlikka tayanadi.

Yozuvchi – kitobxon muloqotining o‘ziga xosligi shundaki, bunda suhbatlashuvchi tomonlarning huquqlari bir xil emas. Kitobxon – ixtiyoriy, erkin suhbatdosh. U o‘ziga suhbatdosh tanlash huquqiga ega. Ammo yozuvchi timsolidagi suhbatdosh bunday qilolmaydi. Uning kitobxon o‘qiyotgan asari o‘zini qanoatlantirmasa, muloqotni to‘xtatib qo‘ya qoladi.

Kitobxonlik haqida gap ketganda, ko‘pchilik, odatda, nemis mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltiradi: “Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar. Buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim. Lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman”. Bundan: “Shunday bir ulug‘ zot 80 yil mobaynida kitob o‘qishni o‘rganmabdi-da”, degan jo‘ngina xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak.

Tarixdan ma’lumki, inson taraqqiyot yo‘lida erishgan darajasidan hech qachon orqaga qaytgan emas. Qadim ajdodlarimiz hatto tasavvur qilolmagan g‘aroyibotlar hozir ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lyapti. Demak, imkoniyatlarning cheki, orzu-umidlarning adog‘i yo‘q.

Qolaversa, Gyotening fikrini keltirish bilan kitob mutolaasining:

a) nihoyatda mashaqqatli (garchi mubolag‘a qilib aytgan bo‘lsa-da: butun umr davomida o‘rgana olmaganini eslang);

b) beqiyos sharafli (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqur anglay borgan, bilim doirasi kengayib, tushunchasi, dunyoqarashi o‘sgan, ma’naviy jihatdan yuksalgan va taqdir inoyati bilan o‘zi ham asarlar yozgan);

v) huzurbaxshligiga (aks holda, muttasil shug‘ullanmagan bo‘lardi) diqqatni qaratmoqchimiz.

Kitobxonlik ijodiy ish va u doimiy shug‘ullanishni, izchil mutolaa qilishni

taqozo etadi. Izchil mutolaa qilish tanlab o‘qishga, o‘qiganlarining mag‘zini chaqishga o‘rgatadi.

Asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini farqlash jonli muloqot natijasidir. Kitobxon ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi – o‘ylashga majbur bo‘ladi. Shu jarayonda xayolida asar voqeligini qayta jonlantiradi, qahramonlarning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘radi, muayyan xulosalar chiqaradi. Ko‘rinadiki, kitobxon ham o‘ziga xos ijod qiladi.

Asar voqealarini xayolda “qayta yaratish, yangi badiiy olam kashf etish”, avvalo, mulohaza yuritib o‘qishni, o‘qiganlarni esda saqlashni, demak, bosh qotirishni taqozo etadi. Chunki san’at asari shunchaki o‘qilmaydi. Shunchaki o‘qish sust mutolaa bo‘lib, arpa ekkan joydan bug‘doy kutish bilan barobar. Boshqacha aytganda, qimmatli vaqtni yelga sovurish bilan teng bunday mutolaa kitobxon uchun foydadan ko‘ra zarardir. Agar asar mutolaasini yozuvchi-kitobxon muloqotiga qiyoslasak, sust mutolaaning befoydaligi yanada aniq ko‘rinadi.

Aslida kitobxon-yozuvchi muloqoti san’at darajasiga ko‘tarilishi kerak va u ko‘p jihatdan kitobxonlik madaniyatining nechog‘li egallanishi bilan belgilanadi. Kitobxonlik madaniyati asar mutolaasi bilan jiddiy va izchil shug‘ullangan kishidagina shakllana boradi.

Xulosa qilganda, jamiyat tarqqiyotini unda yashaydigan avlodlar ma’naviy kamolotisiz, ma’naviy kamolot tarbiyasini esa kitobxonlik madaniyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham kitobxonlik ta’lim-tarbiya tizimida, xususan, adabiy ta’lim jarayonida alohida o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, u adabiyot o‘qitish metodikasining tub mohiyatini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тўхтабоев Х. Болалар адабиёти ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 1992 йил 15 февраль.

2. Асмус В.Ф. Вопросы теории и истории эстетики. – М.: 1968. – С. 231.

TIL VA ADABIYOT TA’LIMIGA YANGICHA YONDASHUVLAR YUZASIDAN MULOHAZALAR

Valijon Qodirov
Andijon davlat universiteti,
pedagogika fanlari doktori.

Ta’lim mamlakat iqtisodini, ijtimoiy hayotini modernizatsiya qilish, jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, davlatni har tomonlama taraqqiy toptirish borasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Sababi ham oddiy va tushunarli: “Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi” [1]. Shu bois ham keyingi yillarda umumta’lim maktablarida fanlarni o‘qitishda kutilgan samarani bermagan joriy o‘quv dasturlari o‘rniga ilg‘or mahalliy va jahon tajribalarini o‘zida mujassam etgan har bir fan bo‘yicha yangi shakl va mazmundagi Milliy o‘quv dasturlarini yaratishga kirishildi. Jumladan, Ona tili va Adabiyot fanlaridan ham mana shunday dasturlar yaratishga muvaffaq bo‘lindi. Adabiyotdan oldindan mavjud an’analar birmuncha takomillashtirilgan holda davom ettirilgan bo‘lsa, Ona tili fanidan joriy yondashuv – metodologiyadan voz kechilgan holda yangi Milliy o‘quv dasturi yaratildi, deyish mumkin.

Ona tili fanidan yaratilgan yangi tipdagi, ayni paytda tajriba xarakteridagi bu hujjat(lar to‘plami), tabiiyki, to‘kislikni da’vo qilmaydi (chunki birinchi urinishdan mukammal dastur yaratish amri mahol). Lekin u inson hayoti davomida hamroh bo‘ladigan to‘rtta asosiy kompetensiyaga: tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash va yozishga yo‘naltirilganligi bilan e’tiborga molik. Endi o‘quvchilarni maktabni bitirtirish yoki oliy o‘quv yurtiga tayyorlash maqsadida grammatikani yodlatish, qoidalar uchun misollar toptirish muhim bo‘lmay, kundalik hayotning til va muloqot bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayoni diqqat markaziga olinadi. Biz bu yerda Milliy o‘quv dasturi bilan tanishtirishni ko‘zlamaganmiz, buni istaganlar Respublika Ta’lim markazining saytiga kirib

tanishishlari mumkin. Maqsad – ana shu o‘zgarishlardan kelib chiqib, metodist olimlar, mutaxassislar tomonidan bajariladigan ishlar xususida fikr almashish.

Avvalo shuki, ayrimlar xavotir bilan qarshi olganidek, til ta’limida grammatikani o‘qitishdan voz kechilmaydi, lekin endi grammatika til sathlari kesimida muayyan sinflarda vertikal tarzda o‘qitilmaydi. Milliy o‘quv dasturi muhokamasida qatnashayotgablarning aksari yangicha yondashuvni yaxshi anglab yetmayotganliklari bildirayotgan fikrlaridan anglashimoqda. Shu bois respublika til va adabiyot mutaxassislariga turli shakl hamda vositalar bilan uning mohiyatini yetkazish lozim. Bunda televideniye, internet va matbuot imkoniyatlaridan foydalanish nazarda tutilmoqda.

Yangi o‘quv dasturi spiralsimon, ya’ni yangi ma’lumotlarni berish barobarida oldin o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga qaytib, ularni takrorlab, yangi bilimlar bilan uyg‘unlashtirish tamoyilida tuzilgan ekan, u yoki bu grammatik qoidalarni qay tarzda tushuntirish va qanday qilib nutqiy kompetensiyalarni shakllantirshga bo‘ysundirish, shuningdek, amaliy ko‘nikmalarni malakalarga va malakalarni kompetensiya darajasida shakllantirish yuzasidan izlanishlar, tajribalar, tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish darkor.

Shakllantirilishi ko‘zlanayotgan to‘rt nutqiy kompetensiyada uslubiyatni singdirish alohida yondashuv talab qilinadi. Qaysi sinfda bo‘lishidan qat’i nazar nutqiy layoqatda til birliklarini o‘rinli qo‘llash malakasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois 5-sinfdan boshlab o‘rganilayotgan fonetik va leksik birliklar, grammatik shakllar uslubiyati tadrijiy ravishda sinflar kesimida singdirib borilishi maqsadga muvofiq. Yuqori sinflarda uslubiyat haqidagi nazariy ma’lumotlar berilib, quyi sinflarda egallangan amaliy ko‘nikma va malakalar mustahkamlanishi to‘g‘ri bo‘ladi, bizningcha.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar til tabiati, ona tilining imkoniyatlari va xususiyatlari ham albatta tushuntirilishi, tushuntirilishi barobarida bularni ichki sezgi bilan, ilmiy dunyoqarash bilan his etishlariga erishish lozim. Bu boradagi nazariy ma’lumotlar qachon, qay tarzda va shaklda berilishi, ularni asosiy maqsad

bilan uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq izlanishlar olib borishni ham nazardan soqit qilmaslik tavsiya etiladi.

Adabiyot ta’limiga doir bir qator mulohazaga chorlovchi muammolarimiz bor, bizningcha.

Qozoqboy Yo‘ldoshev domla o‘tgan asr 90-yillarning o‘rtalarida chop ettirgan qo‘llanmasida tajalli nazariyasi adabiyot o‘qitishning metodologik asosi bo‘lishi to‘g‘risidagi fikrni o‘rtaga tashlagan edi [2;35]. Biz mumtoz adabiyot o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan monografiyamizda alohida faslni tajalli nazariyasi mumtoz namunalarni o‘qitish uchun metodologik asos bo‘lishi borasidagi mulohazalarimizni bayon etganmiz [3;72-84]. Hozirda adabiyot o‘qitish metodologiyasini yaratish masalasi ko‘ndalang turibdi. Agar bu ish amalga oshsa, respublikamizda adabiyot o‘qitish sifat va samarasiga jiddiy ijobiy ta’siri bo‘lur edi.

Keyingi vaqtlarda (aslida bu sal kam o‘ttiz yildan beri davom etib kelyapti) adabiy asarlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan maqola, turli xarakterdagi qo‘llanmalar e’lon qilinmoqda. Tahlil qilish deyilganda ularda asosan turli o‘yin shakllariga, mohiyati anglab yetib-yetilmagan usul va metod, texnologiyalarga murojaat qilish yetakchilik qiladi. Biz ularning qo‘llanishiga qarshi emasmiz, lekin hozirda aksar o‘qituvchilarimiz asar tahlili deganda shu kabi shakliy unsurlarni tushunmoqdalar. Tahlildan maqsad asar badiiyati, muallif mahoratini ochib berish orqali o‘quvchilarni adabiyotga haqiqiy ma’noda oshno qilish, mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ekanligi nazardan chetda qolib ketmoqda. Bunday ishlarda mualliflar asarlarni adabiy tur va janrlarga ko‘ra tahlil qilish yo‘l-yo‘riqlaridan bexabarliklari tufayli o‘zlarining tavsiyalarida nima qilish kerakligini aytadilar-u, lekin qanday qilish masalasi ochiq qolaveradi. Bu esa metodik tavsiyalar uchun birlamchi kutiladigan muammo sanaladi.

Yana bir jihat metodika yangicha yondashuv sifatida (ko‘pincha chet el tajribasi deb) taqdim etilayotgan qarash, fikr va usullar 15-20 yillar oldin respublikamizdagi yetakchi olimlar tomonidan aytilgan. Lekin nimagadir bu fikrlarni taqdim etayotganlar xorij olimlaridan ilgari o‘zimizning metodistlarimiz

tomonidan allaqachon bu qarashlar bayon etilgani haqida so‘z ochmaydilar. Sababi bizga qorong‘i. Aslida chetdan (ko‘pincha G‘arbdan) deb bilganimiz juda ko‘p metod va texnologiyalar ham ming yillar oldin Birinchi Uyg‘onish mutafakkirlari bo‘lmish ajdodlarimiz tomonidan ta’limga joriy qilinganini R.Ishmehammedov kabi olimlarimiz manbalar orqali aniqladilar [4]. Hatto biz G‘arbdan deb bilganimiz oliy ta’lim bosqichlarini Mirzo Ulug‘bek o‘z davrida tatbiq qilgani haqida ma’lumotlar bor: “adno” (quyi), “avsat” (o‘rta) va “a’liy” (yuksak) darajalari bugungi kundagi g‘arbcha nomlayotganimiz bakalavriyat, magistratura va undan keyingi bosqichlarga to‘g‘ri keladi [5;18].

Ona tili va Adabiyot fanlari bo‘yicha umumlashma takliflarimizni bildiramiz.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, amaliyot talablariga javob beradigan yangicha yondashuvlar asosida “Ona tili o‘qitish metodikasi” hamda “Adabiyot o‘qitish metodikasi” darsliklarini yaratish kerak.

Oliy ta’limda bo‘lg‘usi filolog-pedagoglar tayyorlashda Ona tili bo‘yicha avvalo talabalarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularni namuna bo‘ladigan darajaga olib chiqish hamda buni maktab ta’limida amalga oshirish metodikasi bilan qurollantirish; Adabiyot bo‘yicha esa badiiy tahlil malakalarini yuqori darajada shakllantirish va bu vazifani o‘qituvchi sifatida o‘quvchilarga o‘rgatish sirlarini singdirish professor-o‘qituvchilarning kundalik faoliyati mazmuniga aylanishi lozim.

Metodika borasidagi har qanday ishlarda tayaniladigan nazariy asoslar, amaliy tajribalar hamda mavjud adabiyotlar haqida so‘z yuritilganda avvalo o‘zimizda amalga oshirilgan ishlarni ilmiy xolislik bilan qayd etish, mazmun-mohiyatini ochiqlashga e’tibor qaratish lozim, so‘ng xorij haqida so‘z yuritilgani ma’qul. Bu ham ilmdagi millatparvarlikning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Har bir ishda, faoliyatda millat manfaatini ko‘zlash, milliy ruhiyatni yuksaltirishga intilish o‘zligini yo‘qotmagan har bir millat ziyolisining burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 30-

dekabrdagi yil yakunlari bo‘yicha Oliy Majlisga murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057

2. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

3. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш муаммолари ва ечимлар. Монография. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.

4. Ишмуҳаммедов Р., Мирсолиева М. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. https://kitobxon.com/

5. Xodjaev B. Maktabgacha ta’lim – yangi renessans pedagogikasining muhim komponenti sifatida. Andijon davlat universitetida “Maktabgacha ta’lim sohasida ta’lim samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari” mavzusida o‘tkazilgan respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. Andijon, 2021-yil, 23-aprel. 17-18-betlar.

LIRIK KECHINMANI O‘QUVCHIGA “YUQTIRISH” MAHORATI

Tozagul Matyoqubova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
tozagul_matyakubova@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada akademik shoir G‘afur G‘ulomning bolajon ota, insonparvar shoir sifatidagi faoliyatining she'rlaridagi ifodasi tadqiq etiladi. Unda shoirning farzandlariga bag‘ishlangan she'rlari badiiyati kuzatilib, ijodkorning muayyan kechinmani o‘quvchiga “yuqtirish” mahorati o‘rganiladi. Maqolada shoirning shaxsiy oilaviy ma’lumotlarni ham san'atga daxldor nozik ifodaga aylantira olgani haqida muayyan umumlashmalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *She’r, tuyg‘u, kechinma, ijodkor, badiiy detal, obraz, shoir, adabiyotshunoslik.*

Annotation. *This article examines the expression in the poems of the academic poet Ghafur Ghulam as a child-father, a humane poet. He follows the art of the poet's poems dedicated to his children and explores the artist's ability to "infect" the reader with special experiences. The article makes some generalizations that the poet was able to turn personal family information into a subtle expression of art.*

Key words: *Poetry, emotion, experience, creativity, artistic detail, image, poet, literary.*

Adabiyotshunoslikda shoirning muayyan she’r yaratilgan oniy kayfiyatiga yanada yaqinlashish: ijodiy fenomen asrori, ijod psixologiyasiga kirib borish

g‘oyatda muhim sanaladi. Zotan, **hech bir shoir ijodiyoti poetikasi uning dunyoqarashi, estetik ideali, sajiyasi, madaniy-ma'rifiy olami, ijodiy fikr-o‘ylari, hayotiy tajribasi, iste'dodu salohiyati yuzaga chiqish mexanizmidan xorijda o‘rganilmaydi.** Shu ma'noda, biz G‘.G‘ulom qalbidagi iztirobli tug‘yonlar bilan bir qatorda, uning dunyoqarashi, e'tiqod-maslagi, xalq udumlariga bo‘lgan inonchlari ham **ijodiy niyatiga ibtido bo‘lgani** xususida fikr yuritishimiz o‘rinlidir. Professor U.Normatov aytganidek: “*Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o‘rnini bosa olmaydi*” [Normatov, 2000: 98]. Bu fikrlar tasdig‘ini biz G‘.G‘ulomning farzandlariga atab yozgan bir qator she'rlari misolida kuzatishimiz mumkin.

Akademik G‘.G‘ulom ruhiyatida bashar va bashariylikka talpinish shu qadar kuchliki, u hatto farzandlaridan biriga Bashar deb ism qo‘ygan. Afsuski, shoirning o‘sha o‘g‘li tomdan yiqilib bevaqt vafot etgan. Ayriliq g‘ami qaddini dol qilgan ota azadorlikning uchinchi kuni o‘tgach, shikasta dil bilan qo‘liga qalam oladi va 1946-yil 28-martda *“Osmon to‘la yulduzlar, qani sening yulduzing”*, deb boshlanuvchi marsiya yuzaga keladi.

G‘.G‘ulom o‘g‘liga arabiy istilohda inson, odam, odamzod ma'nolarini anlatuvchi *“Bashar”* so‘zini ism sifatida tanlashdayoq, uning yurtga sodiq, olimu fozil inson bo‘lishini orzulagan. Chamasi, Bashar besh-olti yoshlarda bo‘lgan ko‘rinadi. Zotan, shoir: *“Soching o‘raylaridan kutar edim istiqbol”,* deya o‘z ushalmagan niyatlarini afsus va armon bilan eslaydi.

Ma'lumki, *“o‘ray”* bu – markaz demak. Odatda, Islom dini an'anasiga ko‘ra, yosh bolalar sochini olayotganda boshining tepa o‘ng qismida biroz soch qoldirishadi. Boshning markaz qismidagi bir o‘rim soch kokil yoxud haydar deyiladi. U ramziy ma'noda farzandning uzoq umr ko‘rishi va sog‘-salomat yurishiga bo‘lgan ezgu niyatni anglatadi. Zotan, kokil muqaddas joylarga atalib, bola yetti-sakkiz yoshga kirganida o‘sha joyga jonliq olib borib so‘yib, kokilni oldirishadi.

Otaning o‘z o‘g‘li Basharga kokil qo‘yishi ham bejiz emas. Biz shoirning qizi Olmos G‘ulomova bilan suhbatlashganimizda, bu o‘g‘il tug‘ma yurak kasali bilan dunyoga kelgani, G‘afur G‘ulom va Muharram aya uning sog‘ligidan doim xavotirda bo‘lishgani ayon bo‘ldi. Demak, kokil qo‘yilishida ham uning omonligi tilagi va kelajagiga bo‘lgan katta umidu e'tiqodiy ishonch mujassam. Bunga amin bo‘lish uchun she'rning mashinka nusxasi hoshiyasiga G‘.G‘ulom dastxati bilan bitilgan:*“Osmon to‘la, qani, soching, nahotki”* [G‘afur G‘ulom, 1984: 424], jumlasiga diqqat qaratish lozim.

Olmos G‘ulomovaning eslashicha, oilada Basharning barcha sho‘xliklari va erkaliklariga imkon berilgan. Buning asl sababi o‘yin-kulgi va erkaliklar bilan bolakay o‘z kasalligini unutsin va ehtimol butkul tuzalib ketsin, degan ilinj bo‘lsa ajab emas. She'rda shoir: *“Seni tomdan yiqitdi o‘zingdek sho‘x yuraging”,* deyishidan sho‘xliklar ketidan kelgan nogahoniy fojia sabab va oqibatlari ham oydinlashadi. Shubhasiz, hech kutilmaganda barcha orzu-umidlarning zavol topishi ota qalbini qattiq larzaga solgan.

Adabiyotshunoslikda ko‘pincha G‘.G‘ulom dunyoning ne-ne mintaqalarida butun bir xalq adabiyotining obro‘-e'tibori bo‘lib, baxtga to‘lib, jo‘shib- toshib yurgan daryodil shoir; davralarning to‘ri, bahs-mushoiralar qaynoq nuqtasida paydo bo‘luvchi haroratli qalb sohibi, hozirjavob inson sifatida talqin qilinadi. Ba'zan esa, uning bemisl sahovati-yu afandinamo tabiati ham eslatiladi. Bularning barchasi rost– ayni hayotiy haqiqat. Ammo, nazarimizda bu ko‘zguning bir tomoni xolos.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad G‘.G‘ulom haqidagi xotiralarida: *“Qanchadan-qancha safarlarda birga bo‘lganman. Yuzlab latifalar, hikoyalar eshitganman. Quvnagan, ruhan ezilgan onlarida yonida bo‘lganman. Aziz farzandidan judo bo‘lib, o‘kirib yig‘laganini, qiz uzatib, o‘g‘il uylantirgan saodatli daqiqalarini ko‘rganman. Qizalog‘ining sochiga lenta taqqanidan tortib, bolalarini, nevaralarini opichlab yurganlarini ko‘rganman”* [Said Ahmad, 1993: 5], deb yozadi. Zotan, xalq tarixi, adabiyoti va san'atidan mislsiz g‘urur tuygan, farzandlari hamda shogirdlari yutug‘idan behad quvongan G‘.G‘ulom talay ijtimoiy

muammolaru yo‘l qo‘yilgan xatolardan astoydil kuyinmasligi ham mumkin emas. Qolaversa, o‘zbekning qalbi keng ulug‘ shoiri jo‘n bir odam, ilojsiz bir banda sifatida kuzatilganida ham, zohiran o‘ta shaxsiyday tuyuluvchi tolesizlik qarshisida ruhan ezilmasligi, mislsiz yo‘qotishlardan so‘ngsiz iztirob og‘ushida qolmasligi mumkinmi? Shu ma'noda, S.Ahmad xotirlagan: “*Aziz farzandidan judo bo‘lib, o‘kirib yig‘lagan”* kezlarini eslashimiz, zinhor uning shaxsiyatiga soya solmaydi.

G‘.G‘ulomning yuqoridagi marsiyasi otaning norasida farzandi vafotidan so‘nggi qalb nidolari. Unda o‘g‘ilning sochi, qo‘li, kaftidagi chiziqlar, varragi bilan bir qatorda, sho‘x va to‘polonchi yuragi ham eslanadi. Muhimi, mehribon ota nazdida hatto o‘sha to‘polonchilik ham bolakayga yarashig‘lik ulkan bir fazilatdir. Ammo, sho‘rlik jonni omon saqlashga imkon bermagan narsa ham, aslida aynan o‘sha beg‘ubor yurakdagi jo‘shqin harorat, qaynoq hissiyotlar edi.

Demak, miqyosan olib qaralsa, farzanddan jisman ajralishgina emas, balki uning qaynoq qalb harorati va'da qilayotgan yorqin kelajak haqidagi shirin-shirin orzulardan judo bo‘lish ham ulug‘ yo‘qotish edi. Ta'kidlash o‘rinliki, shoirning: *“Bizning oilada ham bo‘lib o‘tdi qiyomat”,* deya dilini ochishidan u o‘zini bani bashar, ya'ni farzand dog‘ida kuygan barcha otalardan zinhor ajratmasligi anglashiladi. Otaning: *“Nahotki, men qalb bilan berolmadim harorat?”* tarzida o‘z-o‘zini taftish etishi zamirida uning bu fojiada o‘zini aybdor sanash tuyg‘ulari mujassam. Shunga qaramasdan, shoir butkul umidsizlanmaydi. U endi Basharning izlarini zamindan emas, balki balandlikdan, ya'ni osmondan izlaydi:

Osmon to‘la yulduzlar, qani sening yulduzing?

Osmon to‘la varraklar, qani sening varraging? [G‘afur G‘ulom, 1984: 302]

Anglashiladiki, yaratganga itoatkor shoir kechingan g‘amlar miqyosli tarzda samovot qa'ridan nisbatan pastroq ma'volarga qarab ina boshlaydi. Osmon bag‘ridagi yulduz va varrak detallari esa, yo‘qlik bilan uzviy bog‘lanib fojianing miqyosini yanada kuchaytiradi.

She’r tugallanmagan. Chunki, taqdirga tadbir yo‘qligini teran anglagan shoir yuragi bu fojiani yanada miqyosli tarzda ifoda etish, uni qayta-qayta eslashga dov

bermaydi. Illo, sobir bandaning yagona a'moli qazoga sabr, bugunga shukronadir. G‘.G‘ulom lirik qahramoni o‘zining qismatiga qarshi isyon qilmasligi bilan ahli mo‘minlar safida turadi. Darhaqiqat, bevaqt yo‘qotilgan o‘z jigaring haqida yozish mislsiz dard va iztirob bilan kechadi.

Taniqli o‘zbek shoiri Oybek lirikada fikr tuyg‘u va his bilan uyg‘un bo‘lgan yuksaklikni ko‘radi. Bu haqda u: “*Ko‘pgina kishilar lirikani faqat tuyg‘u va hisdan iborat deb o‘ylaydilar, bu tamomila noto‘g‘ri... qarashdir. Haqiqatda, fikriy mazmun ila bog‘lanmagan “mustaqil” tuyg‘u, his yo‘qdir. Shoir lirikaga fikr va tuyg‘ularini shunday biriktiradiki, natijada lirik yuksaklik vujudga keladi*” [Oybek, 1979: 79] – deb yozadi. Biz G‘.G‘ulom she'rlarida ana shunday “*lirik yuksaklik vujudga kel*”ganini ko‘pgina she'rlari misolida kuzatishimiz mumkin.

G‘.G‘ulom qizlaridan biriga Toshxon deb ism qo‘ygan. Bu ismda xalqimizning tug‘ilgan farzand metinday qotsin, boshi toshdan bo‘lsin, ya'ni bardoshi qattiq, umri uzun va toleyi porloq bo‘lsin, degan ezgu tilaklari mujassam. Ota suyukli qizchasi qayg‘u-g‘amdan yiroq, baxtiyor yashashini istaydi. Uning ko‘nglini o‘ksitmaslik, ko‘zlarida qayg‘u-g‘amning qatra yoshini ko‘rmaslikni tilaydi. Hatto go‘dakning erkalanib yig‘lashiga xos jarang ham shoir diliga qattiq ta'sir etadi. Shuning uchun darhol uni ovutishga shoshiladi. Zotan, bola yig‘isi shoirga himoyasiz va yetimona o‘tgan o‘z yoshligini eslatadi. Bu jihatdan “Ovutish” she'ri xarakterlidir:

Toshxon, yig‘lamoqlik bolalik haqqi,
Qoraroq bo‘ladi ko‘zing, yig‘lasang.
Mammangni sog‘inding, onangni chaqir,
Erkalik yig‘isi labangda jarang. [G‘afur G‘ulom, 1984: 321]

“Yig‘lamoq” fe'li turli vaziyat-holat va kayfiyatga ko‘ra: “*ko‘z yoshi to‘kmoq”, “piq-piq yig‘lamoq”, “iz-iz yig‘lamoq”, “aytib yig‘lamoq”, “qon yig‘lamoq”, “qaqshab yig‘lamoq”, “uvlamoq”, “ho‘ngramoq”, “chirqiramoq”, “o‘kramoq”* singari turfa shakllarda qo‘llaniladi. Onasi Muharram ayani sog‘inib, go‘yo undan “arazlab” erkalik qilayotgan go‘dak – Toshxon ruhiy holini bayon qilayotgani uchun G‘.G‘ulom she'rga fe'lning “yig‘lamoq” shaklini tanlaydi. Ota qizini ovutarkan,

“Yig‘lagan bolaning ko‘zlari qora bo‘lar”, tarzidagi xalqona yupatishdan o‘rinli foydalanadi. Norasida qizchani yig‘idan to‘xtatish va uni tinchitishga har qancha urinmasin, buni eplolmagan er tezda ayolini yordamga chaqiradi. Bu hayotiy detal orqali ifodalanayotgan vaziyat-holat hissiy idrok qilish mumkin bo‘lgan tarzda gavdalanadi va konkretlashadi.

Darhaqiqat, ko‘z o‘ngimizda o‘jarlik bilan yig‘layotgan bola va uni ovutishga astoydil urinib, ayollar uchun jo‘n yumush bo‘lgan shu ishni uddalay olmayotgan ota siymosi namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda personajning gap-so‘zlaridan anglashiluvchi imo-ishoralar (jest), tana holati (poza) va xatti-harakatlari detal vazifasini bajarib kelgan. Zotan, ularning hammasi birlashib inson obrazini gavdalantirgan. Badiiy voqelik to‘laqonli va aniq his etiladigan darajada jonli tasvirlangan.

Jovdirab qarayotgan najottalab go‘dakning mo‘ltirashi, atrofiga alanglab kimnidir izlashi ota qalbiga bezovtalik tuyg‘usini olib kiradi, uning yuragida ezg‘in hislar uyg‘otadi. Ammo, tuyg‘ularini sezdirmaslikka talpinayotgan otaning shoirona sohir qalbi qizining ko‘z yoshlarida quyosh aksi, shabnam tiniqligi va yoqut jilosini ko‘rishga qodir. Zotan, yoqut, dur, marvarid ham aslida qimmatbaho toshlardir. Ayni she'r Toshxon haqida ekan, shoir barcha ziynatlangan jilvakor buyumlar asosida tosh mavjudligini ham nazardan qochirmagan:

Kulib turar ekan mo‘ltiradi yosh,
Jo‘rttaga bu ko‘zda aks etib quyosh.
Seni ovutmakchi bo‘ldik, qizginam,
Yoqut qirrasidek labingda shabnam,
Mammangni sog‘inding, onangni chaqir [G‘afur G‘ulom, 1984: 321].

Farzandini ovutishga talpinayotgan ota ko‘nglida yuksak mehr-muhabbat uyg‘onib, ulug‘ mamnuniyat bosh ko‘taradi. Zotan, bag‘riga irg‘anib bosh qo‘ygan go‘dak uning diliga shukronalik hissini olib kiradi va bu tuyg‘udan otaning o‘zi ovunadi:

Ovutmak bo‘ladi, ovungan ko‘ngil,

Bag‘rimga irg‘anib, shuncha qo‘yding bosh.
Bir emas, ikkovlab urar edi dil,
Kichkina falakda bir qo‘sha quyosh,
O‘ksuklikdan uzoq sangin duxtarim. [G‘afur G‘ulom, 1984: 321]

Darhaqiqat, odam bolasining hayotida ikki dil bir-biriga hamohang tepgan lahzalardan go‘zalroq, faraxliroq onlar bo‘lmasa kerak. Chunki inson qalbi shunday mo‘jizaviy mikroolamki, u barcha olamlar: makro va megadunyolarni o‘z bag‘riga zarra yanglig‘ joylashtirishga qodir. G‘.G‘ulom ana shu haqiqatni anglagan, “kichik falakda bir qo‘sha quyosh”ning harorati bilan kitobxon ko‘nglini ilitmoqni tilagan. Shoir bu ulug‘vor tuyg‘u na millat, na makon, na zamon tanlamasligiga ishora qilganday, she'r finalida “Toshxon qizim” emas, balki “sangin duxtarim”, deya erkalaydi. Illo, “sang” – bu tosh bo‘lib, sangin duxtarim mohiyatan, Toshxon qizim demakdir.

G‘.G‘ulom muazzam Sharq ma'naviyati ulug‘ naslining davomchisi, bolajon ota va bir etak nabiralarga suyukli bobo, insonparvar shoir sifatida o‘z farzandlari va nevaralarini yuksak darajada e'zozlamaganida u XX asr o‘zbek she'riyatining gumanisti maqomiga ham yuksalmagan bo‘lardi. Darhaqiqat, shoir o‘z bitiklari matnini o‘ta shaxsiy ma'naviy-ruhiy kenchinmalar hisobiga emotsional-hissiy jihatdan to‘yintiradi. U oilaviy ma'lumotlarni ham san'atga daxldor nozik ifodaga aylantirib kitobxonda muayyan kayfiyat hosil qilish – kechinmani o‘quvchiga “yuqtirish” ga muvaffaq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 98 b.
2. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 14-tom. –T.: Fan, 1979. – 79-b.
3. Said Ahmad. Nazm chorrahasida. G‘afur G‘ulom haqida hikoyalar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –T.: 1993. – B. 5.
4. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984.

ADABIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH

Saodat Kambarova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
katta o‘qituvchisi, ped. fan. dok. (PhD)
saodat7373@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni ilmiy ijodga qiziqtirish yo‘llari xususida so‘z yuritiladi. O‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini “Boburnoma” asarini o‘rganish, jumladan, Hindiston o‘lkasining nabotot olamiga xos xususiyatlarni qiyosiy tadqiq etish misolida tashkil qilish masalasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *muammo, ilmiy muammo, o‘quv muammosi, bilish faoliyati, tadqiqot, tadqiqotchilik ko‘nikmasi, qiyoslash.*

Annotation

The article discusses ways to increase the coefficient of research in high school students, the interest in scientific creativity. The issue of teaching, living and organizing the work “Boburnoma” on the example of comparative implementation of the problems of the plant kingdom of Indian teachers is covered.

Key words: *problem, scientific problem, learning problem, cognitive activity, research, research skills, comparison.*

Qiziqish va kuzatuvchanlik tadqiqotchilikning ilk nishonasidir. Yuqori sinf o‘quvchilari narsa-predmetlar, yon atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning xususiyatlari anglab yetsalar ham, ularning mohiyati yuzasidan asosli xulosa chiqara olmaydilar. Mana shunday qarama-qarshilikni bartaraf etish tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yishga zamin yaratadi. Umumta’lim maktablari yuqori sinf o‘quvchilarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda *ilmiy tadqiqot* bilan *o‘quv tadqiqoti* tushunchalari o‘rtasidagi farqni aniqlab olish maqsadga muvofiq. Rejalashtirilgan ish hajmi, yangiligi va muddati ular o‘rtasidagi farqni oydinlashtiradi. Binobarin, ilmiy tadqiqotda obyektiv ilmiy muammoga yechim izlansa, o‘quv tadqiqotida subyektiv, ya’ni o‘quvchining o‘zi yangilik deb bilgan ilmiy muamomoning hal etilishi nazarda tutiladi. Jarayonda qo‘yilayotgan ta’limiy muammo o‘quvchilarda mavjud bilim, tajriba va qiziqishlariga mos holda qo‘yilishiga e’tibor qaratilmasa, o‘quv muammosi hal qilinmay qolishi muqarrar.

Mazkur muammo ta’limda o‘z yechimini topgan bo‘lsa ham o‘quvchi uchun yangilik sanalgan jihatlarni qayta kashf qilishiga imkon yaratiladi.

I.Rajabovaning ta’kidlashicha, o‘qitish jarayoniga ilmiy tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish o‘quvchilar bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yishning yuqori bosqichi sanaladi [Rajabova, 2013: 28]. Bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yish o‘quv muammosini qiziqarli tarzda qo‘ya bilish va ta’limni hamkorlikda olib borish tamoyiliga uzviy bog‘liq bo‘lib, bular o‘z navbatida o‘quvchidan individuallik, ijodiylik, faollik va tashabbuskorlik talab etadigan mustaqil ish shakllarini taqozo etadi. Ularni bajarish usullarini o‘quvchining o‘zi tanlashi, takomillashtirishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi, baholashi va ma’lum natijalarni qo‘lga kiritishi bilan xarakterlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida o‘quvchilarni ilmiy tadqiqotchilikka yo‘naltirish alohida o‘rin tutadi. Bu borada ensiklopedik olim Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, xususan, “Boburnoma” asari o‘tmish ajdodlarimiz turmush tarzi, intilishlari, e’tiqodi va a’mollarini o‘quvchi tasavvurida jonlantirishi, fanning turli sohalarini qamrab olish nuqtayi nazaridan o‘quvchilarni izlanishlar olib borishga qiziqtiruvchi muhim manba bo‘la oladi. 10-sinfda shoir ijodini o‘rganish masalasiga “Adabiyot” o‘quv dasturida quyidagicha yondashiladi: “Bobur – buyuk nosir. “Boburnoma” – o‘zbek mumtoz adabiyotining nodir namunasi, uning tarix, tabiatshunoslik, jug‘rofiya, elatshunoslik, adabiyot, va san’at tarixiga oid manba ekanligi. “Boburnoma” – memuar asar. “Boburnoma”ning ilmiy-ma’rifiy hamda badiiy qiymati. Badiiy adabiyotda Bobur obrazi” [Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida, 2017: 38].

Dasturda o‘rganilishi belgilangan bandlar keng qamrovliligi sabab ular ichidan aniq bir yo‘nalishni tanlash maqsadga muvofiq bo‘lib, bu nimani, nima maqsadda va qanday qilib o‘rganish masalasiga chuqurroq yondashishni nazarda tutadi. E’tiborlisi shundaki, muallifning Hind o‘lkasi geografik o‘rni, chegaralari, o‘simlik va hayvonot olamini sinchkovlik bilan o‘rganishiga doir masala tadqiqot

maqsadi, yo‘nalishi va mohiyatini rejaga muvofiq izchil bayon etish, yangi g‘oyalar, dalillar bilan isbotlash, asosli xulosalar chiqarishda muhim omil sanaladi. Tadqiqotni loyihalashtirish muayyan vaqt oralig‘ida Boburning tabiatshunos sifatidagi faoliyatiga doir axborotlar to‘plash, izlanishlar olib borish va natijalarini taqdim etish asosida amalga oshiriladi. Loyihalashtirish faoliyati quyidagi bosqichlardan iborat:

I. O‘quvchilar uchun uslubiy ko‘rsatmalar. 1. Tayyorlov bosqichi:

1.1. Loyiha mavzusini aniqlanadi, dolzarbligi asoslanadi, hal qilinishi zarur bo‘lgan muammo shakllantiriladi. Tadqiqot mavzusi o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki o‘quvchilar tomonidan tanlanishi mumkin. Topshiriq butun sinf oldiga qo‘yiladi, o‘quvchilar uni jamoa bo‘lib yoki individual tarzda bajarishlari belgilab olinadi. Bunda adabiyotshunoslik, tabiatshunoslik, tarix, estetik yoki axloqiy masalalar bo‘yicha ijodiy xarakterdagi mavzular ko‘zda tutiladi.

“Boburnoma”ning asosiy qahramoni muallifning o‘zi. U ishtirokchi sifatida shaxsan ko‘rgan, guvohi bo‘lgan voqealarini kitobxonlarga yetkazishda hikoyalash yo‘lidan boradi. Mana shu jarayonda o‘quvchi ko‘z o‘ngida uning dunyoqarashi, didi, xarakter xususiyatlari, yaqinlari, atrofidagi odamlarga, hayvonot va nabotot olamiga munosabati yaxlit holda gavdalanadi. Ijodkorning ayrim sohalarga xos ilmiy yondashuvlarini o‘rganish tadqiqot mavzusining “Boburnoma”da nabotot olamiga doir qiyosiy qarashlar (Hindiston o‘lkasi misolida)” tarzida qo‘yilishiga asos bo‘ladi. Zero, tadqiqotning amaliy ahamiyati va natijalari mavzuning to‘g‘ri tanlanishidan boshlanadi.

“Boburnoma”dagi voqea-hodisalar, tabiat, hayvonot olami, tog‘ va daryolar inson hayoti bilan uyg‘unlikda chiziladi. Bu qiyoslashlar zamirida tabiat in’om etgan ne’matlarning inson hayotidagi ahamiyati o‘zining ilmiy tasdig‘ini topgan. O‘quvchilarni atrofimizdagi har bir narsa-hodisaga, o‘simliklar va hayvonot olami sir-sinoatlariga nisbatan sinchkov nazar bilan qarash, tabiatni asrash, bunyodkorlik ruhida tarbiyalash masalasi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning mavjudligi uning yechimiga doir bilimlarni izlab topishni talab etadi. Shu bois Boburning ziddiyatlarga to‘la murakkab hayoti davomida hatto kichik bir detalni ham e’tibordan chetda qoldirmagan nozikta’b va teran nigohli kuzatuvchiligini dalillash tadqiqot muammosini shakllantirishga asos bo‘la oladi. Muammo yechimida butun umr ko‘ngil pokligi va yaratuvchanlik ishtiyoqi bilan yashagan sohir qalb egasining donishmandona qarashlarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

1.2. Loyiha maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilanadi.

Asardan Boburning botanik sifatidagi faoliyatiga doir faktlarni o‘rganish tadqiqot ishining maqsadini shakllantiradi. Bu maqsadga erishishda o‘quvchilar oldiga “Boburnoma” asarini chuqur o‘rganishga doir vazifalar qo‘yiladi. Mazkur vazifalar “Boburnoma”dan nabotot olamining yashirin sinoatlari ko‘z ochgan lavhalarni aniqlash va ularga munosabat bildirish shaklida amalga oshiriladi. Loyiha obyekti sifatida “Boburnoma”gi nabotot tasviri, xususan, Hindiston o‘lkasi o‘simliklarining xususiyatlarini o‘rganish jarayoni belgilanadi. Muallifning kuzatuvchilik va hikoyachilik mahoratini o‘rganish mazmuni, shakl, metod va vositalari loyiha predmetini tashkil etadi.

1.3. Loyihalashtirish faoliyati turlari, usul va vositalari tanlanadi. Tadqiqotchilik faoliyati ta’limning izlanish (evristik) va tadqiqot metodlari hamda ular tarkibidigi usullar asosiga quriladi. Qo‘yilgan muammo yuzasidan o‘quvchilar tomonidan darslik, boshqa o‘quv qo‘llanmalardan Boburning tabiatshunos sifatidagi faoliyatiga doir materiallar to‘planadi, matn bilan ishlashda mumtoz asarlarni o‘rganishga doir lug‘atlar bilan ishlanadi, fikrlarini asoslashda “Boburnoma”dan ko‘chirmalar olinadi, ishga tanqidiy yondashiladi. Qiyosiy o‘rganish asosida xulosalar chiqariladi.

1.4. Loyiha mavzusiga oid adabiyotlar bilan tanishiladi. “Boburnoma” asari, ijodkor hayoti va ijodiga doir ilmiy maqolalar mavzu uchun zarur axborot manbayi bo‘la oladi. Shuningdek, Xalqaro Bobur fondi tomonidan nashr etilgan

“Boburnoma. Miniatyuralar” kitobi ham uning tabiatshunos sifatidagi mahoratini yoritishga yordamchi vosita vazifasini o‘taydi.

2. Tadqiqot jarayonini rejalashtirish bosqichi. *2.1. Izlanish “maqsad → vazifa → natija” rejasi ketma-ketligida olib boriladi.*

Loyiha bajarilishining ish rejasi qanday bo‘lishi kerak? Bunda topshiriqning sodda yoki murakkabligiga ko‘ra ma’lum vaqt belgilanadi. O‘quvchilar imkoniyatlari doirasida vazifalar taqsimlanadi. Vazifalar quyidagilardan iborat:

a) asardan “Vaqoyei sanai isno va salosina va tisa’ mia” – “To‘qqiz yuz o‘ttiz ikkinchi (1525-yil) voqealari”, ya’ni Boburning Hindistonga yurishlariga doir voqealar aks etgan matn bilan yaqindan tanishish;

b) matndan Hind mamlakati nabotot dunyosining bir-biridan farq qiluvchi jihatlarini belgilash;

v) Boburning nabotot olami haqidagi qiyosiy qarashlarini o‘rganish va tahlil qilish;

g) masalaga tanqidiy ruhda yondashish, o‘z fikrlarini asoslash, tizimlashtirish va xulosalash.

d) davr va makon tasvirini qiyoslash va h.k.

III. Loyihani bajarish bosqichlari. *3.1. Mavzuga tegishli zarur ma’lumotlar to‘planadi, o‘rganiladi, tahlil qilinadi, tizimlashtiriladi va xulosalarga kelinadi.* Yaxshi ayonki, yosh Bobur taqdir taqozosi bilan tug‘ilgan yeridan bosh olib ketishga majbur bo‘ladi. U yurishlari davomida shahar, qishloq va viloyatlarning tabiat manzaralariga alohida e’tibor bilan qaraydi hamda bir-biridan mutlaqo farqlanuvchi notanish zamin o‘simliklari va hayvonot olamining betakrorligini mohir rassomdek jonlantirishga intiladi. Tasvirda qiyoslash usulidan foydalanadi. Zero, qiyoslashga oddiy hol, ya’ni kishining o‘zganikini o‘zinikini bilan solishtirish, noma’lum jihatlarga oydinlik kiritishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji deb qarash mumkin bo‘lsa-da, mohiyatan ilmiylikka asoslanish zarurligini unutmaslik darkor.

Hindiston tuprog‘iga qadam qo‘yar ekan, Bobur o‘lkadagi birorta ham yaratiq va hodisalarni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi: *“Bizning viloyatlarga boqa*

o‘zga olamedur. Tog‘ va daryosi va jangal va sahrosi, mavozi’ va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘uri va yeli borcha o‘zgacha voqe bo‘lubtur [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 250].

Muallif zoolog sifatida o‘quvchiga Hind yerining o‘ziga xos hayvonot olami haqida boy ma’lumot beradi: *fil, kark, sahroyi govmish, nilagov, ko‘tahpoy, kiyik, maymun, nil, nul* kabi yovvoyi hayvonlar; *tovus, to‘ti, shorak, lo‘cha, durroj, pul-pakor, sahroyi tovuq, chalsiy, bo‘dana, xarchal, charz* kabi qushlar; *soras, manik, laklak, o‘rdak, zumaj, sor, akka; sheri obiy, sepsor, xuki obiy, karyol, kakka* kabi ko‘plab quruqlikda va suvda yashovchi jonzotlarning morfologiyasi va yashash tarzini havola qiladi. *Gilahriy* nomli sichqonning faqat daraxtlardagina yashashi, daraxtlar ustida balanddan pastga tomon hayratlanarli darajada tez va chaqqon yugurishi; *“jangaliy – “changalzor to‘tisi”* yoki *shorak* nomli qushlarning gapirishga o‘rgatilishi; ikki qulog‘ining to‘g‘risidan ikkita suyak chiqib turadigan *kakka balig‘i*dan yoqimli ovoz kelishi, suv yuzida yetti-sakkiz qari yugura oladigan *baqalar* tasviri o‘ta maroqli bo‘lib, o‘quvchida alohida izlanishlarga moyillik uyg‘otadi.

Hindiston zaminining nabotot olami turfaligi kitobxon qiziqishini oshirishi tabiiy bo‘lib, asar tilining sodda va tushunarliligi e’tiborni tortadigan yana bir omildir. O‘lka nabotot olami *anba* deb nomlanuvchi meva tasviridan boshlanib, *kayla, anbuli, mahva (gul chikon), kirni, joman, kamrak, qadxil, badhal, biyrt (kunor), karun, panyola, gular, omila, chirunchi, xurmo, norgil, tor* kabi ko‘plab manzarali va mevali daraxtlar, ularning xususiyatlari, shuningdek, qo‘llanilishiga doir ma’lumotlar keltirilishi bilan davom ettiriladi.

Fikr daliliga *norgil (nolir)* mevasini ham tanovvul qilish, ham qurilish ashyosi sifatida ishlatish mumkinligi misol qilinganligini ta’kidlash o‘rinlidir: *“daryodagi jihozlarning va kemalarning tanobini ushbu norgilning po‘stidin qilurlar emishlar. Kemalarning daralarini ham muning ipi bilan tikar emishlar... Mag‘z bog‘lardin burun norgilning ichi suv bo‘ladur. Bu tushukni teshib, ul suvni ichadurlar. Mazasi*

yamon emas, go‘yokim xurmo panirini suv qilibturlar” (Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 262).

Asarda subtropiklar guruhiga mansub o‘simlik va mevalar tasviri o‘quvchini Boburning ilmiy fikrlashi, keng mushohadasi va o‘ta sinchkovligidan ogoh etadi. Jumladan, *noranj (apelsin)* mevasi haqida hikoya qila turib muallif uning janubiy Afg‘oniston va Hindistonning qaysi viloyatlarida uchrashiga to‘xtaladi. Meva navlari, ularning tarqalish hududlari va xususiyatlariga doir qiyosiy ma’lumotlarni keltiradi. Jumladan, *“Noranj Lamg‘onotta va Bajur va Savodta ko‘p bo‘lur va xo‘b bo‘lur. Lag‘monot noranji kichikroq va kindiklik bo‘lur, bisyor latif va nozuk va serob bo‘lur. Xuroson navohisining noranjiga hech nisbat yo‘qtur. Nozuklugidindurkim, Lag‘monottin Qobulg‘achagakim, o‘n uch-o‘n to‘rt yig‘och bo‘lg‘ay, kelturguncha ba’zi noranjlar xarob bo‘lur, Astrobod noranjini Samarqandgakim, ikki yuz yetmish ikki yuz sekson yig‘och bo‘lg‘ay, eltarlar. Terisining qalinlig‘idin va kam oblig‘idin oncha xarob bo‘lmas. Bajur noranjlarining ulug‘lig‘i bihicha bo‘lur, suvi ko‘ptur va o‘zga noranjlarning suvidin turshroqtur. Xoja Kalon dedikim, Bajurda ushbu jins noranjning bir daraxtidin olib sanaduk, yetti ming chiqdi”* (Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 263) deya har bir hududga mansub noranjning farqli tomonlarini ko‘rsatadi. Bu esa o‘sha davrdagi savdo-sotiq, mahalliy aholining uzoq hududlarga mevaning qaysi navidan tanlab jo‘natish imkoniyatini ham anglatadi. Birgina noranj mevasi bilan bog‘liq yuqoridagi ma’lumotlarning o‘ziyoq muallifning iqtisod, botanika, geografiyaga oid bilimlarini baholashning bir o‘lchovidir. Keyingi tasvirlarda muallif noranj daraxti va mevasiga o‘xshash *limu* (limon) va *turunj (sitron)* kabi mevalar ta’rifiga o‘tadi. O‘lkada *limu* mevasining ko‘p uchrashini, hajmi tuxumcha kelishini, ildizini zaharlangan kishi qaynatib ichsa, ziyonini daf qilishini ta’kidlaydi. (Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 263).

Turunj mevasini tavsiflashda uning nomlanishidan boshlab (Bajur va Savod eli *boling*, Hindistonda *bajuriy* deb atalishi), navlari (ikki xil: chuchuk va bemaza), istemolga yaroqliligi, ko‘rinishi, hatto po‘stlog‘idan murabbo tayyorlanishigacha

sifatlaydi: *“Sharbati bisyor xushmaza va xushta’m bo‘lur. Turunjning ulug‘ligi xisraviy qovuncha bo‘lg‘ay. Po‘sti qutur-qutur va nohamvordur. Uchi inichka va tumshuqliq bo‘lur. Turunjning rangi noranj rangidan sarig‘rog‘dir. Daraxti tanalik daraxt bo‘lmas, kichikroq bo‘lur. Va buta-buta bo‘lur, bargi noranj bargidin ulug‘roq bo‘lur”* (Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 263).

Albatta, voqealar rivojida kitobxonning navbatdagi mevalar xususiyatlariga qiziqishi ortib boradi. *Sangtora* mevasi tasvirida ham Bobur qiyoslash san’atidan chekinmaydi. Daraxtning yirikligi, tanasi o‘rik daraxtichalik, barglari noranjniki, rangi va vazni turunjnidekligini, terisi silliq, mevasi nordon bo‘lsa-da, sharbati lazzatli va xushta’mligini tilga oladi: *“bu limudek muqavviyi me’dadur, noranjdek muz’if emas”* (Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 263). Tasvirdan sangtora mevasi kishi me’dasiga quvvat beruvchi ne’matligi ham ayon bo‘ladi. Galdagi qiyoslarida Bobur *galgal limu, chanbiriy, sadofal, amradpal, karna, amalbed* kabi noranjsimonlarning biologik xususiyatlariga ham alohida to‘xtalib o‘tadi.

Boburning qiyoslashdagi individualligi o‘quvchi e’tiborini tortadigan qiziqarli va muhim ma’lumotlarni umumlashmalar tarzida bera olishida ayonlashadi. Masalan, *amalbed* noranj va limu mevalari bilan qiyoslanar ekan, ular o‘rtasidagi farq boshqa hech bir mevalarda kuzatilmasligi bilan o‘zgachaligini e’tirof etadi. Amalbedning xususiyati yuqorida tilga olingan birorta ham mevada takrorlanmasligiga o‘quvchi diqqatini tortadi: *“Andoq dedilarkim, ignani muning ichiga solsalar erir, turshlig‘idinmu ekin yoki xosiyatinmu ekin. Turshlig‘i noranj va limucha bo‘lg‘ay”* (Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 264).

E’tiborlisi shundaki, Bobur amalbedni kechroq uchratganiligini ta’kidlashi mazkur mevaning kam uchrashi va noyobligiga ham ishoradir: *“bu uch yildin beri emdi nazarg‘a keldi* (Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 264).

Tasvirlarda aksariyat mevalarning haddan ziyod shirinligi, nordonligi yoki achchiqligi ko‘ngilni aynitishi haqida so‘z borgan. Bu jihatlar o‘quvchida mevalarning inson organizmiga qay darajada ta’sir qilganligi haqidagi savollarni keltirib chiqaradi. Xususan, amalbed mevasining ignani eritish darajasidagi

xususiyati uning iste’molga yaroqlilik borasidagi fikrlarini charxlaydi. Asarda *josun, kanir, kiyura, yosuman* kabi gullar; *tobiston, ashkol* va *zimiston* kabi uch fasl xususiyatlariga doir chizgilar nabotot olami tasviriga yakun yasaydi.

Boburning tasvirdagi mahoratiga baho berar ekan, adabiyotshunos olima D.Hoshimova muallifga xos qiyosiy yondashuvlarni “soddadillik bilan qabul qilish emas, uni o‘rganish, har qanday fikrni aql tarozisi bilan o‘lchab, keyin xulosa chiqarish” [Hoshimova, 2010: 32] zarurligini ta’kidlashi bejiz emas. Zero, ajdodimizning har bir so‘zi zamirida o‘tkir nigoh, teran tafakkur, zargarona ifoda, eng muhimi, aniq va tadqiq etishga loyiq faktlar mujassamligini unutmaslik zarur. Haqiqatan ham, “Boburnoma”da keltirilgan tasvirlar shunchaki ko‘rgan-kechirganlar tarzida emas, balki oddiy kitobxonini ham bilimlarni qiyosiy o‘rganish orqali ularga xoslikni aniqlash va chegaralay olishga yo‘naltirishi nuqtayi nazaridan qimmatlidir.

3.2. Tadqiqot natijalari belgilangan hajmdagi tayyor ko‘rinishga – referat holiga keltirilib rasmiylashtiriladi.

IV. Loyiha taqdimotiga tayyorlanadi va himoya qilinadi. *4.1. Taqdimot. 4.2. Loyiha himoyasi. 4.3. Baholash.* Mudom sog‘inch va diydor ishqida yongan shoirni ona tuprog‘ining yoqimli isi, qaqroq sahrolarining qaynoq tafti, havosining safoligi, suvlarining zilolligi, qushlarining yoqimli nag‘malari-yu mevalarining totli ta’mini o‘zga yurt ne’matlaridan ham tuyish istagi hatto endi bosh ko‘tarayotgan giyohni ham ko‘zdan qochirmasligiga majbur etgan bo‘lsa ajab emas. Shu sababli Hind zaminining har bir go‘shasida Movarounnahr vilotlaridagi kabi go‘zal chamanlar, so‘lim bog‘lar, oqar suvli hovuz va ariqlar – mudom o‘z yurtini eslatib turuvchi maskanlar barpo ettirdi. Muattar iforli gulu chechaklar bilan firdavsmonand o‘lkaga aylantirdi. Demak, tabiatan qiziquvchanligi va sergakligi uyg‘unlashib, yurt va yaratuvchanlik ishqida yongan Boburning intellektual imkoniyatlari cheksizligini yanada yorqinlashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, tadqiqotda belgilangan vazifalarga doir yechimlarni taklif qilish imkonini beradi.

V. Loyihalash ishi yuzasidan hisobotga tayyorgarlik bo‘yicha yo‘riqnoma. *5.1. Muammoni asoslash.* Izlanish faoliyati mavzuga taalluqli kichik bir detalni ham unutmaslikni, manbalarni chuqur o‘rganib qiyoslashni, tahlilga tortilgan obyektdagi har jumlaga e’tibor bilan yondashishni, noma’lum jihatlaridan muayyan yangiliklar topishni va atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi. Quyosh, tuproq, suv, iqlim va shu kabi tabiiy omillar masalaga oid xoslikni, tahlilga tortilgan mavzuga oid masalani asoslash imkonini beradi. Tasvirlardagi obyektlar bilan bog‘liq ma’lumotlar zamirida muallifning nafaqat shaxsiy kuzatishlari, balki qanchadir vaqt mobaynida mahalliy aholining turli qatlamlari yoki har xil kasb egalari bilan bo‘lgan suhbatlar, surishtirishlar mujassamligini ham sezish mumkin. Shuningdek, yosh bo‘lishiga qaramay Boburning Movarounnahr o‘lkasi topografiyasi, ob-havosi, aholisi, xalqning urf-odatlari, o‘simliklar va hayvonot olamini diqqat bilan o‘rganganligi, keyinchalik Xuroson, Afg‘oniston va Hindistondagi kuzatishlari davomida qiyosiy foydalanganini ta’kidlash joiz. Bugungi kun kitobxoni ham asarni qiynalmasdan o‘qiy olishini esa asar tilining jozibadorligi va tushunarligiga bog‘lash mumkin. Bu ham ijodkor mahoratining yana bir qirrasidir.

5.2. Xulosalarni bayon etish. Aytish mumkinki, “Boburnoma” bugungi kunda ham ilmiy-ma’rifiy ahamiyatga memuar asardir. Lekin asrlarlar davomida tabiiy yoki inson omilining ta’siri tufayli joy nomlari, hayvonot va nabotot olamidagi o‘zgarishlar ayrim ma’lumotlardagi aniqlikka putur yetkazishi mumkinligini ham unutmaslik joiz. Bu esa masalaga obyektiv yondashish zarurligini taqozo etadi.

5.3. Loyiha maqsadiga erishilganlik, natijalarni izohlash. 5.4. Loyiha bo‘limlari mazmunini ifodalash. 5.5. Vazifalar yechimi va olib borilgan ishlarni ko‘rsatish. 5.6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish, ilovalarni keltirish. Demak, har qanday loyiha mavzuga bog‘liq bo‘lmagan holda yagona tartibda tuzilishi va barcha bosqichlarda natija aniq ko‘rsatilishi majburiydir. Referat tayyorlash jarayonini loyihalashtirishning afzalliklari o‘quvchi mavzuni o‘rganish jarayonida muammoning mohiyatini ochib berishga kirishishida, g‘oyalarni

tizimlashtirib, tartibga solishida ko‘rinadi. O‘quvchi o‘z aspekti doirasida predmet, hodisa va tushunchalarni tekshiradi, qiyoslaydi, zarur mezonlarni ishlab chiqishga harakat qiladi.

Xulosa qilganda, o‘quvchilarning izlanish faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali bilim olish jarayonining tadqiqot elementlari bilan uyg‘unlashuviga qulay sharoit yaratiladi; o‘quvchining ichki pozitsiyasi, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, o‘quv va bilish motivlari to‘g‘ri shakllanishi ta’minlanadi. Olamni anglashga nisbatan faol munosabatlari tarkib toptiriladi, yangi bilimlarni mavjud intellektual imkoniyatlari darajasida o‘zlashtirishga shart-sharoit yaratiladi. Eng muhimi, ilmiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni xususida dastlabki ko‘nikmalar hosil qilinishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimova D. Boburning nabotot olami haqidagi qiyosiy qarashlari // Til va adabiyot ta’limi. –T., 2010. –№ 6. – 32-b.

2. Rajabova I. O‘qitish tizimiga tizimli tafakkkur va ilmiy tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondashish // Kasb-hunar ta’limi. –T., 2013. № 1. – 28-b.

3. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2017, 14 (774)-son, 230-modda.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1989.

PEDAGOGIK MAHORAT: SIFATLI DARS - KUTILGAN NATIJA

Nilufar Yuldasheva P.f.n. dos.
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tasarrufidagi A.Qodiriy nomidagi ijod maktabi direktori

Annotatsiya. *O‘zbek milliy ta’lim tizimi. Jumladan, adabiy ta’limning maqsadini ham o‘zgartirdi — endi bosh maqsad bolalarni ezgu qadriyatlar asosida bilimli, yuqori salohiyatli, vatani va xalqiga sodiq, jismonan sog‘lom, teran va mustaqil fikrlovchi, yetakchi, komil shaxs etib tarbiyalashdir.*

Kalit so‘zlar: *Pedagogika, mahorat, vatanparvar yoshlar, yuksak axloq, ma’naviyat, sifatli dars, mehnatga vijdonan munosabat, ilm, milliy qadriyat, komil shaxs.*

Hozirgi kunda zamondoshlarimiz axborot-kommunikativ texnologiyalar rivojlanishi, shiddat bilan uzluksiz yopirilib kelayotgan axborot to‘lqini kundalik turmush tarzi va tafakkur yo‘sini butunlay o‘zgarib ketishi mumkin bo‘lgan davrni boshlaridan kechirishmoqda. Endi ularga egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar yashash uchun kifoya qilmaydi. Atrof bilan teng sur’atda rivojlansa, bilimlari muntazam boyib borsa, aqliy va ma’naviy takomillashsagina hayot bilan hamqadam bo‘la oladi. Buning uchun zamondoshlarimiz tinimsiz o‘qiydigan, o‘z ustida ishlaydigan, izlanadigan bo‘lishlari kerak. O‘sib kelayotgan yosh avlod esa maktab davridayoq mustaqil fikrlaydigan, muammolarga yechim topadigan qilib tarbiyalanishi lozim. XX asrning 60-yillarda dunyo miqyosida o‘qitish jarayonini yangi tamoyillar asosida tashkil etish zaruriyati paydo bo‘lganining boisi ham shu.

Mamlakatimizda olib borilgan ta’limiy islohotlar zamirida ham yoshlarni o‘zgarib borayotgan sharoitga mos qilib tayyorlash ehtiyoji yotadi. Ana’naviy ta’lim yoshlarni shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda yashay olishga qodir qilib tayyorlash uddasidan chiqa olmaydi. Chunki uning asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat. Zamonaviy ilm-fan va texnika esa shu darajada rivojlandiki, kishining biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirada saqlay olishi imkonsiz bo‘lib qoldi. Shuningdek, tinimsiz o‘zgarishlardan iborat bo‘lgan hayotga mustaqil qadam qo‘yayotgan yoshlar bunday tub burilishlarga ham aqliy, ham ma’naviy jihatdan tayyor bo‘lmasa, jamiyatda o‘z o‘rnini topolmasligi mumkin.

Insoniyat paydo bo‘lganidan buyon farzandlari o‘zidan munosibroq, yaxshiroq yashashga ma’naviy haqli deb bilib, shunday hayotga intilib keladi. Lekin hech bir zamonda ma’naviyat masalasi hozirgiday muhim ahamiyat kasb etmagan. Negaki, fan va texnikaning taraqqiyoti inson tafakkurining qudratini mislsiz darajada oshirgan vaziyatda ma’naviyat hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Agar fikri ojizimiz bilan aytganda, bu jarayonni ulkan bir ma’naviy ummon desak, uning irmoqlarini adabiyot darslari va badiiy mutoala manbalari to‘ldirib, tozartirib turadi. Chunki inson tafakkuri cheksiz ekan, odam qudrat sohibiga aylangan damda ma’naviyat o‘sha qudratni ezgulikka sarflashga undaydi. Tarixdan ma’lumki, ilmu

fan yutuqlari ko‘pincha yovuzlikka xizmat qilgan. Shuning uchun ham milliy ta’lim tizimimizning ayni bosqichida ma’naviyati barkamol, vatanparvar, ildizini unutmaydigan shaxsni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega masala bo‘lib turibdi.

Zamonaviy o‘zbek ta’lim tizimining bugungi maqsadi o‘qituvchi aytgan, darslikda berilgan ma’lumotlar bilangina kifoyalanadigan o‘quvchilar tayyorlash emas. Zotan, eng kuchli xotira ham ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy sohaga bostirib oqib kelayotgan axborotlarni qamrab ololmasligi anglab yetildi. Shuningdek, xotira yordamida o‘zlashtiriladigan bilimlardan faqat standart vaziyatlardagina foydalanish mumkin, ovoragarchiliklar bilan o‘zlashtirilgan bu bilimlar dars jarayonida o‘qituvchi misol qilib keltirgan yoki darslikda ko‘zda tutilgandan boshqacha bo‘lgan vaziyatda umuman keraksiz ma’lumotlar yig‘indisiga aylanib qoladi. Juda murakkab, qizg‘in, rang-barang, uzluksiz evrilishda bo‘lgan real hayot esa hech qachon darslikda belgilangan an’anviy qolipga tushmaydi. Shuning uchun ham bugungi ta’lim tizimining eng muhim vazifasi – yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, nostandart vaziyatlar, chigal hayotiy holatlarda eng to‘g‘ri yo‘lni topa oladigan qilib tayyorlashdir. Bir so‘z bilan aytganda, tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, har qanday vaziyatda o‘z fikrini asoslab, faktlar orqali mushohada qiladigan yoshlarni tarbiyalash davr talabidir. Xususan, vatanparvarlikka yo‘naltirilgan adabiy ta’lim tizimi bu vazifaga qat’iy amal qilishi lozim. O‘smir yigit-qizlar vatanparvarlik faqat J. Manguberdi yoki Shiroq kabi Vatan yo‘lida jon fido qilish emasligi, yaxshi o‘qish, halol ishlash, jamiyatga kerakli a’zo bo‘lib yetishish ham o‘z mohiyatiga ko‘ra vatansevarlik natijasi ekanligini anglashlari ta’lim tugab, kasbiy faoliyat boshlanganda juda asqotadigan holatdir.

Ta’lim jarayonini butunlay o‘zga qonuniyatlar, yangicha falsafa asosida tuzish ehtiyoji aslida texnika rivojalana boshlayotgan, inson psixologiyasi o‘zgarayotgan 1960-yillarda paydo bo‘lgan edi. Shu talab natijasida pedagogik amaliyotga transaksiya falsafasi olib kirildi. Bu falsafaga ko‘ra, har qanday bilimni o‘quvchilar shaxsiy xatti-harakatlari va intilishlari natijasida o‘zlari mustaqil o‘zlashtirishlari lozim. Shuningdek, o‘quvchi shaxsi ta’lim tizimi va jarayonida bosh

qadriyatga aylandi, o‘quvchi o‘qituvchi bilan birga o‘qitish jarayonini amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldi.

Zamonaviy ta’lim tizimi yuz bergan va berayotgan hayotning barcha sohalaridagi o‘zgarishlar tufayli qator muammolarga duch kela boshladi. Endi o‘quvchilarga fanlarning asoslarini o‘rgatish ham mumkin bo‘lmay qolgani, ularga qaysi fan asoslarini, qancha miqdorda, qachon va qay yo‘sinda o‘rgatish kerakligi shunday muammolar jumlasidandir.

Yangi pedagogik falsafaga (transaksiya) tayangan ta’lim tizimi zamondosh va vatandosh bo‘lganlarning hammasi voqelikni bir xil emas, butunlay farqli tarzda idrok etadi, shunday ekan, dunyoni ham xuddi shunday o‘z kuchi bilan o‘rganishi kerak, deb hisoblaydi. Bu pedagogik falsafa olamni faqat o‘quv fani nuqtai nazaridan qismlarga bo‘lib o‘rganishni inkor etadi. Transaksiya falsafasi o‘quvchi mavjud borliqni yaxlit, butun o‘zlashtirishini ko‘zda tutadi.

Internet, onlayn, chat, veb-sayt kabi kommunikativ tizimlar, ijtimoiy tarmoqlar tufayli xalqimizning bilim darajasi o‘sdi. Bu esa, o‘z navbatida, oilaning ta’limiy imkoniyatlari ortishiga olib keldi. Mamlakatimizdagi oilalar o‘z farzandlarini ma’lum miqdordagi zaruriy bilimlar bilan ta’minlay oladi. Har bir oila, hisobsiz axborotlar orasidan keraklilarini bemalol tanlab, o‘zlashtirib olish imkonini beradigan qulay texnik vositalarga ega. Tadqiqotlarimiz mobaynida 2000-yillardan e’tiboran mamlakatimiz aholisining umumiy intellektual saviyasi sezilarli o‘sgani, bu odamlarning bir-birlariga ko‘rsatadigan o‘zaro ta’limiy ta’siri ko‘lamini orttirgani ayon bo‘ldi. Va xuddi shu sababli endilikda o‘qituvchi bilim saqlovchi va uni beruvchi yagona vosita bo‘lmay qoldi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qitish ko‘zda tutilgan fanlar shu darajada kengayib, chuqurlashdiki, soha mutaxassislari ham qanchalik urinmasin, o‘z fanining bir tarmog‘ini ham to‘la bila olmay qoldi. Shuning uchun ta’lim tizimining mo‘ljali (orientir) o‘zgardi. Agar oldinlari ta’lim jarayoni o‘quvchilar xotirasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan, bu hol barchani birday qoniqtirgan va yetarlililik qilgan bo‘lsa, bugun ta’limni faqat xotirani kuchaytirishga yo‘naltirish jamiyat

taraqqiyoti uchun yetarli bo‘lmay qoldi. Chunki har bir odamda xotira o‘rnini bosa oladigan texnik vositalar bilan ishlash imkoni paydo bo‘ldi, har birimiz istagan paytda istagan narsamiz haqda istagan hajm yoki tildagi ma’lumotni hech qiyinchiliksiz topa oladigan bo‘ldik. Shu bois shiddatli axborotlar oqimini yorib kira oladigan, xotirada qola oladigan, o‘quvchini virtual bilim o‘chog‘idan «yulib» chiqa oladigan samarali va zamonaviy ta’lim usullarini izlab topish talab qilinmoqda. Bu esa interfaol metodlarni yuzaga keltirdi hamda o‘qituvchi oldiga katta vazifa qo‘ydi.

«Interfaol» atamasi lotincha «inter akt» so‘z birikmasidan olingan bo‘lib, «inter» – o‘zaro, birgalikda va «akt» – faoliyat ma’nolarini anglatadi[7]. Interfaol usullar erkin fikrli, mustaqil izlanadigan o‘quvchilarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan e’tiborga loyiqdir. Ta’lim berishning bu usulida o‘qitish jarayonidagi asosiy ishni o‘quvchi amalga oshiradi, o‘qituvchi esa ularni nazorat qilib, yakuniy bahoni qo‘yadi. Interfaol metodlarda o‘quvchi ta’limning ob’ekti emas, o‘qituvchi kabi sub’ekti bo‘ladi, faqat o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligi emas, barcha o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi didaktik faoliyati ham ko‘zda tutiladi. Demak, interfaol metodlar ta’lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlariga asoslanadi.

Interfaol metodlar ta’lim tizimida mavjud jiddiy muammolardan biri — bir xillik, zerikarlilikdan o‘quvchilarni qutqaradi, bilim egallashni qiziqarli faoliyatga aylantiradi. Darsda o‘qituvchi yakkahokim bo‘lmaydi, dars o‘tish esa monolog tarzida yuz bermaydi, balki o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro dialogi yuzaga keladi. Shu asosda o‘quvchilar o‘qituvchi bilan hamkorlikda fanga mos yo‘nalish va darsga ajratilgan vaqt miqdoridagi bilimlarni mustaqil, dasturda belgilangan shaklda emas, o‘zlariga qulay bo‘lgan holda o‘zlashtiradilar. Interaktiv metodlarning asosiy belgilari *o‘quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga urinishlari* va *ta’lim jarayoni qatnashchilarining kichik guruhlarga, juftliklarga bo‘linib*

[7] Словарь иностранных слов. –М.: «Русский язык», 1979. С-23; С-198.

*ishlashi*dan iborat. O‘quv topshiriqlarining alohida o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a’zolariga berilishi ularda jamoaviylik tuyg‘usini shakllantiradi va tashabbuskorligini orttiradi.

Tajiribadagi kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat o‘qituvchilar interfaol metodlarning bosh xususiyati ularning qiziqarli ekanligida, deb hisoblashlarining guvohi bo‘ldik. Shu fikrdan kelib chiqib, ular ta’limni interfaol usullar asosida tashkil etishda ayni jihatga urg‘u berishadi. Darhaqiqat, interfaol usullar ta’lim jarayoniga qizg‘in, faol, qiziqarli tus beradi. Bizningcha, dars oldiga qo‘yilgan ta’limiy maqsadga yetish uchun buning o‘zi yetarli emas. Zotan, qiziqarlilik interfaol usullarning asosiy bo‘lmagan oddiy belgisi, xolos. Bu jarayonni biz shakl deb ayta olamiz. Maqsaddan kelib chiqib, interfaol usullarda ta’limni tashkil etishning sababi oz vaqt, kam kuch sarflab, ko‘proq samaraga erishishga intilishda, deb o‘ylaymiz.

Adabiyot mashg‘ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirish barobarida o‘quvchilarda vatanparvarlik, insoniylik kabi muhim shaxslik sifatlarini shakllantirishda ham ahamiyatga ega. Bu usullar o‘quvchilar bilimini oshiribgina qolmay, ma’naviyatini ham rivojlantiradi, vatanga bo‘lgan daxldorlik tuyg‘ularini kamol toptiradi. Bu yutuqlar interfaol usullarning o‘quvchilarni mustaqil izlanishga yo‘naltirishi ahamiyatli bo‘lib, shaxs sifatida jamiyatda o‘z menini ham shakllantiradi .

Ta’lim jarayoniga interfaol usullarni tatbiq etishdan oldin bir holatni, albatta, hisobga olish lozim. Busiz interaktiv usullarni ta’lim jarayoniga olib kirib bo‘lmaydi. Buning uchun adabiyot o‘qituvchisi butun pedagogik faoliyati mobaynida shakllanib, qolipga aylanib ulgurgan qarashlaridan voz kechishi, o‘quvchining tinglovchidan ko‘ra mustaqil anglovchi bo‘lgani foydaliroq ekaniga ko‘nikishi lozim. Odatdagi kabi to‘g‘ri javobni topgan, darslikda belgilangan yechimga kelgan o‘quvchi emas, to‘g‘ri javob va yechimni topishda faol bo‘lgan o‘quvchi ta’limning maqsadiga aylandi. Albatta, bundan to‘g‘ri javob umuman kerak emas, degan xulosaga kelish noo‘rin. Faqat har qanday ta’limning, ayniqsa,

adabiyot o‘qitishning asosiy maqsadi mustaqil fikri bor va uni himoya qilishga qodir shaxsni tarbiyalashdan iborat ekanligi ko‘zda tutilgan. Adabiy ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchi to‘g‘ri xulosa chiqara olmagan taqdirda ham badiiy matn bilan tanishadi, uning mohiyatiga kirishga urinadi, shu jarayonda undan ta’sirlanadi, biror hayotiy vaziyatda qo‘l keladigan shaxsiy xulosasiga ega bo‘ladi. Shunday izlanishlar natijasida o‘quvchining bora-bora to‘g‘ri yechimni topish, badiiy matndan mantiqiy xulosa chiqarish malakasi ham shakllanadi. O‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi munosabatlarga shu nuqtai nazardan yondashmagan pedagog ta’lim jarayonida har qancha ko‘p interfaol usullardan foydalansa ham, samaraga erisha olmaydi. Zotan, interfaol metodni yuzaga keltirgan omil – o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga o‘rgatishdir.

Aslini olganda interfaol usullar mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlarda tilga olingan turlardangina iborat emas, ularning soni juda ko‘p. Gap shundaki, har bir pedagog o‘tayotgan darsining maqsadi va o‘zi ko‘zlagan niyatga erishish imkonini beruvchi eng samarali usulni tanlab, ishlataveradi. Aynan biror metod alohida ajratib ko‘rsatilmagan.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim jarayoniga interfaol metodlarni tatbiq etish o‘qituvchi vazifasini o‘zgartiradi. Chunki endi ta’lim ham o‘qish, ham o‘qitishdan iborat bo‘ladi. Adabiyot o‘qituvchisi shuning uchun ham o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etuvchi, muvofiqlashtiruvchi va maslahat beruvchi shaxsga aylanadi, mustaqil o‘quv faoliyatini ta’minlovchi sharoit yaratadi, o‘quvchilarda tashabbus uyg‘otishga intiladi. Interfaol usulda amalga oshirilgan ta’lim jarayonida o‘quvchi erishiladigan ta’limiy natijaga o‘qituvchi bilan baravar javobgar bo‘ladi.

Adabiy ta’lim jarayonida o‘qituvchi interfaol usullardan foydalanishni maqsad qilib olgan ekan, o‘quv topshirig‘i sifatida ko‘p uchraydigan hayotiy muammolarni berishi lozim. Hatto bunday topshiriqlarni o‘quvchilarning o‘zlari tanlashsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tanlangan topshiriqni bajarishga undashda o‘qituvchi imkon qadar faoliyatga chorlovchi **tasniflang, asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, modellashtiring, tashxis qo‘ying, baho bering**[8] kabi so‘zlardan foydalangani ma’qul.

Adabiy ta’lim jarayonida interfaol usuldan foydalangan o‘qituvchi o‘quvchilarning farqli fikr-mulohazalarini bir-biriga zid qo‘yish orqali tanqidiy tafakkurni shakllantirishi kerak. Shunda o‘quvchilar o‘z qarashlarini bemalol himoya qiladi, o‘zi qo‘shilmagan mulohazaga qarshi dalillar keltiradi.

Yoshlarni vatanparvarlikka yo‘naltiruvchi badiiy asarlarni o‘qituvchi dars jarayonida interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarga singdirar ekan, bolalar bergan savollarga alohida ahamiyat berishi lozim. Chunki savol berish o‘quvchi tafakkurida izlanish borayotganligini anglatadi.

Adabiy ta’limni interfaol usullarda uyushtirganda o‘qituvchi **«izlanish – faraz – yechim topish – izohlash – yangi izlanish»** tarzidagi didaktik siklni yuzaga keltira olsa, o‘quvchilarning ham bilim olish, ham shaxs sifatida shakllanishlari ta’minlagan bo‘ladi. Didaktik sikl — o‘quvchining qo‘yilgan muammo yuzasidan izlanishi, izlanish natijasida mantiqiy faraz qilishi, farazni asoslashga urinish jarayonida yechimga yetib kelishi, guruh topgan bu yechimni guruh vakili izohlashi va mazkur ilmiy izoh keyingi ta’limiy izlanishlarga yo‘l ochishidan iboratdir.

Adabiy ta’lim jarayonida interfaol usullarni qo‘llash o‘qituvchi tashabbusi yoki tajribaga moyilligi natijasi emas, balki yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yuqori samarali vositasini izlashi mahsulidir. Interaktiv metodlar ildizi falsafa, pedagogika, psixologiya kabi ilmlarga borib taqaladi. Adabiyot o‘qituvchisi usullarni qo‘llashdan oldin ularning yuqorida sanab o‘tilgan ilmlardan qaysi biriga tayanganini aniqlashi muhim.

Interfaol usullarning yuzaga kelishiga ilmiy-pedagogikaning ***o‘quvchilarda tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik*** faoliyatiga doir ko‘nikmalarni shakllantirish

[8] Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модул 1. –Т.: 2007. С. 43.

tamoyili asos bo‘lgan. Mazkur tamoyil mavjud voqelikni o‘rganishda tayaniladigan eng muhim qonuniyat mohiyatini ochadi. Voqelik yaxlit tizim bo‘lgani uchun uni o‘rganish ham tarkibiy qismlarga bo‘linmay, butun holda amalga oshiriladi. Aynan tizimli tafakkur yordamida olamning bir-biriga chambarchas bo‘lgan barcha qirralarini tushunish imkonini beradi.

Mazkur tamoyil tarixiga oid manbalarda ko‘rsatilishicha, tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilikka doir ko‘nikmalarni shakllantirish tamoyili fojiali, ayni damda, qiziqarli tarzda kashf etilgan ekan. Genrix Altshuller (1926-1998) — Toshkentda tug‘ilib o‘sgan, ammo uzoq yillar Ozarbayjon va Belorussiyada yashagan olim, injener, ixtirochi, yozuvchi va pedagog yigirma ikki yoshida ikkita ilmiy nazariyaga asos soladi. Ularning biri **ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi** (**IMEN**, ruschasi – teoriya resheniya issledovatelskix zadach yoki **TRIZ**) bo‘lsa, ikkinchisi **ijodkor shaxsni rivojlantirish nazariyasi** (**IShRN**, ruschasi – teoriya razvitiya tvorcheskoy lichnosti yoki **TRTL**) deb nomlangan. Olim 1948-yilda **IMEN** va **IShRN**larga amal qilinsa, mamlakatda ilm-fan taraqqiyoti bir necha baravarga tezlashib, ixtirochilar miqdori keskin oshishini asoslab bergan...[9].

IMEN ijodiy jarayonning texnologiyasi bo‘lib, har qanday ilmiy masalani hal qilishning taxminiy variantlarini imkon qadar kamaytirib, to‘g‘ri yechimni tezroq topishni ko‘zda tutadi. Tizimli yo‘sinda fikrlashga asoslangan bu nazariyada Altshuller ixtirochilik masalalarining ijodiy yechimini topishning quyidagi uch bosqichini ko‘rsatadi:

1.Masalani qo‘yish va uning odatdagi yo‘l bilan yechilishiga halaqit beradigan qarama-qarshiliklarni aniqlash.

2.Oldingidan yuqoriroq yangi natijaga erishishga halaqit beradigan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish.

3.Tizimning boshqa unsurlarini ham erishilgan yangi natijalarga muvofiqlashtirish.

[9] Альтшуллер Г. С., Верткин И. М. Как стать гением: Жизненная стратегия творческой личности. – Минск: «Беларусь», 1994. С. 5.

IMEN inson hayotidagi barcha tizimlar faoliyatini o‘zgacha tarzda yo‘lga qo‘yishni taqozo qiladi. Jumladan, didaktikada paydo bo‘lgan **IMEN** pedagogikasi (*pedagogika TRIZ*)[10] ga ko‘ra yechilishi kerak bo‘lgan ta’limiy muammolarni muayyan sistemaga solish o‘quvchilarni tizimli tafakkur yuritishga o‘rgatadi. Buning uchun o‘quvchilar mavjud voqelikning ulkan tizim ekani, undagi har bir narsa-hodisa murakkab tizimlardan iboratligi, bu tizimlar nimadandir kelib chiqishi va nimanidir keltirib chiqarishini hisobga olishlari kerak bo‘ladi. Jumladan, adabiy ta’limda o‘rganilishi ko‘zda tutilgan mavzular betartib va tasodifan kiritilmagan, o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketgan va bir-birini taqozo etadigan ilmiy-estetik tizim ekani inobatga olinishi kerak. Mavzularni o‘zlashtirishga ijodiy yondashuv kutilgandan-da ko‘proq samara beradi.

Adabiyot mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni o‘qituvchining aytganlarini shunchaki eslab qolishga emas, balki ijodiy ishlashga yo‘naltirish orqali ijodiy muhit yaratiladi. Albatta, bu oson emas. Adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchini o‘z haqiqatini kashf etishga va haqiqatni o‘zi anglab yetishiga o‘rgatishi lozim. Buning uchun o‘quvchilar o‘z oldilariga qo‘yilgan o‘quv muammolarini o‘qituvchi aralashuvisiz mustaqil hal etishlari zarur bo‘ladi. Shunda o‘quvchilar izlanish va kashf etish mashaqqati hamda lazzatini bevosita tuyadilar. To‘g‘ri yechimni topish uchun o‘quvchilar muammoni hal etishning turli yo‘llarini sinab ko‘rishlari, har xil farazlarni ilgari surishlari, mavjud dalillarni turlicha talqin eta bilishlari, masalani turlicha qo‘ya olishlari va o‘zlaricha tajriba o‘tkazishlari lozim. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga interfaol usulda tashkil etilgan adabiy ta’lim jarayonida vatanparvarlik ruhini singdirmoqchi, buni ularga mustaqil bajartirmoqchi bo‘lsa, o‘quvchilarga kartochkalar tayyorlashni topshirishi mumkin. O‘quvchilarga kartochka tayyorlatishda pedagog quyidagilarga alohida e’tibor qilish zarur:

[10] Гин А. ТРИЗ-педагогика. –http;//www.krs.fio.ru/learn/

1. O‘quvchilar ijodiy sharoitda kartochka tayyorlashlari va kartoteka tuzishlari kerak. Kartochkalar har bir o‘quvchi tomonidan alohida tayyorlanib, guruhning barcha a’zolari birgalikda ularni kartotekaga solishadi.

2. Kartoteka tuzishda so‘zlar bilan birga jadvallar, shartli belgilar, chizmalardan foydalanish mumkin. Bu o‘quvchilarni fikrlarini grafik yo‘sinda ifodalashga o‘rgatadi. Deylik, bosh qahramonning harakatlarini ta’riflab o‘tirmay, chizib ko‘yaqolish mumkin. Bu holat mavzu bo‘yicha asosiy fikrni yodga tushirishda samaraliroq hamdir.

3. Dastlab oson va soddaroq kartochkalar tuzilgani ma’qul. Mustaqil ishlayotgan o‘quvchi muvaffaqiyatga erishsa, yanada ruhlanadi.

4. O‘quvchilarni o‘zlari duch kelayotgan ulkan axborot oqimidan muammo yechimiga xizmat qiladiganini ajratib olishga o‘rgatish zarur. Muhimni nomuhimdan ajrata olgan o‘quvchigina o‘rganilayotgan mavzudagi asosiy jihatlarni topadi, demakki, o‘quv muammosini yecha oladi.

Shuningdek, o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llashdagi ikkinchi muhim tamoyil o‘qishni muammoli yo‘sinda tashkil etishdir. Insoniyat paydo bo‘libdiki, turli-tuman muammolarga duch kelib, ularning yechimini izlab va hal etib yashab kelmoqda. Ta’limni har birimizga xos bo‘lgan ana shunday yo‘sinda tashkil etish juda samarali bo‘ladi. O‘quvchining bilim o‘zlashtirish maqsadida ilmiy bilishning ob’ektiv qarama-qarshiligini yengishga qaratilgan mustaqil faoliyati — o‘qish muammosini hal etishdir. Bunda bir jihatga — o‘qish muammosi o‘quvchilarda mavjud tajriba va qiziqishlarga mos kelishiga alohida e’tibor berish lozim. Aks holda, o‘quv muammosi yechilmay qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev . Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari. Toshkent. “Yangi O‘zbekiston” 2021-yil 19-yanvar.

2. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san’ati. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 138 b.

3. Азизходжаева Н.Н. Инновационные и образовательные технологии в подготовке педагогических кадров // Халқ таълими. – Тошкент, 2001. - №4.– С.123-126.
4. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
5. Активные формы преподавания литературы. Лекции и семинары на уроках в старших классах (составитель: Р.И. Альбеткова). – М.: Просвещение, 1991. – 175 с.
6. Al Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – 560 b.
7. Aledova R.Sh. Amir Temurning ma’rifiy-tarbiyaviy qarashlari: Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 23 b.
8. Aliev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: 2000. – 630 b.
9. Aliev A. Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2007. - № 5 – B. 23-27
10. Aliqulov X. «Gumanistik» meros va shaxs ma’naviy kamoloti. – Toshkent, 2006. – 56 b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI “MEHR VA SUHAYL” HIKOYATINING O‘QITILISHI YUZASIDAN MULOHAZALAR

Iroda Ishonxanova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi,
ishonxanova74@bk.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi “Mehr va Suhayl” hikoyatining o‘rganilishiga doir mulohazalar berilgan.

***Kalit so‘zlar**: matn, doston, hikoyat, izoh, lug‘ at, “Xamsa”, “Sab’ai sayyor”, “Mehr va Suhayl”.*

Annotation

This article provides comments on the study of the story “Mekhr and Sukhail” in Alisher Navoi’s poem “Sab’ai sayyar”.

***Key words:** text, poem, story, commentary, dictionary, “Xamsa”, “Sab`ai sayyar”, “Mekhr and Sukhail”.*

O‘rta umumta’lim maktablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga har bir sinfda ma’lum soatlar ajratilgan. Ulug‘ shoirimiz shoh asari “Xamsa”ning o‘qitilishiga

ham alohida e’tibor qaratilgan. Quyidagi jadvalda ushbu asarning o‘qitilishi haqida qisqacha ma’lumotlar keltiramiz:

Sinf	Soati	“Xamsa” dostoni	Izoh
5-sinf	3	“Hayrat ul-abror”	“Sher va Durroj” hikoyati berilgan, nasriy bayoni ilova qilingan.
7-sinf	3	“Sab’ai sayyor”	Beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyati – “Mehr va Suhayl” voqeasi berilgan.
9-sinf	9	“Farhod va Shirin”	Farhodning tug‘ilishi, voyaga yetishi, o‘z maqsadi yo‘lida turli to‘siqlarni yengib o‘tishi, Shirinni sevib qolishi, Xusrav bilan kurashishi, o‘zini halok etishi turli parchalar yordamida keltirilgan.
11-sinf	3	“Saddi Iskandariy”	Iskandarning Mallu bilan bo‘lgan kelishmovchiliklari, Arastu bilan yigitlik va keksalikning o‘ziga xos sifatlari haqidagi suhbatlari berilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rta maktabda “Xamsa” dostonlarining o‘qitilishiga 18 soat ajratilgan.

Biz 7-sinf rejasiga kiritilgan “Sab’ai sayyor” dostonidan parcha – “Mehr va Suhayl” hikoyatining o‘rganilishi yuzasidan o‘z mulohazalarimizni bildirmoqchimiz. Ma’lumki, “Sab’ai sayyor” “Xamsa” dostonlari orasida eng qiziqarli sujetga ega doston hisoblanadi. Ushbu doston haqida o‘quvchilarga yetarlicha ma’lumot berish uchun o‘qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak deb o‘ylaymiz:

1. “Sab’ai sayyor” dostonini to‘liq o‘qib chiqish. “Xamsa”ning buyuk asarligi haqida o‘quvchilarda tushuncha uyg‘otish uchun bu juda muhim. Shu o‘rinda dostondagi hikoyatlar haqida ma’lumot beruvchi jadvalni e’tiboringizga havola etamiz:

Hafta kuni	Homiy	Qasr rangi	Hikoyat
Shanba	Zuhal	Qora	Farrux va Axiy hikoyati (hindistonlik sayyoh)
Yakshanba	Quyosh	Sariq	Zayd Zahhob haqida hikoyat (rumlik sayyoh)

Dushanba	Oy	Yashil	Sa’d haqida hikoyat (misrlik sayyoh)
Seshanba	Mirrix	Qizil	Juna va Mas’ud haqida hikoyat (tarozlik sayyoh)
Chorshanba	Utorud	Moviy	Mehr va Suhayl hikoyasi (beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir)
Payshanba	Mushtariy	Sandal (jigarrang)	"Muqbil va Mudbir hikoyati (oltinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir)
Juma	Zuhra	Oq	Dilorom haqidagi hikoyat (xorazmlik musofir)

Yuqoridagi jadvalda nomlari keltirilgan hikoyatlardan tashqari, o‘qituvchi Bahrom va Dilorom haqidagi voqea – dostonning asosiy qoliplovchi voqeasi haqida batafsil so‘zlab berishi zarur deb hisoblaymiz. Va, albatta, har bir hikoyatning xulosasi ham aytib o‘tilsa, nur ustiga nur bo‘lardi. Shunda o‘quvchi dostonning umumiy mazmuni haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

2. Dostondan berilgan parchalar ustida ishlashda o‘quvchilar faolligini oshirish.

Maktab darsliklarida berilgan mumtoz adabiyot namunalari o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy hol. Bu jarayon o‘quvchini adabiyotdan bezdirib qo‘ymasligi uchun o‘qituvchi dars vaqtida yoki uyga vazifa sifatida biron qiziqarli topshiriqni berishi mumkin. Masalan, hikoyat qahramonlari ta’riflari keltirilgan o‘rinlarni aniqlash va ularning xususiyatlari haqida mustaqil fikr bildirish. Shunda o‘quvchilar dostondan keltirilgan parchalarni diqqat bilan o‘qib chiqadilar, qahramonlar fe’l-atvori haqida o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu mulohazalar, taxminan, quyidagi jadval ko‘rinishida bo‘lishi mumkin:

Qahramon nomi	**Dostondan parcha**	**Izoh**
Jobir qaroqchi	*Ham tanumandu ham shujou daler,* *Ul sifatkim jazira ichraki sher.* *Axzi moli harom komi o‘lub,* *Bo‘yla kom istabon haromi o‘lub.* *Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,* *Yolg‘uzun aylar erdi qat’i tariq.*	Jobir suvda va quruqlikda qaroqchilik bilan shug‘ullanadi, sher kabi hech kimdan va hech narsadan qo‘rqmaydi. Do‘sti ham yo‘q, yolg‘iz qaroqchilik qiladi.
Navdar	*Go‘yiyo andag‘i jazoir aro,* *Shahre ermish oti “Bihishtsar”».* *Anda shohi saxiyu donishvar,* *Qabzai hukmi ichra ul kishvar.* *Oti Navdar va lek o‘zi nodir,*	Behishtsaro shohi Navdar juda saxiy va donishmand bo‘lib, nodir ishlar qo‘lidan keladigan ekan.

	Tab'i har nodir ish aro qodir.	
Mehr	*Qaddikim naxli sarfaroz kelib,* *Husn bog'ida sarvinoz kelib.* *Zulfi din sunbul aylabon yuz pech,* *Og'zidin g'uncha aytmay so'z hech.* *Orazi mash'ali jahonafro'z,* *Partavi shu'lasi kelib jonso'z.* *Sochi aylab kamand bo'lmoq fan,* *Mehr bo'ynig'a tortar erdi rasan.* *Yuzig'a mehr banda-vu oti Mehr,* *O'yrulub mehridek boshig'a sipehr.*	U (Mehr)ning qaddi niholniki kabi; u husn bog'ining sarvinozi; sochlari sunbulni, lablari g'unchani uyaltiradi. Mehrning yuziga quyosh banda bo'lgan, falak boshi ustida quyoshdek aylanadi
Nu'mon	*Go'yiyo ham jazirada bir shahr,* *O'zi firdavs-u Salsabil anga nahr.* *Bor emish ravzadek havosi aning,* *Charxi minu kibi fazosi aning.* *Anda bir shoh hokim-u voliy,* *Mulki ma'mur-u himmati oliy.* *Oti Nu'mon-u mulki oti Yaman,* *Adlidin mulki guliston-u chaman.*	Orolda bir bir shahar bor, ariqlari jannatdagi Salsabildek. Havosi ham jannatdek, fazosi osmon kabi keng. Podshosining himmati baland, mamlakati obod. Bu Nu'mon shoh hukmronlik qiluvchi Yaman yurti, adolat tufayli gulistondir.
Suhayl	*Yuzidin bargi gul xijil erdi,* *Qaddidin sarv munfail erdi.* *Borcha fazl-u hunarda yo'q misli,* *Ko'zguga boqsa o'zi-o'q misli.* *Hunar avji sori kelib anga mayl,* *Yuzi andoqki mehr, oti Suhayl.*	Yuzidan gul bargi, qaddidan sarv daraxti xijolat edi. Barcha fazilatu hunarlarni egallagan, husnda ham tengi yo'q edi. Hunar egallashga xohishi zo'r, yuzi quyoshdek, ismi Suhayl edi.

Asardagi asosiy qahramonlarning ta'rifini o'z so'zlari bilan yozgan o'quvchilarning nutqi shakllanadi, bu xususiyat, ayniqsa, insholarni yozishda asqotadi.

3. Mumtoz adabiyot asarlari uchun mo'ljallangan lug'atlardan unumli foydalanish.

Hozirgi kunda mumtoz adabiyot asarlari va, xususan, Alisher Navoiy asarlari uchun maxsus lug'atlar ko'p. Har bir adabiyot fani o'qituvchisining kundalik ko'rgazmali qurollari qatorida shunday lug'atlar bo'lishi shart deb o'ylaymiz. Shuni ham ta'kidlab o'tish muhimki, mumtoz adabiyot tahlilida 2 tomlik yoki 5 tomlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning o'rni beqiyos. Bu qo'llanmalardan darslarda unumli foydalansak, o'quvchilarning lug'at boyligi oshadi va so'zlarni o'z o'rnida qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Fan o'qituvchisi uchun oson va tushunarli tuyulgan so'zlar o'quvchilar uchun begona bo'lishi holatlari ham ko'p uchrab turadi. Shuning uchun o'qituvchilar darslikdagi so'zlar izohidan tashqari, o'zi qiyin deb

hisoblagan so‘zlarning lug‘atini alohida tuzib olishi shart. Masalan, “noshod”, “kishvar”, “hamul”, “xayl”, “fath” kabi so‘zlarning ma‘nosi keltirilmagan, bu so‘zlarni yaxshi tushunmagan o‘quvchi voqealar rivojini yetarli tarzda ta’riflay olmaydi.

4. Darslikda berilgan izohlanmagan parchalar mazmunini yaxshi o‘zlashtirish

7-sinf “Adabiyot” darsligining 174–198-betlarida berilgan matn izohi bilan birga berilgan, 198–218-betlarda berilgan parchalar esa izohlanmagan. Bu esa o‘quvchiga o‘qishni og‘irlashtirishi mumkin. Shuning uchun izohi berilmagan parchalar o‘qituvchi tomonidan sharhlab berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Keyingi yillarda “Xamsa” dostonlarining nasriy bayonlari turli nashriyotlarda bir necha bor nashr etilgan. Ushbu nashrlardan o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida unumli foydalanish kerak.

Agar biz – o‘qituvchilar – bobokalonimiz Alisher Navoiy asarlarini cheksiz hurmat va mehr bilan yosh avlodga taqdim etsak, hazrat orzu qilganlaridek komil insonlarning ko‘payishi uchun o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy // MAT, 10-tom. “Sab’ai sayyor”. – T.: Fan, 1992.
2.Sirojiddinov Sh. va boshq. // Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: Tamaddun, 2019.
3.Ahmedov A. va boshq. // Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: Sharq, 2015.
4.Yo‘ldoshev Q. va boshq. // Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: Sharq, 2017.
5.Yo‘ldoshev Q.va boshq. // Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: O‘zbekiston, 2019.
6.To‘xliyev B. va boshq. // Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018.
6.Yo‘ldoshev Q. // Adabiy saboqlar. Metodik qo‘llanma. Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun. – T.: Bilim, 2003.

O‘QUVCHILARNI ONA TILI IMKONIYATLARI BILAN TANISHTIRISH MAZMUNI

Klaraxon Mavlonova

Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi, ped.f.d. (PhD)

Bugungi kunda zamonaviy ona tili ta’limi “Ona tili ta’limi jarayonida asosiy diqqatni o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zalarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga qaratish zarur” [1, 74]. Quyida mazkur ta’limiy maqsadlar doirasidagi matn bilan bog‘liq jihatlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Ona tili ta’limida matn tuzish, turli xil sintaktik qurilmalardan foydalana olishga o‘rgatish o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stiruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Mavjud metodik adabiyotlarda nutq o‘stirish, asosan, so‘z ustida ishlash, qayta hikoyalash kabi ish turlariga e’tibor qaratiladi. Vaholanki, “Matn mazmunini qayta hikoya qilish, biror mavzuda hikoyalash ta’limiy jihatlar bilan bog‘lanmasa, ushbu ish turlarining o‘zi nutq o‘stirishni kutilganidek ta’minlay olmaydi. Matn tuzish bilan bog‘liq leksik va grammatik birliklar ustida ish olib borilgan taqdirdagina yuqoridagi ish turlari ta’limiy ahamiyat kasb etadi. Aks holda yozma ishlarning ahamiyati matn tuzish, yo‘l qo‘yilgan imloviy, ba’zan grammatik xatolarni tahlil qilishdan iborat bo‘lib qoladi va “bog‘lanishli nutq” mohiyati nomigagina o‘z ifodasini topgan bo‘ladi”[2, 74-75].

Metodik adabiyotlarda matndagi mustaqil gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiladigan vositalarni quyidagicha guruhlash mumkinligi ta’kidlanadi:

1) leksik (so‘z takrori va sinonimlar); 2) leksik-grammatik (olmoshlar, ravishlar, o‘rin-joy va payt munosabatini bildiruvchi birikmalar, bog‘lovchilar, ko‘makchilar, kirish so‘zlar); 3) sintaktik (so‘z tartibi, bir xil tuzilishga ega bo‘lgan gaplar va kiritma gaplar, intonatsiya) vositalar [3, 41].

Quyida biz 1- va 2- guruhlarga oid ta’limiy ishlardan namunalar keltiramiz (*Ushbu tavsiyalar 5-6-sinf o‘quvchilari uchun tayyorlangan. K.M.*):

Qoida. Gaplarni o‘zaro bog‘lashda keng qo‘llanadigan vositalardan biri olmoshdir. Avvalgi gap yoki matn qismidagi fikrni davom ettirish maqsadida keyingi gap yoki matn qismida *shu, o‘sha, bunday, shunday* ko‘rsatish olmoshlari, shuningdek, kishilik va belgilash olmoshlari bog‘lovchi vosita sifatida ishlatiladi. **Masalan:**

Qahraton qish... Izg‘irin shamol ... g‘arch-g‘urch qalin qor... Quyosh goh-goh bir ko‘rinib qo‘yadi. Biz ayvondan uyga ko‘chib olganmiz. Kabutarlar, chumchuqlar va musichalar patlarini xurpaytirib, sovuqdan titrab, och, parishon tentiraydi. Ularga achinaman-da, maydalab, hovuch-hovuch nonni to‘kaman. Ba'zan tushda sovuqdan qotib o‘lgan bir chumchuqni yoki musichani buvim avaylab devor tagiga ko‘mib qo‘yadi.

Bizda tinim yo‘q, jinday qor o‘ynab, yoqalashib, yarashib kun o‘tkazamiz. Qop-qora qalin bulutlar orasidan mo‘ralagan quyosh sira isitmaydi.

Shunday sovuq kunlarning birida hammamiz yig‘ilib hovuz ustida, muzda to‘polon bilan sirg‘anar edik. Qo‘qqisdan muz ustidagi teshikka – huqqiga bir bola tushib ketdi. Bolalar qichqirib chuvvos ko‘taramiz. yetti-sakkiz yoshlarda, pishiqqina bola edi. Atrofda kattalardan hyech kim yo‘q. Shovqin-suronimizni haytovur eshitgan shekilli – Lavang Mahsum kelib qoldi (Oybek).

Yaxlit matn uch qismdan iborat. Birinchi va ikkinchi qism bir-biri bilan o‘zaro teng munosabat asosida bog‘langan. Uchinchi qism *shunday* ko‘rsatish olmoshi yordamida o‘zidan avvalgi ikkinchi qismga kontakt yo‘l bilan, birinchi qismga distant yo‘l bilan bog‘langan. “*Shunday sovuq kunlar*” deyilganda, birinchi va ikkinchi qismlarda tasvirlangan qishning sovuq kunlari nazarda tutiladi.

O‘quvchilar yuqoridagi qoida va topshiriq bilan tanishgandan so‘ng quyidagi mazmundagi mashqlarni bajarishadi:

1-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Qismlar qaysi olmoshlar yordamida bog‘langanini aniqlang va qanday o‘zgarishlar kiritishingiz mumkinligini izohlang.

Kechqurun novcha, oriq bir chol xuddi ikki-uch joyidan bukilib, sinib ketishidan xavfsiraganday ehtiyot bilan qadam bosib keldi. Uning burni xuddi bir narsadan jirkanganday, og‘zi yarim ochiq, dimog‘i bilan gapirar edi. U do‘konga kirib dadam bilan so‘rashdi, keyin yo‘lakdan borib o‘rta eshikka kirib ketdi-yu, birpasdan keyin patnisda to‘rtta non, choy olib chiqdi. (A.Qahhor)

2-mashq. Ikki ustun qilib berilgan matn qismlarini o‘zaro qiyoslab, qaysi tomondagisida ortiqcha so‘z takroriga yo‘l qo‘yganini aniqlang va sababini izohlang.

Nasiba bir zum suvning oqishiga qarab qoldi. Suv shoshilib oqadi. Nimaga oshiqadi? Suv sira ketiga qaramaydi-ya, qaytib kelmaydi ham. Suvning sharqirab oqishida qanday sir bor? *Nasiba hovuchlab suv olib, yuziga sepdi. Yana termildi, yuzi, peshonalaridagi tomchilar tezda yo‘qoldi... (H.No‘mon)*	*Nasiba bir zum suvning oqishiga qarab qoldi. U shoshilib oqadi. Nimaga oshiqadi? U sira ketiga qaramaydi-ya, qaytib kelmaydi ham. Uning sharqirab oqishida qanday sir bor?* *U hovuchlab suv olib, yuziga sepdi. Yana termildi, yuzi, peshonalaridagi tomchilar tezda yo‘qoldi... (H.No‘mon)*

Matn tuzishda matniy ma’nodoshlardan foydalanishga oid quyidagi qoida va mashqni berish mumkin:

Qoida. Faqat matnda bir so‘zning o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlar matniy ma’nodoshlar hisoblanadi. Masalan, *Abdulla Qahhor* nomi o‘rnida keyingi gaplarda *yozuvchi, muallif, adib, san’atkor* so‘zlari qo‘llanganda, bu so‘zlar leksik emas, matniy ma’nodoshlik vazifasini bajarib, matnda bir so‘zning qayta-qayta

takrorlamaslik imkonini beradi. Matniy ma’nodoshlardan bu tarzda foydalanish ilmiy uslubga xos emas.

Mashq. Quyidagi matlarnni o‘qing, unda foydalanilgan matniy ma’nodosh so‘zlarni aniqlang.

A. Qo‘shnilar to‘plangach, Rayim chol yonidagilarga birma-bir qaraydi, keyin yo‘l boshlaydi. Mo‘ysafidning peshonasidagi ajindek ilang-bilang saf cho‘zilib yo‘lga tushadi. (X.Do‘stmuhammad). *(Rayim chol, mo‘ysafid)*

B. Sal vaqt o‘tmay sigir tuyoqlarining tapillashi eshitildi. Ana, g‘ira-shirada uning sekin chayqalgan yirik gavdasi qorayib ko‘rindi. Jonivor nafsi buzuqlik qilib, podadan qolib ketgan bo‘lsa ajab emas. Uning olaygan ko‘zlarida vahima bor. (S.Anorboyev).

D. “Dunyoning ishlari qiziq ekan. Eng oqil mavjudot inson deymiz-u ba’zan odamning arzimagan narsaga aqli yetmay qoladi. Bir paqirga qimmat, o‘tkinchi ikir-chikirlar uchun jon kuydiradi-yu, eng bebaho xazinasidan – salomatligidan judo bo‘layotganini o‘ylab o‘tirmaydi...”. (O‘.Hoshimov)

E. U ildam bordi-da, tanlab-tanlab ikki bog‘ binafshani tog‘orachadan oldi. Binafshaning soch tolasidek nozik, oqish bandlaridan suv tomchilab turardi. Sherzod chechaklarni dimog‘iga yaqin keltirishi bilan bahor isidan qalbi hayajonga to‘lib, boshi aylanib ketgandek bo‘ldi (O‘.Hoshimov)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘quvchi ta’lim subyekti sifatida o‘quv matnlarini tahlil va tadqiq etishga, yuqorida tavsiya etilgan mazmundagi qoidalar bilan amaliy tanishishi barobarida mustaqil ravishda nutqiy vaziyatga mos matn yaratish ko‘nikmasini egallashga yo‘naltirib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Менглиев Б. Тилшуносликнинг амалий масалалари. Монография.. – Тошкент: Clobe Edit, 2020. 100 б.

2. Бекниязова Н.И. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2012. 152 б.

3. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларни матн тузишга ўргатиш методикаси. Пед.фан.номз.... дисс. – Т., 1999.

DAVLAT TA’LIM STANDARTI VA O‘QUV DASTURLARINING BAHOLAH TIZIMIGA TA’SIRI

Abdiraimov Shohruh Samad o‘g‘li
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi,
abduraimov.shohrux@mail.ru,

Annotatsiya

Maqolada davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarining baholash tizimiga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, ona tili ta’limida amaldagi baholash tizimi va uning ona tili ta’limiga salbiy ta’siri, sabablari haqida atroflicha fikr yuritilgan, Muammo yuzasidan muayyan xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. *Davlat ta’lim stanadarti, o‘quv dasturi, ona tili ta’limi, test, baholash tizimi, baholash mezonlari*

Annotation

The article describes the impact of state education standards and curricula on the assessment system. It also discusses the current system of assessment in mother tongue education and its negative impact on mother tongue education, its causes, and draws specific conclusions about the problem.

Keywords. *State educational standards, curriculum, mother tongue education, tests, assessment system, assessment criteria*

Ma’lumki, ta’lim taraqqiy etmasdan turib, jamiyat farovon, xalq zakovatli, davlat boy bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham biz muayyan sohalarda dunyo xalqlari uchun yangiliklar, kashfiyotlar bermoqchi ekanmiz, ta’limni to‘g‘ri tashkil etishimiz, uning rivojlanishi uchun shariotlar yaratib berishimiz kerak. Mustaqillikdan keyin davlat budjetidan qancha mablag‘lar ajratilib, maktablarda ta’lim olish uchun sharoitlar yaxshilanmoqda, ammo natijalar maqtaladigan, ko‘z-ko‘z qilinadigan darajada emas, chunki ta’limni tashkil etishga yetarli darajada e’tibor berilmayapti, ya’ni to‘g‘ri tashkil etilmayapti. Shuni ham qayd etishimiz kerakki, ta’lim jarayoni bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham ta’limni tashkil etishda, avvalo, uning turlari va bosqichlari oldidagi asosiy maqsadni aniqlashtirib olib, ularda bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar, o‘quvchilar egallashi ko‘zda tutilgan malaka talablari belgilab

olinadi va ana shu malaka talablarini egallash uchun muayyan mavzular tanlab olinadi. O‘qitish jarayonida esa ana shu mavzular orqali o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya beriladi. Bular ta’limning muhim asosi bo‘lgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarida o‘z aksini topadi. Avvalo, davlat ta’limi standarti(DTS) degan tushunchaga to‘xtalsak, bu atama bir qancha ilmiy manbalar va huquqiy-me’yoriy hujjatlarida turlicha izohlangan. Pedagogika esiklopediyasida bu tushunchaga istilohiy ma’noda quyidagicha ta’rif beriladi: “Davlat ta’lim standarti – davlat tomonidan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan me’yoriy talab, ta’limning zarur yetarli darajasi va o‘quv yuklamalari hajmiga qo‘yiladigan asosiy davlat talablari majmuasi”.[Pedagogika esiklopediyasi I jild, 2018: 243] Olim A.Nosirov esa o‘zining tadqiqotida DTSga quyidagicha izoh beradi: “Davlat ta’lim standarti muayyan davlat ta’lim tizimi maqsad va vazifalari belgilab beriladigan, ta’limga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqadigan muhim me’yoriy hujjatdir”.[Nosirov A., 2017: 5] R.Q.Karimov “Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti monitoringini ta’minlashning pedagogik asoslari” nomli pedagogika fani bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasida DTS monitoringini tashkil etish va amaliyotga joriy etish masalasiga batafsil to‘xtalib, ta’limga qo‘yiladigan standartga quyidagicha izoh beradi: “Ta’lim standarti ta’lim obyektlari bo‘lgan ta’lim strukturasi, mazmuni, uning taqdim etilgan darajasi, ta’lim natijalarini baholash va izohlashning shakl, metodlarini takomillashtiradi, aniqlashtiradi, muayyan qolipga soladi, shu bilan birga, ta’lim jarayonini boshqaradi”.[Karimov R.Q., 2007: 17] Umuman olganda, DTSga berilgan ilmiy manbalardagi ta’riflar, izohlar bir-birini to‘ldiradi. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarda – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi qarorida unga shunday izoh beriladi: “DTS – kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan talabalarni; ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta’lim muassalarini bitiruvchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablarni; o‘quv yuklamalarning

zarur hajmini; ta’lim muassasalarining faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexnizimini belgilaydi”.

Demak, DTS ta’lim jarayonining maqsadini, tuzilishini, mazmunini belgilovchi hamda maqsadga erishilganligini tekshirish, baholash tartiblari aks etadigan asosiy hujjat hisoblanadi. Unda asosiy tushunchalar izohi, tayanch o‘quv reja, malaka talabalari, o‘quv dastur hamda baholash mexanizmi va mezonlari aks etishi kerak.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, mustaqil O‘zbekistonda DTS va o‘quv dasturlariga davr va taraqqiyot talabi asosida uch marta o‘zgartirish kiritilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Dastlab, 1999-yil 16-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinadi. Keyinchalik 2010-yilga kelib zamon talabi asosida ikkinchi avlod DTS va o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi. Hozirgi kunda amaldagi DTS va o‘quv dasturlari esa 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan.

DTS o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘quv dasturlarini yaratish uchun asos bo‘lsa, o‘quv dasturlari asosida esa darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqiladi. O‘quv dasturi – ta’lim tizimidagi har bir o‘quv fanining mazmuni va o‘tilish tartibini, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. [Pedagogika esiklopediyasi III jild, 2018: 379] Darhaqiqat, o‘quv dasturida fan yuzasidan o‘quvchilarga o‘qitiladigan mavzular va bilimlar majmuyi keltiriladi. Shu bilan birga, o‘quv dasturlari ta’limdagi yondashuv va metodlarni ham belgilashda asos vazifasini o‘taydi. Shuning uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda alohida e’tiborni talab etadi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlashimiz kerakki, ona tili ta’limi o‘ziga xoslikni, alohida yondashuvni taqozo etadi, chunki tilni egallash ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, o‘quvchida muloqot malakalari – tushunish va tushuntirish ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Shuning uchun ham ona tili fani o‘rganiladigan, asosan bilim hosil qiladigan fan emas, balki egallanadigan, o‘zlashtiriladigan, layoqat hosil qilinadigan

fanlar sirasiga kiradi. Shu bois tili o‘qitishda vaqt va davr nuqtayi nazaridan o‘ziga xos yondashuvlar, tadrijiy metodikalar qo‘llanib kelinmoqda.

Ma’lumki, jahon tajribasida til o‘qitishda foydalaniladigan metodlar tilga, o‘rganuvchiga va o‘rganish hodisasiga nisbatan yondashuviga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.[Kumaravadivelu B., 2003: 26] Shundan kelib chiqib, til ta’limi hozirga qadar quyidagi yondashuvlar asosida amalga oshirilib kelinmoqda desak xato bo‘lmaydi.

– *grammatik strukturalarga asoslangan yondashuv;*

– *ehtiyojlarga asoslangan yondashuv;*

– *kommunikativ mashg‘ulotlarga asoslangan yondashuv.*

Bizda ona tili ta’limi hamon grammatik strukturalarga asoslangan yondashuv asosida amalga oshirib kelinmoqda. Bu taraqqiyotga va yosh avlod tarbiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Olima M.Abduraimova ta’kidlaganidek: *“Grammatizmga asoslangan o‘qitish usuli o‘quvchi-yoshlarning ko‘pchillik qismida ijodiylik, mustaqil fikrlash, vaziyatga qarab fikr ifodalash ko‘nikmalarining past bo‘lishiga olib keldi. Mavjud holat ko‘p jihatdan ona tili ta’limining maqsadi, mazmuni va usuliga aloqador bo‘lib, uni yangilash hayotiy zaruratga aylandi”.* [Abduraimova M., 2001: 67] Darhaqiqat, tadiqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, mustaqillikdan so‘ng to hozirgi kunga qadar ona tili ta’limida grammatizmga asoslangan yondashuv ustuvor bo‘ldi. Buni o‘quv dasturlaridagi mavzular taqsimotidan yorqin ko‘rishimiz mumkin. Ona tili fanidan ishlab chiqilgan ilk DTS va o‘quv dasturida ham, 2010-yilda ishlab chiqilgan DTS va o‘quv dasturida ham, amaldagi DTS va o‘quv dasturida ham grammatik strukturalarga asoslangan yondashuv bo‘yicha mavzular taqsimlangan va tartiblashtirilgan. Darsliklar ham shu asosida yozilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, ona tili ta’limi umumiy o‘rta ta’limda grammatik shakllar va qonuniyatlar soddadan murakkabga qarab uzluksiz tarzda chiziqli-tartibli o‘qitishga urg‘u berilib kelinmoqda. Til o‘rgatishdan maqsad bo‘lgan nutqiy vaziyatlar, kommunikativ mashg‘ulotlar bilan ishlash esa ikkinchi planga tushib qolgan. Bu esa o‘quvchilar nutqiy malaklarni rivojlantirishga, ularda o‘z tafakkur mahsuli bo‘lgan shaxsiy mulohazalarini nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilarining xususiyatlaridan

kelib chiqib to‘g‘ri va ta’sirli ifodalash hamda o‘zgalarning nutqini anglash, idrok qilish, ularni tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga deyarli e’tibor qaratilmasligiga sabab bo‘lgan. Demak, o‘quv dasturida til o‘qitishdagi yondashuvni o‘zgartirish kerak, nutqiy vaziyatlarga tayyorlash, kommunikativ mashg‘ulotlarni bajarishga, hayotni o‘rgatishga yo‘naltiradigan o‘quv dasturini ishlab chiqish lozim, chunki bu davr talabi.

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, mustaqillikdan so‘ng ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan DTS va o‘quv dasturlarida muayyan darajada nazorat turlari haqida ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, ammo na formativ baholash uchun, na summativ baholash uchun baholash mexanizmi, formati, baholash indikatorlari, topshiriqlar soni, ularning metodikasi yuzasidan aniq tavsiyalar berilmagan hamda namunaviy variantlar ishlab chiqilib taqdim etilmagan. Joriy-kunlik baholash va yakuniy baholash mexanizmini, mezonlarini belgilash o‘qituvchilar zimmasida qoldirilgan. Shuningdek, DTS va o‘quv dasturida aks etgan ona tili o‘qitishdagi yondashuv oliy ta’limga kirish test sinovlarida foydalaniladigan test topshiriqlarini shakllantirishda asosiy mezonga aylangan Buning natijasida o‘quvchilarning nutqiy malakalar rivojlantirish o‘rniga, ikkilamchi ko‘nikma – lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga urg‘u berilishiga sabab bo‘lgan. Shu bois o‘quvchilarning aksariyatida o‘z fikrini og‘zaki va yozma ifodalash ko‘nikmasi qoniqarsiz darajada.

Xullas, yangi ishlab chiqiladigan DTS va o‘quv dasturida mavzular kommunikativ vaziyatlarga, ya’ni o‘quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan mashg‘ulot mavzulariga asoslanishi kerak hamda har bir mavzu bo‘yicha baholashni loyihalashtirish tartiblariga asosan formativ baholash uchun muayyan mezonlar, indikatorlar va baholashda foydalaniladigan topshiriqlar uchun aniq metodikalar tavsiya etilishi, shu bilan birga, har bir sinf uchun summativ baholash formatlari, mexanizimi, baholash mazmuni va indikatorlari, topshiriqlar soni va metodikasi baholash mezonlari hamda ballar koeffitsiyenti taqdim qilinishi shart. Masalan, 1-2-javaldagi kabi. Shunda maqsadga

muvofiq bo‘lar edi. Natijada baholashning ta’limga salbiy ta’sirini minimum darajaga tushirilib, ijobiy ta’sirini salmoqli oshirishiga erishiladi.

1-jadval

O‘ZBEK TILI FANIDAN UMUMIY O‘RTA TA’LIM O‘QUV DASTURI VA O‘QUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR
(5-sinf uchun)

MAVZU	A/S	KOMPETENSIYALAR						FORMATIV BAHOLASH
		Tinglab tushunish/ Ko‘rib tushunish (video tasvir)	O‘qib tushunish	So‘zlash	Yozish	Lug‘at	Til ko‘nik-malari	
Mening Vatanim	5 soat	*– kundalik suhbatlarga oid diologlarni eshitib tushunadi;* *– Vatan mavzusidagi 30-40 ta so‘zdan iborat bo‘lgan audiomatnlarni tinglab, vidolavhalarni ko‘rib tushunadi;* *– Vatan mavzusidagi sodda she’riy matnlarni tinglab, ko‘rib tushunadi.*	*– tanish bo‘lgan matnlarda daqiqasida 30-40 so‘z tezligida o‘qiy oladi;* *– Vatan mavzusidagi kichik matnlarni o‘qib tushunadi;* *– Vatan mavzusidagi sodda she’riy matnlarni o‘qib tushunadi;*	*– o‘qilgan yoki tinglangan matnlar mazmunini 5-7 gap (25-35 ta so‘z) hajmida o‘z so‘zi bilan qayta hikoya qilib bera oladi;* *– sinfdoshi bilan kundalik mavzularda suhbatlasha oladi;* *– eshitilgan audiomatn va ko‘rilgan video tasvir asosida berilgan savolga mantiqiy fikrlab javob bera oladi.*	*– darslikda berilgan mashqlarni lotin yozuvida daftariga ko‘chirib yoza oladi;* *– diolog qolipidan foydalanib Kundalik yumush mavzusida suhbat tuza oladi;* *–Vatan mavzusida 7-9 ta gapdan (35-45 ta so‘zdan) iborat bo‘lgan ijodiy matn tuza oladi.*	*– Vatan, yurt, o‘lka bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni biladi;* *– kundalik muomalada qo‘llanadigan so‘zlarni tushunadi.*	*Ot so‘z turkumi. Atoqli va turdosh otlarning qo‘llani-shini farqlaydi*	*–o‘qiy olishi (daqiqasiga 30-40 ta so‘z);* *–yoza olishi (35-45 ta so‘zdan iborat bo‘lgan ijodiy matn);* *– diolog tuza olishi;* *– subatlasha olishi;* *–savollarga mantiqiy javob bera olishi;* *– Vatan tushunchasiga oid faol so‘zlarni idrok eta olishi.*

2-jadval

Ona tilidan 10-11-sinflar uchun summativ baholash formati

SUB-DOMENLAR		TOPSHIRIQLAR SONI	TOPSHIRIQLAR TURI	BALL	VAQT (*daqiqa*)
I QISM					
O‘QISH SAVODXONLIGI	*Zamonaviy texnologiyalarga oid ilmiy-ommabop matn*	5 ta	Moslashtish testi Ochiq test Yopiq test	1 balldan	50
	Tabiiy fanlarga oid ilmiy-ommabop matn	5 ta	Moslashtish testi Ochiq test Yopiq test		
	Iqtisodiyot va iqtisodiy geografiyaga oid vizual yaxlit bo‘lmagan matn	5 ta	Moslashtish testi Ochiq test Yopiq test		
	Qonun yoki qonunchilikka oid rasmiy matn	5 ta	Binar test		
	Zamonaviy adabiyotga oid badiiy matn: epik yoki dramatik turga oid parcha	5 ta	Moslashtish testi Ochiq test Yopiq test		
YOZISH SAVODXONLIGI	*Uslubiyat (leksik - grammatik me’yorlar)*	10 ta	Moslashtish testi Ochiq test Yopiq test	1 balldan	50
	Punktuatsion me’yorlar	5 ta	Moslashtish testi Ochiq test Yopiq test		
	Orfografik me’yorlar	10 ta	Moslashtish testi Ochiq test Yopiq test		
	Esse yozish (200-350 ta so‘z)	1 ta	Ochiq test	25	60
II QISM					
ESHITIB TUSHUNISH VA SO‘ZLASH	*Qayta hikoya*	1 ta	Og‘zaki so‘rov	25	5
	Mustaqil nutq	1 ta	Og‘zaki so‘rov		5
JAMI		**53**		**100**	**170**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimova M. Ona tili ta’limi takomili. “Ta’lim taraqqiyoti”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi axborotnomasi. 2001-yil 3-4-son 66-69-betlar.
2. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2020, – B. 252.
3. Karimov R.Q. Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti monitoringini ta’minlashning pedagogik asoslari. Ped.fan.nomz. … dis. –T.: 2007. – B. 131
4. Kumaravadivelu B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003. P. 356
5. Nosirov A. Amaldagi va yangi DTS. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2017-yil. 6-son.4-7-bet.
6. Pedagigika ensiklopediyasi. I jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2015. – B. 318.
7. Pedagigika ensiklopediyasi. III jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2015. –B. 424.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. https://lex.uz/docs/-3153714.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 5-son qarori ilovasi. Davlat ta’limi standartlari to‘g‘risidagi nizom. Ta’lim taraqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Axborotnomasi. 1998-yil 1-son. 33-39-betlar
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vaziriligining Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari bilimlarini nazorat qilishning takomillashtirilgan reyting tizimini joriy etish to‘g‘risida. Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining Axborotnomasi. 2010-yil, 5-son.76-bet

ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

MALLAYEV – NAVOIYSHUNOS

Homidjon Homidiy
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
professori, f.f. dok.

Ilm-adab ahli orasida shunday zoti kiromiylar bo‘ladiki, ular bir umrga nina bilan quduq qaziganday ko‘hna sarchashmalarni varaqlab, ma’naviyat injularini o‘rganib, saylab-terib tahlil etib, bilganlarini o‘zgalarga yuqtirib, shogirdlarga o‘rgatib yuradilar-u, ammo hirs, hoy-u havas, boylik-sarvatga, amal-martabaga

befarq qaraydilar, uni nazarga ilmaydilar, barcha yumushlarni xoksorlik va fidoyilik bilan betama’ bajaradilar. Mashhur olim, Sharq adabiyotining nuktasanj donishmandi, zamon mudarrislari peshvosi filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, o‘ta nuktadon olim, ushbu satrlar muallifining ustozi Natan Murodovich Mallaev ana shunday donishmandlardan edi.

O‘tgan asrning 50-yillarida adabiyotshunoslik maydoniga kirib kelgan Mallaev umr bo‘yi (1922 – 1996) o‘zbek klassik adabiyotining eng dolzarb masalalarini tadqiq etish, qardosh xalqlar adabiyotining muhim jihatlarini o‘rganish, tarjima qilish, o‘rta va oliy maktablar uchun darslik, qo‘llanmalar, dasturlar yozish, majmualar tuzish, ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar bitish, fan nomzodi hamda doktorlarini tarbiyalab yetishtirish bilan muttasil shug‘ullangan. Ustoz tomonidan universitetlarning filologiya hamda pedagogika institutlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari uchun yaratilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” (birinchi kitob) darsligi uch marta (1963, 1967, 1976-yillar) qayta nashr etilib, yaqin 30 yil davomida filolog mutaxassislarning bir necha avlodini tarbiyalashda barqaror kitob sifatida qo‘llanilib kelindi. Professor N.M.Mallaev ijodiy bisotida Navoiyning hayot yo‘li va merosi tahlili ham alohida sahifalarni tashkil etadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ustoz 1963-yili oliy o‘quv yurtlari uchun Respublikamizda birinchi bo‘lib “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligini yaratdilar. O‘sha kezlari Navoiy “Xamsa”sining ustod Porso Shamsiev tomonidan tanqidiy matni yaratilgan bo‘lsa ham shoirning ko‘pgina asarlari hali jiddiy o‘rganilmagan va nashr etilmagan edi. Natijada muallif darslikni yozishda shoirning hayoti, faoliyati, ijodiy merosini batafsil yoritishga kirishar ekan, birinchi – qo‘lyozma sarchashmalarga – asl nusxalarga murojaat qilishga majbur bo‘lgan. Navoiyning nasriy, ilmiy asarlari, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidan olingan misollar, namunalar ilk bor ilmiy iste’molga jalb etilgan, keng ilm-adab ahli e’tiboriga birinchi daf’a izchil, teran ilmiy poetik tahlillar asosida havola qilingan edi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutidagi bir ilmiy majlisda akademik Izzat Sultonov “Devoni Foniy”dagi g‘azallarning o‘zbek

adabiyotshunosligidagi tom ma’nodagi ilmiy-amaliy dastlabki tahlili to‘laligicha Natan Murodovich Mallaev qalamiga taalluqlidir” deb alohida ta’kidlagan edilar. Xullas, Navoiyning lirik merosi darslik doirasida janr, mavzu, g‘oyaviy yo‘nalishi, obrazlar silsilasi, eng muhimi poetik jihatdan jiddiy tahlil qilingandi. Shuning uchun ham darslik muayyan darajada ilmiy qimmatga ham molik edi.

Ma’lumki, 1965-yili yurtimizda Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan katta ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilgan edi. Professor Hamid Sulaymon tomonidan va u kishining bevosita rahbarligida shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti, “Devoni Foniy”si nashr ettirildi; o‘zbek tilida 15 jildlik tanlangan asarlari, rus tilida 10 jildlik saylanmasi chop etila boshlandi; ayrim asarlarining, shu jumladan, “Xamsa” dostonlarining tanqidiy matnlarini tuzishga kirishildi. Mashhur navoiyshunos Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” (1948) kitobidan so‘ng shu yillari N.M.Mallaevning “Genial shoir va mutafakkir” nomli ilmiy-ommabop risolasi uch tilda – o‘zbek, rus hamda qoraqalpoq tillarida nashr etildi. Kitobda muallif Navoiyning hayot yo‘li hamda davlat arbobi sifatidagi faoliyatini, badiiy, ilmiy merosini ommabop bir tarzda mukammal bayon etgan; ularning balog‘at va nafosatini, shoirning ijodiy niyati – asarlarida nafis badiiy pardalarda ifodalangan yuksak g‘oyalarni lo‘nda shaklda teran tahlil etib ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. Bundan tashqari professor N.Mallaev Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyini tashkil etishda ustoz Hamid Sulaymonga yaqindan ko‘maklashgan. U kishining bevosita sa’y-harakatlari bilan o‘zlari ishlayotgan Nizomiy nomidagi pedagogika institutida (hozirgi universitet) Adabiyot muzeyi tashkil qilindi.

O‘tgan asrning 70-yillarida N.M.Mallaev “O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning taraqqiyotida Navoiyning o‘rni” (1972), “Xamsa” muqaddimoti va na’tlarining mohiyati haqida” (1974), “Navoiy ijodining xalqchil negizi” (1977), “Navoiy va xalq og‘zaki ijodi” (1976), “Asrlar e’tirofi va ta’zimi” (1976) singari bir silsila tadqiqotlar yaratdi, shoir asarlarining ko‘p jildlik nashrlarini yaratishda ishtirok etib, ayrimlariga so‘zboshi yozdi, adib ijodining eng muhim jihatlari xususida ko‘plab ilmiy maqolalar bitdi. Kommunistik mafkura zug‘umi avj olgan,

islomiy ahkomlar haqida gapirish mumkin bo‘lmagan bir paytda Mallaev “Xamsa” hamd va na’tlarini tahlil qilib, ularning ijtimoiy-falsafiy, ilmiy, tarbiyaviy-ma’rifiy qimmatini dadil ayta olgan edi. O‘sha yillari bu olimning o‘ziga xos bir jasorati edi. “Asrlar e’tirofi va ta’zimi” risolasida zabardast sharqshunos Navoiy asarlarining fors, arab, fransuz, nemis, lotin, rus tillariga tarjimalarining annotatsion bibliografiyasini yaratgan; dunyo sharqshunoslarining ana shu tarjimalar asosida shoir ijodi haqida yozgan ilmiy asarlarining ommafahm, yaxlit tahlillarini bergan; ma’rifiy, amaliy ahamiyatga molik xulosalar chiqargan. Bu risola ham dunyo navo-iyshunosligi tarixini yoritishga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy-ommabop kitobdir. Zeroki, o‘sha yillari biron olim bunday yumushni o‘z zimmasiga olmagandi.

Olimning Navoiy ijodi tahliliga bag‘ishlangan asarlari orasida fundamental monografiyasi “Navoiy va xalq og‘zaki ijodi” deb nomlangan alohida zalvorga ega. Zeroki, to‘rt bob va bir necha ichki fasldan tashkil topgan bu asarda Natan Murodovich Mallaev, bir tomonidan, Sharq qo‘lyozma manbalari, og‘zaki ijod ne’matlariga suyangan, asoslangan, hamkasblarining bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarini e’tibordan soqit qilmagan holda Alisher Navoiyning “Xamsa”ni yaratishda arab, fors, turkiy xalqlar asotirlari, shifohiy adabiyotidan nechog‘lik bahramand bo‘lganini, ijodiy fayz topganligini atroflicha, jiddiy tahlil etgan; folklor va klassik adabiyot muammosining nazariy masalalarini hal qilgan. Masalan, shoirning Bahrom, Farhod, Iskandar obrazlarini yaratishda o‘nlab eng qadimiy yodnomalar, xronikalar, hatto, “Avesto”dek kamyob sarchashmalardan qay darajada bahramand bo‘lganligi aniq dalillar bilan ta’kidlangan. Buni “Xamsa”ning bir necha o‘rnida Zardusht tilga olingani ham tasdiqlab turibdi. Ikkinchidan esa, “Xazoyin ul-maoniy”dagi she’rlarda og‘zaki ijod an’anasi, xususan, g‘azallar poetikasida maqol, matal, hikmatli so‘z, xalq iboralari, udumlari, frazeologik birikmalarning, etnografiyasi, etnologiyaga oid detallarning o‘rni yuzlab baytlarni nuktasanjlik bilan tahlil qilish orqali ko‘rsatilgan, muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarilgan. Uchinchidan esa, olim bir tomondan, turkman, tojik, o‘zbek xalqlari noqillari hamda roviylari yaratgan Navoiy haqidagi omiyona hikoyatlar, latifalar hamda ertaklarni

g‘oyatda tadrijiy takomildagi ilmiy analizini bergan; fanda ularni ilk bor aniq ilmiy tasnif etgan; ayrim hikoyatlarning syujetini tarixiy haqiqatga , Navoiy asarlaridagi mazmunga qanchalik mos kelishi yoki kelmasligini qiyosiy-tipologik usulda tekshirgan. Shundan so‘ng Navoiy ijodining o‘zbek xalq og‘zaki adabiyotiga ta’siri masalasini tahlil etgan olim dastlab o‘zbek va tojik xalqlari tomonidan “Xamsa” dostonlari mazmuni, timsollari, g‘oyalari asosida yaratilgan ertaklar, dostonlarni O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limida saqlanayotgan qo‘lyozma manbalar asosida o‘rgangan. Keyin esa, muallif “Navoiy va o‘zbek xalq kitoblari” muammosini qo‘zg‘ab, ilmda g‘oyatda yangi, dolzarb masalani keng ilm-adab ahli e’tiboriga havola etgan; “Nusxai “Xamsa”i benazir” singari manba haqida ilk bor ma’lumot bergan. Monografiyada XIX asrda yashagan o‘zbek yozuvchisi Umar Boqiyning hayoti va ijodiy merosi adabiyotshunoslikda daf’atan tahlilga tortilgan. Zeroki, Umar Boqiy Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarining shu nomdagi xalq variantini yaratgan bo‘lsa-da, u hali ilm-fanda maxsus o‘rganilmagan, o‘z bahosini olmagan edi. Ustoz nasr va nazm aralash bitilgan har ikki kitobning mazmuni, tuzilishi, obrazlar silsilasi, Navoiy asarlariga qay jihatdan yaqinligi-yu, tafovutlarini ilmiy nuqtayi nazardan qiyoslab, tekshirib umumlashtirgan. Eng muhimi, Umar Boqiy mahorati, bu asarlarning o‘ziga xos jozibasi muhim lavhalarning poetik nuqtayi nazardan jiddiy tahlili jarayonida asosli ravishda uqtirilgan; xalq kitoblarining tili va uslubi xususida mutlaqo yangi ilmiy-amaliy fikrlar izhor etgan. Mallaevning ushbu tadqiqoti o‘zbek adabiyotshunosligida toza yo‘nalish – O‘zbek klassik adabiyoti va folklor muammosini boshlab berdi. Hozir u kishining vorislari, shogirdlari bu yo‘nalishning turli qirralarini o‘z tadqiqotlarida kashf etmoqdalar. Ustoz tomonidan tayyorlangan “Alisher Navoiy. Lirika” deb nomlangan qo‘llanmasi necha bor qayta nashr etildi. Chunki, unda olim Navoiyning shoh g‘azallaridan bir turkumini to‘plab, ularni qanday o‘qish va sharhlab tahlil etish yo‘lini zukkolik bilan ko‘rsatib bergan edi. O‘sha kezlari bunday qo‘llanma klassik adabiyot ixlosmandlari uchun juda zarur edi. U hozir ham o‘z ta’limiy va ma’rifiy qimmatini yo‘qotgan emas.

Professor N.M.Mallaevning buyuk shoir ijodi haqidagi so‘nggi kitobi “So‘z san’atining gultoji” (1992) deb ataladi. Navoiy “Xamsa”siga bag‘ishlangan boshqa bir qancha tadqiqotlardan bu asarning farqi shundaki, uni mutolaa qilgan ilm-adab ahli Navoiyning Sharq xamsanavisligidagi o‘ziga xos o‘rni, bu borada turkiy adabiyotda maktab yaratganligi, har bir dostonning mundarijasi, obrazlar tizimi, ularda ifodalangan yuksak ilg‘or g‘oyalar, shoirning san’atkorlik mahorati xususida bir-biriga uzviy bog‘langan yo‘sinda yaxlit tasavvurga ega bo‘ladi, ma’rifat oladi, ilm o‘rganadi.

Mustaqillik yillarida navoiyshunosligimiz yangi o‘zanda yanada jiddiy rivojlanmoqda. Shoir asarlarining 20 jildlik nashri nihoyasiga yetdi, ayrim risolalarining yangi tanqidiy matnlari ustida ish olib borilmoqda; shoir asarlarining ijtimoiy-falsafiy, diniy, irfoniy, ma’rifiy, axloqiy, ta’limiy va siyosiy jihatlari yaxlit o‘rganilmoqda. Har gal soha nuktadonlari Navoiy merosining u yoki bu jihatiga murojaat etar ekanlar, N.M.Mallaev asarlarini ham mamnuniyat bilan eslaydilar, ba’zilariga murojaat etadilar. Demak, zamonamizning zabardast olimi, pokziynat murabbiysi Natan Murodovich Mallaev o‘z odamiyligi va umrboqiy asarlari bilan bizga hamisha hamroz-u hamdam ekan.

MILLIY RUH POSBONI

Qozoqboy Yo‘ldosh
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
professori, ped. fan. dok.

Odatdagi o‘lchovlarga bo‘y bermaydigan ulkan adabiy hodisalarning mohiyatini anglash va izohlash juda qiyin. Adabiyottanuv ilmi uchun Abdulla Orif fenomeni – tushuntirish mushkul bo‘lgan shunday muammo. Bu fenomenga xos bir ko‘p jihatlar hali yetarlicha o‘rganilgan emas. Balki bu adabiy shaxsiyatga xos jihatlarni to‘liq o‘rganmoq hech qachon mumkin bo‘lmas ham. Bunga sabab betakror talantning mohiyatini tushunish, uning faqat o‘ziga xos badiiyatidagi ko‘z ilg‘amas sohirlikni mantiqning universal tiliga ko‘chirish o‘ta og‘irligidir. Chunki

mantiq qonuniyatga tayanadi, qonuniyat esa takrorni taqozo qiladi. Ilm san’at hodisasining qolipda namoyon bo‘lgan mohiyatinigina izohlay oladi. Abdulla Orif she’riyati qoliplarga sig‘mas betakror hodisa o‘laroq qonuniyatga to‘liq bo‘y bermaydi.

Bunday betakror hodisani to‘liq izohlash osmonni quchmoq, ummonni chelakka, tog‘ni qopga joylamoq singari imkonsiz yumushdir. Biroq ko‘kka uchish, ummonda suzish, tog‘ni kezish zarur bo‘lganidek, qaytarilmas poetik hodisani ham tekshirish, uni bir qadar bo‘lsa-da, tushunish-u izohlashga ulkan hayotiy ehtiyoj bor. Ushbu maqola ana shu ehtiyoj yo‘lidagi bir urinishginadir.

***

Odatda har bir davr paydo bo‘lgan ulkan muammolarni hal qiladigan daholarni yaratadi. Abdulla Orif degan betakror poetik hodisani esa u yashagan davr yaratmadi. Negaki, u yashagan davr bu singari fenomen yaralishiga mutlaqo zid edi. Abdulla Orif chog‘doshlarning ruhiy olami va tuyg‘ular tizimiga qudratli ta’sir ko‘rsatish orqali o‘zining yangi bir davrini yaratdi. To‘g‘ri, shoirning ijodi sabab ijtimoiy tuzum, odamlarning yashash yo‘sini o‘zgarib ketmadi. Lekin uning she’riyati millat ruhiyatiga xos asl jihatlarning nazokatli poetik tasviri orqali odamni mafkuraning soxta qutqulariga to‘la berilib milliy ruhni yo‘qotishdan, ota til jozibasini his etmaslikdan, ulusga xos sezimlarni ajralib qolishdan saqlab qoldi. Shoirning dilbar va samimiy she’rlari rasmiy idoralarlarda to‘la hukmron bo‘lgan yolg‘onning millat ruhiyatini ham egallab olishiga yo‘l qo‘ymadi.

Chin iste’dodga davrning tazyiq-u cheklovlari to‘siq bo‘lolmaydi. Iste’dod davrdan, vaziyatdan marhamat kutmasligi, har qanday to‘siqni yenga olishi bilan iste’doddir. O‘ta noqulay sharoitda ham ko‘nglidagisini yuzaga chiqara olish iste’dodning asl belgisi sanaladi. Abdulla Orif she’riyati har bitta o‘zbekning ichki olamiga teran kirib borgani uchun ham egamanlikkacha bo‘lgan davrda yashagan fikrlovchi o‘zbekning ma’naviy olamini shakllantirgan, deb aytsa bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘sha vaqtda ko‘ngil ko‘zi ochiq o‘zbekki bor istisnosiz bu she’rlar bilan oshno edi.

Abdulla Orifning barcha asarlarida davrning izi yaqqol koʻrinib tursa-da, bu izlarning nima uchun aynan shu tarzda poetik ifodalangani sababini izohlash oʻta qiyin. Uning hech kimga oʻxshamaydigan yoʻsinda fikrlaydigan, hayot hodisalaridan oʻzga zamondoshlariga qaraganda boshqacha ta'sirlanadigan va uni boʻlakcha tasvirlaydigan shoir ekani bu yumushni yanada mushkullashtiradi.

A. Orifning she'riyati ozod va pokiza koʻngilning goh mayin, goh nolakor, goh oʻtli, goh mungli manzaralarini, ba'zan bu holatlarning barchasini birvarakayiga ohangdor va musiqiy oʻzbek soʻzi orqali ifodalash natijasi oʻlaroq dunyoga keladi. She'r yozish siyosiy yumush sanalgan davrda shoir odamning ruhiyatini tadqiq etdi, tuygʻular jilvasini tasvirladi. Abdulla Orif she'riyat maydoniga qadam qoʻygan davrda odamning kimligi uning ijtimoiy mavqei bilan oʻlchanib, qandayligi sinfiy mansubligiga qarab baholanardi. Alohida shaxs jamiyatga qarshi qoʻyilar, ommaning istak va manfaatlari alohida odamnikidan solishtirib boʻlmaydigan darajada yuqori baholanardi. Konkret shaxsning koʻngli manzaralarini tasvirlash ayb sanalardi. Shunday bir sharoitda Abdulla Orif ommani emas, alohida odamning ruhiy olamini badiiy tadqiq etishga tutindi. U yangi oʻzbek she'riyati uchun bir odamning koʻngil holatini tuyish, tushunish va tasvirlash oʻta muhim ekanini tuygan ilk ijodkor boʻldi. Konkret odamga yaqinlashib, uning koʻngil holatlarini boricha ifodalash shoir she'riyatiga oʻzgacha samimiylik, dardchillik baxsh etdi. Ma'lumki, alohida odam doim dardmand, sertashvish va tushunilishga muhtojdir. Olomonni esa dardsizlik birlashtiradi.

She'r koʻpincha dard ifodasidir. U kamdan kam hollarda quvonchdan tugʻiladi. She'r – qaygʻuning oʻz, quvonchning esa oʻgay bolasi. Hukmron kommunistik mafkura ijodkordan faqat oʻgay bolaga e'tibor qaratib, sotsialistik turmushning xushyoqar jihatlarini aks ettirishni talab qilardi. Shunday sharoitda mafkuraviy she'riyat qobiqlarini yorib chiqib, alohida odamning koʻngil holatini tasvirlaydigan, lirikani quloqqa emas, yurakka yaqinlashtiradigan ijodkorga ulkan ehtiyoj bor edi. Aks holda xalq ruhiyatiga zoʻrlik va zugʻum bilan singdirilayotgan noinsoniy sifatlar millatning ma'naviyatini majruh qilib, oʻzligidan ayirishi mumkin edi.

Abdulla Orif she’riyati o‘zbek lirikasiga ko‘ngil dardlari suvratlari, ruhiy iztiroblar manzarasini olib kirdi. Shoir o‘tmishda shonli bobolari dunyo bilan bo‘ylashgan, bugun olam va odamni toza ko‘rmoq qayg‘usida yashayotgan o‘zbekning o‘tli nolalarini she’rga soldi. U quruqshagan o‘zbek she’riyatiga o‘ychil g‘am va g‘amchil o‘y olib kirib, odamning ichki dardlari, chigal ruhiyati manzarasini chizdi. Shu sabab shoir she’rlariga hayqiriq emas, hazinlik va mung xos edi. Ayonki, hayqiriq odamlarni bir-biridan uzoqlashtiradi, u dardlashish vositasi emas. Abdulla Orif esa o‘ta ingichka tuyg‘ular, ismsiz dardlarni she’rga soldi. Hasratzada, ozurdajon ko‘ngil mavjlari, komillikdan “yulduzlar qadar yiroq“ kishilar borligidan ta’sirchan yurakda qolgan ozorlar bu she’riyatning manbasi edi.

A.Orifning alamangiz va mungli satrlari o‘zbekning ko‘ngli to‘ridan joy oldi. Sovet davrida g‘oyat keng yoyilgan da’vatkor she’riyat quloq pardalarini zo‘riqtirgan bo‘lsa, shoirning sokin va samimiy she’rlari ko‘ngil ko‘ziga tushgan pardalarni yirtib, dildagi zanglarni ko‘chirdi. Bu bitiklar bilan oshno bo‘lgan she’rxon bexosdan o‘zida ham nozik hislar, ingichka sezimlar borligini, ruhiyatining qay bir puchmoqlarida toza tuyg‘ular mavj urayotganini payqab qoldi. Yarador qalbning nidolari bo‘lmish o‘sha mayin she’rlar tufayli milliy ruhiyat tugal inqirozdan saqlab qolindi.

Kommunistik mafkura yolg‘onni jamiyatning axloqi darajasiga ko‘tarib, odamlarning sezimlariga-da tazyiq o‘tkazayotgan bir paytda A. Orifning dardchil she’riyati o‘zbekni sezimlarning quruqshab qolishi va tuyg‘ular tanazzulidan saqlab qoldi. O‘z tuyg‘ularini “***Qaydadir gulshandan axtarib visol Yel kezar tog‘larning go‘zal arvohi. Shoirning dilrabo baytlari misol Oh tortib tizilar turnalar gohi***” tarzida o‘ta ta’sirli, mayin va o‘zbekcha ifodalay olgan shoir millatning ichki dunyosiga teran kirib borishi tabiiy edi. Oldin ishlatilmaydigan yo‘sinda qo‘llangan tom o‘zbekcha samimiy, mayin va nazokatli so‘zlar ruhiyatni oson zabt etdi. Ushbu poetik ifodalar she’rxonlar qalbini, demakki, undagi insoniy mohiyatni ezgulashtirib, go‘zal sezimlar hosil qildi.

Abdulla Orif she’rlaridagi beadad samimiyat, tuyg‘ular chinligi, ifoda injaligi kishini o‘ziga asir qiladi. Shoirning bitganlari o‘y, hissiyot va kayfiyatning quyma manzaralaridir. Inson tuyg‘ulari tovlanishini o‘ta chuqur bilgan hamda ta’sirli ifoda eta olgan shoir she’rlaridagi ayrim chizgilarning o‘ziyoq she’rxonda poetik kayfiyat hosil qiladi: “***Sonsiz egatlarga sochilmish, ana, Mening orzularim, mening o‘ylarim***” yoinki “***Asablar tuproqqa cho‘kkan edi tiz***” yoki “***Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun Turnalar tovushin tinglardim faqat***” yoxud “***Shabnam shovullaydi bog‘lar qo‘ynida Salqin tuman ichra bo‘zarar tonglar, Quyoshning erinchak yog‘dularida Nafis yaltiraydi bargi xazonlar***” yo bo‘lmasa “***Qaro sochlaringda oppoq alanga***” singari satrlar chin insoniy sezimlar va holatlarning yaxlit, ta’sirchan va o‘xshashsiz ifodasi ekani bilan dilni rom etadi.

Abdulla Orif she’riyati yomonlikka murosasiz shaxsning yolqinli iqrorlaridir. Insonga ulkan muhabbat tuygan shoir uni komil ko‘rmoq istaydi. Odamda esa nuqson-u illatlar ko‘pligi va uning bu illatlardan qutulishga oshiqmayotgani shoir ruhiyatini qiymalaydi. Shu bois u koinot sarvari deyilmish hazrati odamdan yozg‘iradi. Shoir she’rlarida murosasizlik kuchli ekani sababi insonni nuqsonlardan xoli ko‘rish istagidan. Shoir odamni emas, undagi illatlarni yomon ko‘rishi: “***Yo‘q, maymundan tarqamagan derdim odamzod***”,- misrasidan bilinadi.

Abdulla Orif she’riyati samimiyat ifodasi ekani sabab ko‘ngillarni rom etib, yuraklarga singib ketadi. Shoir samimiyati uning o‘z dunyosi, ruhiyati, kayfiyati, hissiyotini taftish qilishi va o‘zini anglashga astoydil urinishida namoyon bo‘ladi. Saratondagi epkinday sezilmas hodisalardanda kuchli darajada ta’sirlanadigan bezovta qalb egasi bo‘lgan shoir o‘zini ruhiy muvozanatdan chiqargan holatlarni o‘ta ta’sirli tasvirlaydi. Atrof javonibda ommaviy baxt haqida tinimsiz jag‘ urilayotgan bir vaqtda u har bir alohida odamning qalbidagi dardni tuyib, aks ettirardi.

Obrazlarning teran xalqchil tomirlarga egaligi Abdulla Orif she’riyatini millat ruhining suvratlariga aylantirdi. Eng chigal ruhiy holatlarni ham g‘oyat ulkan nazokat va yuksak joziba bilan aniq va ta’sirli ifodalay bilish shoir she’rlariga

o‘zgacha tarovat baxsh etadi. San’atkor uchqunda alanga, qatim nurda quyosh, tomchida ummonni ko‘ra biladigan qudratli ijodiy tasavvur va tug‘yonlarini so‘zda moddiylashtira bilish qudratiga ega edi.

Poetik ifodaning aniq va tuyg‘ularni bezovta qiladigan darajada ko‘rimli va milliy bo‘lishi jihatidan Abdulla Orif she’riyati milliy adabiyotdagi tengsiz hodisadir. Shoirning: “***Oyoqlangan qo‘ziday dovdirar yelda maysa, Ko‘m-ko‘k moviy osmonda kezib yurar oq bulut***” satrlaridagi tashbihlar puxta hayotiy asosga egaligi hamda cheksiz hissiy va mantiqiy qudrati bilan kishini hayratga soladi. Yelda silkinayotgan ko‘klamiy maysa holatining endigina oyoq bosmoqchi bo‘lib dovdirayotgan qo‘zichoqqa o‘xshatilishi xalq turmushini bilgangina emas, ichdan tuygan kishining qo‘lidan keladigan ishdir. Ayni vaqtda birgina chizgi bilan ko‘klam osmoni holatini ham yorqin suratlantira olish uchun esa ulkan iste’dod kerak bo‘ladi.

Ko‘z oldiga keltirish mushkul, ifodalash deyarli mumkin bo‘lmagan mavhum sezimlarni moddiylashtirish borasida Abdulla Orif tengsiz mahoratga egadir: “***Yorilmagan yaraday sevgi!***”- deydi bir she’rida. Quloqqa chalinishidan bo‘lak moddiyligi yo‘q tuyg‘uni bundanda ortiq tuyimli qilib tasvirlash mumkin emas.

A.Orif olamning holati va odamning kayfiyatini manzaralashtirish jihatidan tengsiz qudratga ega:

Qaldiroq gumburlar yuksak tog‘larda,
Chiltor qillariday taralar yomg‘ir.
Shamol shovullaydi qadim bog‘larda,
Buyuk ko‘hna dunyo ko‘pchiydi og‘ir.

Jahon she’riyati xazinasidan ham tog‘lardagi qaldiroq gumburi, yomg‘irning chiltor qillariday taralishi, shamolning qadim bog‘lardagi shovuri, ertangi kunni tug‘moqqa shaylanayotgan og‘iroyoq dunyoning xamir kabi ko‘pchishi kabi miqyosli va serqatlam holatlarni mantiqiy izchillikni saqlagan holda shu qadar ta’sirli chizib bera oladigan boshqa bir she’rni topish qiyin. Ifoda izchilligi, tasvir

ketma-ketligi nafaqat ma’no jihatidan, balki harakat va ohang jihatidan ham uyg‘unlashtirilgani she’rning badiiy ta’sir darajasini necha baravar oshirgan.

Abdulla Orif o‘z she’rlarida chuqur insoniy iztiroblar, samimiy tuyg‘ular, hissiyotning kamalakday tovlanishlarini aks ettirish orqali millatning ko‘ngil dardlarini ifoda qiladi. Jumladan, atrofidagi illatga botgan va xiyonatkor kimsalar bois ko‘ziga olam nursiz ko‘rinib, olti oydan buyon she’r yozishga qo‘li bormayotgan ijod kishisining hasratli tuyg‘ulari aks etgan mashhur “Sarob” she’rida odamlarni tushunmoqchi, hayotning ma’nosini anglamoqchi bo‘lgan shaxs kechinmalari ulkan dard bilan tasvirlanadi:

Olti oykim, she’r yozmayman, yuragim zada,
Olti oykim o‘zgalarga tilayman omad.
Olti oykim, do‘stlarim ham pana-panada
Iste’dodim so‘nganidan qilar karomat.
Nimanidir axtaraman — she’rdan ham ulug‘,
Nimanidir axtaraman — nondan azizroq.
Dunyo o‘zi bepoyon-ku, ranglarga to‘lug‘,
Biroq mening ko‘zlarimdan ranglar ham yiroq.

Odam atrof olamni o‘z kayfiyatiga mutanosib ko‘radi. Ko‘ziga olamning har bir jilvasi she’r bo‘lib tuyuladigan shoir uchun olti oydan buyon she’r yozmaslik – og‘ir ko‘rgulik. Bunday holga tushgan odamga dunyoning yoqimli ko‘rinishi mumkin emas. Shoir shunday ahvoldagi shaxs ruhiy holatini tengsiz mahorat bilan aks ettiradi. Zero, do‘stman deb yurganlar iste’dodi “so‘nganidan karomat” qiladigan sharoitda kishining ko‘ziga olam rangsiz va sovuq ko‘rinib, unda biror yoqimli chizgi ko‘zga tashlanmasligi tabiiydir.

Odamlar uchun ming otashda kuygan shoir, o‘z navbatida, odamlardan ham ta’masiz muhabbat kutadi:

Ta’na qilmay axir sevgim mukofotini
Inson uchun ming otashda kuyar edim men
O, qanchalar sevar edim inson zotini,

Qanday buyuk muhabbat-la sevar edim men.
Bugun to‘nib, atrofimga qarayman sekin,
O‘t berolmas qalbga endi u yoshlik damlar.
Men insonni bir insonday sevardim, lekin
Nechun ko‘pdir haligacha razil odamlar.

Shoirning achchiq iqrori zamiridagi samimiyat o‘qirman hissiyotini bezovta qilib, o‘ziga rom etadi. She’rdagi bezovtalik, qoniqmaslik she’rxonnida o‘zini taftish qilishga undaydi. Taftish esa poklanish yo‘lidagi ilk qadamdir.

Dunyodan ezgulik, odamlardan tozalik izlagan shoir qidirganlarining bolalikda qolib ketgan armonlargina ekanidan iztirobga tushadi: “***Ko‘z oldimda kiprikdayin tizilar yillar, Har biriga marjon bo‘lar achchiq unlarim. Xira tuman orasida cho‘g‘day miltillar Jayron quvib jayron yanglig‘ o‘tgan kunlarim***”. Bu misralardan adoqsiz g‘am ufurib turibdi. O‘tgan umri haqidagi xayolga g‘arq bo‘lgan o‘ychan yigitning olamga sig‘mas dardli tuyg‘ulari teran aks etgan bu she’r yaralganida shoir bor-yo‘g‘i yigirma besh yoshda edi. Ammo u o‘tgan umri haqida juda uzoq yashagan oqsoqolday fikr yuritib, “kiprikdayin tizilgan yillar”ga “achchiq unlari” marjon bo‘lganini yodga oladi.

Hayotni farovon, insonni komil ko‘rishni istagani shoirda odamzotning razolatga botib borayotgani adoqsiz g‘am paydo qiladi. Shoir dunyoning kemtikligi, odamlarda illat ko‘pligidan dard chekadi. She’rning keyingi misralaridan shoir dardlarining ildizlari teran, ko‘lami katta ekani anglashiladi. Barchaga muhabbat-u oqibat ko‘rsatgan lirik qahramon boshqalardan ham poklik, musaffolik, mehr-u muhabbat kutadi. Ko‘ngil darvozasini hammaga ochib qo‘ygan shoir sadoqatiga xiyonat, ishonchiga aldov, muhabbatiga nafrat bilan to‘lov qaytargan kimsalar sabab ko‘kayida paydo bo‘lgan achchiq armonlarni: “***Quyundayin charx urardik doim to‘zonda, Chang neligin bilmas edik o‘shanda hali. Onamizni o‘ylar edik inson deganda, Ammo ona tanholigin bilmasdik hali***”,- deya ifoda etadi. She’riy parchaning dastlabki misralarida bolalikning beg‘ubor onlari, olamni g‘uborsiz sanab, “chang neligin bilmay” kechirilgan bolalik aks etgan bo‘lsa, “***Onamizni***

o‘ylar edik inson deganda” satrida shoirning odamlarga bo‘lgan beg‘araz ishonchi ifodalanadi. So‘nggi qatorda esa dunyoga ishonch to‘la ko‘z bilan boqqan lirik qahramonning ona kabi beg‘araz ezgu zot yo‘qligini bilmasligi tasvirlanadi.

She’rda nafaqat o‘zgalar, balki o‘zini ham tushunmoqchi bo‘lgan inson ruhiyati aks etadi. Odamlarda ezgulik ko‘rmayotgani bois shoir nazariga yorug‘ ranglar tashlanavermaydi. Yuksak g‘oyalar sarob, nurli kelajak haqidagi gaplar puch ekanini anglash uni umidsizlikka tushirganday bo‘ladi. Lekin lirik qahramonning toza ko‘ngli olamda xalq, Vatan singari yuksak va mangu tushunchalar-u, ular oldida o‘talishi kerak bo‘lgan burch kabi o‘lmas tuyg‘ular borligini his etadi. Shoir yoshlikdagi toza tuyg‘ularidan ayrilsa-da, umidsizlanib dunyodan qo‘l siltamaydi. Lekin she’rning eng umidbaxsh o‘rinlarida ham dunyoning kemtikligi, odamning nokomilligi tufayli shoirni o‘rab olgan mung sezilib turadi:

Xazon to‘la bog‘chalarga boraman tag‘in,
Yana o‘zni xayol ila she’rga tashlayman.
To‘nib qolgan yuragimga berib bir taskin,
Yana quvnoq qo‘shiqlarni kuylay boshlayman.

“***Quvnoq qo‘shiqlarni kuylay boshla***”gan odam kayfiyatidagi ezginlik o‘qirman e’tiborini tortadi. She’rda qo‘llangan “***Xazon to‘la bog‘chalarga bor***”ish, “***To‘nib qolgan yuragi***”ga taskin berish kabi tashbihlarda fikrchan odamning samimiy tuyg‘ulari aks etgan. Bu she’r toza hissiyotli odamning pokiza ko‘nglidagi otashin tuyg‘ular ifodasidir: “***Injiq ruhim may istaydi gohi-gohida, Faqat uning og‘ushida topaman orom. Xayollarim sarxush bo‘lib kezgan chog‘ida U bearmon kunlarimga qaytaman tamom***”. Ulkan dard ifodasi bo‘lmish bu samimiy she’rda qahramonni mayga oshno qilayotgan sabablarga e’tibor qilinsa, muallifning poetik niyati anglab yetiladi. Betakror mahorat bilan yozilgan ushbu she’rda odam degan hodisaning o‘ta sirli ekani, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning chigal hamda tushunarsizligi ta’sirchan ifoda etilgan. Shoirning san’atkorligi shundaki, u hodisalarning boshqalar ham ko‘rib turgan, ammo payqamagan jihatlarini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi.

Asl poetik iste’dod nigohning o‘tkirligi, tuyg‘uning nozikligi, hissiyotning teranligi, ifodaning aniqligida namoyon bo‘ladi. Ko‘klamda o‘rik g‘o‘ralarini barcha ko‘rgan, ammo faqat chin shoirgina unda ham hayot bardavomligi nishonasini, ham o‘zbek ayoliga xos tengsiz andishani ko‘ra va ko‘rsata biladi: “***Dilbar kelinchak-ning ko‘ksida g‘ulu Zardoli shoxiga tashlar ko‘z qirin***”. Shoirning mahorati bu o‘rinda mim darajasiga ko‘tariladi: u aytmaydi, ishora bilan anglatadi. U imlab ko‘rsatgan joyda o‘zbek qizining tug‘ma andishasi, minglab yillik milliy madaniyati bo‘y ko‘rsatadi. Qanchalik g‘o‘ra yegisi kelmasin, buni boshqalarga bildirmaslik uchun fikr-u zikrini band qilgan o‘rikka ochiq qaramay, ko‘z qirini tashlash faqat o‘zbek kelinchagiga xos milliy xususiyat bo‘lganidek, bu holatda umr davomiyligi borligini ko‘ra va ko‘rsata bilish ham faqat Abdulla Orif eplaydigan yumushdir.

She’riyatga qayg‘uning yo‘ldoshligi haqida ko‘p yozilgan, lekin uni o‘qirman ko‘z oldiga yaqqol keltirib qo‘yish juda kam shoirning qo‘lidan keladi. Quvonch to‘g‘risida ham kam bitilmagan, biroq shodlikni moddiylashtirish ham kamdan kam ijodkorga nasib etgan. Abdulla Orifning betakror iste’dodi ayni shu qiyindan-qiyin ikki yumushni birgina baytda qilolganida yaqqol ko‘rinadi: “***Qizg‘aldoq bargidek uchar dildan g‘am Toshqinlar kiradi qalbimga manim***”. G‘amni ko‘z oldiga keltirib bo‘lmaydi, lekin qizg‘aldoqning gulbargini hamma biladi. Uni yengil bir harakat bilan uchirib yuborish mumkinligi ham ma’lum. Shoir qalbidan qig‘aldoq yaprog‘idek uchirib yuborilgan g‘am o‘rniga ***toshqin*** kirmoqda. Shodlik tilga olingani yo‘q, lekin shoir ko‘ngliga kirgan toshqin unga ulkan quvonch yor bo‘lgani belgisidir. Chinakam ulkan san’atkorgina buni shu yo‘sin ifodalay biladi.

Abdulla Orif – o‘xshashi yo‘q badiiy manzaralar shuuriga yaxlit holda quyilib keladigan ijodkor. Uning ko‘pchilik she’rlarida poetik manzaralar tasvirining choki mutlaqo bilinmasligi kishida shoir tasvir uchun so‘z izlamay, osongina yozaveradiganday taassurot qoldiradi. Bu holat shoir tasvir imkoniyatining cheksizligidan dalolatdir:

Yellar ham uyg‘ondi ishqalab kaftin,
Oftob ham yuksaldi – tik kelar quyosh.

Tog‘lar ham yuk tashlab ko‘tardi kiftin,
Bezavol maysa ham silkitadi bosh.
Tarnovlar bo‘g‘zida lola ham ko‘rkam,
Teraklar uchida izg‘ir mavjudot.
Hattoki, tuyg‘usiz chirik xazon ham
Yashil po‘panakdan bog‘labdi qanot.
Hovliqma jilg‘alar chopar beega,
Qushlar qiy-chuviga to‘lmish dala, bog‘...

Bu misralardagi har bir tamsil o‘z o‘rnida, har bir tashbih obrazning mohiyatini to‘liq ochishga yo‘naltirilgan, har bir ifoda mohiyatni yaqqolroq anglatishga xizmat qiladi. Bu qadar hayotiy va soddavash, bunchalar batafsil va yuksak estetik energiyasi bor plastik tasvirga erishmoq uchun shoir she’riy mahoratning cho‘qqilarini zabt etgan bo‘lishi kerak.

Egamanlikdan so‘ng millat o‘z tarixining shaxslashish bosqichiga kirdi. Bu davrda did va qiziqishlar xilma-xillashdi, endilikda birovga juda yoqqan asar boshqa birovga mutlaqo yoqmasligi oddiy holga aylandi. Axborot olinadigan manbalar ko‘payib, odamning xabardorlik imkoniyati ortgani sari badiiy adabiyot jamiyat a’zolarining diqqat markazidagi yagona hodisa bo‘lmay qoldi. Millat ahli adabiyotdan yiroqlashib, unga beparvo qaray boshladi. To‘g‘ri, odamlar adabiyotdan tamomila yuz o‘girmadi, o‘qishning boshqa usul va ko‘rinishlariga yuz burdi. Hozir ham davom etayotgan bu bosqich adabiyot uchun chinakam sinov davri bo‘ldi. Abdulla Orif she’riyati mana shu sinovlardan ham sharaf bilan o‘tib, ulus ruhiyat va tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Inson ruhiyatining buyuk me’mori bo‘lgan shoir to‘daga, olomonga aylangan odamlarga hadik bilan qaraydi. To‘dada odam o‘z shaxslik qiyofasini yo‘qotib, boshvoqsiz yirtqichga aylanishi mumkinligidan xavotirini shoir: “***Bir hisni yashirib axir netaman, To‘dani ko‘rganda qo‘rqib ketaman***”,- deya g‘oyat esda qoladigan yo‘sinda tasvirlaydi.

Qadriyatlardagi kutilmagan evrilishlar, axloqdagi o‘zgarishlar shoirni o‘yga botiradi. Teran afsus tuyg‘usi shoirning yetti bandlik “**O‘kinch**” she’rida g‘oyat ta’sirli ifoda etilgan. She’rning “***Bir vaqtlar tug‘ilgan joyim bor edi, Uchsam qo‘nadigan ishonchli oshyon. Men uchun hamisha iftixor edi, Bugun begonadir menga u makon***” tarzidagi ilk bandiyoq ulkan hasrat ifodasi o‘laroq she’rxon ruhiyatini bezovta qiladi. Ayni vaqtda u o‘qirmanda qator savollar paydo qiladi. Bir vaqtlar tug‘ilgan joyning bugun lirik qahramonga begona bo‘lib qolishi daf’atan tushunarli emas. Buni anglash uchun she’rxon aqlan va ruhan zo‘riqishi lozim bo‘ladi. Ma’lumki, har qanday makon, hatto vatan ham odam bilan mukarram. Bir vaqtlar, ya’ni ota-ona va boshqa yaqinlar hayot bo‘lib, shoir o‘zini ko‘kdagi burgutday his etib yurgan damlarda tug‘ilgan makon ishonchli oshyon edi. Bugun u – shoirga begona. Bu begonalikka sabab “muhabbat, hurmat, oqibat” ulashguvchi yaqinlarning dunyodan o‘tib, mung‘aygan qabrlarigina qolgani. Ota-onaning o‘tishi ulardan meros ezgu tuyg‘ularningda yitishiga olib kelgani she’rda ta’sirli ifoda etiladi:

Mehr ila muhabbat, hurmat, oqibat,
Bilmadim, qaygadir bo‘lmishlar g‘oyib.
Tepalik bag‘rida ko‘rinar faqat,
Otam va onamning qabri mung‘ayib.

Shoirning maqsadi – dardini aytib hasrat qilish emas. Mustamlaka o‘lkada havas qilib bo‘lmaydigan yo‘sinda hayot kechirishga majbur bo‘lgan lirik qahramon bugungi ozod yurt egasi bo‘lmish yosh chog‘doshiga katta yoshdagilar nomidan: “***Men uzoq davrlar qaroqchi bo‘ldim, Shu yo‘lda toblandi, aql va yurak. O‘zimdan o‘tganin men o‘zim bildim, Sen nega qaroqchi bo‘lmog‘ing kerak***?”- deya savol qo‘yib, uni odamiylikka imkon bor sharoitda odam bo‘lishga chaqiradi. She’rning bir qadar avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan keyingi bandida tasvir o‘zgacha taranglik va ta’sir kasb etadi:

Men yopiq qo‘rg‘onda yashadim qo‘rqib,
Najot devoriga tirmashdim uzoq.

Sen nega dunyoga qaraysan hurkib,

Nega sen bo‘lishing kerakdir qo‘rqoq?

Ushbu banddagi “yopiq qo‘rg‘on”, “najot devori” singari tafsillar ramziy ma’noga ega bo‘lib, sovet tuzumi va uning mafkurasi shoir hayoti va ijodiga o‘tkazgan zug‘umni ham anglatadi. Shoir ritorik so‘roqlar orqali yosh zamondoshini illatlardan qutulishga chorlaydi.

She’rning keyingi bandida lirik qahramonga qaratilgan tanqid tig‘i yana o‘tkirlashib: “***Qasamxo‘r dunyoda kun ko‘rmoq uchun, Aytmagan yolg‘onim qolmadi biror***”,- deyiladi. Navbatdagi bandda esa iqrorning achchig‘i yuqori nuqtaga yetganday bo‘ladi: “***Duch kelgan kimsaga qildim xushomad, Oyog‘in yaladim mushukday hatto. Egildi bir zamon tik bo‘lgan qomat, Bu holni senga hech ko‘rmasman ravo***”. She’rning mohiyati so‘nggi misrada yaqqol namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon egaman yurtda yashayotgan yosh zamondoshining o‘ziga qismatdosh bo‘lishini istamaydi. Bu istak ifodasi bitikning yakunlovchi akkordida haddi a’losiga yetadi: “***Men hayot qo‘lida bo‘ldim o‘yinchoq, Baxtsiz yashab o‘tdim, sen baxtsiz bo‘lma***”. Shoir chog‘doshini zamonga moslashishga emas, balki zamonni o‘ziga moslab erkin yashashga chorlaydi.

Abdulla Orifning she’riyati o‘zining badiiy-estetik ta’sir qudrati bilan millatning ko‘zi oldingidan o‘tkirroq, tuyg‘ulari boy va nozikroq bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu she’rlar o‘qirmanni olamga shoir nazari bilan qaraydigan, oldinlari ilg‘amagan, ilg‘asa-da anglamagan holat-u, tuyg‘ularni tuyishga xizmat qiladi.

Abdulla Orif ijodining dastlabki bosqichidayoq: “***Meni chorlayotir oliy bir jamol***”,- deya xitob qilgandi. Ehtimol, yosh shoir o‘sha mahaldayoq Alloh jamolini ko‘zda tutgandir. Balki, she’riyatning go‘zal cho‘qqilarini zabt etmoqni istagandir. Endi bu to‘g‘rida qat’iy fikr aytish qiyin. Ammo uning o‘zbek badiiy so‘zining ifoda imkoniyatlarini orttirgani, ismsiz tuyg‘ularga nom qo‘ya bilgani, ifodalash mushkul ruhiy holatlar manzarasini chiza olgani bilan nafaqat milliy she’riyat, balki milliy turmushimizda ham o‘xshashi yo‘q hodisa bo‘lib qolganiga shubha yo‘q. Bundan buyon nainki barcha o‘zbek shoirlari, balki butun o‘zbek millati Abdulla Orif

ta’siridan xoli bo‘lolmaydi. Negaki, uning ijodi milliy she’riyatning yo‘nalishini belgilabgina qolmay, milliy ruhiyatning tarkibini ham tayin etdi. O‘zbekning ruhiyatini tasvirlamoqqa jazm qilgan ijodkorki bor Abdulla Orif fenomeniga duch kelavergani, undan ta’sirlanavergani yanglig‘ o‘zbek sifatida shakllanayotgan odamki bor, ulug‘ shoir buloqlaridan suvlanaveradi. Chunki uning bitiklarida aks etgan tuyg‘ular milliy ruhiyatimizning tarkibiy unsurlariga aylangan.

Buyuk shoirning vafoti bilan uning ikkinchi – adabiy umri boshlandi. Adabiy umrning mangu davom etishiga ishonamiz. To o‘zbek degan millat bor ekan, Abdulla Orif she’rlariga ehtiyoj bo‘laveradi.

NAVOYI[11]SHUNOSLIKNING YECHIMINI KUTAYOTGAN MUAMMOLARI

Jumaxo‘ja Nusratullo Ataullo o‘g‘li
Filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Alisher Navoyi hayoti va ijodiyotini o‘rganish uning hayotligi davridayoq boshlangan. Navoyishunoslik o‘sha davrdan boshlanib, shakllanib, asrlar mobaynida taraqqiy etib kelgan. Atoqli navoyishunos olim Hamid Sulaymon 1959-yili chop etilgan “Xazoyin ul-maoniy”ga so‘zboshi yozganida: *“Alisher Navoyi haqida yangi yosh fan –* ***navoyishunoslik*** *yaratildi”*[12], degan ekan. Darhaqiqat, 1959-60-yillarda Alisher Navoyining lirik kulliyoti – “Xazoyin ul-maoniy” birinchi marta to‘liq nashr etilgan. Undan bir yil oldin – 1958-yili Alisher Navoyining “Xamsa” asari Porso Shamsiev tomonidan yaxlit bir jildda to‘liq nashr etilgan[13]. Mana shu hodisalar H.Sulaymonning navoyishunoslik fan sifatida to‘la

[11] Шоир тахаллусининг шу шакли илмий жиҳатдан тўғри ва биз кейинги йиллардаги барча китоб ва мақолаларимиз нашрида мазкур шаклни қўллаб келмоқдамиз.

[12] Ҳамид Сулаймон. “Хазойин ул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. Алишер Навойи. Хазойин ул-маоний. 1-жилд. Ғаройиб ус-сиғар. ЎзР “Фан”, Т., 1959, 5-бет.

[13] Алишер Навойи. Хамса. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. ЎзР “Фан”, 1958 йил.

shakllandi deyishiga asos bergan. Bu qutlug‘ va ulkan voqealarga ham 60 yildan oshib ketdi! Shu hisobdan kelib chiqsak, navoyishunoslik fan sifatida 60 yoshga to‘lganligini e’tirof etishimizga to‘g‘ri keladi. Ushbu qutlug‘ sana navoyishunoslik ilmidagi yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilish, dolzarb muammolarni qayd etish va navbatdagi vazifalarni belgilab olishni taqozo etadi. Bu sohada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning **“Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoyi tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”**gi Qaroridan dasturilamal sifatida foydalanmog‘imiz maqsadga muvofiqdir.

Navoyishunoslik yaqin yillardan beri mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida fan sifatida o‘qitila boshlandi. Binobarin, bu sohada o‘quv dasturi tuzildi, darslik yaratilib chop qilindi va tahsil jarayoniga tatbiq etildi. Bu hodisalar navoyishunoslik hanuz navqiron va yangi fan ekanligini ko‘rsatadi. Navoyishunoslik endi yangi va yosh o‘quv fani sifatida takomillashdi. 60 yoshdan oshib ham yangi va navqiron fan ekan, navoyishunoslikni yangilanishlar jarayonida tobora rivojlanayotgan fan sifatida e’tirof etsak, o‘rinli bo‘lardi. Bugunda navoyishunoslik bir mahallar qo‘lga kiritgan ba’zi yutuqlar ma’naviy jihatdan eskirdi, shu bilan birga, o‘z yechimini kutayotgan qator dolzarb va prinsipial masalalar ko‘ndalang turibdi.

Navoyi devonlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish zaruriyati

Navoyishunoslikning fan sifatida shakllanishiga, birinchi navbatda, manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishi asos bo‘lgan. Hozir ham shu yo‘nalish dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ilm ahliga ma’lumki, Navoyi “Xamsa”si tarkibidagi barcha dostonlarning va ayrim ilmiy-nasriy asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilgan. Biroq Navoyi she’riy devonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilmagan. Ma’lumki, “Xazoyin ul-maoniy” lirik kulliyotining 1959 – 60-yillardagi nashri titul varag‘ida “Ilmiy-tanqidiy matn asosida nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon” degan yozuv bor. Shuningdek, H.Sulaymonning mazkur nashr uchun yozgan so‘zboshi maqolasida: *“Xazoyin ul-maoniy”ning eski o‘zbek grafikasidagi, to‘liq ilmiy apparat bilan ta’minlangan, akademik teksti alohida nashr qilinmoqda”*, degan havola berilgan. Shunda ilmiy-tanqidiy matn nazarda

tutilgan bo‘lishi kerak. Mana, 60 yil o‘tibdiki, mazkur ilmiy-tanqidiy matn yuzaga chiqmadi va uni birov ko‘rganligi ham ma’lum emas. H. Sulaymonning “Xazoyin ul-maoniy” nashrini yaratishda ishtirok etgan ilmiy jamoasi tarkibidagi olimlardan biri Yoqubjon Is’hoqov ko‘p yillar avval bir suhbatda devon matni ustida katta bir jamoa ish olib borganligi, lekin ilmiy-tanqidiy matnning o‘zi tugal holatda yaratilmaganligi haqida gapirgan edi. So‘zboshidagi yana bir qiziq ma’lumot e’tiborni tortadi. H.Sulaymon: *“Navoyining o‘zbek tilida yaratgan lirik merosining XV-XIX asr qo‘lyozma yodgorliklari asosida tuzilgan katta qiyosiy tablitsasi vujudga keldi”*, deb yozadi va ushbu ma’lumot haqida sahifa tagida: *“Bu qiyosiy tablitsa men nashrga tayyorlayotgan monografiya – “Xazoyin ul-maoniy” ustida olib borilgan tekstologik tadqiqotlar”da bosilib chiqadi”*, deya havola keltiradi. Avans tariqasida va’da qilingan bu monografiyadan ham nom-nishon yo‘q. Baxtga qarshi, navoyishunoslik tarixining shunday ochilmagan sahifalari jumboqligicha turibdi. Biroq shu narsa aniqki, **“Xazoyin ul-maoniy” va boshqa devonlarning ilmiy-tanqidiy matnlari mavjud emas va ularni yaratish zarurdir. Bugunda bunga yetarli imkoniyat va ilmiy salohiyat mavjud.**

Mukammal ilmiy nashrni yaratish muammolari

O‘zbekistonning milliy mustaqilligi davrida Alisher Navoyi asarlari 20 tomlik “Mukammal asarlar to‘plami” (keyingi o‘rinlarda “MAT” deb yuritiladi) va 10 tomlik “To‘la asarlar to‘plami” (keyingi o‘rinlarda “TAT” deb yuritiladi) nashr etildi. Agar bu nashrlar halollik, hamjihatlik, akademik ilmiy prinsipiallik asosida amalga oshirilganida edi, ehtimol, Navoyi asarlari matnshunosligi oldida muammolar bugungidek ko‘ndalang turmagan bo‘lardi.

Aslida, ushbu ikki nashr o‘zigacha bo‘lgan ko‘p tomliklarga nisbatan sifat va saviya jihatidan baland darajada bajarilgan. Bu ikkala salmoqli nashr orasida, ayniqsa, MAT sifat va saviya e’tibori bilan yuqori turadi. Lekin u ham prinsipial kamchiliklardan xoli emas. Ulardan ayrimlarinigina qayd etib o‘tishni joiz topamiz. MAT ikki ilmiy tadqiqot muassasasi – O‘zR FA Til va adabiyot instituti va O‘zR FA Qo‘lyozmalar instituti tomonidan nashrga tayyorlangan. Ana shu ikki ilmiy

muassasa mutaxassislarining bir-biridan farqlanuvchi matnshunoslik nuqtai nazari MATning ular tayyorlagan jildlaridagi asarlar matniy xususiyatlarida tafovut keltirib chiqargan. Bunday bo‘lmasligi lozim edi. Chunki Navoyi qalamiga mansub asarlarning til va uslubi yagona. Uni farqlantirish o‘rinsiz. Alisher Navoyi merosiga mansub bo‘lmagan asarlardan biri – “Risolai tiyr andoxtan” MAT tarkibida nashr etilgan[14]. Yaxshiyamki, TATda u chetlatilgan. Nashrda Navoyi asarlarining mavjud ilmiy-tanqidiy matnlariga muvofiq kelmaydigan (ya’ni, ilmiy-tanqidiy matnda to‘g‘ri – MATda noto‘g‘ri) nuqsonlar ko‘p. Navoyi asarlarining til xususiyatlari o‘zgarib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan (masalan, “kibi” so‘zining “kebi” shaklida qo‘llanishi) xatolar bor. Nashr nuqsonlarini o‘z vaqtida biz uchinchi tomga taqriz tariqasida yozgan “G‘aroyib chechaklar” sarlavhali maqolamizda ko‘rsatgan edik[15]. Afsuski, ular keyingi tomlar nashrida inobatga olinmadi. Bunday nuqsonlar MATning akademik ilmiy nashr sifatida e’tirof etilishiga monelik qiladi. Filologiya fanlari doktori, professor Muhammadjon Imomnazarov “Alisher Navoyi lirik merosi matnshunosligining dolzarb masalalari” sarlavhali maqolasida bayon etgan quyidagi fikrlar asoslidir: *“Alisher Navoyi “Mukammal asarlar to‘plami”ning nashr etilishi navoyishunoslikning ulkan yutug‘idir. Ammo ushbu nashr shoir asarlarining ilmiy akademik nashri emas. Jumladan, 1987-yilda nashr etilgan birinchi jild – “Badoyi’ ul-bidoya” devoni ilmiy nashr talablariga mutlaqo javob bermaydi. Unda yo‘l qo‘yilgan ko‘plab matniy xatolar xususida o‘z vaqtida matbuotda chiqishlar bo‘lgan edi”*[16].

TAT esa mutaxassis olimlar tomonidan MATga nisbatan ham sernuqson nashr sifatida baholandi. Ayniqsa, “Hayrat ul-abror” hamda “Farhod va Shirin” dostonlari o‘rin olgan oltinchi jild navoyishunoslik sha’niga dog‘ bo‘lib tushdi. Ushbu jilddagi 132 baytda matnga oid xato borligi aniqlandi. Ayrim baytlarda 2-3 tadan xato mavjud. O‘yga tolasiz. Nega necha-necha nufuzli nashrlardan

[14] Алишер Навойи. “МАТ”, 16-том. Рисолаи тийр андохтан. “Фан”, Т. 2000, 303-305-бетлар.

[15] Н.Жумахўжа. Ғаройиб чечаклар. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1990, 20 апрель.

[16] М. Имомназаров. Алишер Навойи лирик мероси матншунослигининг долзарб масалалари. “Алишер Навойи ва XXI аср” мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. “Тамаддун”, Т., 2017, 7-бет.

ko‘chirilgan bu kitob abgor ahvolda chiqdi? Gap shundaki, nashrdan oldin Navoyi to‘liq asarlari matni matnshunoslar tomonidan maxsus tayyorlanmagan. Nashr mutasaddilari haqiqiy matnshunoslik mehnatini ado etmaganlar. Matnni mukammal holga keltirib, ustidan obdan qayta-qayta ishlab, xato-kamchiliklarini tuzatib, sahih holatga keltirib, elektron variantini nashriyotga tayyorlab bermaganlar. Hatto, ko‘p tomlikning musahhihlik nusxalari ham diqqat bilan o‘qib chiqilmagan. Nashriyot ham ularning ra’yiga qaragan. Biz “Navoyishunoslikning dolzarb masalalari” (Alisher Navoyi ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqi-yotidagi o‘rni mavzusidagi III an’anaviy xalqaro ilmiy konferensiya materiallari, Navoyi, 2019, 40-47-betlar) va “Nuqsonsiz nashr orzusi” (“Huquq va burch” jurnali, 2019, 2-son, 30-35-betlar) kabi maqolalarimizda ushbu nashrdagi xatolarga doir misollar keltirganmiz. Shu bois, bu o‘rinda misollarga zarurat sezmadik.

Nashrning bu ahvolda chiqishiga yana sabab – nashr uchun tahrir hay’ati tuzilmagan. Navoyi asarlari ko‘p tomligi birinchi marta tahrir hay’atisiz chop etildi. Nashrni amalga oshirgan olimlar monopoliya yo‘lini tutganlar. O‘z jamoalaridan tashqaridagi matnshunos olimlar hamkorligiga yo‘l qo‘ymaganlar. Navoyi asarlari matnshunosligining hozirgi holati ulug‘ shoir merosining ilmiy akademik nashrini yaratish vazifasi hamon bajarilmaganligi va u hal etilishi zarur muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Prezident Qarorida belgilangan tadbirlarning 5-bandida: **“Fanlar akademiyasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda 2020 – 2021-yillar davomida Alisher Navoyining qo‘lyozmalari asosida shoir asarlarining mukammal ilmiy nashrini yaratish ishlarini amalga oshirsin”** deyilgan. Biroq 2021-yilning 1-choragi o‘tib ketdi hamki, hanuz bu sohada Prezident Qarorini bajarish bo‘yicha nima ish qilinayotganligi navoyishunoslik jamoatchiligiga noma’lum. Bu borada qaysi tashkilot yoki jamoa faoliyat olib boryapti ? Yoki avvalgiday kimlardir imi-jimida Navoyi asarlari nashrini monopoliya qilib oldimi? Nazarimizda, endilikda bunday ish tutish, avvalgi xatolarni takrorlash mumkin emas. **Navoyi asarlarining ilmiy nashrini yaratish ochiq-oshkoralik, professional hamjihatlik bilan amalga oshirilishi lozim.**

Hozir navoyishunos, matnshunos olimlarning kuchlarini jipslashtirish, nufuzli tahrir hay'atini tuzish, matnshunoslik komissiyasini tashkil etishning ayni mavridididir. Zotan, Navoyi adabiy merosi ayrim olimlar yoki alohida tashkilotning xususiy mulki emas, balki umumxalq mulkidir.

Navoyi hayoti va ijodining yangicha talqini ehtiyoji

Navoyi hayoti va ijodiyotini ilmiy o'rganish ham qanoatlanarli darajada emas. Bu sohada uzluksiz va izchil ravishda dissertatsiyalar yoqlanmoqda, kitoblar yozilmoqda, Respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Lekin yaxlit va umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqot yaratilmaganiga ko'p bo'ldi. O'zR FA Til va adabiyot instituti tomonidan professor A.Hayitmetov tashkilotchiligi va tashabbuskorligida yaratilgan besh tomlik "O'zbek adabiyoti tarixi" tadqiqotining ikkinchi tomi Navoyiga bag'ishlangan edi. Bu tadqiqot 1977-yilda chop etilgan. Bunga 44 yil bo'ldi. Agar tadqiqotning yozilgan yillarini hisobga olsak, 50 yilga yaqinlashadi. Salkam yarim asr – bu juda katta davr. 30 bosma taboq atrofidagi ulkan bu tadqiqotni yaratgan olimlardan hozir atigi ikki kishi – Yo.Is'hoqov, T.G'afurjonovalar hayot, xolos. Ular ham 80 yoshdan oshganlar. Ushbu tadqiqot hamon o'z ilmiy qimmatini saqlab turgan bo'lsa-da, birinchidan, undagi ko'p ma'lumotlar, qarashlar ma'naviy jihatdan eskirdi, ikkinchidan, juda ko'p yangi ma'lumotlar, yangicha qarashlar, talqinlar vujudga keldi. Ushbu yangi ma'lumotlar keng qamrovli turli tadqiqotlarda sochilib yotibdi. Bu holat Navoyining hayoti va ijodiyoti bo'yicha umumlashtiruvchi yangi fundamental ilmiy tadqiqot yaratish vaqti yetilganligini ko'rsatadi. **Endilikda mamlakatimiz va xalqaro miqyosdagi ilmiy salohiyat vakillari kuchlarini birlashtirib, navoyishunoslik ilmidagi yangi ma'lumotlarni umumlashtirib, Alisher Navoyining o'zigagina bag'ishlangan ko'p tomlik ulkan fundamental ilmiy tadqiqot yaratish imkoniyati mavjud va bu vazifa kun tartibida dolzarb mohiyat kasb etib turibdi. Bu borada bizda hayitmetovcha ilm-fan fidoyiligi, tashabbuskorligi, faol va adolatli tashkilotchiligi yetmay turibdi, xolos.**

Navoyi qomusi qachon chop etiladi ?

Navoyishunoslik sohasidagi umumlashtiruvchi, yirik ilmiy tadqiqotlardan biri “Navoyi ensiklopediyasi” bo‘lishi kerak edi. Ushbu adabiy qomusning taqdiri ham 45 yillik tarixga ega. Professor Abduqodir Hayitmetov rahbarligida yaratilgan “Navoyi ensiklopediyasi” O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yilida tugallangan. O‘z R FA Prezidiumining 1991-yil 15-oktabrdagi 21-u 125-qarorida (Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limining taqdimoti bo‘yicha) “Adabiyot instituti “Navoyi qomusi”ning adabiyotga oid qismini tuzib nashrga topshirdi” deyilgan va “O‘zbekiston Davlat matbuot komitetidan 1993-1994-yillarda “Navoyi qomusi”ni nashr etish so‘ralsin”, deb qaror qilingan. Noma’lum sabablarga ko‘ra qomus chop etilmagan va ayniqsa, A.Hayitmetov vafotidan keyin “Navoyi ensiklopediyasi” materiallari qaerlardadir pinhon qolib ketgan. Keyinchalik, “Navoyi ensiklopediyasi” materiallari mafkuraviy jihatdan talabga javob bermaydi degan bahona bilan Navoyi qomusini nashrga tayyorlash mavzusida yangi besh yillik fundamental tadqiqot granti olingan. Ushbu grant ham 2016-yil oxirida yopilgan, ammo “Navoyi ensiklopediyasi” tugallanishidan darak yo‘q. 2017-yilda “Navoyi qomusini nashrga tayyorlash” mavzusida yana yangi grant olingan. Qissadan hissa shuki, **“Navoyi ensiklopediyasi”ni tugallash va nashr etish navoiyshunoslik oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Respublika va xalqaro miqyosdagi navoyishunoslik salohiyatiga ega bo‘lgan itellektual kuchlarni safarbar etib, “Navoyi ensiklopediyasi”ni yakunlash va uning nashrini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Nashrda marhum professor A.Hayitmetov g‘oya muallifi sifatida ko‘rsatilishi va uning ilmiy jamoasi yaratgan maqolalar munosib o‘rin tutishi muhimdir.**

Navoyishunoslikning tashkiliy mexanizmlari

Navoyishunoslik sohasida bir qator tashkiliy masalalar ham borki, bu boradagi ishlarning yutuq va kamchiliklari ana shu tashkiliy mexanizmlarga chambarchas bog‘liq. O‘tgan davr navoyishunosligidagi kamchilik va nuqsonlar bu sohada yagona rahbar hamda nazoratchi mexanizm yo‘qligidan, muvofiqlashtiruv-chi tashkilot yo‘qligidan, manfaatparastlik va monopoliya, ko‘zbo‘yamachilik

kuchayganidan kelib chiqqan. Tarixdan ma’lumki, Alisher Navoyi tavalludining 500 yillik yubileyi nishonlanishi munosabati bilan Navoyi komiteti tuzilgan va bu komitet qoshida Matnshunoslik komissiyasi tashkil etilgan. Ushbu komitet va komissiya xo‘jako‘rsinga yoki savlat uchun tuzilmagan. Ular amalda ishlaydigan ilmiy-amaliy mexanizmlar bo‘lgan. Matnshunoslik komissiyasi faqat Alisher Navoyi asarlarini nashr ettirib keng ommaga yetkazish bilangina shug‘ullanmagan, balki keng miqyosdagi umumo‘zbek matnshunosligining shakllanishi va taraqqiy etishiga juda katta xizmat ko‘rsatgan. Matnshunoslik komissiyasining faol tashkilotchiligi va nazoratchiligi, ilmiy rahbarligi natijasida Alisher Navoyi asarlarining yig‘ma matnlari, nasriy bayonlari, tanlama nusxalari tayyorlangan va chop etilgan. Bu esa matnshunoslik ilmining ilmiy-amaliy va amaliy rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Matnshunoslik komissiyasining raisi Solih Mutallibovning o‘zi bir qancha asarlarni nashrga tayyorlagan[17]. Matnshunoslik komissiyasining amalda qanday ishlaganligini o‘sha davrdagi nashrlardan bilishimiz mumkin. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonini nashrga tayyorlagan G‘afur G‘ulom “Bosmaga tayyorlovchidan” sarlavhali so‘zboshi maqolasida shunday yozgan: *“Men bosmaga tayyorlab bo‘lgandan so‘ng, Navoyi yubileyi komitetining Tekstologiya komissiyasi bu asarni O‘zbekiston davlat xalq kutubxonasida saqlangan qadim nusxalar bilan solishtirib, tekshirib chiqdi. Men asoslanib tayyorlagan nusxalardagi kamchiliklarni topib, uni to‘latdi”*[18]. G‘afur G‘ulomday ulkan shoir va tadqiqotchi bu gaplarni zarracha og‘rinmasdan, aksincha, mamnuniyat bilan bayon etgan. Navoyi to‘la asarlar to‘plamini nashrga tayyorlagan hozirgi zamon mutaxassislari esa nashr ishiga chetdan biror matnshunos aralashishiga izn bermaganlar. Oqibati o‘zingizga ma’lum. Agar faol ishlaydigan matnshunoslik komissiyasi rahnamolik qilganida, nashr shunday sifatsiz chiqarmidi? Yo‘q, aslo. Navoyi komitetining oxirgi raisi akademik V.Zohidov bo‘lgan. Biz uning navoyishunoslik konferensiyalarini Navoyi komitetining raisi sifatida boshqarganligini ko‘rganmiz. Undan keyin Navoyi

[17] Қ.Каримов. Забардаст турколог. Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. 5-сон, 65-бет.

[18] Ғ.Ғулом. Босмага тайёрловчидан. Алишер Навойи. Фарҳод ва Ширин. Давлат нашриёти, Т.,1956. 23-бет.

komiteti, umuman, tilga ham olinmadi. **Xullas, bugunda Navoyi komiteti va Matnshunoslik komissiyasini tuzish yoki tiklash kun tartibidagi dolzarb masaladir.**

Navoyishunoslikning beqaror imloviy muammolari

Ulug‘ mutafakkir Nizomiddin Mir Alisherning taxallusi asliyatiga muvofiq “Navoyi” shaklida yoziladi. O‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida taxallusni shunday qo‘llagan, asarlardagi taxallus imlosi zamonaviy nashrlarda ham aslicha chop etildi. Professor Hamid Sulaymon “Alisher Navoyi nomining yozilish shakllari va imlosi haqida”gi (“Adabiy meros”, 1977-yil, 9-son, 43-bet) maqolasida masalaga manbashunos sifatida yondashib, “Navoiy” shaklidagi g‘alati mashhurning kelib chiqishi tarixini batafsil yoritdi va muammoni to‘g‘ri hal etdi. Adabiyotshunos olim N.Jumaxo‘ja 1990-yillari O‘zbekiston matbuotida e’lon etilgan qator maqolalarida va “Istiqlol va ona tilimiz” kitobidagi “Navoyi” taxallusining badiiy ma’no miqyoslari va imlosiga doir” sarlavhali maqolasida (“Sharq”, T., 1998, 79-90-betlar) taxallusning to‘g‘ri yozilishini isbotladi. Shu kitobda hamda “Xalq so‘zi” gazetasi va “Mushtum” jurnalida bir muddat taxallusning asl imlosiga o‘tildi. Taxallusni qanday yozish haqida biror qaror qabul qilinmagan bo‘lsa-da, jamiyat maxsus qarorga ehtiyoj sezdi shekilli, yana xato imloga qaytdi. Tarixda shoir taxallusining “Navoiy” yoki “Navoyi” shaklida qo‘llanishi to‘g‘risida hech qanday rasmiy davlat qarori qabul qilinmagan. Taxallusning “Navoyi” shakli, Hamid Sulaymon o‘z maqolasida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, g‘alat – ya’ni xato bo‘lib, go‘yoki to‘g‘ridek keng tarqalib ketgan. Xalq tilida bunday xatolar – g‘alati mashhur deyiladi. Bunday tarixiy xatoni, hech bo‘lmaganda, hazrat Alisher Navoyi tavalludining 580 yilligida tuzatish oqilona ish bo‘lardi. Biroq, nahotki, shunday xatoni tuzatish uchun ham mamlakat Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qilishi shart bo‘lsa ? Shunday pishib yetilgan masalalar to‘g‘risida uzil-kesil qaror qabul qilib, uni matbuotda chop ettirib, ijrosini ta’minlashni Davlat tilini rivojlantirish departamenti o‘z zimmasiga olsa, yaxshi bo‘lardi. Chunki bu – birinchi galda til hodisasi va davlat tili

muammolari sirasiga kiradi. Tildagi o‘zagi unli tovush bilan tugagan taxalluslarga yoyi nisbat “yi” shaklida qo‘shilishi qonuniyati asosida Navoyi, Atoyi, Gadoyi, Sanoyi, Binoyi taxalluslari bir xil yoziladi. Shuningdek, o‘zagi undosh tovush bilan tugagan taxalluslarga yoyi nisbat “iy” shaklida qo‘shilishi qonuniyati asosida Xorazmiy, Lutfiy, Fuzuliy, Ogahiy, Amiriy taxalluslari ham bir xil yoziladi.

Shunday yozilishi birxillashtirilishi yoki boshqacha aytganda, barqarorlashtirilishi zarur bo‘lgan muammolardan biri Navoyi asarlari nomlarining imlosidir. Ular turli manbalarda turlicha – beqaror yozib kelinmoqda. Asarlar nomlari imlosiga munosabat hamisha o‘zgarib turadi. Bu borada ham ilmiy va ommaviy nashrlarda juda ko‘p bahslar bo‘lib o‘tgan. Oxir-oqibatda, besh tomlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” tadqiqoti, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, Navoyi “MAT” va “TAT” hamda boshqa ko‘p nashrlarda “Xazoyin ul-maoniy”, “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoe ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar” kabi birxillikka kelingan edi. Ayrim boshqa nashrlarda “Xazoyinul-maoniy”, “Xazoyin u-l-maoniy” va boshqacha shakllar ham davom etib kelsa-da, harqalay, yuqoridagi shakl barqaror holatda yetakchilik qilardi. 2018-yili O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti uzoq kutilgan 5 jildli “Navoyi tili lug‘ati” (“Sharq” nashriyoti) ni chop eta boshladi va yana bu barqarorlikka putur yetdi. Lug‘atda yana “Xazoyinul-maoniy”, “G‘aroyibus-sig‘ar” va hokazo nomlanish shakliga qaytilgan. Afsuski, bu ish mutlaqo ilmiy asoslantirilmagan va mavjud barqaror holat bilan hisoblashilmagan holatda amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Navoyishunoslikning imlo bilan bog‘liq – Navoyi taxallusini to‘g‘ri yozish, Navoyi asarlari nomlarini to‘g‘ri va bir xil yozish, Navoyi asarlarini nashr etishda imloviy xususiyatlarni muvofiqlashtirish kabi qator muammolari umummamlakat imloviy savodxonlik barqarorligini nazorat qiladigan va ta’minlaydigan Imlo komissiyasi tuzish hamda Imlo komissiyasi Matnshunoslik komissiyasi bilan o‘zaro muvofiqlikda ishlashini taqozo etadi.

ABDULLA QAHHORNING ADABIY ESTETIK QARASHLARI

Xamrakulova Xurshida,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Abdulla Qahhor shijoatli shaxs, jasoratli yozuvchi, so‘zga talabchan munaqqid, adabiyot jonkuyari bo‘lgan. Ijodiy merosi bilan XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan betakror ijodkor hisoblanadi. Abdulla Qahhorning ijodiy merosida adabiy - tanqidiy asarlar o‘rni beqiyos. Adibning “Yoshlar bilan suhbat”, “Xaq so‘zning kuchi” kabi asarlari uning adabiyotga munosabatini belgilab beruvchi kitoblari hisoblanadi. “Yoshlar bilan suhbat” kitobini o‘qir ekanman, so‘z san’atkorining so‘zga munosabati, ustozning shogirdga munosabati, tanqidchining adabiy asarga munosabati, adibning adabiyotga munosabati qanday bo‘lishi kerak degan masalalarni yana bir qur Abdulla Qahhorning nigohidan o‘tkazib olish kerak ekan degan xulosaga keldim. Bir mahallar Abdulla Qahhor men asarlarimga Chexov domlaning ko‘zoynagi bilan qarayman degan edi. Mening nazarimda, bugunning yozuvchisi va o‘quvchisi, tadqiqotchisi asarga Abdulla Qahhorning nigohi bilan qarasa, balki asar tahliliga munosabatini yangilab olar. Bu borada “Yoshlar bilan suhbat”, “Haq so‘zning kuchi” asarlari bu borada katta manba beradi.

Abdulla Qahhorni eslaganlar hamma vaqt uning muhim fikrni aytganini xotirlaydilar. Hatto u maktub tarzida bo‘lsa ham. «Hurmatli Sh. Xolmirzaev! «Sharq yulduzi»da bosilgan «To‘lqinlar» povestingizni o‘qidim. Povest yaxshi taassurot qoldirdi. Ma’murjonni boshda tabassum bilan tasvir etasiz. Butun asar davomida qisqalikka intilasiz. Yozuvchilikda ko‘zingiz ochilib kelayotgani ko‘rinib turibdi. Nazarimda, povestning nomi to‘g‘ri emas. Keyingi ishlaringiz baroridan kelsin! Salom bilan: Abdulla Qahhor».

Yoki:

«O‘tkir! «Cho‘l havosi»ni o‘qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodniig kelajagi porloq bo‘ladi, qissa juda sof, samimiy, «iliq, tabiiy, rohat qilib o‘qiladi. Qissaning xat shaklida bo‘lishi ko‘p joylarda ritmni buzadi,

sizni cheklab qo‘yadi. Hikoya birinchi shaxsdan olib borilsa ham shunday bo‘lar edi. Buni o‘ylang, hisobga oling. Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon tutamasin! Hurmat bilan: Abdulla Qahhor».

Mana shu ikki xatda badiiy asar uchun zarur bo‘lgan xulosalar bor.

1. Abdulla Qahhor o‘zining uslubiga xos qisqa so‘z bilan katta fikr aytish imkoniyatini Sh.Xolmirzaevda ko‘rdi. Yozuvchi uchun bu muhim jihat.

2. Asarga sarlavha to‘g‘ri qo‘yilishi kerak. Asarning arxitektonikasida sarlavha katta o‘rin tutadi.

3. Asar samimiy, rohat qilib o‘qiladigan darajada yozilishi lozim.

4. Uslub masalasi. Qissaning xat shaklida bitilishi, jahon adabiyotida bunday an’ana mavjud bo‘lsa ham, XX asr o‘zbek adabiyotida O‘tkir Hoshimovgacha tajriba qilinmagan edi. Balki shuning uchun Abdulla Qahhorning e’tiroziga sabab bo‘lgandir. Adib hikoya birinchi shaxs tilidan olib borilsa ham ritm buziladi, sizni cheklab qo‘yadi deb aytadiki, bu bir tarafdan to‘g‘ri. Negaki, agar voqelik uchinchi shaxs tilidan berilsa, kuzatish imkoni kengayadi, muallif xolis kuzatuvchi maqomida asar qahramonlarining erkin harakatini tasvirlay oladi. Muallifning asarga aralashuvi kamayadi, agar birinchi shaxs tilidan berilsa, qahramon tuygan voqelikni his qilish imkoniyati oshadi, ammo nigoh torayadi. Shuningdek, bu tipdagi asarlar ko‘proq sarguzashtli syujetlarga mos keladi. Abdulla Qahhorning biror asarida voqelik birinchi shaxs tilidan olib borilmagan. Negaki, yozuvchi hikoyalarda qanchalik qisqalikka intilsa, shunchalik xolis kuzatuvchi maqomida turib asar qahramonlarini tasvirlaydi. Buni mashhur “Bemor”, “O‘g‘ri” kabi hikoyalari misolida ham aytish mumkin. Bu ham o‘ziga xos tasvir uslubi. Ammo O‘tkir Hoshimov tutgan yo‘l, keyinchalik, uning romanlarida katta samara berdi.

Hamma ijodkor ham Abdulla Qahhordan siylovli maktub olavermagan. Masalan, Said Ahmadning 1940-yilda nashr qilingan dastlabki kitobi “Tortiq” haqida «Saidahmad qo‘liga tanbur olipti, qulog‘ini burashiga, parda bosishiga, chertishiga qaraganda tuzuk bir mashq chala oladiganga o‘xshaydi, lekin hali mashq qilgani yo‘q, «Tortiq»dagi hamma hikoyalar shuni ko‘rsatadi. Tanburni qo‘lga olib,

sozlashdan murod mashq chalish ekanini esdan chiqarmasa bo‘lgani!» degan fikrlar borki, bundan asarni mavzu va g‘oyasi mutanosib bo‘lishi, shuningdek, asar g‘oyasi aniq bo‘lishi lozimligi anglashiladi. Bu borada yozuvchining “Yozuvchilik yetti uxlab tushiga kirmagan bir kolxozchi ham biron o‘rtog‘iga xat yozmoqchi bo‘lsa, qo‘liga qalam olmasdan burun xatda nima demoqchi ekanini aniqlab oladi, «umuman xat» yozmaydi. Shunday bo‘lgandan keyin yozuvchilikka intilgan, kitob chiqarishga jur’at qilgan Saidahmad nega nima demoqchi ekanini aniqlamasdan hikoya yozadi?” – degan fikrlari ayni kunda ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. Akademik tanqidchi M.Qo‘shjonov “Qahhor adabiyotimizning jonkuyari sifatida tasodifan, qo‘liga tushib qolgan asarlarnigina olib o‘qib, ba’zan ba’zangina ular haqida fikr aytib yuradigan yozuvchilardan emas. U adabiyotni kuzatadi, yaxshi asar bilan yarq etib ko‘zga ko‘ringan yosh avtorning manmanlikka berilib, to‘g‘ri izdan chiqib ketmasligi to‘g‘risida qayg‘uradi. Birinchi gallarda zaifroq asarlar yaratgan bo‘lsa-da, «tanburning qulog‘ini burashi, parda bosishiga» qarab uning oldiga katta talablar qo‘yadi, badiiy ijod yo‘lini topib olishiga yordam beradi. Mabodo biror yosh avtor o‘zining mehnati bilan to‘g‘ri yo‘lni topib olgan bo‘lsa, chin yurakdan quvonadi, katta san’atkor sifatida uni taqdirlaydi[19]” deb yozgan edi. Darhaqiqat, Abdulla Qahhor Said Ahmadning ijodini chorak asr kuzatdi. Natijada, o‘zbek adabiyotida alohida adabiy hodisa bo‘lgan “Ufq” trilogiyasi haqida “Ilhom va mahorat samarasi” degan maqola yozdiki, bunda dastlabki maqolasida aytilgan fikrlarni ham eslatib o‘tdi. Abdulla Qahhor nazarida chinakam san’at asarini yaratish uchun “yozuvchining mahorati, kitob yozishga havasi, hatto yengib bo‘lmaydigan xohishi ham kifoya qilmaydi, bularning ustiga dard, hayot bergan ilhom, kalla va qalbdan har qanday mayda orzu-havasini, har qanday manfaat-g‘arazni quvib chiqaradigan yirik yuksak g‘oya mavj uradigan ilhom kerak. Ilhom bilan mahorat topishgandagina kitob yozuvchining qalbidan qo‘shiqday otilib chiqadi, kitobxonning qalbida aks-sado yangraydi”[20]. Xuddi shunga o‘xshash fikrni yoshlar seminarida ham aytgan edi. “His, ichki dard kishining qalbini yemirib

[19] Қўшжонов. А. Адабиёт жонкуяри (сўзбоши). Ёшлар билан суҳбат. – Т.: Ёш гвардия, 1968, 5-бет.
[20] Қаҳҳор А. Илҳом ва маҳорат самараси. Ёшлар билан суҳбат. – Т.: Ёш гвардия, 1968, 18-б.

yuboradi. Bunday vaqtda kishi o‘zini qayerga qo‘yishini bilmaydi, o‘zining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini bo‘shatish xohishi kishiga azob berish darajasiga yetadi. Shu vaqtda qo‘l qalamga boradi. Kishidagi mana shunday holatni, odatda, ilhom deyishadi. Aytilgan gaplardan xulosa chiqarsak, yaxshi asar, o‘quvchini maftun qiladigan asar, faqat ilhom bilan yozilgan asar deyish kerak bo‘ladi. Bu holni D.Quronov ayolning to‘lg‘oq tutgandagi holatiga qiyoslaydi. E’tibor berilsa, mazkur lavhada adibning adabiy-estetik prinsiplari ham namoyon bo‘layotganini ko‘ramiz. Darhaqiqat, ilhom va mahorat birlashib buyuk asarlarni yaratishga qodir bo‘ladi. Shu o‘rinda yozuvchining “Hayot qo‘shig‘i” nomli hikoyalar to‘plamiga yozgan taqrizi haqida to‘xtalish kerakka o‘xshaydi. Ma’ruf Hakimning “Hayot qo‘shig‘i” deb nomlangan hikoyalar to‘plamiga yozgan taqrizida Abdulla Qahhor ustalik bilan yozuvchilikning kasb emas hunar ekanligiga ishora qilib o‘tadiki, buning haqligini davrning o‘zi ko‘rsatdi. “Yosh hikoyanavis Ma’ruf Hakim hikoya janrini egallashga intilib, dadil-dadil qadamlar tashlayapti. Bu qadamlar unda talant borligini, talantining uchqunidan olov chiqishi mumkin ekanini ko‘rsatib turibdi. Bunga umid bog‘lash mumkin, chunki Gorkiy aytganidek, talantning 99 protsenti mehnat bo‘lsa, Ma’ruf Hakim mehnatga qobil[21]”. Ko‘rinadiki, san’atda mehnatning o‘zi iste’dod va ilhomsiz samara bermaydi. Bu o‘rinda M.Gorkiyning fikrlariga nisbatan kinoya borligini payqash qiyin emas. Darhaqiqat, Ma’ruf Hakim ismli yozuvchi o‘zidan arzirli asar qoldirmadi. Ilhom va mahorat bilan yozilmagan asarlar davr epkinlariga dosh berolmadi, adabiyotdan o‘rin topa olmadi. “Hayot qo‘shig‘i” kitobiga yozilgan taqrizda adibning ma’rifiy qarashlari uning adabiy-estetik qarashlari bilan uyg‘un holda aks etgan. Masalan:

1. Avtor hikoya yozish uchun qalamni qo‘lga olmasdan burun nima demoqchi ekanini juda aniqlab, chegaralab olmaydi. Maqsad juda aniq bo‘lmagani uchun hikoya ham xiraroq bo‘lib chiqadi.

[21] Қаҳҳор А. Ҳаёт қўшиғи. Ёшлар билан суҳбат. – Т.: Ёш гвардия, 1968, 34-б.

2. Avtor ideyaning ochilishiga xizmat qiladigan detallar, faktlar topish o‘rniga allaqayoqlarda tentirab yuradi-da, hikoya xira, ba’zan notayin ko‘lanka bo‘lib qoladi. “Yashasin do‘stlik”ni M. Hakim nima maqsadda yozganligi ma’lum emas.

3. Qahramonga yuklanayotgan vazifa mantiqan asoslanishi lozim. U shunday yozadi: “Hayot qo‘shig‘i»ning ichida «Bo‘ta» degan hikoya bor. Bo‘ta 13 yashar bola. Bola bo‘lib hamki, unaqa o‘tkir, «tegirmonga tushsa butun chiqadigan» bola emas, diqqatni jalb qilarlik gap ham gapirmaydi. Shu bola, partizanlar otryadining razvedkasi xat berib, buni otryadga eltasan desa, birdaniga hech kimning aqliga kelmaydigan narsani o‘ylaydi. Avtorning aytishicha, u «o‘ziga shunday miltiq ko‘targan «to‘rtinchilar»ning, ayniqsa, «Metroxinday rus yozgan xatni ishonib topshirgani uchun o‘zida yo‘q xursand bo‘ldi». Nahotki shu bola shunday deb o‘ylasa?! Bu bola katta odamlar qiladigan ish topshirilganda buni bajarish qo‘lidan kelishiga ishonsa xursand bo‘lishi mumkin, lekin bu xilda murakkab o‘ylarga borarmikin? Bu yerda Bo‘taning o‘zi bu xildagi o‘ylar mening kallamga sig‘maydi, deb dodlab turibdi. Avtor uning dodini eshitmaydi.

4. Asarda soxta faktlar bo‘lmasligi kerak.

5. Asarda o‘rinsiz takrorlar bo‘lishi kerak emas.

Abdulla Qahhor yozuvchi yo‘l qo‘ygan ayrim kamchiliklarni shunchaki xato deb emas, katta gunoh deb biladi. Adib nazarida ijodkorning 5 ta gunohini kechirib bo‘lmaydi, bularning bari gunohi azimdir. Bu gunohlar quyidagilar:

1. Adabiyotda yolg‘onning katta-kichigi yo‘q. Hammasi ham baravar zarardir. Yolg‘on so‘z, yolg‘on motiv, yolg‘on voqea va hokazolar.

2. Modomiki adabiyotda obraz til vositasi bilan yaratilar ekan, modomiki, «til– adabiyotning eng birinchi elementi va faktlar, turmush hodisalari bilan birga uning materiali» ekan, tilni, uning qonun-qoidalarini, xususiyatlarini o‘rganishga harakat qilish adibning eng asosiy vazifasi bo‘lishi kerak. So‘z adabiyotning eng birinchi unsuri, uning asosiy quroli. Shunday bo‘lgandan keyin bu quroldan foydalanishda adibning beparvoligi uning katta gunohi bo‘ladi. Abdulla Qahhor bunday fikrni “Bolalar adabiyoti to‘g‘risida” maqolasida ham aytib o‘tadi: “Bu

qandoq gapki, yozuvchi, bolalarning ikkinchi muallimi bo‘lgan yozuzchi chalasavod, jumla tuzolmaydi! Yozuvchi bo‘la turib o‘zbek so‘zlarining ma’nosini bilmaydi, so‘zni o‘z o‘rnida ishlatmaydi! Bu fikrlar adibning ma’naviy olamiga chuqur nazar tashlash zaruratini beradi. Demak, Abdulla Qahhorning so‘zga bo‘lgan munosabati oliy darajada. So‘zga beparvolik esa gunohi azimdir.

3. Yozuvchi o‘zi yozgan narsalarini bir kitobxon sifatida ko‘zdan kechirmasligi, bu ishga hafsala qilmasligi ham gunoh.

4. Asarni ko‘zdan kechirib, ko‘rgan chatoqliklarini tuzatishga erinishi ham gunoh. Bu ijodkorning kitobxon oldida nechog‘li mas’uliyatga egaligini bildiradi. Ya’ni asarni yaratishgina emas, uni chiroyli taqdim qila bilish ham yozuvchining vazifasidir.

5. U kitobxon oldida mas’uliyat sezsa, to‘plamga qalam tegizishiga, undagi hikoyalar to‘g‘risida biron fikr aytishiga ko‘zi yetmaydigan kishining muharrir bo‘lishiga rozi bo‘lmas edi. To‘plam boshqa kishining qo‘liga tushsa, albatta, ish boshqacharoq bo‘lar edi. Muharrir asarni yaxshilashga, uning avtoriga yordam berishga qodir odam bo‘lishi kerak. Nazarimda yozuvchi gunoh deb atagan barcha fikrlarni hozirgi kunda yozuvchi va shoirlargagina tegishli deb emas, balki barcha insonlar amal qilishi kerak bo‘lgan qoidaga aylantirish kerak.

Yozuvchi kitobxonga bir fikrni anglatish yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerakligini uqtiradi. Abdulla Qahhor bu qoidaga hamisha o‘zi ham amal qilgan.

“O‘xshatish adabiy asarda juda katta o‘rin tutadi, lekin u kitobxonning tez anglashiga, tasavvur qilishiga yordam bermasa, hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi” deb yozadi adib bir o‘rinda. Yozuvchi o‘quvchiga oz ma’lum bo‘lgan yoki mutlaqo ma’lum bo‘lmagan narsa unga juda ham ma’lum bo‘lgan narsaga o‘xshatilishi kerak degan xulosaga keladi.

Abdulla Qahhor ijoddagi kamchiliklarni darajalab ko‘rsatishdan tortinmaydi. Shu tariqa gunohi azim, ayb ish, katta kamchilik kabi iboralar yozuvchi asarlarida tez-tez qo‘llanadi. Masalan, Ibrohim Rahim asarlarini tahlil qilayotib, badiiyati

bo‘sh asarni katta kamchilik sifatida ko‘rsatsa, kitobxonni ko‘z oldida tutmaslikni ayb ish deb biladi. Bu haqda Yoshlar seminarida berilgan savollarga javobida ham qayd etilgan. Ya’ni “Yozuvchi biron narsa yozish uchun qo‘liga qalam olganida hammadan burun ko‘z oldiga shu narsani o‘qiyotgan o‘quvchini keltirsin, asarning har bir satri ko‘z oldidan o‘tganida uning chehrasida bo‘ladigan o‘zgarishni ko‘rib tursin. Yozuvchi o‘zini kattakon bilimdon, yuksak did egasi bo‘lgan kishi oldida imtihon berayotganday sezsin”. Menimcha, bu faqat ijodkor ahliga emas, ilm ahllariga ham tegishli.

Abdulla Qahhor talantni to‘rtga bo‘ladi:

1. Yozish-chizishga bo‘lgan havasini talant deb o‘ylagan, shuning uchun adabiyotga yanglish kirgan odamlar.

2. Adabiyot qalbning bir chekkasini emas, hammasini talab qilishini bilmagan, talant kun sayin mehnat bilan jilo berib turilmasa zanglab, butkul yaroqsiz holga kelib qoladigan asbob ekanidan bexabar kishilar.

3. Besh-o‘nta o‘quvchi orttirar-orttirmas kekkayib, o‘qimay qo‘ygan, o‘sishdan to‘xtagan, tanqid qulog‘iga kirmaydigan bo‘lib qolgan; o‘zining kuchiga ortiqcha ishonib o‘quvchini mensimay pala-partish narsalar yozib kitobxonni o‘zidan bezdirganlar. Bular orqadan kelayotgan yoshlarning oyog‘i ostida qolib, esdan chiqib ketdi, deb yozadi adib ular haqida.

4. Bularning to‘rtinchi bir qismini o‘z hayotini tartibga solmaslik, yashay bilmaslik xarob qildi. Hayotni tashkil qilolmaslik, turmushda intizomsizlik, adabiyotimizga katta zarar yetkazdi. Xulosa qilish mumkinki, talantni asrash uchun yo‘lni to‘g‘ri tanlay olish, talantga sayqal beruvchi mehnat, kamtarlik, intizom muhim ahamiyatga ega ekan.

Abdulla Qahhorning “Bolalar adabiyoti to‘g‘risida”, “Ashula to‘g‘risida”, “To‘ylar muborak”, “Uyat” kabi maqolalarida ma’naviy-axloqiy masalalar haqida bahs yuritiladi. Qizig‘i, adib qalamga olgan masalalar ijtimoiy hayotimizda bugun ham davom etayotgan og‘riqli nuqtalardir.

1944-yilda Yoshlar seminarida Abdulla Qahhor bir qator savollarga javob beradi. Mening nazarimda mana shu javoblar adibning shaxsiyatiga xos qirralarni belgilagan, uning ijodga bo‘lgan munosabatini oydinlashtirgan.

Yozuvchi bir o‘rinda o‘zining tavsiyalarini ham beradiki, buni metodik tavsiya deyish ham mumkin. U muhim deb bilgan narsalarni voqea holatlarni yon daftarchaga qayd qilib boradi. Mana shu qaydlar kun kelib biror qahramonini yaratayotganda qo‘l kelishi mumkin. Abdula Qahhorning bir necha oltin qoidalari borki, buni aytmasa bo‘lmas:

1. Yozuvchi biron hodisaga o‘quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo‘zg‘atishi uchun avval o‘sha his o‘zida bo‘lishi kerak. Yozuvchi o‘zi his qilmagan narsa to‘g‘risida yozsa, buni o‘qigan o‘quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart. His qilinmasdan yozilgan narsa qog‘ozdan qilingan gulga o‘xshaydi.

2. Umumiy saviyasi past bo‘lgan kishi hech vaqt ijtimoiy hodisalarni to‘g‘ri tahlil qila olmaydi, demak, ilhomlana olmaydi.

3. Har bir badiiy asarda yozuvchining shaxsiy kechinmalari, tarjimai holi unsurlari bo‘ladi.

4. Kattalar uchun yozilgan kitobda yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatish mumkin, lekin bolalar uchun yozilgan kitobda ketgan xatoni tuzatib bo‘lmaydi.

5. Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g‘oyat usta san’atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo‘lmog‘i kerak.

6. Adabiy asarning joni — uning mazmuni, lekin bu jonning jon bo‘lishi uchun jasad ham kerak. Jonni jasadsiz tasavvur qilish mumkin emas.

7. Shoirning vazifasi qo‘l ko‘tarishgina emas, mana shu olijanob tuyg‘uni hech kim qilolmaydigan bir tarzda qisqa, sermazmun, chiroyli, musiqiy, kishini hayajonga soladigan qilib ifodalashdir.

8. Badiiy mahoratimizni oshirish uchun so‘z san’atining qonun-qoidalarini bilishimiz, go‘zal asarlarning go‘zallik «sirlari»ni o‘rganishimiz, buning uchun hayotga yaqin bo‘lishimiz, ko‘p o‘qishimiz, ko‘p mashq qilishimiz kerak.

9. Yozuvchi bir materialga qo‘l urar ekan, uni har taraflama o‘rganishi, juda yaxshi bilishi kerak.

10. Ijodning boshi — yozuvchining muvozanatdan chiqishi, konkret asar esa, shuning ifodasidir.

11. Asar ilhom bilan yozilsa, obrazlar o‘z-o‘zidan gavdalanadi, hatto o‘zining qiladigan ishini, aytadigan gapini yozuvchiga aytib, luqma solib turadi. Ilhom yozuvchini hamma qiyinchiliklardan qutqaradi.

12. Yozuvchi o‘z ijodiy ishidan hech qachon qanoat hosil qilmaydi, qanoat hosil qilgan kuni, menimcha, yomon qarigan laqma cholga aylanadi...

13. Biron davr, biron xalq adabiyotining taraqqiyot darajasini, uning mahorat kuchini yozuvchilarning miqdori, nashr etilgan kitoblarning soni emas, unda yaratilgan obrazlar, kitob sahifalarida yashamoqda bo‘lgan «adabiy aholi»ning soni va salmog‘i belgilaydi. Shuningdek, ayrim fikrlar aforizm darajasiga ko‘tirilganki, bularni ham alohida qayd qilish lozim bo‘ladi:

1. Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo‘lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo‘yar edim.

2. Talant uchun eng xavfli shira «ofarin»chilikdir.

3.. Men partiyaning soldati emas, ongli a’zosiman.

4. Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarf qilish kerak emas.

5. Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi.

6. O‘qishli kitob go‘zallikdir, lekin go‘zallikda ham go‘zallik bor. Qorong‘i kechada otilgan mushak ham go‘zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go‘zal. Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar go‘zalligi ko‘zni qamashtirsa ham puch go‘zallik, shuning uchun bebaqodir. Gulning go‘zalligi esa to‘q go‘zallik, chunki uning bag‘rida hayot bor, shuning uchun abadiy go‘zallikdir. G‘uncha guldan ham go‘zalroq, chunki uning bag‘rida ikki hayot — o‘z hayoti va yana gul hayoti bor.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abdulla Qahhor asarlarini qayta o‘rganish, ularni yangi bir nigoh bilan tahlil qilish vaqti yetdi. Adib ijodiy merosini tadqiq qilish orqali o‘quvchi zamon-yozuvchi-qahramon uchligini chuqurroq anglaydi. Shuningdek, Abdulla Qahhor maqolalari tahlilida yozuvchi shijoati va jasorati masalasini ham asar konteksti bilan birga o‘rganish zarurati bor. Zero, shunda adib tutgan pozitsiya, asar badiiyatiga oid qimmatli fikrlar, matn osti ma’nolar to‘liq anglashiladi. “Yoshlar bilan suhbat”, “Haq so‘zning kuchi” kabi asarlarni yosh avlodga yetkazish ma’naviy burchimiz hisoblanadi.

BOLALAR HAJVIY SHE’RIYATI – G‘OYAVIY-MA’RIFIY VA ETIK-ESTETIK TARBIYA QUROLI

Gulnoza Jo‘raeva
f.f. nomzdi, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada hajv janrida mumtoz an’ana va zamonaviy satira xususiyatlarining uyg‘unlashuvi borasida so‘z boradi. Hajv janrining mumtoz an’analarda ham uchrashi va zamonaviy satira xususiyatlariga misollar keltiriladi. Ular tahlilga tortilib, uyg‘unlashuv xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar. *Hajv, mumtoz an’ana, zamonaviy satira, bolalar adabiyotida axloqiylik so‘qmoqlari, uyg‘unlashuv xususiyatlari.*

Adabiyot so‘zini odob so‘zi bilan bog‘lashlari bejizga emas. Ma’no – ma’naviyat so‘zlari singari, adabiyot so‘zining o‘zagida ham odob so‘zi yotishi rad etib bo‘lmas haqiqat. U qay yo‘l bilan bo‘lmasin, (ba’zan odobsizlikni tasvirlash bilan) insonni tarbiyalaydi. Uning hayot yo‘llarini yoritadi. Bolalar she’riyati ham aynan shunday xususiyatga ega. Tarbiyalash vazifasi. Didni shakllantirish burchi adabiyot oldiga qadim zamonlardan qo‘yilgan. Adabiyot kuchli qurol ekanini biz toshga o‘yib yozilgan bitiklardagi davatlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Faqat bu quroldan to‘g‘ri yo‘lda foydalanishimiz kerak bo‘ladi. Bolalar hajviy she’riyatida ham bolalarda tutilayotgan ma’naviy ozuqaga ma’lum ma’noda ijtimoiy, tarbiyaviy yuk berish lozim. Shu o‘rinda yozuvchi Abdulla Qahhorning bundan bir necha o‘n yillar aytgan quyidagi gaplari hamon dolzarbligicha qolmoqda: “Chiroyli lof-qofdan

xunuk haqiqat yaxshi: ancha o‘sgan, yutuqlarga ega bo‘lgan bolalar adabiyotining darajasi, saviyasi uning oldida turgan talablar, vazifalar darajasidan xiylagina past. Adabiyotimizning hozirgi darajasini ko‘zda tutganda bu narsa juda bilinadi. Bunga eng birinchi sabab shuki, bolalar adabiyoti shu kungacha ham adabiyot jamoatchiligining diqqat markazidan chetda bo‘lib keldi”.[22] Bolalar hajviy she’riyati g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-estetik tarbiya quroli sifatida bugun o‘z vazifalarini qay darajada uddalamoqda, degan savol Abdulla Qahhor jon kuyitgan paytda qanchalik muhim bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunchalik muhim. Diqqat markazidan chetda bo‘lgan bolalar adabiyotida, aynan bolalar she’riyatida bugun yaratilayotgan asarlar abadiyatfa daxldorlik jihatdan g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-estetik vazifasini bajarishi shart. Bu tushunchalarning barchasi tarbiyaga borib taqaladi. Bolani tarbiya qilishda uning yoshi, psixik xususiyatlaridan kelib chiqish shart bo‘lganidek, bolani adabiyot vositasida tarbiyalashda ham yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu sababdan ham bolalar adabiyotida ijod qiluvchi adiblar, shoir-u yozuvchilar so‘zga ikki karra mas’uldirlar. Tarixga nazar tashlasak, didaktik adabiyot namunalarining she’riy usullar bilan yozilgan go‘zal namunalari ko‘p uchraydi. She’r o‘zida narsga nisbatan xoslikni jamlagani uchun ham didaktika bilan birlashib katta kuchga aylangan. Tarbiya so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif beriladi: 1. Ta’lim, axloq-odob va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish. 2. Insonda ish-hunar, odob-axloq va shu kabilarni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi.[23] Tarbiyaning o‘zida ta’limning borligi uning ma’rifiy-g‘oyaviy ekanligi bilan ham izohlanadi. Pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, insonni tarbiyalash bir umrlik katta jarayon. Bu jarayondagi ilk bosqich bolalik davriga borib taqaladi. Bolalar adabiyotining ahamiyati ham aynan shunda. Ilk bosqich – poydevor demakdir.

[22] Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat, Toshkent
[23] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, –B,678.

Uning bir umr qanday davom etishi poydevor qanday shakllanganiga borib taqaladi. Zero, Mirzo Abdulqodir Bedil ta’diklagandek:

Birinchi g‘ishtni mo‘rt qo‘yarkan me’mor,
Yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor.

Bolalar tarbiyachisining me’morlari qurayotgan binolar poydevori shu jihatdan mustahkam bo‘lishi kerak. Ularni tinimsiz tahlilga tortib, lozim bo‘lsa, bolalar uchun ijod qiluvchi shoir-yozuvchilarga bolalar adabiyotining vazifalarni eslatish kerak. Bugungi kunda ana shunday bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalari deya e’tirof etilayotgan yosh ijodkorlarning to‘plamlaridan biri Azamat Xudoyberganov va Dilnoza Tillaboyevaning “Uyalchang chuvalchang” nomli she’riy to‘plamidir. To‘plamga Azamat Xudoyberganovning she’ri nomi tanlab olingan. Ijodkor bir necha yillar bolalarning adabiy-badiiy bezakli “G‘uncha” jurnalida faoliyat olib borgan, barakali ijod qilib kelayotgan shoir hisoblanadi. Uning yozganlari ancha o‘qishli, qalami tingan. Yozganlarida bolalarga xos hajv unsurlaridan unumli foydalanadi. She’rlarida badiiy tasvir vositalari turlicha, qolaversa, mavzu ko‘lami ham ancha keng. Turli mavzularda, turli yo‘nalishlarda she’riy tajribalar olib boradi. Unda bir qancha g‘oyalar yashirishga intiladi va unda yuzaga chiqadigan mazmun ancha teran. Nafaqat bolalar, balki katta yoshli insonlar ham o‘qib, o‘zlariga ma’lum xulosalar olishi mumkin. Azamatning she’rlarda hajv bosh unsur. U hajvdan turli maqsadlarda foydalanadi.

“Tulkivoyning hasrati” she’rida shoir so‘z o‘yini qiladi va bu orqali kitobxonda yengil kulgi uyg‘otadi. Muallif she’rlarida hajv darajalanib boradi. Dastlabki bosqichda u shunchaki o‘zining so‘z tanlash mahorati-yu tildagi so‘zlarning jilvasi, shakldosh so‘zlar, turli iboralarni qo‘llab, kulgi yaratadi. Mazkur she’rning shoir ijodidagi hajvning birinchi darajasiga misol bo‘la oladi:

Buncha shirin oh, oh, oh,
Bu xo‘rozning ovozi.
Yaqinroqdan tinglashga
Qo‘ymaydi, afsus, tozi.

O‘zim ayyor deyman-u,
Goho dumim berar pand.
Alamimdan shu sabab,
Yeyman doim xo‘rozqand.

Xo‘roz va xo‘rozqand so‘zlari orqali qilingan o‘yin bolalarni quvontiradi, qiziqtiradi. Haqiqatan ham tulki alamidan xo‘rozqand yeyishi va haqiqiy xo‘rozni yeya olmagani kulgi uyg‘otadi. She’rda jonlantirish, intoq, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Qofiyalar original bo‘lmasa-da, bolaning xotirasida oson qoladi, tez yod oladi o‘quvchi shu singari she’rlarni. Muallifning boshqa she’rlarida ham hayvonlar obrazi yetakchilik qiladi.

“Chumchuqning e’tirozi” she’ri bog‘bon cholning qo‘shnisi uni saxiy, boy, hotamtoy ekanligini aytib maqtagani bilan boshlanadi va oxirida chumchuq e’tiroz bildiradiki, nega shunday saxiy odam bizdan uzumlarni qizg‘anadi deya. Muallifning she’r tanlash mahorati durust. U bolalarni qiziqtira oladigan nom tanlaydi. Sarlavhani o‘qigan kitobxon Tulkivoyning hasrati nima ekanligiga, Chumchuq nega e’tiroz qilayotganiga qiziqadi. Uni o‘qiydi. She’rlarga tanlangan nomlar go‘yoki bir jumboq bo‘lsa, unga she’rda javob topiladi va hammasi oydinlashadi. Tulkivoyning hasratiga ergashib, “Tuyaqush hasrati” keladi. U Tulkidan farqli ravishda oziq g‘amida emas, balki boshqa masalada hasrat qiladi. Bir paytlar hamma qushlar ichida eng dadil, baland jussali qush bo‘lganini aytib shunday deydi:

Hozir esa hammasi
Tuyuladi go‘yo tush.
O‘rnim olgan “samolyot”
Degan yangi chiqqan qush.

Azamatning kulgidagi asosiy quroli ham shu so‘zning o‘zi. Kimdir voqealarni aytib kuldiradi, kimdir holat bilan kulgi uyg‘otsa, Azamat bu yerda ham so‘zga tayanadi. Samolyot degan yangi qush chiqib, tuyaqushning o‘rnini egallagani qiziqarli, albatta. She’r oxirida samolyot osmonda yurgani uchun ham pastda

yurganini aytadi, chunki u ham uchib yursa u bilan urishib ketishi mumkin ekan! Umuman yaxshi topilma. Bolalarga beriladigan bilimning qiziqarli va uydirmalar asosidagi sabablarini yaratish ham mahorat. Bolalar samolyot ham qush ekanligini – ucha olishini o‘ylab, uning boshqa jonli qushlardan farqi haqida o‘ylay boshlaydi.

Shoirning she’rlaridagi bosh qahramonlar faqat jonivorlar emas, sabzavotlar, mevalardan ham obraz sifatida foydalanadi muallif. Xususan, uning “Sabzi qo‘shig‘i” she’rida yaxshi g‘oya yotadi. Sabzi iste’mol qilish bolalarning bo‘yini o‘stirishi hammaga ayon. She’rda Sabzining tilidan aytiladiki, Quyon uni ko‘p yeb qo‘ygan va negadir qulog‘i o‘sib ketibdi. Shoir mana shu joyda go‘zal bog‘liqlik yasab, she’rni ustozlarga maslahat bilan yakunlaydi:

“Quloqsiz” bolalarga
Meni qiling tavsiya.

Shoir “quloqsiz” bolalar sabzi yesa, qulog‘i o‘sib chiqishiga – tarbiyali bo‘lishiga ishora qilyapti va bu yerda sabzi ramziy obraz. Uni har kim har xil tushunishi mumkin. Kim uchundir u kitob, yana kimdir yaxshi nasihat deydi. Boshqalar esa yaxshi o‘rnak deya baholashi mumkin. Albattaki, bu adabiyot va aynan hajviy she’r ham bo‘lishi mumkin. Mana shu daraja Azamat ijodidagi ikkinchi daraja, ya’ni hajviyadan shoir birinchi darajadan biroz yuqorilab, g‘oyaviy-ma’rifiy maqsadlarda foydalana boshlaydi. Qolaversa, buni ijodkor bevosita ochiq-oydin aytmaydi, balki ishora qiladi. Hamma uni har xil tushunishi mumkin. O‘quvchi o‘zi mustaqil qaror chiqarishini xohlaydi va buni bolalar adabiyotida muallif va kitobxon muloqoti sifatida baholash mumkin bo‘ladi.

Azamat Xudoyberganov ijodida mavzu ko‘lami kengayib boradi: jonivorlar, sabzavotlar, bolajonlar. “Iltimos” nomli she’r ham hajviy xarakterda. Uning bosh qahramoni sinfdoshi Ra’no obdan maqtay boshlaydi. U singda eng a’lochi, eng odobli ekanligini aytadi. Ravon o‘qiladi, bayonchilik unchalik ko‘zga tashlanmagan va oxirida kulgi sahnaga chiqadi:

Algebradan, bilasan,
Tushunmayman men qurg‘ur.

Daftaringni ertaga

Ko‘chirishga berib tur…

She’rga tanlangan nom original, uning mazmuni keyinchalik oydinlashadi. Yuqorida aytilgandek, dastlab u jumboq tarzida qoladi. Eng muhimi, asar shu kabi ko‘chirmachi bolakaylarga ko‘zgu tutadi. Ajab emaski, sinfda shunday she’rlar o‘qilsa, yaxshi bir natija bo‘lsa, ularning yuzlari qizarib, kelasi safar o‘zi vazifalarini bajarsa. Qolaversa, bolalar biror manfaat uchun tilyog‘lamalik qilmaslik kerakligini ham o‘rganishadi. She’rning nomi nega “Iltimos” ekanligi ham oydinlashadi. Kitobdan joy olgan “Piyoz” she’ri ham hajviy xarakterda. Unda Piyoz bekasining rahmdilligini, hatto har gal uni qo‘liga olganda ko‘zlariga yosh olishini aytadi. Yaxshi topilma. Ammo negadir uni bekasi qiziq turgan tovaga tashlamoqchi bo‘lgani Piyozni xavotirga soladi. Jonlantirishning go‘zal namunasi. Har ikki bandda ham hajv elementlari bor. She’r bolalarga etik-estetik tarbiya beradi, ularni rahmdillikka o‘rgatadi. Bir qarashda yakunlanmagandek tuyulgan she’rda aslida xulosa ma’lum. U ta’sirchanlikka xizmat qiladi.

Azamatning she’rlarida shakliy izlanishlar ham ko‘zga tashlanadi, u bolalar she’riyati uchun an’anaviy bo‘lgan 7 bo‘g‘inli she’rlardan voz kechib, yangi tajribalarni ham qo‘llab ko‘radi. “O‘zi shunaqa bo‘ladi” nomli she’rda aynan shu xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Unda bosh qahramon – sazan baliq hech kimda yo‘q libosni kiymoqchi bo‘ladi va qisqichbaqa yangasida qarz olib, kumush tangali libos kiyadi:

O‘zgartirib endi

Hayot tarzini.

Qochib yurar,

To‘lamasdan qarzini, – deya yakunlanadi she’r.

Bu shoirning hajviy she’rlaridagi uchinchi daraja. Unda shoir xulosa ham bermaydi, bir qarashda shu ishni ma’qullayotgandek ko‘rinadi ham. Aslida unday emas, bunda bir nozik xitob borki, shoir bu bilan shunday bo‘lmaslik kerakligiga ishora qiladi. Qisqichbaqa yanga deya jonivorlardagi qarindoshlikni ochib beruvchi

so‘zlarning ishlatilishi va ayniqsa, bular mantiqan to‘g‘ri ekanligi ham kitobxonni quvontiradi. Sazan baliq va qisqichbaqa o‘rtasidagi qarindoshlik bolalar uchun qiziqarli. “O‘rmondagi bellashuv”, “Polizdagi bayram” she’rlari orqali ijodkorda ertak-dostonlar yozishga ijodiy quvvat borligini ko‘ramiz.

Yuqorida hajviy she’rlarni g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-estetik tarbiya quroli sifatida keltirdik. Mazkur muallif ijodida yana bir e’tiborli jihat shuki, u she’rlari bilan bolalarni turli fan doirasida sayohatlarga olib chiqadi. “Antiqa javob” nomli she’r ham hajviy she’r sanaladi, unda sinfda sakkizni ikkiga bo‘lganda necha hosil bo‘lishi haqida savol o‘rtaga tashlanadi va unga Sardor ismli o‘quvchi antiqa javob beradi:

O‘rtasidan bo‘lsak – uch,
Yon tomondan bo‘lsak – nol.

Ijodkorning topqirligi uning bolalarcha o‘ylay bilganida. Zero, bolalar uchun kitob yozadigan kishi g‘oyat usta san’atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo‘lmog‘i kerak.[24]

“Laylak” she’ri haqida ham hajviy xarakterli deyish mumkin, u birinchi darajadagi hajviy she’rlarga mansub. Laylakning bozorga tushib, ko‘ylak olgani va shimga kelganda omadi chopmay, munosibini topa olmagani she’rda bayon qilib beriladi. “Xonqizi” she’ridagi tezkorlik, uslubning yangiligi o‘quvchiga yoqadi.

Kitobning nomi uchun tanlab olingan “Uyalchang chuvalchang” she’rida chuvalchanglar nima uchun yer ostida yashashi haqidagi fikrga bolalardan biri – Temurjon topqirlik bilan javob beradi:

Uyalishsa kerak-da,
Ariqdagi baliqdan.

So‘z o‘yinlar she’rning ohangdorligini oshirib bergan, uyalchang – chuvalchang, ariq baliq singari so‘zlarning kelishi bola nutqini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

[24] Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat, Toshkent

Hajviy she’rlar haqida gapirilganda alohida e’tibor berilishi kerak bo‘lgan ijod namunasi bu – “Qovun” she’ri:

Avval boshqa so‘ydilar,
Maza qilib to‘ydilar.
To‘ygach endi, mazasi
Unchamas, deb qo‘ydilar.

Bu tamoman bolalar uchun yozilgan she’r emas, unda ijodkor insonga xos, jamiyatga xos bo‘lgan nuqsonni tanqid qilmoqda. Shakliy xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, qisqa, lo‘nda va zarbasi bor she’r. To‘rt satr bu zo‘r satr deganda qanchalar haq edi shoir, aslida. Yaxshi shoir o‘zini to‘rt satrda ko‘rsatur deyilgan edi davomida. Demakki, mana shu to‘rt satr uchun Azamatni yaxshi shoir deb maqtab qo‘yish mumkin. Ish bitgandan keyin unchamas, deb qo‘yish odati ming afsuski bugun jamiyatimizda ko‘p uchramoqda. Shoir aynan shu muammoni qalamga oladi va uni qovun tilidan bayon qiladi. Mazkur she’rda hajv o‘z vazifasini aniq bajara olgan deb aytish mumkin. Albatta, she’rni bolalar ham o‘qishlari mumkin. Ammo uni katta avlod vakillari ko‘proq tushunadi, hayotiy vaziyatlarda taqqoslay oladi. Ramz tanlashda adashmaydi muallif va bu uning yutuqlaridan biri.

“Bodringning turpga xati” she’rida do‘stlik tarannum etilgan, bir polizda o‘sgan ikki do‘st pishib yetilgach, ayrilishlariga to‘g‘ri keladi. Yo‘llari ayro tushgan do‘st turpga xat yozadi. Uni quyidagicha yakunlaydi:

Xatim tamon, alvido,
Vasiyatim – izlama.
Chunki meni ertaga
Qilishmoqchi tuzlama…

“Maqtanchoqning ahvoli” she’ri didaktik xarakterdagi she’r. Unda ham kulgi bor. Unda pashsha qaldirg‘och bilan uchishda poyga o‘ynamoqchi bo‘ladi. O‘sha paytda qaldirg‘och uni ilib ketadi:

Maqtanchoqning ahvoli
Go‘yoki o‘xshab tushga.

Ulgurmay ham qoldi u,

Bitta qanot qoqishga.

Ortiqcha sharhlar, izohlarsiz tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘lgan she’r. Maqtanchoqlik bolalar orasida keng tarqalgan “kasallik”. Uni “davolay olish” esa har bir “shifokor”ning ham qo‘lidan kelavermaydi.

To‘plamdan o‘rin olgan “Sarimsoqpiyoz”, “Kompyuter sichqoni” sarguzashtlari ham hajviy she’rlarga yaxshi misol bo‘la oladi. Sarimsoqpiyoz o‘zining hidi sabab do‘stlariga yoqmayotganini aytadi va atir sotib olib, endi u bilan hammasi yaxshi bo‘lishini ta’kidlaydi. Bunda bir ishorani do‘st orttirish uchun ham yaxshi inson bo‘lish kerakligida deb olsak, keyingi yana bir ishora ba’zan sarimsoqpiyozdek tashqi aybi uchun uning ichki dunyosini bilmay turib, chetga chiqarib qo‘yish noto‘g‘ri ekani bilan ifodalanadi. “Kompyuter sichqoni” esa mushukdan qochmoqchi bo‘lganda dumi unga xalaqit berishini aytadi. U kompyuter sichqoni bo‘lsa ham. Bu bolalarda so‘zlar bilan bog‘liq o‘xshashliklar zanjirini yaratadi. Shoir esa ulardagi nozik o‘xshatishlarni aniqlab, bolalarga tutaveradi.

“Bahona” she’rida ham jamiyatimizdagi qusurlardan biri qalamga olingan:

Echkivoyni to‘xtatib,

Mirshabboshi shoqol der:

Nega Sherdan beruxsat

Qo‘yib olding soqol, der.

Nima qilsak sen nodon

Esli-hushli bo‘lasan.

Shu ishingga ertaga

Bizga tushlik bo‘lasan.

She’rning nomi bahona ekanligini inobatga olsak, undagi mazmun tiniqlashadi. Jamiyatimizda bugungi kunda bu kabi bahonalar juda ko‘p uchraydi. Shoir ushbu masalani qo‘rqmay tanqid qiladi va bu “Donishmand Sizif” asaridagi “Talqin ado qildi Sizifni” deya o‘kinch bilan aytilgan xitobni biroz o‘zgartirib, “bahonalar ado qildi Sizifni” deyish ham mumkin bo‘ladi. Sizif bu yerda razm, albatta. Bolalarning

ham bahonalari doim tayyor turadi. Shu sabab ham bohonalarga arzimas deya sifat beriladi. U sababning egizagi, aslida. Faqat biroz salbiy bo‘yoqdorlikka ega. Shu jihatdan she’r kattalar uchun ham, bolalar uchun ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. “Olma” nomli she’rda omonimlarni qo‘llash orqali hajv qiladi, o‘quvchilarni kuldiradi muallif:

Meni “olma” deyishsa,
O‘tirmanglar olmasdan.

“Tulki” she’rida ham firibgarlar tuzog‘iga oson tushib qolayotgan sodda insonlar qismati kulgi vositasida ochib beriladi, unda tulki boshqa jonivorlar o‘zlari sodda bo‘lsa, menda nima ayb deya savol qo‘yadi. Bugun minglab insonlar soddaligi tufayli “tulkilar” tuzog‘iga tushib qolayotgani sir emas. Mana shu jarayonni shoir bolalarga xos yumor bilan qiziqarli tarzda ifodalaydi. Mazkur she’rda jonlantirish, intoq kabi san’atlardan foydalanilgan. Azamat topishmoqlarini ham turkumlarga ajratadi va “Poliz topishmoqlari” deb ataydi. Uning asosiy qahramonlari va yechimlari polizdagi sabzavotlar. Shoirning “Quvnoq matematik she’rlari” ham ahamiyatli. Ularni hisob she’rlar deyish ham mumkin.

Yuqoridagi fikrlar Azamat Xudoyberganov ijodiga emas, uning “Uyalchang chuvalchang” to‘plamiga kiritilgan she’rlarga taalluqli. U she’rlarida qo‘llaydigan asosiy tasvir vositalari: jonlantirish, intoq, sifatlash, o‘xshatish. Ijod namunalaridagi asosiy qahramonlar sabzavotlar, mevalar, jonivorlar, narsa-buyumlar, bolalarni tashkil qiladi. She’rlarining ta’sirchanligini oshirishda suhbat usulidan keng foydalanadi. Asosan hajviy she’rlar yozadigan ijodkor ular orqali bolalarga tarbiya berishga, nimadir o‘rgatishga va so‘z atalmish mo‘jizaning sirli tomonlarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Ohangdorlik, o‘ynoqilik uning she’rlarida yetakchi o‘rin tutadi. Hajv asosan she’r yakunida sahnaga chiqadi.

Insonning kitobga bo‘lgan munosabati uning bolaligidan shakllanadi. Bolaning ko‘ngliga kirib bora oladigan, u chin deb qabul qiladigan she’r yoza bilish, ayniqsa, ulg‘aygan ijodkorlardan katta mas’uliyat talab etadi. Ana shu jihatdan ham bu g‘oyat murakkab vazifa. Bolalar adabiyoti bugungi kunda g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-

estetik tarbiya quroli sifatida o‘z vazifalarini bajarishda davom etyaptimi yoki yo‘q degan savolga javob olishning birgina yo‘li bugun yaratilayotgan asarlarni keng tahlil qilishdir. Navbatdagi tahlilga tortmoqchi bo‘lgan asarimiz 2019-yilda “Birinchi kitobim” loyihasi asosida chop etilgan “Raqqos yaproqlar” kitobi. Unga uch nafar yosh ijodkor: Naima Anvarova, Mo‘tabar Hasanova, Mohidil Abdullayeva ijod namunalari o‘rin olgan. Dastlab ijodkor Naima Anvarovaning kitobdan o‘rin olgan “Makka va hakka” to‘plami haqida. Shoira she’rlaridagi samimiylik, bolalarcha soddalik insonni o‘ziga tortadi. To‘plamga kiritilgan “Yomg‘ir” she’rida hajviylik tarang darajada. Unda ustoz bolalarga yomg‘ir nima deya savol beradi. Hoshim degan topqir o‘quvchining yomg‘ir – bulutlardan oqayotdan ter deya qiziqarli tarzda javob berishi, albatta, bolalarcha o‘ynoqilik, bolalarcha kulgi uyg‘otadi. Ushbu she’rda hajviya bolalarga tarbiya bermasligi, yangi bilim o‘rgatmasligi mumkin. Lekin ularni so‘z o‘yinlariga, gapga ustalikka chorlashi shubhasiz. Bundan tashqari, mazkur she’r bolalar tasavvur olamini ham boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.: “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”.,T;2018. – b 65.

3.2.Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2006. – 8 дек.

Ҳовли тўла болалар. Шеърлар ва эртаклар. – Тошкент: Юлдузча, 1988. – Б. 19 (кейинги мисолларнинг саҳифаси қавс ичида кўрсатилади.)

4.Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 214 б.

5.Қуронов Д., Мамажонов З., Шералийева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. Б – 372.

“QISASI RABG‘UZIY”DA HAYVONOT DUNYOSINING PAYDO BO‘LISHI HAQIDAGI MIFLAR

Shukurova Zilola
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

«Qisasi Rabg‘uziy»da hayvonot olami haqida bir-biridan qiziqarli lavhalar keltirilgan bo‘lib, ular genezisiga ko‘ra qadimiy mif namunalaridir. «O‘rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi, o‘z navbatida, islomiy e’tiqod, dunyoqarash bilan

birgalikda islom va arab mifologiyasining ham bu yerga singishiga sabab bo‘ldi. Natijada mahalliy mifologik tizim ham islomiy dunyoqarashga moslashdi»[25]. Qissada hayvonlar haqidagi ana shunday qarashlar ifodasi uchrab, insonlarning tabiatni o‘rganish haqidagi ilk ilmiy tasavvurlari mahsuli sifatida qimmatlidir. Ana shunday etiologik xususiyatga ega parrandalardan biri xo‘roz. Xo‘roz va uning tabiati haqida xalq og‘zaki ijodi namunalarida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Ular xilma-xil va turli mavzularda bo‘lib, ba’zilarida ijobiy obraz sifatida gavdalansa, ayrimlarida xalqning unga nisbatan salbiy munosabati aks etgan og‘zaki ijod namunalari ko‘zga tashlanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida fisq fujur, qichqirig‘i keraksiz g‘avg‘o, o‘zini-o‘zi ko‘z-ko‘z qiluvchi obraz deya ta’riflangan[26] xo‘roz ko‘p qirrali murakkab obraz bo‘lib, arab va turkiy xalqlarning folklor namunalarida kuchga to‘lgan harbiy qiyofasida tasvirlangan[27]. Demak, xo‘rozning viqorli ko‘rinishi, o‘zini hamda atrofidagi turdoshlarini himoya qilish uchun qiladigan «jangi» harbiylarning holatiga o‘xshatilgan. Ba’zi xalqlarning folklor namunalarida xo‘roz quyosh bilan bog‘lanadi. Chunki u quyosh kabi vaqt me’yoriga amal qiladi. Shu sababli ayrim xalqlarda bu termin «kuylovchi tong» ma’nosini anglatadi[28]. Vaqt bilan qadam-baqadam yuruvchi bu obrazni quyoshga o‘xshatilgan, har ikkisi ham vaqtni aniqlashtirishda yordam beradi. Demak, xo‘roz «Vaqt xabarchisi» ham ekan.

Shuningdek uning qanday qilib uy hayvoniga aylanishi haqida ayrim adabiyotlarda ma’lumotlar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, xo‘rozning uy parrandasiga aylanishi sababi ba’zi afsonalarda Kayumars bilan bog‘lanadi. Unga ko‘ra Kayumars xo‘rozning makiyonini qutqarish uchun ilon bilan olishayotganini ko‘rib qoladi va uning bu g‘amxo‘rligini inson tabiatiga o‘xshatib, uyiga olib keladi[29]. Arablarning suaxili xalqlaridagi «Tovuq va sesarka» (sesarka–tovuqsimonlar turkumidagi parranda) ertagida o‘rmonda sovqotgan tovuq, xo‘roz va sesarka

[25] Турдимов Ш. «Гўруғли» достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари: Филолгия фанлари доктори...дис.автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 15.

[26] Жумаев Р. «Лисон ут-тайр»даги бир мажозий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – 4-сон. – Б. 24.

[27] Мифологическая энциклопедия. http://myfhology.info/myth-animals/cock.html

[28] Мифологическая энциклопедия. http://myfhology.info/myth-animals/cock.html

[29] Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 28.

insonlardan olov so‘raydi. Biroq ular olov berishni xohlamay tovuq va xo‘rozni atayin to‘kin dasturxon ustida mehmon qilishadi. O‘rmonda yolg‘iz qolgan sesarka tovuq va xo‘rozdan xavotir olib, odamlarning uyiga borsa, ular tovuqni so‘yib ovqat qilayotganligiga ko‘zi tushadi. Buni ko‘rgach, u qo‘rqib, o‘rmonda yashashga ahd qildi. O‘shandan buyon tovuq va xo‘roz insonlar bilan, sesarka esa o‘rmonda yashaydigan bo‘libdi[30]. Yuqorida berilgan har ikki voqea-hodisa turlicha talqin qilinsa-da, mohiyatiga ko‘ra bir xil. Har ikki mif genezisiga ko‘ra turkiy va arab xalqlarining islomdan oldingi eng qadimgi folklor namunalari asosida yaratilgan lavhalardir.

«Qisasi Rabg‘uziy»da ham xo‘roz obraziga murojaat qilingan. Unda xo‘rozga xos tabiat etiologik nuqtai nazaridan tahlil etilib, adib bu tasvirlarni badiiy haqiqat darajasida ko‘tara olgan. Qissada uning qay tarzda uy parrandasiga aylangani va «qichqirig‘i» sababi haqida qiziqarli lavha keltiradi. Unga ko‘ra, to‘fon tugab, kema Jadi tog‘i boshiga qo‘nadi. Shunda payg‘ambar «Yerda suvning ne miqdor qolganligini bilish uchun kim boradi» deganda, qora qarg‘a bu vazifani o‘z zimmasiga oladi. Nuh (a.s) unga ruxsat berish oldidan qaytib kelishi uchun biror narsani kafil qilib qoldirishini so‘raydi. Shunda soddadil va oqko‘ngil xo‘roz qarg‘a uchun kafil bo‘ldi. Qarg‘a esa uchib ketgach, va’dasi esidan chiqdi. Lafzsizlik qilib qaytmadi. Qarg‘aning bevafoligidan xo‘rozning ahvoli tang bo‘ldi. «Erkak tovuq o‘g‘g‘a kirmish uchun kemiga kirib, kemi toming‘a oshib, qanit to‘kib chorlayu boshladi. Qarg‘a andin yonmadi. Nuh alayhis salom tovuqni olib qoldi. Ul sababdin tovuq uchmas bo‘lub odamiylar birla qoldi»[31]. Xo‘rozning sodda, g‘o‘r va ishonuvchanligi qimmatga tushdi. Shu sababli u va uning avlodlari bir umr odamlar bilan yashashga mahkum etildi. Demak, adib xo‘rozning uy hayvoniga aylanishini Nuh to‘foni bilan bog‘lagan. Bu mifik tasavvurlarning ildizi eng qadimiy davrlarga taqalib, «Urug‘chilik sharoitida yashagan kishilar o‘z qarashlarining dual tabiatidan kelib chiqib avvaliga konkret, keyinchalik esa mavhum narsa hodisalarni fikran yonma-yon qo‘yib, bir-biriga zidlash yoki taqqoslash orqali muddaoni anglatganlar.

[30] Фольклор и этнография. – Ленинград: Наука, 1970. – С. 232.
[31] Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. 1-к. – Б. 45.

Jonli so‘zlashuv nutqidagi bu tajriba voqea-hodisalarni badiiy idrok etish yo‘siniga ham kirib keldi»[32]. Shu tarzda xo‘roz timsolida sodda va oqko‘ngil odamlarning ishonchini qarg‘aga o‘xshash yolg‘onchi va nomardlar suiste’mol qilishini badiiy aks ettirgan. Mazkur mif ham etiologik xususiyatga ega bo‘lib, xo‘roz bilan bog‘liq ilk ibtidoiy qarash mahsuli hisoblanadi. Lavhada adib nafaqat xo‘rozning uy parrandasiga aylanishi, balki uning har tongda baland shox yoki uyning tomiga chiqib qanot qoqib qichqirishining ham izohini keltirgan. Muallif «vaqt jarchisi»ning har tongda baland joyga chiqib qichqirishining sababini xo‘roz hali-hanuz do‘sti qarg‘aning qaytib kelishini kutishida, deya izohlaydi. Bunday asotirlar garchand qisqa syujet asosida qurilgan bo‘lsa-da, «... o‘zida dunyoni tushunish va tushuntirishning sodda ko‘rinishini aks ettiradi»[33] va kishi undan olam-olam zavq oladi, shu bilan birga hayrat daryosiga cho‘madi.

Umuman olganda, miflarning yaratilishi tarixan uzoq moziyga borib taqaladi. Hayvonlarning genezisi, o‘ziga xos xarakteri, tashqi qiyofasi haqidagi qarashlar ilk ilmiy tushunchalar sifatida qimmatlidir. O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelgandan so‘ng necha ming yillik tarixga ega bu asotirlarga islom ta’limoti singdirilib, yangi mazmun kasb eta boshladi. «Qisasi Rabg‘uziy» asarida ham ana shu qarashlar ifodasi yetakchilik qilib, hayvonot dunyosining paydo bo‘lishi va o‘ziga xos tabiati payg‘ambarlarning faoliyati bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu esa hayvonot olamining muayyan turlari haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitadi.

[32] Ёрматов И.Т. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси бадиияти: Филология фанлари доктори…дис. –Тошкент, 1994. – Б. 25.

[33] Пропп. Фольклор и действительность. – Москва: Наука, 1976. – С. 51.

ALISHER NAVOIY: SHAXSIYAT VA IJOD UYG‘UNLIGI

Hoshimjon Ahmedov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
ahmedov_60@list.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek milliy mumtoz adabiyotining eng yirik siymosi – Alisher Navoiy hayoti va ijodida e’tiqodiy qarashlari tahlili, buning ijod qat’iyatlariga aylanishi haqida so‘z boradi. Tahlil “Majolisun-nafois” tazkirasi asosida olib borildi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek milliy mumtoz adabiyoti, e’tiqod va ijod, “Majolisun-nafois” tazkirasi.*

“Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy asarlarining jahonshumulligi va yuksak badiiy saviyasi ham uning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yuqori darajadagi fikrlarni oliy badiiy shaklda berganligidir. [1. Alibek Rustamov, Alisher Navoiyning badiiy mahorati, 6-bet]. “Alisher Navoiy ijodkorning axloqi, ma’naviyati, e’tiqodiga alohida e’tibor berdi, zamondoshlarini ham yuksak ma’naviyatli bo‘lishlarini istadi” [2. Abduqodir Hayitmetov. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari haqida, 196-bet].

Alisher Navoiy ijodi hamisha yangi fikr va mulohazalarga keng imkon beradi. Odatda ijoddagi qat’iyatni (prinsiplarni) ijodkorning shaxsiy hayoti, dunyoqarashi, e’tiqodi belgilaydi. Hazrat Navoiy ijodini kuzatar ekanmiz, deyarli barcha asarlarida islomiy e’tiqod barq urib turadi. Chunki, islom dini benihoya insonni qadrlovchi, ulug‘lovchi din hisoblanadi. Buyuk shoir o‘z e’tiqodini ijodida ham asosiy mag‘z sifatida olgan. Aslida, shoirning e’tiqodi va ijodi o‘rtasidagi masala keng ma’noda o‘rganishga loyiq. Biz Navoiyni ham hayotda, ham ijodda birday muhtaram qilgan bir jihatiga – duo olish va duo qilish odatlariga muxtasarroq to‘xtaldik. Chunki bu orqali ham inson shaxsi, ma’naviyati, qadriyatlarga sodiqligini bir qadar aniqlashtirsa bo‘ladi.

“Ular Parvardigorlariga qo‘rquv va umidvorlik bilan duo qilur”

تَتَجَافَىٰ جُنُوبُهُمْ عَنِ ٱلْمَضَاجِعِ يَدْعُونَ رَبَّهُمْ خَوْفًا وَطَمَعًا وَمِمَّا رَزَقْنَٰهُمْ يُنفِقُونَ

[1. Qur’oni Karim, Sajda surasi 16-oyat. 288-bet]

Duo qilish bandaning Allohga muhtoj bo‘lganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Allohimning sevimli ibodatlaridan biri hisoblanadi. Muqaddas kitobimiz bo‘lmish Qur’onda hamda Hadisi shariflarda insonlarni duo qilishga chorlangan. Inson o‘zining Alloh oldida ojizligi, doim unga muhtoj bo‘lishini his qilgan holatda duo qilib ibodat qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Parvardigoringiz: “Menga duo qilinglar, Men sizlarga (duolaringizni) mustajob qilay”, - dedi.

رِينَوَقَالَ رَبُّكُمُ ٱدْعُونِىٓ أَسْتَجِبْ لَكُمْ ۚ إِنَّ ٱلَّذِينَ يَسْتَكْبِرُونَ عَنْ عِبَادَتِى سَيَدْخُلُونَ جَهَنَّمَ دَاخِ

[2. “Mustajob oylar va mustajob duolar”, G‘ofir surasi 60-oyat, 7-bet]

“Duo” [a. دعاء– iltijo, chaqirish, da’vat]

1 din. Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o‘zi yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash. Ko‘pchilikning duosi ko‘l bo‘lur. Maqol. [3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 665-bet] Aslida duo bandaning ruhiy holatidan kelib chiqib Yaratganga chin dildan qilingan murojaati hisoblanadi.

Qur’oni karimda **“Qachonki, bandalarim sendan men haqimda so‘rasalar, bas, albatta, men yaqindirman. Duo qiluvchi duo qilganda duosini ijobat qilurman”**, deb marhamat qilgan.

نَفَإِنِّى قَرِيبٌ ۖ أُجِيبُ دَعْوَةَ ٱلدَّاعِ إِذَا دَعَانِ ۖ فَلْيَسْتَجِيبُواْ لِى وَلْيُؤْمِنُواْ بِى لَعَلَّهُمْ يَرْشُدُو وَإِذَا سَأَلَكَ عِبَادِى عَنِّى

(“Mustajob duolar…”, Baqara surasi, 186-oyat, 8-bet)

Chin dildan duo qilganlarning duolari qabul bo‘lishiga shubha yo‘q. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadislarida: “Har kecha Rabbimiz dunyo osmoniga tushadi va “Kim menga duo qiladi, men ijobat qilsam, kim mendan so‘raydi, men unga ato qilsam, kim menga istig‘for aytadi, men uni mag‘firat qilsam”, - deydi”, deganlar.

Duoning ijobatini Robbimizga havola qilamiz. Negaki Robbim, albatta, mushkulimizni oson qiladi, niyatlarimizni amalga oshishiga yordam beradi. Kimnidir bunga sababchi qilib jo‘natadi.

“Robbingizga yolvorib yashirin duo qiling. Chunki Alloh haddidan oshganlarni sevmaydi”

ٱدْعُواْ رَبَّكُمْ تَضَرُّعًا وَخُفْيَةً ۚ إِنَّهُۥ لَا يُحِبُّ ٱلْمُعْتَدِينَ

(1. A’rof surasi, 55-oyat, 101-bet)

Duoni qanday ijobat bo‘lishi Allohning irodasidir. Alloh taolo so‘ralgan narsani bermasa, ajrini oxiratga olib qo‘yadi yoki uning evaziga boshqa bir yomonlikni bizdan yiroq qiladi.

Duo – inson va Allohning orasini bog‘lovchi mustahkam bir ko‘prik.

Shuningdek, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: **“Duo eting, chunki duo ibodatning o‘zagi va mag‘zidir” –** deganlar (“Mustajob oylar…” 4-bet).

Duo har doim: xursandchilikda ham, qalbga ozor yetganda ham, dunyo ko‘zimizga qorong‘u bo‘lib ko‘ringanda ham juda zarur.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy butun ijodi davomida dinni mahkam tutgan va din g‘oyalari, din buyurgan barcha xayrli-savobli ishlarni, amallarni og‘ishmay ado etgan. E’tiqodiy qarashlar Navoiyning barcha asarlariga nur berib turuvchi bir manba. Eng birinchi ko‘zga tashlanadigan jihat – Navoiy duo odoblarini mukammal bilgan. Va bunga qat’iy rioya qilgan. Duolar badiiy ta’riflar ila yana ham estetik ta’sir kuchiga ega bo‘lgan. Bu barcha asarlariga xos bo‘lgan adabiy usul o‘laroq ko‘zga tashlanadi. Avvalo an’ana bo‘yicha Allohga hamdu sano aytiladi, so‘ngra oxirzamon payg‘ambariga durudu salovatlar bildiriladi, undan so‘ng aziz insonlar vasfiga duolar aytiladi. “Majolisun-nafois” [4. “Nafis majlislar”T. “Fan”, 1997] tazkirasida quyidagi qisqa duolar uchraydi:

1. ***“Madda zillahu”*** – Olloh uning soyasi (umrini) uzaytirsin. (Abdurahmon Jomiy ta’rifida aytilgan, “Majolisun-nafois”, Uchinchi majlis, 70-bet, Duoning “***Madda zillahu irshodahu”*** – Alloh uning umrini va to‘g‘ri yo‘lini uzun qilsin” shakli ham keltirilgan)

2. “***Quddisa sirrihu”*** – siri muqaddas bo‘lg‘ay, vafot etgan ulug‘ insonlar sha’niga aytiladigan duo. Amir Qosim Anvor haqida ma’lumotda keladi. (10-bet). Xoja Yusuf Burhon ta’rifida ham aytilgan. (51 –bet)

3. “***Alayhir-rahma”*** – Unga Allohning rahmati bo‘lsin! Mavlono Mashriqiy va Mavlono Lutfiy ta’rifida keltirilgan. Ikkinchi majlis, (51, 61-bet)

4. “***Sallamahulloh”-*** Alloh salomat qilsin! Mavlono Muhammad Ne’matobodiy va Ahmad Hojibek zikrida kelgan. Ikkinchi majlis. (57- va 68-betlar)

5. “***Alayhittahiyyati vas-sano”*** **–** Unga Allohning duo va maqtovi bo‘lsin! Mashhad imomi Ali Muso ar-Rizo ta’rifida keltiriladi. Uchinchi majlis. (137-bet)

Bundan tashqari Navoiy “Majolisun-nafois”ning har sakkiz majlisi muqaddimasi va xotimasida ta’sirchan o‘ziga xos va betakror badiiyat libosi bilan ziynatlangan duo kalimalarini keltiradi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Fazlulloh Abullaysiy hamda Mavlono Lutfiylarning ko‘p-ko‘p duolarini olganlari bunda ham, boshqa manbalarda ham keltirib o‘tilgan. Navoiy o‘zi duo olib, komil bo‘lgan, yana o‘zi ham yaxshilar haqqiga duogo‘y bo‘lgan. Uning yuksak ma’naviyati barcha asarlarida muhrlangan.

Kuzatishlarimizdan shunday xulosalarga keldik:

1. Alisher Navoiy barcha asarlarini (liro-epik va nasriy) an’anaviy diniy madh, na’t hamda duo-yu durudlar bilan ziynatlagan. Bular doim ta’sirchan poetik shakllarda istifoda etilgan.

2. Barcha ulug‘ fazilat egalarini duo bilan yod etgan. O‘tganlarni duo bilan eslash, zamondoshlarga yaxshi niyatli duolar bildirish – doimiy hayotiy amali bo‘lgan.

3. Navoiy barcha duo va tilaklarini yuqori darajada badiiy sayqallangan usulda bayon qilgan.

4. E’tiodiy qarashlar – Navoiy badiiy-estetik qarashlarining, ijodiy konsepsiyasining ajralmas qismi bo‘lgan.

“Inson obrazining shoirona tavsifi, uning hali to‘la ochilmagan fazilatlarini kashf etish, harakatga keltirish shoir falsafiy va tarbiyaviy ta’limotining mag‘zini tashkil etadi”. [5. Aziz Qayumov, Alisher Navoiy. 15-bet]. Darhaqiqat, alloma ijodkor hayoti va ijodi chin ma’noda millat uchun o‘zga xos andoza o‘laroq yashashda davom etadi. “Alisher Navoiy asarlaridagi fikr teranligi, ozod ruh, mustahkam

iymon, tuyg‘ular nafosati va nihoyat, mukarram va ulug‘vor turk (o‘zbek) so‘zining qudratini anglamay turib, ma’naviy yo‘limiz qanchalik yorug‘ va ravshan bo‘lmasin, undan dadilroq odimlash mumkin emas”.[Hamidulla Boltaboyev. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. 11-bet]. Bu degani har bir o‘quvchi, adabiyot, xususan Alisher Navoiy ijodi muxlisi o‘z oldiga o‘rganish va amal qilish vazifasini qo‘ymas ekan, mutolaa va o‘rganishdan murodi hosil bo‘lmaydi. Inchunun, hazrat Navoiy dahosi bizning ma’naviy – ruhoniy ehtiyojimizni ortig‘i bilan qondira oladi. Bunga aslo shubha bo‘lishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур шарҳи ва таржимаси. Т.: “Чўлпон” нашриёти. 1992. – 496 б.
2. Муқаддас ойлар ва мустажоб дуолар. Ўзбекистон Мусулмонлар идораси. – Т.: “Мовароуннаҳр” нашриёти, 2005. – 488 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати биринчи жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энсклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. – 680 б.
4. Алишер Навоий. “Мажолисун – нафоис”. Мукаммал асарлар тўплами. 13 том. Т.: “Фан” нашриёти, 1997. – 284 б.
5. Азиз Қаюмов. Алишер Навоий. “Ёш гвардия” нашриёти, Т, 1976, 160 б.
6. Ҳамидулла Болтабоев. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Т. Ўзб. Миллий энциклопедияси нашриёти. 2008. 426 б.

RUHIYAT TASVIRINI O‘RGANISH MASHAQQATI

Shoira Isayeva
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Shoir qalbi dunyoni tinglar
Maqsud Shayxzoda

Tafakkur doirasi keng qamrovli, teran fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, qalbi pok millat kishisi faqat ezgulik qilishgagina qodir bo‘ladi. Adabiyot esa ezgulik, nafosat, poklik, go‘zallik haqida so‘z yuritadi. Adabiyotning bosh ob`yekti – inson, demak, uning zimmasida shunchalik mas`uliyat bor ekan, ijodkorning imkoniyatlari keng bo‘lishi bilan birga uning jamiyatda, inson taqdirida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida ma’naviy xazina yaratuvchi sifatidagi o‘rni nihoyatda muhimdir. Darvoqe, mamlakatimiz prezidenti Islom Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek,

“Ma’naviylik va ma’rifiylik xalqimizning ko‘p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o‘ziga xos xususiyati bo‘lib keldi”.(1)

Yoshlar ma’naviyati dolzarb masala hisoblangan bugungi kunda yosh qalamkashlar ijodiga qayta-qayta murojaat etish, shu yo‘l bilan yosh avlodning qalbida o‘z millatining tarixiga, sharafli kechmishiga bo‘lgan ehtirom kurtaklari o‘sib-ulg‘ayib, ertamizning iqbolini belgilaydigan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish kabi muhim vazifalardan biriga aylandi.

Milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasi bilan sug‘orilgan asarlarni o‘qigan yosh avlodning qalbida ajdodlari o‘tmishiga bo‘lgan e’tibor yanada ortadi, zero, bugungi kunda “… buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma’naviy me’rosi, ming yillik tariximiz, madaniyatimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an’analarimiz, xullas, inson ma’naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti” (2).

Vatan uchun kurash, millat ozodligi, inson erki masalalari ifodasi barcha davrlar adabiyotida ustuvor mavzu hisoblangan. Bu mavzular shoira G.Asqarova badiiy-estetik izlanishlarining ham o‘zak mohiyatini tashkil etadi. Uning bitiklarida millatsevarlik tuyg‘ulari ramzi obrazlar zamiriga singdirib yuboriladi.

Darhaqiqat, vatanparvarlik – bu har bir millat kishisining o‘z ona yurtiga, xalqi yaratgan ma’naviy, madaniy, axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatidan tug‘iladigan milliy tuyg‘u. U shaxs ruhiyatida, ongida shakllangan fikrning ma’lum bir shaklda namoyon bo‘lishidir. Shoiraning “Vatan deya yuksalar ruhim “turkum she’rlarining ana shu jihatlardan kuzatish maqsadga muvofiqdir.

G.Asqarova she’riyatining lirik qahramoni tabiatida namoyon bo‘layotgan vatanparvarlik Shaxs erki, ona yurt ozodligi, qadriyatlar, Vatan mustaqilligi bilan bog‘liq. Ko‘proq u publististik ruh bilan yo‘g‘rilgan da’vat, e’tiqod, murojaat, lirik monolog, yurak nidolari shaklida namoyon bo‘layotir. Jumladan, uning “Kelinchak orzusi “she’rida:

Men bolamga uxlatguvchimas,
Uyg‘otguvchi alla aytaman, –

degan mutlaqo noan’anaviy talqiniga duch kelamiz.

Zotan, davr, ijtimoiy voqelik ko‘ndalang qo‘ygan savollarga javob izlash, zamondoshlar ma’naviy dunyosini to‘kis ifodalashga intilish, millatsevarlik tuyg‘ulari tarixiga e’tiborning ortishi, falsafiy mushohadalarning teran ifodasi Guljamol Asqarova she’riyatidagi vatanparvarlik, xalqchillik g‘oyalarining rangin ifodalaridir.

Darhaqiqat, yosh avlod o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan asarlarga, asriy an`ana, milliy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalangan bo‘lsa, uning milliy o‘zlikni ifodalagan asarlardan ta’sirlanishi tabiiy hol hisoblanadi. Shoira o‘z kuzatuvchanligi bilan kishini hayratlantiradi. U inson qiyofasini badiiy chizgilarda aks ettirar ekan, albatta qahramonining, avvalo, qalb dunyosini, ichki kechinmalarini, nozik his-tuyg‘ularini qalamga oladi.

Shoira she’riyati badiiyatining o‘ziga xosligi shundaki, u hayotiy detallarga ijtimoiy, falsafiy, estetik mazmun yuklash orqali turli kechinmalar manzarasini hosil etadi. Bu fikrlar tasdig‘i quyidagi misralarda namoyon bo‘ladi:

Ota, she’r azobi uyg‘otdi meni,
Yuragimga ko‘chdi ufqlar tusi.
El degan mushfiq so‘z ulg‘aytdi meni,
Meni odam qildi millat qayg‘usi…
Bir kun Vatan deya yuksalsa ruhim,
Xalq desam boshimga tig‘ kelmasidan.
Ota, tuproqlaring eslarmi meni,
Vatan o‘chirmasmi xotirasidan…

Ha, G.Asqarova ash`orlari ancha sayqallangan, samimiy kechinmalarga boy, mavzu jihatidan rang-barang, ijtimoiy hayotda erishilgan ozodlik, erkin tafakkur uning ruhiyatida aks-sado beradi.

Shoira hayot haqiqatlarini teran anglagani sari o‘zig ava yozganlariga nisbatan mas’uliyati ham orta boradi. U dil-dildan erkinlikka, mustaqillikni mustahkamlash-ga, ezgulik va go‘zallikka intiladi. O‘zini el dardi va Vatan taqdiriga daxldor sezadi.

Uning lirik qahramoni o‘z taqdiri uchun faol kurashayotgan, hayotsevarlik dardi bilan yongan o‘zbek ayolidir. Komillik, ma’naviy to‘kislik inson baxt-saodatini belgilaydigan omillardan biri ekanligi haqidagi badiiy-estetik konsepsiya G.Asqarova manzumalari mohiyatini tashkil qiladi.

Insoniy baxt, shaxs erkining ta’minlangani, ma’naviy go‘zallikning muhim vositalaridan biri sifatida badiiy tadqiq etiladi. Kurashuvchan ayol ruhiyati mohirlik bilan badiiy chiziladi. Baxtsiz ayol taqdiri shoira ijodining markazida gavdalanadi. Mungli ohanglar bora-bora isyonkor tus oladi:

Yovqur qizman, qasoskor qizman,
Qilichlardan ekanmi naslim?!...

Men qasdimni nasya qoldirmay,
Naqdi-naqdi bilan olarman.

Lirik qahramonning asl istagi millatni hur-erkin ko‘rish, ona Vatan mustaqilligini yo‘qotmasligi, turkiy ulus birdamligi masalasidir. Binobarin, loqaydlik va beparvolik, ongsizlik millat boshiga ne-ne ko‘rguliklarni olib kelishi mumkinligi haqida qayg‘uradi:

Men bilaman bu baxt degani –
Yo hurligim, yo zo‘rligimdir.
Nazokatim – o‘t nigohim-u,
Nafosatim – yovqurligimdir.

Shoira yaratgan lirik qahramonning fikr-yodi bo‘lgan millat erki, xalq ozodligi muammosi insonning shaxsiy baxti bilan uzviy tutashib ketadi. Zotan, chinakam baxt tugalligi, yaxlitligi bilan namoyon bo‘lmog‘i lozim.

Ko‘rinadiki, G. Asqarova lirik qahramoni mag‘rur, o‘ziga ishongan, shu bilan birga anchayin jasoratli va tabiatan sodda. Ular ba’zan rassom mo‘yqalamidan chiqqan ajoyib peyzaj manzarasini eslatsa, ba’zan hayotiy voqea-hodisalar poetik talqinlarga duch kelamiz. Bularning hammasi, shoiraning fikr-idroki poetik mushohadaga boy ekanligidan darak beradi. U fikrlarini ortiqcha jimjimalarsiz, ramzlar, timsollar vositasida tasvirlay oladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, shoira

Guljamol Asqarova she’riyatida ruhiyat tahlili, lirik qahramon kayfiyat holatini tasvirlashga alohida e’tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov I.A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. T.2.- T.: O‘zbekiston ,1996.

2. Karimov I.A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. T.2.- T.: O‘zbekiston ,1996.

ERKIN VOHIDOV G‘AZALIYOTIDA VASLNING O‘RNI

Raxmonova Shahnoza Muhitdinovna
ToshDO‘TAU, O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
shahnoza@navoiy-uni.uz

Annotation. *This article discusses the phenomenon of the theoretical concept of Vasl in the aruz system. The origin and lexical meanings of the word Vasl are studied, their role in determining the weight in couplets is analyzed. On the example of the poems of Erkin Vakhidov, two types of Vasl events are investigated. For this to happen, the first word must end with a consonant and the next word must begin with a vowel, which means that the space between the two words must be empty.*

Key words: *Aruz (ʿarūż), vasl, genre, metrics, ghazal, ramal, hazaj.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada aruz tizimidagi nazariy tushuncha vasl hodisasi haqida fikr yuritiladi. Vaslning kelib chiqishi, lug‘aviy ma’nolari o‘rganiladi, baytlarda vaznni belgilashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Vasl hodisasining ikki turi Erkin Vohidov g‘azallari misolida tatqiq qilinadi. Ushbu hodisa yuzaga kelishi uchun birinchi so‘z undosh bilan tugab, undan keyin kelayotgan so‘z unli bilan boshlanishi kerak, ya’ni ikki so‘z orasi ochiq bo‘lishi kerakligi aytilgan.*

Kalit so‘zlar: *aruz, bayt, vasl, janr, vazn, ramal bahri, hazaj bahri.*

XX asr o‘zbek adabiyoti juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib kelgan she’riyat o‘tgan asrning 60-yillariga kelib, yana bir bor yuksalish jarayonini o‘z boshidan kechirdi. Bu davrga kelib adabiyotda, xususan, she’riyatda yangicha talqinlar, tuyg‘ular ifodasi yanada, teranroq ifodalana boshladi. Bu jarayonda iste’dodli shoir Erkin Vohidovning o‘ziga xos o‘rni mavjud. Shoirning “Yoshlik devoni” go‘yo “mudragan aruzni uyg‘otib yubordi. Erkin Vohidov she’rdagi yashirin hikmatni o‘zbek g‘azalxonlari qalbiga joylay oldi. Erkin

Vohidovning g‘azallari, qasidalari, “nozik ruboiylari” o‘z zamonasining goh tug‘yonli, goh sokin, goh samimiy, goh iztirobli kechinmalarini “xaloskor so‘z” orqali zamondoshlari qalbiga nozik tuyg‘ular vositasida singdira olgan hassos ijodkor.

Zamondoshlari bilan kamarbasta bo‘lib hayot qozonida qaynab-toshib ijod qiladigan, quvonch-tashvishlariga sherik bo‘la oladigan, yuksak ma’naviyat va e’tiqod hamda samimiyat egasi edi. Bu qadriyatlar uning faqat kundalik turmush tarzida emas, uning dilbar she’riyatida ham yorqin aks etadi. Erkin Vohidov Sharq mumtoz adabiyotiga yaqin muhitda o‘sib-ulg‘aygan, milliy mumtoz adabiyotga muhabbat ruhida tarbiyalangan, umrbod mumtoz adabiyot ruhiyati, kayfiyati bilan yashab ijod etgan, asarlari mumtoz tafakkur durdonalari bilan yo‘g‘irilgan mutafakkir shoir edi. Mumtoz adabiyot bilan ana shunday doimiy hayotiy hamnafaslik shoirning mumtoz g‘azallarni adabiy sharhlashiga, bu bilangina qanoatlanmasdan, taxmislar yozib badiiy sharhlashiga asos bo‘lgan [Nusratullo Jumaxo‘ja, 2019: 19].

G‘azallarning vaznini aniqlayotganimizda gohida vaslga duch kelamiz. Xo‘sh vasl qanday hodisa? G‘azallarning vaznini aniqlashda vaslning qanday aloqasi bor? Bu savollarga javob topish uchun vasl hodisasi haqida batafsil ma’lumot beramiz. Biz bu hodisani tahlil qilish uchun XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida barakali ijod qilgan shoir Erkin Vohidovning g‘azallarini tanlab oldik. Bilamizki, vasl arabcha so‘z bo‘lib, ulanish degan ma’noni anglatadi. Vasl – aruz tizimi asosida yaratilgan she’riy asarlarni ifodali o‘qish jarayonida vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undosh tovushni undan keyin turgan va unli tovush bilan boshlangan hijoga qo‘shib talaffuz etish hodisasi hisoblanadi [Hojiahmedov, 1998: 44]. Aruzshunos D.Yusupova Vasl hodisasi bir so‘z tarkibida sodir bo‘lmaydi! Ushbu hodisa yuzaga kelishi uchun birinchi so‘z undosh bilan tugab, undan keyin kelayotgan so‘z unli bilan boshlanishi kerak, ya’ni ikki so‘z orasi ochiq bo‘lishi kerak, - deb ta’kidlaydi [Yusupova, 2019: 18]. Natijada, o‘ta cho‘ziq hijo cho‘ziq

hijoga, cho‘ziq hijo qisqa hijoga aylanadi. Mazkur hodisani yanada yaxshiroq anglash uchun Erkin Vohidov she’riyatidan bir baytni olib tahlil qilib ko‘raylik:

Tak	lif	et	dim	tong	bi	lan	dil	dor	ni	lo	la	say	li	ga
–	–	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
Bo	shim	os	mon	lar	ga	yet	di	yor	de	gan	da	may	li	ga
–	–	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–

Birinchi misradagi “**lif”,** ikkinchi misradagi **“shim”** hijolarini biz qoida bo‘yicha cho‘ziq deb olamiz. Chunki aruz tizimida cho‘ziq hijoning birinchi ko‘rinishi yopiq bo‘g‘in bilan ifodalanadi. Shuning uchun biz bu bo‘g‘inlarni cho‘ziq hijo (–) bilan belgiladik. Misralardagi qolgan so‘zlarning ham hijolarini aniqlasak, quyidagi manzara paydo bo‘ladi:

– – – –/ – V – –/ – V – –/ – V –
– – – –/ – V – –/ – V – –/ – V –

Bir qaraganda *ramali musammani mahzuf* vaznidagi bayt. Lekin birinchi va ikkinchi misralardagi 2-hijo nega cho‘ziq? Ular qisqa bo‘lishi kerak emasmi? Ha, aslida bu hijo qisqa bo‘lishi kerak. Chunki birinchi va ikkinchi misralardagi “**lif”** hamda **“shim”** bo‘g‘inlarini o‘zidan keyin kelayotgan **etdim, osmonlarga** so‘zlariga ulanib, quyidagicha talaffuz qilinishi lozim:

*Takli-**f+et**dim/ tong bilan*
– V – –/ – V –
Dil/dorni lola sayliga,
–/ – V – –/ – V –

*Boshi-**m+os**mon/larga yetdi*
– V – –/ – V – –
Yor(i) degan/ “mayliga” [Vohidov, 2000: 125].
– V – –/ – V –

Bo‘g‘inga ajratganda **tak-li-fet-dim** hamda **bo-shi-mos-mon-lar-ga** deb ajratish maqsadga muvofiqdir. Baytdagi birinchi misrada qo‘llanilgan **“taklif”**

so‘zidagi **“f”** undoshi undan keyin turgan **“et”** hijosiga ulanib, **“fet”** tarzida, 2-misradagi **“boshim”** so‘zida oxirgi **“m”** undoshi esa undan keyin kelgan **“os”** hijosiga birikib, **“mos”** holida o‘qilishi lozim. Baytda vasl hodisasi undosh bilan tugagan so‘zni o‘zidan keyin kelgan va unli bilan boshlangan so‘z bilan qo‘shilib ketib, ochiq bo‘g‘inli so‘zga aylantirgan.

Bu hodisani Erkin Vohidovning boshqa vaznda yozilgan “She’riyat” g‘azalida ham kuzatish mumkin. G‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Sen ey um-rim	na-ho-ri-dan	a-zi-zu o-	shi-no me-nga
– – – –	V – – –	V – – –	V – – –
Sa-har cho‘l-po	ni-dek jo-zib	so-chib-dir-san	zi-yo me-nga
V – – –	V – – –	V – – –	V – – –

Keltirilgan bayt misralari bir qaraganda **hazaji musammani solim** vaznida bitilgan. Lekin birinchi misradagi 1-bo‘g‘in cho‘ziq hijo (–) bilan belgilangan. Bu esa vazn qoidasiga ziddir. Zero, *hazaji musammani solim* vaznining talabiga ko‘ra birinchi hijo qisqa (V) bo‘lishi lozim. Chunki vazn mafoiylun (V – – –) asliy ruknining aynan takroridan hosil bo‘ladi va quyidagi ko‘rinishga ega:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Shuning uchun baytda **“sen”** so‘zidagi **“n”** undoshi vazn talabi bilan o‘zidan keyin kelayotgan **ey** so‘zi bilan birikib, vasl hosil qiladi va **“se-n+ey”** tarzida o‘qiladi. Alaloqibat, ohangda yengillik va o‘ynoqilik hosil qiladi.

Se-n+ey *umrim nahoridan azizu oshino menga,*
Sahar cho‘lponidek jozib sochibdirsan ziyo menga [Vohidov, 2018: 419].

Vasl hodisasi ko‘pincha baytda o‘ta cho‘ziq hijo (– V yoki ~)ni oddiy cho‘ziq hijo(–)ga aylantirishi ham mumkin [Yusupova, 2019: 18]. Erkin Vohidovning “Rashkim” g‘azalining lirik qahramoni – oshiq. Bunda oshiq timsolidagi lirik qahramon yorini “yotlar tugul hatto o‘zidan ham rashk qiladi”. Uning rashki

shunchalar kuchliki, bunday his uning loladek qizargan yuzlaridan ham “ayon bo‘lgay”. G‘azalning quyidagi baytiga e’tibor qaratsak:

Se-ni yot-lar	tu-gul hat-to	**qi-lur-man rashk**	o‘-zim-dan ham
V – – –	V – – –	**V – – – V**	V – – –
U-zoq-roq ter	mu-lib qol-sam	bo‘-lur-man g‘ash	ko‘-zim-dan ham
V – – –	V – – –	V – – –	V – – –

Ushbu bayt hijolarini cho‘ziq va qisqaga ajratilganida **rashk** so‘zi o‘ta cho‘ziq (– V) hijoli so‘z hisoblanadi. Chunki **qator undosh bilan tugagan yopiq bo‘g‘inga aruz tizimida** cho‘ziq (– V) hijo quyiladi. Shu qoida asosida mazkur so‘zni **rashk(i)** tarzida o‘qishimiz va shunga mos ravishda o‘ta cho‘ziq qilib belgilashi kerak. Lekin bu tarzda belgilansa, uchinchi ruknda ikkita qisqa bo‘g‘in bo‘lib qoladi va ruknlar orasidagi mutanosiblik(**V – – – V**)ka putur yetadi. Shu bois **rashk** so‘zi o‘zidan keyin kelayotgan **o‘zimdan** so‘ziga qo‘shib o‘qiladi. Ana shunda aruzga xos ohang ham, *hazaji musammani solim* vazni ham saqlanadi:

Se-ni yot-lar	tu-gul hat-to	qi-lur-man **rash-**	**k+o‘**-zim-dan ham
V – – –	V – – –	V – – –	V – – –
U-zoq-roq ter	mu-lib qol-sam	bo‘-lur-man g‘ash	ko‘-zim-dan ham
V – – –	V – – –	V – – –	V – – –

Erkin Vohidovning *muzori’yi musammani axrab* (– – V/ –V – –/ – – V/ –V – –) vaznida bitilgan “G‘uncha” nomli g‘azali chiroyli tashbehlarga boyligi va mubolag‘alarning turfaligi bilan ajralib turadi. Ushbu vazn mafoiylun aslining axrab tarmog‘i – maf’ulu (– – V) rukni va foilotun (–V – –) aslining solimi bilan ketma-ket takrorlanishiga asoslanadi. Shu tufayli ham mumtoz musiqa kuylariga solib ijro etish qulay. M*uzori’yi musammani axrab* vazni misra ichidagi kichik ritmik pauzaga ega va shu jihatidan u hazaj bahrining shu yo‘nalishdagi vaznlarini eslatadi. G‘azal kompozitsiyasi oshiq ko‘ngil va endigina yuz ochish, ochilish arafasida turgan “*g‘uncha*” bilan o‘zaro muloqot asosiga qurilgan. Chunki chin oshiqlargina, ko‘ngli ilohiy muhabbat nuri ila yo‘g‘irilgan mahbub va mahbubalargina ko‘zlari tushgan har narsadan mo‘’jiza topa oladilar. G‘azalning birinchi bayti o‘ziga yaqin do‘sti

habib izlab yurgan oshiq ko‘ngilning ishq gulzorida “*barg ostidan muloyim boqib turgan g‘uncha*”ga darddosh, sirdosh bo‘lish istagini bayon qilish bilan boshlanadi:

Barg ostidan muloyim
Boqqan iboli g‘uncha,
Ne sirni saqlagaysan
Bag‘ring nechun tuguncha [Vohidov, 2018: 419].

Keltirilgan baytga e’tibor bersak, o‘ta cho‘ziq hijo (– V yoki ~)ni oddiy cho‘ziq hijo(–)ga aylantirilgan. Baytdagi barg so‘zi qator undoshi bilan ifodalangani uchun o‘ta cho‘ziq hijoli so‘z hisoblanadi. Bunda birinchi ruknda qo‘llanilgan **“barg”** so‘zidagi **“g”** undosh tovushi undan keyin turgan **“os”** hijosi bilan birikib vasl hosil qilgan. Natijada baytni vaznga moslab **“bar-gos-ti-dan”** tarzida talaffuz qilish talab etiladi. Vasl hodisasiga g‘azaldagi boshqa baytlarda ham duch kelish mumkin.

Xulosa qilib shuni alohida qayd qilish lozimki, Erkin Vohidovning g‘azallarida vazn va vasl uyg‘unligiga asoslangan misralar bir butunlikni tashkil qiladi. Muallif mazmun va vazn, vaslni uzviylikda shakllantirib, poetik jihatdan mukammal misralarni yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nusratullo Jumaxo‘ja. Talqinlarda shoirona shuur va ilmiy tafakkur // Олтин битиклар. – Тошкент, 2019. – № 2. – Б. 19-24.
2. Rahmonova Sh. Erkin Vohidov taxmislari / Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati (Республика онлайн илмий-амалий анжумани). – Гулистон, 2020. – Б. 561-565.
3. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Ta’lim-Media. – T.: 2019. – 184 b.
4. Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. Биринчи жилд. – Т: Шарқ, 2000. – 416 б.
5. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т: Шарқ, 2018. – 689 б.
6. Йўлдош Қ. Беором юрак зарблари / Сўз ёлқини. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. – Б. 264–278.
7. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 224 б.

“QISSAI JAMSHID” ASARINING POETIK XUSUSIYATLARI

Jabborova Matluba Rustamovna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
katta o‘qituvchisi
mdjabborova86@mail.ru

Annotatsiya: *Xalq qissalari adabiyotning asrlar osha sayqallanib, turli obrazlar orqali tillarda doston, el orasida mashhur bo‘lgan boy merosidir. Unda xalq ijodining og‘zaki va yozma janrlari o‘z aksini topadi. Xalq qissalari an’anaviy syujet asosida yaratilgan, ulardan ayrimlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotida ijodiy qayta ishlangan. “Qissai Jamshid” asari ana shunday an’anaviy syujet va obrazni qayta ishlash asosida yaratilgan xalq ijodi namunasidir. Mazkur maqolada o‘zbek xalq kitobi “Qissai Jamshid” asarining o‘ziga xos tili va poetik xususiyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalq kitobi, poetik xususiyat, an’anaviy sujet, jonlantirish, o‘xshatish, badiiy san’atlar.*

Annotation: *Folk tales are a rich literary heritage that has been polished for centuries and is popular in various languages. It reflects the oral and written genres of folk art. Folk tales are based on traditional plots, some of which are creatively reworked in Uzbek folklore and written literature. Qissai Jamshid is an example of folk art based on such a traditional plot and image processing. This article analyzes the specific language and poetic features of the Uzbek folk book "Qissai Jamshid".*

Keywords: *folk book, poetic feature, traditional subject, animation, simile, artistic art.*

O‘zbek xalq kitobi “Qissai Jamshid” XVIII asr oxiri XIX asr boshlari o‘zbek nasrining badiiy jihatdan o‘ziga xos imkoniyatlari haqida ma’lumot beradi. Mazkur davrda ko‘pgina qissalarning yaratilishi, avvalo, o‘zbek adabiyotining boyishiga xizmat qilgan. Chunonchi o‘z davrining adabiy asar badiiyati, poetik lavhalar tasviri, badiiy-tasviriy ifodalar ko‘lami va qahramon ichki olamining yoritilishi kabi jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgan mazkur asar zamonaviy o‘zbek nasrini yaratilishiga ham zamin hozirlagan. Ikkinchidan, shu davrda yaratilgan qissalarga o‘zbek xalqining orzu-umidlari, o‘y-kechinmalari, turmush tarzi va kundalik tashvishlari singdirilgan. Uchinchidan, mazkur asar qissa yaratilgan davr adabiy tilining o‘ziga xosligi haqida ham ma’lumot beradi.

Odatda, badiiy asarni poetik jihatdan taftish etishda, asarda badiiy tasviriy vositalardan foydalanilganlik, qahramonlarning tashqi qiyofasi nechog‘lik mahorat

bilan chizilganligi, obraz ruhiy olamining yoritilishi kabi masalalarga e’tibor qaratiladi. “Qissai Jamshid”ning o‘ziga xos jihatlari mazkur masalalar asosida kuzatildi.

Asarni badiiy jihatdan bezashda jonlantirish muhim ahamiyatga ega. Muallif jonlantirish vositasida “insonga va jonli mavjudotlarga xos belgilarni tabiat hodisalariga, narsalarga va tushunchalarga ko‘chiradi” [Худойбердиев, 2008: 137]. Boshqacha qilib aytganda, “tirik narsalarning xususiyatlarini jonsiz ashyolarga nisbat berish *jonlantirish* deb ataladi” [Султон, 2005:139]. Masalan, qissada jonli mavjudotga xos “qarash” xususiyatini jonsiz narsa boylikka ko‘chiradi: *“Davlat senga boqay desa, unamaydursan”.*

Badiiy tasvir jarayonida o‘xshatishning o‘z o‘rni bor. O‘xshatish orqali o‘quvchiga ma’lum bo‘lgan biron-bir predmetga xos xususiyat tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaga ko‘chiriladi. “O‘xshatishlar “-dek”, “-day”, “o‘xshash”, “xuddi”, “monand”, “go‘yo”, “misli”, “singari”, “kabi”, “yanglig‘”, “-simon” kabi so‘z va qo‘shimchalar yordamida yuzaga keltiriladi. O‘xshatish tasvirlanayotgan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilarini yorqinroq, aniqroq qilib ko‘rsatishga xizmat qiladi” [Худойбердиев, 2008: 134]. Masalan, qissago‘y Laylivashning Malikai Dilso‘zga bo‘lgan muhabbati tasvirlashda quyidagi o‘xshatishdan foydalanadi: “quchoqig‘a kirsa*, o‘tg‘a kuygondek* zohir bo‘lub toqat qilolmas edi”. Shuningdek, qissada ba’zi mubolag‘ali o‘xshatishlarni ham kuzatish mumkin. Masalan, “xalqning qoni *daryodek oqti* va jasadi *tog‘dek dumalandi*”, “qiron qildilarki, “*yel birla tufroq olishqondek*”, “bir musht urdiki, boshi *sabchadek uzulib ketti*” kabi. Qissago‘y ushbu o‘xshatishlar orqali badiiy voqelikni o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq gavdalantirishga erishgan. Qissada qo‘llanilgan “pahlavonlarning boshi *soyni toshidek* har joyda to‘da to‘da bo‘ldi”, “yiroqdin bir nimarsa ko‘rdilarki, ko‘zi farqi sarida *tovus parxundek*”, “Malikani *guldek badani* xun oluda bo‘ldi”, “o‘qni go‘yoki *qor yomg‘urdek* yog‘dirdi”, “*minordek* bir odam”, “boshig‘a jig‘a sanchibdur *katta terakdek*”, “andog‘ taftish qildiki, go‘yokim shaharg‘a *o‘t olg‘ondek* bo‘ldi”, “chehrasi *za’farondek* sorg‘ayibdur”, “har bir odiyni qad qomati

minordek”, “ko‘zi *piyoladek* bo‘lubdur”, *“*xazon *yafrog‘idek* titradi*”, “*bu na’raning o‘zi andoq eshitildiki, osmon *yorilg‘ondek* bo‘ldi*”, “*belidan xanjarini olib, sherning qornig‘a andog‘ urdiki, *go‘yoki bag‘ri to‘kulib tushdi”* kabi betakror o‘xshatishlar asarning badiiy-estetik, ta’sirchanlik xususiyatini oshirgan. Shuningdek, qissada ruhiyat tasvirini kuchaytirish maqsadida kiritilgan intim tasvirlar va holatlar o‘zbekona sharm pardasi ortida “qog‘ozga o‘ralib” berilgan.

Badiiy asarda so‘z o‘z ma’nosidan tashqari turli-tuman ko‘chma ma’nolarda ham ishlatiladi. Bunday metaforalar qissada ham uchraydi: *“daryo labig‘a”, “suvni labida”, “buloq labig‘a”, “tog‘ning qoq belida”, “xandaqning labig‘a”, “naqibni og‘zig‘a”, “zindon yaqosig‘a”, “zindon boshig‘a”, “zindon labida”, “*uy yuzida*”*.

Xalq kitobi “Qissai Jamshid”da mubolag‘a san’atidan ham unumli foydalanilgan. Masalan, Malikai Dilso‘zning jamolini vasf eta turib, “*xusn va jamoli oftobg‘a g‘alaba qilur erdi*”,*“Malikai Dilso‘z oftob, men zarra”*, deb ta’riflaydi. Mubolag‘a san’atidan foydalanish, asosan, romanik asarlarda yetakchilik qilsa-da, mazkur jangnoma tipidagi qissada ham alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, qissaning ko‘pgina o‘rinlarida mubolag‘aviy, hatto, o‘ta mubolag‘a – ig‘roq tasvirlarni uchratamiz. Ayniqsa, jang sahnalari tasviri va taraflarning hujum jarayonini tasvirlashda qahramonlarning kelbat va salobatini tasvirlashda bu san’atdan mohirona foydalanilgan. Masalan, qissago‘y lashkarlarning ommaviy tarzda, yopirilib hujumga o‘tishi jarayonini tasvirlay turib, *“Jamshid ko‘rduki, osmon ko‘runodir, yer ko‘rinmaydur”* deydi. Ya’ni, lashkarlar shu darajada ko‘pki, ko‘z ko‘rishi mumkin bo‘lgan chegaragacha bo‘lgan barcha hududni egallab olgan. Bunday mubolag‘ali tasvirlar qissaning ko‘p lavhalarida uchraydi. Chunonchi, *“qaro kechada qaro palasini uzasida qaro chumolini ko‘zig‘a nish tikon urar erdi”, “yerga andog‘ urdiki, taxtai zamin uzra naqsh bog‘ladi”, “chorbog‘ni to‘rt tarafidin andog‘ o‘q yog‘durdilarki, ro‘zi ravshanda oftob o‘qni soyasida hargiz yerg‘a tushmadi”, “bu devzodning yonchilg‘on ustixonlarini ovozi batamom Rumg‘a eshitildi”, “andog‘ majlis qildilarki, parilar rashk ayladi”, “yoyning ikki boshini bir yerga kelturub, yondurmay bir piyola choy ichguncha xayol qilib tutib*

turdi”, “qizlarni voy enaga, degan ovozig‘a chahor bog‘ni tomlari darz ketti”, “Bomonning na’rasi bir kecha kunduzliq yerga eshitildi”. Bunday tasvirlar qissaning tom ma’nodagi o‘zbekcha jangnoma ekanligini “mana-men” deb ko‘rsatib turibdi.

Qissada pahlavonlarning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi – portreti tasvirida ham mubolag‘adan foydalaniladi. Laylivash do‘sti Farruxi Odiyni shunday ta’riflaydi: *“Tun yarmi bor erdi bir pahlavoni odiy zabardast paydo bo‘ldi. Aning haybatidan osmonu zamin larzag‘a keladur. Karvon xalqi qo‘rqub oldig‘a chiqib taklif qilduk. Men uch kun turg‘izib, sakkiz yuz qo‘y so‘yub, mehmondorliq qilib o‘tkardim. Har yeganida oltmish – yetmish qo‘yni go‘shtini yolg‘iz yer erdi.”* Ushbu lavha giperbolaga ham misol bo‘la olishi mumkin. Badiiy adabiyotda o‘ta orttirib tasvirlash, kattalashtirish giperbola deyiladi. Masalan, qissada pahlavonlarning qad-qomati o‘ta kattalashtirib tasvirlanadi: *“Shul asnoda orqa tarafdin minordek bir nimarsa paydo bo‘ldi. Boshi bulutda keladur”.*

Shuningdek, badiiy asarda buning aksi ham uchrashi mumkin. Ya’ni narsa-hodisalarning hajmi, ko‘lami haqiqatga mos kelmaydigan darajada kichraytirib tasvirlansa, bunday holatni litota deyiladi. *“Xo‘jai Valoguhar ko‘rduki, malikani og‘zig‘a solsa bo‘g‘zidan ilonnamo o‘tub ketgudek. Malika muning nazarida bir no‘xotcha bor”, “Farruxiod Xo‘janing tanho ko‘rmab erdi, charoki muni nazarida bir qurtcha bor erdi”.* Har ikkala misolda ham litota san’ati qo‘llanilgan. Birinchisida Farruxiodning juda katta gavdasini ta’riflash barobarida, malikaning o‘ta nozik, kichikkina jussasini tasvirlaydi. Ikkinchi misolda ham o‘quvchi tasavvurida Farruxiodning haybatli qomatini tasvirlash uchun Xo‘ja Valoguharning jussasini “qurtcha” kichraytiradi. Qissaning yana bir o‘rnida pahlavon Bahrom raqibini mensimasligini litota yordamida ifodalagan. *“Bahromning achig‘i keldi, aydiki, bu chumolini bir urub o‘qumda yumalatay, deb daxanaki terni chillai kamong‘a band qildi.”*

Badiiy asarda bayon ohangining o‘zgarib turishini ta’minlovchi ohang vositalari ham mavjud. Bu jarayonni adabiyotshunos olim Izzat Sulton shunday

izohlaydi: “Hayotdagi kabi personajlarning ruhiy holatlari o‘zgarib, goh osoyishta, goh jo‘shqin bo‘lib turgani uchun, badiiy tilda bayon ohangi ifoda etilmoqchi bo‘lgan mazmunga qarab turlanib turadi” [Султон, 2005: 140]. Ohang vositalarining eng ko‘p ishlatiladigan turi inversiyadir. “Inversiya deb gapdagi so‘zlarning odatdagi o‘rnining almashtirilishiga” aytiladi. Masalan, o‘zbek tili uslubiy qoidasiga ko‘ra gapning boshida ega, oxirida kesim kelishi kerak. Biroq inversiya jarayoni yuz berganida bu tartib o‘zgaradi. Bu o‘zgarishdan maqsad “asosiy fikrni oldinga olib chiqib uqtirmoqdir.” Misol uchun, qissada keltirilgan *“Olti oydin keyin Rumg‘a elchi yubordi, menga itoat qilsun deb”* jumlasi qoidaga ko‘ra bunday tuzilishi kerak edi: “Olti oydan keyin menga itoat qilsin, deb Rumg‘a elchi yubordi” yoki *“bul ham jahonni dod adl birla obod ayladi va bunyod”, “Rum podshohidin noma kelibdur, sizni taklif qilg‘ali, dedi”* singari jumlalarda ham inversiya mavjuddir.

Til adabiy asar yaratilishida eng muhim omil, uning sarsinji hisoblanadi. Chunki, rassom o‘z tasavvurini turli ranglar vositasida aks ettirgani singari, yozuvchi ham ijod jarayonida “o‘z quroli” – tilni ishga soladi. Shu sababli, badiiy asar tahlili davomida ijodkor mavjud til imkoniyatlaridan nechog‘lik foydalana olganligiga ham e’tibor beriladi.

Xalq tomonidan yaratilgan mazkur qissaning ham til xususiyati o‘ziga xos. Unda qo‘llanilgan turli ma’nodagi birikmalar qissa tilining boyishiga xizmat qilgan. Bunday “tagma’noli” so‘zlar asar tilini badiiy jihatdan bezab, ma’noviy salmog‘ini oshirgan. “Qissai Jamshid”da quyidagi tagma’noli birikmalar uchraydi: “*Siyomakni qonini tiladi”* (Siyomakning o‘limi uchun qasos olmoqchi bo‘ldi), *“dev ustig‘a yubordi”* (dev bilan jang qilish uchun yubordi), *“yemak va ichmakdin ikki labini tikib”* (parhezkorlik), *“xob va oromni o‘zig‘a harom etib”* (bedorlik), *“devlar jangi uchun yuzlandi”* (devlar bilan jang qilishga tayyorlandi), *“qo‘lg‘a tushqon”* (asir bo‘lgan), *“yurt tutib bo‘lmas”* (yurtni boshqara olmaydi), *“mehnat va mashaqqat o‘tida kuysun”* (mehnat qilsin), *“yog‘iyg‘a tushub”* (asir bo‘lib), *“bir piyola choy ichguncha”* (bir muddat), *“muhabbat qozonida qaynag‘on”* (mehridan bahramand

bo‘lgan), *“makru hiylasini ko‘kka uchurub”* (hiylasini yo‘q qilib), *“qo‘lidin hech ish kelmadi”* (topshiriqni bajara olmadi), *“ko‘ngli aylansa”* (rozi bo‘lsa), *“yuragig‘a larza tushsun”*(qo‘rqsin), *“rishtai umri bu olamdin tiyur”* (o‘ladi), *“paymonasi to‘libdur”* (o‘limi yaqinlashgani), *“osmong‘a uchmas, yerga kirmas”* (hech qaerda yo‘q), *“azroilni changalidin”*(o‘limdan), *“bir poy turar erdi”* (yolg‘iz), *“ko‘ksidagi olmasig‘a”* (ko‘kragiga), *“suhbatidin hargiz umidin uzolmas ermish”* (yana suhbatlashish orzusida yurish), *“erni ko‘ngluni qoldurmas”* (rozi bo‘lsa kerak), *“malikani olsam”* (malikaga uylansam), *“ko‘nglimg‘a kelg‘oni”* (fikrim), *“ulug‘ tuqg‘onlar”* (qarindoshlar), *“chiyot bog‘ini ichida butagon daraxtni bix va bunyodidin uzub tashlaydur”* (o‘ldiradi), *“savdoda ko‘zingiz pishsun”* (savdo sirlarini o‘rganish), *“bir ko‘zi oldida va bir ko‘zi orqasida”* (ayanchli ahvolda), *“o‘tni boshlab kelibsiz”* (xavfli odamlarni), *“yodlansam yuragim laxta laxta qon bo‘ladur”* (sog‘inib azoblanish), *“ishqida kabob qildi”* (sevib qolish) kabilar. Bu misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Ba’zan qahramon, ba’zan qissago‘y tilidan aytilgan mazkur birikmalar qissa tilining badiiy jihatdan boy ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ushbu birikmalar asarning badiiy tilida tasvir aniqligini, ikkinchi tomondan matnning jonli xalq tiliga yaqinligini, tushunarliligini oshirgan.

Bundan tashqari, qissada sinonim birliklar ham uchraydi. Qissago‘y o‘z asarida bir ma’noli iboralarni turli shaklda qo‘llashi orqali qissa tili jozibasini yanada oshiradi. Chunonchi, *“saltanat taxtida qaror topti”, “jahonni o‘z tasarrufida ko‘rdi”* (podshoh bo‘ldi), *“nihonxonai adam sori intiqol qildilar”, “oxir al-amr yer ostida manzil etti”, “olami foniydin jahoni boqiyg‘a intiqol etdi”* (vafot etdi), *“ko‘zig‘a ilmadi”, “nazarig‘a kelturmadi”* (mensimadi), *“oshiqu beqaror bo‘ldi”, “beixtiyor oshiq bo‘ldi”, “oshiqu nigoron bo‘ldi”* (sevib qoldi), *“bor a’zosig‘a larza paydo bo‘ldi”, “xaft andomig‘a larza tushti”, “yuragi orsiqti”, “zaharasi yorildi”, “badanida har tor mo‘yki bor erdi, jomasidan sarbdor qildi”, “g‘azablari darjo‘sh keldi”, “itlig‘i tuti”, “otash g‘azabi jo‘shqa keldi”* (jahli chiqdi), *“pisand aylab”, “aqida bog‘lab”* (ishonib), *“yuz va ko‘zini yirtib”, “charx urub”* (jazavaga tushib), *“boshig‘a kelg‘on xikoyalarni*”, *“bu falak kajraftorini”,*

“bu falak g‘addoridin shikoyatlar” (sarguzashtlarini) kabi ma’nolarda qo‘llanilgan mazkur sinonim birikmalar bir xil holatni turlicha tasvirlash imkonini yaratgan.

Bundan tashqari, qissaning badiiy tilida bir ma’noga ega, biroq turli shaklda yoziluvchi sinonim so‘zlarni ham uchratamiz. Yozuvchi, odatda, bir so‘zni qayta-qayta takrorlamaslik uchun uning sinonimlaridan foydalanadi. Sinonim so‘zlardan mohirona foydalanish badiiy asar tilining boyishiga ko‘maklashadi. Masalan, qissada “kiyim” ma’nosini anglatuvchi turli sinonimlardan mohirona foydalaniladi. *“Mani bu jomalarimni siz oling”, “Bu gulxanchi sevinub, liboslarini yechib berdi”, “Qarton Zangig‘a kishi yubordiki, jang siloxini kiyib kelsun deb”, “ey bo‘tam, siz munda kiyimingizni quritib soya olib o‘lturing, dedi”.* Ta’kidlash joizki, yozuvchidan vaziyat va holatga ko‘ra sinonimik so‘zlardan to‘g‘ri keladiganini tanlab olish talab etiladi. Bunda so‘zlarning ijobiy va salbiy bo‘yoqdorlik xususiyatiga ham alohida e’tibor berish lozim. Masalan, o‘zbek tilidagi “yuz” so‘zining “bet”, “aft”, “bashara”, “turq” kabi salbiy va “chehra”, “oraz” kabi ijobiy sinonimlari mavjud. Bulardan matn taqozosiga ko‘ra to‘g‘risini tanlay bilish, muallif mahoratiga bog‘liq. “Sinonimlardan to‘g‘ri va unumli foydalanish badiiy tilning rang-barangligiga, takroriylikning kamayishiga va uslubning ravonligiga yo‘l ochadi” [Худойбердиев, 2008: 123]. Qissadagi har bir sinonim so‘z vaziyat va holatga mos ravishda tanlangan. Masalan, *“baliq birlan ovqat qilur erdilar”.* Ushbu gapdagi ovqat so‘zining o‘rniga uning sinonimi g‘azo yoki yemish ishlatib bo‘lmaydi. Keyingi misollardagi sinonim so‘zlar ham o‘z o‘rnida, to‘g‘ri qo‘llanilgan: *“Kamak men musofirman, deb yemish tiladi”, “uch kunda bir g‘azo beradur, bular o‘lgudek bo‘ldi”, “Qalandarlarni ko‘rdi, so‘ranglar qaydin kelibdur, deb taom chiqordi”.*

Badiiy asarda qarama-qarshi ma’noli so‘zlar ham ko‘p uchraydi. “Antonimlardan yozuvchilar ko‘pincha turli kishilar yoki hodisalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, kontrast holatlar hosil etish maqsadida foydalanadilar” [Худойбердиев, 2008: 124]. Qissago‘y “Qissai Jamshid”da quyidagi antonim so‘zlarni ishlatadi: *“ular lashkari bekaron birla paydo bo‘ldi, birisi uzun, birisi*

qisqa", "ey bobo, bu ismiyotni shundoq birla o'qudimki, bu choh bir quloch bo'lsa, bu kamon uzun kelmas. Agar ming quloch bo'lsa, qisqa kelmas dedi", "Bir baland taxtqa malika chiqib o'lturdi. Pastroq bir taxtda podshoh Jamshid o'lturdi.", "Do'stungg'a do'st, dushmaninga dushman bo'lay, deb ahd qildi". Demak qissaning til zahirasi ancha boy, qissago'y rang-barang so'zlar yordamida voqealarni jonli tasvirlashga erishgan.

"Qissai Jamshid"da adabiy tilning o'z davridagi mavjud imkoniyatlaridan to'la bahramand bo'lgan va o'ziga xos til xususiyatlariga ega asar, deyish mumkin. Chunonchi, qissada adabiy tilning ko'pgina shakllariga misol topish mumkin.

"Qissai Jamshid"ning og'zaki varianti ham o'ziga xos obrazli va jonli chiqqan. Qissago'yning tilimizda mavjud bo'lgan bir qator tasviriy-ifodaviy vositalardan unumli va mohirona foydalangani qissaning yutug'idir. Asar tilida o'sha davr tilining "lug'at tarkibida endi paydo bo'lgan" *"elektr chirog'i","durbin","obed","soldat"* kabi *neologizmlar* va "chet tillardan olingan, lekin milliy til leksik qatlamiga kirmaydigan" *"sovsem","prikaz", "zanyat", "neujeli"*kabi *varvarizmlar* uchraydi.

Shuningdek, qissada ironiya (kinoya)viy jumlalar ham uchraydi. Juvozkash cholni bir urib boshini osmonga uchirib yuborgan Jamshid uning kampiriga shunday deydi: *"momo, sizlarni kallalaringiz bo'sh bo'lama, men axir boboning soqoliga bir narsa qo'ngan ekan, shuni olayin desam, kallasi uzilib ketdi-ku".*

"Ba'zan so'z va iboralar shunday tartibda joylashtiriladiki, go'yo birining ma'nosi keyingisi tomonidan kuchaytirib, rivojlantirib borilgandek bo'ladi. Bu kuchaytirish, deb ataladi" [Худойбердиев, 2008: 152]. Qissago'y tomonidan qayta-qayta tilga olinadigan mazkur jumla bunga misol bo'la oladi. *"Osmonning osti, jerning usti, yetti iqlim, dev, pari, ins-jinsga podsho bo'ldi".*

Mazkur asar tilida hikmatli so'z, aforizmlar ham ko'p uchraydi: *"Bo'rining bolasi bo'ri bo'ladi, yo'lbarsning bolasi yo'lbars bo'ladi, tulkining bolasi tulki bo'ladi".*

Shuningdek, asarda o‘xshatish san’atidan ham mohirona foydalanilgan: *“Xushro‘yligi Yusuf payg‘ambarcha, qadi-qomati Alicha, odamgarchiligi Xotamtoycha ekan”, “olti yuzta polvonini qip-qizil, jap-jangi gilamdek tuzib”.*

Ayniqsa, qissago‘y tomonidan mubolag‘a san’atining rang-barang ko‘rinishlarining qo‘llanilishi asar badiiyatini yanada oshirgan: *“Bir o‘yin bo‘ldi osmonda farishta, ko‘kta turgan parilar tamosho qildi”, “yetti tegirmon toshi bog‘langan gurzisi bilan urdi, ammo chivin chaqqanday bo‘lmadi”, “sen urishni bilmas ekansan, deb bir urdi, kallasi uzilib osmonga ketdi”, “bu askarlarning sonini xudo bilmasa, bandasi bilmaydi. Bulardan tangaday joyga kun tushmaydi, tayoq tashlasa yerga tushmaydi”, “Jamshid o‘n ikki tabaq oshni ko‘rdim demay shipirib urdi”, “malikaning osmonda farishta, ko‘kda turgan parilarga jamoli g‘alaba qilur erdi”.* Ko‘rinib turibdiki, parchada ig‘roq san’ati ham mahorat bilan ishlatilgan.

Asarda portret tasvirining ham o‘ziga xos namunalari, rang-barang ko‘rinishlari yaratilganligini kuzatish mumkin: Malikai Dilso‘z haqida so‘z ketganda, *“o‘ttiz ikki zulpini kiptiga taylab, yuziga upa-elik urub, boshiga balxiy ro‘molin chirmab, oyog‘iga tilla kovush kiyib”* yoki kanizaklar tilga olinganda, “oyog‘iga qizil xirom etik, beliga guldor ro‘mol, egniga beqasam to‘nu boshiga sallani taylab”.

Qissada quyidagicha saj’ san’ati qo‘llangan jumlalar ham mavjud: *“Tepadan o‘choq qo‘ydirib, tuya tevani so‘ydirib, musofirni tilagandek to‘ydirib”, “kechani kecha qilib, kunduzni kunduz qilib, ko‘zini julduz qilib”, “ochilmagan bo‘xchamni o‘zing ochting, sochilmagan bo‘xchamni o‘zing chochting”.*

Ko‘rinadiki, “Qissai Jamshid”ning xalq varianti ham til va badiiy xususiyatiga ko‘ra o‘ziga xos bir nasr namunasidir. Qissa badiiy san’atlarga boyligi, rang-barang tasvirlar, qahramonlar ta’rifidan tortib, ularning ruhiy olami ham o‘z davrining til imkoniyatlaridan to‘la foydalangan holda berilgan.

Qissaning poetik xususiyati ham o‘ziga xos. Unda rang-barang badiiy-tasviriy vositalar va badiiy san’atlardan unumli foydalanilgan. Yozma variant birmuncha

sayqallangan tasvirlarda tafsilotlar o‘ta bo‘rttirilib yoki o‘ta nafislashtirilib berilsa, og‘zaki variantda esa oddiy so‘zlashuv uslubida voqealar lo‘nda bayon etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005.
2. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008.
3. جنگنامۂ پادشاه جمشید. Тошбосма, ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Адабиёт ва санъат музейи фонди, Инв. №118. 1335 й. (ҳижрий)

HIKOYA JANRIDA “ILK UCHRASHUV”, “AYRILIQ”, “VISOL” MOTIVI

Hamrayev Komiljon O‘lmasovich,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
“Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon” kafedrasi dotsenti(v.b)
khamrayev@gmail.com
Xayrullayev Azamat Xoliqovich
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
azamatxayrulla@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqolada XX asr o‘zbek hikoyalarida muhabbat mavzusining yoritltshi o‘rganilgan. Ishq-muhabbat mavzusiga oid asar syujetlarining tipologik va o‘ziga xos ko‘rinishlari talqin qilingan. Tog‘ay Murod, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul, Murod Muhammad Do‘st, Olim Otaxon kabi ijodkrlarning hikoyalari misolida oshiq va ma’shuqa ruhiyatidagi o‘zgarishlar tabiat tasviri fonida ko‘rsatilishi tahlil qilingan. Bundan tashqari muhabbat haqida hikoyalarda ayriliq va uchrashuv motivlarining poetik xususiyait keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sarlavha, kompozitsiya, syujet tizimi, badiiy obraz, badiiy detal, badiiy g‘oya, majoziy ma’no.*

Annotatsiya: *In this article the illucidat of love was learned in XX th century`s uzbek literature. The typologic and specific features of sujets worksthat conserning the theme of love and passion were interpreted. As an examole in the stories` of authors such as Tog‘ay Murod, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul, M.Muhammad Do‘st, Olim Otaxon presenting the changes in lovers` psychology were analused as image of the nature.*

Moreover poetic features of the motives, parting and meeting were described in the stories of love.

***Key words**: Title, somposition, subject, artistic subject, artistic images, artistic detail, artistic spiritual meaning.*

Yigirmanchi asrda o‘zbek hikoyachiligi chin ma’noda o‘z qiyofasini topdi. Hikoya tarixiy shakllanish jarayonida shaklan va mazmunan yangilanishga yuz tutdi. Natijada o‘zbek hikoyachiligi inson va jamiyat, odam va olam, o‘tmish va kelajak muammolarini faol aks ettirishda badiiy maydon vazifasini bajardi. Shu bois Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, Ahmad A’zam, Nazar Eshonqul kabi yozuvchilarning hikoyalarida o‘z ifodasini topgan turfa mavzular yigirmanchi asr adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan.

Keyingi yillarda adabiy jarayonda bir mavzuga bag‘ishlangan hikoyalarni to‘plam holida nashr etish urfga aylandi. So‘ngi yillarda “XX asr muhabbat haqida yigirma hikoya”, “Oqtirnoq” va “Onajon, ka’bam o‘zing” kabi to‘plamlarning paydo bo‘lishi nafaqat o‘zbek hikoyachiligining taraqqiyot bosqichlarini to‘g‘ri baholashga xizmat kiladi. Badiiy adabiyotda shunday mavzular bo‘ladiki, ular o‘z qolipida, o‘z qahramonlari doirasida ish ko‘radi. Mana shunday mavzulardan biri – bu ishq-muhabbat mavzusidir. Mulohaza qilib ko‘rilsa, bizda o‘zbek xalq og‘zaki ijodidan tortib, mumtoz adabiyot tarixi va to bugunga dovur ishq mavzusini badiiy talqin etgan turli janrlardagi abadiyat monumentlari juda ko‘p. XX asr muhabbat haqida yigirma hikoya” to‘plamida: “Adabiyotimiz xazinasida aynan muhabbat mavzusida yozilgan, bugungi va kelgusi avlodlar ham o‘qib zavqlanadigan shoda-shoda marvariddek sara hikoyalar ham mavjud…”[Karimov,2015:4], degan so‘zlarni o‘qiymiz.

Mazkur to‘plam tarkibidagi hikoyalarda bir mavzuning turfa talqinini ko‘rsak-da, ular o‘rtasidagi mushtarak jihatlarning ham muhimligini e’tirof etish joiz. Bir mavzuga bag‘ishlangan hikoyalarda o‘xshash komponentlarning zohir bo‘lishi, muhabbat tuyg‘usining bir-biriga yakin lavhalardagi ifodasi, shuningdek, oshiq va ma’shuqa ruhiyatidagi kechinmalar tasviri har qanday kishi xotirasida o‘z izini qoldiradi.

Yigirmanchi asr hikoyachiligi mavzu jihatidan boy va xilma-xil. Ushbu hikoyalar davr muhabbati, uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda dunyo adabiyotining an’anaviy syujetlarni, iztirob, hijron visol kabi abadiy barhayot motivlarni tasvir etib kelmoqda. Aksariyat hikoyalar obrazlar tizimida uchlik, ya’ni oshiq, ma’shuqa va raqib sistemasining mavjudligi bu mavzuning tipologik belgilariilk syujet namunalarida uchraydi. Badiiy adabiyotda bu tushunchalar ilk syujet tarkibida namoyon bo‘ladi: “Ilk syujet deganda biz ilohiy kitoblar, xususan, “Qur’oni Karim”da kelgan ilk odam – Odam alayhissalom to‘g‘risidagi ilk ilohiy axborotni”[Jo‘raqulov, 2015:153] badiiy adabiyotga ko‘chganini nazarda tutamiz.

Fikrimizni oydinlashtirish maqsadida bu to‘plamdan joy olgan ba’zi hikoyalarga to‘xtalsak. Murod Muhammad Do‘stning “Dashtu dalalarda” hikoyasi o‘zining mazmun-mohiyati bilan sinalgan an’anviy syujetga ega asarlarni esga soladi. Hikoya bosh qahramon polvonning ruhiy kechinmalari bilan boshlanadi. “Hadicha ketdi-yu, ko‘ngildan halovat ham ketdi.” Endi bu yerda polvonning ham yashashi qiyin. Sababi “uydagi hamma narsa Hadichani esga soladi: ostonaga qadami tekkan, devorga yelkasi chidab o‘tirishi” mahol edi. Natijada polvonning yuragi toriqdi. “Boqqa olib tushadigan qiyalikdagi bobosidan qolgan yerto‘lani o‘ziga boshpana qildi”. Bu boshpana toraygan ko‘ngilga mos joy edi. Polovonga “erto‘la avvaliga sal vahimali ko‘rindi. Shifti past, agar chiroq bo‘lmasa, naq lahadning o‘zginasi” edi. U asta-sekin “go‘rsimon ekaniga ham ko‘nikdi”. [Muhammad Do‘st,2015:147] Ayni shu “ko‘nikish”dan so‘ng bo‘lib o‘tgan voqealarni birin-ketin esga oldi. Esga oldiyu, o‘z-o‘zidan xafa bo‘ldi. Uning borlig‘ini qamrab olgan o‘rlik tumani tarqab, fikri tiniqlasha boshlagan edi...

Hikoya voqealari bir nechta syujet chiziqlari orqali bayon qilinadi. Hikoyadagi xronologik syujet chizig‘iga ikki retrospektiv syujet chizig‘i kelib ulanadi. Bu esa, katta epik asrga xos bo‘lgan zamon va makon o‘lchamlarini qamrab olish imkonini beradi. Hadichani Sho‘rquduqdan kelin qilib olib kelish voqeasi, Salim saqich bilan bog‘lik hodisa va Xadichani qaytarib olib kelish yo‘lida sodir bo‘lgan voqealarning har birida muhabbatning achchiq iztirobi, hijronning qiynoqli azobi, visolning

shirin damlari o‘z ifodasini topgan. Salim saqich Nazar Maxsum kabi dajjollarning hiylasiga bandi bo‘lgan polvon yerto‘ladan ozod bo‘ladi. Endi uni xech kanday kuch Xadichadan ajrata olmas edi. Yozuvchi hikoyadagi xronologik syujet chizig‘ida ayriliqvoqealarini tasvirlasa, retrospektiv syujet chizig‘ida esa, baxtiyor oshiq va ma’shuqa orasiga gumon urug‘larini sochgan Salim saqich singari manfur kimsalarning qilmishlari haqida gapiradi. Demak, bu hikoya mazmun-moxiyati, qahramonlarning iztirob, hijron va visol onlarini his qilishi hamda dajjol xiylasiga aldanishi bilan ilk syujet voqealarini esga soladi. Xullas, yozuvchi kichik janrda davr qahramonining yorqin obrazini yaratgan. Bu obraz sodda, mard millat o‘g‘lonining badiiy asardagi aksi deyish mumkin.

Muhabbat haqidagi asarlarda ilk syujetning qaysidir xususiyatlari badiiy matn to‘qimasida nihon bo‘ladi. Masalan, Sayid Ahmad ”Ko‘zlaringda sehr bor edi”, Olim Otaxon “Xotira va xayol”, Nazar Eshonqul “Oq alanga” hikoyalarida ayriliq motivi ustuvorlik qiladi. Oshiq obrazi hijron dardida ruhiy kechinmalarini o‘z tilida bayon etadi. Bu qahramonning dard-qayg‘ulari va o‘y-xayollarining boricha aks ettirishda katta yordam beradi. Bunday hikoyalar syujet qurilishi va ifoda yo‘sini bilan lirik tafakkurga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam qiladi. O. Otaxonning “Xotira va xayol” hikoyasi voqealari qahramonning ichki olami, uning ruhiyatidagi evrilishlar orqali ochib beriladi. Qahramonning his-tuyg‘usi tabiat xodisalari bilan qorishib, ramziy ma’no kasb etadi:

“…Xona jimjit. Tashqarida esa qor yog‘yapti.

Yarim soat ilgari ko‘chada bu baland imoratlaru, yo‘lkasiz, dov-darxtsiz ko‘chalarda o‘ychan yurib kelayotgan mahal mening pocha-po‘stinim, sochlarim, yuzimga kelib qo‘nayotgan qor endi xayollarim va xotiramga yog‘ar va oppoq qor uchqunlari muhabbat, yoshlik iztiroblari haqidagi xayollarimni tungi yulduzlar kabi yorita boshlagandi”[Olim Otaxon,2015:218]. Hikoyada nim qorong‘u xonaga oppoq qor uchqunlari, inson jismiga uning ozod ruhi kontras qo‘yiladi. Yuqoridagi ko‘chirmada ko‘rinadiki, bu ikki qarama-qarshi tushuncha badiiy konflekt vazifasini bajargan hamda simmetrik o‘q yanglik hikoyada ichki mazmun muvozanatini

ta’minlagan. Oppoq qor uchqunalari qahramonning qorong‘u dunyosini yoritib, umidbaxsh tuyg‘ularga oshno qilgan. Bu hikoya o‘z ma’shuqasidan ayrilgan oshiqning iztiroblari haqida bo‘lib, uning iztirolariga faqat xotira va xayollargina malham bo‘la oladi. Arofatning quyidagi so‘zlari qahramon xotirasida gavdalanib, xasta ko‘ngliga taskin beradi. “…Sen o‘shanda yerda inson hayoti boshlangandan beri dunyodan ko‘z yumib o‘tganlar bahorda gullar bilan, yozda suvlar bilan, kuzda yomg‘ir, qishda qor bilan qaytib keladi, deganding”[Olim Otaxon,2015:221]. Demak hikoyada qahramon jisman ayrilik hissini azob cheksada, ruhan ma’shuqasi bilan birga ekanligiga ishonib yashaydi.

N.Eshonqulning “Oq alanga” hikoyasi qahramonining boshini ham ayriliq o‘ti ham kilgan. Bu hikoyada ham roviy voqealarni retrospektiv usulda bayon qiladi. Oshiq qalbidagi hijron iztirobi shunchaki to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki xat orqali tasvirlanadi: “…Sen meni, balki, esingdan chiqargandirsan, –deb xat yozardi yigit o‘zi bir paytlar ko‘ngil qo‘ygan qiziga, – men xotirangdan, balki butkul o‘chib ketgandirman. Lekin mening yodimda hamon o‘sha qiyofada – ko‘kish gulli oq ko‘ylakda lovullab yonib turasan. Sen xuddi hilpirab turgan oq alangaga o‘xshaysan. …Alanga hamon mening sovuq xonamni cho‘g‘day isitib turibdi”[Nazar Eshonqul,2015:252].

“Oq alanga”da ham xona badiiy makon vazifasini bajaradi. Oshiqning alangadek muhabbatiga yolg‘iz mana shu xona guvoh. To‘g‘rirog‘i, faqat guvohgina emas, sirdosh, suhbatdosh. Chunki yigit har kuni xat yozar va gultuvaklarga joylab, xonasiga terib qo‘yar edi. Uning qalbidagi bor iztiroblar xatlarda aks etayotgani sabab ular butun xonani gulzorga aylantirib yuborgandi: “Deraza to‘lgach, yigit qog‘oz gullar solingan tuvaklarni yozuv stoliga, kursiga, kitob javoniga, yerga, keyin esa divanga terib qo‘ya boshladi. Xonaning burchaklari ham kog‘oz gulli tuvaklarga to‘lib ketdi. Xonada nogahon barcha gullari chaman bo‘lib ochilgan gulzor paydo bo‘ldi”[Nazar Eshonqul,2015:253].

O‘zbek hikoyachiligida yozuvchilar tabiat va interer tasviridan ko‘p maqsadlarda foydalanishgan, biroq N. Eshonqulning “Oq alangasi”dagi peyzaj

o‘ziga xos. Unda xatlar, oq alanga, guldon, xona – barchasi bir butunlikda oshiq ko‘nglining turli qirralarining ramziy ifodasi, aniqrog‘i, oshiq qalbining o‘zi edi: “Yigit xonani tashlab chiqib ketdi. Uyni aylanib o‘tarkan, xona derazasiga ko‘z tashladi. Xonani lovullagan alanga burkagan edi…”[Nazar Eshonqul,2015:253].Oq alangaga aylangan xona yozuvchining badiiy topilmasi. Bu topilma mohiyatida muhabbat deya atalmish eng oliy tuyg‘u jilva qiladi.

Bu kitobdan joy olgan Tog‘ay Murodning “Er-xotin”, Xayriddin Sultonning “Dunyoning siri” hikoyalari ham voqelikning bayon etilishida, syujet va obrazlar tizimida mushtarak lavhalar ko‘zga tashlanadi. Hikoya voqealari xronologik syujet chizig‘ida ro‘y berishi, hikoya markazida yosh oilaning tasvirlanishi, er-xotinning ruhiyati ifodasi fikrimizga misol bo‘ladi. Ammo shuni qayd etish kerakki, bu ikki hikoyaning kompozitsion xususiyatlari o‘zaro farqqiladi. Ayniqsa, bu muallifning badiiy g‘oyasida yaqqol ko‘rinadi.

Yozuvchi “Er-xotin” hikoyasini shunday jumlalar bilan boshlaydi: “Yo‘q, ular anhor bo‘yida uchrashmadi. Uchrashuvda o‘ziniki qilib aytish uchun kitoblardan she’rlar ko‘chirib olmadi. “O, men seni sevaman, sensiz yashay olmayman!” qabilidagi mavsumiy so‘zlarni” [Tog‘ay Murod, 2015:142] so‘zlashmagan bo‘lsa-da, ular oila kurishdi. Avvaliga hayotning turli baland-pastlariga qoqilib kun kechirishar edi. Hatto Barchinoy ko‘ngilsiz turmush bo‘lmaydi, degan paytlar ham bo‘ldi. Biroq Ural shoirning shox asari (farzandi) va er-xotin o‘rtasidagi muqaddas rishta tufayli ko‘ngillarida muhabbat kurtak yozdi. Ijodkor hikoyada muhabbat mavzusiga o‘zgacha yondashadi. Sof milliy qadriyatlar zamirida bu tuyg‘uning kamol topishini yosh oilaning turmushi timsolida ochib beradi. Adib muhabbat tasodifiy bir uchrashuvda emas, bir-birini tushunib muqaddas oila an’analariga amal qilish orqaligina yuksalishini uqdiradi.

Xayriddin Sultonning “Dunyoning siri” hikoyasida ham muhabbat tuyg‘usining yana bir o‘ziga xos talqiniga guvoh bo‘lamiz. Hikoya voqealarining aksariyati dam olish maskani kutubxonasida yuz beradi. Turmushga chiqqaniga ko‘p bo‘lmagan kelinchak mana shu kutubxonada ishlab, “har kuni ertalab kelinlik

liboslariga burkanganicha gul-gul yashnab ishga keladi, lekin quyosh nuridan bebahra, rutubatli xonada malohatidan hayratga tushadigan tirik jon yo‘qligi tufayli andak afsus chekadi”[Xayriddin Sulton,2015:252]. Bu hujraga faqat ko‘rimsizgina student – Muzaffargina kirar, kirishi bilan kitoblarga ko‘milib ketardi. Bu kelinchakning g‘ashiga tegar edi. Shu tariqa o‘z eridan yetarlicha e’tibor ko‘rmagan kelinchak xohlab-xohlamay kasalmand yigitga bog‘lanib qoladi. Kelinchak jisman nosog‘lom, ammo ruhan tetik bo‘lgan bu kimsaga qachon, nega ko‘ngil qo‘yganini har qancha mushohada qilmasin, tushunmaydi. Hikoya sarlavhasining asl mohiyati ham mana shu tuyg‘uda. Yozuvchi ishq-muhabbat oldida oila va tashqi go‘zallik ayrim hollarda ojiz ekanligini e’tirof etadi.

Xullas, bu mavzuning mazkur hikoyalardagi ifodasida muhabbatning iztirobida dard, hijronida ayriliq, visolida erishish motivlarini talqin qilinishi bu tuyg‘u ibtidodan intihogacha abadiy hayotga dahldorligi bilan tipik xarakterga ega bo‘lsa, har bir ijodkor yuragida yangilanib, badiiyat olamida turfa xil jilolari bilan poetik ma’no kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov B. Bir shoda marvarid//XX asr muhabbat haqida 20 hikoya(to‘plam). – T.:O‘zbekiston mil.ens, 2015.- B.4

2. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari.-T.: G‘.G‘ulom, 2015.-B.153

3. Murod Muhammad Do‘st. Dashtu dalalarda. // XX asr muhabbat haqida 20 hikoya(to‘plam). – T.:O‘zbekiston mil.ens, 2015.- B.147

4. Olim Otaxon. Xotira va xayol. // XX asr muhabbat haqida 20 hikoya(to‘plam). – T.:O‘zbekiston mil.ens, 2015.-B.218

5. Yuqoridagi manbadan, B.221

6. Nazar Eshonqul.Oq alanga// XX asr muhabbat haqida 20 hikoya(to‘plam).– T.:O‘zbekiston mil.ens, 2015, B.252.

7. Yuqoridagi manbadan, B.253.

8. Yuqoridagi manbadan, B.253.

9. Tog‘ay Murod. Er-xotin // XX asr muhabbat haqida 20 hikoya(to‘plam). – T.:O‘zbekiston mil.ens, 2015.-B.142

10. Xayriddin Sulton. Dunyoning siri// XX asr muhabbat haqida 20 hikoya(to‘plam). – T.:O‘zbekiston mil.ens, 2015.-B.252

YUSUF XOS HOJIBNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Ametova Oydin Komil
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi
ametovaoydin198@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishida turkiy yozma adabiyotning yirik namunasi “Qutadg‘u bilig”dagi obrazlar tizimi, jumladan, Aql timsolining badiiy tasviri haqida fikr yuritiladi. Tasvir jarayonidagi adibning so‘z qo‘llash mahoratiga e’tibor qaratiladi. Buning uchun asar qahramonlari qiyoslanadi, o‘xshash va farqli jihatlari tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *Obraz, obrazlilik, badiiy tasvir, qiyoslash, mavzu, shakl, mazmun.*

Annotation: *This study examines the system of images in “Kutadgu bilig”, a major example of turkish written literature, including the artistic depiction of the image of the Mind. Emphasis is placed on the writer’s wording skills in the drawing process. To do this, the protagonists of the work are compared, similarities and differences are analyzed.*

Keywords: *Image, imagery, art image, comparison, theme, form, content.*

Badiiy adabiyot, undagi obrazlar tizimi uning mavjudligi, “yashash tarzi”ning o‘ziga xos belgilaridan biridir. Aslida insoniyatni asrlar davomida maftun etib kelayotgan, o‘zining sir-u sinoatlari bilan kishilik jamiyati a’zolarining yurak to‘ridan joy olgan eng sara asarlarning chinakam mohiyati ham ulardagi obrazlar orqali reallashadi. San’atkor, xususan, adiblar badiiy obraz vositasida o‘zidagi his-tuyg‘u, o‘y-kechinma, fikr-mulohaza, ilm-u ma’rifat, ta’lim-tarbiya kabilarni kitobxon – o‘quvchiga yetkazish, yuqtirishni niyat qiladi. Agar badiiy so‘zga adabiyotning quroli sifatida qaraydigan bo‘lsak, obraz va obrazlilik asarning ham joni, ham qonidir, chunki har bir badiiy asarning o‘ziga xos, takrorlanmas obrazlar tizimi borligini hech kim inkor eta olmaydi. Nazarimda, asarning o‘ziga xosliklarini, yashovchanligini, xalqchilligini ta’minlab beradigan unsurlardan asosiylari obraz va obrazlilikdir. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov bu haqida shunday fikrlarni olg‘a suradi: “San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o‘zi anglagan mohiyatni va o‘zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi;

obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san’atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur” deb yuritiladi”[1, 88]. Biz Alpomish, Barchinoy, Go‘ro‘g‘li, Tohir va Zuhra, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Otabek va Kumush, Anvar va Ra’no kabi obrazlar tufayli xalq dahosiga, alohida ijodkorlarning qobiliyat va iste’dodlariga qoyil qolamiz.

Adabiyotning tarbiyalovchi kuchga egaligi jamiyat a’zolarining shaxs sifatida rivojlanishi, madaniyat va ma’naviyatining kamol topishidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsata oladi. Shohnoma(qissa)xonlik, yassaviy(hikmat)xonlik, xamsaxonlik, hofizxonlik, bedilxonlik, mashrabxonlik, navoiyxonlik singari an’analar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, albatta. “Ming bir kecha”, “Masnaviyi ma’naviy”, “Qobusnoma”, “Guliston” singari kitoblar juda ko‘plab millat va elatlar uchun ta’lim va tarbiya maktabi vazifasini o‘tay olgani ham hech kimga sir emas.

Bular qatorida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Adib o‘zining falsafiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy qarashlarini pand va o‘gitlar holatidagina bayon etishni maqsad qilib olgan emas, balki u jamiyat a’zolarini o‘sha davrda bezovta qilayotgan ko‘plab muammolarni badiiy-estetik jihatdan mukammal va ta’sirchan ifodalashni ko‘zda tutgan. Bu maqsad original, yuksak mahorat bilan amalga oshganligini “Qutadg‘u bilig”ning tadqiqotchilari-yu oddiy kitobxongacha bir ovozdan ta’kidlashadi. Ma’lumki, ushbu buyuk asar o‘z davrida ham qomusiy xarakteri bilan e’tiroflarga sazovor bo‘lgan. U Qoraxoniylar davlatini boshqarishda hukmdor uchun o‘ziga xos yo‘riqnoma – qo‘llanma bo‘ldi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Nafaqat Qoraxoniylar, balki asarning ko‘plab xalqlar tomonidan sevib o‘qilgani, adib ilgari surgan umuminsoniy g‘oya va mafkuralar hudud, millat, irq, amal-u mansab, nasl-u nasab tanlamaganligini adibning o‘zi faxriya tarzida eslatib o‘tadi. Ana endi masalaning nozik jihatiga kelsak, butun turkiy yozma adabiyotdagi ilk urinish, dastlabki harakatlardan biri bo‘lishiga qaramasdan asar qanday qilib bunchalik o‘qishli, mazmunli, katta-yu kichikka birday manzur bo‘la oldi? Adib bu muvaffaqiyatga qanday qilib erishdi? Nega yaratilganiga qariyb ming yil bo‘lganiga qaramasdan asarning qadr-qimmati

kundan-kunga oshmoqdaki, also tushayotgani yo‘q? Bu savollarning qator javoblari borki, ularning har bittasi bitta tadqiqot ishi bo‘lsa, arziydigan mavzulardir. Ana shunday javoblardan biri asardagi ramziy obrazlar tadqiqi masalasidir. Adolat, Davlat, Aql, Qanoat (jismoniy va ma’naviy sog‘lomlik) mavhum tushunchalari adib ko‘z oldida timsollar qiyofasida gavdalandi va shu holatni qanday bo‘lsa, shundayligicha qog‘ozga to‘kdi – butun boshli yirik hajmli dostonda muallif obrazlar orqali gapirdi, kuldi, yig‘ladi, ishora qildi, uqtirdi, xullas, insonning to‘g‘ri yashashi haqidagi falsafiy qarashlarini kitobxonga yuqtirdi. Asarda davlat boshlig‘i Kuntug‘di – donishmand rahbar, talabchan boshliq, adolatli hukmdor, mehribon do‘st, rostgo‘y inson. U – Adl timsoli. Oyto‘ldi – boshqalar manfaati uchun jonkuyarlik qiluvchi shaxs, boshqaruvda adolatni mezon qilib olgan amaldor, haqiqat uchun murosasiz kurashuvchi shaxs, mehribon ota. U – davlat timsoli. O‘gdulmish – asardagi yosh, eng faol harakatlanadigan qahramon, yosh bo‘lishiga qaramasdan ilm-u ma’rifatga o‘ch, olam va odamga xos bo‘lgan asl mohiyatni teran ilg‘aydigan donishmand. O‘gdulmish – Aql timsoli. O‘zg‘urmish – komil va sobit e’tiqodli zohid, imoni butun, ichi va tashi pokiza inson. U – Qanoat, ofiyat ramzi [2,113]. Bu qahramonlarning har biri hayotda muayyan maqsadlarni ko‘zlaydi. Ularni birlashtirib turadigan nuqtalar oz emas, ayni paytda ular orasidagi farqlar ham talaygina. Asarning obrazlar tizimi o‘rganilganda, dastlab, asar matnidan kelib chiqqan holda ular haqida adib – muallif aytgan fikrlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Adib Davlatni idora etishda Adl, Aql, Qanoat birlashmog‘i lozimligini uqtiradi. Bu falsafiy qarashni insonning o‘zini o‘zi idora qilmog‘iga qiyoslasa ham, to‘g‘ri bo‘ladi, ya’ni Inson o‘zini bir Davlat sifatida ko‘radigan bo‘lsa, bu davlat o‘zining Aqli, Adli, Qanoati bilan farovon bo‘ladi, eng yovuz dushmani Nafsni yengib komillikka erishadi. Aks holda bu dushmanga mag‘lub bo‘ladi, ya’ni inqirozga yuz tutadi. Demak, asarda faqat davlat boshqaruvi yoki rahbar ma’naviyati: siyosiy masalalargina emas, avvalo, insonning o‘zini boshqara olishi, shu orqali ma’naviyatini yuksaltirishi masalasi ko‘ndalang qo‘yilgan. Shu ma’noda obrazlarning badiiy asarda tutgan o‘rni va o‘ynaydigan roli juda katta.

Ular tasvirning oziga xosligini, uning ta’sirchanligini ta’minlaydigan muhim unsurlardan biridir. Bu jihatdan qadimgi davrlarda yaratilgan asarlardagi obrazlarni kuzatish, tahlilga tortish, ularning badiiy asarda bajarayotgan badiiy-estetik funksiyalarini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramay, ularning aniq bir asar badiiyatidagi badiiy-estetik vazifalarini atroflicha o‘rganish qadimgi turkiy adabiyot namunalari misolida amalga oshirilgan emas. Vaholanki, birgina Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari misolida aytiladigan bo‘lsa, asar qahramonlari tahlilining muallif nuqtayi nazarini oydinlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Asardagi badiiy ta’sir kuchining qanday omillarga bog‘liq ekanligi, bu imkonlardan Yusuf Xos Hojibning foydalana olish mahoratini tadqiq etish adabiyotshunosligimiz uchun ko‘pdan-ko‘p yangi xulosalar berishi tabiiy. Ma’lumki, badiiy adabiyotdagi obrazlar tizimi bilan bog‘liq bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular mumtoz adabiyotimizga, folklorga, zamonaviy adabiyotga bog‘liq holda yuzaga kelgan. Tadqiqotlarda badiiy asarning obrazlar tizimi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, asardagi badiiylik, obrazlilikni ta’minlab beruvchi til vositalari, bu vositalardan foydalanishda adibning mahorati bir qadar tadqiq va tahlil qilingan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari yuzasidan ham katta hajmdagi ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu ishlar o‘zimizda hamda xorijda turkiyshunos olimlarga yaxshi ma’lum va mashhur. Bu tadqiqot ishlari asarning matnini nashr etishdan boshlab, uning keng ma’nodagi filologik tahliligacha bo‘lgan katta qamrovga ega. Tadqiqotchilar ro‘yxatida H.Vamberi, M.Kuprulizoda, R.Arat, A.Dilachar, N.I.Ilminskiy, V.V.Radlov, V.V.Bartold, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy, A.Samoylovich, K.K.Yudaxin, N.A.Baskakov, E.E.Bertels, A.A.Valitova, I.V.Stebleva, A.Fitrat, A.Sa’diy, A.Qayumov, G‘.Abdurahmonov, N.Mallayev, Q.Karimov, B.To‘xliyev, Q.Sodiqov, Z.Sodiqov, H.Abdullayev, B.Abdurahmonova kabi ko‘plab olimlarni sanash mumkin. Ularning tadqiqotlarida obrazlarning asar poetik matnida tutgan o‘rni va badiiy-estetik funksiyalari haqida ham ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan bo‘lsa-da, maxsus monografik yo‘sinda, yaxlit bir tizim holida o‘rganilgan emas. “Qutadg‘u bilig”dagi

birgina O‘gdulmish obrazining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etilsa ham, quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

– O‘gdulmish timsolining asardagi boshqa qahramonlar tizimidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash;

– O‘gdulmish – Aql timsolining genezisini muayyanlashtirish;

– bunda uning turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi – folkloriy asoslarini isbotlash;

– ushbu obrazning badiiy-estetik qirralarini yoritish asosida Yusuf Xos Hojibning obraz yaratishdagi tamoyil va yondashuviga oid yetakchi xususiyatlarni aniqlash. Asarda adibning asosiy maqsad, niyatlari, g‘oyasi ramziy obrazlar vositasida amalga oshirilar ekan, muallif ularga ism – nom tanlashda ham juda ustalik bilan ish olib borgan. Ma’lumki, asarda 4 nafar asosiy va boshqa epizodik qahramonlar mavjudki, ularning har biri o‘z ismi – nomiga yarasha fikrlaydi, ish-amallar qiladi, jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Yusuf Xos Hojib asar qahramonlariga ism – nom tanlashda ham ma’lum bir maqsad ko‘zlanishi, asar syujetidagi voqea-hodisa hamda g‘oyaning ochilishida har bir so‘z, hatto ism – nomlar ham katta ahamiyat kasb etishini o‘z ijodi misolida ko‘rsatib beradi. Ijodkor tomonidan qahramonlarga Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmish, Ersig, Ko‘samish kabi sof turkiy ismlar tanlangan. Agar bu so‘zlarning ma’nosiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Kuntug‘di – tug‘gan kun; Oyto‘ldi – to‘lgan oy; O‘gdulmish – aql bilan ziynatlangan, to‘lgan; O‘zg‘urmish – uyg‘otuvchi, ogohlantiruvchi; Ersig – er kishining fazilatlari jamlangan, Ko‘samish – istalgan, xohlangan, sog‘inilgan kabi mazmunni tashishga xizmat qilmoqda. Adib bu nomlar bilan harakat qiluvchi qahramonlarning badiiy tasvirini nihoyatda muhabbat bilan amalga oshirganining guvohi bo‘lamiz. Asar syujetidan ma’lumki, voqealar rivoji davomida Kuntug‘di(Adl)ning yaqiniga aylangan O‘gdulmish(Aql) – Oyto‘ldi(Davlat)ning o‘g‘li. Biz Oyto‘ldi obrazida ma’naviy yetuklik, komillik sifatlarini ko‘ramiz. Davlat siyosatida bunday oqil inson – amaldorning o‘rni qanchalik muhimligini muallif shu qahramon misolida ham ko‘rsata olgan, deb mulohaza qilsak, adashmaymiz, chunki Oyto‘ldi hatto dunyodan o‘tayotib (!) ham Eligning qanday

ish olib borishi kerakligi, mamlakat va xalq farovonligi, uning bugunigina emas, kelajagi to‘g‘risida ham qayg‘uradi, o‘zining Eligga pand-u nasihatlarini vasiyatnoma tarzida yozib qoldiradi. Bu vasiyatnomani Kuntug‘diga olib borish vazifasini esa o‘g‘li O‘gdulmishga topshiradi. Mana shu epizodning o‘zi ham Oyto‘ldini dono, ishbilarmon, tajribali, hayotning past-baland sinovlaridan o‘tgan shaxs qiyofasida namoyon qiladi. Donishmand ota olqishini olgan O‘gdulmish ham mamlakat va uning rahbari hayotidagi omad edi, muallif tili bilan aytganda, davlatning peshanasiga: “Tug‘di kun-a!” [2,133] O‘gdulmish otadan yosh qoldi, ammo Xudo bergan uqush – zakovat, qolaversa, tinimsiz izlanish, o‘qish-o‘rganish, bilim, yuksak madaniyat va ma’naviyat tufayli otasining o‘rni – vazirlik lavozimiga loyiq ko‘rildi. O‘gdulmishning Kuntug‘di va O‘zg‘urmish bilan bo‘lgan suhbatlaridan uning qanchalik oqilligi, haqiqiy bilim-zakovat egasiga aylanganligini bilamiz. Kuntug‘di bu savol-javoblar orqali go‘yo O‘gdulmishni sinov – imtihon qiladi hamda uning javoblaridan ko‘ngli to‘lgani uchun o‘ziga yaqinlashtiradi. Adib O‘zg‘urmish siymosini yaratish orqali diniy-tasavvufiy bilimlari ham yuksak ekanligini namoyon qilgan. Bu obraz insonni, atrofdagilarni umrning o‘tkinchiligi-yu dunyoning bevafoligidan, vaqt esa suvday ketib qolishidan ogohlantiruvchi qiyofasida yaratilgan. Aynan shu adabiy qahramon kitobxonga Nafsga qarshi mahkam bel bog‘lamoq, kerak o‘rinlarda u bilan jang qilmoq lozimligini uqtiradi. O‘zg‘urmish Elig va O‘gdulmish bilan bo‘lgan suhbatlarda faqirlik(Kambag‘allik ma’nosida emas!)ni ulug‘laydi, o‘zining ofiyat – qanoat haqidagi qarashlari bilan suhbatdoshlarini hushyorlikka, maishiy hayot tashvishlari bilan bo‘lib toat-ibodatni unutmaslikka chaqiradi. Ana endi Kuntug‘di haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, uning ish-a’mollariga ko‘z tashlasak, bu obraz muallif idealidagi hukmdordir. Kuntug‘dining mol-dunyosi, mulkining naqadar kattaligi, umuman, moddiy boyliklari haqida muallif alohida to‘xtalib, gapirishni lozim topmaydi, ammo o‘zaro suhbat-dialoglardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Elig o‘z atrofiga ma’naviyati yuksak, ko‘ngli va ko‘zi to‘q, davlat va xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan kishilarni yig‘ishni, siyosiy hayotda ularning bilimlaridan unumli foydalanishni istaydi.

Qahramonning mana shunday sa’y-harakatlarining o‘ziyoq o‘quvchida Kuntug‘di haqidagi ijobiy tasavvurlarni uyg‘ota oladi hamda u beixtiyor: “Haqiqiy elig (hukmdor, rahbar) Kuntug‘didek bo‘lmog‘i lozim”, – degan xulosaga kelishi turgan gap. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday obrazning orqa fonida ijodkor – adib turar ekan, har bir qahramonning nutqi, o‘y-xayollari, mulohazalari – bular san’atkor ifoda qilmoqchi bo‘lgan g‘oya tashuvchisi hisoblanadi. Adabiy qahramon (xoh ijobiy, xoh salbiy, xoh tarixiy, xoh to‘qima) kitobxondagi qaysidir fazilatlarni shakllantirishga yohud illatlarni bartaraf qilishga xizmat qiladi. Shunday ekan Yusuf Xos Hojib o‘zi yaratgan obraz – adabiy qahramonlar orqali kitobxon, butun boshli jamiyat, kelajak avlodlarning ham buyuk tarbiyachisi bo‘la olgan, desak mubolag‘a emas. Asarning nafaqat turkiy, balki boshqa tilli millat-u elatlar uchun ham o‘qishli bo‘lish sabablaridan biri aslida shu: obrazlar orqali muallifning bilimdonligi, dunyoqarashi, e’tiqodi, madaniyati va ma’naviyati, eng asosiysi, g‘oyalari to‘la-to‘kis ochib berilganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. OTM (Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili), O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishlari) talabalari uchun darslik.– T.: Akademnashr, 2018. – 480 b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig, 2-nashr. – T.: Fan, 1972.

YOR-YOR QO‘SHIQLARI VA XALQONA SO‘ZNING O‘ZIGA XOS IFODASI

Aliqulova Hulkar Qahramonovna
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada nikoh to‘y marosimlarida ijro etiladigan yor-yor qo‘shiqlaridagi ruhiyat tasvirlarning o‘ziga xos sodda, xalqona ifodasi va jonli ijro bilan bog‘liq jihatlari, so‘zlarning ijrodagi o‘rni, poetik xususiyati, maqsad va vazifalari tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *ruhiyat, xalqona ifoda, nikoh, marosim, kelin, kiyov, timsol.*

Annotation: *In this article simple characteristic and the definition of that music among public, and the features related to live performance, the role of the*

words in the performance, poetic features, the purposes and the roles will be discussed.

Key words: *psychology, folk definition, marriage, event, bridegroom, bride, and symbol.*

Og‘zaki ijod namunalaridan bo‘lgan marosim qo‘shiqlari o‘zining janr xususiyatlari, ijro o‘rni, shakl rang-barangligi va xalqona tili bilan ajralib turadi. Marosim qo‘shiqlari badiiy matnida xalqimiz madaniyatining qadimiy ildizlari aks etadi. Ayniqsa, nikoh to‘yi marosim qo‘shiqlarida xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlari, sheva va ijrochilik mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Nikoh to‘y marosimlarida muhim o‘rin tutgan yor-yor janri ham, xuddi shu jihatlarda o‘ziga xosdir. Qolaversa, yor-yor janri ijro o‘rni, usullari, ishtirokchi va ijrichilarning tarkibiga ko‘ra xilma-xildir. Respublikamizning turli viloyatlarida ham ularning o‘ziga xos tarzdagi ijrolari mavjud. Yor-yor qo‘shiqlarida xalqona ruhning, xalqona so‘zning ifodalanishi, mahalliy farqlanishi, misralarda aks etgan sheva unsurlari orqali ko‘zga tashlanadi.

Tovda qulin kishnaydi,
Ot bo‘ldim deb, yor-yor.
Uyda kelin jilaydi,
Yot bo‘ldim deb, yor-yor.

Tokchadagi qatiqni,
Kim to‘gipti, yor-yor.
Ketatag‘on singlimni,
Kim so‘kipti, yor-yor. [Инв. № 1643/7]

Misralardagi *tovda, qulin, jilaydi, to‘gipti, ketatag‘on* kabi shevaga xos s’ozlar asosan Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining aholisiga mansubdir. Qipchoq lahjasi turkumiga mansub bo‘lgan ushbu voha shevalarida o‘ziga xos tarzda tovushlar almashuvi, tovushlar tushib qolishi mavjud. Masalan, *tog‘-tov, yig‘laydi-jilaydi, to‘kibdi-to‘gipti* shaklida adabiy til birliklaridan farqlanadi. Qolaversa, *ketayotgan* - so‘zining o‘rniga – *ketatag‘on* kabi ishlatilishi voha aholisi tilining yanada yorqinroq namoyon etmoqda.

Ushbu lahja shevalarida ayniqsa, *g‘-b, y-j* shaklida ishlatilishi juda ko‘p uchraydi.

O‘z otangning eshigi, ipak eshik yor-yor,
Kirsang-chiqsang sochingni, siypar eshik, yor-yor.
Qaynotangning eshigi, jibak eshik yor-yor,
Kirsang-chiqsang chochingni, ilar eshik yor-yor. [To‘xliyev, 2009: 38]

O‘ziga xos shevalar, albatta, o‘ziga xos xarakterlarni, ruhiy kechinmalarni ifoda etadi. Yor-yor qo‘shiqlarida insonning ichki kechinmalari, hayajon va his-tuyg‘ularini o‘ziga xos tarzda ifodalanishi real hayotiy jarayonlar va sheva so‘zlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, yor-yor qo‘shiqlaridagi bosh maqsad sodir bo‘lgan hayotiy voqeani emas, balki shu voqeaga nisbatan munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlar ekanligini kuzatishimiz mumkin. Folklorshunos O. Madayev ta’kidlaganidek, “….lirik asarlarda voqea bayonini nisbiy tushunish lozim…”. [Madayev, 2010: 29]

Sheva so‘zlar esa, qo‘shiqlardagi nisbiy tushunchalarni yanada yaqqolroq aks ettirishga xizmat qiladi. Qolaversa, o‘ziga xos ohangdorlik kasb etadi.

Ana qirding ostida, otang yotar yor-yor,
Bo‘z jo‘rg‘ani yuborsak, kemayotir, yor-yor.
Bo‘z jo‘rg‘ani yuborsak kelag‘aysa, yor-yor.
Siyir sotib, siyipin, qilag‘aysa yor-yor.
Bu dunyoda ne qatto‘, jiyda qatto‘ yor-yor,
Boshidagi mevasi boldan totlov yor-yor.
Ota minan enaning, mehri qattov yor-yor,
Azizlagan bolasin pulga sotov yor-yor. [Инв. № 1643/7]

Ushbu misralarda, nazarimizda so‘zlar ohangida g‘azablanish, taqdir hukmidan norozilik seziladi. Bu esa, misralardagi har bir so‘zning aynan emas, nisbiy tahlili jarayonida akslanadi va ta’sir doirasi oshadi. *Kemayotir, kelag‘aysa, qilag‘aysa* so‘zlarida adabiy tilda ifodalangan *kelmayapti, kela qolsa, qila qolsa* so‘zlariga nisbatan ishonchsizlik, ya’ni, o‘sha otaning kelmasligiga ta’kid ifodasi yotadi. Bu o‘rinda “otang yotar”, bilan “kemayotir”, “kelag‘aysa” bilan “qilag‘aysa” so‘zlari o‘ziga xos qofiyalanmoqda. “Qirding”, “jo‘rg‘a”, “siyir” kabi shevaga xos so‘zlar ham bor. Keyingi qatorlarda “qattiq” so‘zining “qatto‘” shaklida kelishi, qolgan

misralardagi *totlov, qattov, sotov* so‘zlariga nisbatan talaffuz ohangida qofiyani shakllantirmoqda. Yana ushbu so‘zning shevaga xos ikki ko‘rinishi mavjud “qatto‘” va “qattov”. Qo‘shimcha va bog‘lovchilarning shevaga xos belgilari “qirding”, “bolasin”, “minan” so‘zlarida o‘z ifodasini topgan.

Havo shim-shim javadi, yor-yor,
Checham siyir sovadi, yor-yor. [To‘liyev, 2009:72]

Ko‘rinib turibdiki, “Checham” so‘zi, “yangam”, “kelinoyim” so‘zining o‘rnida qo‘llanilmoqda. “Sigir” so‘zining “siyir” shaklida kelishi ham yor-yorlarda juda ko‘p uchraydi. Ikkala misraning har bir so‘zi sheva unsurlari bilan (havo – yomg‘ir, javadi – yog‘adi, checham-yangam, siyir-sigir, sovadi-sog‘adi) ifoda etilgan.

Opaning eri adabiy tilda “pochcha” deb yuritiladi. Kelinning singlisi esa “qayin singil” bo‘ladi. Samarqand, Qahsqadaryo, Buxoro viloyatlarida ularning o‘ziga xos atamalari mavjud:

Singlim tushgan daryoga,
Soy bo‘layin yor-yor.
Yaznam tushgan kemaga,
Yoy bo‘layin yor-yor.
Yaznam meni tanisa,
Boldiziman yor-yor.
Belbog‘chaga qistirgan,
Qunduziman yor-yor. [To‘xliyev, 2009: 12]

Ushbu “yor-yor” lardagi “yazna”, “boldiz” atamalari aynan sheva xususiyatlarini ko‘rsatish bilan e’tiborlidir. Garchi bu yerda “yazna” so‘zi o‘rnida “pochcha”ni qo‘llash mumkindek tuyulsa-da, keyingi misolda qo‘llangan “boldiz” tufayli bu imkoniyatning yo‘li to‘siladi. Chunki, “boldiz”ni “yazna” siz qo‘llash mumkin bo‘lmay qoladi. Birinchi banddagi ma’no va mazmunni ko‘zda tutadigan variantlar boshqa regionlarda ham uchraydi. Ammo keying holat ushbu tildagi “yor-yor”larning muayyan hududlar bilangina aloqadorligini ko‘rsatib turadi. Zero, “qunduz” so‘ziga “qayin singil” hech qachon qofiya bo‘lolmaydi. Shunga ko‘ra “boldiziman” – “qundiziman” qofiyasi ham mazkur regiondagi “yor-yor” lar uchun o‘ziga xos “o‘lchov birligi” bo‘lib keladi.

Jon quda, jonim quda,
Baqa keling, yor-yor.
Ikki jondan bir bo‘lib,
Aytishaylik, yor-yor.

Jon quda, jonim quda,
Halpillamang, yor-yor.
Ichi tushkan ashkadiday,
Shilpillamang, yor-yor. [To‘xliyev, 2009: 42]

Yuqoridagi misralarda xalq orasida juda faol ishlatiladigan sheva so‘zlarning mavjudligi, yor-yor qo‘shiqlarining mahalliy aholi turmush tarsi bilan uzviy bog‘liqligidan darak bermoqda. “Baqa” (bu yoqqa), “ashkadiday” (oshqovoq) kabi so‘zlarda xalqona jaydaricha ifoda mavjud. Bu esa yor-yor qo‘shiqlarining yaratilgan makoni bilan bog‘liq jihatlarini aniqlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu so‘zlarning bugungi kunda ishlatilish jarayoni va joyi bilan taqqoslash imkoniyati ham tug‘iladi.

“Baqa” so‘zi izohli lug‘atda [Madvaliyev, 2008: 185] ikki xil ma’noda (1. Qurbaqa; 2. Tegirmon toshini aylantiruvchi metall) ifodalangan. Qo‘shiqdagi ifodada umuman boshqa ma’noda gavdalanmoqda. Ifodani aniqlashda so‘z urgusi va ohang etakchilik qiladi. Sheva so‘zlarning o‘ziga xosligi ham shunda namoyon bo‘ladi.

Tollarning ostida,
Shamollaydi qaynanam,
Hamsayalarima chig‘ip,
Jomanlaydi qaynanam. [Musaqulov, 1992: 38]

“Qo‘shni” so‘zining “hamsaya” tarzida ishlatilishi, asosan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko‘p uchraydi. E’tibor bersak, xalq og‘zaki ijodining yetakchi sheva so‘zlari asosan ushbu viloyatlarga taalluqli ekanligi ko‘rinib turibdi. Og‘zaki ijod namunalari aynan shu vohalarda keng tarqalganligini anglash qiyin emas. “Chig‘ip”, “jomanlaydi” kabi so‘zlarda o‘sha voha aholisining jaydaricha xatti-harakati, xarakteri sezilib turadi. Bu ayniqsa, jonli ijro vaqtida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shevaga oid belgilar ba’zan joy nomlari bilan ham ifodalanadi. Biroq joy nomlarini har doim ham faqat mazkur joyning o‘zigagina aloqador deb qabul qilish o‘rinli bo‘lmaydi. “Andijonda o‘t yoqsam, O‘shda tutun, yor-yor” tipidagi janr namunalari butun Farg‘ona vodiysida, hatto butun Respublikamizda ijro etilishi hech kimga sir emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Madvaliyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008.

2.Musaqulov A., Mirzayev T. Ostonasi tillodan: To‘y qo‘shiqlari. –T.: Fan. 1992.

3.Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetic ijodi. –T.: “Sharq”, 2010.

4.To‘xliyev B., Sheraliyev E., Aliqulova H. Yor-yorlar. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. –T.: 2009.

5.Sobirov A. Namangan yor-yori. –N.: 1995.

HIKOYA JANRIDA BADIIY NUTQ SHAKLLARINING O‘RNI

(Normurod Norqobilov hikoyalari misolida)

Xayrullayev Azamat Xoliqovich
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
azamatxayrulla@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yozuvchi Normurod Norqobilovning hikoyalari misolida badiiy asar tili, badiiy nutq, badiiy nutqning shakllari, muallif nutqi, personajlar nutqi va dialogning xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek hikoya janrida diologni o‘rni masalasiga to‘xtalgan.*

Kalit so‘zlar: *hikoya, badiiy nutqning shakllari, muallif nutqi, dialog, xarakter, individuallashtirish.*

Annotatsiya*: This article analyzes the features of the language of fiction, artistic speech, forms of artistic speech, author's speech, speech of characters and dialogue on the example of the stories of the writer Normurad Norkobilov. The role of dialogue in the story genre is also discussed.*

Key words: *story, forms of artistic speech, author's speech, dialogue, character, individualization.*

Bugungi kun o‘zbek hikoyachiligini Erkin A’zam, Xayriddin Sultonov, Xurshid Do‘stmuhammad, Shoyim Bo‘tayev, Nazar Eshonqul kabi adiblarimizning asarlarisiz tasavvur etish qiyin. Albatta, bu ijodkorlarning asarlari poetikasining

o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nomlari tilga olingan ijodkorlar qatorida o‘z tasvir uslubi va o‘z so‘ziga ega adib Normurod Norqobilov ham “Oqbo‘yin”, “Tog‘ odami”, “Ajal chorlagan kun”, “Paxmoq”, “G‘animlar”, va “Ovul oralagan bo‘ri” singari qissalari hamda “Judolik quvonchi“, “Oriyat” kabi hikoyalari bilan nasrimiz taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shdi. Shu sabab N.Norqobilovning hikoyalarida badiiy nutq shakllarining o‘rni masalasiga to‘xtalamiz. Badiiy asar tili asar poetikasining muhim elimenti hisoblanadi. Badiiy asar tili masalasida V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, M.M.Baxtin kabi rus adabiyotshunosligining yirik vakillari shuningdek, G.Imomova, Y.Solijonov kabi o‘zbek olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Garchi biz “badiiy asar tili” desakda, aslida, gap badiiy nutq haqida boradi, chunki adabiy asar til unsurlari vositasida yaratilgan matn, ya’ni nutq hodisasidir [Quronov,2013:406]. Biz badiiy asar tili desakda, aslida, gap badiiy nutq haqida boradi, chunki adabiy asar til unsurlari vositasida yaratilgan matn, ya’ni nutq hodisasidir. Ma’lumki, badiiy asar tili -muallif nutqi va personajlar nutqi deb nomlanadigan bir-biri bilan murakkab bog‘lanishda bo‘lgan ikkita katta qismdan iborat [Umirov:153]. Badiiy nutq shakllari haqida so‘z yuritganda birinchi muallif nutqi masalasiga to‘xtalish lozim. Chunki badiiy asarda muallif nutqi o‘quvchini qahramonlar bilan tanishtiradi, personajlar qiyofasini chizadi, asar voqealari ro‘y berayotgan makon va zamonni tasvirlab beradi. Umuman muallif nutqi- badiiy asarning hamma katta kichik qismlarini bir-biriga mahkam bog‘lab turuvchi omildir. Adibning “Bo‘ron qo‘pgan kun” hikoyasida har kuni ko‘chadagi ayollarga gap otadigan, suqlanib qaraydigan erkaklarning ishidan g‘azablanib yurgan ayol holati quyidagicha tasvir etiladi. *“Ayol shiddat bilan tashqariga intilarkan, ostonadan hatlayotib, qo‘lida boltani ko‘rdi. Qachon olishga ulgurdi, buni o‘ylab turmadi. U yakkash bir narsani, bu hol ortiq davom etishi mumkin emasligi o‘ylardi. Anchadan beri ichida dimlanib yotgan alam sirtiga tekkan, maydonni erkaklardan tozalash qasdida yonardi. Birinchi bo‘lib stoldagilarni quvadi, keyin Bahrom qassob bilan gaplashib qo‘yadi. Eshqul somsapaz ana endi undan ko‘radiganini ko‘radi”* [Norqobilov 2007:266]. Hikoyada muallif personajning xatti-harakatlari bilan

o‘quvchiga uning ruhiy holatini chizib beradi. Sanam xola shiddat bilan qo‘lida bolta tashqariga otilib chiqar ekan muallif nutqi o‘quvchi ko‘z o‘ngida sabr kosasi va butun vujudi nafratga to‘lgan, bariga barham bermoqchi bo‘lgan ayol qiyofasini gavdalantiradi. Adib hikoya “cho‘qqisida” tasvirni yorqin ifodalagani holda ayolning ichidagi alamga dimlanib yotgan deya tarif beradi. Bu alam esa hikoya so‘ngida bo‘ronga aylanib otilib chiqishi muallif tomonidan mahorat bilan tasvirlanadi. Hayotda har bir odamning tili, so‘zlash tarzi uning qanday turmush kechirganligi, ma’daniyati ongi, ruhiyati haqida malum tasavvur beradi. Shunga ko‘ra badiiy asardagi qahramonlarning nutqlari, so‘zlash tarzlari ham turli tuman, o‘ziga xos bo‘lib, ular xarakterining mohiyatini anglashda muayyan vazifani o‘taydi. [Xudoyberdiyev, 1995: 99]. Insonlar asardagi harakati, o‘ylari, boshqalar bilan muloqoti va bahslari natijasida bizning tasavvurimizda hayotdagi kabi jonlanadi. Asarlardagi bunday nutq esa personaj nutqi deb nomlanadi. O‘z navbatida asarda so‘zlayotgan personajlarning nutqilari ham bir necha shakllarga bo‘linadi. Bulardan biri monologik nutq hisoblanadi. Yozuvchining “Olim o‘g‘il” hikoyasida Shayman cholning og‘ir ruhiy holatini birovga aytib bo‘lmaydigan yashirin, iztirobli dardlarini... ovoz chiqarmasdan tahlil qilib, kitobxonga yetkazgan nutqini ham monolog o‘rnida ko‘ramiz. *“Aytdim-ku, bunda pul ko‘p deb, emasam, beytiblar yozilib o‘tirmasdi. Ammo qanday so‘rayman? Farzanddan pul so‘rash... e-e, ukasi uchun so‘raymanda. Shuday paytda qayishmasa, qay payt qayishadi. Xay, kishi bilmas qitiqlab ko‘raychi. Tushunsa tushunar, tushunmasa otasining jiligiga, dangalini aytaviramiz-da*”. Shayman cholning qisqagina nutqi orqali yozuvchi uning xarakteriga xos muayyan xususiyatlarni ham o‘quvchiga tasvirlab beradi. Shayman cholning ichki kechinmalari tasvirini muallif mohirlik bilan aynan qahramon nutqi orqali beradi-ki, emotsionallashgan nutq natijasida o‘quvchi cholning ruhiyatini to‘la anglaydi. Shuningdek adibning “Tepalik” hikoyasidan olingan quyidagi monolog orqali o‘quvchi personajning ruhiy holati, uning ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasini ko‘z o‘ngida gavdalantirish bilan birga hayot, odamlar haqidagi chuqur mulohaza va o‘ylaridan ham xabardor bo‘ladi.

“-Tabiiy, siz tanimaysiz, – dedi keyin tutun puflab, lekin meni butun respublika taniydi.

-Saqolning ko‘zlari birdan g‘azabnok chaqnab ko‘rsatgich barmog‘ini tepaga nuqidi.

-Sa’nat ahli taniydi! Sizlar esa... U og‘ir so‘lish olib, andak sukutga ketdi-da, so‘ng dedi: – Nega deganda ... o‘sish yo‘q sizlarda! Qandoq tug‘ilgan bo‘lsalaring, o‘shandoqligicha qolgansizlar! Voy xudoyim, qanday dahshat bu!

-Saqol o‘ng panjasini ko‘zi aralash peshonasiga bosdi.

-Qanday dahshat! Tug‘ilsa-yu shundoqligicha qolishsa! O‘smasa, unmasa! Tirikchilik deya, qo‘shga qo‘shilgan ho‘kizday qoziq atrofida aylanishdan boshqasini bilmasa!

-U panjasini yuzidan olib, to‘g‘riga ma’yus termuldi. Keyingi gapni deyarli shivirlab aytdi:

-Naqadar dahshat!” [Norqobilov, 2000:383]

Yuqoridagi parchada biz personajlarning diologik nutqi monologik nutqqa aylanib ketganini kuzatdik. Odatda, hikoya janrining tabiatidan kelib chiqib personajlar nutqi monologik nutq shaklida keng uchramaydi, aksincha momologik nutq hikoyada qisqa, siqiq holatda keladi. Badiiy nutqning monologdan keyingi shakli dialog hisoblanadi. Badiiy asarda dialog muhim rol o‘ynaydi: qahramonlar xarakterini ochadi, davrni ifodalaydi, vaziyatni aks ettiradi. Adib hikoyalarida dialogik nutq shaklidan keng foydalanadi, uning asardagi o‘rnini yaxshi anglaydi. Adib “Quyosh tutilgan kun” hikoyasining syujetini dialog asosida quradi. Hikoyada dialog personajlar xarakterining asosiy qirralarini, axloqiy-ma’naviy qiyofalarini ochishda muhim ahamiyat kasb etishini kuzatamiz.

– Axir uning akasi tog‘angni...

– Ul yigitga bu bohonamas...

– “Ul-ul”lab o‘larkansan-da, bu dunyoda ul qoptimi.

– Bor ekan-ki, qoshingda turibman!” [Norqobilov, 2007:226]

Mazkur dialog qahramonlar o‘rtasidagi vaziyatni keskinlashtiradi. Muallif bu yerda qarama-qarshilikning, konfliktning shiddatini yanada oshirish maqsadida personajlar o‘rtasidagi bahsga aralashmaydi. Adibning “Tepalik” hikoyasida ham dialog personajlar xarakterning o‘ziga xos xususiyatlarini, dunyoqarashini ko‘rsatib beradi.

– Balki, ertaga o‘sarmiz! -dedi bir zumga taysallab.

– Yo‘q bugun o‘samiz! -Nortoji polvon oyoqqa qalqdi. -O‘smasam, o‘laman!

– Men ham o‘laman! -deya uni quvvatladi Sharif hanuz hech narsadan hech narsa tushunmagan esa-da, qatordan qolgisi kelmay.

– Qayoqqa ... o‘samiz? -dedi Samandar qo‘li laganda goh unisiga, goh bunisiga alanglab.” [Norqobilov, 2000:226].

Yozuvchi “Olim o‘g‘il”, “Quduq”, “Enatepa”, “Quyosh tutilgan kun”, “Tepalik”, “Shim yohud xotinlar janjali” va “Qiz o‘g‘irlash” hikoyalarida dialogik nutqdan foydalanishi natijasida personajlarning xarakterini individuallashtirish, takomillashtirish kabi keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan hikoyalarda dialogik nutq asar syujetini rivojlantirishning asosiy unsuri sifatida yuzaga chiqadi.

Hikoyada xarakterlar asosan tayyor holda beriladi, ammo qahramonlarning asardagi keyingi faoliyatida ularning fe’l-atvoriga xos bo‘lgan xususiyatlarni ochib berishda badiiy nutqning o‘rni katta ahamiyatga ega. Adib hikoyalarida biz muallif nutqini bayon, tavsif ko‘rinishidan tashqari personajlarning o‘ylari, ruhiyati, iztiroblari, ichki kechinmalarini, asarda sodir bo‘layotgan voqelikni ifoda qilishini, bularning barchasini asarning asosiy g‘oyasi sari yetaklashini ko‘ramiz. Adib hikoyalarida voqelik kechayotgan makon va zamonni tasvirlash, personajlarga oid tafsilotlarni berishda muallif nutqi o‘z o‘rnini roviyga bo‘shatib bermaydi. Yozuvchi ma’lum xarakterni yaratar ekan, uni individuallashtirish ustida ko‘p ishlashi talab qilinadi. Xarakterni individuallashtirishning muhim vositalari esa nutqda namoyon bo‘ladi. Buni biz adibning “Olim o‘g‘il”, “Quduq”, “Quyosh tutilgan kun”, “Qo‘shiq” “Bo‘ron qo‘pgan kun” va “Tepalik” hikoyalaridagi har bir

personajlarning individuallashtirilgan nutqida ham kuzatishimiz mumkin. Buni “Olim o‘g‘il” hikoyasida Shayman chol va o‘g‘li, “Quyosh tutilgan kun” hikoyasida esa Sobir polvon, Boborayim govlarning nutqini misol qilishimiz mumkin. Bu hikoyalarda personajlarning xarakterini shaklantirishdan tortib, ular o‘rtasidagi ziddiyat sabab syujetni rivojlanishigacha dialogning o‘rni muhim ekanligini ko‘ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomova G. Tipik milliy xarakter yaratishda badiiy nutqning roli: Fil.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1993.
2.Norqobilov N. Bekatdagi oq uycha. Toshkent. 2000.-B.383.
3.Umirov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. 2004.-B.262.
4.Norqobilov N. Bo‘ron qo‘pgan kun. Toshkent.2007.-B.303.
5. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 406.
6. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.1995.-B.270.

O‘ZBEK ARUZI TARIXI VA TARAQQIYOTI

O‘tkir Yo‘ldoshev

Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
utkiryuldoshev491@gmail.com

Annotatsiya. *O‘zbek she’riyatida aruz vazni muhim o‘rin tutadi. Aruz vazni turkiy she’riyatga VIII – XIX asrlardan kirb kela boshlagan. Ushbu maqolada aruz vaznining qo‘llanilishida barmoqning o‘rni, aruzning joylashishi va taraqqiyoti haqida ayrim mulohazalar berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Ritmik nutq, aruz, vazn, bahr, rajaz, mutaqorib, Xalil ibn Ahmad, Devonu lug‘atit turk, Mezon ul-avzon.*

Ma’lumki, ohang jihatidan ma’lum bir qolipga solingan, ijodkorning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari ifodasi bo‘lgan ritmik nutq she’r deyiladi. Dastlabki she’rni Odam Ato tomonidan aytilgan deb qarasak*, she’r insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab, bugungi kungacha va ayni daqiqalarda ham davom etib kelmoqda. Davrlar o‘tishi bilan she’rshunoslikda ham bir qator o‘zgarishlar,

* Izoh: Dastlabki she’r Odam Ato tomonidan o‘g‘li Hobilning o‘limiga atab aytgan marsiyasi bo‘lgan.

yangiliklar bo‘ldi. Natijada bugungi kunga kelib she’riy tizimda uchta katta guruh vujudga keldi. Bular: barmoq vazni, aruz vazni va erkin vazn. Barmoq vaznida ohang bilan birgalikda bo‘g‘inlarning soniga e’tibor beriladi, aruzda esa ohang, bo‘g‘inlar soni va sifatiga qaraladi. Erkin vaznda faqat ohang muhim belgi hisoblanadi. Erkin vaznni XX asrda chet el adabiyoti ta’siri ostida yuzaga kelgan deb qarasak, barmoq vaznini eng dastlabki qadimiy tariximizga bog‘laymiz. Aruz vazni esa o‘zbek adabiyotiga IX – XII asrlarda arablar ta’sirida kirib kelganligi aytiladi.

Arab xalifaligi VII – VIII asrlardan boshlab, XII asr o‘rtalarigacha Osiyo, Yevropa va Afrika qit’alarida juda katta hududni egalladi va o‘z dini, adabiyotini singdirishga harakat qildi. Aynan shu davrda turkiy adabiyotga ham aruz vazni tushunchasi kirib keldi va shoirlar ijodida namoyon bo‘la boshladi. Arablar juda katta hududni zabt etgan bo‘lsa-da, aruz tizimi sanoqli xalqlardagina yashab qoldi. Masalan, forslar va turklar. Forslar arab aruzini nafaqat qabul qildi, balki, yangi ko‘rinishlari bilan boyitdilar. O‘rta asrlarda she’riyat tili fors tili bo‘lganligi sababli turkiy ijodkorlar ham arab aruziga o‘z hissalarini qo‘shishdi. Sekin-astalik bilan aruzning ba’zi namunalari turkiy tilda ham paydo bo‘ldi. Atoiy, Lutfiy, Sakkokiy kabi ijodkorlar aruz vaznida g‘azallar bitishdi. Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Bobur kabi olimlar aruz nazariyasini turkiy tilda izohlashdi.

Arab aruzining turkiy tilda yashab qolishiga nima sabab bo‘lgan degan savol tug‘ilishi tabiiy. Barmoq va aruz vazni bir-biriga yaqin she’r tuzilishi sanaladi. Turkiy she’riyatda, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida barmoq vazndagi bo‘g‘inlar soni aruzning cho‘ziq va qisqa bo‘g‘in tartibiga asoslanishi bilan hamohangdir. Masalan, xalq og‘zaki ijodining qadimgi namunalari mavjud bo‘lgan “Devoni lug‘atit turk”da quyidagi jumla keltiriladi:

Kelsa qali yarlig‘ bo‘lub, yung‘ich uma,
Keldur anuq bo‘lmish ashig‘ tutma uma.[34]

Ushbu she’r azur vaznining *rajazi musaddasi solim* ko‘rinishiga mos.

[34] Mahmud Koshg‘ariy, Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni), uch tomlik, tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov, Toshkent, “Fan”, 1960 – 1963, 1-tom. 118-bet.

Rus va tatar aruzshunoslari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi she’rlarni aruzda aytilganini va bular arablar istilosidan avvalgi namunalar ekanligini ta’kidlaydi. Hatto tatar olimi X.Usmon aruz nazariyasini arablardan o‘tmagan degan da’vogacha boradi[35]. XX asr o‘zbek aruzshunosi olimi Ummat To‘ychiyev bu fikrlarni rad etib, aruzning rukn va sxemalari bizga arab adabiyotidan fors-tojik she’riyati orqali kirib kelganligini ta’kidlaydi[36]. Olim bu she’rlarda aruzning unsurlarini uchratish mumkinligini, ammo bu vaznlar aruzning amalda bor bo‘lgan vaznlariga to‘g‘ri kelavermasligini aytadi. Xalq og‘zaki ijodidagi ikkilik yoki to‘rtlik bandlar tahlil qilinsa, dastlabki misra aruz qonuniga mos tushishini, biroq navbatdagi band ham tekshirilsa, unda mazkur vazn o‘zgarib ketishi mumkinligini aytib o‘tadi[37]. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, arab aruziga xos xususiyatlar turkiy adabiyotda aruzga oid qoidalar kelmasdan avval ham mavjud bo‘lgan. Milliy barmoq vaznimiz arab aruziga o‘xshash bo‘lgan.

Aruz nazariyasining asoschisi Xalil ibn Ahmad dastlab 15 ta bahr haqida ma’lumot beradi. So‘ngra Abulhasan Axfash (mutadorik) va boshqa forsiy ijodkorlar ijodida bahrlar soni ortib boradi. XIV asrga kelib adabiyotshunos Ahmad Taroziy arab aruziga oid qirqta bahrni sanab o‘tadi.

Arab aruzining qonuniyatlari, bahrlar soni ko‘p bo‘lsa-da, turkiy adabiyot ularning hammasini ham qabul qilmadi. Jumladan, Alisher Navoiy 19 ta bahr va 160 ta vazn haqida to‘xtalib, barchasiga turkiy tilda misollar yozdi. Bobur risolasida bahr va vaznlar soni ko‘p bo‘lsa-da, misollarni ifodalashda forsiy she’riyatdan ham foydalandi, shuningdek, ko‘plab vaznlarning sonini aytsa-da, ularga misol keltirmaydi[38]. Yana muhim xususiyati shundaki, arab aruzi qoidasiga ko‘ra shohlarga atab yozishga mo‘ljallangan Mutaqorib bahrida bizning didaktik adabiyotimiz yozildi*. Yuqoridagi fikrlardan aytishimiz mumkinki, turkiy adabiyot

[35] Х.Усманов. Социалистическая революция и татарская поэзия, АДД, Казань, 1962, стрю 34 – 41.
[36] To‘ychiyev U., Aruzshunoslikka doir, Toshkent, “Fan”, 1973, 19-bet.
[37] O‘sha kitob, o‘sha joyda.
[38] Zahiriddin Muhammad Bobir, Muxtasar, Nashrga tayyorlovchi Saidbek Hasan, Toshkent, “Fan”, 1971.
* Izoh: Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Ahmad yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari nazarda tutilyapti.

arab aruzini to‘laligicha qabul qilmadi, balki, o‘zining qonuniyatlari asosida ish ko‘rdi.

Navoiy va Boburdan keyin aruz vazniga e’tibor yana-da kuchaydi. Jumladan, Munis, Ogahiy kabi ijodkorlar aruzning ko‘plab vaznlarida she’r bitdilar, vazngа, bir qator janrlarga yangiliklar kiritdilar[39]. Xususan, Alisher Navoiy arzuning 13 bahrida ijod qilgan bo‘lsa, Ogahiy 22 bahrida she’r namunalarini yaratdi.

XX asrga kelib, arab aruziga tosh otila boshlandi. Arab aruzini eskilik sarqiti deb qarash, aruz ruscha va xalqaro so‘zlarni xushlamasligi[40], aruzdan faqat forma qidirib, mazmundan yiroqlashish hodisalari uchradi. Xususan, Fitrat ham aruzni “saroy she’r sistemasi” deb atagan va “aruzga yuz foiz” qarshi chiqqan paytlari ham bo‘lganligini tan olgan[41]. Olimlarning fikriga ko‘ra, ba’zi vaqtlar shoirlar aruzda yozishni “jinoyat” deb tushungan. Ammo keying yillarda yozilgan she’rlar biror vaznni biridan-boshqasini ustun qo‘yish, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatdi. Jumladan, Hamza rus so‘zlarini ham aruzda ifodaladi:

*El omon bo‘l, qayda ul o‘n besh qadoqlik **papka**lar?*
Sizki bundoq shum, munofiq o‘zgadin kim o‘pkalar,
*Firqaning **hujjat**lari **KK** ga faryod ayladi. (“Hujum” xoinlariga”)* -

kabi misralari aruzning *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan. XX asrda Hamza, Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiy, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Turob To‘la, Po‘lat Mo‘min, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar aruzda ham, barmoqda ham yozaverdilar.

V.Aslonov “Aruz, bizningcha, xalq poeziyasiga kirib borolmadi” degan[42]. Tekshirishlar natijasida aruzning o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga ham kirib borganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida mustahzod vazni haqida to‘xtalar ekan, uni xalq orasida “surud” – “qo‘shiq”, “kuy” deb ataydi va vaznini ham aniq ko‘rsatadi: “Va yana bu xalq orasida bir surud bor

[39] Ogahiy mustazodning 16 ruknli variantini yozadi. Navoiy davrida uning 12 rukli varianti bo‘lgan.
[40] Abdulla Qahhor, Yoshlar bilan suhbat, Toshkent, “Yosh gvardiya”, 1968.
[41] Abdurauf Fitrat, Aruz haqida, Nashrga tayyorlovchi Hamidulla Boltaboye, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997.
[42] В.И.Асланов, Проблемы тюркорязычного стихосложения в отечественной литературе последних летб журнал «Вопросы языкознания»б 1968б № 1б стр. 122.

ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bog‘lab bitib, aning misra’idin so‘ngra hamul bahrining ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltururlar ermish va ani “mustazod” derlar ermish”[43].

Xalq og‘zaki ijodining bugungi namunalarida ham aruzga doir she’rlar uchraydi. Masalan:

Oq ilon oppoq ilon, oydinda yotganing qani,

Men yomondan ayrilib yaxshini topganing qani?

Mazkur she’r aruzning *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, aruz vazni kecha yoki arablar ta’sirida paydo bo‘lib qolmagan, balki dastlabki namunalari barmoq vazni bilan uyg‘un holda qadimdan turkiy adabiyotda bo‘lgan. Alisher Navoiy davriga kelib, ma’lum bir qolipi ishlab chiqilgan aruzning keyingi yillarda rivojlanishi, har xil bo‘htoni ta’malarga qaramasdan xalq adabiyotida davom etib kelayotgani ayni haqiqat. Aruzni o‘rganish va hatto unda ijod qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. 10 jildlik, To‘la asarlar to‘plami. 10-jild, “Mezon ul-avzon”
2. Zahiriddin Muhammad Bobir. Muxtasar, Nashrga tayyorlovchi Saidbek Hasan, Toshkent, “Fan”, 1971.
3. Abdurauf Fitrat. Aruz haqida, Nashrga tayyorlovchi Hamidulla Boltaboyev, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997.
4. To‘ychiyev U., Aruzshunoslikka doir, Toshkent, “Fan”, 1973
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni), uch tomlik, tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov, Toshkent, “Fan”, 1960 – 1963, 1-tom.

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA TAMAGIRLIKNING QORALANISHI

Ziyayeva Yulduz Temirxonovna
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
ziyayevayulduz@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlaridan biri “Saddi Iskandariy” da insonga xos salbiy sifatlardan biri tama haqida so‘z boradi. Maqolani “Saddi Iskandariy” dostonida tamagirlikning qoralanishi” deb nomladik. Unda dostondan parchalar keltirib, Navoiydek buyuk ijodkor tamani har*

[43] Alisher Navoiy. 10 jildlik, To‘la asarlar to‘plami. 10-jild, “Mezon ul-avzon” 577-bet.

qanday shaklini qoralaganiga to‘xtaldik. Ilmiy maqolamizda Tohir Xo‘jayevning “Saddi Iskandariy” hikmatlari” maqolasidan, T. Jalolovning “Go‘zallik olamida”, N. Komilovning “Xizr chashmasi”, I. Haqqulovning “Taqdir va tafakkur” kitoblaridan, shuningdek, bir qancha maqolalar va internet materiallaridan ijodiy foydalandik.

Tayanch so‘zlar: *tama, tamagirlik, insoniy fazilatlar va salbiy nuqsonlar, mol-dunyo tama qilish, dunyodan kechish, tasavvuf, dunyoga umid bog‘lamaslik.*

Hazrat Alisher Navoiy dahosi mana necha asrlar osha turkiy xalqlar qalbidan joy olib, ardoqlanib kelinadi. Buyuk mutafakkir o‘z asarlarida ezgu ideallar va porloq orzular cho‘qqisidan turib insonga nigoh tashlaydi, olam va odam, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalarni tahlil qiladi, ezgu niyati – olamni go‘zal, odamni benuqson ko‘rmoq istagi bilan yashaydi.

Navoiyning “Xamsa” asari obrazlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Asarda turli toifa kishilarining insoniy fazilatlarini ochib berish qatorida salbiy nuqsonlarini ham ko‘rsatib beradi. “Xamsa” ning beshinchi dostoni “Saddi Iskandariy” ham shu jihatdan ajralib turadi. Ushbu maqolamizda “Saddi Iskandariy” dostonida tamaning qo‘llanilishiga to‘xtalamiz. Buyuk so‘z san’atkori “Xamsa”ning yakunlovchi dostoni “Saddi Iskandariy”ni yozar ekan, dostonning VIII bobida “Xamsa” yozishdek ulug‘ ishni Tangri inoyati deb biladi. Bunday ulug‘ ish o‘zining ixtiyori bilan emas, Tangrining marhamati ila bo‘lganidan baxtiyor shoir, ba’zi odamlarning katta-katta narsalarni tama qilib, qayg‘u-alamlarga giriftor bo‘lishini aytib o‘tadi. “Tama – Navoiy asarlarida eng ko‘p qoralangan nuqsonlardan. Insonni beburd, subutsiz qiladigan, yuzini qaro, hayotini zindonga aylantiradigan balo – bu tama. Shoir ajoyib bir fikrni bayon etadi: “Kim tamaga ulug‘dan ulug‘ ruju qo‘ygan, ya’ni o‘ta tamaparast bo‘lsa, “ko‘pdin ko‘p qayg‘uliq” – ko‘p azoblarga duchor bo‘ladi”.[1]

Ne tong bo‘lsa ko‘pdan-ko‘par qayg‘uliq,
Tama bo‘lsa kimga uluqdin uluq[2].

[1] Xo‘jayev T. “Saddi Iskandariy” hikmatlari//Do‘stlik bayrog‘i. 2014.12-son. –B.5.
[2] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B.39.

Har bir kishi yuksak orzularni ko‘zlashi, katta-katta narsalarga tama, ya’ni umid bog‘lashi va oqibat amalga oshmasdan qayg‘u-alamda qolishi mumkin. Hazrat Navoiy katta-katta orzularning ro‘yobga chiqishida Tangrining inoyati-yu, taqdiriga yozilganligini sabab deb biladi va bunga shukur etadi!

Va lekin ne g‘am Tengri aylab karam,
Ulug‘ muddao bersa, maqsud ham.[44]

Hazrat Navoiy o‘ziga berilgan ulug‘ muddao va maqsadlariga yetisharkan, bunga tamagirlik, faqat orzu-yu xayol bilan emas, Tangrining inoyati bilan erishgan.

Shoir “Saddi Iskandariy” ning XI, XII, XII, XIV boblarida qadimgi fors-eron shohlaridan to‘rt tabaqa – peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniy podshohlarga to‘xtalib o‘tadi. Ularning har biriga ta’rif berarkan, kayoniylardan bo‘lgan shoh Kovusning dunyoni egallashi, dunyoni egallagach bunga qanoat qilmasdan, hatto yetti qavat osmonga ham tama qilgani aytiladi:

Yana tutti Kovus ofoqni,
Tamaayladi charxi nuh toqni.[45]

Dostonning yigirma uchinchi bobida Fors shohi Doroning Iskandarga boj talab qilib elchi yuborish voqeasi keltirilgan. Bunday talabdan jahli chiqqan Iskandar noo‘rin tamagirlikni – aqlsizlik deb biladi. O‘zidan kuchsizlarga kuchini ko‘rsatishga o‘rgangan Doro Iskandarni o‘zidan past ko‘rib, toj va taxt egalaridan xiroj talab qilishini kulgilik deb biladi.

Nahangeki bahr ichra bebok erur,
Gar ul suvda yuz ming durru pok erur.
Ne nav’ ulg‘ay ondin xiroj istamak,
Suvda durru ko‘p bo‘lsa boj istamak.
Bu yanglig‘ **tamanno**ni qilg‘on base,
O‘zin suvda qildi baliq tu’masi.

[44] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B.40.

[4]Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B.57.

Xiradmandlik keldi xursandliq,

Qulaysiz **tama** noxirandmanliq. [46]

Dengiz ichidagi dahshatli nahang suvda yuz minglab durri pok borligini biladi. Ammo nahang bunga beparvo. Ba'zi xomtamalar esa "suvda gavhar ko'p" deb, suvga shung'iydilar va ne ajabki, baliqqa yem bo'ladilar. Iskandar Doroni ana shunday xomtamalardan deb bilib, uni baliqqa yem bo'lishdek aqlsizlikdan ogohlantiradi. Ammo boj talab qilishdek tamagirlik oqibatida shoh Doro jang maydonida Iskandardan yengilib o'limga yuz tutadi. "Arastu hakim aytadi:

– Maishatga, yetarli mol-u davlatga ega bo'lgan kishi undan ortiqchasini talab qilmasin, chunki uning poyoni yo'qdir. Ortiqcha talab qilgan kishi juda ko'p falokatlarga duch kelad".[47] Yuqorida shoh Doro ham o'zida mol-mulk bo'la turib ortiqchasini o'zgalardan undirishga uringani uchun falokatga uchradi.

Shoh Iskandar adolatli podshoh sifatida qaysi mamlakatni fath etsa, u yerning xalqiga himmat qilib avf bergan. "Iskandar obrazi xalq xohishi, orzu va irodasining timsoli bo'lib ko'rinadi. U donishmand tabibday jamiyat yaralarini tuzatadi".[48] Masalan, Kashmirni bosib olganda, uning shohi Malludan zulm ko'rgan xalq xat yozib Iskandardan omonlik tilaganda, u lutf-marhamat ko'rsatadi. Iskandar o'z askarlariga xalqni azobga qo'ymaslikka, hech kimdan hech nima tama qilmaslik haqida farmon chiqaradi. Kimki birovdan bir qarich ip tama qilsa o'sha ip bilan bo'ynidan osilajagini, lekin shu yerlik xalq o'z ixtiyori bilan "omonlik moli" bersa, undan ba'zi birovlar foydalanishi mumkinligini bildiradi:

Qilib hukmkim, el qilib iztirob,

Kishidin **tama** qilmasun rishtatob.

Birovkim **tama** rishtaye qilg'usi,

Aning birla bo'g'zidin osilg'usi.[49]

[46] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B.101.

[47] Durdonalar xazinasi. –Toshkent: "Sharq", 1999. –B.24.

[48] Jalolov T. Go'zallik olamida. –Toshkent: "G'afur G'ulom", 1979. –B.73.

[49] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B.182.

Bunday adolatli qaror chiqarishi xalqqa ham, sipohga ham ma’qul keladi. Shoh o‘zi tamadan yiroq bo‘lgan holda o‘z qo‘l ostidagilarni ham bundan tiyishi naqadar olijanoblik. “Tama – jazosiz qolmaydi. Kim o‘zgalardan “rashtaye” –qil ipchalik tama qilsa, u dorga aylanadi. Shu rishta dor bo‘lib, bo‘gzidan osiladi”.[50] Shoir bir o‘rinda gunohkorning gunohlariga sabab qilib tama va nafsni ko‘rsatadi:

Ravokim ko‘rib bu gazandi aning,
Tama eski to‘niyu bandi aning.
G‘araz nafsdin anga bu shumluq,
Yo‘q ulkim, sanga qilsa mahkumliq.[51]

Dostonning LXXIV bobida mashriqdan ganj topib, Mag‘ribda ham xazina borligini eshitib, unga havas aylagan tamagir kishini tamagirligi tufayli halokatga yuz tutishi tasvirlangan. Sharqdagi xazinaga shukr qilmay, u yerdagi xatni o‘qib Mag‘rib tomon yo‘l olgan bu odamning tamagirligi shunday ko‘rinib turadi.

O‘qig‘och ani **tomei xomkor**,
Dedi: “Ikkisidin bo‘lay komgar…”[52]

Xomtama necha yillab azob chekib, Mag‘ribdagi xazinani topadi, ammo boshiga ajal yetib ikki xazinadan, va undan ham ortig‘i jonidan judo bo‘ladi. Hazrat Navoiy qanoatsizlik, va tamagirlik tufayli shu holga tushgan kishi orqali kishilarni sabrli va qanoatli bo‘lishga chorlaydi.

Shoir LXXVII bobda jahonning bevafoligini aytib bu dunyodan vafoni tama qilma deydi o‘z ko‘ngliga murojaat qilib:

Jahong‘a chu yo‘qtur baqo, ey ko‘ngul,
Tama qilma andin vafo, ey ko‘ngul.[53]

Shoir aytganidek, inson bu dunyoga tama qilgani bilan umrbod shu dunyoda qolib yasholmaydi. Hamma narsa o‘tkinchi, vaqtinchalikdir. Hazrat Navoiy “Saddi

[50] Xo‘jayev T. “Saddi Iskandariy” hikmatlari//Do‘stlik bayrog‘I, 2014.12-son.
[51] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B.230.
[52] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B.356.
[53] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B.378.

Iskandariy” ning LXXXV bobida Buqrot Hakim tilidan mol-u ganj tama aylashni g‘alati deb aytadi.

Yana dedi Buqroti farruxsirisht,
Ki: “El chun ko‘rar har nedur sarnavisht.
Ne taqdirdur daf’i oson emas,
Kishi ko‘rmayin oni imkon emas.
Qazo daf’ig‘a solibon elga ranj,
G‘alatdur **tama** aylamak molu ganj.[54]

Mazmuni: xalq peshonasiga nima yozilgan bo‘lsa, shuni ko‘radi. Kishining taqdirida bo‘lgan narsani daf’ etish oson emas, uni ko‘rmayin iloj ham yo‘q. Tangri insonni o‘z himoyasida saqlamasa, odamga na ganj-xazina asqotadi, na mol-mulk. Shuning uchun mol-mulkka tama qilish g‘alati va bema’nilikdir. “Qanoat. Bu naqshbandiya tariqatining bosh talabi. Ya’ni, agar kishida qanoat bo‘lmasa, boriga shukr etmasa, Alloh bergan rizqqa ko‘nmasa, u tamagir bo‘ladi, boshqalar moliga ko‘z olaytiradi, natijada to‘g‘ri halol yashashdan chekinadi. Tama – bu qullik, chunki birovdan doim bir narsa kutib o‘tirgan odam o‘z nafsining quliga aylanadi”.[55] Hazrat Navoiy ana shunday ulug‘ fikrlari bilan insonlarni hamisha to‘g‘ri yo‘l tutishga chorlaydi. “Navoiyni yetarli darajada bilish – adolat, diyonat va imon-e’tiqodini kuchiga ishonch demak. Ko‘nglida shu ishonch g‘olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insoniy muammolar harqalay kamayib boradi”.[56] Darhaqiqat, Navoiyning har bir bayti qat-qatiga insonni inson qiladigan fazilatlar, tiyilishi kerak bo‘lgan nuqsonlar singib ketgan. Shoir har bir obraz, har bir insoniy fazilat yoki nuqsonda ijtimoiy-falsafiy mushohadakorlikka tayanadi. Insonning yashashdan maqsadi, hayot tushunchasini teran anglashi asardagi voqelikda aks ettirib beriladi. Hazrat Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarini tom ma’noda insoniylik, odamiylik sifatlarini o‘zida mujassam etgan bir butunlik deb oladigan bo‘lsak, undagi g‘oya va timsollar tarbiya hamda insonni

[54] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B.399.
[55] Komilov N. Xizr chashmasi. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005. –B.14.
[56] Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. –Toshkent: “Sharq”, 2007. –B.111.

to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan ibrat xazinasidir. Dostonlarda shoir inson qalbini kemiradigan yomon sifatlarni haqiqat qalami ila tanqid etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xo‘jayev T. “Saddi Iskandariy” hikmatlari//Do‘stlik bayrog‘i. 2014.12-son.– B.5.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B.39.
3. Durdonalar xazinasi. –Toshkent: “Sharq”, 1999. –B.24.
4. Jalolov T. Go‘zallik olamida. –Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1979. –B.73.
5. Komilov N. Xizr chashmasi. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005. –B.14.
6. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. –Toshkent: “Sharq”, 2007. –B.111.

HUVAYDO IJODIDA AN’ANA VA O‘ZIGA XOSLIK

Nazarova Dilafruz Ixtiyorovna
ToshDO‘TAU o‘qituvchi

Annotatsiya: *Maqolada Huvaydo ijodining mazmun mundarijasi, obrazlar tizimi o‘rganilgan. Shoir she’riyatidagi an’ana va o‘ziga xoslik kuzatilgan. Huvaydo lirikasi mumtoz shoirlar asarlari bilan qiyoslanib, ijodkorning poetik mahorati, so‘z tanlash san’ati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ko‘ngil, obraz, nafs, dunyo, g‘oya, nasihat, she’riyat.*

O‘zbek mumtoz adabiyoti asrlar davomida sayqallanib, mavzu-mundarijasi boyib kelgan. Shu bois, an’ana va o‘zaro ta’sir adabiyot va san’atning barcha turlariga tegishli bo‘lgan ijodiy jarayon. Bunda ijodkor o‘zidan oldingi ijod qilgan salaflari tomonidan avloddan avlodga o‘tib kelayotgan mezon va qoidalariga asoslanib, ularning ba’zi tomonlarini takrorlaydi, qayta yaratadi, takomillashtiradi. Badiiy ijodda, ayniqsa, she’riyatda bu hodisa nasrdagidan ham kengroq ko‘lamda aks etadi.

An’ana mumtoz she’riyatdagi uzviy silsilaviy hodisa. Mumtoz adabiyotimiz namoyondalari orasida bu bosqichni o‘tamagan, salaflari boy merosidan uzilib qolgan birorta ijodkorni uchrata olmaymiz. Barcha ijod ahli salaflari ijodidan ta’sirlanib qalam tebratgan. Shu singari o‘zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo‘shgan yirik shoirlardan biri Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li

Huvaydodir. Huvaydo ijodi har jihatdan rang-barang. Shoir ijodiy merosi keng ko‘lamli bo‘lgani uchun uni bir qarashda anglab olish mushkul. Shoir, “Devon” ida g‘azal, mustazod, muxammas, murabbot, ruboiy kabilar o‘rin olgan.

Huvaydo qalamiga mansub ayrim g‘azallar, ruboiylar shakliy jihatdan takomillashtirilganligi bilan ham ajralib turadi. Uning ijodida lirik turning yetakchi va keng ommalashgan janri g‘azal muhim o‘rin tutadi. Devonda g‘azalga keng o‘rin ajratilgan. G‘azallar an’anaviy tarzda joylashtirilgan. Devon tuzilish an’anasiga muvofiq shoir devoni ham hamd g‘azaldan boshlangan. So‘ngra na’t g‘azallar o‘rin olgan. Huvaydo mazmun jihatdan ham, shakliy jihatdan ham, badiiy jihatdan ham mukammal asarlar yaratgan. Shoir she’riyatida insonparvarlik g‘oyasi eng yuksak o‘rinda turadi. Biz ushbu maqolada Huvaydo she’riyatida insonparvarlik g‘oyasi aks etgan o‘rinlarni salaflaridagi ayrim namunalari bilan birga tahlilga tortishga jazm qildik.

Bir g‘arib ko‘nglini shod aylasang,
Yo‘l bosib Ka’ba sari bormoq abas.[57]

Bunda shoir g‘arib ko‘nglini shod etishni eng ulug‘ ziyoratga borish savobi bilan tenglashtirmoqda. Huvaydo Ka’ba ziyorati, Haj safarining eng yaqin yo‘lini ko‘rsatsa, Alisher Navoiy esa Allohning muhabbati barhayot ko‘ngilni shod etish savobini shunday ulug‘laydi:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa , obod aylagay.[2]

Ushbu baytda bir g‘arib, g‘amgin inson ko‘nglini shod etish, shodlikka to‘ldirish savobi shu qadar ulug‘ligi, uning savobi esa muqaddas ziyoratgoh Ka’ba buzilib qolsa, o‘shani qayta barpo etish bilan barobar ekanligiga tenglashtirgan.

Ko‘ngil olami hamisha ijodkorlar tomonidan kuylanib kelingan. Allohga muhabbat jo bo‘ladigan maskanni pok saqlamoq barcha shoirlar tomonidan e’tirof etib kelinadi. Alloh jo bo‘lgan ko‘ngilni esa og‘ritish gunohi shu qadar ulug‘ki,

[57] Huvaydo Xo‘janazar. Devon. Yangi asr avlodi. 2007. – B.54
[*] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy.

Ka’bani yuz marta barpo etsang ham savob olishga kafolat yo‘qligini shoirning ushbu baytida ko‘rishimiz mumkun:

G‘aribni ko‘nglini buzmak gunohi beadad ermish,

Kafolat bo‘lmag‘ay yuz Ka’bani qayta bino qilsang.[58]

Shoir she’riyatida nafsdan saqlanishga, poklanishga da’vat yuqori o‘rinda turadi. Nafs inson ko‘zini, qalb-qo‘rini shu qadar ko‘r qilib qo‘yadiki, banda ojiz qoladi. Shu sabab shoir she’riyatida nafsni tiyish, uni jilovlash lozimligi takror va takror uqtiriladi. Xususan:

Nafsing sani qattig‘ balo, albatta urgil poy ango,

Har dam sani o‘tqa solur, zinhor berma roy ango.[59]

Nafsingni tiy, agar nafsingni tiymasang u seni o‘tga soladi, nafs rayingni o‘z yo‘liga solmasin, aks holda nafs girdobidan qutila olmaysan deb shoir ogohlikka chaqiradi. Tan va ruh kurashi hamisha bo‘lib kelgan. Inson doimo yo ruhning, yo tanning(ko‘proq bu yerda tan kurashi, ya’ni nafs haqida gap boradi) g‘olib yoki mag‘lubi bilan yakunlanadi.

Sani vasling yaqin andoq , ko‘zim oqu qarosidir

Mani sandan yiroq solg‘on bu nafsimni balosidur.(79-b).

Nafsga qarshi kurash,nafsdan qutilishga intilish tasavvur ahli axloqining xususiyatlaridandir.Ushbu baytda ham tasavvufiy mazmun- mohiyat aks etgan. Ilohiy hil’atning vasli shu qadar yaqin ko‘zning oqu qorasicha ,lekin uni ko‘rishga nafs yo‘l bermay, yiroqlashtirdi.

Dunyoni molini yig‘sang, to‘ymagay nafsi banding ,

To quyilmay ko‘zinga tufrog‘din bir musht kaf.(117-bet)

Mol dunyoga ruju qo‘yish tasavvuf ta’limotida ham, so‘fuyona adabiyotlarda ham, didaktik adabiyotlarda ham eng yomon illat hisoblanadi. Shu bois, shoir dunyoga ruju qo‘ygan insonning nafsi kun sayin hakalak otib, o‘sib boraveradi. Oxirat borligini, unga tadorik ko‘rish kerak degan tushunchalar borligi ular uchun

[2]O’sha manba. – B. 136

[59]O'sha manba. – B. 28. Shu yerdan boshlab devondan olingan bauytning sahifasini ko’rsatamiz.

butunlay unutiladi, to so‘ngi dam kelmaguncha xidoyatni o‘ylamaydiganlarga bu odat oqibatini birgina bayt misolida chiroyli tarzda ochib bergan.

“Nafs” – o‘zbek mumtoz adabiyotida yovuz, ochofat deb qiyofasida tasvirlanadi. Keltirilgan misralarda nafsga poy urmoq, nafsdan ustun kelish bilan barobardir. Nafsning so‘ziga quloq solish, uni semirishiga olib keladi. Nafsning hoyu havaslariga berilish insonning ma’naviy olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nafsni jilovlash, undan qutilishga chaqirish shoir she’riyatining pandnoma ruhda ekanligini ko‘rsatadi. Zero, pandnoma ruhdagi g‘azallar ixcham shaklni taqozo etib, mazmun-mohiyati juda keng bo‘ladi. Nafs haqida devondan 16, 32,64, 99, 123, 153, 201, 208, 231, 232 ,263 va xokazo sonli g‘zallar o‘rin olgan. Nafs uchun kurash Yassaviya tariqatining mohiyatini tashkil etadi. Bundan ko‘rinadiki, Huvaydo ana shu tariqatining izchil davomchisidir.

Bundan tashqari shoir she’riyatida ishq mavzusi alohida o‘rin tutadi. Shoir fikricha, ishq- muhabbat dard ahliga tegishli. Shu bois ishq har kimga ham nasib etavermaydi.

Dardi yo‘q bedardni odam dema,
Chorponi hargiz andin kam dema.(209-b)

Yana bir o‘rinda esa bunday baytni keltiradi:

Oshiq ermas , ul kishini ko‘nglida g‘am bo‘lmasa,
Har zamone ahli g‘amlar birla hamdam bo‘lmasa. (208-b)

Shoir mahorati shundaki, ishq-muhabbat, oshiqlikni shunchaki oshiq va ma’shuqa munosabati tarzida emas, balki falsafiy-ramziy fikrlar bilan uyg‘unlashtirganida ko‘ramiz.

Oshiq ermas ul kishikim , chashmi xunbor o‘lmasa,
Ko‘ksida dog‘i muhabbat , lola ruhsor o‘lmasa. (206-b)

Ishq mavzusidagi g‘azallarda biz Huvaydoning so‘fiyona shoir ekanligini yorqinroq ko‘rishimiz mumkin. Tasavvufda ishq mavzusi ilohiyot bilan bog‘liq. Shu ma’noda Huvaydo she’riyati ham aslo bundan xoli emas. Shoirning har bir asari mohiyatida buni ko‘rishimiz mumkin. Huvaydoning har bir asarida islom va

tasavvuf ta’limotidagi ma’rifat nurlarini ko‘ramiz. Shoir she’riyatining har bir namunasida komil inson masalasi markaziy o‘rinda turadi. N.Jumaxo‘ja “ Huvaydo she’riyatining yalpi mohiyatini pandu adab tashkil etadi “[60] – deganidek, pand-adab, nasihat orqali komil insonni kamol toptirish Huvaydo nazmining asosi hisoblanadi. Bu bilan biz Huvaydo she’riyati faqat pand va adab berishdan iborat degan fikrdan yiroqmiz. Uning she’riyati shu qadar serjiloki, xohlagan kishi o‘ziga istagan mavzudagi, istagan ma’no qatlamlariga ega asaridan bahramand bo‘lishi mumkin. Huvaydo islomiy dunyoqarashga ega bo‘lgan ijodkor. Uning butun ijodida mana shu hol yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bundan ko‘rinadiki, shoir ijodining har bir satrida so‘fiyona mazmundagi fikrlar aks etgan. Negaki, tasavvuf falsafasi mohiyat etibori bilan islomiy asosga qurilgan. Islomiy g‘oyalar aks etgan asarda, albatta, irfoniy tushuncha va tafakkurning kurtaklari mavjud bo‘ladi. Xususan, shoir ijodi qanchalik pandnoma mazmunda bo‘lmasin, u shunchalik tasavvufiy tushunchalarni ham o‘zida aks ettiradi. Shu sabab irfoniy ma’no-mazmun Huvaydo she’riyatida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Biz yuqorida ishq, oshiqlik, ko‘ngil va boshqa tushunchalarga to‘xtalgan edik. Aslida bular ham botiniy ma’no anglatadi. Shoir she’riyatini maydalab tahlil etish natijasida yangidan-yangi irfoniy tushunchalarni kashf etish mumkin. Bu esa shoir ijodini tasavvufiy nuqtai nazardan yondashishni talab etib, yangidan-yangi mavzular va ishlarni talab etadi. Shoir qalamiga mansub har qanday ijod mahsulida biz insonlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘llovchi nidolarni eshitamiz. Bu nidolar shunchaki emas, albatta. Insonlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘llab, jamiyatda adolat hukmron bo‘lishini istaganidan. Huvaydo she’riyati juda serjilo. Jumladan:

Ko‘rdim tuno kun ko‘chada bir mohiloqoni, Hayron bo‘lo qoldim.

Xusnidan oni ko‘nglim uyi topdi ziyoni, Raxshon bo‘la qoldim.[61]

Keltirilgan mustazodning mohiyati oshiq va ma’shuqning uchrashuvidangina iborat emas. Unda tasavvufiy mazmun mohiyat munozara shaklida timsoliy tarzda

[60] Jumaxo’ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XII-XIX asrlar o’zbek she’riyati asosida) f.f.dok. dis.–Toshkent, 1999. –B. 220.

[61] Xojanazar Huvaydo. Devon. “Yangi asr avlodi” nashriyoti ,- Toshkent, 2007, -B. 257

aks ettiriladi. Mustazod davomida shoirning tasavvufiy qarashlari piri murid muloqoti deb tushinishimiz mumkun. Negaki, mustazod davomida shunday satrlar uchraydiki, yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi:“…Hilvatga kirib so‘kdi, manga qildi nasixat: ”Mundog‘ dema zinxor el oldida begonasifat ochma zaboni”, Qurbon bo‘la qoldim…”. Shoirning har bir asari so‘fiyona ruhda yozilgan. Har satrida tasavvufiy mazmun mohiyat aks etgan. Mustazodlardan tashqari shoir ruboiylari ham falsafiy-tasavvufiy g‘oyalar bilan talqin etilgan.

May ichmagima la’li parivash bois,
Nolonlig‘ima orazi dilkash bois,
Axbob parishonlogima so‘rsa sabab,
Man aytaman: Ul zulfi mushavvash bois.[62]

Yoki:

Ey, bog‘i nazokatda qaddi sarvu, yuzi gul,
Ul yuzdin erur ishq eli chun qumriyu bulbul,
Rayhonu binafsha xatu zulfingni asiri,
Shamshodu sanubar qadding oldida ikki qul.[63]

Mazkur to‘rtliklarda oshiqni may ichmoqga, parishon bo‘lishga va qumriyu bulbuldek nola chektirishga ul zulfi mushavvash go‘zalligi sabab, ul gul yuz- ilohiy xilqat timsolidir.

Bir qarashda shoir she’riyati tili soda, ravon ko‘ringani bilan unda ma’nolar shu qadar keng va teranki, uni izohlashga til ojiz. Shoir she’riyatini boshdan oyoq pand, adab asosiga qurilgan desak, mubolag‘a bo‘lmas. Buni shoir she’riyatining har bir satrida ko‘rishimiz mumkun.

Huvaydo g‘azaliyoti ko‘lamining kengligi hamd, na’t, orifona, oshiqona, rindona g‘azallar turkumining barchasi mavjudligi bilan ham belgilanadi. Shoirning hamdga oid g‘azallarini “Devon” ning dastlabki sahifasidan, ya’ni g‘azallar boshlanmasi deyishimiz mumkun. Shoir ham an’anaga muofiq (Sharq kitobatchilik

[62] O’sha manba. 257 b. bundan keyin devondan olingan ma’lumotlarni”O’sha manba” deb sahifasini ko’rsatib ketamiz.
[63] O’sha manba.-b.260

an’anasiga ko‘ra devonning boshlanish qismi Ollohga hamdu sano tashkil etadi) bitgan. Devonda dastlab Huvaydoning:

Iloho, san qaram birla kechurg‘il, ey Xudovando,
Gunohi jumla mo‘minni, ayo ma’budi behamto!...

matlasi bilan boshlanuvchi g‘azalini hamd g‘azallari boshlanmasi deyishimiz mumkun. G‘azal boshdan oyoq Ollohning yagonaligi, hamma ishga qodirligi va boshqa sifatlari bayon etilgan. Na’t g‘azallarida har bir mo‘min – musulmon uchun komillik ibrati – payg‘ambarimizning Muhammad sallolohu alayxi vassallamning hayot tarziga oid lavhalar va albatta, cheksiz muhabbat ifodalangan o‘rinlar devonda tez-tez uchraydi.

Huvaydo she’riyati asosan oshiqona va orifona ruhdagi g‘azallardan tashkil topgan. Rindona g‘azallar ham devonda anchagina. Oshiqona g‘azallarida ,asosan, insonni kamolat sari intiltiruvchi, sabr bilan intiluvchi oshiq kechinmalari va qiyofasi ta’sirchan tasvirlangan. Orifona g‘azallarida shoir Huvaydo donishmand faylasuf siymo sifatida gavdalanadi. Bunday g‘azallar insonni ma’naviy komol toptiruvchi so‘fiyona ma’rifat g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan.

Huvaydoning ijodiy merosi ko‘lamida tasavvuf maslagiga e’tiqod yuksak o‘rinda turadi. Huvaydo dunyoqarashida Yassaviy va Mashrabga izdoshlik seziladi. Ilohiy ishqning bu uch oshig‘i Ollohga muhabbat bog‘lash borasida birlashadilar. Yassaviy o‘z hikmatlarida “ Dunyo uchun g‘am yema, Xaqdin o‘zgani dema” tarzida nido cheksa, Mashrab “ Bir xudodin o‘zgasi barcha g‘alatdur, Mashrabo” deydi, Huvaydo esa “Dunyoda hoyu havas qilmoq abas, Bir xudodin o‘zgani suymoq abas”, - deydi. Huvaydoning dunyoqarashicha har bir insonning dil olami tavof etishga sazovor bo‘ladi. Inson o‘zidagi eng go‘zal fazilatlarni unda mujassamlashtiradi. Binobarin odamzot yuragida Ollohga muhabbat bor eklan, u Ka’ba singari muqaddasdir. She’riyatida inson tabiatidagi yaramas xislatlar qoralanib, kamtarlik, samimiylik, rostgo‘ylik, chin insoniylik tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Huvaydo ulug‘lagan xislatlar, tuyg‘ular yuksak badiyat bilan ifodalangan. Insondagi mehr, samimiylik, rostgo‘ylik, kamtarinlik kabi tuyg‘ular Huvaydoga xosdir. Shoir

she’riyatini o‘rganish barobarida yana shunday anglash mumkunki, professor N.Jumaxo‘ja ta’biri bilan aytganda “Huvaydoning pand-u ababdan xoli birorta asarini uchratish qiyin. Aksincha, Huvaydo she’riyatining yalpi mohiyatini pandu adab tashkil etadi.Uning nazmi bu fazilati bilan insoniyat, ayniqsa, yosh avlod uchun umrboqiy ma’naviy ma’zaxdir”.[64]

Huvaydoning fikricha, ma’naviy kamolotga talabgor odam kamtar bo‘lishini uqtiradi. Nafsga qarshi kurash, uni mag‘lub etishga intilish shoir sheriyatiga xos xususiyat. Nafs va xavasning xuruji hamisha ma’naviy poklik va mukammallikga rahna solib kelgan. Shu bois Huvaydo o‘z sheriyatida bu illatlardan poklanishga, saqlanishga qayta-qayta da’vat etadi. Shoir e’tiqodida ko‘ngil dil nomozi eng muhim ma’naviy omillardan xisoblanadi. Shariat islom dinining yo‘l-yo‘riqlari, qonun-qoidalari nomoznomasidir. Shariatni tugal bilmay turib, insoniy kamolotning keying bosqichiga o‘tib bo‘lmaydi. Chunki Haqni tanigan, haqiqatga erishgan insongina komil inson hisoblanadi. Tasavvufda Haqni tanish yo‘lidagi birinchi bosqich shariatdir. Haqiqat borliqning asliyati, mohiyati. U tasavvufda Ollohni kashf etish, vasliga erishish ilmidir. Yuqoridagilarni keltirishimizdan maqsad, Huvaydo ijodi ham diniy, ham dunyoviy, ham tasavvufiy ma’no jilolariga ega bo‘lgan murakkab jarayondir. Shu bois Huvaydo ijodini o‘rganish dastlab uning mavzu ko‘lamini aniqlashdan boshlanadi.

Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo o‘zbek mumtoz adabiyotining vakillaridan biridir. Uning hayoti va ijodiga doir manbalar u qadar ko‘p emas. Shoir hayoti va ijodini o‘rganish quyidagilardan boshlandi:

Huvaydo she’riyati umuman ijodiy me’rosining ko‘lami, **birinchidan**, an’anaviylikni izchil davom ettirganligida; **ikkinchidan**, shoir adabiy me’rosi mumtoz adabiyotning an’analari zaminida shakllanib, o‘ziga xos joziba va mohiyatga egaligida; **uchinchidan**, Huvaydo o‘zidan ilgari yashab o‘tgan shoirlardan ilhomlanib qolmay, maftunkor lirikasi bilan an’analarning davomiyligini

[64]Jumaxo’ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy me’ros(XVII-XIX asrlar o’zbek sheriyati asosida). F.f.dok.diss…-Toshkent, 1999,-b.220

ta’minlagan.Bu esa shoirning o‘ziga xos yo‘li, uslubi borligini, teran va falsafiy fikrlash doirasining kengligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huvaydo Xo‘janazar. Devon. Yangi asr avlodi. 2007-y. –B. 28, 54, 136,
2. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movorounnahr, 2009.
3. Mallayev N.O‘zbek adabiyoti tarixi.–T.: O‘qituvchi, 1976.
4. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). O‘quv qo‘llanma . Ikkinchi nashr. – T.: Fan, 2009.
5. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
6. Orzibekob R. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: 2006.
7. Jumaxo‘ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XII-XIX asrlar o‘zbek she’riyati asosida) f.f.dok. dis.–Toshkent, 1999. – B. 222.
8. Ro‘zmatzoda Q. Huvaydo va tasavvuf // Sino Jurnali. –T.: 2011y. -№43-44.
9. http://ziyonet.uz (ta’lim portali)
10. http://natlib.uz (O‘zbekiston milliy kutubxonasi)

FAXRIYOR SHE’RLARIDA JANRLAR MASALASI

Quvonch Mamiraliyev
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
mamiraliyevquvonchbek@gmail.com

“Xudo bilan mening oramga
suqilib turadi tinmay birovlar”
(Faxriyor)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Faxriyor she’rlaridagi janrlar masalasi va uning poetik xususiyatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, shoir she’rlaridagi shakliy izlanishlar ham tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar. *She’riyat, modifikatsiya, mutatsiya, she’r, janr, so‘z, obraz.*

Faxriyor (Faxriddin Nizomov) o‘zbek adabiyotida o‘z so‘ziga va uslubiga ega ijodkor. Modern adabiyot deyilganda, ko‘pincha, xayolimizga Faxriyor she’riyati keladi. Uning she’rlaridagi nozik tuyg‘ularni ilg‘ash, tahlilga tortish, janriy jihatdan tahlil qilish ancha mushkul jarayon. Chunki she’rni his qilmoq, tuymoq uchun, avvalo, shoirdanda tiniq va baland tafakkurga ega bo‘lmoq lozim. Biz ushbu kichik

ishimizda shoir qalbi bilan bo‘ylashishga, she’rlaridagi mazmuniy va shakliy hodisalarni tadqiq etishga harakat qildik.

Shoirning “Dardning shakli”, “Ayolg‘u”, “Geometrik bahor” she’riy to‘plamlaridagi she’rlarida baland tuyg‘ular qalamga olingan. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev shoir ijodi haqida shunday deydi: “*Faxriyorning she’rlarini o‘qish ham, uqish ham, ta’sirlanish ham oson emas. Lekin uning bitganlari milliy she’riyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidirki, uni bilmaslik estetik va ma’naviy qiyofaning kemtikligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi oydin o‘zbek Faxriyor asarlarini o‘qishi, o‘rganishi, tahlil qilishga ehtiyoj sezishi kerak”.* Darhaqiqat, shoir she’rlarini bir o‘qishda tushunish, tuyish, idrok etish biroz mushul, chunki she’rdagi uslub yangicha – modern. Ko‘p she’rlarida tinish belgilarining yo‘qligi, so‘zlarning yangi satrda bosh harf bilan boshlanmasligi o‘qirmanni taajjublantiradi. Faxriyor she’rlari barmoqqa ham, mansura va aruz vazniga tushmaydi, unda mana shu vaznlardagi janrlar qorishiq holatda keladi. Masalan, shoirning quyidagi she’riga e’tibor qaratamiz:

Qo‘llarim bo‘m-bo‘sh
Ko‘tarmoqchi edim boshimga seni
Shu qo‘llarimda
Endi bo‘m-bo‘sh qo‘llarimni
boshimdan baland
ko‘tarolmay yashayman.
Bo‘m-bo‘sh qo‘llar og‘irligi. (1988)

Ushbu she’rdagi ruhiyat an’anaviy, aruziy ohanglarga ham, barmoqqa ham yaqinroq, ammo yozilish uslubi zamonaviyv - modern. Aslida modern degan atama bu faqat badiiy asarning shakliga taalluqli degani emas, aslida. Sinchiklab qaralsa, ko‘p qirrali, ziddiyatlarga boy, murakkab hodisa bo‘lmish modernizm adabiyotga estetik individualizmni olib kirganligi ko‘rinadi. Tuyg‘ular chuqur bo‘lsagina, chinakam asar yuzaga kelishi badiiy adabiyotning oltin qoidasidir. Modern adabiyotda odamning ichki olami birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Asardagi barcha narsa:

ramzlar, voqealar tasviri, so‘zlar, musiqiylik faqat odam ruhiyatini ochishga qaratilishi kerak degan qarash bu yo‘nalish vakillari tayanadigan bosh tamoyildir. Faxriyor she’rlarida aynan shu holatni ko‘rishimiz mumkin, ya’ni uning she’rlari biror vaznga tushmaydi, shoir ifodalamoqchi bo‘lgan voqelik o‘z janrini topolmaydi. Ammo uning she’rlari zamiridagi modern kayfiyat va mohiyat asl an’analarni rad etmaydi. Harorat esa tuyg‘ularda, ilohiy e’tiqod va ruhda bo‘ladi. Seneka aytganiday: “mohiyatida ilohiylik mujassam asarlar boqiydir”. “Modernizm (fr. moderne – zamonaviy) — XIX asr oxiri XX asr boshlari san’at va adabiyotida vujudga kelgan norealistik yo‘nalish, oqim va uslublarning umumiy shartli nomi. Modernizmga mansub san’atkor va adiblar klassik, an’anaviy uslub, badiiy shakllardan yuz o‘girib, yangi, zamonaviy uslub, shakllar yaratish shiori ostida izlandilar. ...ba’zi vakillari izlanish jarayonida ijodiy yutuqlarga erishib, san’at va adabiyotdagi mavjud metod, tasviriy vosita, uslublarni boyitishga xizmat qildilar”.

“Osmon yaratganning…”so‘zlari bilan boshlanadigan she’rda shoirning hayot tartiboti, Yaratganning intizom va adolati haqidagi falsafiy o‘ylari o‘ziga xos yo‘sinda ifoda etilgan. She’rning birinchi va ikkinchi bandlarida Allohning qudrati, uning odamzotga qilgan cheksiz marhamatlar tizimi tasvir etiladi. Shoir o‘quvchini she’rdan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kutilmagan ma’noga Yaratganning irodasi natijalarini xolis tasvirlash yo‘li bilan kishi bilmas tarzda tayyorlab boradi. Odamga berilgan ne’matlar orasida she’rning uchinchi bandidagi: “Ko‘ngilga dog‘ berdi, diydalarga – yosh” misrasi mazmunini chaqish, “yosh” va “dog‘” tamsillari nima ekanini o‘ylash o‘qirmanni tashqi hayrat olamidan ichki dardkashlik ochuniga olib kiradi. She’rning “Kuymoqqa dil berdi, suymoqqa – ayol. Cho‘kmoqqa tiz berdi, egmoq uchun – bosh” satrlari zamiridagi teran ma’nolarni yuzaga chiqarishga urinish she’rxonga kutilmagan hayotiy va badiiy haqiqatlarni kashf qilish imkonini beradi. “Jon berdi ayolga etguday nisor, Uni deb yonmoqqa – sham kabi hayot” misralarida er kishiga tegishli qanday yuksak tuyg‘ular kuylanayotganini anglash o‘qirman sezimlarini noziklashtirib, shaxsiyati yuksalishiga turtki beradi. Shoir Yaratgan tomonidan in’om qilingan narsalarda faqat ko‘ngil va sevgiga doir oliy

ne’matlarnigina ko‘radi. Odam tafakkurining yuksalishi uning tuyg‘ulari noziklashishini ham taqozo qiladi. Aks holda, tafakkur va tuyg‘u nomutanosibligi kishini ma’naviy tanazzulga olib kelishi mumkin. Bugungi odam hech qachon faqat baxtdan iborat hayot kechirolmasligini teran anglab borayotir. Zero, yashash yangidan-yangi gunohlar qilish va shu sabab mabdadan borgan sari uzoqlashishga mahkumlikdir. Demak, mung doimiy, quvonch o‘tkinchi yo‘ldoshdir. Ayni shu holat yuzaga kelgan sharoitda modern izlanishlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Aslida, she’r yozishning hech bir qoidasi bo‘lmaydi, aksincha, she’riy qoidalarni yaratadigan odamga shoir deyiladi. Faxriyor she’rlarida tuyg‘u ifodasigina emas, balki tuyg‘uning o‘zi ham yangi. Faxriyor she’rlaridagi mantiqdan tashqari, mavhum ruhiy kechinmalar tasvirida o‘zbek modern she’riyati aql bilan anglab yetishning tor imkoniyatlarini ko‘ngil bilan tuyish hisobiga kengaytirib berayotganligining yaqqol dalilidir. Faxriyor she’rlarini aql bilan emas, faqat ko‘ngil bilan tuymoq va to‘ymoq kerak.

Suygulim, suy, gulim, suygu lim —
yuraklarim ko‘zimdan toshar.
Meni yengib bormoqda o‘lim,
seni esa qiynaydi yashash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Faxriyor.Ayolg‘u. (she’rlar va dostonlar)-T.: Sharq, 2000. –B. 256.

2. Faxriyor. Geometrik bahor. –T.: Ma’naviyat,2004. -192 b.

3. Faxriyor. Dardning shakli.–T.: Yozuvchi,1997. -121 b.

4. Abdullayeva M. Features Of The Story Genre In "History Of The Four Nations". *Psychology and education (2021) 58(1): 766-771. – P.775.*

5. Hamadamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernism. -T.: Akademnashr, 2020. –B.288.

6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. -480 b.

7. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.-T.: O‘qituvchi, 1986. -408 b.

8. Mamiraliyev Q. Some reviews on the mutation of genres in uzbek poetry. International journal for innovative engineering and management research. ISSN 2456 – 5083. Vol 10 Issue03, Feb 2021.

9. Muhayyo Yo‘ldosh. Yangilanish manguligi. –T.: Adib, 2011. -88 b.

10. https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/faxriyor-sherlar-4.html

11. https://saviya.uz/ijod/noziklashuv-jarayoni/#

XOJAGON TARIQATI TASAVVUF NAMOYONDALARI HAQIDA ALISHER NAVOIY QARASHLARI

Fayziyeva Dilorom
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat” asarida Xojagon tariqatining tasavvuf namoyandalari haqidagi qarashlarini o‘rganib, ularning bugungi kundagi o‘rganilgan tomonlari bilan taqqoslab chiqdim. Tarix va madaniy merosimizni keng o‘rganayotgan, hamda naqshbandiylik ta’limotiga rag‘bat ko‘rsatayotgan ekanmiz, bu asarda berilgan ma’lumotlar bugungi kundagi “Xojagon tariqati” haqidagi eng qimmatli ma’lumotlar hisoblanadi. Ayniqsa, bu asardagi Imom A’zam, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshbandiylarning aqida va qarashlari bilan xalqimizni, xususan, yoshlarimizni yaqindan tanishtirish joizdir.*

Kalit so‘zlar. *So‘z, janr, tariqat, aqida, tarix.*

Tarixdan ma’lumki, tasavvuf bizning adabiyotimiz, san’atimiz va musiqamiz taraqqiyotiga alohida ta’sir o‘tkazgan ta’limotdir. Shuningdek, tasavvuf har bir inson tarbiyasi va kamolotidagi xizmatlari ham ko‘p jihatdan ibratlidir. Pokiston faylasuf shoiri Muhammad Iqbol ta’kidlaganidek: “Ixlosli va haqiqiy mohiyatga ega bir jarayon bo‘lgan tasavvuf muassasasining yuzaga chiqishi, hech shubha yo‘qki, musulmonlikda diniy tajribaning takomili va to‘g‘ri taraqqiy topishida muhim omil bo‘lgan.” Hazrat Alisher Navoiyning asarlarini o‘qir ekanmiz, butun insoniyat, alalxusus, Sharq olami, vatanimiz, xalqimiz, dinimiz, madaniyat, adabiyot, san’atimiz, urf-odatlarimiz bilan bog‘liq atamalar, so‘zlar, tarixiy va afsonaviy siymolarning ismlari, ular boshidan kechirgan voqealarga ishoralar, koinot va zamin, nabotot va hayvonot, balkim har ikki dunyo va xayolot olamidagi jonli va jonsiz xilqatlar, ko‘ngilning nozik kechinmalari, ruhning tinimsiz izlanishlari ifodasi bo‘lib kelgan so‘zlar, ta’riflar, tashbehlar, ramz-u timsollar har sahifasida, har baytida chiroyli ta’riflar orqali uchraydi. Uning har bir asarida biz uchun kerakli va muhim bo‘lgan ma’lumotlar berilgan, jumladan “Nasoyim ul muhabbat” asarida xojagonlar tariqatidagi tasavvufiy shayxlar va ularning qarashlari haqida quyidagicha ma’lumot berib boriladi:

Xoja Yusuf Hamadoniy. Kuniyati Abu Yaqubdur. Imom, olim, orifi rabboniy, go‘zal hollari, ko‘p ehsonlari, yuksak karamot va maqomotlari bor edi. Ibtidoda Bag‘dodqa bordi va Shayx Abu Is’hoq Sheroziy majlisida mulozamat qildi va ishi yuqori bo‘ldi va o‘z aqronig‘a fiqh ilmida va o‘zga ulumda, xususan nazar ilmida foiq bo‘ldi va Shayx Abu Is’hoq ani kichik yoshlig‘ ekanida ko‘p ulug‘ poyalig‘ ashobig‘a taqdim qilur erdi va ko‘p ulamodin Bag‘dod va Isfahon va Samarqandda hadis istimoh qildi. So‘ngra barchani tark qildi va riyozat-u mujohadat tariqin ilgari tutdi va mashhur andoqdurki, tasavvufda intisobi Shayx Abu Ali Formadiyadur va debdurlarki, Shayx Abdulloh Juvayniya. Va Shayx Hasan Simnoniy bila suhbat tutubdur. Marvda soqiy bo‘ldi va andin Hiriga keldi va bir necha vaqt iqomat qildi. Yana Marv ahli andin murojaat iltimos qildilar va Marvga bordi. Yana Hiriga keldi va andin so‘ngra Marv azimatig‘a murojaat qilg‘anda, yo‘lda besh yuz o‘ttuz beshda favt bo‘ldi va Ham andaki, favt bo‘ldi, dafn qildilar va ancha vaqtdin so‘ngra Marvg‘a naql qildilar va mazori Marvdadur mashhur. Shayx Muhyiddin Arabiy o‘z musannafotidin bahzida ay-tibdurki, Shayx Avhaduddin Homid Kirmoniy Quniya shahrida mening manzilimda erdi. Dediki, bizning bilodda Xoja Yusuf Hamadoniyki, oltmish yildin ortuq shayxlig‘ va irshod sajjodasida o‘lturub erdi.

Bir kun o‘z zoviyasida o‘lturub erdiki, ko‘nglida tashqari chiqmoq xutur qildi va tariqi jumha kunidin o‘zga kun chiqmas erdi va bu anga og‘ir keldiki, bilmas erdiki, qayon borg‘ay? Oxir bir markabga mindi va jilovin qo‘ydi, to qayonki, Tengri taolo eltsa borg‘ay. Ul markab shahrdin chiqdi va bodiyag‘a kirdi va borur erdi, to ani bir vayron masjid eshigiga yetkurdi va turdi.

Shayh tushti va ul masjidqa kirdi va ko‘rdiki, bir yig‘it boshin muroqabag‘a tortibdur. Bir zamondin so‘ngra boshin ko‘tardi. Bir Haybatlig‘ yigit erdi, dedi: Yo Yusuf, menga mashala mushkul bo‘lubdur va zikr qildi. Shayx ul mushkulni Hal qilg‘ondin so‘ngra dedi, ey farzand, Har qachon senga mashalae mushkul bo‘lsa, shahrg‘a kel, dog‘i mendin so‘r va meni kelurga ranjga solma. Shayx debdurki, ul yigit menga boqdi va aytti, har qachon mashalae menga mushkil bo‘lsa, aning hallig‘a har tosh manga saningdek bir Yusufdur.

Shayx Ibn Arabiy debdurki, men mundin bildimki, murid tavajjuh sidqi bila Shamxni o‘z jonibig‘a jazb qila olur ermish. Xojaning g‘arib Holoti va ajib maqomoti andin ko‘prakdurki, sharh qilsa bo‘lg‘ay. Ashob arosinda xulafosi to‘rt kishi erdilar: Xoja Abdul-loh Barqiy va Xoja Hasan Andoqiy va Xoja AHmad Yassaviy va Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Xoja Yusufdin so‘ngra bu to‘rt kishidin Har biri irshod va dahvat maqomida ermishlar va muridlar aning xizmatida adab bila mulozim. Chun Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston sori azimat qildi. Barcha ashob va irodat ahlini Xoja Abdulxoliq mutobaatig‘a dalolat qildi. Bu navh ermish, bu xonadonning bahzi mutaaxxir mashoyixining risolasida.

Navoiyning Yusuf hamadoniy haqidagi qarashlarini quyidagicha izohlasa bo‘ladi. Yusuf Hamadoniy olim,orif, ilmli, ko‘p ehsonlar qilgan, yuksak karomat egasi va o‘sha davrda ko‘plab maqomotlarga erishgan shaxsdir. Avvaliga Bagdodga borgani va u yerda shayx Abu Is’hoq Sheroziyning maslislarida qatnashib ilimini yuqori darajada egallagani, shundan so‘ng o‘zining arkonida huquqdan ta’lim bergani haqida ham so‘z yuritadi. Shundan so‘ng Bag‘dod, Isfahon va Samarqandda bo‘lib, hadis ilmini o‘rgangani haqida aytib o‘tiladi. Tasavvufning yetuk namoyandalaridan Shayx Abu Ali Formadiyning aytishicha Yusuf Hamadoniy Shayx Hasan Simnoniy va Shayx Abdulloh Juvayniylarning suhbatida bo‘lgan. Keyinchalik Marvda va undan keyin Hiriga kelgan. Marv ahli undan qaytishini so‘raganda yana Marvga kelganligi, undan so‘ng yana Hiriga qaytadi. Shundan sal o‘tib Marvga qaytadi va o‘sha yerda vafot etadi. U kishi Marvda dafn etiladi. Shayx Muhiyiddin Arabiy o‘zining majlisida Xoja Yusuf Hamadoniyning 60 yildan ortiq shayxlik qilgani haqida aytib o‘tgan. Xojaning ashoblari ichida to‘rtta xalifasi bore di: Xoja Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniydir. Bu to‘rt murshid maqomotni da’vat etadilar. Navoiyning bu asari orqali Xojagon tariqatining kelib chiqishi Yusuf Hamadoniyga borib taqalishi haqidagi ilk manbalar haqida aytib o‘tilgan. Keyingi ma’lumotlar esa to‘rt xalifadan biri Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy haqidadir.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy. Ularning ravishi tariqatda Hujjatdur. Barcha foruqning maqbulidurlar. Hamisha sidqu safo yo‘lida va Mustafo s.a.v. sharhu sunnati mutobaatida va bidhatu Havo muxolafatida qadam urubdurlar va pok ravishlarin ag‘yor ko‘zidin yashurubdurlar. Alarg‘a ko‘ngul zikri. sabaqi yigitlikda Xoja Xizrdin bo‘lubdur va ul sabaqqa muvozanat ko‘rguzubdurlar va Xoja alardin farzandliq qabul qilibdurlar va buyurubdurlarki, Havzlug‘ suvg‘a kirib, g‘o‘ta ur va ko‘nglung-da [«lo iloHa illalloHu MuHammadur rasulolloH»] degil. Alar Xoja buyurg‘ondek qilibdurlar va ishga mashgul bo‘lubdurlar va kushodlar topibdurlar va avvaldin oxirg‘acha alarning ro‘zgori barcha xalq qoshida maqbul va mahmud ekandur. So‘ngra shayx ush-shuyux olimu orifi rabboniy Xoja imom Abu Yahqub Yusuf Hamadoniy Buxorog‘a kelibdurlar va Xoja Abdulxoliq alar suhbatig‘a yetibdurlar va mahlum qilibdurlarki, alarda ham ko‘ngil zikri bor. Alar suhbatida bo‘lur ermishlar va mahlum qilibdurlarki, to alar Buxoroda ermishlar, debdurlarki, Xoja alarning sabaqi va zikri piridurlar va Xoja Yusuf suhbat va xirqalari piri. Xoja Yusufdin so‘ngra alar riyozatqa mashg‘ul bo‘ldilar va ahvollarin maxfiy tutar erdilar va alarning valoyati ul yerga yettiki, har vaqt namozda Kahbag‘a borurlar erdi. Alarning valoyati ko‘p erdi va Shomda alarg‘a ko‘p muridlar paydo bo‘ldilar va xonaqoh va ostona zohir bo‘ldi. Ashuro ayyomida jamoati kasir alar xizmatida o‘lturub erdilar va alar ma’rifatda so‘z aytadur erdilar. Nogoh bir yigit kirdi. Zohidlar suratida, egnida xirqa va kiftida sajjoda va bir go‘shada o‘lturdi. Hazrat Xoja anga nazar qildilar. Ul yigit dediki, Hazrat Risolat s.a.v debdurlarki, [Mo‘minning farosatidin qo‘rqing! Chunki u ulug‘ va qudratli Alloh nuri bilan boqadi][65]. Bu Hadisning sirri nedur? Alar dedilarki, bu Hadisning sirri budurki, xirqang ostidag‘i zunnoringni kiyosib, iymon keturgoysen. Ul yigit filhol zunnorin kesti va iymon kelturdi va Hazrat Xoja ashobg‘a boqib dedilarki, ey yoronlar, kelingki, andoqki zohir zunnorin kesib, bu navahd yigit iymon kelturdi, biz ham botin zunnorinki iborati ujbdindur qath qilib, iymon kelturali, to andoqki, ul

[65] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-т. – Тошкент: Фан, 2001.

omurzida bo‘ldi, biz dog‘i omurzida bo‘lali! Ajab holate ashobg‘a zohir bo‘ldi. Xojaning oyog‘ig‘a tusharlar erdi va tavbalarin toza qilurlar erdi.

Bir kun alar xizmatida bir darvesh der erdiki, agar Xudovand Taolo mani behisht bila do‘zax orasida muxayyar qilsa, men do‘zaxni ixtiyor qilurmen. Nevchunki, hargiz nafsim murodi bila zist qilmaydurmen. Bu holda behisht nafs murodidur va do‘zax Haq murodi.

Hazrat Xoja ul so‘zni rad qildilar va dedilarki, bandag‘a ixtiyor bila ne ish, Har qayon desa bor, borur-biz va qayon desa bo‘l, bo‘lurbiz, bandaliq budur! Yo‘q, ulki, sen antasan. Ul darvesh so‘rdiki, shaytong‘a Haq yo‘lining soliklarig‘a dast bo‘lg‘ay?

Xoja buyurdilarki, har solikki, nafs fanosi sarhadig‘a yetmagan bo‘lsa! Chunki anga g‘azab dast bergay. Shayton anga dast to‘qay. Chun nafs fanosi hosil qilmish bo‘lsa, anga g‘azab bo‘lmas, g‘ayrat bo‘lur va shayton g‘ayratdin qochar. Bu sifat birovga musallamdurki, yuzi Haq yo‘lig‘a bo‘lg‘ay va «Kitobulloh»ni o‘ng ilkiga tutqoy va Rasul s.a.v. sunnatin so‘l ilkiga va bu ikki yorug‘luq orosida yo‘l suluki qilg‘ay.

Bir niyozmand dediki, Xoja bizga iymon duosi bila madad qilsalar bo‘lg‘ayki, bu shayton domgohidin salomat jon eltgaybiz. Alar buyurdilarki, vahda andoqdurki, faroyiz adosidin so‘ngra duo mustajob bo‘lur. Sen ishda bo‘l va bizni xayr duosi bila yod qil! Faroyiz adosidin so‘ngra biz ham seni yod qilali. Bo‘lg‘ayki, bu orada ijobat asari zohir bo‘lg‘ay ham sening haqingg‘a, ham bizing haqimizga! Bu matnda eas Abduxoliq G‘ijduvoniyning qay tarzda maqomot egasi bo‘lganliklari haqida ma’lumotlar berilgan. Alisher Navoiyning barcha asarlarini o‘rganish uni yod bilish har bir inson uchun olam-olam mano kasb etadi. Buyuk bobomizning bizga qoldirgan meroslari biz yosh avlod uchun qimmatli manba hisoblanadi. Uni har bir yosh avlod o‘rganib nafaqat o‘rganib, balkim kelgusi avlodga ham yetkazib berishda o‘z hissasini qo‘shish lozim deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-т. – Тошкент: Фан, 2001.

2. Адабиёт энциклопедияси: атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар. / Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. – 664 б.

POETIK NUTQNING YETAKCHI XUSUSIYATLARI

Nigora Xayitaliyeva
O‘zMTRK xodimi, jurnalist

Annotatsiya. *Ushbu maqolada poetik nutqning yetakchi xususiyatlarining uyg‘unlashuvi borasida so‘z boradi. Ular tahlilga tortilib, uyg‘unlashuv xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar. *Poetik nutq, mumtoz an’ana, zamonaviy satira, bolalar adabiyotida axloqiylik so‘qmoqlari, uyg‘unlashuv xususiyatlari.*

Hozirgi zamon o‘zbek lirikasida poetik nutq va individual uslubning o‘ziga xos jihatlari ko‘zga tashlanadi. Bu masalani maxsus o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligining diqqat markazida turgan muammolardan biridir.

Poetik nutqning bir necha yetakchi belgilari bo‘lib, ular badiiy tasviriy vositalar va poetik ko‘chimlar orqali ifodalanadi. Bu o‘rinda e’tiboringizni poetik nutqning yetakchi belgilarini o‘zbek shoirlari ijodi misolida talqinga tortamiz. Poetik nutqning ilk belgisi lakonizim xususiyatiga egaligidir. Lakonizmda “fikrni qisqa va yorqin ifoda eta bilish mahorati mavjud”[66]. Bu qisqa va yorqin ifodada keraksiz bitta ham so‘z bo‘lmaydi, aksincha, tekstdan bir so‘zni olib tashlash mazmunga zarar yetkazadi. Shu ma’noda lakonizm mazmunni qisqa va yorqin ifodalashdir[67].

H. Xudoyberdievaning ushbu she’riga diqqatingizni tortamiz:

Xalqim deyman, ruhim tushib,
Kimlar ko‘ngling to‘q qildilar.
Ming so‘qiring til topishib,
Bir uyg‘og‘ing yo‘q qildilar[68].

Bu she’rdan biror bir so‘zni almashtirib bo‘lmaydi. Agar so‘zni olsak, mazmun buziladi. Ayni paytda, she’r qisqa so‘zlardan tashkil topgan, ularning ko‘pi bir o‘zakli so‘zlar. Bu shoirning mahoratidan dalolatdir.

Yoki:

[66] Султон И. Адабиёт назарияси.-Т.: Ўқитувчи. – Б. 212.
[67] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.162.
[68] Худойбердиева Ҳ. Сайланма.–Т.: Шарқ. 2000. – Б.398.

Yulduzlar oyga qaram,
O‘q asli yoyga qaram,
Qarqarali humoy ham
Boshqa humoyga qaram.
...Qon tomsa-da yaramdan
Sizga qalqon, qaramman.
Sizni-ku bilolmadim,
Yor, men sizga qaramman.

Lakonizm – qisqalik, lo‘ndalik, demakdir. Unda fikrning ixchamligi, so‘zning o‘ziga serma’noligiga singib ketadi. Bu haqida professor To‘xta Boboev ta’kidlashicha, lakonizm adabiy asar tilini xarakterlovchi muhim xususiyatdir[69].

She’rda “qaram” so‘zi ko‘p takrorlanadi va u she’rdagi so‘zlarning nisbatan ko‘p foizini tashkil etadi. Lekin unda biz uchun monelik tug‘diradigan takror yo‘q. Bu so‘zga ko‘ra, “Borliqda barcha narsa o‘zaro qaram(bog‘liq).Shu jumladan,oshiq ma’shuqqa sadoqatli, qaram(“Qon tomsa-da yaramdan”), uning qalbini ishq yaralagan”. H.Xudoyberdieva she’riyatida lakonizmning yaxshi namunalari uchraydi:

Kelinni ko‘rgan hamon
Oh tortmagil,onajon,
O‘zi dardkash qalbingga
Yuk ortmagil,onajon[70].

Lakonizm ushbu satrlarda chiroyli ifoda etilgan. Biz unda “onaning dardkash ekanligini va ustiga ustak, rangpar kelinini ko‘rganida yana oh tortishini” anglaymiz.Shoirada fikrni interperitatsiya qilib uzatishdek lakonizm bor:

O‘g‘ling, kelining haqqi
Visol bo‘lib yonurman.
Qalbingda bor dog‘ingni-

[69] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.- Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 162.

[70] Ҳожиева.О. Мушфиқ она.–Т.: Шарқ, 1992.– Б. 4.

Orom bo‘lib olurman[71].

Bu kabi she’rlarda lakonistik syujet bor. Bunda she’rlar faqat fikrning qisqa va yorqin ifodasiniga emas, muayyan voqelikni ham tasvirlaydi:

Uchqur tulpor kishnab,
Safar tobin oldi yor.
Tulpor jilovin ushlab,
So‘zlar kelinchak dildor[72].

Ayni shu satrlar bilan birga ko‘z oldingizda syujet namoyon bo‘ladi. Shoira lakonizm vositasida mana shunday tasvirlarni o‘ziga xos mahorat bilan ifodalaydi. Bu hol shoiraning individual uslubini ko‘rsatadi.

Lakonizmga boy she’rlar Z.Mo‘minova she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri:

Ostonamda yig‘layotir kuz,
Ostonamda gangiydi shamol.
Ostonamdan olislagan iz-
Ostonamda og‘ir bir savol.
Men barini tushundim nogoh,
Xazonlarni yuzga bosib jim.
Ostonamda men qilgan gunoh-
Yolvorishni bilmaganlarim.
Xazonlarni yuzga bosib jim.
Ostonamda men qilgan gunoh-
Yolvorishni bilmaganligim[73].

Bu o‘rindagi “ostonam” so‘zining ko‘p ishlatilishi va takrorlanishi ma’noni kuchaytirgan. Fikrni ifodalashning yorqin suyanchig‘i bo‘lib kelgan. “Kuz osmonda yig‘laydi, shamol ostonada, iz ostonada. Lekin bular og‘ir bir savolni qo‘yadi. Bu savol – yetuk Shaxsning nega yolvorishini bilmasligi?”

[71] Мўминова З. Ёнаётган аёл.-Т.:Адабиёт ва санъат .1992. –Б.-4.
[72] Мўминова З. Ёнаётган аёл.-Т.:Адабиёт ва санъат .1992. –Б.-7.
[73]Мўминова З. Ёнаётган аёл.-Т.:Адабиёт ва санъат .1992.-Б.-100.

U yetuk bo‘lganligi uchun ham yolvorishni bilmaydi. Uning yetukligiga dalil she’rda bor: “u qayg‘ulardan qo‘rqmaydi (“kuz”), davr murakkabligidan cho‘chimaydi (“shamol”) va u o‘z yo‘liga ega (“iz”). Bunday fikrlarni qisqa va nozik so‘zlarda ifoda eta olish shoiramiz mahoratlaridan biri.

Ola qovun pishibdi,
Jo‘yasiga tushibdi.
Esizgina dugonam,
Toshkanlarga tushibdi[74].

Lakonizmda chuqur ma’nolarni berish imkoniyati bo‘ladi. Ushbu she’rda shuni ko‘ramiz. “Ola qovunning pishishi” bu qizchaning voyaga yetgani, qovunning “jo‘yaga tushishi” qizning “uzoqlarga (Toshkentga) kelin bo‘lib tushishi” ga ishora qiladi. Shu qisqa satrlarda shoirimiz yaxshi fikrlarni tasvirlay olgan.

Lakonizm faqat poetik nutqqa xos xarakterli xususiyatdir. Ba’zan nasriy asarlarda ham lakonizm uchraydi. Lekin u lirikadagi singari yorqin chaqnamaydi.

Poetik nutqning yetakchi belgilaridan biri mubolag‘adir. Mubolag‘ada biror hodisa, voqea, holat yoki xususiyat bo‘rttirib tasvirlanadi. Shoira H.Xudoyberdieva Inson haqidagi bir she’rida yozadi:

Bir-birini selu, toshqin qo‘llaydi,
Qayda bo‘lsa yetib, shoshqin qo‘llaydi.
Bir-birini bo‘ri, qashqir qo‘llaydi,
Siz uni sinov, muhlatga bermang!

Ko‘pdir zamonlarning qimor o‘yini,
Qirqtadir odamning eni-bo‘yini-
Qo‘lingizdan kelsa ko‘ring to‘yini,
Uni har qanday dor, xilqatga bermang![2]

“Selu, toshqindek qo‘llash”, “bo‘ri bo‘lish”, “qimor o‘yin”, “qirqtadir odamning eni-bo‘yi” – bular mubolag‘adir. Bu bilan Inson xarakteri juda chuqur va

[74] Мўминова З. Ёнаётган аёл.-Т.:Адабиёт ва санъат .1992.-Б-105-106.
[2] Худойбердиева Ҳ. Сайланма.–Т.: Шарқ. 2000. –Б.–441.

ma’noli tarzda ochilgan. Agar shunday mubolag‘a qo‘llanilmasa, she’rning mazmuni o‘quvchiga sirli bo‘lib qolar edi.

O.Hojieva she’rlarida mubolag‘aning yanada go‘zal namunalari bor.

Lirika bog‘ining atrin shamoli
Bir –bir varaqladi ko‘ngil daftarin,
Yorqin ohanglarda izladi tole
Mening baxshi fe’lli sevgi kaptarim.
Sipo bo‘lib qoldi kuylari asta
Ovozi tolguncha sayramas endi.
qog‘ozu-qalamga bo‘lar-bo‘lmasa
Sirlarin oshkor aylamas endi[3.]

Bu o‘rinda “lirika bog‘i”, “atir shamoli” , “baxshi fe’l -atvor” kabilar o‘xshatishdir. Shoira bular yordamida she’riyatning xarakterli xususiyatlari, holatlari va ahamiyati haqida so‘zlaydi. Birgina “baxshi fe’l -atvor” mubolag‘ali o‘xshatishini olaylik. Ijodkor teran fikrlar, g‘oyalar va maqsadlarni so‘zlaydi. Lekin, shoira uning fe’l –atvorining baxshi, ya’ni kuylovchilik, devonalik xususiyatini ta’kidlab ko‘rsatadi. Bunda ijodkorning “baxshi fe’l - atvorli”gi ijobiy ma’noda kelgan bo‘lib, yaxshi ma’nodagi dilxushlik, dilkashlik uqtirilgan. Haqiqatdan ham ijodkorlar ochiq ko‘ngilliligi, bag‘rikengligi bilan o‘zgalardan ajralib turadi.

Z.Mo‘minova esa mubolag‘ani ko‘proq xalq qo‘shiqlaridan oladi:

Hoy oq ilon, oppoq ilon
Bu yo‘ldan yig‘lab qaytdim.
Tushlar ko‘rdim men yomon,
Tushimni suvga aytdim.
Baridan to‘ygan jonday
Tonglar tushlarim oqdi.
Suvga tashlangan nonday
Aqlu hushlarim oqdi[1.]

[3] Ҳожиева.О. Мушфиқ она.–Т.: Шарқ.1992.–Б.–127.

“Oq ilon”, “yomon tush”, “jondan to‘yish”, “tushlarning oqishi”, “aqlu hush oqishi” mubolag‘alari vositasida Oshiqning (lirik qahramonning) holati yaqqol chizilgan. Uning orzulari armonga aylanayotganligi tasvirlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mubolag‘ali tasvir, asosan,ikki tamoyilga(harakat va holatni bo‘rttirishga qaratilgan) ko‘ra asoslangan bo‘ladi. Bunda belgi va xususiyatlarni kuchaytirishga xizmat qiladigan mubolag‘a zamirida tashbihiy bog‘lanish bo‘ladi. Mubolaha tabiatan adabiy janrlarga bog‘liqdir.[75]

Nasriy asarda mubolag‘a personajlar tilida ham qo‘llaniladi. Lekin lirikada (epik she’riyatidan tashqari) mubolag‘a faqat muallif tilida qo‘llaniladi. Shunda ham u qisqa va yorqin ifodalanadi. Lirikaning tabiati shunday. Muallifning mahorati mubolag‘ani topa bilish va o‘z o‘rnida qo‘llay olishda ko‘rinadi. Bu uch shoiramizda bunday mahorat bor. Ular qo‘llagan mubolag‘alar o‘rinli va ishonchli chiqqan. Poetik nutqning yetakchi belgilaridan biri leksik boylikdir. Xalqning boy tilidan unumli foydalanish ijodkor mahoratini belgilovchi xususiyatlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.: “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”, –T: 2018.

2.Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2006. – 8 дек.

3. Ҳовли тўла болалар. Шеърлар ва эртаклар. – Тошкент: Юлдузча, 1988.

4.Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.

5.Қуронов Д., Мамажонов З., Шералийева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

[1] Мўминова З. Ёнаётган аёл.-Т.:Адабиёт ва санъат .1992.–Б–90.

[75] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.: Ўзбекистон, 2002.-Б.-342.

CHO‘LPON SAFARNOMALARIDA LIRO-EPIK TASVIR USULI

Sevinchoy Yoqubova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
sevinchoy.yakubova@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Cho‘lponning “Yo‘l esdaligi” safarnomasi o‘rganilgan. Unda tadqiqotchi safarnomada aks etgan ruhiy-psixologik jarayonlarning badiiy ifodasini tahlil etgan. Cho‘lponning safarnoma janri taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida muayyan umumlashmalar chiqarilgan.*

Abstract: *In this paper we investigate the story Chulpan "Yo‘l esdaligi" ["Remembering the journey"] to investigate the emotional experience of the author reflected in the story. About Bobschetlen certain conclusions about the contribution of Chulpan to the development of the genre of travel.*

Kalit so‘zlar: *safarnoma, janr, publitsistika, kompozitsiya, ruhiy kechinma, nasr va nazm mutanosibligi, liro-epik ifoda, oshiq, ma’shuqa ijodiy meros, xranatop*

Key words: *travel , genre, journalism, composition, emotional experience , the proportion of prose and posture, lyrical epic expression, enamored, beloved, creative heritage , keeper.*

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon shoir, nosir, tarjimon va publitsist sifatida o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Uning nasriy va publitsistik asarlarida ham tuyg‘u va kechinmalar tasviriga alohida e’tibor qaratiladi. Bu jihatdan nosirning safarnomalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Safarnoma Cho‘lpon yoqtirgan janrlardan biri edi. Uning ijodiy merosida yo‘l xotiralari janriga mansub “Vayronalar orasida”, “Chimkent xatlari” kabi publitsistik asarlar avjudligi fikrimizni tasdiqlaydi. Shunday asarlardan biri arxitektonik jihatdan sakkiz bo‘limdan iborat “Yo‘l esdaligi” safarnomasi bo‘lib, mazkur asar ma’rifiy qimmat kasb etibgina qolmay, tuyg‘u va kechinmalarga yo‘g‘irilgani bois, kitobxonni ijodkorning muayyan davrdagi ruhiy kechinmalaridan ham ogoh etadi. Nasr va nazm o‘zaro mutanosib tarzda uyg‘unlashgani, adib axborot-mulohazalari – ijodkor samimiy dardlari liro-epik yo‘sinda ifodalangani bilan xarakterlanadi.

Nosir totli umidlar bilan safarga otlansa-da, kuzatib qo‘yuvchi samimiy va mehribon kishisi yo‘q. Eng yaqin deb bilgan do‘stlari ham sovuqqani xayrlashishgan. Shu bois, Cho‘lpon g‘oyat o‘ksik hamda tushkun ruhiy holat, ezg‘in kayfiyat bilan yo‘lga chiqadi. Garchan bunday kayfiyatning paydo bo‘lishi bir

jihatdan o‘rgangan makondan ayrilish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, aslida anchadan beri Cho‘lpon o‘zini yolg‘iz, toliqqan sezardi. Bu holni ifoda etarkan: “Ko‘nglimni yolg‘izlik, yotliq tuyg‘usi aylantirib olg‘on edi”[3.321], deb yozadi adib.

U “keng ko‘kning yumshoq ko‘rpalari ustida ag‘anag‘on” kezlar, ya’ni borliqqa singib ketgulik darajada xayolotning go‘zal quchog‘ida orom olishni xush ko‘rardi. Chunki, umidsizlikdan qiynalgan, ezilgan lahzalarda xayoliy go‘zalliklar quchog‘idan yupanch topardi. Zotan nosir xayolangina ko‘ngil talpinishlariga hamdam bo‘lib, yolg‘izlik va yotlik tuyg‘ulari iskanjasidan qutula olardi.

Shuning uchun ham u tushgan avtoulov olachuq va kapalar oralab qorong‘ilik qa’riga singib borarkan, adib zulmat vahimasini quvishga urinib, yiroq-yiroqlarda miltillagan chiroqlarga termuladi. Ko‘ngilning olis puchmoqlarida porlagan umid va yo‘qsillar nochor kulbasida yiltillagan chiroqlar o‘rtasida ajib bir o‘xshashlikni his etadi. Ammo tobora quyuqlashib borayotgan qorong‘ilik dahshati ko‘ngilni xayoliy yuksakliklardan yer bag‘riga tushirar darajada kuchayadi. Faqat ma’shuqa yodigina fikr va xayolni yig‘ishga, yupanch topishga ko‘maklashadi. Bu o‘rindagi ma’shuqa kim? Cho‘lpon “sevgimning ismi” deb atayotgan zot har bir mo‘min banda dilidagi Allohmi?

Safarning ikkinchi kuni. Erta tong. Ko‘kda na qizdirg‘uvchi quyosh, na qora bulutlar bor. Chuchmal bir vaziyat. Ammo subhidamda sabo taratgan gul islaridan uyg‘ongan Cho‘lponni tungi telbavor kayfiyat-holat tark etgan. U atrofni xayol aralash loqaydgina kuzatib borarkan, mashina bepoyon kengliklar, maysazor dalalar ichra yastangan qip-qizil lolaqizg‘aldoqlar dengizi oralab o‘tadi. U o‘zini go‘yo xayol yetmas darajadagi kenglik va hayotbaxsh qizillikka yo‘g‘rilgan nafislik bag‘riga singib ketganday sezadi. Lolalardan yasalgan dengiz butun borlig‘ini chulg‘ab tortqilaganida tabiatning bu ehsonini ezgulik nishonasi deb bilgan Cho‘lponning oppoq va pokiza umidlari yana jonlanadi:

“– Oh, agar bir bulbul bo‘lsa edi-da, gul tengizining qizil to‘lqunlariga qo‘nub ishqimning og‘ir bir nag‘masini sayrasa edi” [3.323],- deya o‘tli dil iztiroblarini izhor etadi. Cho‘lpon ishqi yashnab turgan gullar bilan bog‘liq ekani uning

hayotbaxshligini ko‘rsatadi. Ammo nechun u og‘ir nag‘malarni o‘z bag‘riga olgan? Nechun uni baralla oshkor etmoqlik dushvor? Azaldan o‘tli oh chekmoq oshiqlar shevasi ekani boismi?

Nazarimizda, yozuvchi Vatan adirlariyu bog‘larida turfa gullarning go‘zal dengizlari hamisha nafis chayqalib turishi, sarrin sabolar gul atrini taratishini astoydil tilagan, ammo ayni damda ko‘ngli allanechuk og‘ir iztiroblardan o‘rtangan. Nihoyat, Cho‘lpon Jizzax shahridan chiqib, tog‘ tizmalari oralab borishayotgani haqida axborot beradi. May oyining oxirgi kunlari ekani bois, tog‘lar to‘q ko‘k tusda. Biroq Jizzax shahrini nosir: “Vafo ko‘rmagan oshiqning ko‘ngliday buzg‘unliqqa uchrag‘on”,- deya ta’riflaydi.

Bizningcha, adib bu o‘rinda Buxoro amirining Sirdaryo vodiysidagi so‘nggi tayanchi bo‘lgan Jizzax mudofaasi [1866 – 1868-yillar]da Angliya hukumati va Turkiya sultoni yordam berishni rad etgani, Qo‘qon hukmdori Xudoyorxon o‘z homiysi Buxoro amiriga nisbatan xoinona ish tutganining fojiali oqibatlarini nazarda tutadi. Ichki nizolardan qutula olmagan, umumiy dushmanga qarshi ittifoq bo‘lolmagan o‘zbek xonlari, shaxsiy xusumati yurt manfaatidan ustun kelib boshi qovushmagan bek va sardorlardan noliydi. Vatan taqdiri va xalq irodasining ifodachisi sifatida talon-toroj qilingan Jizzax, muqaddas yurt ozodligi uchun hayot-mamot jangida qurbon bo‘lgan mard va jasur jangchilar taqdiriga achinish tuyg‘ularini izhor etadi.

Cho‘lpon olislardan chiroylik ko‘ringan tog‘lar yaqinlashgan sari tobora salobatli va serviqor bo‘la borishini “sevgim kabi chiroylik”, “vahmimday o‘sgan” deya ta’riflaydi. Bu bejiz emasdi. Cho‘lpon bizni o‘z dardlarini uning ruhiyatiga yaqinlashibgina tushunish mumkinligi va bu jarayonda qo‘rqinch tuyg‘usi o‘sganiga e’tibor qaratishga undaydi.

Cho‘lpon o‘z xayollarini real haqiqatlar to‘sganini anglagan. U tog‘ning yuksalishini to‘sgan kuch nima ekanini bilolmay o‘rtanadi. Bizningcha, ayni holga alohida e’tibor berish lozim. Tog‘ning yuksalishiga ko‘nglidan javob topolmay, so‘rog‘iga javobni tabiatdan izlagan Cho‘lpon intuitiv tarzda bo‘lsa-da, chekli

ob’ektlarni bilishga, shu orqali cheksizlik sirlarini anglashga intilgan. Chunki xayoliy yuksakliklarga ko‘tarilmoqni istab, ko‘zni o‘ynatar qadar yuksalgach, tog‘lar ham o‘sishdan to‘xtaydi.

Darhaqiqat, aslida, har narsa fazo va vaqtda o‘z ibtido va intihosi, ya’ni aniq chegaralariga ega. Cho‘lponning ayni holat-kechinmalari ham, uni qiynagan yechimi mushkul dardlar ham intihosiga ega. Harakat va o‘zgarish mavjud ekan, narsalar kabi hodisa va jarayonlar ham cheklidir. Olamning fazo va vaqtda benihoyaligi aslida, uning ziddiyatdan iboratligi bilan bog‘liq. Demak, bizni qurshab olgan dunyo bilan tinimsiz aloqada bo‘lgan barcha narsa va hodisalar cheklilik va cheksizlik birligidan iborat.

Cho‘lpon: “Tog‘larning eng boshig‘a olbosti o‘lturushidek bir o‘lturush bilan qup-quruq qora toshlar o‘lturg‘onlar” [3.324], degan ta’rifni keltiradi. tog‘ U cho‘qqilardagi qop-qora bahaybat quruq toshni eng yuzi qora alvastiga, tegrasidagi mayda toshchalarni esa uning qismlariga o‘xshatadi: Chunki, bu maskan qanotlari kuchli, ko‘zlari o‘tkir, yirtqich lochinlar makoni. Bu o‘rinda nosir ramziy usulda shahid va qurbon istab qonsiragan davrga, uning jallodlariga ishora qilmoqda. Agar biz ana shu ishoraviylikni anglasak, Cho‘lponning qo‘rqinchdan titragan ko‘nglini tushunishimiz mumkin. Zotan, “go‘zal qush” endilikda xayoliy yuksakliklarda bo‘lmasa ham sorlar, cho‘zaxotlar va lochinlar galasidan pastroqda ekani, hamon gurullab uchishi Cho‘lpon umidlarining butkul so‘nmaganini ko‘rsatadi va kitobxon ko‘ngliga yupanch bag‘ishlaydi.

Tog‘lar yonidan o‘tib borisharkan, ko‘katlar orasidan vizillab uchib chiqqan bir kapalak uchib kelib mashina oynasi yonidagi ip ustiga qo‘nadi. Ana shu oddiygina hodisa Cho‘lpon ruhiyatiga nihoyatda kuchli ta’sir qiladi. Chunki u kapalakni g‘oyatda go‘zalligi uchungina emas, balki gullar bilan tillashadigan, ularning yuzlaridan bo‘sa oladigan erkin va ozod mavjudot ekani uchun ham sevadi. Nosirning nazdida kapalak ham o‘zi singari sevgi dardiga yo‘liqqan. Demak, u ikki dardli dilni birlashtirmoq tilagida uchib kelgan. Cho‘lponning xayolida kapalak go‘yo tillangan va sayraganday, nihoyatda o‘ynoqi ertak so‘ylaganday tuyuladi.

Go‘yo u gullar bilan o‘pishganidan hikoya qilardi. Beixtiyor tarzda Cho‘lpon xayollari ertak sehrida tog‘ cho‘qqilaridan tola sari inadi. Endi kapalak va shoir ruhi birlashib, erkin parvoz eta boshlaydi. Totli tuyg‘ular yetovidagi Cho‘lpon ayni lahzalarda ijodning shoirona beg‘ubor nash’asi bilan kapalakka qarata: “Qurboning bo‘lay, Kel, bir o‘payin.”, - deya xitob qiladi. U hamon ilhom lahzalari qo‘ynida ekan, o‘z “qizil lola”si yuzlariga yumshoq irinlarini bosmoqni tilaydi. Sevimli makonida erkidan mahrum bir oshiq sifatida buning imkonsizligini anglab, kapalakdan uyalib bosh egadi. Binobarin, xijolatdan boshi egilgan oshiq ruhiyati yana mahzun va muztar holat kasb etadi.

Quyosh o‘z yotog‘iga bosh urgunicha yo‘l bosgan Cho‘lponga borliq faqat oshiq va ma’shuqa munosabatlaridan iboratday tuyuladi. Jumladan, Quyosh ulug‘ va haybatli tog‘larning sevgan go‘zali. Bu mahbubaning jilmayishiga bardoshi yetmagan tog‘lar ko‘z yosh to‘kadi – eriydi. Natijada pastda daryo paydo bo‘ladi. Uning Zarafshon atalishi ham zinhor bejiz emas. “Zarafshon” so‘zi aslida tog‘ – oshiqning ko‘z yoshlari ya’ni “zar”ni “afshon” etguvchi – sochuvchi demakdir. Ulkan daryoni paydo etgan “ko‘z yoshlari” ham sevimli mahbuba – dengizga intilgan oshiqlardir. Haybatli ummon quchog‘iga yetolgan daryo suvlari baxtli, yerga singib yo‘qlikka yuz tutganlari esa baxtsizdir. Zotan, oshiq ahli azal-azaldan baxtli yo baxtsiz bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, Cho‘lponning nazdida yuksak tog‘lar va sharqiroq daryolar oshiq– quyosh ishq. Qorlar va suvlar oshiq – dengiz ishq. Chunki yig‘lamoq, ezilmoq, oqmoq, chopmoq, o‘zini halokat quchog‘iga otmoq, gohida tilakka yetmoq, gohida esa yo‘qlik sahrosida adashmoq oshiqlarga, mag‘rurlik, kulmoq va qochmoq esa mashuqalarga xosdir. Demak, uning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lgan erka va o‘ynoqi Zarafshon ham ne-ne to‘siqlarni pisand qilmay dengiz sari shoshadi. Maqsadi aniq bo‘lgan daryoning bu harakatida: “Ko‘p tanlarni ag‘dararlik ulug‘ kuch” mujassam.

Shubhasiz, bu o‘rinda Cho‘lpon qochgan ma’shuqasini quvib borayotgan oshiq sifatida ezgu umidlarining ushalishi yoxud shu yo‘lda yo‘qlik bag‘riga singib

bitishini teran anglaganligiga ishora qilmoqda. Ayni paytda u butun olamni doimiy harakat va o‘zgarishda deb biladi. Harakat tushunchasini nafaqat borliq, balki kishilik jamiyati va inson qalbida sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarish va jarayonlar bilan uzviy bog‘laydi. Har qanday harakatning manbaini borliqning o‘zidan axtaradi. Harakat mutlaqligi umumiy xususiyat ekanligini tushunish bilan cheklanmay, uning nisbiyligini konkret shakllarda namoyon bo‘lishi bilan izohlaydi. Harakat shakllari o‘rtasida qat’iy ketma-ketlik [subordinatsiya] bog‘liqligi mavjudligini dialektik aloqadorlikda tushunadi.

Demak, tabiat hodisalari, yolg‘izlik, ijtimoiy erkinlikka to‘siq bo‘layotgan tarixiy-siyosiy vaziyat bilan yo‘lsizlikdan qiynalayotgan nosir ruhiyatining o‘zaro ta’siri sabab Cho‘lpon kayfiyat-holatlari tinimsiz o‘zgarib turadi. Chunki uning maqsadi aniq. Tafakkuri esa yurt taqdiri, millat va uning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy munosabatlar bilan band. U adolatli asosga qurilgan ozod jamiyat yaratish orzusini ro‘yobga chiqarish yo‘lida tinimsiz harakat va izlanishda. Garchan vahmi nechog‘lik o‘sgan bo‘lmasin, sevgisi chiroyli ekanligi bois qalbida “gurillagan” qushning “ko‘p tanlarni ag‘dararlik” Zarafshonning qudrati yanglig‘ yengilmas va ulug‘ kuch mujassam.

Yiroq yo‘ldan kelgan sayyoh tili bilan oshkor etolmagan dardlarini komil ishonch bilan: “Menim qalamim aytkandir... O‘qung!... Menim dostonlarimni, “Oltun daftar”ni”, - deyishi bejiz emas. Aftidan, adib asar ichki tabiatiga ko‘ra voqeaband syujetga ega emasligi, unda lirik unsurlar bisyorligi, voqelik lirik sub’ekt ruhiyati orqali ifodalanishi dan kelib chiqib, asar janrini nasriy doston deb belgilagan ko‘rinadi. Haqiqatan ham, unda sayyoh ruhiyatidagi his-tuyg‘ular va o‘y-fikrlar kurashi yetakchilik qiladi. Serqatlam ramziy-majoziy ifodaga keng o‘rin beriladi va lirik-romantik ruh diqqatni tortadi. Bularning barchasi, asarda Cho‘lpon nasrida aksariyat hollarda kuzatilgan lirik tafakkur, shoirona noziklik ancha qabariq tarzda namoyon bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan, adabiyotshunosligimizda “Yo‘l esdaligi” ning janrini shartli tarzda bo‘lsa-da “safarnoma” deb atash shakllangan.

Agar biz uning “Oltun daftar”ni ishonib topshirayotgan holatiga diqqat qilsak: “Qaltirag‘on barmoqlar, qo‘llar”ni ko‘ramiz. O‘z istak-tilaklarini anglatmoq niyatidagi nosir zohiran qaralganda “Yo‘l esdaligi” deb oddiygina nomlangan sakkiz bo‘limdan iborat o‘ziga xos mozaikaning so‘nggi fasliga nechun “Chin birlik” deb nom qo‘ydi ekan. Bizningcha, shoir qalami aytgan haqiqatlarni anglagan kitobxongina Cho‘lpon bilan ma’naviy- ruhiy butunlikka erishadi. Ya’ni chin birlik holati sodir bo‘ladi.

Demak, Cho‘lpon o‘z yolg‘izligini millatdoshlari qalbiga el-yurt ishqini joylab bartaraf qilmoqdek nekbin umid va ishonch bilan asarga so‘nggi nuqta qo‘ygan. Shundan keyingina uning qalbi shaffof nurlarga to‘lgan, bardamlik va baquvvatlik kasb etgan. Uni safarga chiqqan paytdagi o‘ksik, tushkun ruhiy holat va ezg‘in kayfiyat butkul tark etgan. Zotan, adib safarnomalari tuyg‘u va kechinmalarga yo‘g‘irilgani bois, ijodkorning muayyan paytdagi ruhiy kechinmalaridan xabardor bo‘lamiz. Adib safarnomalarida nasr va nazm o‘zaro uyg‘unligi, ijodkor dard-kechinmalari liro-epik tarzda tasvirlangani ham alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Cho‘lpon. – Toshkent, “Fan”, 1991.
2. Tuychieva Sh. Ijodkor dunyoqarashi va badiiy uslub. – T.: Akademiya, 2009.
3. Cho‘lpon. Asarlar. 3 jildlik. 2- jild. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1994.
4. Sharafiddinov O. Cho‘lpon. – Toshkent, Cho‘lpon, 1991.
5. Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. – Toshkent, Yozuvchi, 1994.
6. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004.

ADABIYOT O‘QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIGA METODIK YONDASHUV

Qozoqboy Yo‘ldosh
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori,
pedagogika fanlari doktori

Yangi o‘zbek adabiyotining eng yorqin siymolaridan biri Abdulla Qodiriyning hayot va ijod yo‘li hamda “O‘tkan kunlar” romanidan olingan parchani o‘rgatishga umumta'lim maktablarining 10-sinf “Adabiyot” dasturida **to‘rt soat** vaqt ajratish ko‘zda tutilgan.

Birinchi soatda adib shaxsiyatiga xos xususiyatlarni ko‘rsatadigan, yozuvchining romandagi favqulodda yuksak insoniy fazilatlarga ega qahramonlar ruhiyatini tushunishga kalit bo‘ladigan ma'naviy sifatlariga to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun birinchi saboqning **tarbiyaviy maqsadi** qilib, o‘quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarga xayrixohlik tuyg‘usini shakllantirishni, **ta'limiy maqsad** sifatida o‘quvchilarni adibning hayot va ijod yo‘li hamda shaxslik sifatlari bilan tanishtirishni, **rivojlantirish maqsadi** tarzida esa o‘spirinlarda halollik, mardlik, jasorat, oriyatlilik singari yuksak insoniy fazilatlarni tarkib topdirishni belgilash ma'qul bo‘ladi. Shunda o‘quvchilar Qodiriyning adib sifatidagi mahoratinigina emas, balki odam sifatidagi jasoratini, mard va tantiligini ham anglab yetishadi. 1926-yilda Abdulla Qodiriy ustidan qo‘zg‘atilgan birinchi suddagi: “***Ko‘ngilda shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmog‘on, sodda, go‘l, vijdonlik yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tanqisroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir”***, – deb aytgan so‘zlari yozuvchining qanday odamligini aniq ko‘rsatishi jihatidan xarakterlidir. Adibning alam-o‘kinchlarga to‘la bu nidosi uni shu ko‘yga solgan kimsalarning mudhish qilmishlari ustidan chiqarilgan aybnoma bo‘lish bilan birga uning butun shaxs ekaniga dalolat hamdir.

Qodiriy tarjimayi holi va shaxsiyati haqida gapirganda, o‘z davrida yozuvchining nafaqat O‘zbekiston, balki boshqa turkiy qardoshlar orasida ham g‘oyat mashhur ekanligini tasdiqlovchi bir faktga o‘quvchilar e'tibori tortilsa, ma'qul bo‘ladi. Adib 1936-yilning avgustida bir yubiley munosabati bilan Tataristonga boradi. Yozuvchini Tatariston o‘lkasining Archa tumanidagi Kachi qishlog‘iga taklif qilishadi va adib u yerda ikki hafta mehmon bo‘ladi. Qodiriy “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1936-yil 24-dekabr sonida “Kachida ikki hafta” degan safarnoma maqola ham chop ettiradi. Bir vaqtlar Turkiston madrasalarining birini bitirgan, o‘zbek tilini yaxshi biladigan kachilik bir kishi “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”ni o‘qigan, muallifga ixlosi cheksiz bo‘lib, farzandlari ham Qodiriyning muxlislaridan ekan. Ayniqsa, kenja farzandi erkatoy Amina adibning astoydil muxlisi bo‘lib chiqadi. Ikki haftalik istirohat va mehmondorchilik davomida yosh, o‘qimishli va suluv qiz mashhur yozuvchining oldiga deyarli har kuni kelib, u bilan suhbatlar qiladi. Nihoyat, kunlarning birida uning otasi yozuvchini uyiga qo‘noqqa chaqiradi va mehmondorchilik so‘ngida Aminani Qodiriy huzuriga chorlab, qizining adibga ko‘ngil qo‘yganini, agar yozuvchi ma'qul ko‘rsa, qizi unga turmushga chiqmoqchi ekanini bildiradi. Bir necha kunlik suhbatlar davomida adibda ham qizga nisbatan qiziqish uyg‘ongan ekan, shekilli, u yo‘q demaydi. Mehmondorchilik so‘ngida nikoh o‘qitilib, Toshkentga ikki kishi bo‘lib qaytishadi. Kachilik Amina yozuvchi qamalganiga qadar ularning oilasida yashaydi. So‘ng akalari uni yurtiga olib ketishadi. Bu fakt Qodiriy shaxsining turkiy xalqlar orasida nechog‘liq mashhur va ardoqli ekanini ko‘rsatishi jihatidan ahamiyatlidir.

Ijodini ko‘plar qatori she'rlar bilan boshlagan Abdulla Qodiriy tezda kichik nasr – hikoyachilikka o‘tib ketdi. U dunyo e'tirof etgan ma'nodagi o‘zbek hikoyachiligining asoschilaridan biridir. O‘quvchilar quyi sinflarda uning “Uloqda“, “Jinlar bazmi” hikoyalari bilan tanishganlar. O‘ninchi sinf o‘quvchilari adibning hikoya borasidagi san'atkorligini kichik nasrga doir bir necha asari bilan tanishish asnosida baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Abdulla Qodiriyning e'tiborga loyiq hikoyalaridan biri 1921-yilda yozilib, “Go‘zal yozg‘ichlar” adabiy almanaxida chop etilgan “**Tinch ish**” asaridir. Bu hikoyaning asosiy qahramoni din peshvosi, ulamolardan. Hikoya ham shunga monand: “***Endi bu zot ham ulamolardan biri edi***” jumlasi bilan boshlanadi. Oldin aytilganidek, ko‘pchilik ulamolar jadidlarni kofir, ularning millatni ozod qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish borasidagi urinishlarini esa, shakkoklik deb, omi xalqni jadidlarga qarshi qo‘zg‘atishga harakat qilishardi. O‘zlarining tinchligi va nafsidan bo‘lak tashvishi bo‘lmagan bunday ulamolar millat kelajagi, yurt mustaqilligi singari tushunchalardan yiroq edilar. Qodiriy hikoyada ana shunday kimsalardan birini fosh etadi. “Tinch ish” hikoyasi yetti bo‘limdan iborat bo‘lib, ular Sharif Oxund hayotining yetti manzarasini ko‘rsatishga bag‘ishlangan, badiiy jihatdan puxta asardir.

“**Kalvak mahzumning xotira daftaridan**“ hikoyasida A.Qodiriyning hikoyachilik mahorati yana ham to‘laroq ko‘rinadi. Unda o‘quvchilar odamning qanchalik murakkab va tushunarsiz, qandayligini oldindan aytish, xatti-harakatlariga qat'iy va o‘zgarmas baho berish mushkul bo‘lgan sirli yaratiq ekanligini ko‘radilar. “Kalvak mahzumning xotira daftaridan” asari 1923–1927- yillar oralig‘ida yozilgan, asar peshma-pesh matbuotda e'lon etilib turgan edi. Bu yillar davomida hayotning o‘zida, qolaversa, Qodiriy dunyoqarashi, qismati, badiiy-estetik tamoyillarida ko‘p o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu hol asarda ham o‘z ifodasini topgan.

Hikoyachining mahorati shundaki, Kalvak mahzum ayrim lavhalarda g‘oyat ovsar, tarbiyasiz, mantiqni tan olmaydigan, oq bilan qoraning farqiga bormaydigan kishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ba'zi lavhalarda esa, sodda, ishonuvchan, oddiy odamlarga yaqin bir diltortar shaxs tarzida gavdalanadi. Adib hajviy qahramon siymosini bir xil qora bo‘yoqda chizmaydi. Maxzum qiyofasi tasvirida bo‘yoqlar xilma-xillashgani sari timsol badiiy joziba, estetik qudrat kasb etib boraveradi. Ayni vaqtda, muallif hikoyada birgina Kalvak obrazi tasviri bilan cheklanib qolmaydi. U davrning, yangi jamiyatning madda bog‘lay boshlagan yaralarini ham hajviy fokusga oladi. Shu tariqa, xalqning jonli hayotidan uzilgan, qoloq, ovsar ruhoniy

ustidan kulgi qo‘zg‘ashga qaratilgan hikoya bora-bora davrning ijtimoiy ziddiyatlari va illatlarini ochib beruvchi asarga aylanadi.

Adibning “**Maskov xatlari**” asari besh maktubdan tashkil topgan. Xatlar yozuvchi Moskvada Valeriy Bryusov nomidagi adabiyot institutida tahsil ko‘rgan paytda yozilib, “Mushtum” jurnalining 1924-yilgi 7-, 8-, 10-, 12-, 18- sonlarida chop etilgan. Bir qator adabiyotshunoslar asarni maqola janriga mansub deyishsa, ayrimlar feleton deb hisoblashadi. Yosh olimlardan ba'zilari esa, “Maskov xatlari”ni hikoya sifatida o‘rganishga moyildir. Negaki, bu asarda maqola yoki feletondagi kabi aniq faktlar tahlili emas, balki xarakterlarning hajviy tasviri yetakchilik qiladi.

Adibning “**Yig‘indi gaplar**” asari milliy adabiyotda insoniy jasoratning namunasi bo‘ldi. Ayni vaqtda, uning hayotida mash'um rol o‘ynadi. Bu asardagi ochiq aytilgan mardona gaplar uchun A.Qodiriy 1926-yilda qamaldi va sud qilindi. Ha, o‘quvchilarga adibning, aynan, oldin qamalib, keyin sud qilingani bildirilishi kerak. Asarda O‘zbekistonda milliy siquv borayotganligi, yurt egalariga nisbatan adolatsizlik qilinib, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishiga bolshovoylar tomonidan imkon berilmayotganligi qattiq tanqid etildi. Muhimi shundaki, A.Qodiriy ro‘y berayotgan holatlar uchun faqat kelgindilarni ayblash bilan kifoyalanmaydi. Balki, birinchi navbatda, bu hol sababini o‘zimizdan qidirishimiz kerak deb biladi: “***Bu o‘lkada nima ko‘b ekan, uxlaydirg‘an burchak va unda o‘mpayib, to‘mpayib uxlag‘uvchi menga o‘xshash ovsarlar! Men senga aytsam, o‘zbekning ishchisi, dehqoni, maorifi, madaniyati, iqtisodi, shaltayi, baltayi, xullas, barchasi ham uxlaydir. Ammo o‘choqboshini xoli topqan olaqarg‘alar bo‘lsa, xo‘bam bilgan noma'qulchiligini qilayapti! Qilaversin, egasiga tovoq, qoshiq kerak bo‘lsa, axir bir kun qatron-patron qilarov, og‘ayni!***” Xatning keyingi qismida bu hol uchun aybdor deb bilgan hukumat rahbarlari: Y.Oxunboboev va A.Ikromovlarni piching bilan tasvirga tortadi.

Yozuvchi roman va qissachilik bobida ham samarali qalam tebratgan. Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani, “Obid ketmon” qissalari milliy adabiyotning taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko‘rsatgan asarlardir.

Adibning xalqimiz o‘tmishidan hikoya qiluvchi “**O‘tkan kunlar**” nomli romanidan olingan parcha “Adabiyot” darsligida bir necha qismga bo‘lib berilgan va barcha qismlar mohiyati qamrab olingan savol-topshiriqlar tuzilgan.

“O‘tkan kunlar”ni muallif 1919-yildan yoza boshlagan. 1922-yil “Inqilob” jurnalida romandan olingan parchalar bosilgan. 1925-yili asarning uch bo‘limi alohida-alohida uch kitob, 1926-yilda roman bitta kitob holida to‘liq bosilib chiqqan. Romanni nafaqat o‘zbek o‘quvchisi, balki turkiy tilda so‘zlashuvchi barcha o‘qimishli kishilar katta quvonch bilan kutib olishdi. Roman qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qildi. Uni boshdan-oyoq yod olganlar ham bo‘ldi. U qisqa fursatda qayta chop etildi va bir necha tillarga tarjima qilindi.

“O‘tkan kunlar” romanining bunchalik mashhur bo‘lishi sababi asardagi badiiy timsollarning o‘ta darajada puxta ishlanganligi, ularning har bir gapi, xatti-harakati, o‘ylari o‘z sa'jiya va tabiatlariga to‘la muvofiq keladigan qilib tasvir etilganidadir. Bu gapni romanning bosh qahramonlari: Otabek va Kumush haqida ham, shuningdek, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Alim, Hasanali, Homid, O‘zbek oyim, Zaynab, Oftobxon, Sodiq, Jannat, Xushro‘ybibi va boshqa timsollar to‘g‘risida ham aytish mumkin. Asarning elaro mashur bo‘lishida uning favqulodda go‘zal va shirali tili ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Romanni o‘rgatishga bag‘ishlangan darsda A.Qodiriyning voqea kechgan muhitni yodda muhrlanib qoladigan tarzda puxta tasvirlashiga o‘quvchilar e'tibori tortiladi. Shunda ham yozuvchining tasvir mahorati haqida tasavvur paydo bo‘ladi, ham timsollarning mohiyati ochiladi. Romandan olingan quyidagi tasvir obrazlarning suratinigina emas, siyratini ham anglatishi jihatdan diqqatga molikdir: *“...**chorxari ayvonning o‘rta bir yerida, ustiga atlas ko‘rpalar yopilg‘an tanchaning to‘rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po‘stin kiyib bir kishi o‘lturadir. Bu kishi... – Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko‘ynak, ustidan xon atlas guppi kiygan, boshig‘a oq dakanani xom tashlag‘an, o‘ttuz besh yoshlar chamaliq go‘zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimliq, eriga itoat, to‘g‘riliq ma'nolari***

tomib turg‘an bu xotin qutidorning rafiqasi – Oftob oyim, ikkinchisi yetmishlardan o‘tkan bir kampir, Oftob oyimning onasi – Oysha bibi”. O‘qituvchi bu tasvirlar orqali yozuvchi faqat axborot beribgina qolmay, obrazlarni o‘qirman ko‘zi oldida gavdalantirib ham qo‘yayotganini o‘spirinlarga anglatishi lozim.

Adib o‘zi sevgan va o‘quvchilarga ham yoqimli qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lgan qahramonlarni shu qadar katta muhabbat va tengsiz mahorat bilan chizadiki, kitobxon beixtiyor yozuvchining ta'siriga berilganini bilmay qoladi. Quyidagi tasvir bu jihatdan xarakterlidir: *“...**uyning to‘riga soling‘an atlas ko‘rpa, par yostiq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg‘oq yotqan bir qizni ko‘ramiz. Uning zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘lturdi. Sariq rupoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib turmoqda edi***”. O‘quvchilar e'tibori yozuvchi qahramonning har bir harakati yo chizgisi tasviriga badiiy yuk orta bilganiga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qodiriy Kumushbibini shunchaki chiroyli debgina qo‘yaqolmaydi, balki qizning qanchalik suluvligini qalamning kuchi bilan jonlantirib, o‘quvchi ko‘ziga ko‘rsatib ham qo‘yadi.

Yozuvchi buning uchun ham Chiqish va ham Botish adabiy arsenalidagi vositalardan unumli foydalanadi. Jumladan, quyidagi tasvirda o‘xshatishni mahorat bilan qo‘llagani ko‘rinadi: *“...**Kumushbibi ariq bo‘yidan bir o‘rinni ko‘zladi-da, sakrab narigi yuziga o‘tdi va cho‘nqaydi. Uning ko‘zlari muloyimg‘ina suv ustiga og‘dilar. Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshg‘ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig‘a yetkanda go‘yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib***

qo‘yar, o‘z ustida o‘lturgan sohiranin[76] sihriga musaxxar[77] bo‘lg‘an kabi tag‘i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag‘ina ko‘prik ostig‘a oqib ketar edi. Ariq suvining nihoyatsiz bu harakatini uzoq ko‘zdan kechirib o‘lturg‘ach, qo‘l uzatib suvdan oldi va yuzini yuvdi. Uning yuzini o‘pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatka kelib chayqaldi, go‘yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi... Ikkinchi, uchunchi qaytalab yuz yuvishda bu fitna tag‘i ham kuchaydi...” O‘qituvchi ayni shunday, ya'ni shiddatli voqealar, qiziqarli sarguzashtlar tasvirlanmagan, ammo adibning mahorati sabab diqqat bilan o‘qilishi kerak bo‘ladigan o‘rinlarga o‘quvchilarning e'tiborini qaratishi joiz.

Adabiyot muallimi “O‘tkan kunlar” romani faqat mahorat nuqtayi nazaridangina emas, balki o‘zbek millatining sha'nini yuksakka ko‘tarish, unda g‘ururlanishga loyiq bir olam fazilatlar borligini tasvirlash jihatidan ham tengsiz qimmatga ega badiiy hodisa ekanini o‘quvchilariga bildirishi zarur. Shundagina o‘spirinlar bu kitobning umrzoqligi sababini ilg‘ashadi. Ayni vaqtda, yozuvchi biror o‘rinda hayot haqiqatiga xiyonat qilmaydi. Millat o‘tmishini ko‘r-ko‘rona ulug‘lash yo‘lidan bormaydi. Bu hol romanning ta'sir kuchini oshiradi, tarixiy vaziyatni, ijtimoiy muhitni, unda tirikchilik o‘tkazayotgan odamlarni konkret tasavvur qilish imkonini beradi. Quyidagi tasvirda Qo‘qon xonligidagi ahvol, umuman, Turkiston xalqlari hayot yo‘sini butun fojiaviy qirralari bilan aks etganligiga o‘quvchilar diqqati yo‘naltirilishi kerak. Unda Toshkentda markaziy hokimiyat hisoblanmish Qo‘qonga qarshi ko‘tarilgan isyonga odamlarning munosabatini aks ettirish orqali mamlakat hamda millatning ijtimoiy-siyosiy holati chizib beriladi: “***Bu voqi'aga hech kim ajabsinmadi va bunda favquloddaliq ko‘rmadi. Xalq bunga haqli edi, chunki, bunday tinchsizliklarni endi ko‘ra-ko‘ra juda ham o‘rganib qolg‘an, bu kun bo‘lmasa ertaga o‘zining botirboshisining, oftobachisining xullas kim bo‘lsa ham beklaridan birining shunday tinchsizlik chiqarishig‘a “mumkin va bo‘ladirg‘an ish” deb qarar edi***”.

Odatda, ko‘pchilikka, ya'ni xalq ommasiga aslo xato qilmaydigan bir ijtimoiy

[76] Sohira – sehrgar qiz.
[77] Musahhar – sehrlangan,tilsim qilingan, yengilgan.

yaratiq tarzida qaraladi. Qodiriy bunday fikr tarziga jiddiy tahrir kiritadi. Yusufbek hojining o‘g‘liga yozgan xati bahonasida foyda-zararning, do‘st-dushmanning farqiga bormaydigan, tafakkuri g‘aflatda bo‘lgani bois aldanishga, yo‘ldan ozdirilishga moyil xalqning qiyofasini shafqatsiz san'atkorlik bilan aks ettiradi: “***Kechagina qonliq qilichini fuqaro ustida yurguzib turg‘an Azizbekka uning tig‘i zulmi bilan qora qonig‘a belanilgan o‘g‘lining, otasining, onasining, og‘asining mazlum gavdasi tuproq ostida hali chirib bitmay turib bu kun xalq yana Azizbekka, o‘sha qonxo‘rg‘a o‘z qoni bilan yamin[78] etdi; Azizbekni to o‘zining bir tomchi qoni qolg‘unchaliq himoya qilmoqqa ond ichdi***”.

Adib teran tarixiy nazarga ega bo‘lgani uchun o‘sha ezilgan, xo‘rlangan, zabun holga tushirilgan vaqtlarda ham o‘zbek xalqining ulug‘ qadriyatlar egasi, buyuk ma'naviy o‘rnaklarga amal qiluvchi qadimiy millat ekanligini qator timsollarning hayoti asosida ishonarli qilib, ta'sirli ko‘rsatib bera olgan. Otabek va Kumushlarning bir-birlariga munosabatlaridagi noziklik, oralaridagi eng mahram, eng intim tuyg‘ularni g‘oyat nazokat bilan izhor eta olish madaniyati, juda qaltis va hayotni ostin-ustun qiluvchi holatlarda ham bosiqlikni, odobni qo‘ldan bermaslik, tuyg‘ularni pardali ifodalay olish salohiyati ularni o‘quvchiga yaqin qilib qo‘yadi. Shuning uchun ham Kumushbibining maktubida Otabekka qarata erkalik bilan aytilgan: *“...**Qochsangiz qochib ko‘ringiz, ammo men bu kundan boshlab birovlarni quvishqa bel bog‘ladim***”, – tarzidagi iddao kishining g‘ashiga tegmaydi, aksincha, qiz tabiatidagi yangi bir go‘zal jihatni namoyon etadi.

Romanda kishini lol qoldiradigan, ko‘ngilni iftixorga to‘ldiradigan qirra shundan iboratki, unda ota-bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning yuksak nazokat asosiga qurilgani yuksak mahorat bilan tasvir etilgan. Romandagi katta-yu kichik har bir personajning har bir harakatida andisha sezilib turadi. Bolalar otalarning ko‘nglini og‘ritmaslikka intilishlari haqqoniy aks ettirilgan. Ularning har bir harakatida odob ko‘zga tashlanadi. Ikki yillik ayriliq tufayli cheksiz azoblar tortgan, yovuz dushmanlar bilan hayot-mamot jangiga kirishga majbur bo‘lgan Otabekka

[78] Yamin – ont, qasam, ishonch.

otasi bemalol quyidagicha qattiq gapiradi: "***Mirzakarimning yozg‘anig‘a qarag‘anda bir muncha yang‘lishliq undan ham o‘tkan ko‘rinadir va lekin sening bolalig‘ing oldida uniki holvadir***". Shuncha yillik ayriliqdan so‘ng ilk bor suygulisidan xat olgan Otabek otasining oldida uni o‘qish tugul, unga ro‘y-rost qarashdan ham istihola qilishi ushbu tasvirda aks etganiga bolalar e'tibori qaratilishi lozim: "***Otabek maktubni olib otasining ketishini kutib qoldi. Xat sakkiz buklanib, qizil ipak bilan bir-ikki yeridan chatilg‘an va Otabekka atalg‘an edi. Otasining uzoqlashishini kutar ekan, yuragi yomonlag‘an otdek tipirchilar edi***". Otabek va Kumush o‘zlari hamda bir-birlarining ota-onalari bilan munosabatda go‘zal odobga hamisha rioya etganliklari butun asar davomida izchillik bilan aks ettirilgan.

G‘oyat sokin, og‘ir-bosiq Otabek yirik shaxsiyat egasi bo‘lgani uchun ham hech qachon sha'nini yerga uradigan ish qilmaydi. Uning tabiatidagi qudratli or tuyg‘usi Normuhammad qushbegi, Musulmonqul cho‘loq bilan yuzlashuv lavhalarida yaqqol ko‘rinadi. Otabek ezgulikka yo‘ldosh bo‘lgani, biror odamga yomonlik ravo ko‘rmagani uchun ham zarur bo‘lganda Yaratgan unga kuch bag‘ishlaydi. Shu bois ham romandagi: "***Mutal kuchlik edi, ammo Otabek undan ham kuchlik edi. Sapchib hiqildog‘ini ajratish uchun bo‘lg‘an Mutalning birinchi harakati bo‘shka ketdi-da, chap biqinig‘a o‘tkir xanjar g‘achcha botirildi... Ammo ul hamon bo‘shalishg‘a kuchlanar edi va kuchlik qo‘l battarroq uni siqar edi***" tasvirida o‘quvchini ishontirmaydigan jihat yo‘q.

Aytilganidek, Otabekni qudratli qilgan narsa uning jismoniy kuchining ko‘pligigina emas, balki cheksiz ma'naviy qudratga egaligidadir. Bu qudrat uning ashaddiy yovi, insofsiz va olchoq Homid bilan so‘nggi to‘qnashuv onlarida yorqin namoyon bo‘ladi. Hayoti qil uchida turgan, barcha baxtsizliklarining sababchisi bilan yuzma-yuz kelgan daqiqada u dushmaniga "siz"lab muomala qiladiki, odam Otabekning ichki madaniyati yuksakligiga tan beradi: *"...**shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarg‘a solg‘an, cheksiz jonivorliqlar ishlatkan va hisobsiz tillalar to‘kdirgan, nihoyat, shu daqiqag‘a keltirib to‘xtatqan birav uxlaydir***". Bu o‘rinda Otabek o‘zini ashaddiy dushmani bilan emas, shunchaki bir xolis odam bilan

so‘zlashayotganday tutadi. U tinmay tipirchilayotgan qonxo‘r raqibiga bir necha bor pichoq urib, o‘ladigan holga keltirgan paytdagina Homidni sensiraydi: *‘‘...**uni besh qadam naridan kuzatib tek turg‘uchi Otabek zaharxanda ichida: “Haqlimi eding?” – deb so‘radi. Kuchanib: “Haqli edim!” – dedi Homid va qo‘lidag‘i xanjarni Otabekka otdi, xanjar Otabekning yonig‘a kelib tushdi...***”

Romanda Yusufbek hoji va Mirzakarim qutidor shaxsiyatlariga xos donishmandlik, barcha timsollardagi adoqsiz bardosh hali o‘zbek degan ulug‘ millat vakili nomiga loyiq, shaxsiyati butun odamlar ko‘pligini ko‘rsatadi. Asardagi baxtsiz muhabbat tasviri kishini faqat yig‘latibgina qolmay, ko‘ngilga ulug‘ bir yorug‘lik, nur ham olib kiradi. O‘quvchi o‘zbek millatiga mansub ekani, Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, usta Alim, Normuhammad kabi insonlarga qondoshligi bilan iftixor tuyadi. Ayni shu g‘urur, faxr tuyg‘usini uyg‘otishi romanning ulug‘ xizmatidir. Bu tuyg‘uga egalik o‘zbek degan xalqning qanday qiyinchiliklar girdobida qolmasin, hayotning qanchalik murakkab sinovlariga duch kelmasin, o‘zligini yo‘qotmasligini, binobarin, millat sifatida yitib ketmasligini ta'minlashi bolalarga anglatilishi zarur.

O‘qituvchi o‘quvchilarida shunga o‘xshash yuksak insoniy sifatlarni shakllantira olsa, pedagogik maqsadga erishgan bo‘ladi.

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONINI MUAMMOLI O‘RGANISH

Qunduzxon Husanboyeva
Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. *Maqolada mazkur dostonni muammoli ta’lim texnologiyasiga xos bo‘lgan muammoli metoddan foydalangan holda o‘rganish yo‘llari namuna sifatida taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar*: turkum dostonlar, xalq og‘zaki ijodi, muammoli ta’lim, muammoli metod, muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli topshiriq.*

Umumiy o‘rta ta’limning so‘nggi bosqichi 11-sinflar “Adabiyot” darsligida o‘zbek xalq og‘zaki ijodidan namuna sifatida “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni (to‘rt soat mobaynida) o‘rganish uchun taqdim etilgan [To‘xliyev, 2018: 8–51].

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari ijodkor repertuarining g‘oyat boyligi bilan birga rang-barangligidan guvohlik berishi, birga ijrochilar iste’dodi va badiiy mahoratini, xalq dostonlarining g‘oyaviy estetik, badiiy xususiyatlarini, asosiy motivlar, obrazlar tahlilini o‘rganish hamda baholashda muhim manba hisoblanadi.

Po‘lkan shoir tilidan yozib olingan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni mazkur dostonlar turkumini boshlab beruvchi xalqchil g‘oyaviy badiiy jihatdan yuksak asar bo‘lib, boshqa baxshilar repertuaridagi Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va yoshligi haqi-dagi asarlardan mukammalligi, voqealarning shiddatli rivoji, kelishmovchilikning keskinligi bilan ajralib turadi.

Dostonda Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi to‘g‘risidagi qo‘sh motiv: biri g‘ayritabiiy holatda go‘rda tug‘ilishi bo‘lsa, ikkinchisi uning otasi haqiqatan ham ko‘r bo‘lganligi bilan bog‘liq motivlarning yonma-yon ishlanganligini ko‘rish mumkin. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”ning bir necha variantlari bo‘lib, ba’zilarda umuman Go‘ro‘g‘lining otasi bo‘lmagan, degan g‘oya ham ilgari suriladiki, bu shubhasiz dostonning xalqchiligiga, g‘oyasiga putur yetkazadi. Bu tipdagi dostonlarda Go‘ro‘g‘lining ijtimoiy kelib chiqishi, nasl-nasabi, ona vatani haqidagi ma’lumotlar uchramaydi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Qashqadaryo va Surxondaryolik baxshilar Yusuf O‘tagan o‘g‘li, Eshmurod Sherdana o‘g‘li, Toshmurod shoir, Tog‘ay Mehmon o‘g‘li singari bir qator xalq ijodkorlaridan ham yozib olingan. Bu baxshilar variantida, yuqorida aytganimizdek, Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishiga oid birgina motiv qahramonning go‘rda tug‘ilishi motivigina ishlangan xolos”.

Darslikda dostondan taqdim etilgan parchalar mana shu Po‘lkan shoir tilidan yozib olingan mukammal variantdan olingan. Faqat keltirilgan ikkita parchani bir-biri bilan bog‘lab turadigan qisqacha nasriy bayon yo‘q. O‘quvchi dostondan berilgan ikkinchi parchani o‘qishga kirishganda anglashilmovchilik yuzaga keladi.

Ya’ni Zargardan Rustambekning yordami bilan vatani Yovmitga qarab yo‘lga chiqib ketgan Go‘ro‘g‘li ikkinchi parchada Rayhon arab yurtiga kelib qoladi. Bir ayolni ko‘rib u aynan “*Izlaganim o‘z oldimdan topildi*” deb Xoljuvonni izlab kelganini aytadi. Axir u Zargardan Xoljuvonni izlab chiqmagan edi-ku! Bu o‘quvchilarning asar mazmuni haqidagi tasavvurlari tiniqlashuviga aks ta’sir ko‘rsatadi.

Mana shu anglashilmovchilikni bartaraf etish uchun oradagi voqealar rivoji haqida bir xatboshi shaklida tushuncha berib o‘tilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Metodika ilmida katta hajmli asarlardan ko‘chirma olinganda matnning yaxlitligini ta’minlash va parchalarning o‘zaro bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratish taqozo etiladi. Darsliklarda yo‘l qo‘yilgan bunday xatoliklar o‘quvchining xafsalasini pir qilib qo‘yishi, anglamsizlik uning asarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib qo‘yishi mumkin.

Bunday nasriy bayon negadir «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» dostoni haqida” nomli maqolada berilgan [To‘xliyev, 2018: 49].

Darslikdagi bu xatoni “pardalash” va o‘quvchilarning tasavvurini tiniqlashtirish maqsadida o‘qituvchi dostonning oraliq mazmunini qisqacha qilib aytib o‘tishi, agar u doston matnidan bexabar bo‘lsa (aslida, adabiyot o‘qituvchilari darslikda o‘rganish uchun taqdim etilgan barcha asarlarni to‘liq o‘qigan bo‘lishi shart), hech bo‘lmaganda, shu maqoladagi mazmunni aytib o‘tishi kerak bo‘ladi.

Shundan keyingina ikkinchi parchaning mutolaasiga o‘tilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Matnni albatta, maxsus tayyorgarlikdan so‘ng o‘qituvchining o‘zi o‘qib berishi yoki sinfda badiiy so‘zga moyilligi bor bir-ikki o‘quvchini alohida tayyorlashi kerak bo‘ladi. Asarning mutolaasi jarayonida boshqa o‘quvchilar o‘z darsliklaridan matnni ichdan o‘qib borishlari zarur.

«Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» dostoni didaktik tahlilini muammoli tarzda amalga oshirishni ixtiyor etgan o‘qituvchi o‘quvchilarni ularning oldiga qo‘yiladigan muammolar: “***Shohdorxon mag‘lubiyatining ma’naviy asoslari va buning sabablari***” tarzidagi muammoli masala va “***Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi fantaziyami***

yoki ilohiy hodisami?” shaklidagi muammoli savoldan o‘quvchilarni oldinroq xabardor etib qo‘yishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zlarining keyingi faoliyati mazmunidan xabardor bo‘lgan o‘quvchilar mutolaa jarayonida matndagi bu masalalar bilan bog‘liq o‘rinlarni belgilab borishlari mumkinligini o‘qituvchi eslatib qo‘yadi. Shunda o‘quvchilarning fikrlarini asoslash uchun matndan misollar keltirish bilan bog‘liq vaqtlari tejaladi.

Asar matni bilan to‘liq tanishib bo‘lingach, o‘quvchilar sujet ta’siridan chiqib ulgurmaslaridan ularning oldiga birinchi muammo ko‘ndalang qo‘yiladi: “***Shohdorxon mag‘lubiyatining ma’naviy asoslari va buning sabablari***”. O‘quvchilariga mazkur muammoning yechimi sari yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilishdan oldin o‘qituvchi ularga quyidagi rivoyatni so‘zlab beradi:

Rohib haqida rivoyat

Rivojlangan davlatlarning birida bir qishloqni suv bosish xavfi paydo bo‘libdi va hukumat aholini kelayotgan tabiiy ofatdan ogohlantiribdi. Xalq kim o‘z imkoniyati bilan, kim qutqaruvchilar ko‘magida qishloqni tark eta boshlashibdi. Qishloq ahli qadrdon rohiblarining o‘z uyi tomiga chiqib o‘tirganini ko‘rib qolishibdi va unga ketish kerakligini, istasa birga olib ketishlari mumkinligini aytishibdi. Rohib:

– Sizlar ketaveringlar, meni Xudoning o‘zi asraydi, – debdi.

Suv bostirib kela boshlabdi. Bir mahal qutqaruvchilarga signal kelibdi: yolg‘iz yashaydigan kampir bir o‘zi uyida qolib ketgan ekan. Qutqaruvchilar darhol kelishib kampirni olishibdi va yo‘lda rohibga o‘z xizmatlarini taklif qilishibdi. Rohib ularga javoban:

– Sizlar ketaveringlar, meni Xudoning o‘zi asraydi, – debdi.

Qutqaruvchilar «o‘zing bilasan», deb ketishibdi. Kampirni olib borishsa, kamerada bir mushuk tomning tepasiga chiqib olib tinmay miyovlab yordam so‘rab turganini ko‘rishibdi. Tezgina orqaga qaytishibdi va mushukni qutqarishibdi. Yo‘lda rohibga yana xizmatlarini taklif qilishibdi. Rohib yana:

– Sizlar ketaveringlar, meni Xudoning o‘zi asraydi, – debdi.

Qutqaruvchilar yana «o‘zing bilasan» deb ketishibdi.

Qishloqni suv bosibdi. Toshqin rohibni ham oqizib ketibdi. U halok bo‘libdi. Allohning oldiga borib unga da’vo qilibdi:

– Men senga, sening qudratingga, meni yolg‘iz tashlamasligingga, suv toshqinidan o‘zing asrashingga ishongandim. Sen meni asramading. Senga ishonchim qolmadi, – debdi.

Shunda Alloh:

– Men seni asrash uchun, avval qo‘shnilaringni senga ro‘baro‘ qildim, gapiga ko‘nmading. Qutqaruvchilarni bir kampir bahonasida yubordim, ularning taklifiga quloq solmading. Uchinchi marta bir mushukni bahona qilib ularni qayta yubordim, takliflarini yana rad etding. Sen ahmoq bo‘lsang, men yana nima qilishim kerak, – degan ekan.

Qissadan hissa shuki, Alloh Odamga bir qator fazilatlar bilan birga aql-farosat ham bergan. Odamzod o‘z aql-farosati bilan har qanday muammoning yechimini topadi. Kamiga u ogohlantiriladi ham. Aql, ziyraklik va farosat bilan ish tutsa, har qanday ko‘ngilsizliklarning oldi olinishi mumkin. Bu rivoyat mazmuni va unda ko‘tarilgan haqiqatlar borasida hech ish qilinmaydi, hech narsa deyilmaydi. Bevosita muammoning yechimi ustida ish boshlanadi. Qissadan hissani har bir o‘quvchi quyidagi didaktik ish turi jarayonida o‘zi chiqarib olaveradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Shohdorxonning qarori, Sizningcha, nimasi bilan Xudoga xush kelmagan bo‘lishi mumkin? Nega shunday deb o‘ylaysiz?

2. Nima deb o‘ylaysiz, Shohdorxon Odilshoh mamlakatiga hujumi Xudoga xush kelmaydigan ish ekanidan ogohlantirildimi yo‘qmi? Buni qanday asoslaysiz?

3. Odamzod tutumlarining Xudoga xush kelmayotganini qanday bilishi mumkin, nima deb o‘ylaysiz?

4. O‘ylab ko‘ringchi, Holmon vazirning so‘zi nima uchun “yaylovga chiqmadi”? Buning Shohdorxon mag‘lubiyatiga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin? Fikringizni matndan misollar keltirib asoslang.

5. Matndagi: «*Shu kuni payshanba edi...*» tarzidagi ogohlantirishning Shohdorxon mag‘lubiyatiga aloqadorlik joyi bormi, nima deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang.

6. Shohdorxonning o‘quvchilar qo‘rqqanini anglagani va ularga “ozor bermas”likni buyurgani o‘zining mag‘lubiyatiga qanchalik aloqador bo‘lishi mumkin?

7. Shohning bu tutumi fazilatmi yoki illatmi? Uning bu ishi to‘g‘ri bo‘lsa, nega Alloh tomonidan rag‘batlantirilmadi? Buning sababi nima, Sizningcha?

8. Odilshoh tomonidan yuborilgan maktub mazmuni bilan tanishgach Shohdorxon Holmon vaziriga qaradi. Bu qarashning o‘z mag‘lubiyatiga biror aloqasi bo‘lishi mumkinmi, nima deb o‘ylaysiz?

9. Holmon vazirning: «*Dushmaning xas bo‘lsa qo‘rq» degan ekan. Sen ham butunchiligingning fikrida bo‘l*» tarzidagi maslahati Shohdorxonga foydali bo‘ldimi yoki uning zarariga ishladimi? Buni nima bilan asoslaysiz?

10. Doston matnida shunday fikr bor: «*Podshohi haqiqiy – Xudoning o‘zi. Bular podshohi majoziy – Xudoning yaratgan maxluqi. Bularni ham Xudo podsho qilib qo‘yibdi. Shu sababdan podshohi majoziyni fuqaro yomonlasa, podshohi haqiqiyning achchig‘i kelib, Xudoga malol kelar ekan*». Unga o‘z munosabatingizni bildiring. Fikringizni dostondagi «podshohi majoziy»lar faoliyati bilan bog‘lang.

11. Dostonda Shohdorxon podshoning tutumlari haqida gapirilib ular “*Xudoga xush kelmadi*” deyiladi. Siz buni qanday tushundingiz?

12. Odamzodning qaysi ishlari, nimasi bilan, nima uchun Xudoga xush keladi, nima deb o‘ylaysiz? Buning mezoni, asosi nimada, Sizningcha?

13. Shohdorxonning urush boshlanmasdan oldin qilmishiga pushaymon bo‘lganiga diqqat qiling. Uning ko‘ngliga shunday tuyg‘uning solinishi sabablari haqida fikrlashing.

14. Shohdorxonning tushi va uning ta’biridagi har bir detalni ajratib oling. Munosabat bildiring. U yana nima uchun bunday sirli tush ko‘rdi deb o‘ylaysiz? Axir u urushda yengildi, jazosini oldi. Tinchgina podsholigini qilib o‘tirib edi. Uning yana qaysi qilig‘i Allohga xush kelmagan bo‘lishi mumkin, nima deb o‘ylaysiz?

15. Odamning O‘zini boringdek ko‘rsatishdan ko‘ra ko‘rsatganingdek bo‘lishi nimasi bilan qiyin?

Mazkur doston qahramonlaridan biri Shohdorxonning tutumi va xatti-harakatlari tahliliga bag‘ishlangan: “***Shohdorxon mag‘lubiyatining ma’naviy asoslari va buning sabablari***” shaklidagi muammoning yechimi asnosida o‘qituvi va o‘quvchilar mana shu hayotiy haqiqatlarni kashf etadilar, mohiyatiga kiradilar, dunyoviy ishlarni anglaydilar, to‘g‘ri-noto‘g‘rini farqlaydilar.

Ko‘ngil odamdagi Allohning mulki hisoblanadi. Ko‘ngil sohibining tutumlari, xatti-harakatiga ruhiyati-ko‘nglida ularni yoqlab yoki qarshilik ko‘rsatib ma’lum tuyg‘ular uyg‘onadi: qilgan ishidan xursandlik, xotirjamlik, rozilik hissi yoki bezovtalik, hijolatlik, hadik va qo‘rquv tuyg‘ulari bosh ko‘taradi. Bularni ilg‘ash uchun Odam o‘zini kuzatishi kerak, xolos. Yaxshi tuyg‘ular ketidan ergashish, salbiy hislardan qochish qo‘lidan keladigan odamgina Yaratganning rag‘batlari-yu marhamatlariga sazovor bo‘ladi. Bir podshohning qilmishlari tahlili, uni yoqlash yoki qoralash, fikrlarini asoslash asnosida o‘quvchilar bevosita o‘zlarini ham taftish qiladilar, ruhiyatlariga nazar soladilar. O‘zlarini, xatti-harakatlarini kuzatishni o‘rganadilar. Xudoga xush kelmaydigan ishlarni farqlaydilar. Ulardan o‘zlarini tiya bilish kerakligini ko‘ngillari qa’rida his etadilar. O‘zlarini o‘zlari tarbiyalashga yuz buradilar, degan umid bor.

Keyingi dars ham muammoli dars bo‘lishini ma’lum qilib o‘qituvchi darsni yakunlaydi. Uy vazifasi sifatida “Ko‘nglim va tutumlarim” mavzusida yashirin insho yozishni topshirishi mumkin. Bunday haqqoniylik talab qiladigan inshoni yozishga hamma ham jur’at qilolmaydi. Anglaganlari asosida o‘zini taftish qilish

oson emas. Mobodo yozadiganlar bo‘lsa, o‘qituvchi bu insho mazmunining sir saqlanishi kafolatini zimmasiga olishi va va’dasiga vafo qilishi shart.

Keyingi ikki darsda 2-muammo: “***Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi fantaziyami yoki ilohiy hodisami?***” tarzidagi muammoli savol ustida ishlanadi.

O‘quvchilar, avvalo, Bibi Hilolning Rustambek taklifini rad qilgani sabablari haqida o‘ylab ko‘rishlari kerak bo‘ladi: “Bibi Hilolning Rustambek bilan ota yurtiga ketmagani sabini qayta o‘qing. O‘zga yurtlarda xor bo‘lib o‘lib ketishdan ko‘ra qanday qilib bo‘lsa ham vataniga yetib olgani yaxshi emasmidi? Ayniqsa, Rustambek unga singil deb qarayotgan bo‘lsa? Bibi Hilolning akasi Gajdumbek va yori Ravshanbeklarning ori uchun o‘zini qurbon qilishini qanday baholaysiz? Bu unga xos bo‘lgan qanday sifatdan dalolat beradi? Sizningcha, uning bu tutumi to‘g‘rimi yoki noto‘g‘rimi? Fikringizni asoslang”.

Bizning o‘zbek qizlari, azaldan otasi, aka-ukalari orini saqlab yashashgan. O‘z xatolari tufayli oiladagi erkaklarning boshi egilib qolishi, ularning to‘rtta erkakning orasida tili qisilib qolishidan hayiqib yashashgan. Qizlari yoki singillari qilib qo‘ygan xatoning ori uchun vatanlarida qololmay, begona yurtlarga oilasi, bola-chaqasi bilan ko‘chib ketishgan erkaklar. Er kishining ori bizning ellarda juda baland bo‘lgan. Qaldirg‘och akasi, Barchinoy yori Alpomishning ori uchun tirishganlari ruhiyatlaridagi mana shu tuyg‘uning mahsulidir.

Bibi Hilolning: “*Men bir xizmatkorim bilan mingashib borsam, odamlar, qarindoshlarim Gajdumbekka: «Sen o‘zing qochib kelib eding, sening singling Bibi Hilol begona bir odam bilan mingashib keldi», – deb aytar. Akamning va yorim Ravshanbekning yuzi tuman bo‘lar. Sen bilan borganimdan bormaganim yaxshiroq. Men qarindoshlarimning ma’raka-o‘ltirishlarda yuzini tuman qilganimdan, shu yerda g‘arib bo‘lib o‘lganim yaxshi*” tarzidagi gaplari va tutumlari zamirida ham mana shu his ustuvorlik qiladi. Buning belgilari o‘zbeklarda hozir ham ko‘pchilikning ruhiyatida mavjud. Ya’ni, o‘zbek qizlarining biror noto‘g‘ri – “Xudoga xush kelmaydigan” deb bilingan ishga qo‘l urish uchun otasi yoki

akasidan qo‘rqishi, onalarning qizlarini otalaridan hayiqtirib tarbiyalashi mana shu orchillikdan qolgan sifatlardir.

Shundan so‘ng o‘quvchilarning e’tibori Bibi Hilolning: «*Meni Shohdorxon odamlarining qo‘lida o‘ldirma, har nima qilsang o‘zing qil*», – deb Xudoga, barcha payg‘ambarlar, o‘tgan aziz-avliyolarni shafe keltirib, yig‘lab yolvorishiga qaratiladi. So‘ngra quyidagi savol-topshiriq beriladi: “O‘ylab ko‘ringchi, nima uchun Bibi Hilolning tilagi Allohning dargohida qabul bo‘ldi? Bu, Sizningcha, nimadan dalolat beradi?” bu holat nafaqat o‘quvchilar, balki, o‘qituvchining o‘zi uchun ham qiziq bo‘lsa kerak. Hammaga ma’lumki, bandalar hamisha o‘zlarining har xil muammolari bilan Yaratganga hamisha iltijo qilishadi. Ba’zi tilaklari amalga oshadi, ayrimlari esa, yo‘q. Nega shunday ekanini bandasi bilmaydi.

Buning uchun Odamzod o‘zining qaysi tutumlari nimasi bilan Yaratganga ma’qul kelmagani haqida o‘ylab ko‘rishi, “Qayerda, qanday xato qildim? Shu vaziyatda mening aybim nima?” degan savolni o‘ziga berishi, xatti-harakatlarini taftish qilishi kerak bo‘ladi. Bandasining Xudoga xush kelmaydigan ishlari “gunoh” va o‘ziga va atrofdagilarga zarar keltiradigan tutumlari “xato” so‘zi bilan tavsiflanadi. Shu so‘zlar zamirida qilingan ishlar Allohga, uning bandalari oldiga qo‘ygan mezonlariga ziddir. Bunday tutumlar uchun u mahluqotlarini jazolaydi. Bibi Hilol o‘tinchining Yaratgan dargohida qabul qilinishi va dushman qo‘lida xor bo‘lmay o‘lim topishi hamda gumonasining go‘rda bo‘lsa ham tug‘ilishi-yu yashab ketishi uning har qanday xato va gunohlardan holi yashagani, o‘zi, ayni zamonda, qadrdonlarining orini asrab o‘lim so‘ragani, uning uchun rag‘batdir, balki.

O‘n birinchi sinf o‘quvchilari bu savollarga qanday javob berishadi, buni har bir sinfdagi vaziyat ko‘rsatadi, albatta. Lekin tavsiya etilayotgan bu fikrlar o‘qituvchi tomonidan mazkur savolllarga faqat va faqat bir javob namunasi sifatida qabul qilinishi, maqsadga muvofiqdir.

So‘ngra o‘quvchilarning diqqati quyidagi satrlarga qaratiladi: “*Bibi Hilolning o‘lganiga uch oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqa o‘tdi. Ravshanbekdan olti oylik gumona qolgan edi. Bibi Hilol o‘lgan bo‘lsa ham, o‘quvchisi o‘lmagan*

ekan. Xudoning rahmati bilan asrovda edi. Shu vaqtda tug‘moqchi bo‘ldi. Momo Havo, Anbar ena, Fotma buvi keldi. Bibi Hilolning o‘ligi go‘rda tebrandi, o‘lik badanini to‘lg‘oq tutdi”. Bu nima: Allohning Bibi Hilolga marhamati yoki rag‘batimi? Yoxud gumonaning taqdiri avvaldan belgilab qo‘yilgani mahsulimi? Umuman, shunday bo‘lishi mumkinmi? Bunga ishonasizmi? Fikringizni asoslang. Bu masala ustida mulohaza yuritishdan oldin o‘quvchilar “*Momo Havo, Anbar ena va Fotma buvi*”lar kimligini aniqlab olishlari kerak bo‘ladi. (Buni ularga uy vazifasi sifatida ham topshirish mumkin. O‘quvchilar internet orqali material to‘playdilar).

Ma’lumot uchun: “Alloh taolo Odamni jannatga kirgizdi. Odam Ato u yerda bir o‘zi yashar, jannat mevalaridan tanovul qilib, suvlaridan ichar edi. Lekin suhbat qurish uchun o‘z jinsidan biror kishini topa olmas edi. Buni yaxshi bilgan Alloh taolo unga rahm qilib, birga yashashsin degan maqsadda o‘z jinsidan bir hamroh yaratishni ixtiyor etdi. Bir kuni Odam Ato uxlab, keyin uyqudan uyg‘ondi. Ko‘zini ochib yonida avval hech ham uchratmagani bir xotin o‘tirganini ko‘rdi. Hayron bo‘lib so‘radi:

– Sen kimsan? Isming nima?

Xotin javob berdi:

– Men bir xotinman. Lekin ismimni bilmayman.

Odam Ato unga sevinch va hayrat aralash qarab chiqdi. Xotin jonli ekanini va harakat qilayotganini ko‘rib hayajondan hayqirib:

– Sen Havosan, – dedi.

Shu payt malaklar kelib, Odamning bilimini sinash uchun undan hamrohining kimligini so‘rashdi:

– Ey Odam, ayt-chi, uning ismi nima?

– Uning oti Havo, – deb javob berdi Odam Ato.

Endi Odam Ato va Momo Havo jannatda birgalikda huzur-halovat ichida yashay boshlashdi. Istagan noz-ne’matlari muhayyo edi, qo‘rquv va tashvish nimaligini bilishmasdi. Bir safar Alloh taolo Odamga shunday dedi:

– Ey Odam! Hamrohing bilan jannatda omonlik va salomat ichida yashanglar. Istaganingizni yeb-iching, ammo mana bu daraxtga yaqinlashmanglar, aks holda zolimlardan bo‘lib qolasizlar.

Alloh ularga barcha daraxtlardagi mevalardan tanovul qilishga ruxsat berib, faqat bir daraxtga yaqinlashishni man etgan edi. Alloh taolo inson o‘z nafsiga hokim bo‘lishi va irodasini mustahkamlashi uchun shunday qilgan edi. Odam Ato va Momo Havo Ulug‘ Allohning amriga itoat qilib, jannatda baxtiyor yashay boshladilar. Alloh taolo ularni Shaytonning hiylasiga uchmaslik va aldanib qolmasliklari uchun ogohlantirdi:

– Ey Odam! Darhaqiqat, Shayton sen va hamrohingning dushmanidir. Ehtiyot bo‘ling, u sizlarni jannatdan chiqarmasin, aks holda badbaxtlardan bo‘lib qolasiz. Odam Ato va Momo havo jannatda huzur va halovatda yashab turganini ko‘rgan Shayton har xil hiylalar o‘ylab topib, ularni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirmoqchi bo‘lardi. Bir payt ularning yoniga suqilib, shivirlab dedi:

– Ey Odam, senga mangulik daraxtini va abadiy davom etuvchi saltanatni ko‘rsataymi?

Odam Ato Shaytonga qarab:

– Nima ekan u? Qani ko‘rsat, –dedi.

Shayton unga barmog‘i bilan Alloh taqiqlagan daraxtni ko‘rsatdi. Odam Ato unga ishonmadi va yonidan haydab yubordi. Ammo Shayton yana boshqa tomondan ularga yaqinlashib shivirlardi:

– Rabbingiz bu daraxtni nima uchun taqiqlaganini bilasizmi? Agar uning mevasidan yesangiz malak bo‘lasiz va jannatda abadiy qolasiz. Alloh sizning bu yerda qolmasligingiz uchun uni taqiqladi. Qani, yeb ko‘ringlar u mevadan.

Odam Ato Shaytonga quloq osmay, undan uzoqlashdi. Shayton esa yana orqasidan kelib, Alloh nomi bilan qasam ichib shunday dedi:

– Menga ishoning, darhaqiqat, men sizga go‘zal bir nasihat beryapman.

Odam Ato va Momo Havo Iblisning Allohga qasam keltirganini ko‘rib, o‘zlaricha o‘ylay boshlashdi: “Birov yolg‘on gap uchun Allohga qasam keltirmaydi. Ehtimol to‘g‘ri aytayotgandir”.

Keyin borib Alloh taqiqlab qo‘ygan daraxtning mevasidan yeyishga boshladilar.

Meva ichlariga tushishi bilan birdaniga yalang‘och bo‘lib qolishdi. Bir-birlaridan uyalib ketib, daraxt barglari bilan badanlarini berkita boshlashdi. Ular nima qilishni bilmay qolgan edilar. Allohdan iyzo chekib, uyatli bo‘lib, uzoqlarga qochdilar. Alloh taolo ularni ko‘rib turar, taqiqlagan mevadan yeb, isyonga kelganlarini yaxshi bilar edi.

Odamning qochib ketayotganini ko‘rgan Alloh ularga qarata:

– Ey Odam! Mendan qochyapsanmi? – dedi.

Odam Ato:

– Yo‘q, ey Rabbiy. Sendan aslo qocha olmayman. Ammo qilmishim uchun Sendan uyalmoqdaman, – deb javob berdi.

Alloh dedi:

– Men sizga u daraxtni taqiqlab qo‘ymaganmidim? Shayton sizga ochiq dushman ekanligini aytmaganmidim? Nega amrimga qarshi keldingiz?

Odam Ato va Momo Havo:

– Yo Rabbiy, bizni mag‘firat qil, gunohimizni kechir. Bizni afv et, yo Rabbiy, – deyishdi.

Ulug‘ Alloh ularga marhamat qilib:

– Men sizga amr berdim, buyurdim, siz esa, buyrug‘imga qarshi ish qildingiz, – dedi.

Odam Ato va Momo Havo yana yolvorib:

– Ey Rabbimiz! O‘zimizga zulm qildik, agar bizni afv etib, gunohimizdan kechmasang, shubhasiz, katta ziyonga uchraganlardan bo‘lib qolamiz, – deyishdi.

Ulug‘ Alloh Odam Atoga xitoban:

– Senga eng buyuk ne’matni, jannatni berdim. Istagan har narsangni muhayyo qildim. Bu ehsonlarim kamlik qildimi, u daraxtga yaqinlashding, – dedi.

Odam Ato:

– Izzatingga qasamki, birov Sening pok nomingni o‘rtaga qo‘yib yolg‘on qasam keltirishini bilmas edim, – dedi.

Alloh taolo yig‘lab turgan Odam Atoga marhamat ila:

– Izzatingga qasamki, endi sen yer yuziga tushasan, charchoq va ter to‘kish evaziga kun kechirasan, – dedi.

Keyin esa, Odam Ato, Momo Havo va la’nati Shaytonga xitob qilib dedi:

– Bir-biringizga dushman bo‘lgan holda yer yuziga tushing. U yerda ma’lum muddatgacha qolib, hayot kechirasiz.

Shaytonga aldanib Alloh taoloning g‘azabiga uchragan Odam Ato qilmishiga pushaymon bo‘lib, yig‘lay boshladi.

– Yo Rabbiy, meni afv et, yo Rabbiy, gunohimdan o‘t, meni kechir, – deya yolvordi.

Nihoyat, Alloh taolo unga rahmat ko‘rsatib, tavbasini qabul qildi va gunohini kechirdi.

Shubhasiz, Alloh taolo o‘z xatosiga pushaymon bo‘lib, tavba qilganlarni kechiradi. Chunki U cheksiz marhamat egasidir! [https://islom.uz/maqola/3474. Ibratli hikoyalar].

“**Anbar ona** – xalq og‘zaki ijodi va islom an’analarida ayollar mashg‘ulotining homiysi, piri. Rivoyatlarga ko‘ra, u dastavval shayx Hakim ota (Hakim otaning asl ismi Sulaymon bo‘lib, mashhur mutasavvif shoir Sulaymon Boqirg‘oniydir. “Hakim” ul kishiga laqabdir)ning zavjasi bo‘lgan, u vafot etgach, uning shogirdi Zangi otaga turmushga chiqqan. Anbar ona haqida hosildorlik ma’budalari, jumladan Avestodagi Anaxita ma’budasiga o‘xshatib bayon etilgan afsonalar ham bor. Shuningdek, Anbar onani ko‘p yillar sarson-sargardonlikda yo‘qolgan o‘g‘lini qidirganligi, lekin uni topa olmaganligi haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. Anbar onaga bag‘ishlab o‘tkaziladigan urf-odat va marosimlarning ko‘pchiligi suv

toshqini, o‘quvchi tug‘ilishi va hosildorlik bilan bog‘liq bo‘lgan. Sumalak uchun tayyorlangan bug‘doyning tez yoki sekin unib chiqishi ham Anbar ona nomi bilan bog‘langan. Anbar onaga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlarda otin bibilar, doyalar, sehrgarlar, parixonlar ishtirok etib, ular Anbar ona haqida to‘qilgan rivoyatlar yordamida turli irim-sirimlarga ishongan sodda kishilarni aldab, boylik orttirganlar [https://n.ziyouz.com/books/islomiy/boshqa/Islom%20Ensiklopediyasi.pdf]”.

“**Fotima** (taxm. 605/606–632/633) – Muhammad (SAV)ning kenja qizlari. Fotimaga e’tiqod qilish shialar o‘rtasida keng tarqalgan. Shia imomlari va musulmon mamlakatlaridagi ko‘pchilik sulolalar (Idrisiylar, Fotimiylar, Sa’diylar va b.) shuningdek, barcha sayyidlar Fotima va uning eri Ali ibn Abu Tolib avlodlari deb hisoblanadi. Fotima go‘zal bo‘lgani uchun Zahro (Guldek) deb laqablanadi. Fotimani Alidan besh farzandi (uch o‘g‘il (bittasi yoshligida vafot etgan) va ikki qiz) bo‘lgan. Hasan, Husayn, Ummu Kulsum va Zaynab. Muhammad (sav) vafotlaridan olti oydan so‘ng olamdan o‘tgan Fotima Madinada dafn etilgan. Makka va Madinaga borgan shia ayollari va sayyidlar Fotima ona qabrini ziyorat qiladilar.

O‘quvchilar dostonda tilga olingan bu uch ona haqida bir-birlaridan, zarur bo‘lganda o‘qituvchidan ma’lumot olishgach, tasavvurlariga tayangan holda masalaning muhokamasiga kirishadilar. O‘quvchilar bir haqiqatdan uzoqlashmaganlari ma’qul. Bir og‘iz “Bo‘l!” degan so‘zi bilan O‘n sakkiz ming olamni yaratishga qodir bo‘lgan Alloh istasa, bo‘lishi mumkin bo‘lgan bu hodisa, ya’ni Bibi Hilol jasadining chirimagani, gumonasini oziqlantirib turgani va to‘lg‘oq bilan farzandining dunyoga keltirishi odamzod aqliga sig‘maydigan, lekin Allohning irodasi bilan bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatdir. Buning isboti sifatida Maryam (sav) o‘g‘li Iso (sav)ning tug‘ilishini keltirish mumkin.

Ayrim o‘quvchilar balki buni o‘quvchirning xayolparastlik mahsuli, deb hisoblashar?! Albatta, ular ham fikrlarini shunday bir isbot bilan asoslasinlar: xalq og‘zaki ijodi qahramonlarining ajdar bilan olishuvi, ularning bir o‘q bilan tog‘ning boshini uchirib yuborganlari va hk. Har ikkala holatda ham, agar o‘quvchilar o‘z aytgan fikrlarini misollar bilan asoslay bilsalar, qarorlari o‘zlari bilan qolsin.

O‘qituvchining ularni ikkinchi haqiqatga ishontirishga urinishi yoki o‘z fikrini ustuvor qo‘yishi o‘quvchilarning shashtini qaytarib qo‘yishi mumkin. Adabiyot darslarida badiiy haqiqatlar turfa bo‘lishini, o‘z isboti bilan aytilgan har qanday fikr adabiyot darslarida yashashga haqli ekanini o‘qituvchi unutmasligi maqsadga muvofiqdir.

Muhokamalar tugagach, o‘qituvchi o‘quvchilarining e’tiborini quyidagi misralarga qaratadi: “*Shunda turib yig‘ilgan azizlar o‘quvchining otini Go‘ro‘g‘li qo‘ydi. Barcha abdal, ovtar, qirq chiltanlar bir-bir olib suydi. Hazrati Xizr ham farzandim dedi. Har nima bo‘lsa shu kun Go‘ro‘g‘liga yaxshilik bilan tamom bo‘ldi. Lekin Hiloloyga jon kirmadi, ammo o‘quvchiga sut kelib yotdi”.* Bu yog‘i qanday bo‘ldi? Bu ham xalq fantaziyasining mahsulimi yoki bo‘lishi mumkin bo‘lgan ilohiy hodisami?

O‘quvchilar avval Hazrati Xizr haqida bilganlarini ma’lum qiladilar.

Ma’lumot uchun: “Xizr (as) (Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva, Xizr-Ilyos) – Qur’onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan taqvodor zot. Xizr (as) odamlarda Allohga bo‘lgan e’tiqodni mustahkamlash uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan payg‘ambarlardan hisoblanadi. Rivoyatlarga ko‘ra, Xizr (as) orollarda yashaydi, osmonda uchadi, hamisha dunyo bo‘ylab kezib yuradi, har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus shaharlaridagi masjidlarda namoz o‘qiydi. Dengizda suzuvchilarga homiylik qiladi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga keladi: suvga cho‘kayotganlarni qutqaradi, yonginni o‘chiradi, o‘g‘rilar xurujidan, jinlarning hiylalaridan, ilon chaqishidan xalos etadi va hk. So‘fiylar Xizr (as)ni avliyolar piri sifatida e’zozlaydilar. Hazrati Xizr (as) qadimdan xalqlar tasavvurida odamlar mushkulini oson qiluvchi, u bilan uchrashgan kishilarga baxt ato etuvchi xudojo‘y qariyadir. Xudo yorlaqagan odamlargina Xizr (as)ga yo‘liqishi mumkin.

Musulmon sharqi mamlakatlari, jumladan O‘rta Osiyoda Xizr (as) nomi bilan bog‘liq ko‘plab qadamjolar (mas., Hazrati Xizr masjidi va b.) mavjud.

O‘qituvchi yuqoridagi ma’lumot asosida mavjud fikrlarni to‘ldirishi ham mumkin. Bu orada o‘quvchilariga quyidagi satrlarni qayta o‘qib berishi: “*Go‘ro‘g‘li tug‘ilgandan beri go‘rda chiroq yonib turar edi. Bir kuni lip etib o‘chib qoldi. Yana uch kun o‘tdi. Hiloloyga sut kelmay, badani ko‘mirday cho‘ykab ketdi. Ana shunda Go‘ro‘g‘li och qoldi, lekin shu vaqtgacha azizlar ham xabar olib yurgan edi.*

Ana endi Bibi Hilol arvohining “dod” deb yig‘lagan tovushini hazrati Xizr bilib, eshitib, go‘r ustiga keldi. Asta go‘rning tuprog‘ini pichigina teshdi. Shu teshikdan go‘rning ichiga kunning shu’lasi tushdi. Go‘ro‘g‘li kunning tushganini ko‘rib, qo‘li bilan ushlab olaman deb kunga qo‘l urdi, ushlay olmadi, ushlayman deb qo‘li go‘rning tepasiga yetdi. Tirmalab-tirmalab teshikni katta qilib, go‘rdan tashqari chiqib, hayron bo‘lib qoldi. «Bu nima degan sir bo‘lur?» – dedi. Och qoldim deb go‘rga suyanib, yotib qoldi”. Bu xabarlar o‘quvchilarning hayratini orttiradi. Fikrlarining tiniqlashuviga ko‘maklashadi.

So‘ngra qo‘yilgan savollar borasida o‘quvchilarning fikrlarini eshitadi. O‘qituvchiga har bir o‘quvchi isbotlab bergan o‘z fikrida qolishi mumkinligini unutmaslik tavsiya etiladi. Jarayon har bir sinfdagi muhit, o‘quvchilarning bilimlilik darajasi va saviyasi asosida kechadi. Buni har bir sinfdagi vaziyat ko‘rsatadi.

Shu tariqa o‘quvchilar oldilariga qo‘yilgan ikkinchi muammo: “***Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi fantaziyami yoki ilohiy hodisami?***”ning yechimini topadilar.

Muammolarning yechimi o‘quvchilarning fikrlari asnosida ma’lum bo‘ladi. Agar o‘qituvchi mazkur asarni o‘rganishga bag‘ishlangan soatlarni boshqa biror metoddan foydalangan holda tashkil etsa, albatta, asarning didaktik tahlili davom ettirilishi mumkin. Lekin dars muammoli ta’limga tayanilgani uchun uni shu yerda tugatgan ma’qul. Muammoning yechilganligi darsning tugaganligi asosidir.

Uyga vazifa sifatida “Dostonda menga yoqqan sahifa” mavzusida og‘zaki insho tayyorlab kelishni topshirish mumkin. O‘quvchilar keyingi darsda qaysi sahifa ularga nimasi bilan yoqqanini og‘zaki bayon etadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda boshqa vazifa berishi ham

mumkin. Faqat bu ish o‘quvchilarga tanlash imkoniyati bilan berilgani adabiy ta’limning maqsadiga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik-majmua. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 8–51-b.

2. https://n.ziyouz.com/books/islomiy/boshqa/Islom%20Ensiklopediyasi.pdf

ASAR QAHRAMONLARINING SHAXSIY SIFATLARINI ANGLASH MASALALARI

Roza Niyozmetova
ToshDO‘TAU professori, ped.f.d.

Yozuvchi adabiy asarda odamlar o‘rtasidagi turli-tuman murakkab ijtimoiy-estetik munosabatlarni hayotning turfa lavhalarini o‘zida mujassamlashtirgan qahramonlar obrazlari orqali tushuntirishga, inson hayoti, taqdiri shu munosabatlarda namoyon bo‘lishini anglatishga harakat qiladi va badiiy tasvir vositalari yordamida yaqqol anglashiladigan qiladi. Bu jarayonlar bevosita va bavosita amalga oshadigan muloqot tarzida ro‘yobga chiqariladi. Bunda har bir insonga xos fazilatlar, xulq-atvor umumlashmasi tariqasida yaratiladigan obrazlar muhim rol o‘ynaydi, ayni paytda yozuvchining tushuntirishlari, asar qahramonlarining xatti-harkakatlariga munosabatlari shaklida yana ham oydinlashadi, badiiy adabiyotga xos badiiy tasvirlar eng muhim omil – estetik tuyg‘ularda o‘z aksini topadi. Mavjud, shuningdek, endi yaratilayotgan, yaratiladigan qanchadan-qancha asarlar ana shu masalalarga bag‘ishlanadi. Bu narsa ijtimoiy munosabatlar cheksiz, nihoyatda rang-barang ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda yuksak badiiy qiymatga ega asarlardagi qahramonlar obrazlari misolida yoshlarni ijtimoiy munosabatlar mazmuni, chunonchi, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat kabi talay tushunchalarning mohiyati bilan tanishtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Odamlar o‘rtasidagi murakkab, ibratli ijtimoiy munosabatlar, shaxslarga xos axloqiy, intellektual fazilatlarini anglash,

aniqlash, farqlash, mos so‘z topib atash, odatda, katta qiyinchiliklar tug‘diradi. O‘quvchilarda bularni anglash layoqatini shakllantirish: muallifning so‘ziga, qahramonlarning bir-birlariga beradigan baholariga tayanish, xulq-atvoriga o‘z munosabatini ifodalash kabi ko‘nikmalar ijtimoiy munosabatlarning tub sabablarini tushunishdan tashqari, atash imkonini beradi, shuningdek, o‘qituvchining ta’limiy tadbirlari orqali joriylanadi.

Demak, ijtimoiy munosabatlarni, shaxsning xislatlarini ochuvchi so‘zlarni asar qahramonlarining xatti-harakatlari, xulq-atvori orqali anglash ular anglatgan tushunchalarni bilish imkonini beradi. Ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilarning bunday so‘z boyligi chegaralangan. Shuning uchun maktabda bunday tushunchalar maxsus o‘rganish ishlar irejali suratda amalga oshirilmog‘i lozim. O‘quvchi asar qahramonining xulq-atvori, odamlar bilan muloqoti, shaxsiy fazilati misolida hayot maktabini o‘rganish vaziyatiga tushadi. “Xislatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri atash bola tomonidan ularni qahramonning xulqidan yoki kechinmalaridan ajratishga doir maxsus urinishlarni talab etmagan holda oson o‘zlashtirilishi kerakday tuyuladi. Lekin shaxsning fazilatlarini shunchaki atash yosh kitobxonga ta’sir eta olmaydi va uning yodida qolmaydi”[1]. L.N.Rojinaning aniqlashicha, axloqiy va irodaviy fazilat-lardan shaxsiy g‘urur hissi, g‘urur, burch va mas’uliyat tuyg‘usi, sabr-toqat, o‘zini tuta olish, maqsad sari intilganlikni tushunish uchun ancha qiyin bo‘lib chiqqan.

O‘qituvchi o‘quvchilarni u yoki bu adabiy qahramonning xulq-atvorini, shaxs sifatidagi fazilatlarini anglash sari yetaklab borar ekan, ularga ushbu qahramonning o‘z xatti-harakatlaridan ko‘zlagan motivlari va maqsadlarini chuqurroq tushunib olishga, qahramon obrazini chuqurroq va asarda tasvirlanganiga mos ravishda idrok etishga yordam berishi kerak. Qahramon o‘z xulq-atvoridagi ba’zi jihatlar bilan kitobxonda o‘ziga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otsa ham, unga nimaga taqlid qilish va nimada taqlid qilmaslik lozim bo‘lgan tomonlarini ajratish masalasida yordam berish kerak.

[1] Рожина Л.Н. Психология восприятия литературного героя школьниками (II-VII классы). – М.: Педагогика, 1977. – 53 с.

Ma’lumki, o‘smir yoshida ***odamlar orasidagi munosabatlarga*** qiziqish yuzaga keladi. Bu davrda ijtimoiy munosabatlar kechinmalar uyg‘otibgina qolmay, anglash va o‘ylash predmetiga ham aylanadi. Lekin o‘smirlar asar qahramonida yuz berayotgan jismoniy va aqliy, axloqiy o‘zgarishlar tufayli o‘zlarida yuzaga kelayotgan kechinmalarni ba’zan tushunmaydilar yoki yetarlicha tushunib yetmaydilar.

Asar qahramonlari kitobxonga tengdosh bo‘lsalar, uni qahramonlarning bir-birlariga yordam berishga tayyorligi, bir-biriga bergan so‘zlarining ustidan chiqishga harakat qilishlari, rostgo‘ylikka intilishlari va boshqa fazilatlari o‘ziga tortadi, ayrim salbiy xislatlari ularni ranjitadi, ana shu xislatlarga qarshi turish tuyg‘usini uyg‘otadi.

Asar qahramoni fazilatlarini o‘rganish ishi o‘quvchini ma’naviy jihatdan boyitishiga shubha yo‘q. Lekin uning o‘z o‘lchovlari borligini ham unutmaslik kerak. Ta’lim jarayonida o‘quvchiga asar qahramoniga mustaqil ravishda tavsif berish ishonib topshirib qo‘yilsa, ya’ni o‘qituvchi uni yo‘naltirib turmasa, ba’zan noto‘g‘ri baholarini tuzatib bormasa, ma’naviy boyishda sustkashlikka yo‘l qo‘yiladi.

“O‘tmish asarlari o‘quvchilar uchun tushunarli va ularning sevimli kitoblariga aylanishi uchun bugungi kunda o‘quvchilarga tushunarli va yaqin “tayanch” muammolar, his-tuyg‘ularni topib, ko‘rsatib berish kerak”[3]. Darhaqiqat, yoshlarning quvonchiyu tashvishlari, qayg‘ulariyu umidlariga tutash keladigan dolzarb muammolar ko‘tarilgan asarlar ular ongida yuksak hayotiy prinsiplarning tiniqlashuviga yordam bera oladi.

H.Karimov akademik D.S.Lixachevning quyidagi fikrini o‘rinli keltiradi: “...davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali ta’sir omiliga aylanadi. Bunda u har kimga har xil ta’sir etadi”[4]. Boshqacha aytganda, har bir asar keng kitobxonlar ommasini nazarda tutib yozilsa-da, uni

[3] Баевский В.С. Вопросы методики воспитания литературного вкуса на уроках литературы в старших классах.-АКД пед.наук. –М., 1965. –19 с.

[4] Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). Филол.фан.доктори … дисс.автореферати. – Тошкент: 1994. – 3 бет.

to‘g‘ri tushunish, muallif fikrlarini qabul qilish-qilmaslik, estetik ta’sirlanish xususiylik kasb etadi[5].

”Har bir asar keng kitobxonlar ommasini nazarda tutib yozilsa-da, uni to‘g‘ri tushunish, muallif fikrlarini qabul qilish-qilmaslik, estetik ta’sirlanish xususiylik kasb etadi”[5]. Badiiy asarlarda san’atkor inson ruhiyatining yangi qirralarini ochadi, “kashf etadi”, boshqacha aytganda, yangilik yaratadi. Bu yangiliklarning asosiy qismi muayyan millatning olamni ko‘rish va his etishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. “Milliy mavqe (pozitsiya) har bir millatning axloqiy-estetik an’analari bilan belgilanadi. Asosan ayni shu an’analar har bir shaxsning kitobxonlik didi, uning hayotni obrazli idrok etish tizimi, o‘zga adabiyotga beradigan bahosini shakllantiradi”[7]. Demak, badiiy adabiyot namunalari bilan tanishish zamirida shu adabiyotga ega bo‘lgan xalqning milliy an’analari, qadriyatlari, badiiy-estetik olami bilan ham tanishish demakdir.

Badiiy asar o‘quvchi ongiga va qalbiga beradigan ozig‘i bilan, dunyo haqidagi bilimlarini boyitishi, ma’naviy dunyosini kengaytirishi, go‘zallik tuyg‘usini o‘tkirlashtirishi, hislarini tarbiyalashi bilan qimmatlidir. Yoshlarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatadigan darslar an’anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Bunday darslarda o‘quvchilar o‘qituvchining aytganlarini bajaradigan ob’ektlikdan dars jarayonida faol harakatlanuvchi sub’ektlarga aylanadilar. Ular oldilariga qo‘yilgan murakkab masalalar, savollar, topshiriqlar ustida o‘ylanadilar, izlanadilar, qayta-qayta badiiy matnga murojaat qiladilar, bir-birlari bilan fikr almashadilar, badiiy asar va undagi obrazlarni har xil rakurslarda tahlilga tortadilar. Bu jarayonda, o‘z-o‘zidan o‘quvchida badiiy matnga nisbatan ijodiy munosabat shakllanadi: uni qahramonning shaxsi, xatti-harkatlarini taftish qilishga undaydi.

O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatuvchi adabiyot darslarining turli tiplari va ko‘rinishlari mavjud. Darsning alohida usullari maktab

[5] Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1996. – 18 б.

[7] Зальдинер М.А., Тодоров Л.В., Губина Ф.И. Методика преподавания русской литературы в старших классах национальной (узбекской) школы. Под общей ред. проф. М.А.Зальдинера. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 26 с.

amaliyotida namoyon bo‘ladi. Bunday darslar o‘qituvchilarning amaliy faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tasniflashga o‘rgatadigan darslar o‘z maqsadiga ko‘ra o‘quvchilarning tanqidiy hamda estetik tafakkurlari, badiiy his-tuyg‘ulari, badiiy asarni idrok etish ko‘nikmalari, obrazli tafakkurlarini o‘stirish, ular ongini timsollar yordamida boyitish, axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy tarbiyalash, o‘qishga ijobiy munosabat uyg‘otish, badiiy asar va san’at namunalari bilan muntazam muloqot qilishga ehtiyoj hosil qilish, badiiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, ularni baholay olish, qiziqarli badiiy asarlarni mustaqil izlab topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

NAMANGAN ADIBLARI IJODINI O‘RGANISHDA QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQ METODIDAN FOYDALANISH (XILVATIY IJODI MISOLIDA)

Ozodaxon Boltaboyeva
Namangan davlat universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
boltaboyevaozodaxon@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr boshlarida yashab ijod etgan Nodim, Ibrat, So‘fizoda, Chustiy, Dog‘iy, Xilvatiy kabi namanganlik shoirlar ijodi, she’riyatidagi janrlar rang-barangligi tahlil etilgan. Xususan, bu davrda sayohat xotiralarini ifodalovchi sayohatnoma janridagi asarlarning o‘ziga xos uslub va poetik mahorat bilan yaratilganligi Xilvatiyning “Sayr-ul jibol” asari misolida qiyosiy-tipologik tahlil etilgan. Maqolada Xilvatiyning “Charog‘i maktab”, “Sayr-ul jibol”, “Qasidai ilm”, “Mavludi sharif” kabi asarlari va ularning o‘ziga xos janr xususiyatlari, badiiy jihatlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tasvir, shakl va mazmun, janr, vazn, badiiy mahorat, tahlil, an’ana, mavzu, sayohat, qiyosiy-tipologik tadqiq.*

Annotation. *This article exposes the information about genre features of works of Khilvatiy, Nodim Namangoniy, Ibrat, Sufizoda, Chustiy, Dog‘iy who had great place in uzbek classic literature. In the article works of Hilvatiy in the comparative-typological research method is analyzed.*

Information about “Charog‘i maktab”, “Sayr-ul jibol” (Mountati trup) and “Qasidai ilm” (Story about knowledge), “Mavludi Sharif” by Hilvatiy.

Key words: *depiction, form and meaning, genre, measure, skill, specify, tradition, theme, travelling (jenre of travelling), comparative-typological research.*

XX asr boshlarida yashab ijod etgan Nodim, Ibrat, So‘fizoda, Chustiy, Dog‘iy, Xilvatiy, Suhayliy kabi namanganlik shoirlar ijodini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish davomida ular she’riyatidagi o‘ziga xoslik, janrlar rang-barangligi kuzatiladi. Bu davrda yaratilgan devonlarning janr xususiyatiga e’tibor berilsa, shoirlarimiz ijodida g‘azal, ruboiy, tuyuq, ta’rix, muammo, muxammas, musaddas, musamman, muvashshah, marsiya va fardlar o‘ziga xos uslub va poetik mahorat bilan yaratilganligi ko‘zga tashlanadi. Maorif va madaniyatning ravnaq topishi, xalq ongining shakllanishi va rivojlanishida ham bu serqirra iste’dod sohiblarining xizmatlari beqiyos. Bu davr shoirlari ijodiga nazar tashlasak, ular ijodida ishq mavzusi yetakchilik qilishi kuzatiladi. Ayniqsa, ular ijodida ilohiy ishq, tasavvuf g‘oyalari kuchliligi sabab, mustaqilligimizgacha ushbu shoirlar ijodini mukammal o‘rganish imkoni bo‘lmagan. Ushbu shoirlarimiz madrasa ilmi bilangina cheklanib qolmay, buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qilishgan, arab, fors tillarini chuqur o‘rganishgan. Asarlarida ikki tillilik (zullisonayn) an’anasi davom etgan. XX asr boshlarida Namanganda Ibrat tashabbusi bilan bosmaxona ochildi. Kundalik matbuot va bosmaxonalarning maydonga kelishi bilan bu davr shoirlarining asarlari chop etilib, kitobxonlar qalbidan joy oldi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti an’analarini o‘zida mujassam etgan bu asarlar yuksak tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatga ega. Xususan, bu davr shoirlaridan Xilvatiy asarlari ham 1907, 1910, 1911, 1912-yillarda toshbosma holida qayta-qayta nashr etilgan.

Xilvatiy XX asr boshlarida yashab ijod etgan o‘zbek ma’rifatparvar shoirlaridan biridir. O‘z davrida mudarris, olim, adib, shoir, ma’naviyat va ma’rifat sohibi sifatida ezgu nom qoldirgan Xilvatiy 1858-yil Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa qishlog‘ida tug‘ilgan. Shoir Huvaydoga chevara bo‘lmish Xilvatiy arab, fors va turkiy tillarni mukammal bilgan. Xilvatiy o‘z davrining yetuk shoirlari Muqumiy, Nodim, Ibrat To‘raqo‘rg‘oniy va bir necha olim-u fuzalolar bilan Namangandagi “Azizxo‘ja eshon” madrasasida bo‘lib o‘tadigan mushoira

kechalarda ishtirok etar hamda ularning uylarida mehmon bo‘lib, suhbatlaridan bahramand bo‘lar edi. She’r bahsi kechalarida qatnashish Xilvatiy ijodiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Xilvatiy nihoyatda kamtar, kamsuqum inson bo‘lgan. Shuning uchun o‘ziga “Xilvatiy” taxallusini olgan. U 1921-yil 63 yoshida o‘zi tug‘ilib o‘sgan Jiydakapa qishlog‘ida vafot etgan. Shoir vafotidan so‘ng o‘g‘li Akmalxon to‘ra XX asrning 30-yillaridagi qatag‘on siyosati tufayli otasi asarlarini yashirishga majbur bo‘ladi. Akmalxon to‘radagi adabiy merosdan xabar topgan folklorshunos olim Malik Murodov 1970-yil Jiydakapaga Muzayyana Alaviya bilan birgalikda tashrif buyuradi. Akmalxon to‘radan Xilvatiyning adabiy merosini qabul qilib oladi.

Xilvatiyning ikki qo‘lyozma devoni mavjud bo‘lib, biri O‘z RFA Qo‘lyozmalar institutiga topshirilgan. Bu devon D.1 deb belgilanib, 1870 raqami bilan hozir ham shu yerda saqlanadi. Bu devonda shoirning 6886 bayt o‘zbek va 770 bayt fors tilidagi she’rlari mavjud. Devondan shoirning g‘azal, muxammas, muvashshah, qasida, hajv va sarguzasht xarakteridagi she’rlari joy olgan. Devonda turli tarixiy voqealar, turli tarixiy sanalar, shaxslar haqida o‘zbek va fors tilidagi ma’lumotlar bor. Bular Xilvatiy tarjimayi holini, o‘sha davr adabiy-tarixiy muhitini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchi devon D. II deb belgilangan. Bu devon hozirgi kunda shoirning nabirasi Akmalov Ma’rufjon qo‘lida saqlanadi. Bu devonga 4540 bayt o‘zbek va fors tillarida yozilgan she’rlar kiritilgan. Bular g‘azal, muxammas, muvashshah, marsiya, sarguzasht she’rlar, hajv va qit’alardan iborat. Devonda 32 ta fors tilida yozilgan g‘azal, muxammas, muvashshahlar bor. Devonda turli kishilar vafoti yoki biror voqeaga bag‘ishlangan ta’rixlar ham mavjud. Bu devonda Xilvatiyning shoir Huvaydoning o‘g‘li Xolmuhammad eshonning nabirasi ekanligi haqidagi ma’lumot uchraydi. Mazkur devon Xilvatiy tarjimayi holini, devonning yozilish tarixi va ba’zi tarixiy shaxslar haqidagi ma’lumotlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xilvatiyning ikki qo‘lyozma devonidan tashqari, uch she’riy risolasi ham yetib kelgan bo‘lib, shoirning hayotlik vaqtidayoq mazkur risolalar, ya’ni “Charog‘i

maktab”, “Mavludi sharif”, “Sayr-ul jibol” risolalari toshbosma holida nashr etilib, xalq orasida mashhur bo‘lgan.

Xilvatiyning “Charog‘i maktab” (1907-yilda Toshkentda O.A.Porseva bosmaxonasida chop etilgan) risolasi axloqiy, diniy-tarbiyaviy mazmunga ega bo‘lgan she’riy asardir. Xilvatiy Imom A’zam mazhabi va Imom Motrudiy aqidasiga muvofik 110 baytdan iborat bu asarni masnaviy usulida, aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozgan. Asarda baytlar mazmuniga muvofiq arab va fors tillarida nasriy sarlavhalar qo‘yilgan. Bu asarda Allohning sifatlari, Qur’onda zikr etilgan 28 payg‘ambar nomlari, Muhammad alayhissalom sifatlari; me’roj voqeasi, inson fe’l-atvori qanday bo‘lishi; harom rizq va shubhali rizq; qiyomat hisob-kitoblari, jannat ne’matlari; osiylarga do‘zax azoblari; qiyomat alomatlari; islom va iymon, payg‘ambarlarga berilgan mo‘jizalar; avliyolar karomati, namoz farzlari, islom shartlari, ro‘za ruknlari, haj farzlari haqida qisqa-qisqa she’riy usulda fikr bildirilgan. Bularni yodlab olish orqali axloq-odob va musulmonchilik qonun-qoidalarini yosh o‘quvchilar ongiga osonlik bilan singdirish ko‘zda tutilgan. “Charog‘i maktab"ni eski o‘zbek yozuvidan krill yozuviga o‘girib, nashrga tayyorlandi, lug‘at va izohlar tuzildi va asar 2014-yil Toshkentda nashrdan chiqdi. Asarni mutolaa qilgan kishi beixtiyor Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asarini esga oladi. “Mubayyin” islomning besh rukni (asosi)ga bagishlangan bo‘lib, Bobur ushbu asarni farzandlari Humoyun Mirzo va Komron Mirzolarga islom ilmini puxta egallashlari uchun yozgan. Masnaviy usulida yozilgan bu asar iymon-e’tiqod masalalariga bagishlangan. Asarda Haq subhanahuning subutiy sifatlari-hayot, ilm, irodat, qudrat, sa’m va basar (ko‘rish va eshitish), kamol va taqdiri azalga ishorat qilinadi. Xilvatiyning "Charog‘i maktab" asari esa XX asr boshlarida maktablarda yosh bolalarni musulmonchilikning boshlang‘ich ta’limoti va axloq-odob yo‘l-yo‘riqlari bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgani shubhasiz.

Xilvatiyning “Mavludi Sharif” (bu asar 1895-yilda yozilgan va 1908, 1911, 1912, 1916-yillarda toshbosma holda qayta-qayta nashr qilinib, o‘zbek xalqi

xonadonidan joy olgani quvonarlidir) asari o‘ziga xos badiiy xususiyatga va qimmatga ega. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning tavallud topishlari va qisqa tarjimayi hollari haqidagi arab tilida yozilgan birinchi she’riy asar “Mavludi Sharif” arab shoiri Sayyid Ja’far Barzanjiy (1763-yilda vafot etgan) qalamiga mansub bo‘lib, arab tilini yaxshi bilgan olimlar, ulamolargina bu asarni tushunganlar xolos. Xilvatiy “Mavludi Sharif”i esa she’riy mustaqil asar. U Barzanjiyning arab tilida yozilgan “Mavludi Nabaviy”si tarjimasi emas, na mazmun, na boblarga bo‘linish va na uslubiy jihatdan unga butunlay o‘xshamaydi. Xilvatiy Barzanjiy asarini o‘zbek tiliga she’riy tarjima qilishi ham mumkin edi, lekin u mustaqil “Mavludi Sharif” yozishni niyat qilgan va buning uddasidan chiqa olgan. Xilvatiyning bu asari 20 bobdan iborat bo‘lib, turkiy xalqlar orasida Muhammad alayhissalom mavludlari haqida yaratilgan birinchi she’riy rivoyatdir. Bunday asarning muallifi o‘zbek xalqining shoiri bo‘lganligi bizning faxrimizdir. Bu asar 2000-yil Namanganda, 2015-yil Toshkentda kirill yozuvida ham nashr etildi.

“Sayr ul-jibol” (Tog‘ sayri) asari 1910-yilda yozilgan. “Sayr-ul jibol”ning 1910-yildagi toshbosma nusxasidan Xilvatiyning 1903-yil fors tilida yozilgan “Qasidai ilm” asari ham o‘rin olgan. Yuksak tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan "Qasidai ilm" asarida ilm va olimlikning fazilat va xislatlari bayon etilgan. “Sayr-ul jibol”ni eski o‘zbek yozuvidan kirill yozuviga o‘girib, qo‘lyozmalarga qiyoslab, chop etish va tahlil qilish adabiyotshunosligimiz oldida turgan vazifalardan biri edi. Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu asar 2009-yil Toshkentda “Fan” nashriyotida chop etildi. Xilvatiyning “Sayr-ul jibol” asari sayohatnoma janrida yozilgan bo‘lib, Muqimiy, Zavqiy an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirgan. Asar “Pochcha ota” tog‘ sayri taassurotlari haqida yozilgan.

Yoz mavsumida Xilvatiy va Namanganning taniqli shoirlaridan Nodim Namangoniy hamda uning o‘g‘illari hoji Musallamxon, Fuzayluddin hamda uning do‘stlari Abdulmusavvarxon, to‘raqo‘rg‘onlik Sayfiddin Mahdum, Mirzo Olim Qoriylar Nodimning taklifi bilan Pochcha ota tog‘iga sayohatga chiqishadi. U yerda chodir tikib, bir necha kun tog‘ bag‘rida dam olishadi, she’rxonlik

va do‘stlik suhbatlari bilan mashg‘ul bo‘lishadi. Sayohat juda qiziqarli va taassurotlarga boy bo‘lgan.

Xilvatiy safardan qaytgach, Pochcha Ota havosi, manzarali joylari, o‘simlik dunyosi, sayohatga chiqqan kishilarning fazilatlari haqidagi "Sayr-ul jibol" asarini Qodirxo‘ja eshon va Nodim Namangoniylar iltimosiga muvofiq oz muddat ichida yozib tugallaydi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Maxmurning ham sayohatnoma yozganligi ma’lum. O‘zbek adabiyotida alohida poetik shaklda tartib topgan, keyinchalik adabiy an’ana tusiga kirgan bu janrning asoschisi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir. Muqimiy “Sayohatnoma”lari maydonga kelib, xalq orasida mashhur bo‘lganidan keyin, xuddi shu uslubda Zavqiy, Furqat, Tajalliy va shoirga zamondosh boshqa ijodkorlarning “Sayohatnoma”lari yaratildi. Xilvatiy ham sayohatnoma janridagi “Sayr-ul jibol” asarini o‘zidan oldingi shoirlar an’analarini ijodiy davom ettirgan holda yaratdi. Ya’ni asar quyidagi ichki tuzilishga ega: **Kirish** (sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari nasriy usulda bayon etilgan); **yo‘l xotiralari bayoni** (yo‘l xotiralari batafsil bayon etilgan); x**otima** (sayohatdan muayyan xulosalar chiqarilgan).

Xilvatiyning “Sayr-ul jibol” asari Muqimiy “Sayohatnoma”sidan o‘ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Asar 16 bob bo‘lib, har qaysi bobga forscha sarlavhalar qo‘yilgan. Asar 557 bayt (1114 misra)dan iborat. Asar tuzilishiga ko‘ra kirish, 3 asosiy qism va xotimadan tashkil topgan. Asarda nasriy usulda yozilgan kirish mavjud. Asarning 1-qismida masnaviy usulida yozilgan hamd va na’t, 18 baytli muqaddima hamda 2-qismida sayohat taassurotlari, 3-qismida esa Xilvatiyning Sayyid Burhonxo‘ja eshon ibni Aminxo‘ja eshon bilan uchrashgani va shoirning ushbu asarni Mavlaviyxon eshon huzurida o‘qib berishi voqealari bayon etilgan. Asar so‘ngida fors tilida nasriy xotima ham yozilgan. Asar Allohga hamdu sanolar aytish, Uning Zotini ulug‘lash, yuzlab sifatlarini badiiy bo‘yoqlarda tasvirlashi bilan ham boshqa “Sayohatnoma”lardan ajralib turadi.

Asarda tog‘ sayriga chiqqan do‘stlarning surat va siyratlari bir-bir ochib berilgan. Safar chog‘ida ular kamtarlikning foydasi, takabburlikning zarari haqida suhbatlashishadi. Asarda, ayniqsa, tabiat manzaralari, chor-atrofdagi go‘zalliklar, xususan, “Pochcha ota” manzaralari, o‘simlik dunyosi, suvlari va toza havolari mahorat bilan tasvirlanadi:

Ketkonicha ikki yon ko‘hsor ekan,
Turfa ko‘hsori farahosor ekan.

O‘rtasida bir ajoyib soyi bor,
Salsabilu jannatul ma’voyi bor.

Har qadam yurgon sori dil ochilur,
Siynadin g‘am har tarafga sochilur.

Chor atrofi erur tog‘u rafi’,
O‘rtasida sabzalik sahni vasi’.

Murdani keltursalar jon topqudek,
Kofiri sad sola imon topqudek.

Yetgon odam kelmagaydur ketgusi,
Orye, jannatdin qayonga ketgusi?! [Xilvatiy, 2009: 5]

Xilvatiyning epik asarlarida sharq adabiyotidagi mavjud an’analarga rioya qilingan jihatlar ko‘zga tashlanadi. Bu asar aruzning “foilotun, foilotun, foilun”, ya’ni ramali musaddasi mahzuf vaznida bitilganligi, til, uslub, ohang va tasviriy vositalar qo‘llash jihatidan o‘ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Umumta’lim maktablarida bugungi zukko o‘quvchilarimizga Muqimiy ijodi va “Sayohatnoma” asarini o‘rgatish bilan birga sayohatnoma janrida ijod qilgan shoirlar haqida, xususan, namanganlik shoir Xilvatiy va uning “Sayr-ul jibol” asari haqida ham ma’lumot berilsa, diqqatga sazovor bo‘lar edi.

Xilvatiyning adabiy merosi bilan tanishib, uning nodir iste’dod sohibi ekanini his qilamiz. Xilvatiyning adabiy merosi, epik asarlari XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti rivoji, janrlar tarkibini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alixon Xalilbekov. Namangan adabiy muhiti. – Toshkent: Ruhafzo, 1998.
2. Istiqlol qahramonlari: Ibrat. Ajziy. So‘fizoda. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 224 b.
3. Xilvatiy. Devon. – Toshkent: Fan, 2001. – 365 b.
4. Xilvatiy. Sayr-ul jibol. – Toshkent: Fan, 2009. – 87 b.

ABDULLA QODIRIYNING HAYOT YO‘LINI O‘RGANISHDA AVTOBIOGRAFIK ASARLARNING O‘RNI

Normuhammad Ubaydullayev
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU huzuridagi DTIYUAO‘ va MOM Samarqand viloyati hududiy bo‘linmasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ijodkor tarjimayi holi, uning shaxsiyati bevosita xalqimiz tarixi, madaniyati va ma’naviyati bilan uzviy bog‘liqdir. U o‘zi yashagan davri misolida ko‘rgan, bilgan voqealar ta’rifini qalamga oladi. Shuningdek, ijodkorning o‘zi yashagan davrda tutgan o‘rni va mavqeini ham belgilab beradi.*

Ijodkor tarjimayi holi haqida atroflicha ma’lumot berish XX asrning birinchi choragidan boshlab maktab, oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlariga kiritilishi urf bo‘la boshladi.

Aslida esa ijodkor tomonidan yaratilgan asarlarni o‘rganish asrlar davomida kitobxonlarning diqqat markazida bo‘lgan. Ijodkor yaratgan asar yoki she’riyati o‘z o‘quvchisini lol qoldirgan, haqiqiy muxlisiga aylantirgan hollarda muallif shaxsiyatiga oid ma’lumotlar qiziqtirganligi ehtimoldan holi emas.

Ijodkor haqida ma’lumot berishda, o‘qituvchining so‘zi, ma’ruzasi, nutqi muhim ahamiyatga egadir. O‘qituvchi ma’ruzada o‘tilishi lozim bo‘lgan mavzuni ma’lum bir tartibga soladi, rejada ko‘zda tutilgan ma’lumotlarni saralab eng muhim ma’lumotlarni jonli, qiziqarli tarzda bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu mashg‘ulotning mazmunli chiqishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: *tarjimayi hol, avtobiografik asarlar, zamondoshlar xotirasi, xotiralar, maktab darsliklari, o‘qituvchi va o‘quvchi, kitobxon, adabiyot.*

Annotation. *The biography of the artist, his personality is directly connected with the history, culture and spirituality of our people. He writes a description of the events he saw and knew in the example of the period in which he lived. It also determines the place and position of the artist in the period in which he lived.*

It has become a tradition since the first quarter of the twentieth century to provide detailed information about the biography of the artist in the curricula of schools and universities.

In fact, the study of works created by the artist has been the focus of readers for centuries. It is not uncommon for a work or poem created by a creator to be intrigued by information about the author’s personality when it amazes its reader and turns him or her into a true fan.

In giving information about the creator, the teacher’s word, speech, speech is important. The teacher arranges the topic to be covered in the lecture, selects the information provided in the plan, and has the opportunity to present the most important information in a lively, interesting way. This ensures a meaningful output of the session.

Key words: *biography, autobiographical works, memory of contemporaries, memories, school textbooks, teacher and student, reader, literature.*

Adabiyotshunos olim Bahodir Karimov «Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur» nomli ilmiy monografiyasida «Badiiy asar va biografik ma'lumot» salavhasi ostida yozilgan qaydlarida ijodkor tarjimayi holiga quyidagicha ta'rif beradi: «Yozuvchi va shoirlarning, umuman, san'atkorning tarjimayi holini-biografiyasini asarlaridan, ayni chog'da asarlarini tarjimayi holidan ayricha tasavvur etish mushkul. Zotan, dunyo adabiyotshunosligida masalaning shu jihatini bo'rttirib, uni muayyan tizim holatiga keltirgan biografik metod ham bor… Biroq voqea-hodisalarning badiiy talqinida ijodkorning ruhiy kechinmalari, hayotiy tajribalari in'ikos qiladi-ki, bu haqiqatni hech kim inkor eta bilmaydi. Yozuvchi biografiyasi esa qaysidir yo'sinda uning asarlarida o'z ifodasini topadi. Va qaysidir darajada san'at asarining originalligini ta'min etadi. Yozuvchi hayotidagi o'zgarishlar, ruhiy kechinmalar, dunyoqarashidagi silkinishlar fonida badiiy asarni talqin qilish o'zining ijobiy samarasini beradi, albatta [Karimov, 2014:183-184]».

2015-yil umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun chiqarilgan darslikda [Ahmedov, 2015:133-141] Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasi o'quvchilar hukmiga havola etilgandi. 2020-yilda chop etilgan darslikda [Ahmedov, 2020: 93-109] esa, bolalikning beg'ubor xotiralaridan hikoya qiluvchi ushbu asar olib tashlandi. Bunga nima sabab bo'ldi, bizga qorong'u. To'g'ri, ko'p qavatli binoda yashovchi o'quvchi «Uloqda» hikoyasini to'laqonli tasavvur qilmasligi mumkin, biroq o'quvchi asarni keng qamrovda anglashi uchun ko'rgazmali qurollardan, video lavhalardan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nega bu haqda so'zlayapmiz? Chunki, Abdulla Qodiriyning hayot yo'lini o'rganishda «Uloqda» hikoyasining o'rni beqiyos. Asar voqeasidagi lavhalar to'qima emas, o'zi o'nib-o'sgan jonajon mahallasidagi odamlar haqida bilgan-ko'rganlarini qalamga oladi. Yozuvchining bolalik xotiralari qayd etilganligi bilan ahamiyatlidir. Habibulla Qodiriyning yozishicha, 1936-yilda otasi «Uloqda» hikoyasini qayta nashrga tayyorlarkan, sarlaha tagiga «Bu hikoya 1915-yilda

yozilgan edi. Bolalik davrimni yodgori bo‘lgani uchun ortiqcha o‘zgartirishlar kiritmadim [Qodiriy,1983: B19]» degan izoh qoldiradi. Bundan ko‘rinadiki, yozuvchi ko‘rganlarini bo‘rtirmasdan aniq, real voqelikka tayanib ish ko‘rgan. Asar personajlari ham o‘zi tanigan bilgan insonlardir.

Zahmatkash va faol adabiyotshunos olimlardan biri Sobir Mirvaliyev o‘zining «O‘zbek adabilari» kitobida o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy va uning tarjimayi holi haqida quyidagi bildirib, 1926-yilga qadar yozuvchining hayot yo‘lidagi kechinmalariga oydinlik kiritadi:

«Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada…tug‘ilg‘onman. Yoshim to‘qqiz-o‘nlarga borg‘ondan so‘ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o‘qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o‘n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo‘jayinim o‘zi savdogar kishi bo‘lub, o‘rischa yozuv-chizuv bilaturg‘on odamga muhtoj edi. Shu ta’ma bo‘lsa kerak, meni o‘ris maktabiga yubordi... 1912-yilda manfaktur bilan savdo qiluvchi bir kishiga yilig‘a 50 so‘m barobariga prikazchik bo‘lub kirdim... Shu miyonalarda bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadig‘on gazetalarni o‘qib, dunyoda gazeta degan gap borlig‘iga iymon keltirdim, 1913-yilda o‘zbekcha «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalari chiqa boshlag‘och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg‘ondi... 1913-yilda chiqqan «Padarkush» ta’sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg‘animni o‘zim ham payqamay qoldim [Mirvaliyev, 2000: 27-28]».

Maktab darsliklarida shoir va yozuvchilarimizni tarjimayi holi haqida o‘zlari bayon qilgan ma’lumotlar yoxud farzandlari, zamondoshlari tomonidan bildirilgan voqealar asosida berilsa, o‘quvchini qiziqishi, ishonchi ortadi. Adiblarga nisbatan mehri va muhabbati oshadi. O‘quvchi yozuvchi asarini o‘qir ekan, qahramonlari xarakterida adibning qiyofasini gavdalantirishga harakat qiladi. Barcha ijobiy xislatlar ularga tegishli, deb hisoblaydi.

Taniqli olmon olimasi Ingeborg Baldauf o‘zining «XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar» nomli ilmiy-publitsistik asarida Abdulla Qodiriy haqidagi qarashlari, kuzatishlari, fikr-mulohazalarini quyidagicha bayon etadi: «Modomiki, Abdulla Qodiriyning o‘zi kitobdagi voqealarni *«tabiiy»* deb atagan ekan, demak, ular o‘ta realistik, ya’ni har holda agar joiz bo‘lsa, *«ilk realistik»*dir [Ингеборг, 2001: 55]».

«Hol tarjimasidagi saktalik va soxtaliklar» xususida fikrlar bildirgan adabiyotshunos A.Rasulov yozuvchi biografiyasi bilan uning asari orasidagi uzviy bog‘lanish, ruhiy yaqinlik ahamiyatiga alohida e’tibor beradi: «Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog‘liqlik bor... Har qanday asarda yozuvchi ruhi, holi, qalbi aks etadi. Asarlar sinchiklab o‘rganilsa, ular yozuvchi holati, ruhiyati haqida ko‘p narsalar so‘zlab beradi [Расулов,1998: 27]».

Darhaqiqat, adibning barcha asarlari real voqelikka asoslangan. Buni o‘g‘li Habibulla Qodiriy ham tasdiqlaydi. U o‘zining «Otam haqida» kitobida adibning o‘g‘li prototiplarga oid ishonchli taxminlarni ilgari suradi. Adibning Usmonboy ismli zamondoshining o‘ziga xos dunyoqarashi, tashqi ko‘rinishlarini quyidagicha ta’riflaydi: «Usmonboyning yurish-turishi, kiyinishi, gap-so‘zi, qiyofasi qisman bo‘lsa-da, Yusufbek hoji obrazida aks etganday...», deb yozadi. Yusufbek hoji siymosining ayrim qirralarini yana bir shaxsga qiyos qiladi. Bu muallif Abdulla Qodiriyning Eshonguzar mahallasidagi tanishi «mulla Alijon ismli domla» deya taxmin etadi [Qodiriy, 1983:113]».

Adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov «Badiiylik – bezavol yangilik» nomli kitobida yozuvchi Abdulla Qodiriyning ijodiga baho berar ekan quyidagilarni aytadi: «…Abdulla Qodiriy yangi adabiyotning yetuk san’atkori. Uning ayni yetilgan pallasi Oktabr to‘ntarishi yillariga to‘g‘ri keldi. Menga qolsa, «Uloqda» hikoyasi ulkan san’atkorning tug‘ilgani haqidagi ***suyunchi-xabar*** edi. Abdulla Qodiriy har ikkala romanida «xalqimiz tarixidagi eng kir davr»ni aks ettiradi. Boshqacha aytganda, romanlarda ijtimoiy-siyosiy zimiston tasvirlandi. Tim qora tunning bezagi, quvonchi yorug‘ yulduzlardir…

Abdulla Qodiriy badiiy xarakter yaratish ustasi edi. Yozuvchining bu san’ati tirik odamlar obrazlarini ishonarli ko‘rsata olishida ko‘zga tashlanadi. Hozirgi paytda o‘zbek sho‘ro adabiyotining qahramoni masalasi yechilmagan muammo bo‘lib turibdi. Qariyb yetmish yildan ziyod vaqt davomida o‘zbek sho‘ro adabiyoti qahramon xarakterini yaratishda sun’iylikka yo‘l qo‘yib keldi [Расулов, 2007:154-155]».

«Uloqda» hikoyasi buyuk adibning dunyoga kelganidan xushxabardir, deydi olim. Asarni sodda, ravon tilda bayon qilinishi o‘quvchini o‘ziga rom qiladi. Voqealar rivoji hayotiyligi, obraz va personajlarni ishonchli yaratilganligi bilan ham ajralib turadi. Abdulla Qodiriy qahramonlarining ichki dunyosini yaratishda sun’iylikdan qochdi va tabiiylikni ma’qul ko‘rdi. Bu bilan kitobxon qalbini zabt etdi. Adabiyot darsliklarida Abdulla Qodiriyning hayoti yo‘li haqida gap ketganda, dastlab o‘zi yozib qoldirgan avtobiografiyasidan, qolaversa, o‘g‘li Habibullo Qodiriyning «Otam haqida» nomli biografik xarakterdagi xotira kitobidan hamda badiiy asarlaridan foydalanish maqsadlidir.

Bir o‘rinda shunday yozadi: «Qodiriy tug‘ilgan yillar yuqorida aytilganidek, Qodir bobo oilasida hiyla iqtisodiy tanglik hukm surgan davr bo‘ladi. Qodiriy bobo bu vaqtlarda yetmish yoshlardan oshib ancha kuch-quvvatdan qolgan, biror yerdan doimiy daromadlari yo‘q, to‘ng‘ich o‘g‘illari Rahimberdi amakim endi o‘n besh yoshga kirgan, qo‘llaridan hali biror ish kelmaydi, bog‘ning daromadi esa besh jonning (1897-yilda kichik – Qudratulla amakim tug‘iladilar) yillik ro‘zg‘origa albatta yetmaydi. Bu davrlar to‘g‘risida dadamning o‘zlari shunday yozadilar:

– Boshida boy oilada tug‘ildimmi yoki kambag‘al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshga to‘ymaganidan aniq bildimki, besh jonning tamog‘i faqat 80 yoshli bir chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog‘ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog‘ mevalari oftobga uchrab qolsa, biz ham ochlikka duch kelib, qishi bilan javrashib chiqar ekanmiz [Qodiriy, 1983: 6]».

O‘quvchi o‘sha davr muhitini ich-ichidan his qiladi. Ocharchilik bo‘lishiga qaramay yozishni, o‘qishni kanda qilmay, o‘tkir zehn bilan Sa’diyning «Guliston», «Rustami doston», «Hotamtoy», «Mashrab», «Navoiy», «Kalila va Dimna» kabi kitoblarni o‘qiganligi hayratga soladi. Hozirgi zamon bolasi bilan qiyoslasak, osmon bilan yercha farqi bor. Shuncha shart-sharoitlar yaratilgan (qorni to‘q, usti but) bo‘lishiga qaramay, ayrim tanbal, dangasa o‘quvchilar ham oramizda yo‘q emas. Adibning tarjimayi holidan ibrat axtarib, ruhlanib, unga o‘xshashga intilgan yoshlar ham talaygina.

Yana «Otam haqida» biografik asariga murojaat qilsak:

«Rahimberdi amakimning xotini – Robi opoqoyim derdilar:

– Mulla Abdulla bola kezlaridan serfikr, o‘z so‘zli edi. Uni haqsiz ranjitsalar, chidolmay, ko‘zlarini shokosa qilib qarab turardi-da, ko‘z yoshlarini duv to‘kib yuborardi [Qodiriy,1983: 7]».

Bundan ko‘rinadiki, Abdulla Qodiriy yoshligida adolatsizlikka chiday olmaydigan bola bo‘lgan. Yosh bo‘lishiga qaramay o‘zining mustaqil fikriga ega, so‘zi tiniq, sermulohaza yigit bo‘lganligini xotira chizgilaridan anglab olamiz.

Maktabning adabiyot darsliklarida Abdulla Qodiriyning hayot yo‘li va ijodini o‘rgatishda yuqoridagi jihatlarga e’tibor qaratilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. O‘qituvchi yangi mavzu bayonini yoritishdan oldin o‘quvchilardan ijodkor haqida bilgan, eshitganlarini so‘rab o‘tishi lozim. Negaki, o‘quvchilar bilgan ma’lumotlarini o‘qituvchi qaytadan takrorlamaslik hamda darsning vaqt reglamentidan unumli foydalanishi zarur bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilar yozuvchilar haqidagi ma’lumotlar orqali hayotiy tasavvurga ega bo‘lish bir qatorda, yozuvchi bilan u yurgan manzillarda xayolan sayohat qiladilar, turli taqdirdagi kishilar bilan uchrashadilar, katta-kichik achinarli va quvonchli voqealarning guvohi bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография. –Т.: Академнашр, 2014.183-184-бетлар.

2. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (5-sinf darsligi I qism). –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015. 133-141-betlar.
3. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (5-sinf darsligi). –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2020. 93-106-betlar.
4. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 19-бет.
5. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. –Т.: Ёзувчи, 2000. 27-28-бетлар.
6. Ингеборг Балдауф. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар .–Т.: Маънавият, 2001. 55 б.
7. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... –Т.: Маънавият, 1998. 27-бет.
8. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 113-бет.
9. Расулов Абдуғафур. Бадиийлик – безавол янгилик. –Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2007. 154-155-бетлар.
10. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 6-бет.

ADABIYOT DARSLARIDA YANGI ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Sanobar Abdurahmonova
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarini adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va o‘qitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish haqida fikr yuritilgan. Bir qator interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlangan.*

Kalit so‘zlar*: o‘zbek adabiyoti, adabiyot o‘qitish metodikasi, interfaol metodlar.*

Jamiyatning bugungi va kelajagi, uning madaniy-ma’rifiy va ma’naviy salohiyati ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi va murabbiylarga bog‘liq. Shu sababli mamlakatimizda o‘qituvchilar mehnatini qadrlashga, ularga har jihatdan g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga harakat qilinmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda ta’lim tizimini jahon andozalari asosida isloh qilish, yangi ilm maskanlari qurish, ularni zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash ishlari izchil davom ettirilmoqda. Xalq ta’limi vazirligi huzurida Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi tashkil etilganligi, bugungi kunga qadar markaz tomonidan ko‘plab elektron darslik, virtual labolatoriya ishlari va boshqa turli multimediali resurslar yaratilib, o‘quv-tarbiya jarayonida muvaf-faqiyatli qo‘llanilayotganligi ijobiy natija bermoqda.

O‘qituvchi – buyuk zot. Chunki uning qo‘liga O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlod ishonib topshirilgan. Shuning uchun har bir o‘qituvchi bu katta ishonchni o‘zining pok vijdoni va mas’uliyat hissi bilan oqlashi zarurdir. Buning uchun u tinimsiz izlanishi, jamiyatimizda sodir bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘z faoliyatida doimiy qo‘llab borishi kerak. Bundan tashqari, har bir darsning samarali chiqishi uchun axborot kommunikatsion texnologiyalar va yaratilgan barcha imkoniyatlardan o‘rinli foydalana olishlari lozim. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Ayniqsa, kompyuter,elekton doska, kodoskop, televizor, DVD va bir qator zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish o‘quvchilarni yanada jonlantiradi va ularda darsga bo‘lgan qiziqishning ortishi, mavzularni oson o‘zlashtirish va yodda saqlab qolish ko‘nikmalarini mustahkam-lashda samarali natija beradi. Darslarda kompyuterdan yangi mavzu va o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilar guruh bo‘lib kompyuterda berilgan savollarni mustaqil bajaradilar. Kompyuter esa ularning ballarini o‘sha zahotiyoq ko‘rsatib beradi. Natijada har bir o‘quvchi baholanadi, mustaqil fikrlashga o‘rganadi, darsga qiziqishi ortadi, keyingi darsni inzorlik bilan kutadi. Bu jarayonda o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasida do‘stona munosabat shakillanadi va o‘zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi. Xitoy faylasufi Konfutsiy shunday degan ekan: *“Eshitsam, esimdan chiqaraman, ko‘rsam, eslab qolaman, ishtirok etsam, o‘zimniki bo‘ladi”.* Darhaqiqat, o‘quvchi mavzuga oid topshiriqni mustaqil

bajarsa, uni tushunib yetadi va bu mavzuni esdan chiqarmaydi. Shuning uchun har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish kerak.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning asosiy maqsadi zamon talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratishdir. Ta’lim tizimini isloh etish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan xalos etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. An’anaviy darslarda o‘qituvchi faoliyati o‘quvchi faoliyatidan ko‘proq edi. Hozirgi zamonaviy pedtexnologiyalar asosida o‘tiladigan darslarda o‘quvchi faoliyati ko‘proq bo‘ladi, ya’ni bunday darslarda o‘qituvchi o‘quvchilarni faqat yo‘naltirib turadi, oldindan rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirish uchun turli usul va vositalardan foydalanadi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida izlanadi, vazifa bajaradi, mustaqil fikrlaydi, o‘rtoqlarini to‘ldiradi, o‘z fikrini erkin bayon etadi.

Ta’lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, *o‘quvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, bir xil narsa yoki fanni o‘rgatavermaslik, uzviylik va izchillik, yangi mavzuni ko‘rgazmali va qiziqarli bayon etish muhim ekan.* Buyuk ajdodimizning ushbu qarashlarining naqadar asosli ekanligi hozirgi kunda o‘z isbotini topmoqda. Davr hozirgi kun o‘qituvchisidan o‘quvchiga bilim berishda ta’limning yangi-yangi usullari ustida izlanishni talab etadi. Chunki o‘quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o‘quvchi darsni yaxshi o‘zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o‘tilganda o‘zini oqlaydi. Me’yoridan oshmasligi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo‘lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog‘lash, mustaqil fikrga tayanish shakillariga katta e’tibor berish lozim.

Bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o‘z navbatida, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo‘lishi, ulardan

o‘z darslarida samarali foydalana olishi kerak. Darslarda qo‘llanadigan interfaol usullar o‘quvchilarda o‘z ona tili va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini kuchaytirish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko‘tarish, mantiqiy va chuqur fikrlaydigan nutq sohibi bo‘lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ona tili va adabiyot darslarida o‘tiladigan mavzularga oid materiallarni topish, ularni bajarishda turli usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, “BBB”, “Tezkor savollar”, “Aqliy hujum”, “Falsafa”, “Maktub”(adiblar yoki asar qahramonlariga), “Oq-qora”, “Intervyu”, “Kelajakka maktub”, “Ikki xil talab”, “O‘z o‘rningni top”, “Zinama-zina”, “Kim gapirdi?”, “Men kimman?”, “Aks test” kabi usullardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Pedagog o‘quvchilar faoliyatini muloqot orqali tashkil qilishda o‘quvchilarning xarakter xususiyatiga qarab yondashmasa, har qanday texnologiya samarasiz bo‘lib qolaveradi. Masalan, og‘zaki nutqi yaxshi bo‘lmagan ayrim o‘quvchilarning yozma nutqi yaxshi shakllangan bo‘lishi mumkin.

“Aks test” usulidan barcha fan o‘qituvchilari darsning yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida foydalanishlari mumkin. O‘qituvchi yangi mavzu asosida 5 ta test topshirig‘I tayyorlaydi, A, B, C, D javoblaridan biri belgilab qo‘yiladi., lekin savol berilmaydi. Belgilangan javobga mos savolni o‘quvchi tuzadi. Masalan, 6-7-sinflarda Abdulla Qahhor hayoti va ijodini mustahkamlash uchun slayd orqali quyidagi test topshirig‘ini berish mumkin(bu usul yordamida 30-35 nafar o‘quvchini darsga ishtrok ettirish mumkin):

1. ----------?

A.”Qo‘shchinor chiroqlari”

B.”O‘tmishdan ertaklar”

C. “Og‘riq tishlar”

D. “Xalq”

Savol: Abdulla Qahhor qalamiga mansub bo‘lmagan asar berilgan qatorni toping. Bu usul orqali o‘quvchilarda savol tuzish ko‘nikmasini shakillantirish bilan

birga, ularning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlantirishga, mavzuni tez va oson o‘zlashtirishlariga erishiladi.

“Men kimman?” usuli yordamida adabiyot darslarida adib yoki shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarni so‘rab baholash mumkin. O‘quvchilardan biri sinfdan tashqariga chiqariladi, sinf muhokamasini eshitmasligi lozim. Sinfdagi o‘quvchilar kelishgan holda o‘tilgan mavzular asosida biror siymoni tanlaydilar, uning hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar bo‘lishib oladilar. So‘ng tashqaridagi o‘quvchini sinfga chorlanadi. O‘quvchi:

-Men kimman?

O‘quvchilar:

- Siz …. yilda tug‘ilgansiz.
- Sizning … kabi asarlaringiz bor.
- Sizning birinchi she’riy to‘plamingiz ….
- Sizning … shunday unvonlaringiz bor.
- Siz haqingizda ….shunday fikrlar bildirishgan.

O‘quvchi aytilgan ma’lumotlar asosida o‘zining kimligini aniqlaydi. Muhimi, ma’lumotlar murakkablikdan soddalikga tomon beriladi. Qancha qisqa vaqt ichida, qancha oz ma’lumotlar bilan topsa, o‘quvchi oladigan ball shuncha yuqori bo‘ladi, o‘quvchilarning aytgan ma’lumotlari e’tiborga olinadi.

“Maktub” usulidan biror badiiy asarni o‘rganib bo‘lgandan so‘ng foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga va mavzuni mukammal o‘zlashtirishlariga yordam beradi. O‘quvchilarga asar qahramonlarining biriga, ismini yashirgan holda, maktub yozib kelish topshirig‘i beriladi.O‘quvchilar har bir o‘qilgan maktub kimga yozilganini topishadi. Masalan, 9-sinfda “O‘tkan kunlar” romanini o‘qib tugatgandan so‘ng bu usuldan foydalanish mumkin:

Maktub

Mukammal bo‘lish, menimcha, barcha insonlarning orzu-umidi bo‘lsa kerak. Assalom-u alaykum, men maktub yo‘llayotgan aziz inson. Men sizni komil inson

deb o‘ylayman. Men “O‘tkan kunlar” romanini o‘qib chiqib, shu fikrga to‘xtaldim. Sizning yuragingiz to‘la muhabbat bo‘lsa-da, lekin baxtli bo‘la olmadingiz. Bu muhabbat kimgadir bir umrlik azob-uqubat keltirdi. Komil inson degani baxtli bo‘lishga fatvo degani emas.

Siz yurt qayg‘usi, xalq farovonligiga qayg‘urib yashasangiz-da, bu harakatingizni qo‘llab-quvvatlovchi jamiyat mavjud emas edi. Sizning ajoyib g‘oyalaringiz yuksak lavozimlarni egallagan bo‘lsa-da, xalq qayg‘usidan yiroq amaldorlarning g‘arazli qarashlariga duchor bo‘ldi. Sizning muhabbatingiz ham o‘ziga xos edi. Lekin bu muhabbatni ko‘ra olmadilar, tushuna olmadilar. Ko‘ngilga buyruq berilmasligini, majburlab bo‘lmasligini anglamadilar. To‘g‘risini aytsam, sizga havas qila olmayman. Chunki men baxtli bo‘lishni xohlayman. Bu romanni o‘qigach, ko‘zimiz ochildi. Siz qilgan xatolarni biz hayotda takrorlamaslikka harakat qilamiz. (Maktub Otabekka yozilgan).

“Vositali izoh” usulini darsning uyga vazifa berish bosqichida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ma’lum bir mavzu yuzasidan o‘quvchilarga topshiriq beriladi. O‘quvchilar biror predmet , rasm yoki buyum asosida mavzuni ochib berishga harakat qiladilar. Mavzu asosida o‘zlarining mustaqil qarashlari beriladi. Qiyosiy fikrlash ko‘nikmasini oshiradi. Bu usuldan, asosan, Vatan mavzusidagi she’rlar, badiiy asarlar tahlilida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Vatanni nimaga qiyoslaysiz?”- savoliga o‘quvchilar quyidagicha javob berishlari mumkin:

- Men Vatanni Onaga qiyoslayman (boshiga oq ro‘mol tashlab). Onajonlar mehri daryo, bag‘rikeng, kechiruvchan va qattiqqo‘l bo‘lishadi. Vatan ham bag‘rida hammani sig‘dira oladi, yaxshilarni ham, yomonlarni ham. Barchaga barobar ona yurt.
- Men Vatanni Quyoshga o‘xshatgim keldi. Quyosh tinimsiz, to‘xtamay barchaga barobar nur sochadi. Vatan ham shunday maskan deb bilaman.

Vatanni oyga, ko‘z qorachig‘iga, okeanga, musaffo osmonga, humo qushiga, oq kabutarga kabi o‘xshatishlar orqali mavzuni bolalarga qiziqarli usulda yetkazish va ularda Vatanga muhabbat hissini kuchaytirishga erishiladi.

Bunday usullar yordamida o‘quvchilarning mavzuni qisqa vaqt ichida yaxshi o‘zlashirishlariga, darsga nisbatan qiziqishlarini yanada oshirishga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga, duch keladigan muammolar oson yo‘l bilan hal qilishga, tanqidiy tahlil qilish, mustaqil fikr bildirish va 45 minut davomida barcha o‘quvchilarnning baholanishlariga erishiladi. Darslarning samarali chiqishida, natijadorlikka erishishida o‘qituvchi o‘ziga va o‘quvchilariga nisbatan talabchan, e’tiborli bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мавлонова Р ва бошқалар. Педагогика назарияси ва тарихи. Т.: “Фан ва технология”. 2010ю – 460 б.
2. Konfutsiy. Hikmatlar. T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018.- 192 b.
3. Беруний. Танланган асарлар. Биринчи жилд. Т.: Фан. 1963. 236 б.
4. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. T. “Innovatsion-ziyo”. 2020. – 352 b.

TALABALAR MINBARI

ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION G‘OYALAR

ONA TILI TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TALABLARI

Shahnoza Ashirova Primqul qizi
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti
shahnoza92.20@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy davrda ona tili ta’limini rivojlantirishning samarador usullari, mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, ona tili fani, o‘qitish, o‘rganish, malaka, ko‘nikma.*

Annotation. *This article discusses effiktive ways to develop mother tongue education in modern times and ways to overcome existing problems.*

Key words: *modern education, mother tongue science, teaching, learning, skills, abilities.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi qarorida o‘zbek lotin alifbosiga bosqichma-bosqich o‘tlishi bo‘yicha «yo‘l xarita»si belgilanib, unga ko‘ra 2023-yilning 1-yanvaridan yurtimizda o‘zbek tilidagi barcha hujjatlar to‘liq lotin alifbosi asosida yuritilishga o‘tiladi. Demak, shu paytgacha mamlakatimizda o‘zbek tilida ish yuritish ikki xil – kirill va lotin yozuvlarida olib borilayotganligi bo‘lsa, belgilangan muddatdan so‘ng faqat bitta alifbo qo‘llaniladi. Bu esa o‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili fani o‘qituvchilari zimmasidagimas’uliyatni oshirib, muayyan vazifalar ijrosini ko‘zda tutadi.

Ona tilini o‘qitishda o‘quvchining fikr-mulohazalarini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishiga alohida e’tibor qaratiladi. Aynan biz o‘rganayotgan 10-sinf ona tili darsligida berilgan matn va mashqlar ham o‘quvchilarni bahs-mulohaza yuritish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Har bir mavzuda bo‘limlardagi aloqadorlikka e’tibor qilingan. Ammo, bu darslik ba’zi

kamchiliklardan xoli emas. Bular haqida keyinroq batafsil to‘xtalib o‘tamiz, hozir esa ona tili fanini o‘qitishning samarali usullari haqida fikr yuritamiz.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz, imlo me’yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish: tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. [O‘zbek maktablarida ona tili o‘qitish konsepsiyasi, 1994: 4].

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda ona tili ta’limining maqsad va vazifalari o‘zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta’limi orqali grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik. Endilikda grammatika bilan bir qatorda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchilarda bunga nisbatan ko‘nikma shakllantira olishimiz darkor [O‘zbek maktablarida ona tili o‘qitish konsepsiyasi, 1994: 8].

Ushbu konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy tamoyillarini, dolzarb masalalar yechimi va maqsad va

vazifalarini hamda ta’lim muassasalarida mazkur fanni o‘qitishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Jumladan:

– ona tili fani DTS talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

– ona tili fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fanini o‘qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash;

– ona tili fani mazmunini boyitish, shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirish;

– ona tili fanining umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi va o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetintligini oshirishni tashkil etish;

– ona tili fani mazmuni o‘quvchilar mustaqil hayotda qo‘llay olish imkoniyati bo‘lgan og‘zaki va yozma savodxonligini mantiqiy, ijodiy, kreativ, tanqidiy fikrlashni shakllantirish;

– ona tili fanini o‘qitishda variativ o‘quv modellarini ishlab chiqish;

– o‘quvchilarni ona tili faniga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash;

– o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta’minlashda innovatsion pedogogik va zamoniy axborot komunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish;

– ona tili fani moddiy texnik bazasini mustahkamlash va byujetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish;

– davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish.

Bugungi kunda barcha sohalarda o‘zbek tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Davlatimiz tomonidan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohalardagi islohotlar, jumldan, ta’lim-tarbiya ishlarini zamon talablari doirasida tashkil etish, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini takomil-

lashtirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlar o‘zbek tili, xususan, ona tili ravnaqiga xizmat qilmoqda [Asqarova, 1992: 5].

Ona tilimizni ulug‘lash, uning boy xazinasi, tarovati va nafosatini yosh avlodga yetkazish maqsadida yurtimizda atoqli shoir va yozuvchilarimiz nomidagi ijod maktablari tashkil etilyapdi. Bu kabi ijod maktablarida eng, avvalo, ona tili va adabiyotni, badiiy ijod sirlarini chuqur anglash uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan:

– ona tili fanini o‘qitishda asosan nazariy ma’lumotlarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, o‘quvchining nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) kompetentsiyasini oshirishga yetarli e’tibor berilmagan;

– ona tili fanida o‘qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o‘quvchi uchun murakkab bo‘lgan ko‘plab grammatik mavzularning mavjudligi;

– ona tili fanini hayot bilan bog‘lab o‘tishga, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, o‘quvchilarda mazmunli, sodda, qiziqarli tarzda yetkazib berishga e’tibor qaratilmagan;

– o‘quvchilar darsliklardagi mavzularni o‘zlashtirishida qiziqish, ishtiyoq, maylni hosil qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga undovchi mashqlar, topshiriqlar o‘z aksini topmagan;

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aynan yuqori sinf ona tili fanini o‘qitishning yangi, samarali usullari, ilg‘or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas;

– 10-sinf ona tili fanining ilmiy metodik ta’minoti (darslik, o‘qituvchi kitobi, mashq daftari, multemidiya ilovalar, didaktik materiallar va boshqalar) yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

– ona tili o‘quv xonalari umumiy tartibda o‘rtacha xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy talablar asosid jihozlanmagan, fan mavzulariga tegishli rasm-tasvirlar, infografikalar mavjud emas, o‘quvchining savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi turli xil lug‘atlar (imlo lug‘ati, izohli lug‘at, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, iboralar lug‘ati) ona tili sinfxonalarida mavjud emas.

Ta’lim berishning yangi, samarali, takomillashgan usul va uslublarini yaratish, uni tajribada sinash, shu jarayonda yanada mukammallashgan yo‘nalishni hosil qilishdan iborat bo‘lib, mukammal dastur, takomillashgan darslikni ta’lim tizimini o‘zgartirmasdan o‘quvchilariga singdirish, «hazm qildirish» usul va uslublari ta’lim sifatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga ta’sir etadi.

Ta’lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo‘lga qo‘yish masalasi, eng avvalo, ona tili ta’limiga taaluqlidir. Chunki har qanday fanning mohiyati ona tili orqali ifoda qilinadi, ona tili orqali idrok etiladi. Maktablarda 10-sinf ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi «o‘quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan, nutq jarayonida samarali va o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini turlicha yo‘sin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat» [O‘zbek maktablarida ona tili o‘qitish konsepsiyasi, 1994: 9]. Mana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida metodist olimlar, ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar, ijodkor muallimlar yangi metod va usullarni yaratish, sinab ko‘rish, ommalashtirish uchun izlanishlar olib bormoqdalar.

Bu izlanishlarning natijasi sababli bugun kimdir ona tili darslarining grammatik qoidalarga «sho‘ng‘ib ketgani»dan nolisa, yana kimdir 10-sinf darsligidagi rejaga kiritilgan mavzularning ona tili bilan aloqasi yo‘qligini ta’kidlaydi [«Ma’rifat» gazetasi, 2021: № 8 (9333)]. Ona tili darslarida grammatik bilimlar ham, tilimizning uslubiy xususiyatlari ham o‘rgatilishi kerak. Lekin ona tili darsining boshqa fanlardan farqi, avvalo, shaxsning o‘z ona tilida fikrlash va uni bayon eta olish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdir. Maktabga qadam qo‘ygan bola ot, sifat, fe’lning qoidasini ayta oladi-yu, ammo kimdir undan o‘zing haqingda gapirib ber deydigan bo‘lsa, ko‘pchillik o‘quvchilar o‘zbek tilini bilmaydigan odamdek talmovsirab qolishi tabiiy. Shu yerda savol tug‘ilishi tabiiy. Axir nega til egasi bo‘la turib, bunday ahvolga tushish mumkin? Ona tili darslarida a’lochi o‘quvchi ham, hatto yuqori sinf o‘quvchilarida ham tayyorgarliksiz gapira olmaslik holati kuzatiladi.

Demak, ona tili darslari, avvalo tilga ona tili sifatida mehr uyg‘ota olishi kerak. Izlanishlarimiz natijasida ba’zi bir xorijiy davlatlarda ona tili darsida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nutqni shakllantirish uchun turli mavzular berilar ekan. Ularga o‘zga tilli va o‘z tilidagi multfilmlarni ko‘proq toma qilish orqali nutqlarini

rivojlantirish amalga oshirilar ekan. Bizda ham ona tili darslaridagi tillararo integratsiya jarayoni ham keng yo‘lga qo‘yilsa, u ham o‘quvchining, ham o‘qituvchining bilim saviyasini oshiradi. Jumladan, ona tili darslaridagi mavzularni o‘zlashtirishda, terminlarni izohlashda ingliz va rus tillarining qiyosiy o‘qitilishi va dars jarayonida tushintirilib borilishi mavzuning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qilib, bu kabi ishlar bolalarimizda kichikligidan o‘rgatilsa, yuqori sinf o‘quvchilarida nutqiy savodsizlik holatlari kuzatilmas edi.

Umumta’lim tizimida Ona tili fani muntazam o‘qitilishiga qaramasdan yuqori sinflaridan aynan 10-sinf o‘quvchilarining bilim va salohiyati o‘ta past. Zamon hech qachon bir yerda turib qolmaydi, davrlar almashishi bilan taraqqiyot natijasida insonning ongi va tafakkuri ham yuksalib boradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak ona tili fani o‘qituvchisining bilim va salohiyatiga ko‘p narsa bog‘liq. Bugun o‘qituvchi ona tili fanini o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni olib borishini davr taqozo etmoqda.

Rossiyalik tilshunos olima, professor A.Kozlyanika «Ozbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador» [«Ma’rifat» gazetasi, 2021: № 8 (9333)] degan edi. Darhaqiqat, olima ta’kidlaganidek, tilimizga xos nafislik va jozibadorlikni saqlash, o‘quvchilarni uning imkoniyatlaridan oqilona fooydalanishga o‘rgatish nafaqat ona tili ta’limining, balki barchamizning asosiy vazifamizdir. Bu borada esa amalga oshiriliayotgan izlanishlarni ommlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarining asosiy mazmun-mohiyati til egalarining o‘z ona tilidan har qanday vaziyatda o‘rinli foydalana olishi, jamiyatga faol aralashuvi jarayoniga ko‘maklashish, o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lishida asosiy turtki bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek maktablarida ona tili o‘qitish konsepsiyasi. – T.: 1994. – B. 8.
2. Asqarova M. O‘zbek milliy maktablari haqida ba’zi mulohazalar //Til va adabiyot ta’limi. – T., 1992. – B. 5–6.
3. «Ma’rifat» gazetasi. –T., 2021-yil 24-fevral. № 8 (9333).

«BOBURNOMA» ASARIDAGI HIKMATLARNING XALQ OG‘ZAKI IJODIGA UYG‘UN XUSUSIYATLARI

FEATURES OF THE PROVERBS IN THE WORK «BOBURNOMA» IN ACCORDANCE WITH THE FOLKLORE

Yulduz Karimova
FarDU adabiyotshunoslik magistranti
Yulduzk228@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida keltirilgan hikmatli baytlar va so‘zlarning bugungi iste’molda bo‘lgan maqol hamda iboralarga o‘xshash tomonlari aniqlanib tahlil qilingan. Asarda tilga olingan hikmatlar voqealar bilan birga berilgan va sharxlangan. Muallif tomonidan voqealar asosiga singdirilgan hikmatlarga xos xulosalar o‘rganilgan va folklorga oid xususiyatlari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Xalq og‘zaki ijodi, maqol, ibora, hikmat, obraz, xarakter, qoliplovchi hikoyalar, allegoriya, g‘oyaviy mazmun.*

Annotation. *This article analyzes the similarities between the wise verses and words quoted in Bobur’s «Boburnoma» similar to the proverbs and sayings in use today. The proverbs mentioned in the play are given and interpreted along with the events. The author has studied the conclusions of the wisdom embedded in the events and identified the features of folklore.*

Key words: *folklore, proverbs, sayings, wisdom, image, character, stereotypes, allegories, ideological content.*

Har bir xalq tilidagi maqol va iboralar asrlar davomida juda katta tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan kelajak nasllarga meros qilib qoldiriladi. Shu sababdan ham ular bebaho meros hisoblanadi. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasisifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O'zi va O'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda,

badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda.

O‘zbek mumtoz adabiyotida xalq maqol va iboralari deyarli barcha asarlrda uchraydi. Hatto maaqollarda iborat asarlar ham bor. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham xalq og‘zaki ijodiga xos elementlar mavjud bo‘lib, ular davr vuhiyatini, milliy mentalitetni, tarixni o‘zida mujassamlashtirgan hisoblanadi.

«Boburnoma» o‘zbek adabiyotida hajmi va ko‘lami bo‘yicha o‘ziga xos yirik epik asar hisoblanadi. Garchi bu asar bugun «Boburnoma» deb yuritilsa-da, muallif uni «Vaqoe» deb ataydi. Bu haqida Gulbadanbegim: «Firdavs makon va jannat oshiyon Hazrat haqidagi voqealardan nimaiki bilsangiz, yozingiz degan hukm bo‘lgan edi… Bu qissa boshida Bobom (Bobur) hazratlari (zamonida bo‘lgan) voqealar yozildi. Garchi bu so‘zlar podshoh Bobom hazratlarining voqeanomalarida aytilgan bo‘lsa ham, ular tabarruk tutib, qisqacha yozildi».[Gulbadanbegim, : 29]. Bobur va uning avlodlari tomonidan vaqoe deb yuritilgan bu asar epik turning yorqin namunasi hisoblanadi. Epik turning spetsifik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo, voqeabandlik tilga olinadi. Epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, so‘z vositasida o‘quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand, o‘zining tashqi shakli bilan jonlangani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni «plastik» tasvirlangan deb yuritiladi. [Quronov , 2007: 174]. Plastik tasvir «Boburnoma» asarining asosini tashkil etadi. Chunki unda barcha tarixiy voqealar muallif ishtiroki bilan amalga oshirilgan. Epik asarda voqea-hodisalarni hikoya qilib berayotgan shaxs roviy yoki hikoyachi deb yuritiladi. Epik asrada ko‘pincha uchinchi shaxs(muallif) tilidan, ba’zan esa birinchi shaxs (personajlardan biri) tilidan olib boriladi. «Boburnoma» asarida muallif nutqidan voqealar bayon qilinadi. Ba’zan epik asar muallifi rivoyani u yoki bu yo‘l bilan badiiy asoslashga harakat qiladi va bunda turli usullardan foydalanadi. Rivoyaning asoslanishi (motivatsiya) o‘quvchida «asar voqealari o‘ylab chiqilgan emas, haqiqatda yuz bergan «degan tasavvur uyg‘otadi. Shu tasavvur orqali badiiy asar

inson ko‘z ongida gavdalanadi. «Boburnoma» asarida ham rivoyaning bir necha turlarini ko‘rish mumkin. Bobur voqeani hikoya qilar ekan, obrazlar xarakterini ochib berishda maqol, ibora yoki bayt keltiradi. Har bir keltirgan baytidaibratli xulosa yuzaga keladi. Natijada kitobxonda tarixiy shaxslar (obrazlar)ga nisbatan yo hurmat, yo nafrat paydo bo‘ladi. Quyidagi baytni keltiramiz:

Harchi dar oina jahon binand,

Pir dar xisht puxta on binand.

(Yosh kishi oynaga qarab nima ko‘rsa, keksa odam xishtga qarab, undan ham yaxshiroq ko‘radi).

Voqea: Bularning ig‘vo va angizidin Shayboqxon Hiriydan tog‘ yo‘li bila meni Qandahorda hayol qilib, Qandahor ustiga ilg‘ar, ushbuni mulohaza qilib, Qosimbek tajribaliq kishi muhassilliqlar bila Qandahordin bizni ko‘churdi. [«Boburnoma», 1989: 192-289].

Ushbu baytni xalq og‘zaki ijodidagi maqollar bilan ma’nodoshini keltiramiz. «Qari bilganni pari bilmas», «Qariyali uyda qo‘y ham omon, bo‘ri ham yo‘q», «Qari bor – barakang bor», «Har keksa odam bir naql» [O‘zbek xalq maqollari, 2005:164]. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xiiligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak.

Ba nomi neko‘ gar bimiram ravost,

Maro nom boyad ki tan margrost.

(yaxshi nom bilan o‘lsam, shu etadi, menga yaxshi nom kerak, tana esa o‘lim uchundir) Bobur ushbu baytni quyidagicha izohlaydi: «Tengri taolo bu nav saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyib aylabtur. O‘lgan shahid, o‘lturgan g‘ozi. Barcha tengrining kalomi bila ont ichmak kerakkim, hech kim bu qitolidin yuz yondurur hayol qilmay, to badandin joni ayrilmaguncha, bu muhoraba

va muqotaladin ayrilmag‘ay». «O‘lgan shahid, o‘lturgan g‘ozi» bu maqol el orasida juda keng tarqalgan.

1. Xoh sof oltin, xoh kumush va xoh qo‘rg‘oshin bo‘lsin, baribir o‘z asliga qaytadi.

Muallif asarga oid shaxs yoki voqeani misol keltirar ekan, uni biror xalq maqoli yoki hikmati bilan keltirib asar syujetini boyitadi. Masalan: barcha narsaning o‘z vaqti soati etganda asl holiga qaytishini ona tomondan qarindoshi Haydar mirzo bilan bo‘lgan voqealarda yozadi. Xalq orasida «Har kim o‘z qilmishidan topar» yoki «Qarisan qartaysan, asl naslingga tortasan» maqoli qo‘llaniladi.

2. Kuching yetar ekan, olovni shu on o‘chir. Agar alanga olsa, jahonni kuydiradi. Dushmanni o‘q bilan urishga qodir ekansan, uning kamon kerishiga qo‘yma.[«Boburnoma», 1989: 92]

Ushbu misolni she’riy bayt tarkibida berar ekan Bobur, Shayboniyxondek g‘anim paydo bo‘lganini, uning ildiz otib ulgurmasidanoq yo‘q qilish kerakligi haqida qayg‘uradi. Qadimdan el orasida «Kaltak ko‘targanga cho‘qmor ko‘tar», «Vaqtida qilinmagan ish boshga keltirar tashvish» maqollari be’tiborlik va loqaydlik bilan cho‘g‘ni vaqtida o‘chirmasa, u alangaga aylanib, hamma narsani kuydiradi. Boburning tashvishi ham o‘rinli edi. Ammo temuriy shahzodalar uning maslahatiga quloq tutmadilar, birlashmadilar. Natijada ulkan imperiya shayboniylar qo‘liga o‘tib ketdi. Temuriylar quvg‘inga uchradi.

3. Qutlug‘ tabiatli Jamshid bir bulog‘ boshida tosh ustiga shunday deb yozgan ekan: bu bulog‘ tepasida bizlar singari ko‘p kishilar kelib o‘lturdilar, ketdilar va yo‘q bo‘ldilar. Olamni mardlik va zo‘rlik bilan oldik, lekin o‘zimiz bilan go‘rga eltmadik.[«Boburnoma», 1989: 89]

Shayboniyxon ta’qibiga uchragan Bobur yozadi: «…Obburdandir quyiroq bir chashma tushubtur, bu chashma boshida mozoredur. Ushbu chashmadin yuqori Mascho doxilidur. Ushbu chashma boshida, chashma yoqasidagi toshida qazib, bu uch baytni sabt ettim».

«Xon kiyimi ham o‘lchab bichiladi». Kishining mol-dunyosi qancha oshib-toshib yotgan bo‘lsa ham, berilgan umrdan ortig‘ini ko‘rolmaydi.

Xalq orasida «Umr – o‘tkinchi mehmon», «Umr temir bo‘lsa ham, bir kun eriydi», «Umr – ariqdan oqqan suv» kabi maqollar ishlatiladi. Bobur mirzoning ham bu baytni keltirishdan maqsadi umrning o‘tkinchiligini, bevafoligini aytish, lekin shu bevafo dunyoni hech kim tashlab ketishni istamaydi. Ketayotganda ham o‘zi bilan hech narsa olib ketolmaydi. Xalq orasidagi afsonalarga ko‘ra, Iskandar ustoziga vafotidan so‘ng tobutidan qo‘lini chiqarib qo‘yishini buyuradi. Bu bilan hammaga ibrat sifatida butun dunyoni qo‘lga kiritgan fotih u dunyoga qo‘li quruq holda ketmoqda degan xulosa kelib chiqadi.

4.Yengilgan safga bir «hay» kifoyadir.[«Boburnoma», 1989: 103]

Bobur Mirzo xalq donoligi bo‘lgan hikmat va maqollardan yaxshigina xabardor. U g‘azallarida ham, «Boburnoma»da ham xalq hikmatlaridan o‘z o‘rnida ishlata olgan. O‘z boshidan toj-u taxt balosini o‘tkazgan Bobur qo‘shin boshqaruvini oson emasligini yaxshi tushunadi. Saf boshqaruvida donolik birinchi o‘rinda turadi.

Xalq orasida «Besh qo‘rqoqqa bir qarg‘a» maqoli bor. Unda ham mazmunan shu fikr yuzaga keladi. Urushda sarkardaning o‘limi, jangning taqdirini hal qiladi. Agar sarkarda jangda o‘lsa, manaman degan botirlar ham qochishga tushib qoladi. Yoki jang hiylasida oz qo‘shin bilan ham dushmanni yengish mumkinligi nazarda tutilmoqda.

5. Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham, ko‘ngil ochuvchi bu qasrdan ketish kerak bo‘lur.

Bobur bu erda aslida dunyoni nazarda tutadi. «Qo‘ptum, bog‘ go‘shasig‘a bordim. O‘zim bila andesha qildim. Dedimkim, kishi agar yuz, agar ming yashasa oxir o‘lmak kerak. O‘zumni o‘lumga qaror berdim.» Shu voqealarda tush ko‘rib, tushida Xoja Ya’qub Xoja Yahyoning o‘g‘li hazrati xoja Ubaydulloning nabiralarini ko‘radi. Tushida unga dalda berib, yana taxt egasi bo‘lishini, uyg‘onib otlanishini aytadi. Talmeh san’ati va tushdan foydalangan muallif xalq hikmatini o‘rinli ishlatadi. Bundan tashqari, «Inson umri – daryo suvi», «O‘tmas umr bo‘lmas,

sinmas temir» kabi xalq maqollari umrning abadiy emasligini, inson qancha yashasa ham, o‘lim uni ta’qib etib borishini anglatadi.

6. O‘n darvesh bir gilamda yotadi, ammo ikki podshoh bir iqlimga sig‘maydi. Mardi xudo bir nonning yarmini esa, qolgan yarmini darveshlarga beradi: podshoh esa bir iqlim mulkini olsa, yana boshqa iqlimni ham olish fikriga tushadi.

Bobur Mirzo podshohlik tojini kiyganda ham adolatni unutmadi. Ammo yurt olishlik, qo‘shin to‘plash, saltanat boshqarish unga otameros edi. Ayrim hollarda ko‘ngli darveshlikni tusagani haqida ham «Boburnoma»da shoir bayon qiladi. Xalq orasida ham ayni shunga xos maqollar bor: «Eski boydan yurt qolmas, yangi boydan cho‘p qolmas», «Dushman bitsa ham, dushmanlik bitmas».

7. Zug‘m bilan aytilgan so‘z shu darajaga etkazdiki, qadimiy xonadonlarni vayron qilib yuboradi.

Bobur Shayboniyxon Xurosonni olgandan so‘ng temuriy shahzodalarning bir nechtasiga maktub yo‘llaydi. Ayrimlari uni qo‘llab-quvvatlaydi, ayrimlari esa loqayd qolaveradi. Ushbu baytni Bobur o‘kinch bilan yozadi. Temuriylar o‘zlariga-o‘zlari zulm qildilar. Shayboniyxon ularni beayov qatl qildi. Podshohlikda yangi sulola o‘z tartib-qoidasini mustahkam o‘rnatish uchun oldingi sulolani qatl ettiradi. «Zo‘ravonlik – oxiri vayronalik», «Zo‘rlikning so‘ngi – xo‘rlik» degan maqollar ham shu mazmunda yaratilgan.

8. Sen o‘zingga yomonlik qilganni turmushga topshir, turmush sening o‘ch oluvchi xizmatkoringdir.

Bobur atrofida yaqin odamlaridan tashqari sotqin va xoinlar ham bo‘lganki, yaxshilikning qadriga etmay, oxir oqibat o‘zlari ham xiyonat tufayli o‘lim topgan. Masalan: Xo‘b Nigorxonimning o‘g‘li Muhammad Xusayn mirzo. Shayboniyxon tomonga qochib o‘tib, Boburdan ko‘p shikoyatlar qiladi, natijada Shayboniyxon uni o‘ldirib yuboradi.

Xalqda shunday naqllar bor: «Yelga qarshi tupurma, o‘zinga qaytar», «Kimki qilsa yomonlik, aslo topmast omonlik», «Yaxshilik ko‘zga ko‘rinmas, yomonlik

ko‘mib qo‘yilmas», «Yomon so‘z egasiga qaytar». Xalqimiz bu maqollarni bejiz yaratmagan. Uzoq yillik hayotiy tajribaning mevasi sanaladi.

9. Agar olam tig‘i o‘z joyidan qo‘zg‘alsa, xudo xohlamasa biror tomirni ham qirqolmaydi.

Bobur bir o‘limdan qolgan jangda shu hodisaga o‘zi guvoh bo‘ldi. «Osoyish» kemasidaligida bir hind chiqib, o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Ammo o‘zi o‘ladi.

Xalqimizda «Qirq yil qirg‘in kelsa ham, ajali yetgan o‘ladi» degan maqol bejiz paydo bo‘lmagan.

«Boburnoma»da shunday hikmatlar borki, bu Boburning hayoti davomida to‘plagan tajribalari mahsuli hisoblanadi. «Ko‘nglingni dinlarning muhokama maydoniga aylantirma. Adolat o‘rnatishda insonlarning e’tiqodiga chuqur hurmatda bo‘l». Ayni shu adolatparvarligi uchun ham hind xalqining suyukli hukmdorlaridan biriga aylandi. «Shavqatsiz kishi azobga loyiqdir». Bobur qisqa umri davomida juda ko‘p xonlarni, beklarni ko‘rdi. Mard, nomard kimsalar bilan uchrashdi. «Yaxshi kishilarni Yaratgan yaxshi do‘stlar bilan siylaydi». Shoir hayoti davomida orttirgan do‘stlari, umrining oxiriga qadar sadoqat bilan xizmat qildi.

«Davlat uchun ko‘nglungni zor etma, izzat uchun o‘zungni xor etma». «Davlatqa yetib mehnat elini unutma, Bu besh kun uchun uzungni asru unutma». «Ko‘pchilik bahodirlar qanchalar kuchli bo‘lmasinlar, ular hargiz o‘z jahllari va qo‘rquvlaridan ustun kela olmaydilar». «Yonmag‘il aytgon hadisingdin, Tonmagal aytg‘on hadisingdin».

«Boburnoma»da o‘z faoliyatini hamisha tahlil qilib borgan Bobur xatolari haqida ham, yutuqlari haqida ham oshkora so‘zlaydi. Bu asarda bosh qahramon muallifning o‘zi. Voqea- hodisalarni bayon qilishda xolislikka amal qiladi. Shuning uchun ham muallif timsoli ideallashtirilmagan. Tasavvurimizdagi hayotning butun achchiq-chuchugini, past-balandligini ko‘rgan real shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda uning fel-atvori murakkabligi bilan o‘z ifodasini topgan. Tabiatiga xos ezgu fazilatlar, ko‘nglidagi takrorlanmas, sohir tuyg‘ular, his-hayajonlar bilan birga hukmdor sifatidagi qattiqqo‘llik va talabchanlik ham oshkora tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. Тошкент. 1998. – B. 29
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T:. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2007. – B. 174
3. Z.M.Bobur. Boburnoma. Toshkent. 1989. – B. 192-289
4. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent – 2005.
5. Д. Қуронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати.- Тошкент: Akademnashr, 2013.

RAMZ – UNIVERSAL BADIIY VOSITA

Mohira Abdurahmonova
Alisher Navoiy nomidagi
TOSHDO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola bugungi kunda badiiy adabiyotning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan ramz, uning genezisi, taraqqiyoti hamda undan foydalanish muammolariga bag‘ishlanadi. Maqolada ramzning badiiy asarga kirib kelgunga qadar qay tarzda mavjud bo‘lganligiga diqqat qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ramz, majoziylik, rang, raqam, emperik tasavvur, mif, xalq og‘zaki ijodi.*

Annotation*. This article is devoted to the problem of symbolism, it’s genesis, development and use, which is one of the main tools of fiction today. The article focuses on how the symbol existed before it was used in a work of art.*

Key words: *symbol,figurative, color, a number, empirical imagination, myth, folklore.*

Adabiyot va san’at degan muqaddas dargohga qadam qo‘ygan har bir ijodkor, hech shubhasiz, avvalo, o‘z xalqining qalbiga quloq solib, uning dardiga darmon bo‘lishga intiladi. Ijodkor yangi asar yaratar ekan, ajdodlar tajribasidan o‘rnak oladi. Badiiy tafakkur tadrijiga nazar soladigan bo‘lsak, olamni tushunish, anglash jarayonida tuyg‘ularni his etgan inson ularni ifodalashda, xususan, badiiy aks ettirishda har xil usullardan foydalanilganligi ma’lum bo‘ladi. Olamning gultoji sanalmish inson mavjud ekan, u qalbida jo‘sh urgan hissiyotni qulay shakllarda ifodalayveradi va bu esa badiiyatga hissa qo‘shadi. Zero, adabiyot odddiy so‘zga hayotbaxsh qudrat ato etadigan, insoniyatning eng nozik tuyg‘ularini harakatlantiradigan, ko‘ngil atalmish sirli va mo‘jizakor dunyoni taftish qilishga undaydigan san’at turlaridan biri bo‘lib, badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari

orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir. G‘oyat keng qamrovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyotni tushunib, anglab, his qilib, u berayotgan sehr-jozibasidan atroflicha xabardor bo‘lgandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. Jumladan, anglangan borliqni o‘z holicha emas, balki badiiy aks ettirishning turlaridan biri ramz hisoblanib, uning nasriy asarlarda qo‘llanishi o‘zbek adabiyot tarixi namunalarida ham, bugungi zamonaviy o‘zbek hikoyanavisligi, qissachiligi, romannavisligida ham alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ramziylik san’at va adabiyotning asosiy unsurlaridan biri sifatida qadimgi davrlardan hozirgacha taraqqiy etib, o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega bo‘lib kelmoqda. Xususan, jahon adabiyoti namunalariga nazar tashlasak, nemis adibi T.A.Gofman asarlari, O.Balzakning «Sag‘ri teri tilsimi», Gogolning «Portret», O.Uayldning «Dorian Greyning portreti» kabi roman va qissalari, Edgar Poning hikoyalari mifologik-ramziy yo‘nalishdagi asarlar hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiyoti nasriga e’tibor qaratar ekanmiz, ularda endi voqelikdan ko‘ra psixologik tasvirga, maishiy turmushga qaraganda insonning o‘z ichki dunyosi tasviriga guvoh bo‘lamiz. Boisi bugungi globallashuv jarayonlari, bevosita tashqi muhit ijodkorning va kitobxonning badiiy-estetik didiga ta’sir qilmoqda va buning natijasi o‘laroq, endi o‘quvchining nigohi o‘z ichki «men»iga qaratilmoqda. XXI asr o‘zbek adabiyoti keskin evrilishlar, yangicha adabiy jarayonlar, turli adabiy oqimlarning yuzaga kelishi bilan taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilmoqda. Nasrda insonning ichki olamiga oyna tutildi, unda o‘z qalbini tomosha qilayotgan inson tashqi olam bilan botinining murosasi haqda bosh qotirmoqda. Shu jihatdan aytish mumkinki, insonning ichki olamini, uning qalbida kechayotgan tug‘yonlarni ramzlar orqali ifodalash yozuvchi uchun ham jiddiy ahamiyat kasb etib bormoqda. Hozirgi o‘zbek adabiyotida ramzlarga yo‘g‘rilgan hikoya, qissa va hatto boshdan oxir ramziy mazmunga boy romanlar dunyoga kelmoqda. Jumladan, Ahmad A’zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton kabi ijodkorlarning an’anaviylikdan va jahon

tajribalaridan keng foydalanib, yangicha ramziy-majoziy obrazlar yaratishi ma’lum ma’noda alohida bir uslubni vujudga keltirmoqda.

Bir-biridan uzoq bo‘lgan predmetlar o‘rtasidagi «muvofiqlik» tamoyili (masalan, ma’naviy va moddiy dunyo o‘rtasidagi) o‘rta asrlar falsafasi va adabiyotida ancha jiddiy tadqiq etilgan. Shundan kelib chiqib, ramz va unga yaqin bo‘lgan majoz tushunchasi, ular o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarga alohida to‘xtalish lozim, deb hisobladik.

Ramz o‘tgan asrning 80-yillaridan keyin xitoy adabiyotshunosligida paydo bo‘lganidan so‘ng, olimlar tomonidan bu atamaga nisbatan turli farq qiluvchi qarashlar ilgari surila boshladi. Buning natijasi o‘laroq, ramz haqida chuqur ilmiy asoslangan nazariy qarashlar paydo bo‘ldi. Ramz ko‘pchilik uchun tanish terminga aylanib ulgurgan bo‘lsa ham, uning o‘zi nima, qanday xususiyatlarga ega, degan savollarga javob izlash natijasida manbalar o‘rganilganda ramz masalasi haqida hanuz yaxlit bir ilmiy to‘xtamga kelinmaganligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham ramzlarning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi hamda adabiy jarayonga ta’siri nechog‘lik ekanligini o‘rganish, qayd etilgan manbalarga nazar tashlash zaruriyati tug‘iladi. Ramzning mohiyati haqidagi savollar Aristotel zamonidayoq ilm ahli oldiga qo‘yilgan va ana shu davrdan to hozirgacha har bir zamon olimlari baholi qudrat javob berib keladi. Ramz tushunchasining badiiy adabiyotda anglanish doirasi juda keng. Ma’lumki, biron bir hodisa mohiyatini shartli ravishda ifodalovchi so‘z simvol yoki ramz deb ataladi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ramzga «biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora»[79] deb ta’rif berilsa, «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»da ramz – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli va badiiy shartlilik shakllaridan ekanligi, u majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilish bilan bog‘liq bo‘lishi hamda ko‘pma’noliligi bilan ajralib turishi izohlanadi[80]. Ramz atamasiga adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: «Ramz – (arabcha so‘z bo‘lib – imo, ishora, imlash) simvol, ko‘chim turlaridan biri, faqat

[79] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006: 346
[80] Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004: 247

shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi»[Quronov, 2010: 125]. Darhaqiqat, ramz majoz (allegoriya)ga yaqin bo‘lib, ba’zan ularni bir xil hodisa deb qarash ham mavjud. Lekin ularning bir-biridan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanishi mumkin. Keltirilayotgan ta’riflar, albatta, ramzning lug‘aviy ma’nosiga daxldor bo‘lib, mazkur atamaning keng tushuncha ekanligini, qo‘llanilganda turli ma’no turlanishlariga ega bo‘lishini ham e’tiborga olish zarur. Ramz keng ma’noda voqelikni jonli mushohada qilish orqali yuzaga kelgan tasavvurdan iborat. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ramz voqelikning in’ikosidir. Professor H.Boltaboyev ramz va ramziylikka xos belgilarni quyidagicha ifodaydi: «Ramz...faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi. Cho‘lpon she’riyatidagi «yulduz», «bulut», «bahor», «qish» obrazlari ramzning yorqin misoli bo‘la oladi. Jumladan, «Qalandar ishqi» she’rini ishqiy mavzudagi she’r sifatida tushunaverish mumkin. Biroq undagi ramzlar qatida boshqa ma’no ham mustaqil holda mavjud bo‘lib, uni o‘z vaqtida shoirga ruhan yaqin kishilar yaxshi tushunishgan. Sababi ular ramzlarning ma’nosi anglashiladigan kontekstdan shoirning hayot yo‘li, orzu-intilishlari, she’r yozilgan paytdagi ruhiy holati va hokazo omillardan xabardor bo‘lganlar» [Болтабоев, 2014: 290]. O‘z tabiatiga ko‘ra, ramz biror voqelik to‘g‘risidagi muayyan umumlashma bo‘lib, u aks ettirayotgan narsaning yolg‘iz o‘ziga ishora qiladi. Taniqli rus faylasufi A.F.Losev aytganidek, ramz narsaning mazmuni, mohiyati bo‘lsa ham, biroq har qanday mazmun va mohiyat narsaning ramzi bo‘la olmaydi[Лосев, 1991: 258]. Bundan kelib chiqadigan xulosa, narsaning har qanday mazmun-mohiyati ramz bo‘la olmaydi. Narsaning mazmun-mohiyati ramzga aylanishi uchun ular o‘ziga xos ravishda qayta idrok etilishi, ma’lum

darajadagi shartlilik asosida ko‘pchilik tomonidan bir xilda qabul qilinadigan darajaga yetishi kerak bo‘ladi. Aniqlilik vositasida mavhumlikni aks ettirish majoziylikning tabiatini belgilab beradi.

Ramzlarning paydo bo‘lishi ruhiy-psixologik asosga ega. Goble d’Alviella «Ramzlar migratsiyasi» asarida fikrlarni ilgari suradi: «Ramz bu ifoda shaklidir. Uning asosiy maqsadi narsa-predmetning nusxasini olish emas, u shaklning ma’noga, shaklning shaklsizlikka aylanishidir»[Очилов, 2018: 16]. Ramzlarga xos bo‘lgan bunday tafakkur tarzi miflarda o‘z ifodasini topadi. Ramzlar turkumiga oid bo‘lgan san’atni insoniyatning eng dastlabki san’ati deb baholash mumkin. Bu bosqichda insoniyat tuyg‘ularini, anglagan haqiqatlarini ifoda etishga harakat qilgan, ammo ular bunga mos ravishda his uyg‘otuvchi xususiyatga ega shakl, ya’ni shakliy obrazni topa olmagan, shu tariqa belgilardan ramz sifatida foydalana boshladi.

Tarixdan ma’lumki, qiyofa, rang, rasm-rusum, raqamlar, buyum yoki ism o‘zida juda boy madaniy ma’umotni saqlab kelgan. Yozuv paydo bo‘lgunga qadar bu vazifani ramzlar bajargan. Har bir narsa o‘ziga xos shaklga, rangga, o‘lchamga ega, ibtidoiy inson ham konkret predmetlikka asoslanib ramz yaratgan. Adabiyotshunos N.Jumatovaning fikricha, ramzning mohiyatini ilg‘ashda narsaning mohiyati emas, balki rangning mohiyati yetakchilik qilgan. Masalan, gul go‘zallik ramzi va bu go‘zallik ibtidoiy inson uchun dastlab noma’lum bo‘lgan. Biroq keyinchalik gulning rangi, hidi qadimgi insonni ilk bora hayajonga solgan, uning go‘zallikka tashnalik ehtiyojini zabt etgan. Bu davrda insondagi uchta sezgi organi, ya’ni ko‘rish, hid bilish hamda eshitish ramz tarixida yetakchilik qilgan, ma’lum davr o‘tib, beshta sezgi orqali olingan tuyg‘ularning sintezi narsa haqidagi taavvurni yanada konkretlashtirgan. Shundan so‘ng, gul go‘zallikning ramzi darajasiga ko‘tarilgan va go‘zal qiz-ayollarga nisbat berila boshlagan. Mantiqan yondashilganda, N.Jumatovaning yuqoridagi fikrlari asosli. Tarixdan ham ma’lumki, ibtidoiy inson u yoki bu narsaning mohiyatini to‘la tushunib yetmagan vaqtda, eng avval shu narsadan foyda yoki zarar ko‘rishiga qarab uni yaxshilik yoki

yomonlik timsoli sifatida qabul qilgan. Bu albatta, ibtidoiy insonning e’tiqodiy qarashlari bilan ham bog‘liq hodisa. Ya’ni ilk inson ongi hali mavhum tushunchalarni yaratish iqtidoriga ega bo‘lmay turib, oddiy emperik tasavvurlarini ramzlashtirishga intilgan. Masalan, insoniyat tamaddunining dastlabki bosqichlarida kunduzi ov qilishda qiyinchiliklarga duch kelmaganligi sababli yorug‘likka nisbatan ezgulik, qulaylik va farovonlikni mujassamlashtirgan tushuncha sifatida qaragan bo‘lsa, tunda buning butunlay aksi bo‘lganligi uchun qorong‘ulikka nisbatan yovuzlik, dahshatni ifodalovchi kuch tarzida qaragan. Shu bois qora rang o‘lim, dahshat, yovuzlik ramzi sifatida marosim hamda udumlardan chuqur o‘rin olgan. Yoki qadimda iloh osmonda yashaydi degan tasavvur osmon rangi – ko‘k rangni ilohiy ramz tarzida e’tiqodiy tasavvurda mustahkamlanib qolishiga asos bo‘lgan. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, demak, inson sezgisiga ta’sir etgan narsaning qaysidir bir tomoni – tashqi ko‘rinishi, shakli, hidi, rangi, ta’mi ustunlik qilib, uning qalbida ma’lum bir tuyg‘uni uyg‘otishi natijasida u yo quvonadi, yo g‘azablanadi, yo qo‘rqadi, yo ozor chekadi. Aynan shu kabi tuyg‘ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan narsa yoki hodisaga salbiy yoki ijobiy munosabat paydo bo‘lishi oqibatida keyinchalik shu predmetning ramzlashishiga zamin hozirlagan bo‘lsa ajabmas. Aniqroq qilib aytganda, biror narsa oldida noxush kayfiyat sezuvchi inson ongida oddiy boshqa shunga o‘xshash narsa va hodisalardagi ayni shu belgi asta-sekin yovuzlik tajassumi sifatida shakllanib boradi. Bu jarayon shu qadar uzoq va sekin-astalik bilan davom etganki, oxir-oqibat muayyan urug‘, qabila yoki kishilar jamoasi ongida bir xil tuyg‘u uyg‘otadigan darajaga yetadi. Pirovardida, barcha uchun bir xil mazmun-mohiyat anglatuvchi narsa yoki tuyg‘u ramzning asosini tashkil qiladi.

Qadimgi mif, afsona va xalq og‘zaki ijodi namunalarida yashab kelgan ramz yozma adabiyotda ham bo‘y ko‘rsatdi. Jumladan, ifodalanmoqchi bo‘lgan fikr ma’lum bir timsollar orqali jonlantirilishini forsiy-turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi hisoblangan «Avesto»da uchratishimiz mumkin. Mazkur kitobda dinning ko‘pgina qonun-qoidalari bilan birga ijtimoiy hayot, turli tabaqalar, mavjud tuzum

tartib-qoidalari va boshqalar haqida fikrlar bayon etilgan. Ushbu din va uning muqaddas kitobi bilan bog‘liq timsollar vaqt o‘tgani sari ramzlasha borgan. Jumladan, Ozar va Atar nomlari bilan timsollashgan olov – poklanish ramzi bo‘lsa, navqiron, go‘zal qiz tasvirida tasavvur etilgan Ardvissura Anaxita – to‘lib oqqan daryo, baraka ramzi tarzida ifodalangan. Yana Varaxran – kuch-qudrat, Xaoma – hayot daraxti ramzlarini ifodalab kelgan[Isamuradov, 2002: 126]. Bu timsollar o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, ba’zilari esa hozirgacha yashab kelmoqda. Keyinchalik xalq orasida olovning muqaddas sanalishi, marosimlarda uning atrofida aylanish udumi, shuningdek, undan yomonlikni arituvchi vosita sifatida foydalanish urf-odatlari saqlanib qolganligi ham bu unsurning ramziy ahamiyati bilan bog‘liqdir. Musulmon dunyosi adabiyotida esa ramziylik an’anasining asoslari Qur’oni Karimga borib taqaladi. Ushbu muqaddas kitobdagi «oq va qora ip» (Baqara surasi), «dumi qirqilgan» (Kavsar surasi) kabi ramziy so‘z va jumlalar Qur’oni Karim orqali savod chiqargan avlodga so‘zni majoz orqali anglatishdan ta’lim beradi. Bunday ramziy so‘zlarni tushunish ehtiyojining mavjudligi natijasida Qur’oni Karimni zohiriy ma’noda sharhlash (tafsir) bilan birgalikda, uning botiniy ma’nolarini izohlash (ta’vil) ham alohida ilm darajasiga ko‘tarildi.

Insoniyatning badiiy tafakkur taraqqiyotida ko‘pchilik uchun aniq va tushunarli bo‘lib qolgan ramzlar fikrni aniq, lo‘nda va obrazli ifodalash vositasi sifatida xalq og‘zaki ijodi namunalarida keng qo‘llangan. Xususan, ertakdagi ramziy obrazlar va maqollardagi ramzlar bugungi kungacha yashab kelmoqda. Masalan, xalq ertaklarida yalmog‘iz – yovuzlik ramzi, tulki – ayyorlik ramzi, quyon – uddaburonlik va ba’zan qo‘rqoqlik ramzi sifatida insonlar xotirasida kodlangan. Qora rangning yozuvlik, qo‘rqinch ramzida, oq rangning yorug‘lik, ezgulik ramzida qadimdan mavjudligi xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan maqollar tarkibiga ham shu holatda ko‘chgan. Masalan, «Xalqdan ajralgan yuzi qora bo‘lur», «So‘raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora», «Tagi qora qoraligicha qolar», «Yuzim

oq bo‘lsin desang, ishingni to‘g‘ri tut» kabi maqollarda ranglar asl ma’nosida emas, majoziy xarakterda bo‘lib, bugungi kunda ramzga aylanib ulgurgan.

Ramz nafaqat so‘zlar, balki raqamlar vositasida ham aks ettirilgan. Uzoq asrlik mumtoz adabiyotimiz namunalarini tadqiq va tahlil etganimizda, ularning ramziy-majoziy qatlamida raqamlarning ma’no qirralari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlarda raqam zamirida yashiringan u yoki bu ma’no va haqiqatni anglamasdan, badiiy matnni tushunish ancha mushkul. Sharq she’riyatida qo‘llanilgan raqamlar faqatgina aniq son qiymatini emas, balki aksariyat paytlarda biror-bir ramziy – ilohiy, falsafiy, dunyoviy mazmunni ham ifoda etgan. Raqam ramzlaridan mohirona foydalanish ijodkordan din, mifologiya, falsafa, tarix, tasavvuf kabilarga doir bilimni talab qilgani singari, har bir raqam ortida yashiringan ma’nolarni ochish, to‘g‘ri talqin qilish uchun ham o‘quvchidan ma’lum tayyorgarlik, malakani talab etadi. Mumtoz adabiyot namunalaridagi «bir» soni din va tasavvuf ta’limotida mutlaq borliq mazmunida qo‘llanilgan. Ayniqsa, Yaratganning yakka-yu yagonaligini e’tirof etish maqsadida bu raqamga tez-tez murojaat etilganligining guvohi bo‘lamiz. Yunon olimlarining ham, Sharq mutasavvuflarining ham «ikki» raqamiga oid ramziy qarashlarida ziddiyat, qarama-qarshilik, tushunchalardagi nomuvofiqlik anglashilgan. Shu sabab ishq otashida yongan oshiq «ikkilik» fikrini, ya’ni «men» va «sen»ni tark etadi. Dunyo va oxirat xususidagi fikr-mulohazalar, asosan, «ikki dunyo», «ikki jahon» iboralari vositasida ifodalangan va ular ko‘pincha tazodiy xarakter kasb etgan.

Mana shunday tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan ramz adabiyotga, badiiyatga yangi bir shakl tarzida kirib keldi. U boshqa sohalarda o‘z mazmunidan kelib chiqib ma’lum funksiyalarga ega bo‘lsa-da, so‘z san’atida o‘zining eng yuksak ma’no qirrasini namoyish etishga imkoniyat mavjudligi sababli adabiyotning asosiy qurollaridan biriga aylandi. Mumtoz adabiyot vakillari tomonidan ramzdan foydalanish keng yoyildi, tasavvufiy ma’nodagi she’rlarni majozsiz, ramzsiz tushunish va to‘la his etish mushkul holga keldi.

Ramzlarga murojaat qilish, ulardan o‘rinli hamda mohirona foydalanish har bir ijodkorga o‘z fikrini ta’sirchan shaklda ifodalay olish imkonini beradi. Zero, Abdulla Qodiriy e’tirof etganidek, yozuvchilikda bir qonun bor: hammadan ilgari ma’no, undan so‘ng shu ma’noni – fikrni ifoda qilish uchun so‘z qurish, so‘z emas, san’atkorona, ya’ni shundog‘ so‘zki, aytmoqchi bo‘lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo‘lib, yasama bo‘lmasin![Қодирий, 1969: 173]. Darhaqiqat, badiiy ijodda muvofiqlik, mutanosiblik zaruriylik kasb etar ekan, badiiy asarda ramzlardan foydalanishda ham sun’iylik, nomuvofiqlikdan yiroq bo‘lgan holda, topib so‘zlash muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Халқ сўзи. 2017. 4 август.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 346.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-том. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 247.
4. Quronov Dilmurod va b. Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug‘ati. Akademnashr. – T.: 2010-yil. – 125-bet.
5. Болтабоев Ҳ. Адабиёт энциклопедияси. – Т.: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 290.
6. Лосев А.Ф. Логика символа. Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. . – М., 1991. . – С. 258.
7. Очилов О. VII-X асрлар танг даври шеъриятида рамзлар семантикаси. Ф.ф.д. дисс. – Т.: 2018. 16-б.
8. Isamuradov M. Avestoda mifologik qatlam (tabiat kultlari asosida). Fil.fan.nom. – diss. – Toshkent, 2002 – 126-bet.
9. Қодирий А. Кичик асарлар.– Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. 173-б.

MAQOLLARNI O‘RGANISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Malika Jazilova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Maqolada adabiy ta’lim jarayonida matn ustida ishlash yo‘llari maqollarni o‘rganish misolida yoritiladi. Maqollarni o‘rganishga doir interfaol usullarning mazmuni bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar. *Ta’lim, adabiyot, badiiy asar, maqol, interfaol usul.*

Adabiy ta’lim samaradorligini ayrim hollarda faqat darslarning o‘zi bilan ta’minlab bo‘lmaydi. Bu esa bevosita o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini susaytirishi mumkin. Ilm-fan, texnika kundan-kunga rivojlanib borayotgan globallashuv davrida zamonaviy darslarni tashkil qilish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois Matnlar ustida ishlash orqali ham adabiy ta’lim jarayonini turli xil texnologiyalardan foydalanib tashkil etish mumkin.

So‘nggi yillarda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishga doir alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘quvchilarni o‘ylantiradigan, tag ma’nolarga ega bo‘lgan muammoli topshiriqlarning yechimi yuzasidan shaxsiy qarashlarini asoslashni, fikrlarini tizimlashtirishni, muayyan xulosalarini bayon etishni talab etadigan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni talab etadi. Sir emaski, adabiyot darslarida asosan badiiy asar matnini qayta hikoyalatishga urg‘u qaratiladi. Darsliklarda muayyan adib ijodi o‘rganilganidan so‘ng qayta xotirlashga, mustahkamlashga doir savol-topshiriqlar beriladi. Hozirgi o‘quvchilarning 5 yil avvalgi o‘quvchilardan fikrlash tarzi ancha farq qiladi. Shu jihatdan olganda darsliklarda ko‘proq ularning diqqatini, xotirasini, tafakkur tarzini rivojlantishga yo‘naltiradigan vazifalarga o‘rin berish maqsadga muvofiq.

Darsliklarimizdagi matn ustida ishlash bilan bog‘liq savol va topshiriqlardan tashqari, suratlar bilan ishlash vazifalarini ham kiritish mumkin. Odamlar fikrlar ekan, bir narsani boshqasiga qiyoslash, o‘xshatish va solishtirish orqali

tasavvuridagilarini muayyan tarzda bayon etadi. Demak, odamlarda bir narsani ikkinchi bir narsaga qiyoslash, hamma narsani so‘z yordamida jonlantirishga moyillik, so‘z san’atiga – adabiyotga qiziqish azaldan bor ekan, degan xulosaga kelsak bo‘ladi.

5-sinf adabiyot darsligida berilgan «Hikmat durdonalari» ruknidan o‘rin olgan maqollar, topishmoqlar mavzularini o‘rganishda ta’limning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish ko‘zlangan samarani beradi. Xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lmish maqollar asrlar davomida misqollab to‘plangan, ne-ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan noyob xazinadir. Biz maqol va topishmoqlarni yoshligimizdan eshitib katta bo‘lganmiz. Maqollarning 1-sinfdan boshlab o‘rganilishida ham muayyan tarbiyaviy maqsad mujassam.

«Maqol atamasi arabcha qavlun-gapirmoq aytmoq so‘zidan olingan. Maqol ibratli so‘zdir. Shunday so‘zki, gapga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta’sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo‘ladi. Kimki uni ko‘p ishlatsa, o‘shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar [Ahmedov, 2020:,13].

Maqollar xilma-xil mavzularda bo‘lishi mumkin. Masalan, do‘stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo. Maqollar mavzusini o‘rganishda rasmlardan foydalanish, ularning zamiridagi ma’noni chuqurroq anglatishga doir topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning tasavvurlarini kengaytirish, dunyoqarashlarini boyitishga erishish mumkin.

Maqollarni til xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilish mumkin. Maqollarning yaratilishi ko‘proq she’riy talqinga yaqin, ularda ko‘p hollarda bir-biriga qofiyadosh so‘zlar ishlatiladi. Bu narsa maqollarning tez tushunilishiga, xotirada saqlab qolinishiga yordam beradi. Masalan, «Vaqting ketdi, naqding ketdi» maqolida vaqt va naqd so‘zlari qofiyadosh bo‘lib kelgan. Bundan tashqari, maqollarda sinonimlardan ham ko‘p hollarda foydalaniladi. *Do‘sting ming bo‘lsa ham oz, dushmaning bir bo‘lsa ham ko‘p.* Bu maqolda esa *oz* va *ko‘p* so‘zlari bir-biriga antonim. Antonimlar gaplarda, maqollarda ta’sirchanglikni va ma’noni kuchaytiradi.

Bu maqolda antonimlikdan tashqari metonimiya til hodisasini kuzatish mumkin. Metonimiya (yunoncha «metanymia» – qayta nomlash) predmet, belgi, harakat nomi o‘zoro aloqadorlikka ko‘ra boshqa bir predmet, belgi, harakat nomiga ko‘chish hodisasidir. Buni quyidagi holatda kuzatamiz. *Ming bo‘lsa ham, bir bo‘lsa ham* so‘zlari metonimiya hodisasini ko‘rsatadi. Maqol to‘liq holda ochilsa «do‘sting mingta odam bo‘lsa ham oz,dushmaning bitta odam bo‘lsa ham ko‘p» shaklida yozilgan bo‘ladi. Tildagi bu hodisa maqolni shaklan qisqartiradi, ma’noni bo‘rttirib chiqaradi. Maqollarda qofiyadoshlik yoki sinonimlik antonimlikdan tashqari oddiy gap holatida ham kelishi mumkin. Masalan: «Er yigitni nomus o‘ldiradi», «Kambag‘allik ayb emas», «Kelinoying keyingi oying» [Қанотли сўзлар: 1986:,92].

«Kekkayganga kekkaygin, boshing ko‘kga yetguncha, Egilganga egilgin boshing yerga tekkuncha» maqolida boshing ko‘kga yetguncha gapida bo‘rttirish kuzatiladi. Inson jismoniy jihatdan boshini ko‘kga yetkazolmaydi. Inson hech qanday vositalarsiz bu ishni amalga oshira olmagani uchun bo‘rttirishdan foydalangan bo‘lishi mumkin. Maqollarda tilimiz boyligini har bitta so‘z o‘z o‘rniga ega ekanligini, kam so‘z orqali ham ulkan ma’no anglashilishi, tilda ko‘p uchraydigan hodisalarni kuzatishimiz mumkin. Maqollarni shakli qanday chiqishi qofiyasining go‘zal bo‘lishi, xotirada tez qolishi ham tilga bog‘liqdir. Tilimizning go‘zalligiga maqollar ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Quyida maqollar mavzusini o‘rganishda samarali bo‘lgan bir qator metod va usullar mazmuni xususida so‘z yuritiladi:

1-topshiriq. «Bo‘sh o‘tirma, bosh qotir» usuli. Bunda o‘quvchilarga rasmlarda aks etgan narsa-predmet, jarayon, voqea-hodisalar orqali ulardagi ma’noni topish va nuqtalar o‘rniga maqollarni yozish vazifasi yuklatiladi.

Boshqotirmada yashiringan maqollarni toping			
1.	… *(Ona yurting – oltin beshiging)*		
2.	… *(Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni)*		
3.	… *(Ona yurting omon bo‘lsa, Rangi ro‘ying somon bo‘lmas)*		

2-topshiriq. «KROSSVORD» usuli

K		**k**		**a**			**q**			**k**				**g**		**b**												
R	**U**		**i**			**t**			**n**			**g**			**s**	**h**		**t**									**t**		
O		**t**		**n**			**d**			**i**				**n**			**o**			**m**			**h**				**d**	
S	**A**		**o**		**y**			**g**			**t**				**o**			**e**										
S	**O**			**a**			**a**		**o**			**o**				**q**												
V		**t**			**i**			**t**			**c**	**h**					**t**			**c**	**h**							
O	**T**		**r**			**i**				**o**				**z**														
R		**j**			**i**		**s**	**h**				**i**		**s**	**h**				**s**	**h**								
T	**A**		**i**				**l**			**t**				**a**				**y**			**k**							

Bu topshiriq kichik guruhlarda ishlash orqali bajariladi. Bunda o‘quvchilar katakchalardagi so‘zlarni topish asosida berilgan krossvordda yashiringan

maqollarni topib yozishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilar bunday usular orqali o‘tilgan mavzuni eslariga olib yanada mustahkamlashlari mumkin.

JAVOBLAR

1. Ko‘kka boqma, ko‘pga boq!
2. Ruhi tetikning – ishi tetik.
3. Oltin o‘tda bilinar, odam – mehnatda.
4. Sayoq yurgan tayoq yeydi.
5. Sog‘ tanda sog‘lom aql.
6. Vataning tinch sen tinch!
7. Ota rozi xudo rozi
8. Rejali ish – hamisha besh
9. Tani sog‘lik – tuman boylik.

Xalq maqollarining qachon va qanday paydo bo‘lishi haqida aniqroq va mukammalroq fikr aytish mushkul. Maqol o‘z nomi va darajasigacha ko‘tarilgunga qadar bir qancha davrni o‘z boshidan kechiradi, qayta-qayta sayqal topadi. Ana shundan keyingina biz oddiygina qilib aytadigan maqol – fikrlar qaymog‘i yuzaga keladi. Maqol – quyuq fikrlar xazinasi, uning yaratuvchisi va asrovchisi xalq esa xazinabondir.

3-topshiriq. «Fikr» usuli

Bu topshiriq o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, shaxsiy qarashlarini asoslashga o‘rgatadi. Bunda o‘quvchilardan berilgan maqollarning variantlari va ma’nolarini aytishlari talab qilinadi**.**

Masalan: Besh qo‘l og‘izga sig‘mas.

Variantlari: «Besh panja – og‘iz yirtar», «Besh panjangni og‘zingga birdan tiqma».

Ma’nosi: Har bir narsaning ham me’yori bo‘ladi. Hammasi menga bo‘la qolsin, deb har narsaga yopishsang o‘z joningga jabr qilgan bo‘lasan, ko‘pchilik o‘rtasida obro‘ying to‘kilib, sharmanda bo‘lasan. Shuning uchun boriga shukur qil.

1-guruh			
	Maqol	**Varianti:**	**Ma’nosi:**
1.	Beshikdagi bola besh turlanadi.	Bola yettiga kirguncha yetti turlanadi.	Bu maqollar orqali bolasining tobi qochib qolganidan tashvish tortayotgan ota-onalarga tasalli beriladi.
2.	…	…	…
2-guruh			
	Maqol	**Varianti:**	**Ma’nosi:**
1.	Bir kun ming kun bo‘lmas.	Bir kecha ming kecha bo‘lmas.	Bu maqolni vaqtincha bo‘layotgan qiyinchilikka sabr-u toqat qilmay, hadeb noliyveradigan odamga tasalli berganda yoxud noqulay joyda tunab qolishga to‘g‘ri kelganda aytiladi.
2.	…	…	…
3-guruh			
	Maqol	**Varianti:**	**Ma’nosi:**
1.	Bir odam ariq qaziydi, ming odam suv ichadi.	Bir kishi qazgan quduqdan, ming kishi suv ichadi.	Ko‘pchilikning manfaati yo‘lida qilgan mehnating zoya ketmaydi. Mehnating samarasidan bahramand bo‘lgan kishilar sening nomingni yaxshilik bilan yodga oladilar, ko‘pchilikning hurmat-ehtiromiga sazovor bo‘lasan.
2.	…	…	…

4-topshiriq. «Masal» usuli

Mazkur topshiriq o‘quvchilardan shu vaqtgacha bilgan, eshitgan yoki o‘qigan ertak hikoya va rivoyatlari asosida fikr-mulohaza qilishlari yoki asar ma’nosiga mos maqol va masallarni aytishni taqozo etadi. Masalan: Bug‘doy hosili boshida, sabzi hosili tagida.

Bu maqolning kelib chiqishi xalqning quyidagi nasriy masaliga bog‘liq: Bir dehqon ayiq bilan sherikchilikda dehqonchilik qilmoqchi bo‘libdi-da, unga aytibdi:

– Ayiqpolvon, avval boshida shartlashib olaganimiz yaxshi. Sen ekinni boshi bilan bo‘lasanmi, tagi bilanmi?

– Albatta, boshi bilan bo‘lamanda, – debdi ayiq.

Dehqon «ho‘p» deb sabzi ekibdi-da, hosil pishgach, boshini, ya’ni bargini ayiqqa berib, tagini – sabzisini o‘zi olibdi. Bu hol ayiqqa rosa alam qilibdi. Kelasi yil ekin ekishdan oldin dehqon undan yana so‘rabdi:

– Ayiqpolvon, sen ekinni boshi bilan olasanmi, tagi bilanmi?

– Bultur pand yedim, endi tagini olaman, – debdi ayiq.

Dehqon «hoʻp» deb, bugʻdoy ekibdi-da, hosil pishgach, donini oʻzi olib, somonini ayiqqa beribdi…

Bu maqolni oʻta sodda, ishning koʻzini bilmaydigan, hammaga aldanib yuradigan odamga: «Hoy, koʻzingni och, ayiqdek ishlab-ishlab, oxiri aldanib qolma tagʻin», degan ma'noda aytiladi [Ҳикматнома, 1990:,71].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mantiqiy, kreativ fikrlashga undovchi, tanqidiy-tahliliy hamda motivatsiya beruvchi topshiriqlar berilsa, oʻquvchilarning darsga boʻlgan qiziqishlari ortadi. Chunki oʻquvchilar bajarayotgan topshiriqlar orqali izlanadi, fikrlaydi va zarur xulosalar chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S. va boshq. Umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2020. –272 b.

2. Ҳикматнома: Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 528 б.

3. Қанотли сўзлар: Мақоллар, маталлар, ҳикматли сўзлар / Тўплам, нашрга тайёрловчи Э. Сиддиқов. –Т.: Ёш гвардия, 1986. – 256 б.

MUTOLAA KONSTRUKTIV JARAYON SIFATIDA

Kadirova Nilufar Olimovna
Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi, 2-kurs magistranti
nilufark06@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada kitobxon javobi yondashuvining adabiy ta'limdagi oʻrni, oʻquvchining tanqidiy tafakkurini faollashtirishdagi ahamiyati zamonaviy Oʻzbek adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri E.A'zamning «Tanho qayiq» dramasi tahlili misolida yoritib berilgan.*

Kalit soʻzlar: *reseptiv estetika, retsipiyent, pragmatika, konstruktiv jarayon, gorizont ojidaniya, transmissiya.*

Annotation. *The article highlights the role of the reader's response in literary education, the importance of improving the student's critical thinking in the analysis of the drama "Lonely Boat" by E.Azam, one of the brightest representatives of modern Uzbek literature.*

Keywords: *receptive aesthetics, recipient, pragmatics, constructive process, horizon expectation, transmission.*

O‘tgan asrning 60-70-yillarida asosan Germaniya va AQShda nazariy yondashuv sifatida maydonga kelgan reseptiv estetika badiiy asarni muallif nuqtayi nazariga asoslangan izohlash va talqinlardan iborat degan qarashlarni rad etib, kitobxon qarashlarining polisemiyasini tasdiqladi. Bunda asar muallifi va resipiyent orasida tenglik belgisi qo‘yilib, ular o‘rtasidagi chegaralar barham topadi.

Reseptiv estetikaning dastlabki belgilari qadimdan mavjud bo‘lib, badiiy asar uyg‘otgan taassurotlar va holatlar orqali inson ruhiyatining tozarishi Aristotel qarashlaridayoq o‘z ifodasini topgan. Aflotun esa resipiyent ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi badiiy asarlarning «magnit kuchi» haqida fikr yuritgan.

Ta’sir estetikasining vakillari, nazariyotchilari «Yozuvchi – O‘quvchi» zanjirida o‘quvchini birinchi o‘ringa qo‘yishdi. «Konstans maktabi»ning ikki tadqiqotchisi bo‘lmish Xans Robert Yauss va Volfgang Izerlar tomonidan yaratilgan konsepsiyaga muvofiq adabiy asar o‘quvchi tomonidan o‘qilmas ekan, tahlil qilinmas ekan u hech qanday ma’no-mazmunga va qiymatga ega bo‘lmay qoladi.

Volfgang Izer «Yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat bir tomonlama harakat emasligi hamda ularning uzatuvchi-qabul qiluvchi sxemasiga mos kelmasligini izohlaydi. Adabiy asarlarda ular o‘rtasida o‘zaro ta’sir yuzaga kelishi natijasida o‘quvchi ushbu asar mazmunini qayta qurish, sintez qilish orqali anglaydi». [Yauss, 1997:104].

A.I.Beletskiy «muallif obrazi» va «kitobxon obrazi» muammolarini to‘liq o‘rganish zaruriyatini aynan «o‘quvchi obrazi» muallif darajasida bo‘lmasa ham badiiy asar g‘oyasini shakllantirish funksiyasiga ega ekanligi bilan izohlagan. Olim «muallif - obraz – o‘quvchi» estetik triadasida asosiy e’tiborini o‘quvchiga qaratdi.[Belitskiy, 2006:409].

Retseptiv estetika (o‘qituvchining aralashuvi cheklangan holda o‘quvchining asar yuzasidan fikrlarini erkin bayon qilishi) o‘quvchini badiiy asarda «faol ayg‘oqchi» sifatida belgilab beradi. Natijada o‘quvchi asar voqealari ichiga

sho‘ng‘ib, ularga real guvoh bo‘ladi va asar syujetini o‘zining talqini orqali qayta «yaratadi». Bunda yozuvchi estetikasi emas, kitobxon (retsipiyent) qarashi, tafakkur hosilasi sifatida diqqat markazda bo‘ladi. «Kitobxon- adabiy aloqaning yakunlovchi bo‘g‘iniga aylanadi». [Kovilkin, 2007:153].

Reseptiv estetika shuni ko‘rsatadiki, badiiy asar matni uchun kitobxonning javobi muhim ahamiyatga ega. Mutolaa jarayoni asarni yanayam jonlantirib, o‘qirmanning qalb ko‘zgusida qayta yaraladi.

Adabiyot darslarida reseptiv estetika asosida badiiy asar tahlilini o‘tkazish o‘quvchida badiiy asarlarni o‘qishga motivatsiya hosil qilish, o‘qiganlarini uqish va hayotda biror vaziyatda duch kelinganda to‘g‘ri qaror qabul qila olish, qisqa qilib aytganda, badiiy adabiyotni amaliy (pragmatika) jarayonlar bilan bog‘lashga yordam beradi. Ayni paytda reseptiv estetika kitobxon potensialini kashf qilish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda tayyor axborot bilan ta’minlangan jamiyatda o‘quvchilarni o‘qitishga va doimiy ravishda fikrlariga ega bo‘lishga undash, o‘zlari uchun va o‘z tajribalari ichida javoblarni qidirishga o‘rgatish kerak. Buning uchun adabiyot darslarida badiiy asar mutolaasini faol va jonli jarayonga aylantirish lozim. Faol jarayon o‘quvchi va matnning bir-biriga o‘zaro ta’siriga asoslanadi va har qanday badiiy asardan kitobxonlar o‘z tafakkur olami, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bo‘lgan bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib shaxsiy talqinlarini yaratadi.

Adabiyot darslarida o‘quvchini badiiy asar olamiga olib kirish, ularda o‘qilgan asarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishda konstruktivizm nazariyalari asosida ish ko‘rish samarali ta’limga xizmat qiladi. Ushbu nazariyalarning zamirida «O‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qilishi kerak emas, balki o‘rganish jarayonida tengdoshlari bilan muloqot orqali bilimni o‘zi yaratishi kerak» degan g‘oya yotadi. Ya’ni o‘qituvchining vazifasi transmissiya (tayyor bilimni o‘quvchiga yetkazish) emas, balki o‘quvchilar «kashfiyot» qilishlari uchun shart-sharoit yaratishda ko‘riladi.[Mirzayeva, 2020:1].

O‘qilgan badiiy asar asosida shunday savol va topshiriqlar tanlanishi kerakki, ular o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatdagi bilimlarini rivojlantirib borishi, ularning individual qarashlari hamda ijodiy, tanqidiy fikrlarini rag‘batlantirishga xizmat qilishi lozim. Bunda tanlangan vazifalar nazariyani hayot bilan bog‘lashga, hayot haqidagi amaliy ko‘nikmalarini parallel rivojlantirib borishga qaratilishi lozim. Pragmatik yondashuv asosida tuziladigan so‘rovnomalar reseptiv estetikadagi «kitobxon javobi» (reader response)ni faollashtiradi.

Xo‘sh, kitobxon javobi nazariyasi o‘quvchi badiiy sezgilarni kashf qilishda qay darajada ahamiyatga ega?

ToshPTI akademik litsey o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan kichkina tadqiqotimiz ana shu savolga javob izlash maqsadida o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 26 nafar o‘quvchi ishtirok etib, shundan 9 nafari o‘g‘il bola, 17 nafari qiz bola. Tahlil uchun 11-sinf Adabiyot darsligidagi Erkin A’zamning «Tanho qayiq» dramasi olindi.

So‘rovnomaning maqsadi- Reseptiv estetika nazariyasi (S. Fish, N. Golland, D. Bleyx) va tranzaktsion nazariya (L. M. Rozenblatt) asosiy postulatlarini (isbotsiz qabul qilinadigan, lekin biron asosi bo‘lgan qoida, tamoyil) o‘zbek kitobxonlari timsolida tasdiqlash yoki rad etish. Bunda:

- o‘quvchi - bu asarga haqiqiy tajriba va real voqelikni olib keladigan va izohlash orqali mazmunni to‘ldiradigan, faollashtiradigan faol element;

- magistral qarashlar va xulosalarni cheklash, badiiy san‘atni idrok qilish kuchini namoyish etish;

- adabiyotga tasviriy san`at asari sifatida yondashib, har bir o‘quvchining o‘ziga xos, ehtimol noyob qarashlarni bevosita matn bilan bog‘liq yoki unga asoslangan holda yaratish;

- bitta matnga o‘quvchilarning javoblari -reaktsiyalari turlichaligi;

- o‘qish jarayonidagi kitobxonning emotsional-ruhiy holati badiiy asar tahlilida muhim faktorlardan biri bo‘lib xizmat qilishi.

Gipoteza: Kitobxonning estetik va hayotiy tajribasining ayrim tomonlarini o‘rganishga qaratilgan so‘rov natijalarini tahlil qilish, Erkin A’zamning «Tanho

qayiq» dramasidan kelib chiqadigan ma’noning o‘quvchi bilimi va dunyoqarashiga turli-tuman ta’sirini kuzatish, mutolaa jarayonida o‘quvchi his- tuy g‘ulariga xilma-xil ta’sirini o‘rganish, retsipiyentning voqelikka munosabatini va bu munosabatning sabablarini tushunishdagi rang-baranglikni ko‘rish hamda har bir o‘quvchi fikri muhimligini isbotlashimiz mumkin.

Erkin A’zamning «Tanho qayiq» dramasi mustaqillik davri dramaturgiyasiga mansub bo‘lib,asar 2003-yilda yozilgan. Unda asosan davrimizning global muammosi – Orol muammosi qalamga olingan. Orol bo‘yidagi kimsasiz ovulda keksa bir qayiqsoz yolg‘iz yashaydi. U tevarak-atrofdagi ovullardan bekorchi yosh-yalangni yoniga olib, ularga ota-bobolardan qolgan qadimiy qayiqsozlik hunarini o‘rgatadi va shuning barobarida chin insoniylikdan saboq beradi. Dengiz esa yuzlab chaqirim nariga ketib qolgan. Lekin qariya bir kunmas-bir kun uning suvga to‘lajagiga ishonadi. Bu shunchaki orzu yoxud havoyi ishonch emas edi.

Dramada badiiy detal sifatida keltirilgan qayiq obraz darajasiga ko‘tariladi. Qayiq ramziy ma’noga ega. Orol va qayiq. Bu ikki tushuncha bir-biri uchun yaralgan aslida. Orolboboning o‘y-xayollari, mushoha dalari, orzu-umidlari ham ana shu qayiq obrazi orqali ifodalab berilgan. Dengiz bo‘lmasa qayiqning ham ma’nosi bo‘lmagani kabi dengiz bo‘lmagan yerda Orolbobo ham yashay olmaydi. Qayiq ramzida Orolboboni va Orol dengizni ko‘rishimiz mumkin.Ovuldoshlari tashlab ketgan vatanda tanho qolgan Orolbobo ham dengizi tashlab ketgan tanho qayiqqa o‘xshaydi. Orolbobo ham tanho qayiq kabi ovuldoshlaridan farqli o‘laroq yakka, alohida inson siymosidir.

Asarda ko‘tarilgan Orol fojiasi — bir bahona, asar aslida inson qalbining dag‘allashib, qurib-sayozlashib boruvidan paydo bo‘ladigan falokatlar haqida.

Mustaqil mutolaaga berilgan «Tanho qayiq» dramasi asosida ochiq va yopiq savollardan iborat so‘rovnomalar tayyorlandi.

Yopiq savollar quyidagicha:

1. Sizga chet elga borib ishlash va daromadga ega bo‘lish taklifi berildi, lekin oilada yolg‘iz farzandsiz, qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

2. Asarning «Tanho qayiq» deb nomlanishida qanday ma’no bor?

3. Orol bobo timsoli xotirangizda qaysi asar qahramonlarini yodga soldi?

4. Orol bobo Orol dengizining qurishini nimadan deb bildi?

5. Orol boboning «Sizlar bor ekansiz, Orol o‘lmaydi» degan fikrida kimlar nazarda tutiladi?

6. Dramadagi rivoyatga xos o‘rinlarni qaysi voqealarda ko‘rasiz?

7. Orolbobo timsolida hayotda qanday insonlarni bilasiz, uchratgansiz?(uning siymosida kimni tasavvur etasiz)

8. Oilada ikki avlod vakilining kelishib yashashi kimga ko‘proq bogliq?

9. Sizga asarni qayta nomlash imkoniyati berilganda qanday nom tanlagan bo‘lar edingiz? Fikringizni asoslang.

10. Asarning ikkinchi, uchinchi tugallanishini siz qanday yakunlagan bo‘lardingiz?

Asarning «Tanho qayiq» deb nomlanishining ma’nolarini yoritishda o‘quvchilarning javoblari orasida «tug‘ilgan tuproqqa sadoqat, og‘ir damlarda ham uni tashlab ketmaslik», «Orolning qurishi bilan bog‘liq ekologik muammoga ishora», «Orolboboga o‘xshagan insonlarning kamligi», «bu ovulda Orolboboga o‘xshagan insonning boshqa yo‘qligi, uning yakka-yu yagona ekanligi», «qayiq ramziy ma’noda Orolboboni bildirishi» kabi javob variantlarini kuzatish mumkin. Berilgan savollar orasida o‘quvchilar olingan bilimlariga tayanib Orolbobo timsolida turli asar qahramonlari – Ch.Aytmatovning «Oq kema» qissasidagi Mo‘min chol, Oybekning «Bolalik» qissasidagi Dadaqo‘zi (yosh Musoning bobosi), «Fanorchi ota» hikoyasidagi Fanorchi chol Ch.Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanidagi Edigey Bo‘ron siymosi assotsatsiyalanganini qayd etishgan. Javoblar orasida Orolbobo kabi obraz uning xotirasida hech kimga o‘xshamagan, o‘xshatmagan timsol bo‘lgani, o‘qilgan asarlari orasida bu obraz yangicha taassurot uyg‘otishini e’tirof etgan o‘quvchilar ham uchradi.

Badiiy asarni o‘qish davomida oo‘quvchi matndan ma’no yaratadi. O‘qish konstruktiv jarayon sifatida o‘quvchidan asarda ochiq aytilmagan (yashirin)

ma’noni anglashni, bo‘shliqlarni to‘ldi rishni, o‘z mulohazalarini yaratishni talab etadi. Resipiyentning asardan yangi ma’no «kashf etishi» va hatto asarni qayta nomlab ko‘rishi reseptiv estetikada kitobxon tanlovi sifatida qabul qilinadi.

So‘rovnomaning 9-savoliga o‘quvchilarning 10% muallif tanlagan nomni maqullab chiqqan bo‘lsa, qolgan holatlarda asarni qayta nomlashga doir o‘z variantlarini- «Orol qaytadi», «So‘nmas umid», «Ona-zamin mehri», «Hayot haqiqati», «Ishonch»,»Tanho bobo» kabi nekbin g‘oyalarni tarannum etuvchi nomlar bilan birga «Oq-qora hayot», «Ko‘ngil sahrosi», «Qalb sayozligi», «Orolbobo qayg‘usi»,»Inson taqdiri», «Orol o‘kinchi» tushkun ruhiyatni ifodalovchi nomlarni keltirishgan. Berilgan javoblar orasida muallif tanlagan nomga o‘z e’tirozini bildirilgan javob diqqatni o‘ziga qaratdi. Kitobxonning fikricha, muallif «Tanho qayiq» nomi bilan Orolboboning qismatini ko‘proq nazarda tutgan bo‘lsa, «Jasorat» deb tanlangan nom Orolboboning adabiy figurasini to‘laqonli yoritib berishini,uning tanlagan yo‘li jasorat yo‘li ekanligini, bu yo‘lni hamma ham tanlayvermasligi ayniqsa, bugungi kundagi hayotimizda insonlar ko‘proq yashash uchun yengil yo‘lni tanlashlari nuqtayi nazaridan Orolboboning bu harakatlarini kitobxon jasorat deb ataydi va asarni mana shunday deb qayta nomlashini bildiradi.

Aksar kitobxonlar tafakkurida Orolboboning o‘g‘li Qalimbetning otasidan kechirim so‘rab qaytib kelishi, boboning nevaralari uni tez-tez yo‘qlab turishiga umid bog‘lagani, voqealar ijobiy tomonga o‘zgarib ketishi mumkinligi haqidagi bashoratlar asar so‘ngida kutilmaganda fojea bilan yakunlangani bois barham topadi. Asar xotimasining ikkinchi va uchinchi ko‘rinishlarini yaratish taklifi berilganda asar kompozitsiyasi bilan bog‘liq kitobxon resepsiyasi yuzaga keladi. O‘quvchilar asarning ikkinchi, uchinchi yakunini nekbin ruh bilan yakun topishini istashgan. Orol boboning orzulari amalga oshib, nevaralari bag‘riga qaytgani, qizi deputatlikka saylanib, Orol muammosini yechish bilan bog‘liq chora-tadbirlarda faol ishtirok etishi, ovul hududida vaziyat yaxshilanib, odamlar orasida mehr-oqibat, o‘zaro ishonch tuyg‘ularining oshib borishi, Orolboboning shogirdlari ustozining ishini davom ettirishi, Amet boshchiligida qo‘shma korxona tashkil etib, ishlari

yurishib ketishi kabi xotimalarni taklif etishgan. Berilgan javoblar orasida asar xotimasi muallif yaratgan kabi qolishini istagan o‘quvchilar ham bor.Voqealar jarayonidagi farzandlarning otaga bo‘lgan munosabatlari «Birni ko‘rib fikr qil» degan tog‘ri yo‘lga boshlaydigan xulosaga olib kelishini ta’kidlagan.Yana bir e’tiborli tomoni o‘quvchi o‘z hayotida ham aynan shu voqeadan tegishli xulosani chiqarganini oshkora qalamga olgan. «Men bobom va buvimga qilgan munosabatimdan uyalib ketdim, va o‘zimga tegishli xulosani chiqardim». Yuqoridagi kabi javoblar o‘quvchining hayot to‘g‘risidagi qarashlarini, konsepsiyalarini tartibga solishda, to‘g‘ri tushunchalar strategiyasini belgilay olganini ko‘rsatmoqda.

Asar boyicha ochiq savollardan tuzilgan so‘rovnomanini diagrammalarda quyidagicha kuzatish mumkin.

1	**«Tanho qayiq» nimaning ramzi?**	tug‘ilgan yeriga sadoqat 77%		Erkinlik 8%		O‘z kasbiga muhabbat 15%	
		o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz
		19%	58%	8%	-	7,5%	7,5%
2	**Qalimbetning mug‘ombir, manfaatparast bo‘lishiga kim aybdor?**	jamiyat aybdor 35%		Orolbobo aybdor 15%		Qalimbetning o‘zi aybdor 50%	
		o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz
		12%	23%	4%	11%	19%	31%
3	**Gulxadichaning mansabparast, manman bo‘lishining sababi nimada?**	akasining biznesini rivojlantirish 34%		erining orzularini amalga oshirish23%		jamiyatda o‘ziga munosib o‘rinni egallash 42%	
		o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz
		19%	15%	4%	19%	12%	30%
4	**Farzandlarining otalariga mehribonlik ko‘rsatishlari…**	odamlar nazdida mehribon farzand bo‘lish 38%		o‘z manfaatlari yo‘lida maqsadga erishish 47%		farzandlik burchini bajarish 15%	
		o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz
		16%	22%	21%	26%	-	15%

5	**Asarda ko‘tarilgan muammoning muhimlik darajasini belgilab bering**	global ekologik muammo 15%		ota va farzandlar orasida mehr-oqibatsizlik 54%		insonlararo munosabatlarda qadriyatlarning yo‘qolib borishi 31%	
		o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz
		7,5%	7,5%	19%	35%	8%	23%
6	**Dramadagi qaysi qahramonga ko‘proq achindingiz?**	Orolboboga 69%		Farzandlariga19%		Shogirdlariga12%	
		o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz
		23%	46%	12%	7%		12%



Diagrammada dramada qattiq ruhiy hayajonga solgan ruhiy holatni belgilashda Shogirdlarning Orolboboning orzusini amalga oshirishdagi xatti-harakatlari eng yuqori darajada(35%) belgilangani, Orolboboning yolg‘izlanib qolishi, farzandlarining mehr-oqibatsizligi bilan bogliq voqealar (30%), Orol dengizining qurib qolishi eng past (8%) darajada belgilanganini kuzatishimiz mumkin.Javoblarning gender statistikasiga razm soladigan boi’lsak, qizlarning qattiq hayajonga slogan voqea shogirdlarning sadoqati bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘g‘il bolalarni qattiq ta’sirlantirgan emotsional holat ota-onaga mehr-muhabbat

ko‘rsatish,qolaversa, oilaning ustuni bo‘lgan otani qadrlash bilan bog‘liqdir. Berilgan javoblarda o‘zimizning milliy ruhiyatimizga, oila munosabatlaridagi milliy tutumimizga moslik naslning davomchilari bo‘lmish kuchli jins vakillarining darajasi ustunlik qilmoqda.

Demak, muallifning asar yaratish maqsadini hisobga olish bilan birga, diqqat bilan o‘qish («close reading») usulini qo‘llagan har bir o‘quvchi o‘qish jarayonida o‘znining hayoti va o‘qish tajribasi, e’tiqodi, fe’l-atvori, dunyoqarashi va kayfiyatiga asoslangan shaxsiy asari "tug‘iladi".

O‘tkazilgan tadqiqotdan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Reseptiv estetika nazariyasining asosiy qoidalari validligi isbotini topdi, haqiqatda o‘quvchining real tajribasi asar idrokiga ta’sir etadi.Buni kitobxon javoblarining turlichaligida ko‘rish mumkin;

2. Ta’sir estetikasini nafaqat nazariya sifatida, balki badiiy asar tahlilida metodika sifatida qo‘llash dars samaradorligini, o‘quvchi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Gyote ta’riflagan uchinchi idrok egalarini kashf qilishdan iboratdir. Bunda asar muallifi yetkazmoqchi bo‘lgan fikr o‘quvchi tomonidan qay darajada anglangani muhim.

Badiiy asar tahlili jarayonida reseptiv estetikadan foydalanish o‘quvchi shaxsini yuksaltirishga, uning idrok va tafakkur qobiliyatini boyitishga, o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qilib, asar qahramonlarining emotsional-ruhiy holatini anglash, ularni tushunib his qilishga o‘rgatadi.

M.Baxtinning fikriga ko‘ra, badiiy asarning yaxlitligi «uning tashqi moddiy haqiqati, uning matni hamda unda tasvirlangan dunyo- muallif-yaratuvchi va tinglovchi-o‘quvchi» ni o‘z ichiga oladi.

Adabiyot darslarida ta’sir estetikasi yondashuvi orqali badiiy asarlarni tahlilga tortish Muallif ⟶ Matn ⟶ Kitobxon orasidagi munosabatlarni yuzaga chiqaradi. Asarni o‘qitishda bunday yondashuvlarni milliy ta’limga olib kirish o‘qitish va o‘rganish sifatini o‘sishida, adabiyot darslarining samaradorligini

oshirishda va sohani jahon standartlariga mos rivojlanishida muhim faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Яусс Г.Р. К проблеме диалогического понимания. Бахтинский сборник-III. – М.: 1997. – С.204.
2. Белецкий А.И. Введение в литературоведение. Хрестоматия : учеб. пособие – М.: 2006. – С. 408.
3. Ковылкин А.Н. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки// Омский научный вестник.– О.: 2007. № 2 – С. 153.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot darsi-hayot darsi bo‘lmog‘i lozim.T: Ma’rifat, 02.09.2020. – B.1.

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA ABDULLA QODIRIY IJODINI O‘RGANISHNING AHVOLI

Dilorom Hayitboyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’limda Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishning ahvoli, bu borada taklif va yechimlar, muammolar ko‘rsatib o‘tilgan.*
Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, kompetensiya, badiiy tahlil, integratsiya, variativlik, milliy ruh.*

Annotation. *This article describes the state of the study of Abdulla Qodiriy’s work in general secondary education, suggestions and solutions, problems in this regard.*
Key words: *Abdulla Qodiriy, competence, artistic analysis, integration, variability, the artistic spirit*

Yurtimizda amal qilayotgan adabiyot bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlarida adabiyot faniga xos bo‘lgan kompetensiyalarga yetarlicha e’tibor berilmagan va pirovardida adabiyot o‘zining mustaqil fan sifatida mavqeini yo‘qotib, boshqa fanlarda (ona tili, chet tili, ijtimoiy fanlar) o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi fanga aylanib qolgan.

Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanini o‘qitish tajribasi tahlil qilinganda quyidagi holatlarni ko‘rish mumkin:

- ta’lim standartlari o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan fanga oid kompetensiyalarni aniq, obyektiv shaklda belgilab beradi;

- adabiyot faniga oid kompetensiyalar o‘quvchilarning adabiyotshunoslik kategoriyalariga va badiiy tahlil tamoyillariga tayangan holda asarni tahlil qilish va munosabat bildirishini nazarda tutadi;

- adabiyot fanining san’atning boshqa turlari (teatr, kino, musiqa, tasviriy san’at, arxitektura) va boshqa fanlar (ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar) bilan integratsiyasiga katta e’tibor beriladi, shu bilan birga, bu integratsiya adabiyot darslarida aynan adabiyot faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishga va o‘rganilayotgan asarni chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi;

- o‘qituvchilar bir darslikka bog‘lanib qolmay, ta’lim vazirliklari tomonidan tavsiya qilingan bir necha parallel darsliklardan erkin tanlash huquqiga egalar, bu esa pirovardida darslik mualliflari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantiradi va darsliklar sifatiga ijobiy ta’sir qiladi (darsliklarning standartga mosligi qaysi asarlarni o‘z ichiga olishi bilan emas, standartda belgilangan kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi);

- variativlik tamoyiliga amal qilinadi: o‘quvchilar o‘qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro‘yxati shakllantiriladi va o‘qituvchi tavsiya qilingan ro‘yxatdagi adiblar va asarlarni o‘quvchilarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘zi tanlaydi;

- qaysi asarlarni, qaysi ketma-ketlikda va necha soat hajmida o‘rganish ta’limni boshqarish organlari tomonidan belgilab berilmaydi, balki o‘qituvchilar tavsiya qilingan asarlar ro‘yxatidan o‘z o‘quvchilarining qobiliyatlari, qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda erkin tanlash imkoniga ega bo‘ladilar (masalan, AQSH maktablarining 10-sinfi uchun chiqarilgan bir adabiyot darsligida Shekspirning «Makbet» asari kiritilgan bo‘lsa, boshqasida «Hamlet» asari, yana boshqasida «Yuliy Sezar» asari kiritilganini ko‘rishimiz mumkin);

- asarlarni o‘rganishda asosiy maqsad o‘rganiladigan asarlar soniga emas, balki asarni chuqur tahlil qilish orqali standartda belgilangan adabiyotga oid

kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratiladi, shu sababli asarlar to‘liq (parcha shaklida emas) o‘rganiladi;

- standartda belgilangan kompetensiyalarni shakllantirish uchun nafaqat milliy adabiyot, balki jahon adabiyotining, turli millatlar, davrlar va madaniyatlar (Yevropa, Osiyo, Amerika, Lotin Amerikasi, Afrika, Avstraliya) adabiy namunalaridan keng foydalaniladi;

- baholash va test tizimidagi savol va topshiriqlar adib hayotiga va ijod yo‘liga oid yoxud asar sujetiga oid ayrim fakt va detallarning qay darajada eslab qolinganligini emas, balki standartda belgilangan kompetensiyalarning shakllanganligini asarlar tahlili orqali tekshirishga qaratilgan bo‘ladi, bunda tahlil qilinishi lozim bo‘lgan matn o‘quvchining savollar kitobida berilgan bo‘ladi. Misol uchun, adabiyot fani fani orqali o‘quvchilarda quyidagi adabiyot faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish maqsad qilinishi mumkin:

- asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlay oladi va tushuntirib beradi;

- asardagi asosiy va ikkilamchi g‘oyalarini tushunadi, asarda ko‘tarilgan muammolarga o‘z munosabatini bildiradi;

- asardagi ochiq aytilgan fikrlarni va tag ma’nolarni ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqara oladi va bu xulosalarini asoslab bera oladi;

- asarning sujetini tushunadi, sujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajrata oladi va asarning qurilishiga munosabat bildira oladi;

- asarning badiiy xususiyatlarini (asarda qo‘llanilgan badiiy vositalarni) tahlil qila oladi, ularning o‘quvchiga ta’siri haqida fikr bildira oladi;

- asardagi obrazlar tizimini tahlil qila oladi;

- badiiy adabiyot va san’atning boshqa turlari o‘rtasidagi bog ‘liqlar va farqlarni tushunadi;

- asarning adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati haqida fikr bildira oladi. [Z.Mirzayeva,K.Jalilov. Adabiyot o‘qitish metodikasi(An’anaviylikdan zamonaviylikka) T.: 2020. 27-b]

Yurtimiz rahbariyati adabiyotni o‘qitishni tubdan yaxshilash, kitobxonlik madaniyatini o‘stirish, yoshlarni milliy va jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish kabi yuksak vazifalarni oldimizga qo‘yar ekan, fikrimizcha, bu vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim muassasalarida adabiyot fanini o‘qitishga bo‘lgan munosabatni jahonning ilg‘or tajribasidagi milliy tutumlarimizga, milliy tafakkur va dunyoqarashimizga mos jihatlarga tayangan holda tubdan qayta ko‘rish, bunda bir asarni boshqasiga almashtirish orqali emas, prinsipial yondashuvni o‘zgartirish orqali sifat o‘zgarishiga erishmog‘imiz lozim.

Barchamizga ma’lumki, 2020-2021 o‘quv yilida adabiyot dastur va darsliklari qator yangilanishlar bilan qayta ishlandi, Shulardan biri, 5-sinf adabiyot darsliklariga kiritilgan Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasi 2 soat vaqt oralig‘ida o‘quv dasturining 2-choragida «Bolalikning beg‘ubor olami» faslida o‘tilar edi. Afsuslar bo‘lsinki, mavzu darslikdan chiqarib yuborildi. Sababi qilib o‘quvchi o‘zlashtirishda muammolarga duch kelayotganligi ro‘kach qilib ko‘rsatildi. Shuningdek, Qodiriy hayoti va ijodi «Qo‘rqinch bir jasorat» («Mehrobdan chayon» romanidan parcha) matni ustida ishlash, timsollar tahlili uchun jami 3 soat vaqt ajratilgan.

10-sinf adabiyot darsliklarida A.Qodiriyning hayoti va ijodi, «O‘tkan kunlar» romani uchun jami 5 soat vaqt ajratilgan. Jamini hisoblaganda, umumta’lim maktablarida adib hayoti va ijodi uchun 8 soat dars soati ajratilganligi kishini taajjublantiradi. Jumladan, 5-6-8-9-11-sinf adabiyot darsliklariga 1 soat ham ijodkor asarlaridan kiritilmaganligi. Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda bugungi kunda 9 ta ijod maktablari faoliyat olib boryotgan bo‘lsa, mazkur maktab o‘quvchilari uchun 2020-o‘quv yilidan boshlab mazkur ta’lim muassasalari uchun «Maxsus adabiyot» darsliklari ishlanib amaliyotga yo‘naltirildi. Mazkur darsliklardagi holat esa quyidagicha, Abdulla Qodiriyning ilk ijodi, hikoyalari va publisistik maqolalari tarzida berilgan bo‘lib, jami 5 soat vaqt oralig‘i 7-sinf darsligiga kiritilgan. Bunda XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy, adabiy-ma’rifiy muhit, jadidchilik harakati, jadid adabiyotiga xos bo‘lgan yetakchi mavzular,

adibning ilk ijodi, she’rlarining mavzusi va mazmuni, «Baxtsiz kuyov» dramasi, Qodiriy va vaqtli matbuot, «Mushtum» hajviy jurnal, adib hikoyalaridagi uslubiy o‘ziga xoslik hamda maqolalarida ko‘tarilgan ijtimoiy muammolar haqida fikrlar bildirilishi nazarda tutilgan.

10-sinf «Maxsus adabiyot» darsliklarida adibning «Otam Bolshevik» hikoyasi, Habibullo Qodiriyning «Otam haqida» asaridan parcha berilgan. Ijodkorning adabiy merosi uning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni, Qodiriy ijodida otasi Qodir bobo obrazining o‘ziga xos badiiy talqini haqida fikrlar bildiriladi. Shuningdek, yosh ijodkor bolalar uchun «Otam bolshevik» va boshqa asarlarida oila ustuni sanalmish ota obraziga munosabat masalasi, unga ehtirom, farzandlar otalar haqida yoxud hujjatlarga asoslangan xotira kitobi xususida fikrlar yuritiladi. Yana bir jihat, kitobda adib ijodiy laboratoriyasining yoritilishi, romanlari tarixiga nazar, farzandlari va zamondoshlari xotiralarida ijodkorning noyob fazilatlari bayoni, adabiyotshunoslikda – qodiriyshunoslik masalalari kabi mavzularning yoritilishi adabiyot ixlosmandlarini quvontiradi. Ammo, umumta’lim maktabi darsliklaridagi ketma-ketlik ijod maktablari uchun yaratilgan darsliklarni ham chetlab o‘tmagan. Bunda ham 8-9-11-sinflarda A.Qodiriy ijodi o‘rganilmaydi. Jami, maxsus adabiyot dastur va darsliklarida har ikkala sinf uchun 5 soatdan vaqt ajratilib, umumiy ikki sinf uchun dars soati 10 soatni tashkil qilmoqda.

Abdulla Qodiriy – o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi. SHu bois ham adib hayoti va ijodini umumta’lim maktablarida o‘rganish va o‘rgatish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

7-sinf o‘quv dasturida 3 soat vaqt ajratilganligi nazarimizda kam. Sababi, adibning hayoti va ijod yo‘li haqida so‘zlab berish 1soatni, «Mehrobdan chayon» romaniga o‘quvchilarni olib kirish, asarni o‘qib tugallash va timsollar tahliliga 2soatni ajratish anchayin kam. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda o‘quvchilar berilgan badiiy asarni o‘qib chiqishi va tugallashi uchun vaqt ko‘proq sarflashyapti. Adabiyotimizning nodir namunasi bo‘lmish bu kabi asarlar uchun berilgan har bir soat ham kam aslida.

Masalan, CHo‘lpon hayoti va she’rlari tahlili uchun 4 soat vaqt ajratilgan. Taqqoslaydigan bo‘lsak, she’r tahlili va badiiy asar tahlili bir-biridan farq qiladi. SHu sababli ham o‘quvchilarni mustaqil fikrlay olish qobiliyatini o‘stirish va dunyoqarashini shakllantirish uchun badiiy asarlarni ko‘p o‘qish va tahliliga diqqatni yanada ko‘proq jalb qilish o‘rinlidir.

«Mehrobdan chayon» asaridan keltirilgan parcha so‘nggida berilgan savol va topshiriqlarga e’tibor qaratsak, ularning naqadar mulohazakor va mantiqli, mushohada qilishga chorlovchi ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Agar bu berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlashni boshlasak belgilangan bir soat dars ham kamlik qilib qolishi mumkin. Bizning fikrimizcha, birorta adib hayoti haqida ma’lumotlar berilganda u haqida boshqa ijodkorlarning ham fikri keltirilib o‘tilsa o‘quvchilarning xotirasida berilgan ijodkor qiyofasi va shaxsi yanada yorqinroq gavdalanadi va yodda qolishiga ham yordam beradi.

10-sinfda Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanidan parcha berilgan parchani o‘qib o‘rganish ham o‘quvchilarning ko‘pchiligi uchun juda qiyin vazifa bo‘lib ko‘rinadi. Aslida ham shundaymi?! Aslida bo‘lsa bugungi o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati va muhabbati yetishmaydi, shu sababli ham berilgan kichik parcha ham ular uchun ko‘pday bo‘lib ko‘rinadi(chet el o‘quvchilariga o‘xshab butun boshli asarni o‘qishsa bilmadim nima qilishardi). Hajm jihatidan solishtiradigan bo‘lsak, «Mehrobdan chayon» va «O‘tkan kunlar» romanlari o‘rtasida aytarli farq yo‘q, lekin ajratilgan soatlarda farq anchagina. O‘quvchilar yoshi va o‘zlashtirish darajasini solishtirib ko‘radigan bo‘lsak tafovut borligi yaqqol seziladi, shu boisdan ham o‘quv dasturlari ustida ish olib boradigan mutaxassislar yuqoridagi jihatlarni ham inobatga olgan holda dasturlar ishlab chiqishganida va bunga malakali maktab o‘qituvchilarining ham fikrlari va ko‘rsatmalari olinganida o‘quvchilar fan dasturidagi soatlarni o‘zlashtirishida qoqilishiga yo‘l qo‘yilmas edi.

Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi maktabda qanday tarzda o‘qitiladi hamda yuzasidan qanday tavsiyalaringiz bor? mazmunida so‘rovnoma olinganida adib hayoti va ijodini o‘rganish uchun vaqt kam ajratilganligi, «Mehrobdan chayon»

romanidan berilgan boblar o‘rtasida uzilishlar bo‘lganligi sababli o‘quvchilar tushunishida qiyinchiliklar bo‘lyotganligi, ijodkorning faqat shu ikki asari bilan kifoyalanib qolmay, boshqa kichik nasriy asarlari, publitsistikasi bilan tanishish ham lozim ekanligini qayd etishgan.

Romanlarda qalamga olingan insoniy fazilatlar shakllanayotgan shaxs ma’naviyatiga singib ketishi, adabiy ta’limning bosh maqsadiga xizmat qilishi lozimligi ko‘zda tutilgan holda, asar mazmun - mohiyati o‘quvchilarga to‘la yetkazilishi kerak. Bu esa o‘quvchilarda asarda tasvirlanayotgan voqea -hodisalar, zamon va muhit, inson va uning ruhiyati muammolari, qahramonlar to‘g‘risida aniq tasavvur hosil bo‘lishiga, personajlarning xatti-harakatini haqqoniy baholashga, mulohaza yuritib tahlil qilishga, xulosa chiqarishga olib keladi.

Abdulla Qodiriy asarlari bilan tanishish o‘quvchilarda o‘zbek millati aslida qandayligi, oilaviy an’analarga nechog‘lik rioya etilishi, ota va o‘g‘il, ona va qiz orasidagi faqat o‘zbekka xos munosabatlar qanaqa ekanligi haqida haqqoniy tasavvur hosil qiladi. Globallashuv davrida milliy o‘ziga xoslikni asrab qolish uchun asl qadriyatlar tasvirlangan bunday badiiy asarlar juda qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Adabiyot o‘qitish metodikasi(An’anaviylikdan zamonaviylikka) T.: 2020.

2. Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta’limning 7-sinfi uchun darslik-majmua.T.:»SHarq»,2017.

3. B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi uchun darslik-majmua. T.:»O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2017.

MUMTOZ ASARLARNI O‘QITISHDA MAVZULI-ELEKTRON LUG‘ATLAR YARATISH

Moxichehra Muhammadiyeva
ToshDO‘TAU magistri

Og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishning eng muhim omillaridan biri - so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini bilish hisoblanadi. So‘zning qaysi til unsuri ekanligi, so‘z anglatayotgan tub ma’no, ifodalanayotgan ko‘chma ma’noni farqlash o‘qituvchidan katta lug‘aviy bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Buning uchun avvalo, so‘zning etimologiyasi va tarixiy tadrijini bilishi zarur. Badiiy matnning lisoniy tahlilida lug‘atlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, izohli, tarjima, atamashunoslik va entsiklopedik lug‘atlar so‘zlarning kelib chiqishi va tub ma’nosini aniqlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda mumtoz asarlarni o‘qitishga doir bir qancha lug‘atlar mavjud. Jumladan, P.Shamsiyev, S.Ibrohimovning «Navoiy asarlari lug‘ati», A.Hojiahmedovning «Mumtoz badiiyat lug‘ati», «O‘zbek aruzi lug‘ati», H. Boltaboyevning «Mumtoz adabiyot manbalari lug‘ati», E.Fozilovning «Navoiy asarlari lug‘ati», V.Rahmonovning «Mumtoz asarlar lug‘ati» yaratilgan. Lug‘atshunos olim B.Yusupovning ta’kidlashicha, «Lug‘at – fikr boyligining negizidir. Ayniqsa, yosh avlod o‘rta maktabdan lug‘at kitobi bilan shug‘ullanmasa, o‘zbek mumtoz adabiyotidan bahrasiz bo‘lib qoladi. Holbuki, bizning ma’naviyatimiz tamal toshi mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy asarlaridir». Darhaqiqat, mumtoz badiiy matnning lisoniy tahlili bo‘yicha maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari uchun maxsus lug‘atlar yaratish dolzarb vazifalardandir. Vahob Rahmonovning «Mumtoz asarlar lug‘ati»ga mumtoz adabiyotimiz namoyandalari asarlarida uchraydigan tushunilishi murakkab tub, yasama hamda qo‘shma so‘zlar, ba’zi turg‘un birikmalar ham kiritilgan. Lug‘at umumta’lim maktabi o‘qituvchilari va o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, alifbo tartibi asosida tuzilgan. Qo‘llanma mumtoz asarlardagi tushinilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni umumiy qamrab oladi.

O‘qituvchi mumtoz asarlar tahlilida bevosita ularning lug‘ati, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohiga ham to‘xtalishi va o‘tilayotgan asar bo‘yicha lug‘at tuzushi yoki biror asar bo‘yicha o‘quvchilarga lug‘at tuzishni uyga vazifa qilib berishi shart.[1-72] Bevosita lug‘atlar o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etishini yuqorida ham takidlab o‘tdik. Negaki, lug‘at mumtoz asarlar ko‘zgusi husoblanadi. Hozirga qadar umumta’lim maktablarida mumtoz asarlarni o‘qitishga doir mavzuli-metodik lug‘atlar yaratilgan emas. Ayni shu muammoning yechimini topish maqsadida umumta’lim maktablari 5 – 11 sinf adabiyot darsliklarida berilgan mumtoz asarlar o‘rganib chiqildi. Har bir sinf kesmida mavzuli-lug‘atlar tayyorlandi. Chunki, aynan hozirgi kunda ham o‘quvchilar har bir sinflar kesimida berilgan mumtoz asarlarni to‘liq tushunishga qiynalishadi. Lug‘at alifbo tartibida emas, balki, mavzulashtirilgan bo‘lib, bu ham o‘qituvchi va o‘quvchiga qulaylik tug‘diradi. Ya’ni darsda o‘tiladigan mavzu beti ochiladi va mavzuga doir lug‘atlar ketma-ket joylashganligi bois ulardan foydalanish yanada oson bo‘ladi. Masalan, biz 5-sinf adabiyot darsida Alisher Navoining «Hayrat ul-abror» dostonini o‘tmoqchi bo‘lsak lug‘atdan aynan o‘sha sahifani ochamiz: Elektron dasturda mavzu orqali lug‘at qidiriladi. Mavzu tanlangach, quyidagi ma’lumot chiqib keladi:

5-sinf dabiyot darsligi
Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonidan
Pesha (f.) – odat, amal
Kajrav (f.) – axloqsiz, teskari
Charx (f.) – gardish, charx; osmon falak; davr, zamon
Xamlig‘ (a.) – hamroh, yo‘ldosh
Go‘shmol (a.) – quloq burash, jazolash, tanbeh berish, ozorlash
Chirmosh (f.) – o‘ralashib ketmoq, o‘ralashmoq; chirmashishlik
Hamahd – hamfikr, zamondosh
Samar (a.) – meva, hosil, natija; naf, foyda, bahra
Sahv (a.) – xato, yanglish
Subh (a.)– tong, tong payti; yuz yorug‘ligi, chehra porloqligi, go‘zallik
Sari (f.) – sari, tomon
Mistar (a.) – chizg‘ich
Mahro‘ (a.) – oy yuzli, go‘zal

Musayqal (a.) – sayqallangan, jilolangan
Musattah (a.) – yassi, tekis
Mutavval (a.) – uzun, daroz; choʻziq
Muhaqqaq (a.) – haqiqat, togʻrilik
Nuqat (a.) – nuqtalar
Ilig – qoʻl
Davron (a) – aylanish, falak, gardish doira
Zumurrad – yashil tusli qimmatbaho tosh, zumrad
Kajlik (f.) – egrilik
Jahd (a.) – sa'y, tirishish, gʻayrat
Kizb (a.) – yolgʻon, nayrang
Ranj (f.) – mashaqat, qiyinchilik; mehnat zahmat
Kaforat (a.) – qilingan gunoh evaziga beriladigan narsa
Sidq (a.) – toʻgʻrilik, toʻgʻri soʻzlik; rostlik; poklik
Dahr (f) – zamon, davr; dunyo, olam
Fir – qush qanot qoqqanda chiqadigan tovush
Yorliq (f.) – amr, farmon
Lahv (a.) – oʻyin-kulgu, befoyda ish
Hamdast (f.) – qoʻldosh, birga ishlovchi, yordam beruvchi
Xasm (f.) – dushman, xusumatchi; raqib, muxolif
Sivo – boshqa, oʻzga
Aduv (a.) – dushman, yov, raqib
Gardish (f.) – yurish, harakat, aylanish
Ilhon (a.) – kuylash, xushovoz kuylar ovozlar
Savt (a.) – ovoz, tovush; kuy, ohang
Saydgar (a.-f.) – ovchi
Sayyod (a.) – ovchi, ov bilan shugʻullanadigan kishi
Xirom (f.) – kezish; jilva, noz-karashma bilan yurish, chiroyli yurish
Maxlas (a.)– najot topish, qutulish, xalos boʻlish
Munqati (a.) – (doʻstlarida) uzilgan, kesilgan, ajralgan
Charx (f.) – gardish, charx; osmon falak; davr, zamon
Durroj (a.) – qirgʻovul, bedana

Mavzuli lugʻatlardagi barcha soʻzlar dasturga joylanadi. Oʻquvchilar ham oʻqituvchilar ham uni yuklab olishlari va undan bemalol foydalanishlari mumkin boʻladi. Bu esa har ikki taraf uchun ham qulaylik tugʻdiradi va tahlilni mukammal boʻlishini ta'minlaydi. Zero, Boqijon Toxliyev ta'kidlaganlaridek: «Tahlil davomida har bir asarda uchraydigan tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlarning ma'nolari, albatta, ochib berilishi kerak. Buning shakl va unsurlari nihoyatda xilma-xil boʻlishi

mumkin. Ifodali o‘qishda, matn ustida ishlanganida, matnni o‘qishdan oldin, matn so‘ngida lug‘atlarni ilova qilish joiz bo‘ladi».[2-88] Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, adabiyot darslarini o‘qitish jarayonida lug‘atlardan foydalanish darsimizning yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari o‘quvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Sinflar kesimida adabiyot darsliklari asosida mavzuli-metodik elektron lug‘atlar yaratish, mumtoz asarlarni o‘qitishda amaliy-metodik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердақ Юсупов. Луғат – фикр бойлиги. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2020 йил. 20 ноябр сони.

2.J. Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. // O‘qituvchi. Toshkent: 1995. – B. 72.

3.Boqijon To‘xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi. // O‘zbekiston milliy kutubxonasi. – Toshkent: 2012. – B.84

4. http://ziyonet.uz

TOG‘AY MURODNING HAYOTI VA IJODI

Mahmado‘stov Abdulla Shavkatovich
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning hayoti ya’ni tug‘ulib o‘sgan yurti, talabalik davrlari,faoliyat ko‘rstagan javhalari,erishgan yutuqlari, shuning-dek uni, dastlab yozgan asarlari,yozuvchi sifatida tanitgan qissa va romanlari va shu asarlaridan namunalar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Obraz, drama, jurnalistika, tahririyat, ro‘znoma, muharrir, ko‘pkari*

Tog‘ay Murod(Mengnorov) o‘zbek milliy adabiyotimizning noyob vakillaridan biridir. Tog‘ay Murod(taxallusi; asl ism-sharifi Mengnorov Tog‘aymurod) 1948-yili Surxondaryo viloyati,Denov tumanidagi Xo‘ja Soat qishlog‘ida tug‘ildi.Shu qishloqdagi 43-o‘rta maktabni 1966-yil tugallab, o‘sha yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning jurnalistika fakultetida (1967–1971) tahsil oldi, universitutni muvaffaqiyatli tamomlagach, respublikaradiosi «Vatandoshlar» tahririyatida bo‘lim muharriri bo‘lib, 1970-yilgacha xizmat qilgan. Tog‘ay Murod 1973-1974-yillarda sobiq Savet Armiyasi saflarida xizmat qilib qaytdi. 1976-1978-

yillarda esa «O‘zbekiston fizkulturachisi» ro‘znomasida tarjimon, 1982-1984-yillarda «Fan va turmush» oynomasida bo‘lim muharriri bo‘lib ishladi. 1985-1987-yillarda Maskvada M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti oliygohida tahsil olib qaytdi.Dastlab uning kichik hikoyalari va ocherklari e’lon qilindi. 1976-yili Tog‘ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» degan ilk qissasi «Sharq yulduzi» jurnalida chop etilgach, kitobxonlar og‘ziga tushdi.Shundan so‘ng birin-ketin «Ot kishnagan oqshom» (1979), «Oydinda yurgan odamlar» (1980), «Momo Yer qo‘shig‘i» (1985) kabi o‘zbek milliy qissachiligining yangi namunalari dunyoga keldi. Keyingi qissasi uchun yozuvchi Oybek nomidagi mukofot bilan taqdirlandi.Ularda halol, oqko‘ngil, to‘g‘riso‘z, mard o‘zbek kishilarining betakror obrazlari yaratilgan.O‘zbek adabiyotining yutug‘i sifatida e’tirof etilgan bu qissalar tilining shoirona jozibadorligi, xarakterlarning yorqin-ligi, milliy ruhi bilan ajralib turadi. Tog‘ay Murod o‘zbek va jahon adabiyotining eng yaxshi an’analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirdi.Adib 1986 – 1991-yillarda «Otamdan qolgan dalalar» romanini yaratdi. 1994-yili unga mazkur asari uchun Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti berildi. «Otamdan qolgan dalalar» ijtimoiy roman.Unda O‘zbekistonning mustamlakaga aylanishi va tunu-kun mehnat qilib, yashayotgan o‘zbek dehqonlarining mustabid tuzum yillaridagi og‘ir hayoti, iztiroblari hayotiy lavhalarda haqqoniy chizib berilgan. Asardagi Dehqonqul o‘zbek mehnatkashlarining umumlashgan obrazi darajasiga ko‘tarilgan. U boshiga yog‘ilgan minglab musibatlarga chidab yashashga majbur bo‘lsada, o‘z insoniy sha’ni, qadr-qimmatini baland tutadi, mustamlakachilarning yugurdaklarini ayovsiz fosh etadi.Asar asosida badiiy film yaratilgan (2001). «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» romanida ham o‘z ijodiy mezonlariga sodiq qolib, yolg‘on e’tiqodlar, soxta shiorlarga aldanib, hayotini yelga sovurgan sobiqfirqa rahbarlarining majoziy obrazlarini hajviy bo‘yoqlarda tasvirlagan. Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotiga betakror xarakterlarni, avval uchramagan uslubni olib kirdi.Tog‘ay Murod asarlari haqida uzoq gapirish mumkin, deydi adabiyotshunoslar, biroq uning shaxsi haqida gapirish murakkab. Yozuvchi matbuotda deyarli intervyu bermagan, adabiy

davralarda qatnashmagan, ko‘proq jamiyatdan uzilib yashagan.Yozuvchi Xolmuhammad Karim so‘zlariga ko‘ra Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyoti uchun yashagan, oilasi, farzandlari, kelajagini ham adabiyot orqali ko‘rgan yozuvchidir. «Adabiyotimizda shunday bir nochor ahvol borki, dunyoga chiqish uchun uchqunlanayotgan yozuvchilarni e’tiborga olmaymiz. Talantli yozuvchilar hech kimni oldiga arz qilib bormaydi, hech narsa so‘ramaydi, o‘z iste’dodiga ishonib yozaveradi. Yozgan narsalari dunyo uyoqda tursin, xalqimizga ham durustroq yetib kelmaydi. O‘zbek tilidagi go‘zal o‘xshatishlarni, milliylikni adabiyotga olib kirdi. Olib kirganda ham tumtoq shaklda emas, go‘zal bir bezaklar bilan olib kirdi. Afsus, biz shu narsaning qadriga yetolmadik», - deydi Xolmuhammad Karim. Yozuvchi asarlaridagi sevgi, yurt, millat tushunchalari qoliplangan so‘zlar shaklida emas, tabiiy ming yillar davomida shakllangan madaniyat, bu madaniyat ustuni bo‘lgan tuyg‘ularda tiriladi,o‘quvchi qalbiga kiradi.Tog'ay Murodning 1980-yili chop etilgan «Oydinda yurgan odamlar» qissasi adibninggina emas, o‘zbek milliy adabiyotining noyob namunasi hisoblanadi. Bu asar yozuvchining eng dilbar va muallifning o‘z so‘zi bilan aytganda…ne kunlarni ko‘rmagan», eng murakkab taqdirli qissasidir. Bu kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlangan. Ushbu qissa nomini o‘qishimiz bilanoq bizni allaqanday sirli-sehrli oydin kecha bag‘riga oladi. Ichimizga ajib bir nur o‘rmalab kiradi. Dil-dilimizni yoritib yuboradi. Qissa qahramonlari Qoplon va Oymomo farzand orzu-ilinjida kun, oy, yillarni bir-biriga ulab yashashadi.Hali tug‘ilmagan bolaning bobosi, momosi bo‘lib zurriyotni, bir-birlarini ardoqlasha-di. Tog‘ay Murod chol-kampir hayotini g‘oyat nozik, g‘oyat shoirona tasvirlaydi. Chol-kampirning o‘zaro mehr-muhabbatini qo‘shiqdek kuylab beradi. Tog‘ay Murod bir-birini Bobosi, Momosi, deya atab umr o‘tkazayotgan bir juft pokiza insonni oydindagi oy nuriga o‘rab tasvirlaydi. Oqibatda, ushbu juftning o‘zi ham, so‘zi ham, turish-turmushi ham oyning kumush nurlariga yo‘g‘rilib ketadi.Asar qahramonlari fojeasi umid va yorug‘likka to‘la mungli, hazin qo‘shiq qilib kuylanadi. 1982-yili nashr qilingan Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasida Ziyodulla kal

hamda uning oti Tarlon hayotidan epizodlar o‘ta mohirlik bilan jonli tilda tasvirlab beriladi.Garchi qissa oddiy va sodda tuyulsa-da, yozuvchi matn boshidanoq ikkinchi bir ma’no qatlamini yaratishga muvaffaq bo‘ladi.Chunki turkiy xalqlar ertaklarida kalbosh (yoki qasmoqbosh) o‘z zamondoshlari jur’ati yetmagan umumqabul qilingan qoidalarni buzuvchi yoki haqiqatlarni ochiq ayta olish qobiliyatiga ega ayyor va mug‘ombir shaxs timsolida keladi.Cho‘pon Ziyodulla kal asarda o‘z «men»i nomidan hikoya qilib, muallif tomonidan boshqa izohlar berib borilmaydi.Ziyodulla maktab davrida bitliqiligi sabab sochlarini qirdirib oldiradi va keyinchalik ushbu holatni o‘zining «men»iga aylantirib yuboradi. U hatto boshqalarga o‘zini «Ziyodulla kal» deb atashlarini, unga «o‘rtoq Qurbonov» deb boshqa aytmaslikni uqtiradi.Kitobxon asar mutolaasi jarayonida ot va ko‘pkari o‘yinlari, qahramonlarning o‘ziga xos xislatlari haqida ham bilib oladi.Shikoyachining tushida ko‘rib, so‘ngra unga uylangan dilbar o‘rtasidagi oshiqlik munosabatlari ham asar ruhiyatiga juda mos kelgan:

«Momosuluvga ko‘rgan tushimni aytib berdim.

– Sen ham shunday tush ko‘rib edingmi? – dedim.

– Ko‘rib edim, – dedi.

– Chiningni ayt, – dedim.

– Chinim, – dedi.

– Lekin, taniyolmay qolib edim, chiroq o‘chiq edi, – dedi.

– O‘sha men edim! – dedim, ko‘kragimga urdim.

– Siz ekanligingizni bilib tegdim-da, – dedi.

– Ahay-ahay! – dedim.

Birodarlar, Momosuluv tushimda Cho‘lpon edi, hushimda Oy edi, qo‘ynimda Oftob bo‘ldi!»

Ziyodullaning yashirin muhabbati kenja farzandiga alla aytish pallasida ham yaqqol ko‘rinadi. Alla orqali o‘quvchilar oradan yillar o‘tganini, farzandlar dunyoga kelganini biladi. Fikrlarga ko‘ra Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotidagi yangilanishni aynan milliylikka asoslanib yaratgani bilan ham ajralib turadi.Tog‘ay Murod

asarlarida so‘nggi yuz yilda o‘zbek millati boshdan kechirgan fojealarning aniq yaxlit tasavvuri mavjud. Bu tarixiy davrda o‘zbek xalqi qanday yashaganini bu daraja-da aniq beruvchi boshqa yozuvchini misol keltirish qiyin. Shu bois ham Tog‘ay Murod asarlarining targ‘iboti muhim, deydi adabiyotshunoslar. 1999-yilda «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni berildi.

Tog‘ay Murod mohir tarjimon sifatida J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va bir nechta hikoyalarini (1974–1975), Ye.Seton-Tompsonning mashhur «Yovvoyi yo‘rg‘a» asarini tarjima qiladi (1989). O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asari asosida ikki qismdan iborat badiiy film yaratiladi.Tog‘ay Murod 2003-yili vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «O‘zbek adiblari» (S.Mirvaliyev, R.Shokirova. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016)
2. 6-sinf 2-qism adabiyot darsligi (S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev) Toshkent «Ma’naviyat» 2017.

XOJA HIKOYATLARIDA IJTIMOIY ADOLAT TALQINI

Nurzod Norqulov
ToshDO‘TAU 1-kurs magistri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sayid Poshshoxoja ibn Abdulvvahobxoja (Xoja)ning «Gulzor», «Maqsad ul-atvor», «Miftohul-adl» (adolat kaliti) asarlarida axloqiy-ta’limiy, ma’rifiy-didaktik, ijtimoiy-falsafiy va diniy-axloqiy masalalar va ularda ilgari surilgan milliy va umuminsoniy fikrlar va g‘oyalar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, yurtparvarlik, insonni komillikka ko‘tarish, axloqiy poklik, ma’naviy barkamollik.*

Xalqimiz erishgan istiqlol g‘oyalari jamiyatimiznig hamma sohalariga chuqur o‘zgarishlari bilan tobora singib va keng tomir otib kirib bormoqda. Respublikamizning har tomonlama – iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishini yuksaltirishda, dunyoning ilg‘or mamlakatlari darajasiga ko‘tarish maqsadida xalqimizning boy ma’naviyatini o‘rganish, asrlar davomida tarixiy shakllanib va mujassamlashib kelayotgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni tiklash va takomillashtirish, ularni turmushga tatbiq etish orqali bugungi davr kishisini tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tarixiy-madaniy, diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy, axloqiy, ta’limiy merosimizni o‘rganishdagi bo‘shliqni to‘ldirish va uni rivojlantirish hozirgi bosqichning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Buni o‘quvchilar, talabalarning milliy-madaniy birligi manbai bo‘lgan ma’naviy poydevordan boshlash kerak. Chunki, har qanday madaniyatning asosida turli xil diniy, falsafiy, axloqiy aqida va ta’limotlar yotgan bo‘lib, ularni o‘rganmasdan turib, xalqlar madaniyatining shakllanishida asosiy sarchashma hisoblangan ma’naviy manbani bilish mumkin emas.

Nizomiy, Sa’diy, Jomiy va Navoiy kabi ulug‘ salaflari qatori kichik hajmdagi masal va hikoyatlarida o‘zining ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, diniy-tasavvufiy hamda ta’limiy qarashlarini yaratgan ijodkorlardan biri Podshoxoja (Xoja)dir. Xoja adabiy merosi va dunyoqarashi Movarounnahr ijtimoiy-falsafiy, axloqiy fikr taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning qarashlarida xalqchillik, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi davrning ilg‘or g‘oya va fikrlari falsafiy hamda axloqiy-ta’limiy ruhda berilgan. [G‘oziyev, 1999: 30] Shuning uchun Xoja merosi dunyoqarashini ta’lim-tarbiya, axloqiy va umuminsoniy g‘oyalar taraqqiyoti, tarixiylik nuqtayi nazaridan xolisona o‘rganish adabiyotshunoslikning muhim vazifasidir.

Podshoxoja «Maqsad ul-atvor» axloqiy-ta’limiy, ma’rifiy-didaktik, «Miftohul-adl» (adolat kaliti), «Gulzor» nomli ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy asarlarida o‘z dunyoqarashini bayon etgan bo‘lib, ularda ilgari surilgan milliy va umuminsoniy fikrlar va g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. [Mirzaahmedova, 1975: 116] Xoja millatimiz tarixida davlat va din arbobi, lirik va epik janrlarda birdek barakali ijod qilgan betakror adib sifatida alohida o‘rin tutadi. Darhaqiqat, Xojaning mavqeyi o‘z zamonasida baland bo‘lgan. Bu birgina uning nasl-nasabi sababidan emas, balki ilmi, fe’li, adolati tufayli edi. Xoja hikoyatlarida insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik sifatlarini ulug‘lash keng ifodalanadi. Xoja hikoyatlarida har bir davr va makon uchun muhim

va zarur bo‘lgan odob-axloq masalalari qalamga olingan bo‘lib, har bir hikoyat bu borada tahlil va tatqiq talab etadi.

Xoja hikoyatlari odob-axloqni targ‘ib qilish borasidagi sara didaktik asarlar sirasida e’tirof etiladi. Uning hikoyatlari insonning komillikka erishishda mashaqqatli va uzoq yo‘l bosib borayotganligi haqida g‘oyat mantiqli va qiziqarli masalalarni hikoya qiladi. Hikoyatlarda real hayot voqealari bilan bog‘liq mavzular ham uchraydi. Hikoyatlar bayonida personajlar tasvirida xalq og‘zaki ijodining bevosita ta’siri seziladi. Xoja hikoyatlarida nihoyatda sodda, lo‘nda, tushunarli, ta’sirchan ifodalarni topa olgan. Shuning uchun ham uning hikoyatlari asrlar davomida qo‘ldan tushmay o‘qiladi. Xoja hikoyatlarida insonparvarlik, yurtparvarlik, insonni komillikka ko‘tarish, axloqiy poklik, ma’naviy barkamollik sari undash g‘oyalari yetakchilik qiladi.

Har bir davr taraqqiyoti uchun zarur hisoblanayotgan adolatparvarlik g‘oyalari Xoja hikoyatlarida o‘z aksini topadi. Masalan, adolatli podshoh haqidagi hikoyat bunga yorqin misol bo‘la oladi. Podshoh o‘z vaziriga haj safariga borish istagi borligini aytadi. Vazir bunday vaqtda taxtni tashlab ketish mumkin emasligini podshohga tushuntirgach, shoh haj safariga borib kelgan odam savobini sotib olish uchun xoji topib keltirishini so‘raydi. Vazir haj safariga borib kelgan diyonatli bir zohidni podshoh yoniga keltiradi.

Podshoh va zohid o‘rtalarida quyidagi suhbat bo‘lib o‘tadi:

– Ey zohid, bir yo‘li qilg‘on hajingning savobin bizga soturmisan?

Zohid aydi: – Nega olursiz?

Sulton aydi: – Ming qizil tanga berayin.

Zohid aydi: – Ming qizil tanga oz turur.

Sulton aydi: – Ey zohid, oz bo‘lsa o‘n ming qizil tanga berayin.

Zohid aydi: – Oz turur.

Sulton aydi: – O‘zing na tilasang, tilagil.

Zohid aydi: – Ey podshohim, bir haj na bo‘lg‘ay, yigirma hajimning savobini sizga berayin, siz bir soat adl qilg‘oningning savobin menga bering.

Sulton aydi: – Ey zohid, bir soat adl qilg‘onning savobi na bo‘lur?

Zohid aydi: – Bir soat adl qilg‘onning savobi odamlarning va farishtalarning va hurlarning ibodatidan ortuq turur.

Bu hikoyatni o‘qigan har bir o‘quvchiga haj safari savobiga tenglashtirilayotgan adolatlilik fazilatining qiymatiga bo‘lgan badiiy talqin ta’rifi emotsional ta’sir qiladi. Bundan ko‘rinadiki, haj safariga borish tilagi bilan tenglashtirilgan adolatlilik munosabati savobi ham ulug‘dir. Mazkur hikoyat didaktik xarakterga ega bo‘lib, o‘z-o‘zidan o‘quvchining insoniy fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xoja hikoyatlari ta’lim bosqichlarining umumta’lim maktablari 9-sinf adabiyot darsligida berilgan. Yosh jihatdan bola ayni hayotida qanday axloqiy fazilatlar egasi bo‘lishi lozimligiga ko‘ra, Xoja hikoyatlarining bu sinfda berilishi ayni muddao. Darslikda Xojaning Iskandar Zulqarnayn haqidagi hikoyati ham keltiriladi. Unda sadoqatlilik, kasbga mas’uliyat, vafodorlik sifatlarining odil podshoh tomonidan talab qilinishi va sadoqatsizlik va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oqlamaslik, kasbga mas’uliyatsizlik muqarrar jazoga loyiq ekani, tarixiy-badiiy obrazlar orqali ifoda etiladi.

Sadoqat – kuchli xarakter belgisi. U odamdan o‘z burchini oqlash uchun to‘siq va qiyinchiliklardan chekinmaslikni, toymaslikni, qaytmaslikni, ularni mardona, chidam bilan bartaraf qilishni, o‘zini qiynashni talab qiladi. Shu o‘rinlarda yurtboshimizning «…Shunday bilimli, barkamol, vatanga sadoqatli farzandlarimiz qancha ko‘paysa, O‘zbekistonning kelajagi shunchalik buyuk bo‘lishi muqarrar» degan e’tiroflari yodimizga tushadi. Yana bir murojaatlarida «O‘zimiz o‘zimizga xiyonat qilmasak, o‘zimiz o‘zimizni aldamasak, halol-pok bo‘lib mehnat qilsak, men aminman, ko‘zlagan barcha marralarimizga, albatta, yetamiz…» deb ta’kidlaganlari ham ishiga, kasbiga, vataniga sadoqatli yosh avlodni tarbiyalashga bo‘lgan bir undovdir.

Xojaning yuqoridagi hikoyati ham adabiyot darslarida o‘quvchining axloqiy tarbiyasi darajasini oshirishga xizmat qiladi. Zero, sadoqatlilik, mas’uliyatlilik va mehnatsevarlik fazilatlari insonda odob-axloqning bosh mezonlaridandir. Xoja tasviridagi Iskandar butun umrini bosqinchilik, talonchilik, urush bilan o‘tkazgan

tarixiy Iskandar emas, balki, Nizomiy, Jomiy, Navoiy tasvirlaridagi Iskandar kabi xalqlar baxt-saodati yo‘lida adolatli urushlar olib borgan ideal bir shoh sifatida gavdalanadi va tarixiy shaxs sifatidagi salbiy tomonlari xalq ideallariga bo‘ysundiriladi. [G‘oziyev, 1999: 64]

Xoja o‘zining falsafiy-axloqiy asari «Miftohul-adl»da adolatli shoh haqida fikr yuritib, shohlarni rahmdil, insofli, va adolatparvar bo‘lishga chaqiradi. Uning hikoya qilishicha, bir kuni hakimlar Aristolis hakimdan savol qildilar: Na hikmat erdi. Iskandarga yetti iqlim mute bo‘ldi. Aristolis hakim aytdi: Miskinlarga rahm qilur erdi, taqi o‘zi odil erdi. [Zohidiy, 1995: 279] Barcha Sharq mutafakkirlari kabi Xoja hikoyatlarida ham shoh Iskandar istilochi emas, balki zolimlar shafqatsizligidan azob-uqubat tortgan dunyo xalqlari xaloskori, kishilarga ozodlik va farovonlik baxsh etuvchi sahovatli inson sifatida gavdalanadi.

Xojaning davlatni, hukumatni boshqarish haqidagi g‘oyalari hurfikrlilik bilan sug‘orilgan va g‘oyaning asosini adolatparvarlik tashkil qiladi. Bu fikri «Ajoyib shahar» hikoyasida quyidagicha bayon qilinadi. Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga yetishdi. Ko‘rdiki, suruv-suruv qo‘ylar. Tuyalar, yilqilar yuribdi, egalari yo‘q. Ularning hammasi bir-biridan ziyod yoki kame mas. Bog‘larda mevalar pishib yotibdi, bog‘boni yo‘q. Iskandar lashkarlari bu mevalardan yesa xasta bo‘lar edi. U hech narsaga teginmaslikni buyurib,viloyat ichkarisiga bir kishini yubordi va ahvolni bilishni tayinladi. U kishi borsa bozorlari orasta, do‘konlar farovon, ammo odam ko‘rinmaydi. Oxir bir odamni topib, ahvolni so‘radi. U kishi aytdiki: «Barcha xaloyiq ibodatxonada, ibodat bilan mashg‘ul». Ular ibodatxonaga bordilar va Iskandar kelganini xalqqa bildirdilar. Darhol xaloyiq podshohlarini boshlab, tortiqlar qilib, Iskandarga peshvoz chiqdilar. Iskandar ulardan ko‘rganlarining sababini so‘radi. Xalqning podshohi aytdi: «Bizning oramizda biror kishi kambag‘al bo‘lsa, barimiz yig‘ilib, u kishini o‘zimiz bilan teng qilamiz. Shuning uchun bizning oramizda o‘g‘ri bo‘lmas. Kimki undan olsa ham xasta bo‘lur. Iskandar unga olamning yarmini boshqarishni taklif etdi. Biroq, u podshoh imkoniyati faqat o‘z

davlatiga yetishini, undan og‘irini bajarolmasligini tan oldi. Iskandar ham uni ma’zur tutdi.

Xojaning adolatli jamiyat haqidagi qarashlari ijtimoiy-falsafiy va siyosiy tafakkur tarixida salmoqlidir. Farobiy o‘zining bu boradagi qarashlarini quyidagicha izohlaydi: «Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunardan ozod, hamma bab-baravar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki tanigan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar. Biri ikkinchisiga xo‘jayin bo‘lmaydi». [Farobiy, 1993: 190] Podshoxo‘ja o‘z qarashlarida mamlakatda ijtimoiy adolat o‘rnatishning asosiy yo‘li bu – odil podshoh faoliyati deb hisoblagan. Uning fikricha, podshoh har bir harakatini, har bir faoliyatini adolatli olib borsa, unda, uning atrofidagi arkonu davlat ham, oddiy fuqarolari ham hukmdoridan ibrat olib, xatti-harakatlarini adolat yo‘liga qaratadilar.

O‘tmish adabiyotdagi g‘oya va obrazlar sistemasi traditsiyalarini davom ettirgan Xoja bu jihatdan XVI asr – o‘z davrining mutafakkiri sifatida to‘laqonli gavdalanadi. Shuning uchun Xoja hikoyalari tahlilida uning traditsiyalarga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatishga alohida ahamiyat beriladi.

Xoja hikoyatlari Nizomiy, Jomiy, Navoiy kabi ilg‘or so‘z ustalari ijodidan ta’sirlanib yozilgani sezilib turadi. Bu mutafakkirlar zulm va adolatsizlikni qoralash tendensiyasida ijod qilishgan, Xoja hikoyatlari mazmuni asosini ham aynan shu tendensiyalar tashkil qiladi, ammo u bu g‘oyalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilib, takrorlab qo‘ya qolmadi, balki ularni o‘z davri nuqtayi nazaridan to‘ldirdi, ijodiy ishladi. Xojaninng hikoyalari faqat xulosalarining, qissadan hissalarining farqi orqali o‘z parallellaridan ajralib turadi. Bu hol Xoja hikoyalari uchun xos bo‘lib, hikoya so‘nggida avtorning hikoyada ko‘tarilgan masalalarga munosabati axloqiy-ta’limiy yakunlarida ifodalanadi (Xoja hikoyalari muqoyasa etilgan boshqa mualliflar asarida bu hol ko‘zga tashlanmaydi). [Mirzaahmedova, 1975: 96]

Mamlakatda ijtimoiy adolat o‘rnatilishining asosiy xususiyatlaridan biri zo‘ravonlik, qabihlik kabi hodisalarga o‘z vaqtida to‘g‘ri va haqqoniy bahosini

berish, hamda uni keltirib chiqargan shart-sharoitlarni aniqlab, aybdorlarning jazosini berishdan iboratdir. Davlat boshlig‘i tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarning adolatli ijro qilinishida qonunlarga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Podshoxoja dunyoqarashida qozilarga bo‘lgan munosabat muhim o‘rin tutadi. U «Miftohul-adl»da qozilar to‘g‘risida shunday fikr bildiradi: «Emdi podshoh yoki bek bo‘lgay kishi qozilarni tergamoq kerak va yana har yilda yangi qozi qilmoq kerak. Va yana aytibtururlar, qozilar uch turlik turur: ikkisi tomug‘g‘a kirgay va yana birisi uchmohga kirgay. Ul ikkisikim, tomug‘a kirg‘ay biri johil bo‘lgay, nakim hukm qilg‘ay, nohaq qilg‘ay, ikkinchi ulkim olim bo‘lgay, rishvat olib hukm qilg‘ay. Oningdek qozini o‘ltursalar ravo bo‘lg‘ay». [Podshoxoja, 29]

Xojaning g‘oyalarida podshohlar qozilarni o‘z vaqtida tergab, ularning barcha faoliyatidan boxabar bo‘lib turmog‘i lozim. Chunki yurtning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy hayotida mavjud qonun-qoidalarning to‘g‘ri qo‘llanishi davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib yurt osoyishtaligi va fuqaro farovonligini ta’minlovchi hamda davlat rivojining asoslaridan birini tashkil etuvchi manbalardan hisoblanib, uning ijrosi esa qozilar faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Xoja o‘z qarashlarida adolatli podsholar timsolini yaratdi, ular vositasida zamonasining zolim xon va beklariga ta’sir qilmoqchi, elparvar, yurtparvar podshohni tarbiyalamoqchi bo‘ldi. Xoja hikoyatlari har bir davr, makon uchun zaruriy didaktik omil vazifasini o‘taydi. Hikoyatlarda ulug‘langan axloqiy fazilatlar sodda, ravon bayoni bilan har bir o‘quvchi xotirasida uzoq saqlanadi va bu g‘oyalar o‘quvchilarning axloqiy shakllanishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.» - T.: O‘zbekiston, 2017.

2. Mirzaahmedova M. Xoja (hayoti va ijodi). T.: O‘zbekiston SSR «fan» nashriyoti. 1975. – B. 136.

3. Zohidiy A. Xoja. O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi. T.: O‘qituvchi, 1995.

4. G‘oziyev S. Podshoxoja qarashlarida ijtimoiy axloq masalasi. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999. – B. 116.

5. Podshoxoja. «Miftohul-adl» –B. 129.

«ALPOMISH» DOSTONINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Mastona Norqulova
ToshDO‘TAU magistri

Annotatsiya. *Maqolada «Alpomish» dostonini o‘qitishga doir yangicha yondashuvlar keltirilgan. Maqoladan ko‘zlangan maqsad maktab o‘qituvchilariga yengillik yaratish va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tafakkurini mustahkamlashga, xalq og‘zaki ijodi namunalarini qiziqish bilan o‘rganishga undash. Maqola materallaridan 9-sinf o‘quvchilarini o‘qitishda foydalanish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuv, pedogogik texnologiya, «Alpomish» dostoni, «Matbuot anjumani», «Qo‘ng‘irot eliga sayohat», «Tugallanmagan maktub», texnologiya.*

Barchamizga yaxshi ma’lumki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar, muqaddas dinimiz, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning tarixiy xotirasi va ma’rifat tushunchasini shakllantiradigan, uning ma’no-mazmunini boyitadigan asosiy manbalardan biri – xalq dostonlaridir.

Inson tafakkuri uning ruhiyati bilan chambarchas bog‘liqlikda harakat qiladi. O‘quvchi ruhiyati boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo‘lsa, fikrlari va mulohazalari ham asosli, mantiqli bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitish va tahlil qilishdan ko‘zlangan metodik maqsadlardan eng muhimi o‘quvchida milliy g‘urur hissini uyg‘otish, ajdodlar bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirishdan iboratdir. Bundan tashqari mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga, ravon so‘zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma’nolarni anglab olishga, kulgu yoki pand-nasihatlar ortiga yashiringan haqiqatlar mohiyatini tushunib, xulosa chiqarishga o‘rgatishdir. O‘quvchining fikrlashi va ilm olishga intilishi o‘zaro uzviy aloqadorlikdagi jarayondir.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitishda xalq yaratgan qahramonlarning xatti-harakatlari, fe’l-atvori, ruhiy olamiga munosabat bildirish o‘quvchini fikrlashga yo‘naltiradi, albatta. Xalq og‘zaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg‘or va hayotbaxsh an’analarni o‘zida

mujassamlashtirgan ma’naviyat sarchashmasidir. «Alpomish» dostonida ma’naviy merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq urf-odatlar, an’analar alohida o‘rin tutadi. Hammamizga yaxshi ma’lumki, aynan «Alpomish» dostonida urf-odatlarimiz va an’analarimiz yaqqol tasvirlangan. Masalan, to‘y marosimi bilan bog‘liq urf-odatlar: «Qo‘l ushlatar», «Soch siypalatar», «Kampir o‘ldi» kabilar o‘zbek milliy xarakterini ochishga xizmat qilgan. Bunday urf-odatlarimiz va xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan o‘quvchilarni xabardor qilish va ularni qiziqtirish o‘qituvchi oldida turgan dolzarb vazifadir.

Xo‘sh, bunga qanday erishamiz? Bu jarayonni quyidagi usullarda ko‘rib chiqamiz. 9-sinfning «Adabiyot» darsligida «Xalq og‘zaki ijodidan» rukni ostida «Alpomish» dostoni maxsus o‘rganiladi va unga uch soat ajratilgan.

Dastlab, birinchi darsimizda o‘quvchilarni doston matni bilan tanishtiramiz.

Bunda o‘quvchilarga taqdimot asosida audio va video materiallardan foydalanib mavzu tushuntiriladi. Uyga vazifa qilib esa asar matnini o‘qib kelish va kichik esse yozib kelish topshriladi.

Keyingi darsimiz o‘z-o‘zidan bilimlarni mustahkamlash darsi bo‘ladi. Dastlab o‘quvchilar bilan «Alpomish» dostoni xususida kichik **«Matbuot anjumani»** mashg‘uloti o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar «Alpomish» dostoni bilan bog‘liq axborotlarni jamoaviy tarzda birma-bir keltiradilar. Masalan:

1-guruh

-Dastlab, odamlar badiiy asarlarni og‘zaki shaklda yaratishgan.
-»Alpomish» dostoni xalq og‘zaki ijodi namunasiga kiradi.

2-guruh

-Dostonda o‘n olti urug‘li qo‘g‘irot eli haqida gapiriladi.
-Dostonning bosh qahramonlari Barchinoy va Alpomishdir

3-guruh

-Dostonda o‘n olti urug‘li qo‘g‘irot eli haqida gapiriladi.
-Dostonning bosh qahramonlari Barchinoy va Alpomishdir.
-Dostonda to‘y marosimlari haqida ham gapirilgan. Masalan, «Kampir o‘ldi», «Soch siypalatar», «Qo‘l ushlatar».

O‘qituvchi ushbu ma’lumotlarni to‘g‘irlab tahlil qilib boradi. Bu texnologiya orqali o‘quvchilarning doston haqida ma’lumotga egaligi sinovdan o‘tkaziladi.

«Qo‘ng‘irot eliga sayohat»

Texnologiyani amalda qo‘llashda o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi. Har bir guruh dostondan parcha olib, sahnalashtirishadi ya’ni jonli rol ijro etishadi. Masalan, birinchi guruh Alpomish bilan Qorajonning tanishish sahnasini ijro etib berishlari mumkin.

Qorajon:

Ostingda bedoving halloslar qushday,
Achchig‘ing chillali muzlagan qishday.
Norkalla kelgansan, chuydang qushmishday,
Norkalla polvonim, qaydin bo‘lasan?
Tepaning boshida senga qarayman,
Borar joying menam sendan so‘rayman.
…Yangi bunda ko‘rdim senday mardimni,
Qorajon deydilar mening otimni,
Baland bildim sening siyosatingni,
Xabar ber, bekbachcha, qaydan borasan?

Qorajondan bu so‘zlarni eshitib, Alpomish ham Qorajonga qarab bir so‘z deb turgan ekan:

…Yoz bo‘lsang, yaylovim Amu daryosi,
Meni bilsang,qo‘ng‘irot elning to‘rasi.
Ko‘kqamish ko‘lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman.
Boyligidan bedov otni boylagan,
Tangqa toylab, Olatovni joylagan.
Kambag‘ali qirq ming gala haydagan,
Shul galada bizning bir moya kelgan.
Moyaning yo‘qchisi – nori bo‘laman.

...Asli Boysun deydi mening yurtimdi,

Laqabim – Alpomish, otim – Hakimdir…

Qorajon deb xabar berding otingdi…

«Qo‘ng‘irot eliga sayohat» texnologiyasi orqali o‘quvchilar doston syujetidan kelib chiqib, jonli sahna ko‘rinishini tayyorlaydi. Ijrolarida Qo‘ng‘urot eliga xos xususiyatlarga e’tibor berishlar lozim. Mazkur texnologiya orqali o‘quvchilarning yashirin iste’dodlari yuzaga chiqariladi. Qolgan guruhlar ham shu tariqa davom etishadi.

«Xalqona so‘zlar» usuli orqali o‘quvchi asar matni bilan tanishadi, notanish so‘zlarning ma’nosini bilib oladi. Masalan:

Chuyda – bo‘yin sirtidagi yo‘g‘on tomir

Suqsur – makiyon o‘rdak

Tangqa taylab – tog‘ni egallab

Gala – suruv

Moya – urg‘ochi tuya.

«Tugallanmagan maktub» usuli

…_____ viloyatinda, _____muzofatindabir _____ degan kampir bor edi. Juda haddili zo‘r kampir edi, bu kampirning _____ o‘g‘li bor edi. Yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini _____ der edi, undan kichkinasini _____der edi, _____ der edi, _____, _____, _____, kenjatoyini _____ der edi.

To‘ldirilishi kerak bo‘lgan so‘zlar: Toychi, Qalmoq, Surxayil, yetti, Ko‘kaldosh, Ko‘kaman, Ko‘kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘shquloq, Qorajon.

2-3-guruhlarga ham shunday matnlar tarqatiladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning zehni, xotirasi, jumlalarni to‘g‘ri so‘zlar bilan davom ettira olishi tekshiriladi. O‘quvchilar shu kabi matnlarni shunchaki to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘qib ketishsa, qisqa vaqtdan so‘ng, albatta, yodidan ko‘tarilishi mumkin. Bu texnologiya esa shu kabi muammolarga yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, «Alpomish» dostonini o‘qitishda innovatsion yundashuv o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tafakkurini o‘stirishga, milliy an’analarni chuqur anglashga yo‘l ochadi. Milliy ruh, qahramonlik, alplik, vatanparvarlik sifatlarining shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Muhamedova S. X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2018.

2.Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J, Yo‘ldoshbekov. 9-sinf . Adabiyot. –T.: 2019. – B. 31- 32.

3. www.ziyo.uz

4. www.ziyonet.uz

ADABIY TA’LIMDA VIRTUAL LABORATORIYALAR TASHKIL ETISH METODIKASI

Esonov Rustam
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
II kurs magistranti

Annotatsiya*. Maqolada adabiy ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishning samarali jihatlari xususida so‘z yuritiladi. Xususan, virtual laboratoriyalar va panoramik tasvirlar yaratish orqali o‘quvchilarni mutolaaga qiziqtirish masalalari tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual borliq, virtual laboratoriya, multimedia, pedagogik dasturiy vositalar, kompyuter.*

Annotation*. The article discusses the effectiveness of using information and communication technologies in the process of literary education. In particular, the question of how to interest students in reading with the help of virtual laboratories and panoramic images was considered.*

Key words*: information and communication technologies, virtual reality, virtual laboratory, multimedia, pedagogical software, computer.*

Zamonaviy ta’lim tizimining asosini yuqori sifatli va texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlantirilishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, ta’limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari interfaol dasturiy vositalarni yaratish, saqlash, yetkazish, qidirish kabi jarayonlarni optimallashtirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Hozirda ta’lim muassasalarida elektron shaklda turli pedagogik axborot-ta’lim resurslari yaratilgan, ammo ulardan foydalanishning tashkiliy asoslarini yaratish borasidagi tadqiqotlar yetarli deb bo‘lmaydi. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy talablarga mos bilim olishini ta’minlash maqsadida barcha o‘quv muassasalari ta’lim muhitida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, biologiyadan interfaol mashg‘ulotlar va laboratoriya mashg‘ulotlari yordamida har qanday murakkab hodisa yoki jarayonni kuzatish imkoni bo‘lmagan tajribalarni ko‘rsatish va o‘quvchilarga tushuntirish mumkin.

Ta’lim berishda foydalaniladigan kompyuter vositalari ular bajaradigan funksional vazifalar nuqtayi nazaridan turlicha bo‘lishi mumkin:

- taqdimotlar, ya’ni animatsiya, audio va videolavhalar, interaktiv elementlarni o‘zida mujassamlashtirishi mumkin bo‘lgan elektron diafilmlar;
- oddiy ma’lumot-axborot nashrlari, ya’ni ensiklopediya, lug‘at, ma’lumotnomalarning o‘xshashi bo‘lgan elektron ensiklopediyalar;
- misol va masalalar, mashqlar to‘plami, ya’ni didaktik materiallar;
- ta’lim oluvchiga «virtual laboratoriya»da tajriba va sinovlar o‘tkazish imkoniyatini beradigan kompleks dasturlar, ya’ni virtual tajriba tizimi.

Qayd etish kerakki, bunday dasturlarning afzalligi ularning o‘quvchiga xavfsizligi va o‘tkazilish vaqti nuqtayi nazaridan real holatda amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan tajribalarni o‘tkazish imkoniyatining mavjudligidir. Ayni paytda bunday turdagi dasturlarning kamchiligi ularga joylashgan modellarning tabiatan cheklanganligi bois o‘quvchi o‘z tajribasini o‘tkazish jarayonida ular chegarasidan tashqariga chiqa olmasligidir.

Elektron dasturlar va o‘quv kurslari yuqorida qayd etilganlarning barchasini yoki bir nechtasini bir majmuaga birlashtiradi. Masalan, talabaga dastlab o‘rganiluvchi kursni ko‘rish (taqdimot), so‘ngra esa o‘rganuvchi o‘rganiluvchi

kursni (virtual tajriba tizimi) ko‘rishi jarayonida olingan bilim asosida o‘quvchiga virtual tajriba o‘tkazish taklif etiladi.

Adabiyotlarda ularning ilgaridan ma’lum barcha vositalardan ajratib turuvchi tavsiflarining faqat pedagogik dasturiy vositalarga nisbatan imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tiladi:

- foydalanuvchining individual ish sur’atini ta’minlash;
- imitatsiyali-modellovchi faoliyatni bajarish;
- ham real, ham ekranda o‘z aksini topgan obyektlar va jarayonlarni boshqarish;
- interaktiv rejimda ishlash;
- o‘rganilayotgan obyektlar, hodisalar va jarayonlarni turli vizuallashtirish vositalaridan foydalanish.

Interfaol ta’lim texnologiyalari adabiyot o‘qitish jarayonini o‘qituvchi va o‘quvchi, darslik, matn, turli didaktik materiallar bilan dialog tarzida o‘quv materiallarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Virtual laboratoriyalarni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor berish kerak bo‘ladi:

1. Modellashtirilayotgan obyekt haqida to‘liq nazariy bilimlar to‘planadi;

2. Nazariy bilimlar asosida kerakli ma’lumotlar aniqlanib matematik model yoki ssenariya tuziladi;

3. Ma’lum bir dastur yordamida kompyuter imitatsion modeli yaratiladi;

4. Axborot texnologiyalarining multimedia vositalarini qo‘llash ma’ruza darslarida namoyish qilinayotgan o‘quv materillarini sifat jihatdan yangi ko‘rinishga keltirishga olib keladi.

Kompyuterdagi laboratoriya mashg‘ulotlari, amaliyot darslari, animatsiyali imitatsion modellar o‘quv materiallarining mazmun mohiyatini tushuntirib berish uchun yaratilgan pedagogik dasturiy vositalardir. Bundan tashqari kompyuter imitatsion modellari yordamida real sharoitda bajarib bo‘lmaydigan har xil trenajyorlar, modellar va laboratoriya ishlarini bajarish mumkin

Milliy ta’lim sohasida muayyan fanlarga mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning yetarli emasligi istiqbolda turli o‘quv predmetlari, xususan, adabiyot o‘qitishni multimedia elektron majmualarining zamonaviy avlodlari bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Adabiy ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mavzuga oid grafik tasvirlar namoyish etish, voqea-hodisalar, qahramonlar portretiga xos xususiyatlar, nazariy tushunchalarni virtual shaklda uzatish asar mazmunini, g‘oyaviy-badiiy maqsadini anglash, egallangan bilimlarni amalga tatbiq etishga yordam beradi. Adabiyotning inson hissiyotlari, tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishi nazarda tutilsa, o‘quvchi asarni o‘qish jarayonida hayotiy va badiiy haqiqatni teran anglashi, o‘zlashtirganlarini boshqalar bilan muhokama qila olishi, matn bilan ishlash chog‘ida adabiy-nazariy tushunchalarni qo‘llay olishi kabi fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish maqsadi amalga oshiriladi. Binobarin, o‘quvchi uchun bilimlar va adabiy ta’lim mazmunining yuqoridagi darajalari mutanosib bo‘lishi murakkab jarayon hisoblanadi. Virtual tajribalar uchun dasturiy ta’minotga o‘qituvchi obrazli tafakkur va badiiy to‘qimani ochib berishga qaratilgan g‘oyalarini taqdim etishi mumkin bo‘ladi. Shu yo‘l bilan o‘quvchilarning badiiylik, obrazlilik va obrazni tushunish kabi adabiy-nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifalari amalga oshirilishi belgilanadi. Dastur animatsiya shaklidagi voqea-sujet, xarakterni ochib beruvchi vosita, konflikt, sujet elementlari, detal hamda badiiy mahorat kabilarni ifodalash xususiyatiga ega. Animatsiyalarni adabiy jarayonga tatbiq etish esa idrok, anglash va bilish jarayonlarini yengillashtiradi, voqelik va hodisalarni aniq, ko‘rgazmali tarzda jonlantiradi.

Adabiy ta’limda nazariy tushunchalar, qahramonlar tashqi portreti, atrof-muhit, tabiat bilan bog‘liq mavsumiy o‘zgarishlarni virtual tarzda berish imkoni mavjud bo‘lsa ham, insonlarga xos ichki kechinmalar, o‘y-xayollar, his-tuyg‘ularni virtual tarzda yetkazish qiyin jarayon hisoblanadi. Obrazlarning xarakter xususiyatlari yoki ruhiyat manzaralarini o‘lchash imkoni mavjud emasligi nazarda tutilsa, bu turdagi mashg‘ulotlarni tashkil etishda ahamiyat qaratiladigan asosiy xususiyatlar nimada,

ularga oid dasturlar qanday tuziladi, jarayon qanday rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, nimalardan qay tartibda foydalaniladi, degan qator savollar tug‘iladi. Buning uchun, avvalo, virtual laboratoriyalar mazmuni o‘rganilayotgan fan samaradorligini oshirishga ta’siri, o‘qitish jarayoni talablariga javob berishi nuqtayi nazaridan belgilanishi zarur. Bunda topshiriqlar strukturasi, o‘quv materiallarini yetkazish shakli, kerakli axborotlarni izlash va nazorat usullari mavjudligi, umuman, o‘qitish jarayonining tashkiliy xususiyatlari e’tiborga olinadi. Ma’lumki, multimediali elektron-pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish orqali avtomatlashtirilgan grafik va murakkab loyihalash ishlari olib boriladi. Pedagogik dasturiy vositalar o‘qituvchilarning o‘qitish g‘oyalarini dasturda shakllantirish, uni tahlil qilish, qo‘llash va baholash orqali takomillashtirishga xizmat qiladi. K.Tursunmetovning fikricha, pedagogik dasturiy vositalar kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita bo‘lib, ularni yaratishda an’anaviy vositalardan farqlanuvchi didaktik, psixologik va ergonomik (qulay (komfrot) vizual va audio muhit, ranglar xarakteristikasi, axborotning fazoviy joylashuvi, diqqat darajasini oshirish, tushunishni tashkillashtirish) kabi omillar mavjud. Tadqiqotimizda adabiy virtual laboratoriyalar mazmuni quyidagi mezonlarga tayanib tarkiblantirilishi ko‘zda tutiladi:

1. O‘quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga ko‘ra topshiriqlarning ilmiy va kreativ xarakterda bo‘lishi;

2. Mavzular va fanlararo integratsiya ta’minlanishi;

3. Materiallar hajmi va vaqtning me’yoridan oshib ketmasligi.

4. Nazariya va amaliyot uyg‘unligiga erishilishi;

5. Topshiriq mazmuni aniqligining ta’minlanishi, bunda o‘quvchi qiziqishi va ehtiyojining nazarda tutilishi;

6. Topshiriqqa oid bilimlarning manba bilan uzviyligi hisobga olinishi.

7. O‘quv dasturi materiallari asosida izchillikning saqlanishi.

8. Mavzuning past, o‘rta va yuqori saviyadagi o‘quvchilar imkoniyatlariga muvofiq kelishi va h.k. Virtual laboratoriyalarni tashkil etishda mavzular konkret, ishonchli va ilmiy asoslangan bo‘lishi; topshiriqlar o‘quvchilar bilimi va hayotiy kuzatishlariga mos kelishi; tajribalar voqelik va hodisalar evolutsiyasining ichki va tashqi mantiqiyligini aks ettirishi, jamiyat va tabiat haqidagi tushunchalarni boyitishi; ovozli dasturlar, rasmli ishlanmalar, harakatli yozuvlar, multiplikatsiya ko‘rinishidagi filmlar hamda animatsiyalarning o‘quvchi sezgi a’zolariga ta’sirini ko‘zlab loyihalashtirilishi va modullashtirish maqsadga muvofiq. Bunda fan o‘qituvchisi va kompyuter mutaxassisi (dasturchi) hamkorligida matndan harakatli tasvirlar ishlash mumkin bo‘lgan epizodlar tanlab olinadi. Boshlang‘ich ta’limda hikmatli so‘zlar, tez aytishlar, topishmoqlar, masallar va ertaklar, yuqori sinflarda geografik yo‘nalishlarga boy sarguzashtlar sujetini o‘ziga xos va noan’anaviy virtual sayohatlarni yaratishning optimal ko‘rinishlari sifatida belgilash mumkin. Barcha yoshdagilar uchun birdek sevimli va qiziqarli hisoblangan janr – topishmoqlar zamirida yashirin sifatlar aniqlanayotganida inson undagi belgi-xususiyatlarni xayolida pishitib, hayotda mavjud belgilariga solishtirib mantiqan fikrlashga harakat qiladi. Topishmoqlarga oid virtual laboratoriyalarni nasriy va she’riy shaklda, tuzilishiga ko‘ra bir yoki bir necha predmetli jumboqlardan iboratligiga ko‘ra tanlash mumkin. Masalan, bir predmet va uning detallari yashirin «Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxda o‘ttiz yaproq – bir yog‘i qora, bir yog‘i oq» topishmog‘i mazmunini «Daraxt – yilning to‘rt fasli, o‘n ikki oy – shox yoki butoqlar, o‘ttiz kun – yaproq, kecha va kunduz – qora va oq ranglar» kabi tasvirlar orqali grafik loyihalashtirish mavzuni obrazlashtirilgan holda oson va yengil o‘zlashtirish imkonini beradi. O‘rganilayotgan mavzuning teran anglanishi uchun qo‘shimcha ravishda o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi tasvir vositalari va usullarining mazkur janrda mavjudligini grafik tasvirlash o‘quvchining ko‘rish, eshitish kabi sezgi a’zolari faoliyatining o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishini ta’minlaydi. Kuzatishlar o‘zbek xalq ertaklarining kirish qismi, masalan, «Ertagi-yo ertagi, echkilarning bo‘rtagi, qirg‘ovul qizil ekan, quyrug‘i

uzun ekan, ko‘k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, ola qarg‘a azonchi, qora qarg‘a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to‘rg‘ay to‘qimchi ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo‘ri bor. Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...» tarzidagi boshlamalarni mustaqil mutolaa qilish jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarning idrok qilish darajasi pastligi ko‘rinadi. Ertaklarga oid virtual laboratoriyalarni shakllantirishda boshlamalar mazmunini alohida sharhlash va jonlantirish talab etiladi. Xususan, ayrim so‘zlar ma’nosining harakatli tasvirlar uyg‘unligida aks ettirilishi ertaklar olamiga xayoliy sayohatning qiziqarli debochasi bo‘lib xizmat qiladi. Lekin aksariyat ertaklar sujeti uydirmalarga asoslanishi, ularda keltirilgan ayrim so‘z, jumla yoki iboralar real hayotda uchramasligi haqida o‘quvchilarga izoh berib ketilishi maqsadga muvofiq. Masalan, «ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor» kabilar. Bunday hollarda virtual mahsulot muallifi tomonidan o‘quvchi hamisha e’tibor qaratavermaydigan, lekin izohi so‘ralganida ma’nosini tushuntirib berishga ikkilanadigan, hatto bu haqida shu kungacha o‘ylab ham ko‘rmagan jumla va iboralarga alohida to‘xtalish bola tushunishi va, hatto tasavvurida jonlantirishi qiyin kechadigan ayrim xususiyat yoki xayoliy uydirmalarning ma’lum darajada oydinlik kiritilishiga muayyan shart-sharoit yaratiladi. Boshlamalardagi insonlar sajiyasi, kasb-kori, xatti-harakatlari, narsa-buyum, voqea-hodisalarning belgi-sifatlari biror jonzot yoki o‘simlikda mujassamligi matndagi mavhum tushunchalarga aniqlik kiritishni taqazo etadi. Binobarin, qirg‘ovulning muzda sirpanib, muruti (burni) sinishi-yu ertakning ham eri bo‘lishi tasavvurga sig‘masligi, yetti kunlik yer nimaga ishoraligi-yu va unda aynan dumi kalta bo‘ri ishtirok etishi ajablanarli bo‘lib, bolaning nafaqat yolg‘iz o‘zi, balki tengdoshlari, hatto butun oila a’zolari bilan hamkorlikda mushohada yuritishi, o‘qib-izlanishga yo‘naltirilishi nuqtayi nazaridan dolzarblik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.M.Fayziyeva, D.Sayfurov. Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun «Virtual ta’lim texnologiyasi» moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. 44-bet.

2.S.Ahmedov va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2007. 62–63-betlar.
3.To‘qliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T., 2010.
4.Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2006.
5.Niyozmetova R. Adabiy ta’limda kompyuter va adabiyot texnologiyalaridan foydalanish. Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1- qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.

RETROSPEKTIV SYUJETNING ASAR BADIIYATIDAGI O‘RNI

Tursunboyeva Shahzoda
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
II kurs magistranti
tursunboyevashahzoda@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada asar badiiy mazmuni va g‘oyasini yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri ─syujetning turlari va tasniflanishi haqida qisqacha fikrlar berilib, bu tasniflanishlardagi retrospektsiyaning o‘rni, u haqidagi qarashlar turlichaligi borasida ma’lumotlar berilgan. XX asr o‘zbek adabiyotida o‘z so‘zi va uslubi bilan kirib kelgan O‘tkir Hoshimov asarlarida o‘ziga xos syujet yaratish mahorati va retrospektsiyaning badiiy ahamiyati adibning romanlari misolida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: epik asar, syujet, retrospektiv syujet, syujet vaqti, syujet makoni*

Epik asar mohiyati, badiiy mazmun va mundarijasi, g‘oyaviy-estetik konsepsiyasini yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri sujet hisoblanadi. Adabiy asarlarda sujetning bir necha ko‘rinishlari mavjud. Bu ko‘rinishlarni tasniflash esa adabiyotshunoslikda turlichalik kasb etadi. Keyingi davr adabiy asarlarida tobora salmoqli o‘ringa ega bo‘layotgan syujet qurishning retrospektiv turi aksariyat o‘zbek adabiyotshunoslarining (D.Quronov, X.Umurov) syujet tasniflariga kirmagan. Ular talqinida retrospeksiya syujet qurishda qatnashuvchi usul deya ta’riflangan. Lekin badiy adabiyot taraqqiyotining keyingi bosqichlarida retrospeksiya katta-kichik epik janrlar syujetini shakllantirishda asosiy vazifa tashib borayotgani bu turga jiddiy e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatib bermoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida syujetni turlarga ajratib, ularni to‘la tasnifash A.Rahimovning shu boradagi izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiyotining eng sara romanlari misolida syujet va unimg turlari borasida izlanish olib borgan olim retrospeksiya haqida quyidagicha mulohaz qiladi: «Shunday syujetlar ham borki, ularda voqealar teskari tartibda beriladi, yozuvchi voqealar rivojini to‘xtatib qo‘yib, masalaning o‘tmishiga, tarixga qaytadi. Sodir bo‘layotgan jarayonlar manbalarini ko‘rsatish qahramon xarakterining shakllanishi sabablarini ochishga imkon beradi… Hozirgi romanlarda sujetning qahramon o‘tishiga qaytuvchi bunday tipi anchagina murakkablik kasb etmoqda. U orqali adiblar o‘tmish bilan bog‘liq voqealarni beribgina qolmasdan, qahramonlarning intilish va kechinmalar olamini ham chuqurroq tahlil etishga erishmoqdalar. [1, 18]

Adabiyot tarixining avvalgi davrlarida retrospektiv sujetdan foydalanish kam uchragan, asosan xronologik sujet qo‘llangan. Fitrat «Adabiyot qoidalari»da: «Eski yozg‘ichlarimiz asarning birligini saqlamoqchi bo‘lib, juda ifrotga tushar edilar: bir hikoya yozg‘anda «ammor uyyoni axbor av noqiloni osor andoq rivoyat qilurlarkim» (xabar beruvchilarning undashi bilan asar rivoyat qiluvchilari shunday aytadilarki…) deb hikoya qahramonlarining tug‘ilish kunidan boshlab o‘lishga qadar bo‘lib o‘tgan voqealarni bir yo‘sinda bir turli qilib qatorlab tizar edilar. Bu turli yozilg‘an hikoyalar, dostonlar bir turli, tusda, o‘zgarishsiz, harakatsiz yurib borg‘ani uchun o‘quvchilarni bezdirar, miyaga og‘irlik qiladir. Bundan qochmoq uchun hikoya romon va dostonlarni turli ko‘rinishlar, yangi-yangi fasllarda tuzish lozimdir»[2, 16]

Olim aytganidek, hozirgi asarlarda sujetning turli ko‘rinish va turlari qo‘llanilmoqda, xususan, retrospektsiya shunday badiiy vositalar bilan berilmoqdaki, hatto buni o‘quvchi sezmay ham qoladi. Shuning bilan birga orqaga qaytuvchi usulning badiiy vazifasi o‘zgardi: endi u shunchaki o‘tmishdagi voqealarni o‘quvchiga yetkazish emas, qahramonlar o‘z hayollari, kechinmalari va qilmishlarini tahlil qilish, o‘zini taftish qilish imkonini beruvchi vositaga aylandi. U endi sujet voqealarini to‘xtatib qo‘ymaydi, sujetning ichki rivojlanishiga sabab

bo‘ladi. Bunday sujet turi qo‘llangan asarlarga O‘tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» asarini ko‘rsatish mumkin.

Roman sujeti voqealarini hikoya qilish jarayonida ikki xil makon va zamon (vaqt) holatiga duch kelamiz. Birinchisi: so‘zlab beruvchi, ya’ni muallif yoki personaj tomonidan belgilab qo‘yilgan zamon(vaqt) va makon, ikkinchisi: voqeaning harakat vaqti (zamoni) va holati.

Roman voqealari va qahramonlari tabiatini tushunishda nihoyatda muhim vazifani o‘taydigan vaziyat bor – bu voqealar rivoji ancha ilgarilab ketganda bir turtki bilan yoki kichik tugunni yechish uchun real zamondan ancha ilgariga qaytish va bu qaytish orqali qahramonlarning bugungi holati sababidan bexabar bo‘lgan holatda aynan shu holga olib kelgan motivlar ochilib boradi. Masalan, roman boshlanishi juda chalkashdek, bir qarasa Rustamning oxirgi kundalik sahifasidan, undan so‘ng esa Qurbonoy xolaning har kungi yumushlari tasviriga o‘tish; Rustamning tasodifiy va sirli o‘limi, Shahnozaning tergovdagi holati va javoblaridan anglashilgan qisqa xulosalar, so‘ngra bundan to‘rt yil avvalgi Rustam va Shahnoza ilk tanishgan paytga qaytib hikoya qilish. Muallif birdaniga o‘tmishga qaytmaydi, balki o‘quvchini bunga tayyorlab boradi: ezib yog‘ayotgan qor tasvirini berish orqali Rustam akasi qorni yomon ko‘rishi Shahnozaning yodiga tushadi va to‘rt yil avval barchasi boshlangan ilk xotiralar uning ongida jonlana boshlaydi: «O‘shanda, birinchi kursda o‘zining boshiga qor yoqqanda kurab tashlagan, jonini asrab qolgan Rustam akasi edi-ku!» [3, 12]. Birinchi kurs talabalarining paxta terimidagi sarguzashtlari kitobxonda Rustam va Shahnozaning ilk munosabatlari, Rustamning qaysar va qiziqqon xarakteri, ikki qahramonning ijtimoiy mansubligi haqida ham ancha tasavvurlar uyg‘otishga xizmat qilgan. Bu qaytish Rustamning o‘limidan keyingi tergov jarayonidan so‘ng berilishi esa kitobxonda asarga qiziqish va sinchkovlikni kuchaytiradi.

Asarda retrospektiv syujet elemetnrlarini yana Rustamning kundaligi va Komissarning xotiralari berilishida ko‘rish mumkin. Har ikki holatda ham ortga qaytish qahramonlar xarakterini ochishdagi asosiy omil vazifasini o‘tagan.

Xulosa qilib aytganda, avvallari syujet chiziqlariga bog‘liq bo‘lmagan, hikoya ichidagi hikoya, kichik epizod shakllarida uchragan retrospeksiya keyingi davrlarda, xususan, O‘tkir Hoshimov asarlarida syujetning turli qismlarini bog‘lovchi, voqealar rivojini, qahramonlar xarakterini izohlovchi, o‘quvchiga muallif maqsadi va asar g‘oyasini tushunib yetishda ko‘maklashuvchi asosiy vositaga aylangani bu turni chuqurroq o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov A. «Roman san’ati», Farg‘ona, 2015.
2. Fitrat A . Tanlangan asarlar. IV jild. Toshkent. Ma’naviyat. 2006.
3. Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. Yangi asr avlodi. Toshkent. 2018.

CHARXIY DEVONI HAQIDA

Jo‘rayeva Mahliyo
ToshDO‘TAU magistranti

Charxiy taxallusi bilan tanilgan Asqarali Hamroali o‘g‘li 1900-yil bahorida Qo‘qonda to‘quvchi kosib oilasida tug‘ilgan. U Amir Umarxon (Amiriy) boshchiligida yaratilgan Qo‘qon adabiy muhitining XX asr namoyondasidir. Shoir o’zbek mumtoz adabiyoti an’analarini davom ettirib, ham lirikada, ham hajviyotda ijod qilgan. Charxiy ijodining asosiy janrlari g’azal, masnaviy, murabba’, muxammas, musaddas, ruboiy va musammanlardir.

Shoirning “Shirin va achchiq” (1959) ilk she’riy guldastasidan keyin “She’rlar” (1966), “Alixo’ja-Xo’jaali” (1970), “Devon” (1972), “Beshigingda yotmayman” (1975) to’plamlari adabiyot ixlosmandlariga taqdim etilgan. Shuningdek, uning devoni qayta shogirdlari tomonidan 2010-yilda “Qiyolab o‘tdi” nomi ostida nashr etildi. Charxiy ko‘plab she’riy asarlari, xususan, “Devon”i orqali o‘zbek adabiyoti rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

Charxiyning Devoni, dastlab, 1972-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida, 2010-yilda esa Akademnashrda chop etilgan. Dastavval, “Devon”da shoirning o‘zi haqida yozgan tarjimai holi nasrda keltiriladi. “Devon” she’riy “Debocha” (forscha – so‘z boshi, muqaddima) bilan boshlanadi. Debocha *sariyi musaddasi matviyi makshuf* vaznida masnaviy usulida bitilgan.

Biz maqolamizda Charxiyning 2010-yilda nashr etilgan “Devon”idagi she’rlarni tadqiq etdik. Devonda 178 ta she’riy asar bo’lib, 99 ta g’azal, 4 ta mustazod, 6 ta masnaviy, 9 ta murabba, 17 ta muxammas, 3 ta musaddas, 1 ta musamman, 39 ta ruboiy kiritilgan.

Shoirning ko’plab g’azallariga kuy bastalanib, xalq hofizlari tomonidan ijro etib kelinadi. Devonga kiritilgan g‘azallari orasida oddiy g‘azal, g‘azali musajja, g‘azali muvashshah, qaytarma bahrli g‘azallar uchraydi. Carxiyning “Mehrim barqaror” g‘azali qaytarma bahr[81]da yozilgan:

Baxtiyorman yashnagan yurtimda mehrim ***barqaror***,

Barqaror mendek shirin umri-la hamma ***baxtiyor***[82].

Devondan o‘rin olgan g‘azallar aruzning *ramal*, *hazaj*, *rajaz*, *mujtass*, *muzori’*, *sari’*, *xafif*, *munsarih* bahrlarida bitilgan.

G‘azaldan so‘ng “Davronimiz obod”, “Navoiyga”, “To‘yonasi birlan” hamda “Qalam” mustazodlari o‘rin olgan. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida mustazod *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* vaznida yaratilishini ta’kidlaydi[83]. Charxiyning “Davronimiz obod”, “Navoiyga”, “To‘yonasi birlan” mustazodlari xuddi shu vaznda bitilgan. “Qalam mustazodi” esa noan’anaviy vaznda *mujtassi musammani maxbuni mahzufi mustazod (ruknlari va chizmasi: mafoilun failotun mafoilun failun mafoilun failun*)da yozilgan[84].

Charxiy devonida musammatning murabba’, muxammas, musaddas, musamman turlari ham uchraydi. Mazkur bandli she’r shakllari orasida “Devon”da muxammaslar salmoqli o‘ringa ega. Shoir muxammasning har ikkala turida ijod qilgan. Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Uvaysiy, Uyg‘un, Surmaniso, Muqimiy, Sobir Abdulla, Ma’dan, Huvaydo g‘azallariga taxmis bog‘lagan. Bu bilan shoir mumtoz adabiyotimiz an’analarini davom ettirib, mavzu va vazn uyg‘unligini mustahkamladi.

[81] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 153.

[82] Чархий. Қиёлаб ўтди. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 36.

[83] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи жилд. – Тошкент: Фан, 2000. - Б. 350.

[84] Раҳмонова Ш. XXаср иккинчи ярми ўзбек шериятида арузнинг поэтик шакл ва мазмун такомилидаги ўрни. Монография. – Т.: Innovatsiya-ziyo, 2020. – Б. 188.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 153.
2. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи жилд. – Тошкент: Фан, 2000. - Б. 350.
3. Раҳмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шериятида арузнинг поэтик шакл ва мазмун такомилидаги ўрни. Монография. – Т.: Innovatsiya-ziyo, 2020.
4. Чархий. Қиёлаб ўтди. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 36.

QUR’ONIY G‘OYALARNING BADIIY TALQINI

Shohista Mulloqulova
ToshDO‘TAU magistranri

Annotatsiya: *Maqolada Alisher Navoiyning forsiy merosida ilohiy-irfoniy qarashlarning mushtarakligi haqida fikr yuritiladi. Qur’oniy g‘oyalarning badiiy talqini Foniy qasidalarining matniy-qiyosiy tahlili orqali namoyon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Devoni Foniy, qur’oniy g‘oya, Ruh ul-quds tasavvuf.*

Jahon adabiyotshunosligida milliy adabiyotning ilohiyotga ehtiyoji va undan oziqlanishi xususida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, musulmon mamlakatlarida adabiyotning Qur’oni karim va hadisi sharifning adabiyotga ta’siri, so‘z san’ati orqali ilohiy va islomiy qarashlarning yoritilishini o‘rganish muhim masalalardan sanaladi. Mustaqillikdan keyin, mamlakatimizda jamiyatning diniy-ruhiy asoslari va xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy-axloqiy merosini o‘zida mujassam etgan islom madaniyatini o‘rganish va uni hayotga tatbiq etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O‘zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyotiga zamin hozirlagan diniy, ma’naviy-ma’rifiy sarchashmalarni chuqurroq o‘rganish hamda dunyoga tanitish bo‘yicha tadqiqotlar yuzaga keldi. Binobarin, islom dini va mumtoz adabiyotimizning o‘zaro ta’sir mezonlarini, jumladan, Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqinini Alisher Navoiyning ijodini matniy-qiyosiy tahlil qilish orqali amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangandi. Alisher Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, irfoniy qarashlarning asarlarga singdirilib yuborilganining guvohi bo‘lamiz.Bu qarashlar ba’zi o‘rinda yaqqol hadis-u oyatlarni iqtibos qilinishida namoyon bo‘lsa,boshqa o‘rinda mazmun

Qur’onga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da fors tilida bir qancha qasida yozganini aytadi. Hamid Sulaymon qayd qilishicha, “Devoni Foniy” ning uch qo‘lyozmasi(Parij Milliy kutubxonasi qo‘lyozmasi, 285-raqam va Turkiya kutubxonasi qo‘lyozmalari, 1952, 3850-raqamlar) muqaddimasida “Sittai zaruriya” (“Olti zaruriyat”) va “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) sarlavhali ikki to‘plam bo‘lib, birinchisi olti, ikkinchisi to‘rt qasidani o‘z ichiga olgan[85].

“Sittai zaruriya” to‘plamidagi qasidalarda Navoiyning diniy, falsafiy qarashlari aks etgan. Majmuadagi birinchi qasida “Ruh ul-quds” (“Muqaddas ruh”) deb atalib,. ilohiy tavhid: olamning tanholigi, yagona abadiy va azaliy borliq, Yaratganning qudrati, eng kichik zarradan cheksiz koinotgacha uning izmida ekanligi madh etiladi. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Zihy ba xomai qudrat musavviri ashyo,

Hazor naqshi ajib har zamon az o‘ paydo[86].

Mazmuni: (Ashyolarga surat beruvchi (Allohning) qudrat qalamiga tasannokim, Har zamon undan minglab ajoyib naqshlar paydo bo‘lgay).

Hamdning “xomai qudrat” (qudrat qalami) iborasi bilan boshlanishi bejiz emas. Hadisda keltirilishicha, Muhammad alayhissalomga nozil bo‘lgan ilk surada “Yaratgan Robbing nomi bilan o‘qi.O‘qing! Rabbingiz esa Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni) o‘rgatdi” mazmunidagi oyatlar bor (“Alaq” surasi, 1-3–4-oyatlar). “Musavvir” so‘zi ham Allohning go‘zal ismlaridan biri bo‘lib, dastlabki misradayoq Parvardigorning uch sifati – Ilmi, Qudrati va Yaratuvchanligi hamd etilgan. Ko‘rinadiki, shoirning so‘z tanlashi asl manba – Qur'oni karim oyatlari asosida bo‘lsa ham, qo‘llanilishida shoirona mahorat imonli insonning kechinmalari va irfoniy dunyoqarash asoslari bilan uyg‘un holda, ajoyib so‘z san’ati namunasini vujudga keltirgan. Keyingi baytda Ollohning yaratuvchi qudrat ekanligi hamd etilgan.

[85]Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поэтик мероси тадқиқотидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 5.

[86]Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20- жилд. – Т.: Фан, 2000-2003.

Chi xomaest, ki dar korgohi ,,kun fayakum''

Nagashta be raqami o‘ zi qatra to daryo[87].

Mazmuni: Ajib qalamdirki, (Haqning), “Bo‘l!’’ desa bo‘ladigan san’atxonasida qatradin daryogacha uning raqamisiz paydo bo‘lmagan. Ushbu bayt mohiyatida iqtibos san’ati asosida “Oli Imron” surasining 47-oyati “…Bir ishni iroda qilsa, “Bo‘l!” deyishi kifoya, bo‘laveradir”; “Yosin” surasining 82-oyatiga “Biror narsani (yaratishni)iroda qilgan vaqtida Uning ishi faqatgina “Bo‘l!” demoqlikdir. Bas, u (narsa) bo‘lur-vujudga kelur” ishora qiladi: “Innama amruhu iza aroda shay`an yaqula lahu kun fa yakun”. Irfoniy tasavvurga ko‘ra, inson ikki asos jism va ruhdan iborat. Inson o‘z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, borib taqaladi. Bular haqida Qur’oni Karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan. “Vas-safat” surasi 11-oyati (“Biz insonlarning asli-avvali bo‘lmish Odam alayhissalomni yopishqoq bir loydan yaratgandirmiz”).

Chu soz kardy zi tarkibi chismi insoni,

Zi xok ta’biya soxti ba zebu baho[88].

Mazmuni: Insonni tuproqdan yaratding va unga ruh ato etding.Ana shu Ruh esa insonni ma’naviy kamolotga yetaklaydi. Chunki ruh g‘ayb olamining "mulki", u insonga latif bir quvvat bag‘ishlaydi.

Ba xoki xismash boroni rahmat afshondy,

K-az on muloimat ovard tinatash paydo[89].

Mazmuni: Tuproqdan yaralgan jismi ustiga Rahmat yomg‘irini yog‘dirding, o‘shandan uning fe’l-atvorida muloyimlik paydo bo‘ldi. Biroq, inson tabiati to‘la poklanmadi…

Qur’oni Karimning “Al-Isro” surasi 85-oyatida o‘qiymiz: “Va yas’alunaka anirruh qulir ruhu min amri rob” (Ey Muhammad, Sizdan ruh-jon haqida so‘raydilar. Ayting, "Ruh yolg‘iz Parvardigorim biladigan ishlardandir”). Ruh ilohiy

[87] Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20-жилд. – Т.: Фан, 2000-2003

[88] Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20-жилд. – Т.: Фан, 2000-2003

[89] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003.

ma’rifat, hikmat-u donish bilan oziqlanadi. Demak, insonning mohiyati ham shu Ruhdadir,komillik belgisi ham pokiza ruhga bog‘liqdir.

Chu gasht paykarash orosta ba zeboy,

“Nafaxtu fihi min ruhy” on budash mabdo[90].

Ya’ni: Surati go‘zal qiyofada paydo bo‘lgandan so‘ng (insonga), o‘z (dargohingdagi) ruhdan jon ato qilgan mabda’ (mansha’) ham O‘zingsan.

Bu baytdagi “Nafaxtu fihi min ruhy” jumlasi Qur’oni karimning Hijr surasining 29-oyatiga, Sod surasining 72-oyatiga ishoradir. Bu oyatlarning matni shunday: “Fa-iza savvaytuhu va nafaxtu fiyha min ruhi faqa’u lahu sojidiyn” (Hijr surasidagi 29-oyat, Sod surasidagi 72-oyat), ya’ni bas, qachonki uni to‘g‘rilab bo‘lganimda va ichiga O‘z ruhimdan puflaganimda, unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz”. Bu bayt orqali Olloh insonni yaratgani va uning buyuk, muqaddas ekanligini, bularning barchasiga faqat yagona Olloh qodirligini ko‘ramiz.Komil Inson insoniyatni boshqaradigan buyuk ruh ekanligi islomiy-irfoniy falsafiy g‘oyalar bilan talqin etilgan. Ulug‘ shoir ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari ifodalangan bu kabi asarlarni bevosita ilohiy-islomiy sarchashmalardan bahra olgan asar sifatida e’tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003

2. Қуръони карим (таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)-,, Тошкент ислом университети’’нашриёт-матба бирлашмаси,2014

3. Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поэтик мероси тадқиқотидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 5

[90] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003, 199-б.

«SADDI ISKANDARIY» DOSTONIDA HUKMDORLAR OBRAZI HAQIDA

Maxmuda Yuldasheva
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti magistranti
mdjabborova86@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida Iskandar obrazining badiiy talqini, muallifning podshohlar obraziga murojaat etishdagi g‘oyaviy maqsadi haqida so‘z yuritiladi. Dostondagi tarixiy va afsonaviy podshohlar timsoli, shoir tasavvuridagi adolatli hukmdor tasviri va uning badiiy ifodasi tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *hukmdor, tarixiy obraz, afsonaviy obraz, ibrat, tanqid, o‘rnak.*

Resume. *The article is devoted to the artistic interpretation of the image of Alexander in the epic of Alisher Navoi "Saddi Iskandari", the ideological goal of the author in addressing the image of the kings. The image of historical and legendary kings in the epic, the image of a just ruler in the poet's imagination, his artistic expression are analyzed.*

Key words: *ruler, historical image, mythical image, example, criticism, example.*

Panjayi xurshiddek ilgingni och,
Anda nekim siym esa – olamga soch.
(Alisher Navoiy)

«Saddi Iskandariy» qahramonlik epopeyasi Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yorqin bir ko‘zgusi bo‘lib, unda adolatli va ma’rifatparvar podsho boshchiligida markazlashgan davlat uchun kurash g‘oyasi ilgari suriladi. Bu g‘oya Iskandar shaxsi va uning faoliyatida mujassamlantiriladi.

Iskandar nomi ostida, odatda, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida Iskandari Zulqarnayn, Iskandari Rumiy yoki Iskandar Maqdon deb yuritilgan Aleksandr Makedoniyalik tasavvur qilinadi [Маллаев, 1974: 168].

Iskandar – tarixiy shaxs bo‘lib, Aleksandr Makedoniyalik nomi bilan butun dunyoga shuhrati yoyilgan yunon podshohidir. U o‘zining qisqa, ammo shiddatli hayoti davomida qariyb yer yuzining yarmini zabt etib, markazlashgan davlat barpo etishga ulgurgan jahongir edi.

O‘ttiz uch yil umr ko‘rgan bu qudratli fotih obrazi kishilik jamiyatining doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan. Zamonlar o‘tishi bilan dunyoni larzaga solgan

Aleksandr shaxsi, uning zafarli g‘alabalari afsonalar qobig‘iga o‘ralib, tarixiy qiyofasi o‘zgartirilgan holda talqin qilina boshlandi. Natijada afsonaga aylangan Aleksandr obrazi Iskandar nomi bilan Sharq xalqlarining zabardast shoirlari asarlari qahramoni uchun prototip bo‘lib xizmat qildi.

Zamonlar o‘tishi bilan Iskandar haqida turli-tuman asarlar yaratildi va Iskandar tarixiy zamindan tobora uzoqlashib, badiiy to‘qima bir obrazga aylanib bordi. Iskandarni yo odil, yoki zolim podshoh obrazi sifatida tasvirlash, uni jahongir va faylasuf sifatida talqin etish bir adabiy an’ana tusini oldi.

Rumlik fotih Iskandar haqida to‘laqonli obraz yaratib, uni markaziy siymo sifatida Sharq adabiyotida ilk bor talqin qilgan shoir – buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy bo‘ldi. U talqin qilgan Iskandar obrazi Dehlaviy, Jomiy va Navoiy asarlarida ham o‘z aksini topdi.

Iskandar haqidagi dostonda Iskandarning kelib chiqishi, nasl-nasabini aniqlashda shoirlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yechishda Navoiy ustozi – Jomiy so‘ziga tayanadi. Jomiy so‘zini eng mo‘tabar dalil deb biladi va dostonda voqea yo‘nalishini shu asosda hal qiladi.

Navoiy dostonga Iskandar obrazini bosh ijobiy qahramon qilib oldi, lekin uning qozongan zafarlari-yu erishgan buyuk muvaffaqiyatlarini, shon-shavkati-yu buyuk qudratini ulug‘lashni maqsad qilib qo‘ymadi. U buyuk hukmdorning inson sifatidagi ijobiy xislatlarini va jahongirlik darajasiga erishuvi yo‘lida uning tabiatida ro‘y bergan salbiy o‘zgarishlarni va nihoyat jahondor shohning qismati nima bilan tugaganini tasvirlashni maqsad qilib qo‘ydi. Ikkinchi maqsadi esa, an’anaviy Iskandar obrazi orqali hayoti davomida yig‘ilgan boy turmush tajribalarini o‘rtoqlashmoqchi, do‘sti Husayn Boyqaroga adolatli podshoh qanday bo‘lishi kerakligi haqida nasihatlar qilmoqchi bo‘ladi. Shu bois Navoiy Iskandar obrazini ilohiylashtirmaydi, uning xarakteridagi ziddiyatlarni oshkora tasvirlaydi.

Skandarki farrux jahondor edi,
*Ne shahliqqa matlub anga bor edi [*Алишер Навоий, 1991: 368*].*

Doimo xalqning osoyishtaligini koʻzlagan Navoiy askar surib jahonni egallamoq shohlik emas, balki haq hadya etgan zamindan tinchlik bilan hamma narsaning shukronasini qilib oqilona foydalanish haqiqiy shohlikdir, deya uqtiradi va dostonda tilga olingan yaqin doʻsti va shahzodani Iskandarning xalq farovonligi, tinchligi va osoyishtaligi yoʻlida amalga oshirgan ishlaridan ibrat olishga, xalq manfaatiga zid keladigan ishlaridan oʻzini tutishga da'vat etadi. Demak, Navoiy Iskandarni ideal inson sifatida ham, ideal shoh sifatida ham tasvirlashni maqsad qilib qoʻymagan, balki uni qanday boʻlsa shundayligicha tasvirlab, inson va shoh sifatidagi xislatlarini ochib bergan.

Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida koʻplab tarixiy va afsonaviy podshohlar obrazini uchratish mumkin. Ularning ayrimlari adolatli, odil podshoh sifatida tasvirlanib, ibrat namunasi oʻrnida keltirilgan boʻlsa, boshqalari zolim, zulmkor hukmdor sifatida namoyon boʻladi.

Masalan, «Saddi Iskandariy» dostonining XXV bobida keltirilgan quyidagi baytda ikki tarixiy podshohlar nomini yonma-yon koʻrishimiz mumkin:

Eshittimki, Chingizu Xorazmshoh,

*Adovatqa chun boʻldilar kiynahoh [*Алишер Навоий, 1991: 137*].*

Tarixdan ma'lumki, Chingizxon va Xorazmshoh bir davrda yashab, hukmronlik qiladi va ular oʻrtasidagi ayovsiz jang Chingizxon gʻalabasi bilan yakun topadi. Bu bobda Navoiy tomonidan shohlarning bir-biriga adovati tufayli jahon xalqi qiyin ahvolda qolishi, doʻstlik va bir-biriga jonfidolik esa doimo gʻolib boʻlishi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Shuningdek, «Saddi Iskandariy»ning bir necha oʻrinlarida shoir qahramonning buyuk qudratini ta'riflashda an'anaviy Jamshid obrazining shavkat va hashamatidan foydalanadi [Жабборова, 2020: 80].

Yana shoh raxshanda xurshiddek,

*Jahon mulki fathigʻa Jamshiddek [*Алишер Навоий, 1991: 288*].*

Barchamizga ma'lumki, tarixchilar Eron hukmdorlarini toʻrt tabaqaga ajratganlar, bular: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylar. Navoiy oʻz

asarida mana shu to‘rt tabaqaga mansub hukmdorlarni birini adolatli shoh sifatida, boshqasini zolim hukmdor sifatida talqin qiladi.

Jumladan, «Saddi Iskandariy» dostonida **peshdodiylar** tabaqasidan Kayumars, Hushang, Tahmuras, Manuchehr, Nuvdar, Tahmosp, Garshosp, Kirshosp, Faridun, Jamshid, Zob Tahmosb, Zahhoklar; **kayoniylar** tabaqasiga mansub Gushtosp, Kayqubod, Kaykovus, Kayxisrav, Tahamtan, Doro, Bahman, Asfandiyor, Iskandar, Dorob, Buxtunnasr, Muhrosb, Nev, Siyovushlar; **ashkoniylar**dan Ashk bin Doro, Ardavon, Ashkon, Bahrom ibn Shopur, Gudarzi Ashg‘on, Gudarzi Tiyri, Narsi ibn Gudarz, Yalosh ibn Feruz, Yalosh ibn Bahrom, Hurmuz ibn Yaloshlar; **sosoniylar**dan Anushirvoni Hurmuz, Kisri, Ardasher ibn Hurmuz, Yazdajurd, Bahrom binni Yazdajurd, Bahrom (Varaxran V), Narsi ibn Bahrom, Nushirvon, Parviz, Feruz ibn Yazdijird, Yalosh ibn Feruz, Hurmuz ibn Shopur, Hurmuz ibn Narsi, Husrav Parvez ibn Hurmuzlarning nomlari keltirilgan.

«Xamsa»ning oxirgi dostoni «Saddi Iskandariy»da ilgarigi to‘rt dostonda o‘rtaga tashlangan masalalarga munosib, ibratli javoblar beriladi, go‘yo aytilgan fikrlarga yakun yasaladi.

Kishilik tarixida shunday siymolar borki, ularning har qaysi davrda o‘z talqini, o‘ziga xos badiiy qiyofasi yaratiladi. Badiiy adabiyotda bunday obrazlar an’anaviy obraz sifatida yashaydi. Bunday obrazlar sirasiga podshohlar obrazini kiritish mumkin. Hukmdorlar obrazi murakkab obraz sifatida ko‘pgina tadqiqotlarga obyekt bo‘la oladi. Birgina Alisher Navoiy asarlaridagi hukmdorlar obrazi alohida tadqiqotni, qiyosiy kuzatishni talab etuvchi mavzudir. Demak, tadqiq etishda davom etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алишер Навоий. Садди Искандарий. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991.
2. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974.
3. Жабборова М. Халқ қиссаларида поетик анъана ва ўзига хослик. – Тошкент. Инновация-Зиё. 2020.

«ALPOMISH» DOSTONI - TARIXIY HAQIQAT

Jumag‘ulova Dilafruz Xushmurot qizi
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti
dilafruzjumagulova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada «Alpomish» dostonida keltirilgan joy nomlari va urug‘larning tarixiy ahamiyati, badiiy asardagi tarixiy haqiqat Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktabi vakili Abdunazar Poyonov varianti asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘ng‘irot, Boysin, oltmish olti urug‘, Ola tog‘, Ko‘k tog‘, Qalmoq, Kashal, ko‘chmanchi, chorvador.*

Annotation: *The article describes the place names and historical significance of the tribes in the epic "Alpomish", the historical truth in the work of art based on the version of Abdunazar Poyonov, a representative of the School of Epic of South Uzbekistan.*

Key words: *Kungrad, Boysin, sixty-six tribes, Ola mountain, Blue mountain, Kalmykia, Kashal, nomad, cattle breeder.*

«Alpomish» dostoniga «dostonlar gultoji» deb bejizga ta’rif berilmagan. Bugungi kungacha do‘mbira jo‘rligida ijro etayotgan baxshilar orasida ushbu dostonni kuylamagan, bilmagan baxshini topish qiyin. Folklorshunosligimizda ham eng ko‘p tadqiqotlar «Alpomish» dostoni ustida olib borilgan. Shunga qaramasdan, bu xazina javohirlarini to‘liq kashf etildi deb bo‘lmaydi. Tadqiqotlarda birgina o‘zbek adabiyotida «Alpomish» dostonining 40 dan ortiq variantlari mavjudligi aytib o‘tiladi. Dostonning bugungi kunda ham ijro amaliyotida mavjudligi o‘z-o‘zidan bu raqamlarning o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. «Alpomish» dostonining yirik namunalarini yozib olish o‘tgan asrning yigirmanchi yillaridan boshlangan. Turli dostonchilik maktablari vakillari bu ishga o‘z hissasini qo‘shgan. Dastlabki bosqichlarda Qo‘rg‘on, Bulung‘ur dostonchilik maktablari vakillari yetakchilik qilgan bo‘lsa, hozirgi kunda Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktablari yetakchilik qilmoqda. Bular orasidan Sherobod dostonchilik maktabi vakili Abdunazar Poyonov variantini yaqin yillarda yozib olingan «Alpomish» dostoni variantlarining eng yaxshi namunalaridan deyish mumkin.

«Alpomish» dostoni voqealari tarixiy haqiqat. Unda xalqning tarixi, urf-odatlari, ozru-umidlari, madaniyati aks etgan. Doston nafaqat O‘zbekiston, balki

Oltoydan Turkiyagacha bo‘lgan hududlarda keng tarqalgan hamda sevib ijro etilgan. Har bir hududda yetishib chiqqan baxshi o‘z hududi doirasidan kelib chiqqan holda dostonni kuylagan. Natijada joy nomlari ham o‘z hududi doirasida kechgan. Rus sharshunosi V.M.Jirmunskiy «Alpomish» haqidagi asarlarni o‘rganar ekan, uning yaratilish tarixi va genezisi masalalariga to‘xtaladi. Olim dostonning bir qancha versiya va variantlarini o‘rganish natijasida Alpomish haqidagi epik rivoyat genezisini to‘rtta guruhga bo‘ladi.[91]

1. Oltoy versiyasi. «Alip-Manash». Bu versiyani qadimgi turk xoqonligi davrida (VI – VIII asrlar) Oltoy tog‘i etaklarida yaratilgan;

2.O‘g‘uz versiyasi. «Bomsi-Bayrak». Oltoy etaklaridan o‘g‘uzlar IX – X asrlarda Sirdaryo bo‘ylariga olib kelganlar va saljuqiylar davrida (XI asr) Kavkaz va Kichik Osiyoga tarqalgan;

3. Qipchoq versiyasi. «Alpamisha va Barchin suluv», «Alpamisha» va boshqalar. XI – XIII asrlarda Qipchoq urug‘larining garbga siljishi bilan Qozog‘iston, Boshqirdiston, Tataristonga tarqalgan;

4. Qo‘ng‘irot versiyasi. Ko‘chmanchi o‘zbeklar XVI asr boshlarida Alpomish haqidagi rivoyatni Janubiy O‘zbekistonga (Boysin bekligiga) olib kelganlar va u yerda qadimiy bahodirlik qo‘shig‘i yoki ertagi asosida «Alpomish» qahramonlik dostoni yaratilgan[92].

O‘zbek variantlari asosan, Qo‘ng‘irot versiyasi asosida yaratilgan. Yurtimizda 1999-yilda «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi nishonlandi. Dostonning bir qancha variantlari chop etildi. «Alpomish»ni o‘qir ekanmiz, doston boshlanmasidayoq uning tarixiyligiga guvoh bo‘lamiz. Bugungi kunda ilm ahli tomonidan eng mukammal nashr sifatida o‘rganilib kelingan Bulung‘ur dostonchilik maktabi vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti shunday jumla bilan boshlanadi: «Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi»[93]. O‘zbek xalqida «burungi» so‘zi o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqeaga nisbatan

[91] В.М.Жирмунский, Вопросы генезиса и истории эпического сказания об Алпамыше, Т.: “ФАН”, 1959, 26 - 60-бетлар.

[92] T.Mirzayev, Alpomish dostonining o‘zbek variantlari, T.: “FAN” nashriyoti, 1968, 19-bet.

[93] Alpomish. Aytuvch Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Toshkent, G‘afur G‘ulom NNMIU, 2015, 40-bet.

ishlatiladi. Dostonda shu so‘zning o‘ziyoq asarning tarixiyligini belgilaydi. «Alpomish» dostonining boshqa variantlarida ham boshlanma qisman o‘zgarishlar bilan shu shaklda takrorlanadi. Asarning tarixiyligini asoslaydigan muhim xususiyat undagi joy nomlaridir.

Dostonda Alpomishning tug‘ilgan joyi sifatida o‘zbek variantlarida Qo‘ng‘irot eli, hududi ko‘rsatiladi. Bu O‘zbekistonning Janubiy hududlariga to‘g‘ri keladi.

Dostonni kuylash jarayonida baxshilar ozmi-ko‘pmi turli hodisalar (masalan, improvizatsiya) natijasida o‘ziga tanish yoki yaqin bo‘lgan hududlarni ham doston tarkibiga kiritishi mumkin. Joy nomlarini tahlil qilish jarayonda doston yaratilgan hududda yetishib chiqqan baxshilarning variantini o‘rganish maqsadga muvofiq. Janubiy O‘zbekiston vakili baxshi Abdunazar Poyonov variantini bugungi kunda mukammal variantlardan biri sifatida e’tirofga loyiq. «Alpomish» dostonning A.Poyonov varianti 2013-yilning fevral-may oylari yozib olingan bo‘lib, hozirda O‘zR FA o‘zbek tili, adabiyoti va folklor institutida saqlanadi. Dostonning umumiy hajmi 600 sahifadan iborat. Ushbu varaintda she’riy misralarning soni 14230 tani tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, doston hajmi ham boshqa yozib olingan variantlarga qaraganda ancha salmoqli.

A.Poyonov variantida joy nomlari boshqa variantlarga qaraganda ko‘proq va aniqroqroq ko‘rsatilgan. Jumladan, oltmish olti urug‘ Boysun-Qo‘ng‘irot yurtining hududi «Olatog‘dan narmonda, Ko‘kcha tog‘dan bermanda»[94] deb ko‘rsatilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra Olatog‘ Qirg‘iziston hududiga, Ko‘kcha tog‘ esa Qoraqalpog‘iston hududiga to‘g‘ri keladi. Baxshi ta’riflagan oltmish olti urug‘ Boysun-Qo‘g‘irot yurti bugungi kundagi Qirg‘iziston va Qoraqalpog‘iston o‘rtasida Amudaryo bo‘yida joylashgan.

Manbalarda Sirdaryo va Amudaryo orasida yashovchi o‘zbek xalqining 92 urug‘i sanab o‘tiladi. Baxshi Qo‘ng‘irot elini ta’riflar ekan, ularni oltmish olti urug‘dan iboratligini va ularning Olatog‘ va Ko‘kcha tog‘ oralg‘ida yashashini aytadi. Baxshi ta’riflagan oltmish olti urug‘ 92 o‘zbek urug‘ining bir qismi

[94] Alpomish. Aytuvch Abdunazar Poyonov. Toshkent, “Akademnashr”, 2018, 15-bet.

hisoblanadi. Qo‘ng‘irotlar Ilk o‘rta asrlarda Oltoy, Mo‘g‘ulistonning shimoliy qismida yashaganlar. Markaziy Osiyoda turli ko‘chmanchi turkiy qabila va urug‘lar qo‘ng‘irotlar atrofida uyushib, ularning qabilaviy nomini qabul qilishgan. XVI asrda qo‘ng‘irotlar O‘zbek ulusidagi turkiy qabilalar tarkibiga kirgan. Ulus parchalanishi bilan qo‘ng‘irotlar o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqa xalqlar tarkibiga kirgan. XIV – XVI asrlar davomida qo‘ng‘irotlarning ayrim guruhlari Xuroson, Janubiy Turkiston va Hisor-Sherobod vodiysiga kelib o‘rnashganlar. Qo‘ng‘irotlar siyosiy hayotda ham faol ishtirok etishgan. XVIII asrning 2-yarmi – XIX asr boshlarida Xorazmni o‘zbeklarning Qo‘ng‘irot sulolasi boshqargan. Dastlab ko‘chmanchi shaklda yashagan qo‘ng‘irotlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida yarim o‘troq holida yashab, xo‘jaligida muhim rol o‘ynagan.[95] «Alpomish» dostonida to‘qson to‘qay yilqi, behisob poda, tuya va podachilar borligi, qahramonlarning dehqonchilik bilan emas, balki chorvachilik bilan shug‘ullanishining guvohi bo‘lamiz. Xalqning chorvasi boqiladigan hududlar dostonda Bobur ko‘li, Ko‘kkamish ko‘li, Ko‘kdala adiri, Bo‘zbiya yaylovi kabi nomlar bilan atalgan. Qalmoq yurtida esa Oyna ko‘li, Chilbir cho‘li, Oqto‘qay va Ko‘kto‘qay, Shiboqli, Oqbel kabi yaylovlar nomlari keltirilgan.

Boysarining esa ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan Ko‘hitang tog‘ining osti Kashalga Qalmoq yurtiga ko‘chishi mazkur xalqning ko‘chmanchi bo‘lib yashaganidan dalolat beradi. Qalmoqlar ham tarixiy xalq, Kasbiybo‘yi pasttekisligining g‘arbiy qismida yashagan. Bu hududdan neolit davriga oid yodgorliklar topilgan. Hududining katta qismi Yergeni qiridan iborat. Bugungi kunda Qalmog‘iston Respublikasi mavjud bo‘lib, Xalmg-Tangch ham deb ataladi. Boysarining Ko‘hitang iborasi aynan Yengeri qirini anglatgan bo‘lsa, ajab emas. Ushbu hududlarda qadimdan qamish, o‘tloq o‘simliklari, boshoq va shuvoqli osimliklari o‘sgan, iqlimi mo‘tadil bo‘lgan. Chorva bilan shug‘ullanuvchi Boysariga ham xuddi shunday makonlar kerak bo‘lgan.

[95] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, Birinchi jild, T.: 2000-yil. Q-harfi.

Abdunazar Poyonov variantida boshqa variantlarda uchramaydigan Talqin cho‘l nomi ham uchraydi. Bunda Boybo‘rining ushbu cho‘lga suv chiqarib obod qilish harakati yoritiladi. Ma’lumki, Amudaryo bo‘yida yashovchi xalqlar qadimdan turli charxlar yordamida, ariq, kanallar orqali atrofga suv chiqarib obod qilishgan. Dostonda ham xalqning tarixiy o‘tmishiga oid cho‘lni obod qilish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

«Alpomish» dostonida joy nomlarining tarixiy ahamiyat kasb etishi bu asar qiymatini yana-da oshiradi. Doston voqealari aynan bir vaqtda sodir bo‘lmagan bo‘lsa-da, xalqning ming yillar davomidagi hayotidan xabar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. Aytuvch Abdunazar Poyonov. Toshkent, «Akademnashr», 2018
2. Alpomish. Aytuvch Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. В.М.Жирмунский, Вопросы генезиса и истории эпического сказания об Алпамыше, Т.: «ФАН», 1959.
4. T.Mirzayev, Alpomish dostonining o‘zbek variantlari, T.: «FAN», 1968.

QOFIYANING O‘ZAK TARKIBIGA KO‘RA TURLARINING BAYTLARDA QO‘LLANISHI

Toshboyeva Dilorom

ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi
toshboyevadilorom667@gmail.com,

Annotatsiya: *Mazkur maqolada she’riyatda asosiy unsurlardan biri hisoblangan qofiya haqida so‘z yuritigan. Mumtoz qofiyaning turlari va o‘ziga xosliklariga tasnif qilingan. Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra turlari: mujarrad, murdaf, muqayyad va muassas qofiyalar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qofiya, mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas.*

Annatation: *This article is about rhyme, which is one of the main elements of poetry. Classical rhyme types and peculiarities are classified.The types of rhyme,according to main structure: it has theoretical information about , mujarrad, murdaf, mukayyad, muassas rhymes.*

Key words: Rhyme, *mujarrad, murdaf, mukayyad, muassas.*

She’riy asarlaning ohangini, jozibadorligini, ta’minlashda vazn bilan bir qatorda qofiya ham muhim o‘rin tutadi. Qofiya va undagi tovushlar tarkibi bayt,

shuningdek, butun asar ritmini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Qofiya – arabcha so‘z bo‘lib “ergashish”, “izdan boorish” degan ma’nolarni bildiradi [Yusupova, 2019: 117]. She’riy misralarning muayyan o‘rnida ohangdosh so‘z yoki so‘z birikmalarining takrorlanib kelishi qofiyani yuzaga keltiradi. Sharqda qadimdan qofiya haqidagi bilimlar ilmi qofiya deb atalib, alohida fan sifatida o‘rganilgan. Qofiya ilmi haqida bir qator asarlar yozilgan bo‘lib,shoirlarimiz mumtoz she’riyatimizda ohangga alohida diqqat qaratganlar.

Qofiya raviy izidan ergashib, misra so‘ngida ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Adabiyotshunos U.To‘ychiyev: “Qofiyadosh so‘zlarda ohangdoshlik yaratish uchun eshitilishda bir-biriga mos kelgan tovushlar “tirgak” deyiladi. Tirgak qofiyaning tovush jihatdan tashkil etuvchi asosiy negizdir”, - deb yozadi. Bu tirgakni arablar “raviy” deb ataydilar. Bu so‘z arabcha “rivo” so‘zidan yasalgan bo‘lib, yukni tuyaga bog‘laydigan arg‘amch (arqon) ma’nosini bildiradi. Tuyaning yuki yurganida sochilib ketmasligi uchun arg‘amchilar ish berganidek, qofiyaning barcha vositalarini o‘zaro bog'lab turuvchilik vazifasini raviy bajaradi. Raviy harf o‘zakda bo‘ladi [Hojiahmedov, 1998:115]. Qofiya o‘zak tarkibiga ko‘ra 4 ga ajratiladi:

1. Mujarrad qofiya
2. Murdaf qofiya
3. Muqayyad qofiya
4. Muassas qofiya

Arabchada “yakka”, “yolg‘iz” ma’nolarini anglatuvchi *mujarrad* qofiya turkiy she’riyatda keng qo‘llanilgan qofiya turlaridan biri hisoblanib, u haqida Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”, Nosuriddin Tusiyning “Me’yor ui-ash’or” asarlarida ma’lumot keltirilgan [Yusupova, 2019: 177]. Mujarrad qofiyaning ikki turi farqlanadi:

Ashraqat min aksi shamsil ka’si anvorul-hudo,

— V — —/—V — —/— V — —.–/—V —

“Yor aksin mayda ko‘r” deb jomdin chiqdi sado [A.Navoiy, 2011: 177].

— V — —/—V — —/— V — —.–/—V —

Mazkur matla’da *hudo-sado* so‘zlari qofiyaga olingan bo‘lib, “o” tovushi raviy hisoblanadi. Mujarrad qofiyaning bu turida raviy cho‘ziq unlidan iborat bo‘lib, qofiyadosh so‘zlar shu harf bilan yakunlanishi talab hisoblanadi.

Olamning ilohiy mohiyati ifodalangan mazkur g‘azal *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan. Hudo-sado qofiyadosh so‘zlardagi birinchi bo‘g‘inda qisqa undosh bo‘lganligi va oxirgi bo‘g‘inning ochiq bo‘lishi oxirgi ruknning foilun(-V-) bo‘lishini talab qiladi. Hazrat Navoiy tarifiga ko‘ra, hududsiz bu olam yakka-yu yagona Allohning tajalliy nuri bilan barhayot, munavvar va jozibali. Shaksiz, shu qudrat barcha jismlarni bir-biri bilan bovasta etadi, ulug‘ muntazamlikda saqlaydi. Ushbu nur Quyosh ko‘rinishida beqiyos ne’mat bo‘lib, har sahar porlashi barcha jonzotlar , jumladan, inson qalbini shodlikka limmo-lim to‘ldiradi. Bu holat tashxis san’ati orqali bayon qilinadi.

Muhabbat birla chekkan g‘urbating rohat bilan tengdir,

V — — — / V — — — / V — — — /V — — —

Muhabbatsiz va lekin ishrating kulfat bilan tengdir [Vohidov, 2017: 60].

V — — — / V — — — / V — — — /V — — —

Mujarrad qofiyaning bu ikkinchi turida raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin qisqa unli keladi. Qofiyaga olingan *rohat-kulfat* so‘zlarida t-raviy, undan oldin kelgan “a” unlisi *tavjih* deb deb nomlanadi. Erkin Vohidov qalamiga mansub mazkur matla’ ham mutoz qofiya talablariga to‘liq javob beradi va bu mumtoz qofiya an’analari XX asrda ham saqlanib kelganligini ko‘rsatadi. *Bilan tengdir* radifidagi birinchi bo‘g‘inning qisqa va qolganlarining cho‘ziq hijolardan iborat bo‘lishi, g‘azal *hazaji musammani solim* vaznida yozilganligini ko‘rsatadi. Shoir bu xushohang vazn orqali eng oliy tuyg‘u muhabbat haqida so‘z yuritadi. Shoir tashbih orqali tazod san’atining favqulodda yangi bir ko‘rinishini kashf etgan va inson ruhidagi qarama-qarshi holatlarni tushuntira olgan. Bayt mazmuni: ishq-muhabbat asiri bo‘lgan insonning g‘urbati ham rohat-u, muhabbatdan forig‘ odamning ishrati kulfat bilan tengdir. Bu qarash baytda yuqorida aytganimizdek tazod orqali ifoda etilgan.

Murdaf qofiya - qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri bo‘lib, ridfli qofiya deb ham ataladi. Bu qofiya ham qo‘llanishiga ko‘ra ikki xil:

Murdaf qofiyaning birinchi turida raviy harfidan oldin cho‘ziq unlilardan biri - ridfi asliy keladi.

Erur ko‘ngulda safo ishq toza dog‘i bila,

V — — — / V — — — / V — —

Nechunki ko‘zda yorug‘lik qarog‘i bila

V — — — / V — — — / V — —

Baytida “dog‘” va “qarog‘” so‘zlari qofiya, “g‘”- raviy, undan oldin turgan “o” unlisi - ridfi asliy.

Ishqning dog‘i, dard-alami, asorati, yarasi tozarishidan ko‘ngilda shodlik, surur va ravshanlik paydo bo‘ldi. Zotan bunga ajablanmaslik kerak, chunki ko‘zning yorug‘ligi uning qorachig‘idan. Ajoyib tashbih: ko‘z gavhari qora, ammo ko‘rishning quvvati, yorug‘lik o‘shandan. Demakki, ishq ko‘ngilga dard-u dog‘ solsa ham, lekin ko‘ngil ko‘zini ravshanlashtiradi.

Qofiyaning uchunchi turi *muqayyad qofiya* hisoblanadi.

Orazing mushtoqidur bu ko‘zki, bo‘lmish dardmand,

— V — —/ —V — —/ — V — — /— V ~

Garchi bordur dardlig‘ ko‘zga yorug‘liqdin gazand.[96]

— V — —/ —V — —/ — V — — /— V ~

Bunda murdaf qofiyadan farqli ravishda qofiyada qator undoshdan avval qisqa unli keladi. Dardmand-gazand so‘zlarida d harfi raviy, n-qayd, a-hazv hisoblanadi. Raviydan oldingi undosh bu qofiya turining asosiy belgisi bo‘lganligidan qaydli qofiya deb ham yuritiladi. Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan oxirgisi *muassas qofiya* deb ataladi. Cho‘ziq “o” unlisi bilan raviy o‘rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladigan qofiya muassas qofiyani hosil qiladi [Hojiahmedov, 1998: 118].

[96] *Atoyi, (2008). Devoni Shayxzodi Atoyi. O‘zbekiston: Fan, 40-b.*

Ulki derlar jumlai olamda g‘olib husn erur,

—V — —/ —V — —/— V — — /— V—

Muntahoi vosili matlubu tolib husn erur.

—V— —/ —V— —/ —V— — /—V—

Baytda “g‘olib” va “tolib” so‘zlari qofiya, “b” harfi raviy, “o” - ta’sis, “l” - daxil, “i” unlisi - ishbo‘ hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, misralarga badiiy sayqal va ohangdorlik baxsh etuvchi asosiy unsur qofiyadir. O‘rta asrlardan boshlab qofiya nazariyasiga alohida e’tibor berilgan. Bu davrda yaratilgan ijod namunalaridan tortib bugungi kunda aruz vaznida yozilayotgan she’rlarda ham qofiyaning yuqorida so‘z yuritilgan 4 turi farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 20 tomlik. - T.: Fan, 1988. T.3. – – B. 395.
2. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar TAT 10 jildlik. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 380.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-ma’oniy: G‘aroyib us-sig‘ar. MAT. 20 tomlik. - T.: Fan, 1988. T.3. – B. 380.
4. Atoyi, (2008). Devoni Shayxzodi Atoyi. O‘zbekiston: Fan, – B. 180.
5. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. - T.: Sharq, 1998.
6. Vohidov E. O‘zbegim. − T.: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 60.
7. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta’lim-Media, 2019. - B. 177.

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA DAVR QIYOFASI VA BADIIY HAQIQAT

Hulkar Xidirova
ToshDO‘TAU 2-kurs talabasi
*Ilmiy rahbar: ped. fan. dok. (PhD) S.*Kambarova

Annotatsiya. *Maqolada Tog‘ay Murod ijodining o‘ziga xos yo‘nalishi, ijodkor asarlarining uslubi, xalqona tili, shuningdek, xalqimizning milliy urf-odat va qadriyatlari haqida so‘z yuritilgan. Yozuvchining qahramonlar tanlashdagi mahorati, ularning ichki dunyosi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qahramon xarakteri, asar tili, qahramon psixologiyasi, yozuvchi uslubi, miliy qadriyatlar, yurt sha’ni, kurash.*

Annotation. *The article discusses the specific direction of Togay Murad's art, the style of his works, the national language, as well as the national traditions and values of our people. The author's skill in choosing the characters, their inner world is shown.*

Key words*: hero character, language of work, hero psychology, writer's style, national values, national honor, struggle.*

Adabiyotimizning hozirgi taraqqiyot bosqichining o‘ziga xosligi shundaki, unda falsafiy va axloqiy-ma’naviy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni badiiy shaklda ta’sirchan ifodalash faqat insonlarning ruhiy ehtiyojmandligi tufayli emas, balki adabiyotning ham ma’naviy ehtiyoji tarzida ro‘y bermoqda. Badiiy asarda o‘zining ifoda etmoqchi bo‘lgan fikrlarini nozik va xalqona tarzda aks ettirishda Tog‘ay Murod ijodi nihoyatda qimmatlidir. Shuningdek, ijodiy izlanishlarining rang-barang hayotiy materiallar asosida ro‘yobga cgiqqanligi, ayniqsa, quvonarlidir. Hayotiy voqealarni tasvirlash, xarakterlar yaratish, qahramon tanlash, badiiy idrok va ifoda etishda adib o‘ziga xos usulda qalam tebratadi. Tog‘ay Murod ijodida inson va uning ichki kechinmalarini tahlil qilish, shu orqali davr qiyofasi va badiiy haqiqatni ochib berish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. «Adabiyot xalq hayotini aks ettirar ekan, u, albatta, ijtimoiy turmushdagi milliy, umuminsoniy jihatlarni badiiy ifodalashi tabiiy bir holdir. Milliylik va umuminsoniylik adabiyotning ruhida chuqur iz qoldiradi» [Boboyev, 2020: 85].

Darhaqiqat, milliylik nafasi ufurib turgan badiiy asarning o‘quvchilar qalbiga tez yetib borishi aniq. Buni ta’minlovchi omil esa uning xalq tiliga yaqinligidir. Yozuvchining «Yulduzlar mangu yonadi’’ qissasida Surxon vohasidagi milliy an’analar g‘oyat ehtiros bilan qalamga olingan. Qissada ming yillardan buyon xalqimiz turmushida katta o‘rin egallab, farzandlarimizni mard, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhimtarbiyaviy omil vazifasini o‘tab kelayotgan milliy sport turi – kurash haqida yozadi. Qahramonlarining o‘z dunyosini psixologik dialekti bilan birga beradi. Har qanday badiiy asar ham ma’lum bir haqiqatni ro‘yobga chiqarish uchun yoziladi. Shuningdek, qissaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim

unsurlardan biri, yozuvchi uslubi va xalqona tili asar poetikasini yuzaga chiqaruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Tog‘ay Murodning polvonlar hayoti bilan yaqindan tanish ekanligi va ularga o‘zgacha muhabbat bilan qarashi Bo‘ri polvon va uning o‘g‘li Tilovberdi polvon obrazlari orqali yaqqol ko‘rsatib berilgan.

«Bir polvon yiqilsa, oraga oshnosi yo og‘aynisi davraga chiqdi. Qani tortdi. Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi» [Tog‘ay Murod, 1994: 13].

Kurash yozuvchi e’tirof etganidek, or-nomus uchun kurashga aylangan edi. Shu bois ham yozuvchi millat qayg‘ularini, orzularini va pokiza tuyg‘ularini Bo‘ri polvon obrazi orqali ifoda etadi. Bu tuyg‘ular zamirida esa sog‘lom avlod uchun kurash taqdiri yotadi.

«Xalq nimasi bilan xalq. O‘zining urf-odatlari bilan! Ota-bobosidan qolgan milliy an’analari bilan xalq!» [Tog‘ay Murod, 1994: 46].

Bu satrlarda millat qayg‘usi bilan yashayotgan, sog‘lom avlod deya kurashayotgan haqiqiy polvonning iftixori o‘z ifodasini topgan. Ammo Bo‘ri polvonning chekkan afsus-nadomatlarida o‘sha davr kishilarining holati o‘z aksini topgan. Milliy qadriyatlar toptalgan, odamlar orasidagi insof-diyonat ko‘tarilgan bir paytda yozuvchi Bo‘ri polvon obrazi orqali davr jarohatlarini ko‘rsatib beradi. Bu esa yozuvchining iztiroblaridir. Tog‘ay Murod almashayotgan avlodlar qalbida jo‘shqinlik va jasorat uchqunlari so‘nib borayotganidan iztirob chekadi. Bo‘ri polvon haqiqiy millat farzandidir. U beshikdagi chaqaloqdan tortib to nuroniy cholgacha barchasining ismiga polvon so‘zini qo‘shib aytadi va ertangi kunning polvonlarini shu chaqaloqlar timsolida ko‘radi. O‘g‘li Tilovberdi ham ota izidan borib, elga mashhur polvon bo‘lib yetishadi.

Haqiqatan ham, yozuvchining ushbu qissasida zurriyot va yurt sha’ni uchun kurashayotgan polvonlarning yorqin siymolarini ko‘ramiz. Tog‘ay Murod ijodi orqali adabiyotimizga ko‘pgina qahramonlar kirib keldi. Xarakteri, voqelikka munosabatlari bilan ajralib turadigan bu qahramonlar dunyoga yangicha ko‘z bilan qarayotgan zamondoshlarimizdir desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
2. Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent, Sharq, 2014. – 260 b.

NAZM-U NASR QIYOSI

Rustamova Xusnida Usmonjon qizi
ToshDO‘TAU 2-kurs talabasi
rustamovaxusnida@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishida nasriy asarlarni o‘rganish va tahlil jarayonida she’riy asarlardan foydalanish usuli haqida fikr yuritiladi. Buning uchun she’riy va nasriy asar qahramonlari qiyoslanadi, o‘xshash va farqli jihatlari tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *Nazm, nasr, qiyoslash, mavzu, shakl, mazmun*

Annotatsion. *This study focuses on the use of poetry in the study and analysis of prose. To do this, the heroes of poetry and prose are compared, their similarities and differences are analyzed.*

Key words: *Poetry, prose, comparison, theme, form, content*

Abdulla Oripov – xalqimiz dilidan chuqur joy egallagan benazir shoir. Uning she’rlarida ertangi kunga bo‘lgan ishonch, umid bilan birgalikda xalqning og‘riqli nuqtalari, dard-u iztiroblari ham ko‘p bora qalamga olingan. Uning she’rlari, umuman, hayot va unda qanday yashash kerakligi haqida bo‘lib, shoir haqiqatparastligi, adolatparvarligi, oqni oq, qorani qora deya olganligi uchun ham kitobxonda juda katta taassurot qoldiradi. Uning 5-sinf «Adabiyot» darsligida berilgan «O‘zbekiston» [1,90] qasidasini ham, 10-sinf darsligida taqdim qilingan «Munojot»ni tinglab», «Yurtim shamoli», «Birinchi muhabbatim», «Qo‘riqxona» [2,113] kabi she’rlarini ham sevib yod olganimiz, shoirning to‘plamlarini topib, mustaqil o‘qib-o‘rganganimiz, har bir asaridagi takrorlanmas obraz, tashbeh, ko‘chim va xulosalardan hayratlanganimiz rost. Lekin shoirning butun ijodida urush va tinchlik mavzusidagi bitiklar alohida o‘rin tutadi. «Ayol» [3,175] nomli she’ri ham shu guruhga mansub ijod namunasi hisoblanadi. Bu she’rni o‘zbek jangchisining beva ayollari sha’niga bitilgan bag‘ishlov deb atasak, mubolag‘a bo‘lmas. Chunki asar qahramoni kabi urush ortidagi sadoqat hamda vafo timsollari

mamlakatda son mingta edi. Qolaversa, Abdulla Oripovning ushbu she’ri qahramonining hayotdagi prototipi o‘z amakisining turmush o‘rtog‘i hisoblanadiki, shoir ular bilan yonma-yon yashadi, zamondosh va hamnafas bo‘ldi, urushdan keyingi og‘ir yillarda yelkama-yelka mehnat qilishga to‘g‘ri keldi. Bu jarayon esa shoir yaratadigan QAHRAMON AYOL obrazi uchun zamin hozirlagan. Sevimli adibimiz O‘tkir Hoshimovning 10-sinf «Adabiyot» darsligida esa aynan shu mavzudagi «Ikki eshik orasi» [2,119] romanini o‘rganish va uning tahlili jarayonida mana shu she’rdan unumli foydalanishimiz mumkin. O‘tkir Hoshimov ham butun o‘zbek xalqi, Said Ahmad ta’biri bilan aytganda, barcha onalar ko‘nglidan chuqur joy egallagan adiblarimizdan biri hisoblanadi. Uning asarlari xalqona, oddiy tilda, balandparvoz va bachkana jumlalardan xoli bo‘lganligi uchun ham qalblarimizdan munosib o‘rin egallagan. Uning deyarli barcha asarlarida Ona, uning fidoyiligi va qadr-qimmatiga alohida urg‘u beriladi. Kitobxon bu asarlar orqali inson hayotida, shaxs sifatida shakllanishida onaning roli nechog‘liq katta ahamiyatga ega ekanligini yaqqol anglashimiz mumkin. O‘tkir Hoshimov ijodini bir tog‘ deb qarasak, «Ikki eshik orasi» romani uning cho‘qqisidagi asar hisoblanadi. Kitob javonlarimizda bu asarning o‘rni alohida. Quyida «Ayol» she’ri va «Ikki eshik orasi» romanini qiyoslab o‘rganish haqida fikr yuritamiz.

Ushbu ikki ijodkor tengdosh hisoblanib, biri Qashqadaryo, ikkinchisi Toshkentning «biqini»dagi [2,116] qishloqlarda tavallud topgan. Har ikkala ijodkor hayoti va o‘z-o‘zidan ijodida ham Ikkinchi jahon urushi o‘z izini qoldirgan. Shuning uchun ham ularning asarlarida urush voqealari, u qoldirgan bitmas-tuganmas jarohatlar bor bo‘y-basti bilan gavdalanadi. Hech qanday ortiqcha bo‘yoq, qo‘shib-chatishlarsiz tasvirlangan urush voqealari va uning insoniyatga keltirgan ofatlari ko‘z oldimizda qayta jonlanadi:

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u…

Ushbu parchadagi urush tufayli beva qolgan o‘n to‘qqiz yoshli kelinchak tasvirida biz «Ikki eshik orasi» romanidagi Robiya obrazini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. U ham taxminan shu yoshlar atrofida Kimsan bilan unashtiriladi. Afsuski, bu paytda Kimsan urushda edi…U ham juda ko‘plab yigitlar qatori jangdan qaytmadi, shahid ketdi…

Nahot ishq qismati buncha berahm,
Bunchalar buyuksan vafo shevasi.
Sengadir hurmatim, senga sharafim,
Qahramon jangchining sodiq bevasi, –

deydi shoir o‘z she’rida. Robiya ham necha yillab Kimsanning yo‘liga ko‘z tikdi, ammo u kelmadi. Qora amma ko‘nganday ko‘rsatdi o‘zini, biroq ko‘nglidan nimalar o‘tganini faqat o‘zi va yolg‘iz Alloh biladi. Romanning mana shu joyida o‘zbek onasiga tasannolar aytish kerakki, o‘z dilbandining suyganini jiyani, murg‘akkina Muzaffarni deb ukasi Shomurodga ravo ko‘rdi. Balki, tog‘lar ham bardosh bera olmas edi bu dardga... Inson ekan...O‘zbek ekan...Ona ekan... Chidadi...

Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O‘zini ming bitta bozordan olib
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

She’rning bu bandiga romandagi Ra’no obrazi ishonarli misol bo‘la oladi. Hayot sinovlariga bardosh bera olmagan, o‘z yorini sadoqat bilan kuta olmagan Ra’no kabi ayollar Umar zakunchidek zolimlar zulmidan aziyat chekkan ahvolda, g‘arib bir holatda,yaqinlaridan yiroqda vafot etishga mahkum. Uni taqdirning o‘zi vaqtida jazolab qo‘ygan!

Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.
Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,

Haykal ham qo‘yingiz bamisli xayol.

Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda

Bu qadar muhtaram bo‘lmasdi Ayol,–

deya o‘z she’rini xulosalaydi Abdulla Oripov. Adib O‘tkir Hoshimov ham sadoqat tuyg‘usini olqishlab, o‘zbek ayolining mehrli, sabrli, sadoqatli qiyofasini Robiya, Qora amma kabi bir qator obrazlarda chizib bergan. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tmoqchimizki, bizning inson sifatida bu ikki buyuk asardan ham o‘rganadigan, ma’naviy oziqlanadigan jihatlarimiz talaygina. Bu ijodkorlarning nafaqat mana shu asarlari, balki butun bir ijodi xalqimizni, jumladan, biz – yoshlarni ham to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, yuksak ma’naviyatli shaxs rivojida katta ulush qo‘sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. T.: Sharq, 2020.

2. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik-majmua. II qism. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

3. Oripov A. Saylanma. T.: Sharq, 1996.

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA MUHABBAT MAVZUSI TALQINI

Jo‘rayev Shahzod Shokirovich
ToshDO‘TAU talabasi
shahzodbekjurayev985@gmail.com,

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning uchta hikoyasi tahlil qilinadi. Bularning badiiy xususiyatlari, mavzulari, obrazlar tizimi, sujetlari kabi jihatlari haqida xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek adabiyoti, Shukur Xolmirzayev, hikoyalar, tahlil.*

Annotation. *This article analyzes three stories by People's Writer of Uzbekistan Shukur Kholmirzaev. Conclusions are given about such aspects as their artistic features, themes, system of images, subjects.*

Keywords: *Uzbek literature, Shukur Kholmirzaev, stories, analysis*.

XX asrdan to bugungacha bo‘lgan davr o‘zbek prozasining yirik vakillaridan biri bu, shubhasiz, Shukur Xolmirzayev. Uning ijodida milliy an’analar bilan bir qatorda jahon adabiyotiga xos xususiyatlar ham aks etadi. Badiiy ifodaning

bo‘rttirilmasligi va asosiy urg‘uning mavzuga qaratilishi kitobxon uchun adib dilidagi so‘zlarning yetib borishini osonlashtiradi.

Shukur Xolmirzayev prozasida ijtimoiy muammolar xolisona, muhabbat mavzusi oshiqona yondoshuv bilan ochib berilgan. Ayniqsa, inson ko‘nglining turfa ko‘rinishlari yozuvchi tomonidan ancha jiddiy ishlangan, asardan asarga ko‘chgan takrorlar deyarli uchramaydi. Asarlarning har birida ayricha dunyo insonlari, bir-biridan farq qiluvchi ko‘ngil sohiblarini uchratasiz. Yuqoridagi fikrlarni misollar orqali ko‘rib chiqsak. Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub muhabbat mavzusidagi „O‘n sakkizga kirmagan kim bor?» qissasi, „Bulut to‘sgan oy» va „Bodom qishda gulladi» hikoyalarini olaylik. Ularning uchalasida uch xil muhabbat tasviri bo‘lsa-da, birlashtiruvchi nuqtalar ham bor. Bu ishqiy peyzajning realligi.

«O‘n sakkizga kirmagan kim bor?» qissasining bosh qahramonlari: Tilov, Jamshid, Umida. [1. Shukur Xolmirzayev. «O‘n sakkizga kirmagan kim bor?’ Toshkent, 1999]. Ularning tuyg‘ulari nihoyatda yosh va g‘o‘r. Shu sababdan ulardan biri o‘zini kuchli seva oladigan insonni boy berdi, biri o‘ziga befarq insonga sevib uylandi, biri esa armonli sevgisidan o‘ch olish uchun sevmagan insoniga turmushga chiqdi. Voqealarning bunday tus olishiga sabab yoshlarning hayotga jo‘n nazar solishi, oxirini o‘ylamay qaror qabul qilishidir. Asardan anglashinishi mumkin bo‘lgan yana bir haqiqat shuki, ko‘ngil borasida qilingan birgina xato o‘zidan keyin tuzatib bo‘lmas darajadagi tashvishlarni keltirib chiqaradi. Umida ana shunday xatoga yo‘l qo‘ydi. Shukur Xolmirzayev Umidaning qarorini shakllantirar ekan o‘smir yoshdagi qizning ko‘ngil mayllari bilan hisoblashadi. Qizdagi shoshqaloqlikni, eng muhimi o‘ch olishga bo‘lgan harislikni yorqin ranglarda aks ettiradi. Bu o‘rinda Jamshid obrazi ham alohida e’tiborga molik. U Umidaning sevgisini rad etadi, akasining ra’yini qaytara olmaydi. Ammo uning ham ko‘nglida ishq yo‘q, deb bo‘lmaydi. Sababi, Jamshid orzularini, kelajakka bo‘lgan maqsadlarini sevadi, ularga chunonam sodiq. Tilov haqida esa soatlab gapirish mumkin. Boisi u yoshligidan ona mehridan judo bo‘lgan. Otasining mehrini Jamshid va uning onasiga „boy bergan». Qarabsizki, mehrini butunlay o‘ziga

bag‘ishlovchi insonga ehtiyoj sezib yashashni boshlaydi. Umidaning o‘ziga befarq emasligini sezgach, qalbidagi ana shu ehtiyojni qondirish yo‘lida harakatga tushadi. Bu uch qahramonning taqdir yo‘llari, oruz-intilishlari shu tariqa chuvalashib ketdi. Shukur Xolmirzayev sevgidagi adabiy uydirmalaridan voz kechadi. Shuning uchun ham u qalamga olgan sevgi tasvirlari nihoyatda aniq va hayotiy. Bu yozuvchining hayotga teran nazar tashlashi va chuqur kuzatuvlarining natijasi. Hikoyalarda faqat Shukur Xolmirzayevning o‘zigagina xos bo‘lgan uslub bor. Adabiyotshunos Umarali Normatov o‘zining «Ijod sehri» asarida aytganidek: «Shukur Xolmirzaev XX asr milliy adabiyotimizga Surxon, aniqrog‘i, Boysun ruhi-kaloritini olib kirdi. Uning hikoya, ocherk, qissa, drama, romanlarini yaxlit holda ko‘z oldingizga keltiring, ularda Boysun nafasi baralla ufurib turadi, ular ortida esa ulkan adibning Sizga xiyol jilmayib, ammo jiddiy nazar tashlab turgan benazir-o‘ychan chehrasi namoyon bo‘ladi.» [2. U. Normatov. «Ijod sehri», 173-bet].

Prosfessor Qozoqboy Yo‘ldoshev Shukur Xolmirzayevning 80 yillik xotira kechasida so‘zlagan nutqida: “Shukur Xolmirzayev adabiyotga tirik odamning ovozini, o‘zbekning so‘zlashuv stixiyasini olib kirdi. Odamlar shunday gaplashadi. Biz adabiyotdagi so‘zlashuv uslubining hamisha kitobiy, sal silliq, asl hayotdagidan ko‘ra yoqimliroq bo‘lishiga ko‘nikkanmiz. Lekin odam bir-biri bilan gaplashgan vaqtda qanday ohang bilan, qay yo‘sinda gaplashadi, buni adabiyotimizga birinchi marta Shukur Xolmirza olib kirgan. Agar Abdulla Orif o‘zbekning ruhiyatini saqlab qolgan bo‘lsa, Shukur Xolmirzayev o‘zbekning o‘zbeklik tuyg‘usining qanday namoyon bo‘lishini judayam jo‘n yo‘sinda ko‘rsatib berdi va odam degan tushuncha, odam degan yaratiq haddan tashqari chigal, haddan tashqari murakkab, boshqa birovning anglashi uyoqda tursin, hatto o‘zi ham anglashi qiyin bo‘lgan bir yaratiq ekanligini uning asarlarida ko‘rdik ilk marta»,-degan edi[3. Q. Yo‘ldoshev. Sh. Xolmirzayev haqida]. O‘quvchi yuqorida bildirilgan fikrlarning to‘g‘riligiga „Bulut to‘sgan oy» hikoyasini o‘qigach amin bo‘ladi. [4. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. Ikkinchi jild. 391-bet]. Bu hikoyada ham asosiy mavzu – ishq. Lekin, qahramonlarning muhabbatga bo‘lgan munosabatlari, uni qarshilashlari boshqa asar

qahramonlaridan tubdan farq qiladi. Asarning bosh qahramonlari Tavakkal va Gulsara. Ularning taqdiri esa hikoyadagi Quvvatjon ismli yozuvchi tilidan hikoya qilinadi. Bir qarashda asar qahramonlarining ismlari ham bekorga tanlanmagandek tuyulaveradi. Tavakkal sharttaki, dali-g‘uli, tavakkalchi yigit, so‘zga no‘noq, hattoki, istak-u mayllarini ham ko‘ngilga yoqimli tarzda yetkazib bera olmaydi. Ammo sevgisi asl, sevgisiga va ahdiga sadoqati kuchli. Quvvatjon esa ikki sevishganning topishishi uchun quvvat berib turuvchi obraz. U harchand urinmasin voqealar rivoji u xohlagan zaylda kechmadi: „oy yuzini bulut berkitadi». Asarda inson tuyg‘ulariga berilgan ilk baho har doim ham to‘g‘ri chiqavermasligi isbotlanadi. Bir qarashda har sohada chuqur o‘ylab qaror chiqaruvchi Gulsara o‘nglab bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘ydi, bir qarashda o‘ylamay-netmay, pala-partish amallarga qo‘l uruvchi Tavakkal esa yakunda muhabbati uchun oxirigacha sabr qiladi, xo‘rlikni ham bo‘yniga olib keladi. Umida va Gulsara ayni qaror qabul jihatidan bir-biriga yaqin. Ularning ikkisi ham g‘azabning qurboni bo‘lishdi. Tavakkal Gulsarani sayohatga olib borgani, uning ehtiyojlariga munosib barcha noz-ne’matlarni muhayyo qilgani bilan oilaparvar, mehribon insonligini ko‘rsatgan bo‘lsa (bu xislatlarga ega insonda ayolga nisbatan muhabbat bo‘lmasligi ham mumkin), Gulsarani qidirgani, u haqidagi fikrlarini uchrashuvning so‘nggi lahzasigacha pok saqlagani bilan toza qalb va sevgi sohibi ekanligini isbotladi. Tavakkalni butunlay oqlash balki noto‘g‘ri bo‘lar, sababi, u shirin so‘zlar bilan ayol qalbini zabt etishni uddalay olmadi, lekin nima bo‘lganda ham o‘z xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish ham asl insonga xos fazilat. Ehtimol, Gulsaraning qing‘ir yo‘lga kirib ketishida Tavakkalning ham aybi bordir, uning sustkashligi, mag‘rurligi, muhim pallada sevgilisini yolg‘iz qoldirganligi uning taqdirida burilish yasagandir. Lekin nima bo‘lgan taqdirda ham, ularning har ikkisida kuchli muhabbat bor edi. Buni hikoya so‘nggidagi tasvirdan ham uqib olish mumkin. Xonaga bostirib kirgan Tavakkalning o‘y-u xayoli Gulsarani bu yerdan olib ketib ozod qilish haqida bo‘lsa, Gulsara o‘zini notanish insonni ko‘rgandek tutib Tavakkalni janjaldan saqlab qolmoqchi bo‘ladi. Ularning ikkisi ham bir-birlari

haqida qayg‘urishardi. Bir-biriga yetisholmaydigan ikki oshiqning sevgi kuchidagi paradoks aynan shu bo‘lib, buni ham Shukur Xolmirzayevning o‘ziga xos uslubi sifatida baholash mumkin. Yozuvchi Sobir O‘nar o‘zining „Shukur akaning bog‘lari» maqolasida ustoz prozaik haqida quyidagilarni bayon etadi: „Shukur Xolmirzayev, masalan, «O‘zbek bobo», «Bodom qishda gulladi», «O‘n sakkizga kirmagan kim bor», «Bandi burgut», «Qadimda bo‘lgan ekan» asarlarida, garchi o‘qish jarayonida adibning aytar muddaosi bizga ayonlashib borayotgan bo‘lsa-da, detallarga, holatlarga, gap-so‘z tabiiyligiga, qahramon yasama emas, judayam jonli chiqishiga tamom beriladiki, buning zamirida tagingdagi stul yoki ko‘rpacha ham suyagingga botib jismoniy og‘riqlar ham beruvchi uzoq o‘ylov, kashf, ilhomiy, uni boshqarib turgan uzoq va zahmatli aqliy mehnat yotganligini g‘o‘r tajribam tufayli his etaman. Xayol, xotira, so‘z, ibora, maqollar, keng tafakkur, kichkina, ko‘rimsiz detalni ham jonlantirib yuboruvchi o‘zigagina xos adabiy «priyom», manyovr, istehzo – bular barini yuzaga olib chiqadigan ustakorlik. Hali bu yoqda yozuvchi ilgari surayotgan g‘oya, ma’naviy prinsiplar bor. Mana shu cho‘ng «lashkar»ni maydonga yoyib yuborib, so‘ng uni to‘riga ilintirib yig‘ishtirib, «ov mahsuloti»ni siz tomoshabinga, mana, deb chiroyli ko‘rsata olish va undan keyin yuragingizda uzoq vaqt kezinib yuradigan ta’sir tuyg‘usini – hamma-hammasini umumlashtirib, men professionallik demoqchi bo‘laman. Bu ta’rifning to‘liq ekaniga da’vo qilmayman. Murod Muhammad Do‘st bir maqolasida Shukur aka oyog‘i yerdan uzilgan prozani yerga tushirib qo‘ydi, deb yozibdi. Bu ham xosu mos emas, o‘zigagina mansub. Meni ma’zur tutsangiz, yana aytay: faqat bulargina professionallik ko‘rinishi emas. Bu – Shukur Xolmirzayevning professionalligi»[5. Sobir O‘nar. «Shukur akaning bog‘lari».- 2020-yil 19-avgustdagi son].

Ana endi ishqiy mavzuda yozilgan uchinchi asar – „Bodom qishda gulladi» hikoyasini ko‘rib chiqsak.[6. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. I jild. 407-bet]. Hikoya javobsiz muhabbat, yolg‘on umidvorlik jon-jonidan o‘tgan oshiq yigit haqida. Nosirjon umrining ayni gullagan davrida xastalanib yotib qoladi-yu, kasalxonada boshiga ishq savdolari tushadi. Inson sevgi tilini azaldan tushunmagan,

shundan bo‘lsa kerak bu muqaddas tuyg‘u ko‘ngillarga ogohlantirishlarsiz tashrif buyuradi. Nosirjon ham kasalxonaga kelgan mahali sevgi nimaligini bilmasdi. Uning o‘z dunyosi bor edi, u har kun bekatlar aro yurib savob ishga qo‘l urar, insonlarga beminnat yordam qo‘lini cho‘zardi. Kasallik ortidan Hubbijamolga oshiq bo‘lishi uning ichki dunyosida dovul ko‘taradi. Aziyat chekayotgan kasalligidan jadal sur’atda sog‘aya boshlaydi, kuchga to‘ladi. Buning hammasiga muhabbat sababchi. U yigitni hayotga qaytaradi – gullatadi. Ammo gulning ko‘klamda ko‘z ochgani ma’qul, qishda emas! Nosirjonning gullagan qalbini sovuq uradi. U atrofida vaziyatni chigallashtirgan, sodda qalbi bilan bilib-bilmay o‘ynashgan sheriklarining bari jiddiy qabul qilmaslikni so‘ragan munosabatlarni chinga yo‘ydi. Kasbi taqozosi bilan yigitning ko‘ngliga qaragan Hubbijamol ham bemorining salomatligiga qayg‘urdi-yu, so‘nggi nuqtagacha jarayonni tizginida tutib turdi. Lekin sevgi shunday qudratki, uni qoliplashga urinish befoyda, chegaralar-u tushovlarni pisand qilmaydi u. Nosirjon ham Hubbijamoldan bor haqiqatni muloyim alpozda qabul qilgach, uni sevgani bilan birga ko‘rgach barchasini jo‘n tushunadi, isyonsiz ko‘nadi. Sababi uning tabiati shunday edi, shunchalar beozor va beta’ma muhabbati bor edi. Hikoya hayotda hamisha har savdo biz kutganday yakunlanavermasligidan saboq beradi, chuqur o‘yga toldiradi, undagi har bir qahramonning sevgisi bor, Nosirjon Hubbijamolni, xonadosh bemorlar Nosirjonning dilkashligini, soddaligini, Hubbijamol kasbi va uning doirasidagi har bir masalani sevishadi. Ana shu sevgilarning bir yo‘lda tutashishi, alaloqibat, Nosirjonning ko‘nglidagi bevaqt ochilgan sevgi gullarining ayozli kun sovug‘ida gullashiga sabab bo‘ladi.

Shukur Xolmirzayevning tahlil qilayotganimiz, yuqoridagi uch asarini birlashtirib turuvchi mushtarak jihat mavjud. Bu asarlardagi yozuvchi va kitobsevar qahramon obrazining mavjudligi. «Bulut to‘sgan oy» va „Bodom qishda gulladi» hikoyasida yozuvchi, Quvvatjon, «O‘n sakkizga kirmagan kim bor?» qissasida esa kitobsevar Jamshid. Yozuvchi ular orqali qahramonlar taqdirini kuzatadi, hayot haqidagi mushohadalarini bayon etadi. Bu orqali kitobxon adibning unga qanday ma’ni ilinganini yanada tezroq anglab yetadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev adabiyotdagi realistik oqim yo‘nalishiga sevgi irmoqlarini tutashtirdi, jonli qahramonlar, o‘tli muhabbatda qalbi jizg‘anak bo‘lgan oshiqlar haqida yozdi. Kitobxon adib asarlariga murojaat etar ekan hayot maktabi saboqlaridan bahramand bo‘layotgandek his etadi o‘zini: xulosa chiqaradi va o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Normatov U. «Ijod sehri». –Toshkent, “Sharq”, 2007.
2. Qozoqboy Yo‘ldosh. Shukur Xolmirzayevning 80 yilligiga bag‘ishlangan xotira kechasi. Toshkent – 2021. https://yotube/14yePwG7RFk.
3. Shukur Xolmirzaev. Saylanma. Ikkinchi jild. ShARQ NMAK. 2005.
4. Sobir O‘nar – «Shukur akaning bog‘lari». «Yangi O‘zbekiston». 2020-yil 19-avgustdagi soni.
5. Shukur Xolmirzaev. Saylanma. Birinchi jild. ShARQ NMAK. 2003.

ABDULLA ORIPOVNING «SOHIBQIRON» ASARIDA RUHIYAT TALQINI

Yusupova Nozanin
ToshDO‘TAU talabasi
yusupovanozanin99@gmail.com

Annotatsiya. *Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramasida shaxs talqini, shaxslar orasidagi ruhiyat kesishmalari hamda adolatning tantanasi, ma’rifatga yo‘g‘rilgan g‘oyalar aks ettirilgan. Abdulla Oripovning obraz yaratish mahorati, obrazlar orasidagi konfilktlar, muallifning o‘sha davr ruhiyatini asarda namoyon etishi kabi masalalar yoritilgan. Dramaning o‘ziga xos jihatdan talqini hamda Sohibqiron obrazining shaxs sifatidagi qirralari haqida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar*: Abdulla Oripov ijodi, «Sohibqiron» dramasi, Amir Temur shaxsiyati, xarakterlar, konfiktlar va badiiy talqin.*

Annotation. *Abdulla Aripov’s drama «Sahibkiron» reflects the interpretation of personality, the intersection of spirits between individuals, and the celebration of justice, the ideas that flow into enlightenment. Abdulla Aripov’s mastery of image creation, conflicts between images, the author’s depiction of the spirit of that period in the play. There is a unique interpretation of the drama and the image of Sahibkiran as a person.*

Keywords: *Personality of Amir Temur, drama of Abdulla Aripov, artist of words, characters, conflicts, image, philosophical views, just society.*

Chinakam isde’dod egasi esa xalqning ruhiyatiga kirib borishga va unga ta’sir ko‘rsatish kuchiga egadir. Xalq dilining tarjimoni Abdulla Oripov xalqimizning

ehtiromi va e’tirofiga sazovor bo‘lgan shoirdir. Uning asarlari xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylangan desam, aslo mubolag‘a bo‘lmas. «Abdulla Orif qiyofasiz ommani emas, alohida odam – shaxsning ruhiy olamini tadqiq etadi»-deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev. [1. Q. Yo‘ldoshev. Ochqich so‘z. 654-bet]. U asarlarni shunchaki yozmaydi, uning asarlarida falsafiy qarashlar, aniq fikrlar mujjasamlashadi. Abdulla Oripov asarlarida, inson hayoti, orzu-umidlari yuksak badiiy saviyada ifodalangan bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlar o‘z ifodasini topgan. Bunday asarlarni tadqiq etish, adabiyotshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan biridir.

Shunday ekan, biz siz bilan tadqiq etadigan mavzu, Abdulla Oripov ijodining yetuk namunalaridan biri «Sohibqiron» dramasidir. Abdulla Oripov o‘zbek dramaturgiyasida istiqloldan keyin Amir Temur timsolini muvaffaqiyatli yaratgan dramaturg hisoblanadi. Tarixiy faktlarni puxta bilishi, tarixiy haqiqat negizida badiiy jonlantirish, me’yorni buzmaslik, Sohibqironni faqat maqtash yo‘lidan bormaslik, asar tilini ravon qo‘llay olish kabi fazilatlar daramaturgning jiddiy yutug‘idir. Shuni aytish joizki, «Sohibqiron» dramasi esa o‘z ahamiyatiga ega bo‘lish barobarida, turli xil qarashlarni, mulohazalarni, tanqidiy qarashlarni, ijobiy xulosalar asosida asarni yanada chuquroq o‘rganishni hamda fan uchun ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramasi, buyuk sarkarda, ma’rifatparvar inson, ulkan mamlakat yo‘lboshchisi, Amir Temur hazratlariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu asarda Sohibqironning umr chizgilari aks ettirilgan. Mustaqilik sharofati ila Amir Temur timsoli yanada yorqinroq, ezgulik-adolat prinsiplariga asoslangan yo‘sinda adabiyot ilmida qaror topdi.

Bir qarashda, Amir Temur haqida asar yaratish osondek ko‘rinadi. Bu ulug‘ siymo haqida bugun jahonda asrlar davomida juda ko‘p ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Ularning talqini ham har xil bo‘lib, Temurning jahon tarixi oldidagi xizmati mamnuniyat bilan qayd qilinsa, boshqa birlarida esa qoralanadi. Masalaning boshqa tomoni ham bor. Sohibqiron haqida asar yaratish uchun uning hayot yo‘li,

butun faoliyatini umuminsoniy o‘lchovlar tarozisiga solib ko‘rish kerak. Jumladan, Odil Yoqubov, Ma’ruf Jalil va To‘ra Mirzolar istiqloldan so‘ng Amir Temur faoliyatiga doir dramalar yaratdi. Har bir ijodkor asarini shaxsiy nuqtai nazar ila yoritadi. Sohibqiron to‘g‘risida asar yaratish, biroz murakkab bo‘lib, faqat birgina shaxs va bir necha obraz yaratish orqali amalga oshmaydi. Muallif tarixiy asar yaratishi bilan bevosita yoki bilvosita o‘sha davrga kitobxonni olib kira olishi zarur. Shuning uchun ham bunday asarlarning o‘ziga yarasha yuki bor.

Shu ma’noda Amir Temur obrazini yaratish uchun qo‘liga qalam olgan adib noyob este’dod sohibi, ayni paytda obraz yaratish maktabidan xabardor bo‘lishi kerak. Abdulla Oripov ana shunday este’dodli so‘z san’atkori edi[97].

Abdulla Oripov Amir Temur obrazini gavdalantirishni doimo xohlagani, biroq davr va tuzim mafkuraviy yakkaxokimlik yo‘l qo‘ymagani hamda istiqlol davriga kelib bunday to‘siqlarni olib tashlanishi barobarida, istiqlol Amir Temurga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Abdulla Oripov esa bunday imkoniyatdan o‘z o‘rnida foydalangan ijodkorlaridan biridir.

Men hazrat emas,

Men ham Temur deb atalmish oddiy bir banda[98].

Dramaturg Amir Temurni avvalo boshqa insonlar singari oddiy bir inson sifatida ko‘rishi va uning kamtarligi va boshqa ijobiy fazilatlarini ochib berishga harakat qiladi. Garchand oddiy xalq nazdida boshi osmonlarga yetar bo‘lsa-da, Sohibqiron inson sifatida oyoqlarini yerdan uzmaslikka harakat qiladi. Bu esa muallif tomonidan Amir Temur shaxsining barcha fazilatlari badiiy ifodalanganligini ko‘rsatadi. Bir qarashda bu omil shaxsi butun inson sifatida yoritib bera olganligidan dalolatdir.

Shunisi ham muhimki, Abdulla Oripov dramada Amir Temur obrazini ideallashtirmagan. Uning podshoh sifatidagi xato ishlarini, dunyoqarashidagi ziddiyatlarini, qismatidagi fojiali jihatlarini ham ochiq ko‘rsatgan.[99]

[97] M. Qo‘shjonov. Dramaturgiyamizda yangi sahifa// O‘zAS, 1996, 22-son.
[98] Abdulla Oripov. “Sohibqiron” dramasi. Tanlangan asarlar, 2-jild, 407-bet
[99] I. Mirzayev. XX asr O’zbek adabiyoti –Toshkent.2005-B.394-395.

Tinsiz jangu jadal bilan o‘tdi hayotim,

Balki qancha umrlarga zomin bo‘lganman.

Oxiratda etakimdan tutmasmi ular? («Sohibqiron», 436-bet)

Yuqoridagi so‘zlarning davomi o‘laroq, Abdulla Oripov Amir Temur obrazini mubolag‘a tarzida bo‘rttirib ko‘rsatishga harakat qilmagan, negaki u insonni qanday tasavvur qilsa shu tarzida o‘z tili orqali bevosita unga yangi badiiy ruh baxsh etgan. Abdulla Oripov dramaning birinchi sahnasida Amir Temur, Mir Said Baraka hamda Amir Husayn o‘rtasida kechgan suhbat o‘zining teran falsafiy mazmuni, ijtimoiy mohiyati bilan «kuch – birlik – adolat» konsepsiyasining yana muhim qirrasini shu’lalantiradi.

Xususan, islomiy madaniyat Amir Temur shaxsiyati va faoliyatining ma’naviy-axloqiy prinsiplari asosini tashkil etgan, sohibqiron dunyoqarashining mag‘zini belgilagan. Abdulla Oripov Amir Temurning bosgan har bir qadami xususida fikr yuritadigan kishi sifatida ko‘rsatadi.[100]

Darhaqiqat, yuqoridagi ilmiy ishlarni o‘rgana turib, Amir Temur siymosi tadqiq etilganligi, lekin masalani o‘rganish orqali bir xilliklarga ham ko‘zimiz tushish aniq, asosan ko‘plab ilmiy ishlarida Amir Temur o‘y-mulohazalar girdobida tasvirlanadi. Tadqiq qilingan asarlarda Sohibqiron obrazi oddiy bir inson sifatida, dunyoviy-diniy bilimlaridan xabardor bo‘lgan va butun mamlakatga ma’rifatni keng targ‘ib qilgan sarkarda sifatida gavdalantiriladi. Shuning uchun ham u o‘z o‘ylari olamida beixtiyor yashagandek go‘yo. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» she’riy dramasida Amir Temur obrazini gavdalantirish, uning ruhiyati, atrofidagi insonlarning munosabati, u yashagan davr hamda dramadan ko‘zlangan asosiy maqsad nima edi?

Abdulla Oripov faqatgina Amir Temur obrazini gavdalantirib, uning ulug‘ bir sarkarda ekanligi hamda onadan shamshir ila tug‘ilmagani, taqdir uning qo‘llariga shamshir tutqazgani, butun umri jang-u jadalda o‘tganligidan va o‘zini faqat podshoh sifatida ko‘rmasligini dramada yaqqol ochib bera olgan. Abdulla Oripov

[100] Jabborov I.Abdulla Oripov ijodida Amir Temur obrazi//Til va adabiyoti ta’limi.2020.3-son –Toshkent-B.47

Amir Temurni, avvalo, shaxs sifatida gavdalantiradi. Bu olamda barcha odam ma’lum bir xarakterdagi inson bo‘la olishi mumkin, lekin shaxs bo‘la olish mushkuldir. Amir Temurning o‘z shaxsiyati, dunyoqarashi, uzoqni ko‘ra olish qobiliyati hamda o‘lmas ruhiyati mavjud.

Abdulla Oripov talqinida esa, u buyuk mamlakatning ulug‘ amiri, qalbida esa ruhiyati qadar cheksiz oddiy bir inson yashaydi. Amir Temur shaxsiyati tarixiy asarlarida ulug‘ sarkarda sifatida ko‘proq talqin etilsa, badiiy asarda esa inson sifatida gavdalantiriladi. Abdulla Oripov dramasida esa har ikki jihat uyg‘unlashgan holda tasvirlangan. Shunday ekan, Sohibqiron dramasini, bir yoqlama talqin qilib bo‘lmaydi. Negaki, ul zotni oddiy inson sifatida talqin etish xato hisoblanadi. Zero, Amir Temur, avvalo, shaxsdir. To‘g‘ri u oddiy xalq barobarida yashamagan, lekin inson sifatida yonidagi insonlariga befarq qaramagan. Uni bolalik tasviri orqali irodali, qo‘rqmas , nochorlarga yordam beradigan shaxs sifatida ko‘rish mumkin. Shunday ekan, uni umrning oxirlarida o‘ylar girdobida talqin etish, kitobxonni junbushga keltiradi. Chunki inson umrini teng yarimini yashab bo‘lib, xatolarini sarhisob qilishi, shaxsi butun inson uchun ham oddiy kishiga ham to‘g‘ri kelmaydi. Uning taqdiriga buyuk bir mamlakatni boshqarish ma’suliyati, hamda farzandalari uchun qayg‘uradigan ota, rafiqasi uchun esa sevimli yor bo‘lishi yozilgan.

Amir Temur shoh bo‘lishiga qaramay o‘zi aytgan, so‘zlariga doimo amal qilishga harakat qilar edi. Ammo, bu dunyoda har bir inson doim ham amallarni mukammal ado etolmaydi.»Sohibqiron» dramasida konflikt xarakterlar orasida namoyon bo‘ladi. Bir tomonda Temur va uning tarafdorlari, ikkinchi tomonda esa unga qarshi Amir Husayn, Sulton Boyazid, Chin podshosi va boshqalar turadi. Amir Temurning zayifasi Uljoy Turkonning akasi Amir Husayn pastkash bir inson edi. U Balx shahrida saroy qurib, kayf-safo qilish uchun masjidlarning mablag‘larini sarf etib, xalqqa solgan soliqlarining katta qismini Amir Temur va Uljoy Turkonxon qoplashi, o‘zi singlisiga hadya qilgan ziraklarni ham uyalmasdan olishi uni naqadar ojiz insonligini ko‘rsatib beradi.

Muallif tomonidan tarixiy faktlar asosida yaratilgan «Loy jangi» Amir Husayn va Amir Temur ishtirokida amalga oshirilgan, lekin jang yarmida Amir Husayn Temurni jang maydonida tashlab ketishi, uni deb o‘n minglab begunoh askarlarning qoni to‘kilishi, Amir Husayn o‘zini shoh deb begunoh insonlarni dorga osishi va bu ishlarni Amir Temurga yuklash orqali o‘z manfatlarini ko‘zlagani yaqqol ko‘rsatib beriladi. Amir Temur ularni bir nechtasini asrab qoladi, qolgan bir nechasi ayovsiz o‘ldiriladi. Hatto, Amir Temurni o‘ldirish maqsadida zaharli kamondan foydalanmoqchi bo‘ladi, bu ishlardan xabardor bo‘lgan Uljoyxonim o‘sha zaharli kamon bilan o‘zini o‘ldiradi. Amir Temur va uning zaifasi birovni haqiga ko‘z tashlamasligi va bundan hazar qilishi, lekin bu xislatlar Amir Husaynda namoyon bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Amir Temur o‘zidan keyin farzandlarini huddi o‘ziday yurtni boshqarishini xohlaydi va ularning zukkoligini ham tekshiradi. Amir Temurning nabirasi Ulug‘bek Mirzo juda ham ziyrak bo‘lib, hatto shatranj o‘yinda Alouddinni yengadi. Buni eshitgan Amir o‘zidan keyin yurt tashvishlari borasida xotirjam bo‘lishi kerakligini anglaydi.

Ta’kidlash joizki, Abdulla Oripov asarining mashhur bo‘lishini sabablaridan biri shundaki, dramada tarixiy voqea-hodisalar, obrazlar muallif tomonidan jonlantirilgan. Negaki, tarixiy janglar shiddat bilan tasvirlanadi, saroy muhiti esa aksincha, vaziyatga qarab tez o‘zgaruvchan, saroydan tashqari holatlar esa xalq hayoti bilan chambarchas bog‘lanadi. Obrazlarning hatti-harakati esa ularning yoshidan, mansabidan, hamda dunyoqarashidan, eng muhimi – o‘sha davr saroyda keng tarqalgan islohotlardan kelib chiqib tasvirlangan.

Muallif tarixiy asarni yarata turib, o‘sha zamonda keng qo‘llangan barcha narsalarni, ya’ni, kichik elementdan kattasigacha sinchiklab o‘rganganligidan voqif etadi. Abdulla Oripov Amir Temurni saroy muhitida farzandlari bilan bo‘lgan munosabatda ham ishonarli tarzda tasvirlaydi. Sohibqiron o‘z farzandlariga: «Ulamo, pok niyatli, toza qalb kishilarga talpinib yasha», - deb uqtirib kelgan. Temur qattiqqo‘l ota ham edi. Kelini Xonzodabegimga nisbatan o‘g‘li Mironshohni aybi uchun ham jazo tayinlaydi. U farzandlarini ortiqcha kibrga berilmasligini,

hamda hamma qatori inson sifatida koʻrishni va ularni oʻzlarini shunday tutishlarini talab qiladi.

Amir Temur va Sulton Boyazid oʻrtasidagi oʻsha mashhur «qasamli nizolar» ham adib tomonidan hayajonli dramatizmda koʻrsatib beriladi. Temur or-nomus uchun jangga otlanadi. Muallif jangga kirish, jang tasviri hamda jang soʻngini goʻzal sujet asosida tasvirlaydi…

Amir Temur koʻp yillar, mobaynida Yassaviya tariqatining chin ixlosmandi edi. U oʻsha, ulugʻ inson bilan bir marta boʻlsa ham gʻoyibona suhbat qurishni xohlaydi. Bu sahnalar dramaga alohida estetik ma'no bagʻishlaydi. Dramada Amir Temur umri oxirida Xitoy jangiga otlana turib, u oʻzi qurdirgan Yassaviya maqbarasiga boradi. Amir Temur u yerda Yassaviya ruhidan oq yoʻl tilamoqchi boʻladi. Shu vaqtda, dastavval, Darvish soʻng, Hazrati Xizr uning qiyofasida namoyon boʻladi. Hazrati Xizr bilan suhbatlashib boʻlgach, «Hazrati Xizr nima xohlaysan? Butun olam senga boʻlsa»- deydi. Amir Temur doim barcha avliyolar ichida Yassaviya tariqatlariga amal qilgani va Yassaviyni koʻrishni hoxlaydi. «Hazrati Xizr esa shuncha inson bilan muloqatda boʻlding shu yetmadimi? Amir Temur esa ular faqat qovogʻimga qarashdi, lekin qalbimni ochisha olmadi»-deydi. (470-474-betlar)

Ahmad Yassaviy va Amir Temur oʻrtasida boʻlgan xayoliy muloqatda shuni koʻrish mumkinki, butun umri oʻsha xotiralarida oʻz aksini topadi. Oʻz-oʻzini taftish qilgan shu sahnalar ham oʻzgacha bir mahorat bilan yoritilgan.

Xulosa oʻrnida ta'kidlash joizki, «Sohibqiron» dramasida Amir Temurning umr chizgilari kamalakdek turli xil ranglarda jilolanadi. Sohibqironni sarkardalikda, siyosatda, ma'rifatda bunchalik katta muvaffiqatga erishishining sabablaridan biri, ul zot behad baynalmilalchi boʻlganligidadir. Har doim toʻgʻri soʻzdan, toʻgʻri ishdan, adolatdan ortga qaytmaganligidadir. Oʻsha davr ruhiyati, aynisa shohlar orasida kimda quroli koʻp va urushlarda gʻolib boʻlsa, uni qoʻllab quvvatlovchi kuchlari yetarli darajada boʻlsa, oʻsha kuchli degan gʻoya koʻpincha ustivor boʻlgan. Abdulla Oripov esa dramada buning aksi oʻlaroq haqiqiy kuch yuqoridagi

omillardan to‘g‘ri vaziyatda foydalana oladigan shaxs orqali tasvirlanadi deya uqtiradi. Ulug‘ Temur esa ot surib, dunyoning yarimini zabt etgan va ulug‘ saltanatni tiklagan jahongir, ba’zan o‘z faoliyati haqida ham o‘yga toladi. Dunyoda adolatni keng targ‘ib etish esa har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi.

Abdulla Oripov so‘z ila ma’rifatni keng targ‘ib qilgan bo‘lsa, Sohibqiron shamshirdan odilona foydalanish orqali ma’rifat tarqatdi. Amir Temur bobomizdan markazlashgan ulkan davlat, hayotbaxsh ta’siri ming yillarga tatigulik buyuk madaniy va ma’naviy meros qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qozoqboy Yo‘ldosh. Ochqich so‘z. T.: «Tafakkur». 2019. – 688 b.
2. Qo‘shjonov M. Dramaturgiyamizda yangi sahifa//O‘zAC. 1996. 22-son.
3. Орипов А. «Сохибқирон». Танланган асарлар. 2 жилд. Т.: G‘афур G‘улом номидаги Адабиёт ва сан’ат нашриёти. 2001. – 496 б.
4. Мирзаев И. XX аср o‘збек адабиёти. Т.: «O‘qituvchi». 2005. – 396 б.
5. Жабборов И. Абдулла Орипов ижодида Амир Темур образи/ «Тил ва адабиёт та’лими». 2020. 3 сон.

NAZAR ESHONQUL NASRIDA OBRAZLAR DINAMIKASI

Sabina Habibullayeva
ToshDO‘TAU talabasi
Khabibullayeva@mail.uz

Annotatsiya. *Bu maqola bugungi adabiyotimizdagi asarlarda obrazlar dinamikasi va uning pafosi uyg‘unligi haqida bo‘lib obrazlar muhiti va mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Turli sujetdagi turfa xil qahramonlarning tutashgan dinamik strukturasi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: Dinamik struktura,sujet tizimi taqdir motivi, Nazar Eshonqul uslubi, obraz, xarakterlararo munosabat.*

Annotation. *This article is about the dynamics of images and the harmony of its pathos in the works of today’s literature and serves to reveal the environment and the essence of the images. The interconnected dynamic structure of different characters in different plots is revealed*

Key words: Dynamic structure, subject system, motive of destiny, Nazar Eshonqulov’s method, image, interpersonal relationships

Mustaqillik davri nasri bugungi adabiy jarayonda o‘ziga xos uyg‘unlikda takomillashib bormoqda. Bu uyg‘unlik badiiy reallikni, obrazli qarashni, fikrni

fikran tatbiq etishni, inson ong ostidagi tushunchalarni oz bo‘lsa-da anglab yetish mumkinligini o‘rgatmoqda. Mustamlaka adabiy muhitidan farqli o‘laroq bugungi zamonaviy adabiyotimizda yaratilayotgan obrazlar o‘zgacha ruhni, o‘zgacha intiutsiyani o‘zida qamrab ola boshladi. Yozuvchilar ijodida yangi obrazlar fenomeni shakllandi. Xususan, Nazar Eshonqul nasri namunalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, undagi adabiy muhitning yangiligi, eksperimental ifoda usulining potensialligi, o‘z uslubining o‘zgachaligi bilan ijodkorda yaratuvchanlik to‘xtamaganligining guvohi bo‘lasiz va asarlarini o‘qish davomida har bir detall,obraz, peyzaj, xronotop, o‘xshatish, izohlash hamda muhit mohiyatining mahoratiga qoyil qolasiz. Nazar Eshonqul estetik qarashlaridagi fikr-g‘oyalarni asarlarini yaratish jarayonida ko‘ngilidan o‘tkazib, o‘zi ko‘rib, bilib,his qilib haqiqiy hayot maydonidan olib yaratdi. Nasrida makon va zamonda bir-biriga o‘xshash va bir-birini to‘ldiradigan obrazlar yaratildi. Jumladan, «Urush odamlari» qissasidagi Biydi momo va «Shamolni tutib bo‘lmaydi «hikoyasidagi Bayna momo, «Qultoy» hikoyasida Maymoq momo obrazlari fikrimizning yaqqol isbotidir. Yozuvchi qiyinchiliklar va sho‘ro hukumatining tazyiqlariga bardoshli bo‘lgan, obrazlarning ichki dinamikasini nihoyatda mohirlik bilan ishlagan.

«Obraz dinamikasi - badiiy asardagi obrazlarning asar davomida o‘sib, takomilllashib borishi. Xarakterning dinamik o‘sishi - Bu ko‘proq realistik asarlarga xosdir. Realistik adabiyotda badiiy asardagi har bir xarakter asar davomida doimiy o‘sishda, o‘zgarishda bo‘ladi. Asar rivoji davomida har bir obraz xarakteriga xos xislatlarning o‘sib, takomillashib, murakkablashib, qisqasi, boyib borishi xarakterning dinamik o‘sishi deyiladi. O‘zbek realistik adabiyoti vakilllari qanday badiiy asar yaratmasinlar hammavaqt mana shu qonuniyatga amal qiladilar»[101]

Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasidagi Biydi momo va «Shamolni tutib bo‘lmaydi» hikoyasidagi Bayna momo «Qultoy» hikoyasidagi Maymoq momo obrazlarining tipologik xususiyatlari nimada ko‘rinadi? Ularning qanday o‘xshash jihatlari bor? Asar davomida ularning dinamikasi nimalarda aks etadi? Asarlardagi

[101] H. Hotamov, B. Sarimsoqov “Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug’ati. – T.: “O’qituvchi” , 1979.

momo timsollariga xos xususiyat obrazlarning xarakterlar o‘rtasidagi munosabatlarida, xatti-harakatlarining uyg‘unligida, asar boshida va oxiridagi o‘rinlarida namoyon bo‘ladi. «Urush odamlari» qissasida eri Buxor polvondan erta ajralib qolib, ikki o‘g‘lidan qora xat kelganda ham qaddini bukmagan Biydi momo obrazi haqiqiy hayotning real ko‘rinishidir. Bayna momo ham o‘g‘li va eridan judo bo‘lgan ammo shunda ham metin iroda bilan yashagan. Maymoq momo esa o‘z uyiga, ota-onasiga, oilasiga yakka-yu yagona o‘g‘liga begona bo‘lib yashadi. Barcha qiyinchiliklarga dosh berdi, qilganini minnnat qilmadi, ammo o‘zi minnnat oshiga aylansa-da u o‘z irodasi bilan Biydi va Bayna momoga o‘xshar edi. Bu yerda qaysidir ma’noda qismatlar o‘shashligini sezish mumkin. Chunki Biydi va Bayna momo obrazlaridagi mushtaraklik Maymoq momoda ham yaqqol aks etadi. Fikrimiz dalili sifatida, ularning ko‘pni ko‘rgan kayvoni, oriyatli butun xalqning g‘ami bilan yashaydigan dadil, metin irodali, vafo va sadoqat timsoli, o‘z qadriyatlarini hurmat qiladigan, yolg‘iz yashasa-da farzandi baxti uchun yonib-kuyib yashaydigan, o‘z qarashlariga sodiq, qahr va g‘azabni sitam bilan ichiga yutgan, butun Tersotaliklarning g‘ururi, faxri bo‘lgan obrazlar deb bemalol ayta olamiz. Bu obrazlar sho‘ro hukumati qurbonlaridan biri. Bayna va Biydi momo qalbidagi g‘azab va nafrat aslida sho‘ro hukumatiga qarshi ochilgan isyon bo‘lib jaranglasa, Maymoq momo obrazida sirtdan qaralganda bu jihat ko‘rinmagandek, xuddi mehr-shafqat, muhabbat yaqqol sezilib qolib, Biydi va Bayna momo obrazlariga proporsionaldek tursa-da, ichki dinamik jihatdan e’tibor berilsa bu obrazlardagi qismat motivi bir-biriga juda o‘xshash va bir-birini to‘ldiradi. Quyidagi matn kompozitsiyasiga e’tibor bering.

«Shamolni tutib bo‘lmaydi» hikoyasidagi «Biydi momo qariyb ellik yilga yaqin yolg‘izlik davrini ana shu ayvondagi «ustunlar» ga suyanib o‘tkazdi: «U eri va o‘g‘lining judolik azobi qiynagan paytlar shu ustunlarni quchgancha yig‘lardi. Keyinchalik ko‘zyoshlar ham tugab qolgach, hayotiga go‘yo suyanchig‘i va orqasidan yig‘lab qoladigani yo‘qligini odamlardan yashirish uchun yoki endi yillar silsilasiga dosh berolmay puturdan ketayotgan uyni butkul vayron bo‘lishdan asrab

qolmoqchidek, yelkasini ustunga suyagan holatda xotirasining siniq parchalariga tikilib ko‘zlarini yumgancha g‘amgin-u mustag‘riq o‘tirardi[102]... «Bu yerda yozuvchi poetik mahorati yaqqol namoyon bo‘lgan. «Ustun» detali momoning ma’naviy qiyofasini hamda asar kompozitsion strukturasini ochishda katta rol o‘ynagan. Ustunning vazifasi uyning poydevorini ushlab turish. Bayna momo ham butun xalqning qadr-qimmatini, g‘ururini, or va nomusini shu ustundek ko‘tarib turdi. Sovuq shamollar va to‘zonlar ozori tegsa-da bardosh bilan poydevorni mahkam ushlab turdi.

«Qultoy» hikoyasida Maymoq momo holati: «Barcha sinovlarga matonat bilan dosh berib kelayotgan «yolg‘iz keksa zarang daraxti» yoniga borib, xira torta boshlagan ko‘zlarini olis yaylovlarga tikib, cho‘kkalab o‘tirib olardi. Go‘yo keksa zarang bilan sabr va matonat borasida bahs boylashayotgandek, qariyb ellik yildan beri yolg‘izlikdan zerikkan daraxt esa uni qo‘yib yubormaslik uchun juldir kiyimlaridan bir parcha yulib qolganini ham, keyin asov shamolda xuddi g‘oliblik tug‘iday laxtakni hilpiratib turganini ham sezmay Uljon sari otildi[103]…» Badiiy obrazning ruhiy holati va ichki dunyosini yoritishda yozuvchi keksa zarangni Maymoq momoga oyna qilib ko‘rsatgandek go‘yo. Daraxt hosil beradi. O‘zining mevasidan barchani bahramand etadi, ammo o‘zi yillar o‘tgani sayin to‘kilib, qurib nobud bo‘ladi. Maymoq momo ham hikoya semantikasida shu daraxt fenomenini tashkil etadi.

«Urush odamlari» qissasida: «Biydi momo ikki o‘g‘liga aza ochdi. Janoza o‘qitdi, qora kiydi. Shundan keyin u qishloqda boshqa ishlarga aralashmay qo‘ydi. Kun bo‘yi uyida bir burchakda, o‘g‘illarining kiyimlarini titib, allakim bilandir gaplashib o‘tiradigan va odamlarga begonasirab qaraydigan, odamlardan xavfsiraydigan va ularga adovat bilan qaraydigan bo‘lib qoldi [104]…» Bu obrazni yozuvchi har muhitda tasvirlaydi, uning kompozitsiyasi sujetda ham, sujet ipida ham yaqqol sezilib turadi. Hikoya ritmik tuzilishining maromiga yetib borishi ham

[102] Nazar Eshonqul “ Shamolni tutib bo’lmaydi “ www. ziyouz.com kutubxonasi
[103] Nazar Eshonqul “ Shaftoli guli “ to’plamidan T.: - O’zbekiston , 2011. - B . 15
[104] Nazar Eshonqul “ Urush odamlari” qissa T.: - “ Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati kompaniyasi Bosh tahririyati,2008. – B. 38-39

shu momo obraziga ulkan vazifani yuklaydi. Biydi momo shu holatda bo‘lsa ham eri Buxor polvonning choponini yechmaydi. Bu bilan yozuvchining poetik konsepsiyasi namoyon bo‘lib qoladiki, u uyining, millatning or-nomusini, g‘ururini qadriyatlar qimmatini ko‘tarib yurgan millat onasi degan xulosaga kelamiz. Yuqoridagi hikoyalarda xarakter hatti-xarakteriga mos tarzda detallar tanlangan. Ular obraz tilining ravonligini, ichki mukammalligini, asarda ularning dinamik o‘sishini yarata olgan. Bunday detallar hikoya badiiy g‘oyasining ma’no qirralarini ochishda va hikoyada voqea tomonlarini tutib turishda muhim poetik vazifa bajaradi. Ayniqsa," Hikoya sujetining vertikal va gorizontal chiziq bo‘ylab harakatlanishiga zamin yaratadi[105] …»

Nazar Eshonqul serqirra ijodkor uning bir asaridagi o‘xshashlik boshqa asarida ham uchrashi mumkin, ammo biri ikkinchisining davomi kabi jaranglaydi aynan takrori emas. Fikrimiz dalili sifatida, «Bahouddinning iti «g‘oyaviy va badiiy jihatdan yetakchi asarlardan biri hisoblanib, unda inson har qanday holatda ham o‘zligini anglab yetishi va o‘z olamiga ega bo‘lishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topgan. Asarda shovqin ya’ni ovoz butun asar tendensiyasini ochib bergandek bo‘ladi. «Men shu uvillash orqali o‘zimni va atrofimni kashf etgandek edim. Ba’zan bog‘ga kirib men u bilan uvillar va uvillagan sayin vujudimda og‘riq va uqubatlar arib, ruhim yana ham yengillashib borayotganini sezar va beixtiyor ko‘nglimda nega men bu lazzatdan shuncha yillar oldin bebehra yurdim ekan degan nadomat paydo bo‘ldi.Men uvillashdagi musibatga qo‘shilib, olis-olislarga, o‘zim ham anglamagan, go‘yo hamma narsaning ibtidosi bo‘lib tuyulayotgan olislarga ketib qolardim[106]…» Ko‘rib turganimizdek, bu asarda o‘zligini topish va o‘z muhitini yaratgan inson qiyofasi namoyon bo‘ladi. Inson o‘zligi sari qadam tashlagani sayin hayot mohiyati va nima uchun dunyoda yashab, nima uchun o‘lmoqlik kerakligini anglaydi. Bu hikoyada ham aslida bir obraz, bir detal, bir sujet, bir xronotop hattoki bir jumla shu o‘zlik o‘zaniga xizmat qiladi.

[105] Komiljon Hamroyev T.: “ Nurafshon business” ,2020. – B. 116
[106] Nazar Eshonqul “ Shaftoli guli” to’plamidan T.: - O’zbekiston” , 2011. – B. 34

Yozuvchining «Evolutsiya» hikoyasida ham shunga o‘xshagan jihatni ko‘rishimiz mumkin. Bunda «yolg‘izlik» va «obraz ruhiyati» o‘ta mahorat bilan tasvirlanadi. U o‘z «men»ini har joydan izlab ko‘radi: shahar markazidan, qabristondan, ko‘cha va xiyobondan, saroy va bozordan o‘ziga tanish va notanish joylardan. Vanihoyat, u bunga erishadi. «Qo‘zichoq o‘zaro suhbatni tushungandek, ko‘zlarini cho‘chib ochar, lekin hech qanday xavf yo‘qligini sezgach, yana barvastaning barmog‘ini ochiqib so‘rardi [107]…» Inson ruhiyati va tafakkuridagi nozik jihatlarini yoritgan yozuvchi bunda har narsadan o‘z manfaatlarini ustun qo‘yuvchi jamiyat a’zolaridan uzoqlashib ilohiy yaqinlikka erishgan inson pafosini yoritib bera olgan. G‘animlar qo‘lidan qutulib u yana shunday insonlar bilan ro‘baro kelsa ham, muhimi, u o‘z olamiga, o‘zining ilohiy dunyosiga erisha oldi, ilohiylikka yetib bora oldi. Soddalikdan murakkablik sar murakkablikdan yana soddalik singari holatga go‘yoki guvohi bo‘lb turgandekmiz go‘yo. Filologiya fanlari nomzodi Feruza Burxonavaning monografiyasida «Asarda yozuvchi tanlab olgan model sho‘ro davri. Asar qahramoni ta’qiblardan qochib oxir-oqibat o‘zining rangini o‘zgartirib olgandek go‘yo miqdoriy o‘zgarishdan sifat o‘zgarishiga o‘tgandek[108]…» Obraz shakl jihatdan o‘zgarsa-da, ruhiy jihatdan o‘zgarmadi, balki mohiyati ma’nosidan ustun hayotga yoki ma’nosi mohiyatidan ustun ilohiylikka erisha oldi. Nazar Eshonqul ijodida ranglar tasviri, mavhumlik motivi, inson irodasi, erk va ozodligi, millat va xalq kabi tushunchalar alohida ahamiyatga egadir. Jumladan, «Sharpa», «Tobut», «Xaroba shahar surati» kabi hikoyalarda mustamlaka davrida yashab erki bo‘g‘ilgan fikrsiz insonlarni, erksizlik yo‘lidagi ma’naviy qashshoq kimsalarni, xazon bargidek o‘t olsa yonib ketadigan, chirkin mustamlakaning mustaqil bo‘lmagan shaxslarini ramziy bo‘yoqlarda yarata olgan.

Yozuvchining «Xaroba shahar surati» hikoyasida «Suratda hali me’yoriga yetmagan xira bo‘yoqlar fonida vayronaga aylangan shahar burdalangan jasaddek bo‘rttirib tasvirlangan. Suratdagi izlar xuddi yarador sherni kishanlab qo‘ygandek

[107] Nazar Eshonqul o’sha manba , 2011. – B .59

[108] Filologiya fanlari nomzodi Feruza Burxonova ” Adabiy - estetik qarash va ijodiy jarayon” T.: Innovatsiya_Ziyo” 2020

asorat yoki istibdodning izlari kabi ko‘ngilga talvasa solardi[109]...» Bunday tasvirlarda faqat shahar va uning ko‘rinishi, noma’lum shahar kimsalarining qilgan ishlari tasvirlangan.Bu kitobxonga asar haqida ma’lumot emas, balki estetik zavq bergandek ko‘rinsa-da,yozuvchining bunday estetik zavqdan maqsadi boshqa, ya’ni asar davomida bosh obraz dinamikasi o‘sishini ta’minlash. Asarda «professor» obrazi orqali sujet iplaridagi tugunlar yechilgandek bo‘ladi. Professor shahar obro‘li kishilaridan biri, ammo shu nomga munosib o‘z shahrini qura olmagan, balki vayronaga aylantirgan, yaxshilashga hatto harakat ham qilmagan faqat biqiq muhitda yashab, erksizlik qa’riga o‘z oyoqlari bilan qulayotgan, hatto bu yo‘lda shogirdlarini ham sherik qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo shogirdiga professor bir oyna bo‘ldi. U, haqiqatda, Tursoriya borligi va uni endi yarata olishi mumkinligiga chin dildan ishondi: «Yuragim devoriga osig‘liq turgan bu xaroba shaharni ertangi kunimni yaratganim kabi qayta tiklashim, to‘xtab qolgan tegirmon parragini yurdirib yuborishim kerak edi[110]...» Asarda «tegirmon» detali mavjud bo‘lib uning parraklari yana aylanishni boshlasagina xaroba shahar Tursoriyaning o‘ziga aylanishini u bilardi shuning uchun ham: " Men xona bo‘ylab kezarkanman,daf’atan surat qarshisida to‘xtar va birdan tegirmon parragini aylantirib yuborishni, shaharga oz bo‘lsa-da hayot bag‘ishlashni juda ham istab qolardim[111]...» Ko‘ryapsizki, obraz ruhiyatidagi birgina istak uni shaharni o‘zgartirishga va shahrni istibdoddan ya’ni erksizlikdan va mustamlakadagi ma’nan qashshoqlikdan xalos etdi.

Yozuvchining «Tobut» hikoyasida ham shunga o‘xshagan erksizlik, bunyod etilgan go‘zallikni qurshab olib vayronaga aylantirgan jaholat, sog‘lom muhitni o‘ldiradigan ajaldek kimsalar, chetdan qaraganda nobop, ammo o‘zi uchun ommabop bo‘lib qolgan shaxslarning ayanchli holatlari, hamda butun jamiyatni yemirayotgan va tobut sari yetaklayotgan hayot yoritiladi «Devor baland bo‘lsa ham to‘zon shahar ko‘chalarigacha bostirib kirgan, binolar qanchalar muhtasham

[109] Nazar Eshonqul “ Xaroba shahar surati “ T.: - O’zbekiston, 2011. – B.107
[110] Shu manba asosida
[111] Shu manba asosida

bo‘lmasin, shahar fayzsiz va hatto andak xaroba tus olgandek ko‘rindi, ehtimol, odamlar yuzlarida to‘nib qolgan umidsizlikni ko‘rib bizda shunday his paydo bo‘lgandir[112]...» «Shahar» va unda yashovchi «xalq» va bunday holatga «sabab» shu uch konsepsiya atrofida asar tendensiyasini tashkil etuvchi qonun nihoyat asl mohiyatini ochdi. Bu hikoyada ham «professor» obrazi bor. Shunga o‘xshagan kimsalar tufayli shahar tobut holatiga kelib qolgan. «Shaharga kirishimiz bilan dimog‘imizga xuddi boshliq(professor) ning nafasidagi anqigan hidga o‘xshash ufunat urilgani bizni shoshirib qo‘ydi...». Hikoyada me’mor obrazi ham bor. Asarning eng katta yuki ham shu obraz gardanida. U shu muhitni ko‘ribgina qolmay ichida ham bo‘ldi. Undagi chirkinliklarni, to‘rt muchasi sog‘ bo‘la turib o‘lib qolayotgan (yozuvchi ramziylikni nazarda tutgan) kimsalarni ko‘rdi. Endi uning kelgusida quradigan shaharlari bunday erksizlik botqog‘ida emas, balki hurfikrlik ostonasidan boshlanishini anglab yetdi.

Yozuvchining «Sharpa» hikoyasida o‘ziga qamalib qolib o‘zidagi iste’dodni yuzaga chiqarolmagan «men» ni ko‘rishimiz mumkin. Xuddi bu «men» uni ta’qib qilib tinchlik bermagandek, u bilan birga qamalib yolg‘izlikda yashagandek tuyulsa-da, toki u shu «men»ni anglab yetmaguncha va yuksaklarga parvoz qilmaguncha u bilan birga bo‘ladi. To‘xtovsiz kurashlar natijasida qaysidir ma’noda bunga erishishadi. Chizgan suratlari o‘laroq u bu natijaga erishdi. Mahkumlikdan ozod "men" ni topdi. «Qushning qanotlari parvozdagidek keng yoyilgan ko‘zlarida qat’iyat va jasorat aks etardi. U shu uchishdan butun yer yuzini ko‘tarib uchadigan shahdi bor edi. Sening-cha, uni hech kim tortib tushurolmas, parvozidan, erkidan ayro qilolmasdi.Suratlaridagi moviy osmon va porlab turgan quyosh sharpaning g‘oyib bo‘lishiga turki bo‘ldi[113]...’

Yozuvchi «Tobut», «Shamolni tutib bo‘lmaydi», «Sharpa» hikoyalarida fikr erkinligi, mustaqil hayot erkinligini, so‘z erkinligini, obraz, detal erkinligini ko‘rsatib bera oldi. Buni sarlavhada, ilk va so‘nggi jumlalarda, epik tasvirlarda, ramzlarda, o‘xshatish, hamda poetik obrazlar tanlashda aks ettirib bera oldi.

[112] Nazar Eshonqul “ Tobut” hikoyasi www.ziyouz.com
[113] Nazar Eshonqul “Sharpa “ hikoyasi T.: - O’zbekiston ,2011.- B. 65

Asardagi obrazlarning dinamik struktur potensial jihatlarini shu unsurlar orqali bayon qilib bera oldi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Nazar Eshonqul nasrida obrazlar dinamik nuqtasi va dinamik jihatlari serqirra ochqichlarda ochildi. Adabiyotimizda yangicha ohang olib kirgan ijodkorning asarlaridag i dinamik muhitning mohiyatini yangicha qirralarda kashf etdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Hotamov, B. Sarimsoqov «Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - T.: O‘qituvchi», 1979.
2. Nazar Eshonqul «Shamolni tutib bo‘lmaydi» www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Nazar Eshonqul «Shaftoli guli» to‘plamidan hikoyalar T.: - O‘zbekiston, 2011.- B.15
4. Nazar Eshonqul «Urush odamlari» qissa T.: - «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati Bosh tahririyati, 2008.- B. 38-39
5. Komiljon Hamroyev T.: «Nurafshon business»,2020.- B.116
6. Nazar Eshonqul «Bahouddinning iti» T.: - O‘zbekiston,2011.- B. 34
7. Shu manba, 2011.- B. 59
8. Filologiya fanlari nomzodi Feruza Burxonova «Adabiy-estetik qarash va ijodiy jarayon» T.: - Innovatsiya_Ziyo, 2020
9. Nazar Eshonqul «Xaroba shahar surati «T.: _O‘zbekiston,2020. - B. 107
10. Nazar Eshonqul «Tobut» hikoya www.ziyouz.com kutubxona.

SHARQ ADABIYOTIDA O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING MILLATPARVARLIK RUHI TALQINIGA DOIR MULOHAZALAR

Narziyeva Maftuna Abror qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-kurs talabasi
maftunanarziyeva@gmail.com
Ilmiy rahbar : Qambarova Soadat

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sharq va G‘arb jamiyatida bolalar tarbiyasida muhim o‘rin tutgan oilaviy munosabatlar tahlil qilingan. O‘zbek adabiyoti namunalariga Sharqona nuqtayi nazardan baho berilgan. Asar voqealari, o‘smir yoshlarning samimiy, bolalarcha qiziqqon hayoti haqida mustaqil fikrlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar. *Gruzin adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, "Hellados", "Shum bola", o‘smir ruhiyati, davr, irq.*

Annotation. *This article analyzes the family relationships that play an important role in the upbringing of children in Eastern va Western societies. Samples of Uzbek literature are evaluated from the oriental point of view. The events of the work express independent opinions about the sincere childish curiosity of teenagers.*

Key words: *Georgian literature, Uzbek literature, "Hellados", "Shum bola", adolescent psyche, period, race.*

Sharq oilalarida azaldan o‘smir yoshdagi bola ruhiyatiga katta e’tibor qaratilib kelingan. Islom dinida «Go‘zal tarbiyadan yaxshiroq meros yo‘q» degan hadis bor. Shuning uchun bolaga go‘dakligidan Vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, rostgo‘ylik, fidoyilik kabi tuyg‘ular singdiriladi. Bola xuddi oq qog‘oz kabidir, unga qanday naqsh bilan jilo berish xattotning qo‘lida. Bola – bebaho, go‘yo marvarid donalari qimmatbaho bo‘lganidek bola ham ota-onasi uchun qimmatli va azizdir.

Adabiyotimiz vakillari orasida bola ruhiyati, uning ichki dunyosi, samimiyati va eng inju tuyg‘ulariga nazar solgan ijodkorlar juda ko‘p. Nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki Sharq xalqlari, xususan, gruzin adabiyotida ham mavjud. Mashhur yozuvchi Nodar Dumbadzening "Hellados" nomli hikoyasida yosh Yangulining hech kim anglamagan va his eta olmaydigan pok tuyg‘ulariga, yosh bo‘lishiga qaramasdan, ba’zan kattalarda uchramaydigan vatanparlik va ona tuproqqa bo‘lgan muqaddas burch, do‘stlik munosabatlari samimiy ifodalangan. Bir so‘z bilan aytganda, yozuvchi Yangulining qalbiga qo‘l soladi va qalb nidosiga quloq tutadi.

Yanguling Jamol bilan mushtlashishga kirishmoqchi bo‘lgan paytidagi mana bu so‘zlarga e’tibor bering:

– Bolalar! Men, Yanguli Aleksandridi, sizlar saylagan sardor, sizlarga Venetsiyan ko‘chasining hur farzandlariga, murojaat qilaman. Ro‘parangizda tbilisilik rangpar laqma bilan uning jiyani – vatan va qabila xoini, mishiqi Koka turibdi. Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo‘stligimiz va muruvvatimizdan bahramand bo‘lish o‘rniga – Xudo siylagan yerimizni, dengizimizni, jamiki

daryolarimiz, oltin va kumushlarimiz, o‘tloqlarimizni o‘ziniki qilib olmoqchi... [Nodar Dumbadze, 1995: 9]

Hali bolalik dunyosini tark etmagan bezori Venetsiyan ko‘chasini butun bir Vatan deb bilardi. U o‘z vataniga hukmron bo‘lishni istar, Vatanida paydo bo‘lgan begona bolani «qabila xoini» deb ataydi. U Vataniga «o‘zga bola» ega chiqishidan cho‘chirdi.

O‘zbek adabiyotining o‘lmas buyuk asaridan biri bu G‘afur G‘ulomning «Shum bola» asaridir. Ushbu asar o‘zining haqqoniyligi, avtobiografik ruhda yozilganligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Asar markazidagi Qoravoy obrazida o‘sha davrdagi nohaqliklarga qarshi kurashgan dovyurak bola obrazi gavdalanadi. Qissaning ahamiyatli jihati shuki, yozuvchi xuddi mana shu nohaqliklarga va jaholatga to‘la muhitni 14 yoshli bola nigohi orqali juda rang-barang va mazmunli holda tasvirlaydi. Bu jihatlar qissani o‘qish mobaynida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Garchi Qoravoy uchratgan odamlarning aksariyati ochko‘z, xassis, ikkiyuzlamachi, «chalamulla» kimsalar bo‘lsa-da, bola bundaylarni bir ko‘rishda taniydi. Ularning chirkin muhitidan iloji boricha tezroq yiroq bo‘lishga urinadi va shunday qiladi ham.

Ushbu holatlarda Qoravoyning topqirligi, ziyrakligi, hozirjavobligiga amin bo‘lamiz. Shum bola qayerga bormasin, kim bilan to‘qnashmasin, hamma joyda kattalarning o‘ziga bepisand qarashi, qo‘pol muomalasiga duch keladi. O‘zlarini go‘yo yetimning boshini silaydigan himmatli kishilar qilib ko‘rsatadigan turli noinsof kimsalar uning navqiron kuchidan suvtekin foydalanib qolishga urinadilar. Bu ham mayli, shu yosh bolani turli qing‘ir yo‘llarga boshlovchilar ham topiladi. Masalan, yuzlab qalandarlarga yo‘lboshchi bo‘lib olib, har gapida qayta-qayta Xudoni tilga oladigan ikkiyuzlamachi Eshon Shum bolani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘g‘irlik qilishga yo‘llaydi. Eshonning Shum bolaga aytgan quyidagi gaplari uning naqadar tuban kimsa ekanidan dalolatdir: «Oyoq-qo‘ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo‘l bilan bo‘lsa ham, tirikchilikning payidan bo‘lsang edi, o‘g‘lim... Axir kissa-karmon degan gaplar ham bo‘ladi.

Naqdina pul – ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo‘ladi. Naqdina bo‘lsin, bolam, naqdina bo‘lsin...».

Shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand-bangilar yig‘iladigan takyaxonaga aylantirgan Hoji bobo ham o‘zicha xudojo‘ylikda boyagi Eshondan qolishmaydi. Biroq uning qilayotgan ishlari Xudoning aytganlariga mutlaqo teskariligi bilan o‘quvchini hayratga soladi. 14 yoshli ikki qahramondan biri otasidan, biri onasidan ayrilganligi tufayli ko‘p qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazadi. Ular yashagan davrga nazar solsak, o‘sha paytda butun dunyoga musibat olib kelgan Birinchi jahon urushi bo‘layotgan edi. Qahramonlar urush tufayli beg‘ubor bolaligidan, quvnoq yoshligidan, ota-ona mehridan judo bo‘ldi.

Shum bola va Yanguli xuddi katta insonlardek o‘z oilasiga foyda, naf keltirish uchun mehnat qiladi. Shum bola pul topib onasi va singlisini boqish ilinjida jonajon uyini tark etib, Toshkent atroflarida kun kechiradi. Yanguli esa hech qayerda o‘qimasdi. Otasining yumushlariga qarashar, ahyon-ahyon eshakda qo‘shnilarga sut-qatiq tarqatar edi…

Qahramonlar ruhiyatida o‘zaro tutash nuqta – burch hissi mavjudligidadir. O‘zini Vatanga kerakli inson deb bilishi, uni asrab himoya qilishi, Vataniga qarshi bo‘lgan «qabila xoinlari"dan tozalash Yanguli hayotining asl maqsadi edi. Hali bola bo‘lishiga qaramasdan do‘stlik degan ilohiy tuyg‘uning murg‘ak qalbida nish urushi, bir-biriga bo‘lgan mehr va sadoqat asarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shum bolaning bozor, odamlar gavjum joyda, jonajon do‘sti Omonni qo‘y ko‘zlaridan tanib, suyunib, uni bag‘riga bosib, mehmon qilib, shahar aylantirib birgalikda vaqt o‘tkazgani bir tomonda bo‘lsa, ikkinchi tomondan Yanguli otasining istagi bilan "Poseydon" kemasida uyga ketayotganida Jamol unga ko‘zlari orqali qolishini yolvorib so‘ragani, Yangulining o‘lik tanasidagi "Hellados" yozuvini ko‘rib yig‘lagani bizga haqiqiy do‘stlik tuyg‘usini eslatadi.

Yozuvchi Bayram Ali tili bilan aytilganda, Yangulining qalbida ota-bobosi tug‘ilgan Gretsiya emas, o‘zi o‘sib ulg‘aygan Suxumi Vatan timsolida edi. Oqibatda u o‘zini bu Vatani uchun, Jamoldan qizg‘onib, ayovsiz mushtlashgan Suxumisi

uchun qurbon qildi. Garchi muallif tomonidan Yangulining kemadan sakragani yoki greklar mingan kemaning halokatga uchragani oydinlashtirilmay, mavhumroq tarzda qoldirilgan esa-da, o‘quvchi sifatida men negadir yuragidagi Vatanidan ayrilishni istamagan Yangulining o‘zini kemadan suvga otganiga qattiq ishonamiz. Hamda Yangulidagi bu fidoiylik urush asoratlari haqidagi ko‘pgina asarlardan farqli o‘laroq, naqadar haqqoniy, naqadar samimiy ifoda topganini ta’kidlagimiz keladi. O‘zining kichikgina Vatani – Venitsian ko‘chasiga beqiyos mehr bilan yashagan Yanguli tasavvurimizda bunday qurbonlikka qodir edi, shubhasiz. Asar haqidagi ushbu xulosalar bilan aslida Nodar Dumbadze o‘z hikoyasi orqali insonlarga aytmoqchi bo‘lgan gaplarning o‘ndan birini ham bildira olmagan bo‘lishi mumkin. Lekin asarning mag‘zini oz-moz chaqib yetgan davrlarimdan boshlab hanuzgacha kitoblarda, ayrim tengdoshlarim tomonidan Vatanga bag‘ishlab yozilgan baqiroq she’rlarda, yoki hayotning o‘zida har qanday soxta vatanparvarlikni ko‘rib qolsam, Yangulining Jamolga qarata aytgan o‘sha olovli so‘zlari quloqlarim ostida yangraganday tuyuladi: «Bu – naqsh, Jamol! Vatan bundan ichkariroqda, naq yurakning o‘zida bo‘ladi!» [Nodar Dumbadze, 1995: 14].

Asarda bolalarning bir-biriga zid bo‘lgan jihatlari ko‘zga tashlanadi. Yanguli juda ham erkparast, faqat o‘zini o‘ylaydigan yurtiga begona odamni qo‘yishni xohlamaydigan jasur bola.

Shum bola bo‘lsa, aksincha juda sho‘x, birozgina quv, shaddod. Asarda Shum bola Toshkent atrofida qishloqlarda kechadigan sarguzashtlariga sarguzasht ulanib, yarim yildan ortiq davom etadi. Mana shu vaqt mobaynida Shum bola bir-biridan qiziq voqealar ishtirokchisiga aylanadi. Pochchasi avaylab boqayotgan qimmatbaho qushlarga qatiq, suzma ichirib harom o‘ldirib qo‘yadi, do‘sti Omonga qo‘shilib Sulton o‘g‘ri boshligidagi kissavurlar bilan tunni o‘tkazadi. Ko‘chmanchi ovulida o‘lik yuvib sharmanda bo‘lishadi, masjid imomining og‘ilxonasida o‘sallab qolgan ho‘kiz o‘rniga soppa-sog‘ eshakni so‘yib qo‘yib rosa kaltak yeydi. Shum bolaning Yangulidan farqli jihati shundaki, u biroz sodda, o‘yinqaroq, lekin qayerga bormasin oldidan kim uchramasin hamma yomon, xasis, badfe’l insonlarni dodini beradi.

Mazkur asar qahramonlarining hayoti tasvirlangan davr deyarli bir vaqtga to‘g‘ri keladi. Voqealar dunyoning turli mintaqalarida bo‘lib o‘tsa-da, qiyinchiliklar, sinovlar, qismatlar bir-biriga o‘xshash, bir-biridan og‘ir va mashaqqatli. Ushbu asarlar bilan yaqindan tanishgan inson o‘sha davr dunyo bolalarining hayoti, taqdiri naqadar o‘xshashligini teran anglaydi.

Shum bola o‘zi va o‘rtoqlari haqida aytadi: «Ertadan kech ko‘cha changitib hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg‘ish eshitib, o‘spirinlarda kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvin-to‘da bekorchi bolalarmiz» [G‘afur G‘ulom, 2002: 25]. Bu fikrlardan ayon bo‘ladiki, Shum bola o‘smir yosh bolalardan kaltak yeb yurgan, ertagan kechgacha havo changitib yurgan. Yanguli bo‘lsa, qishloqdagi barchaga o‘zi hukmronlik qilardi. Jamolning kelishi bilan Yanguli uni ham o‘ziga bo‘ysundirib uning ustidan ham hukmronlik qilmoqchi bo‘ladi. Lekin Jamol Yanguli bilgan boshqa bolalarga o‘xshamas, irodali, ayni paytda o‘ziga hukm o‘tkazishlariga yo‘l qo‘ymaydigan darajada mag‘rur bola edi.

Qashshoqlik inson tinkasini quritadigan og‘ir sinov. U hech kimni ayab o‘tirmaydi. Bunday vaqtlarda bolalikning oltin davri bo‘lmaydi. Murg‘ak qalblar erta ulg‘ayadi. Har qadamda hayotning beshafqat sinovlariga duchor bo‘ladi.

Masalan, «Shum bola» asarida Omon obrazini olaylik. Bu yoshgina bolaning xayolida halitdan qanday fikrlar tug‘yon urayotganiga e’tibor berib kishi hayratga tushadi. U qo‘yini yo‘qotib qo‘ygan vaqti Qoravoydan achchiqlanib, men uyga qanday quruq qo‘l bilan qaytaman, mahallamga quruq qo‘l bilan so‘ppayib kirib borishdan uyalaman, falonchining bolasi shuncha vaqt ishlab shumshayib qaytib kelibdi degan gap so‘zlardan orlanaman, deydi. Bu so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘sha davrning bolalari o‘qib-izlanish o‘rniga hali bolaligidan ro‘zg‘or tebratish-u mahalla-ko‘yning gap-so‘zlari haqida bosh qotiryapti. Mana qanday davrlarni boshdan kechirgan ular.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asardagi qahramonlar irqi, dini, millatidan qat’i nazar ular Vatanni, ona tuproqni sevishgan. Yarim yillik sargardonliklardan so‘ng uyga, o‘z qishlog‘iga qaytgan Qoravoy. "Men ko‘chada, Venetsian ko‘chasida

katta bo‘ldim. Mening Vatanim, mening Elladam bu – Suxumi, ko‘cha, Chalbash; bu- Koka, Petya, Kurlik, Fema, Qora dengiz, ko‘prik.. Mida" deya qalbi to‘lib toshib gapirgan Yanguli. Bu ikki qalbda oilaga, do‘stlikka, Vatanga bo‘lgan muhabbat o‘zgacha.

Hikoya qilingan ikki mashhur asarda ham bolalarcha soddalik, o‘yinqaroqlik va jinday aldoqchilik mavjud, ammo bular asarning badiiyatini yanada go‘zallashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afur G‘ulom. Shum bola. – Toshkent: Sharq, 2002. – 160 b.
2. Nodar Dumbadze. Hellados. Nizom Komil tarjimasi. Tafakkur, 1995. – 3-4-son.

ADABIYOT DARSLARIDA BADIIY ASARLARNI O‘QITISH VA TAHLIL QILISH

Ismoilova Nazokat
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tili va adabiyoti darslarida o‘quvchilarga badiiy asarlarni o‘qitish va tahlil qilish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Kalit so‘lar: *adabiyot, badiiy asar, yelpig‘ich usuli, tahlil,"Shum bola", aspekt, afzallik, nuqson*

Badiiy asarning didaktik tahlili – o‘quvchining badiiy madaniyatini yuksaltiradi, estetik hodisalarni ko‘rish, undan mantiqiy-hissiy ta’sirlanish, ular ta’sirida esa umumlashma xulosalarga kelish qobiliyatini shakllantiradi, o‘quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi. Chunki badiiy asar tahlil qilinayotganda, o‘quvchining tafakkuri va hissiyoti faol ishlashga majbur bo‘ladi. Badiiy asarlarning didaktik tahlilida yangi g‘oyalar tugilishi, masalaga mantiqiy yondashib, muammoni hal etishga o‘rganishi; qiyosiy tahlil konikmasi, axborot bilan ishlash madaniyati, mustaqil izlanuvchanlik, erkin muloqot, matematik savodxonlik kabi komponenetlarning shakllanishi barcha fanlarga moslashuvchanlikni ham

ta’minlaydi. O‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda asarlarni tahlil etish hal qiluvchi o‘rin tutar ekan, adabiyot darslarida hamkorlik ta’lim texnologiya va uslublaridan o‘rinli foydalanish zarurati tug‘iladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning ijodiy jamoa bo‘lib ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida samarali natija ko‘rsata oladigan hamkorlik ta’lim texnologiyalari vositasida jamoada kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik tahlil namunalaridan keltiramiz:

6-sinf adabiyot darsligida G‘afur G‘ulomning «Shum bola» qissasidan parcha berilgan. Asar qahramonlari xatti-harakatini belgilovchi va asar g‘oyasini ochuvchi parchalarni qiyosiy tahlil qilamiz. Bunda ijobiy va salbiy tomonlari, afzalliklari va nuqsonlarini ta’riflashga yo‘naltirilgan «Yelpig‘ich» texnologiyasidan foydalanib, o‘quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini ixcham bayon etish, uni himoya qilishga imkoniyat yaratamiz hamda uning tasavvurini va dunyoqarashini belgilaymiz.

«Yelpig‘ich» texnologiyasi muammoli mavzularni o‘rganishga, mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot berilishiga qaratilgan. Ayni paytda, ularning har bir alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interfaol texnologiya tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek himoya qilishga imkon yaratadi.

«Yelpig‘ich» texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida:

- boshida – o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida – uning asoslarini chuqur anglab yetish;
- yakunlash bosqichida - olingan bilimlarni tartibga solishda qo‘llaniladi.

Texnologiyada uchraydigan asosiy tushunchalar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslashda ustunlik; imtiyoz.

Fazilat- ijobiy sifat.

Nuqson- nomukammalllik, qoidalarga,mezonlarga nomuvofiqlik

E'tiboringizni darslikda berilgan asardan parcha - mikromatnga qaratsak:

«...Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqti bo'lgani uchun menga o'xshash oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshigidan quvlamas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo'shxonada yotishga qaror berdim. Uzumchi menga yo'lboshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go'ja ustida edilar.

– Assalomu alaykum, – deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o'z o'rtalariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog'i:

– Asil umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganingda yaxshi bo'lar edi. Ha, mayli, sal o'zingni tutib olguningcha o'n-o'n besh kun ishlab tur. Keyin yo'lingni topib olarsan... – degan dudmal maslahat berdi. Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim».

ASPEKT	AFZALLIK	FAZILAT	NUQSON	XULOSA
Qishloq, Sariboy bo'lisning bog'i, ishchilar-ning norozi kayfiyati va b.	Bu yerga ga kelishning afzalligi ming tanoblab olmazori bo'lgani uchun doimiy ishchi kuchi kerak va b.	Boy arzonqo'l ishchilarni eshigidan quvlamaydi. O'zini tutib olguncha ko'chada qolmaydi. Bolalarini yaxshi ko'radi va b.	Xasis, mehnatga yarasha haq bermaydi. Suhbatdoshini eshitmaydi. Ocharchilik muhitidan foydalanadi. O'zini go'yo himmati kishidek tutadi va b.	Boyning ming tanoblab olmazori bo'lgani uchun unga doimiy ish kuchi kerak. Yana qanday ishchi kuchi: faqat oshtomog'iga yuradigan, arzonqo'l ishchilarni oladi. Ayni pishiqchilik mavsumida ishchilar haqini ololmasdan qiynalishadi. Ko'rinib turibdiki, boshqa payti ahvol undan ham qiyin.

«Kelishuv va ziddiyat» rolli-ishchan o'yini texnologiyasining maqsadi o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash hamda murosaga kelish mahoratini

shakllantirish va bolalar huquqlari muammolari bilan bog‘iq tushunchalarini aniqlash**.**

Quyida 8-sinf adabiyot darsligida(2019) berilgan Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasidagi «Qochoq» mavzusidagi parcha mazmuni didaktik tahlil qilish misolida mashg‘ulotning o‘tkazilish tartibi bilan tanishamiz:

O‘quvchilarga birin-ketin tasdiqlovchi fikr yozilgan tasdiqlovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar ko‘rsatiladi. Ularga berilgan fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslik taklif qilinadi.Qabul qilgan o‘quvchilar bir tomondan, qilmaganlar ikkinchi tomondan joy egallab, ikki guruhga ajraladi. Guruhlarning vazifasi – o‘z guruhlariga boshqa guruh a’zolaridan ko‘proq kishini jalb qilish, ya’ni ularni o‘z fikrlarini o‘zgartirishiga olib kelishdan iborat. Har bir tasdiqlangan fikr ustida besh daqiqa ishlanadi.

Tarqatma materiallardagi fikrlar:

- Tursunboy hayotidagi ziddiyatlarga qarshi kurashida yakkalik qildi;

- Tursunboyning qochoq bo‘lishiga ota-onasi ham sababchi;

- Jannat xola farzandi uchun muammoga duch kelsa ham chidaydi. Chunki u – ONA!

- «Bir bolaga yetti mahalla - ota-ona». Tursunboyni Azizbek singari qahramon bo‘lishi uchun mahalla-kuy ham ta’sirini o‘tkazsa bo‘lardi va hokazo.

Ushbu fikrlarni tasdiqlagan jamoa fikrini dalillar bilan isbotlashga harakat qiladi va ta’sir o‘tkazish natijasida qarshi guruhdan o‘zlariga a’zo yig‘adi.

Didaktik tahlilning sifatli amalga oshishida ***«Munosabat» texnologiyasining*** afzalliklarini 10-sinf adabiyot darsligida berilgan «Tunyuquq bitiktoshi» mavzusi misolida ko‘ramiz:

Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish sabablari	Sizning xulosangiz
Turkiylarning o‘z erkini qo‘ldan boy berib qo‘yishi	Turk xalqi boshboshdoqlikka o‘zbo‘larchilikka, beparvolikka yo‘l	1.Mustamlaka azobi, o‘zga xalq tahqirlari xalqni biriktiradi.	Xalqning xotirjam yashashi uchun nafaqat sarkarda, dono maslahatchi, vatanparvar shaxs –

oqibatida turk xoqonligining tanazzulga uchrashi	qo‘yadi. Xoni bilan birga bo‘lmaydi	2. Daxlsizlik uchun tinimsiz kurash olib boradi. 3. Xalqni donolik bilan boshqarish 4. «Tomog‘ini to‘q» qilish	To‘nyuquqning xoqon bilan birga ish tutishi davlatning yana oyoqqa turishida, madaniyati, ma’naviyati rivojlanishida o‘z aksini topadi. Har bir kishi o‘z taqdirini Vatan taqdiri deb bilishi lozimligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda didaktik tahlil o‘quvchilarni nafaqat ijodkorligini, tasavvur dunyosini boyitadi, balki birdamlik, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantiradi.

Hamkorlik ta’lim texnologiya va uslublarining ahamiyati ham shundaki, badiiy asar tahlili orqali jamoalar fikri to‘liq o‘rganiladi, har bir a’zoning dunyoqarashi muhim hisoblanadi. Fikrini erkin isbotlashga, dalil keltirishga harakat qiladi. Fikrlar solishtiriladi. Mantiqqa tayanadi. Tasavvur dunyosi kengayadi. Ikkilanishdan voz kechadi. Qat’iylik bilan o‘z g‘oyasini himoya qiladi. Noodatiy fikrlar tizimi umumlashtiriladi. Yangi g‘oyalar o‘rganiladi. Zero, inson tafakkuri qanchalik mustaqil bo‘lsa, u shunchalik tashshabuskor bo‘ladi. Uning fikrlashi qancha erkin bo‘lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

10. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent, 2017.
11. B.To‘xliyev, B.Karimov, K. Usmonova. «Adabiyot». 11-sinf. 2-qism Toshkent, 2018
12. B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. «Adabiyot». 10-sinf. 1-qism. Toshkent, 2017
13. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. «Adabiyot». 9-sinf. «O‘zbekiston» NMIU, Toshkent, 2019.
14. S.Olim, S.Ahmedov, R. Qo‘chqorov. «Adabiyot». 8-sinf. Toshkent, 2019.
15. Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. «Adabiyot» 7-sinf. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent, 2017.

ABDULLA ORIPOV IJODIGA BIR NAZAR

Abduhamidova Sayyora
ToshDO‘TAU 1-kurs talabasi
abduxamidovasayyora@gmail.com

Abdulla Oripov O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rnini chuqur egallagan ijodkorlardan biri. Mustaqillik davrida shoir Erk,Vatan,Ozodlikni tarannum etuvchi ko‘plab she’rlar yozdi. Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, uning yana bir xisslati haqida to‘xtalib o‘tmog‘imiz joizdir. Bu xislat shoir she’rlaridagibadiiyatdir. «Lirik poeziyani faqat muzika bilan solishtirish mumkin,» – degan edi V.G. Belinskiy. Yana u so‘z ma’nosi yo‘qolib, his va musiqiy sadoga aylanishi haqida ham ajoyib fikr aytgan. Poeziyani «his va musiqiy sadoga» aylantiruvchi omil, bu- she’rning badiiyatidir. Badiiyat – bu, go‘zallikdir, tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan she’riy tafakkur go‘zalligidir. «Go‘zallikning o‘zi muhim g‘oya. Bu go‘zallikni bo‘lib-bo‘lib tahlil etish daryodagi erkin baliqni tutib, pichoqda kesib, a’zolarini tekshirib, yana suvga qo‘yib yuborish bilan teng. Baliq faqat suvda yayragandagina odamning havasini keltiradi. To‘g‘ri, suvdagi baliqni tamosho qilishdan ko‘ra uni yeyishni afzal ko‘radigan odamlar ham oz emas. Bunday hissiz odamlar faqat san’at go‘zalligini emas, hayot go‘zalligini ham ko‘rmaydilar. To‘g‘risi, kun kechiradilar», – deb yozadi taniqli munaqqid Mahkam Mahmudov.

Uning falsafiy-didaktik she’rlari quyoshday porladi. Shoir ijodida fidoyi insonlarni quvonch-u shodliklari,tashvish-u g‘amlarini kuylash birinchi o‘rinda turadi. Bunga yorqin misol qilib shoirning «Ayol»she’rini olsak:

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu.
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u.

Bu she’rni shoir amakilarining bevalariga bag‘ishlab yozgan. Shoir «men ularni iztiroblarini ko‘rib,kuzatib ulg‘ayganman»- deydi. Bundan ko‘rinib turibdiki,

yosh kelinchaklarning endi baxtlarini topdim deganda,ularning boshiga qayg‘uli sinov tushadi, ular qahramon jangchini yillar davomida kutadi. Yosh kelinchaklarning murg‘ak qalblari o‘n to‘qqiz yoshida beva qolishi bu juda achinarli holat. Ularning yaralangan ko‘ngillari ustidan poymol bo‘lgan muhabbat,ular qanchalik istashmasin, yorlari ulardan yiroqda,ular uchun eng og‘ir bo‘lgan narsa bu sog‘inchlar ichida vafot etgan yorini sog‘inmoqlikdir.Chunki vafoli yorini qayta ko‘rmoqlikka umid ham o‘lgan bo‘ladi.

Ey nomard tabiat,bormu senda his,

Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmu unga

Yolg‘iz qolish qanchalar og‘irligini shoir bizga his qildira oldi,shoir shunchalar xohlayapdiki, jangchining sodiq bevasi uchun yana qaytadan baxt so‘raydi,buni so‘zlar bilan ta’riflash naqadar mushkul va ming afsuslar bo‘lsinki:

Sevgidan yetim-u umrdan yarim

Qurigan ko‘ksida yolg‘iz belanchak.

Yosh qizlar o‘z uylariga yuraklarining yarmi bo‘lgan ota-onalarini tashlab kelishgandi va yorlari bilan bir butunlikka erishganda ular sevgisidan ham yetim qoladi. Bu go‘dak bir qalb uchun juda ayanchli bo‘lgan bir og‘ir tuyg‘u unga har kim ham bardosh bera olmaydi va u firoqni abadiy visol deb biladi. Yosh kelinchaklarning matonatlariga tahsinlar aytsak arziydi. Shoir ularga hatto haykal ham qo‘yadi. «Abdulla qaysi bir temaga qo‘l urmasin, nima haqda she’r yozmasin, uning ko‘zi oldida Ulug‘ Vatan turadi, o‘sha ulug‘ Vatanning farzandi sifatida qo‘liga qalam oladi. Shu sababdan uning she’rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik», − deb yozadi Matyoqub Qo‘shjonov. Adabiyotimizda Abdulla Oripovning «Mitti yulduz»i porlaguncha muhabbat mavzusi eski ohanglarda, siyqa obrazu tashbehlarda kuylanar edi. Birovlar yorning qoshu ko‘zini maqtab ovora bo‘lsalar, ba’zilar bevafo yorga ta’na toshlarini otib charchamas edilar. Abdulla Oripov she’riyatidagi oshiq obrazi esa armonli muhabbatga duchor bo‘lib, bir umr «hayot barcha ne’matlarini ayamasa-da, muhabbat taqdiridan maqtanolmay» o‘tishga mahkumdir.

Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z yuritilar ekan, uning she’rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir. Shoir o‘z qalbini xalq qalbiga tarjima qiladi, tarjima uchun esa shubhasiz so‘z kerak. Bu so‘z esa xalqning o‘z so‘zi bo‘lmog‘i lozim. To‘g‘ri, hamma shoir ham o‘z ona tilida she’r yozadi. Lekin ayrim yo‘nalishdagi shoirlar borki, o‘zbek tilida o‘zbekcha bo‘lmagan she’rlar yozadilar. Ularning she’rini oddiy xalq tushunmaydi. Ularning lirik qahramoni butun dunyoga, XX asrga qarata falsafa so‘qiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdulla Oripov. Yuzma-yuz. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1978.

2.Abdulla Oripov. Yillar armoni. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1984.

3.Matyoqub Qo‘shjonov. Onajonim she’riyat. — «O‘qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1984.

4.Mahkam Mahmudov. Abadiyat lahzalari. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1981.

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA INDIVIDUAL JANRLAR

Gulchaman Yusupova Baxtiyor qizi
ToshDO‘TAU 1-kurs talabasi
qurbonovbekzod49@gmail.com

Istiqlol davrida o‘zbek she’riyati yangi bosqich ko‘tarildi va uning shakli va mazmuni modern tus ola boshladi. XX asr boshlaridan lirikada aruzdan barmoq she’riy tizimiga qadam qo‘yildi. Barmoq vazni - misralardagi bo‘g‘inlar miqdorining tengligiga asoslangan she’riy tizim turi.

Quy, do‘stim, tillarang sharobdan menga [11 bo‘g‘in]
Quygin, shonli ulfat ko‘rsatsin kuchin. [11 bo‘g‘in]
Ichay, otaginam, dehqon haqqiga, [11 bo‘g‘in]
Javdar xirmoniga sog‘ligi uchun. [11 bo‘g‘in] [Abdulla Oripov]

Vazn rivojida jadid namoyondalaridan Cho‘lpon, Fitrat va Hamza kabi ijodkorlarni misol qilsak bo‘ladi. Hatto Fitrat barmoqni «milliy vazn» deb atagan. Bunga asos nima edi? Ya’ni arablar istilosi davridan keyin adabiyotimizga yangi vazn aruz kirib kelgan esa-da,barmoq o‘zbek tili tabiatiga mosligi uning taraqqiyotini ta’minlagan omil bo‘ldi. Vazn 4 dan 16 bo‘g‘ingacha bo‘ladi. Lirikada janr tushunchasi ham mavjud bo‘lib. Janr, tur, xil terminlari o‘zaro bir chiziqda harakatlanadi. Barmoq vazni ham bevosita she’riy janr bilan birga lirikaning bir butunligini ta’minlaydi. She’riy janr haqida ko‘pgina olimlarimiz turli tadqiqotlar olib borgan. Masalan, T.Boboyev, I.Sulton, X.Umirovlardir, D.Quronov kabi ijodkorlar tadqiqot olib borishgan. Janr haqida Baxtin fikrlarini quyidagicha bayon etadi.»Janr hozir bilan biz yashaydi.Biroq hamma vaqt o‘zining o‘tmish ibtidosini yodda tutadi. Janr- ijodiy xotiraning adabiyot taraqqiyoti jarayonidagi vakilidir». Lirik janrlar mazmun jihatidan falsafiy,ishqiy hamda siyosiy ko‘rinishlarga bo‘linadi.she’riy janrlar asli qay ko‘rinishda? Ular-ruboiy, g‘azal, sonnet, xokku, tuyuq, nazira, badiha, chiston, qo‘shiq, alla,qayirma, uchchanoq, ignabarg, firqalar. Janr ajratishda shaklga e’tibor beriladi. O‘tgan davr janrlari qat’iy va doim bir xil bo‘lgan. Ya’ni janrlar bir xillik qolipidan erkinlikka chiqdi. Endi doimiylik qobig‘idan chiqqan holda ijodkorning o‘zi ham yangi janr yarata ololadi. «Hozirgi adabiyotda janrlardagi qat’iylik kamaydi. Shu mazmunda mumtoz adabiyotimizdagi(aruzda yaratilgan)lirik she’rlarning janr xususiyatlarini aniqlash hozirgi zamon poeziyasidagi (barmoqda yaratigan) lirik she’rlarning janr xususiyatlarini aniqlashga nisbatan oson va qulay» degan fikrlarni keltirilgan». Bunda olim I.Sulton «poetikjanrlar klassikada qat’iy norma va andozaga ega bo‘lgani hozirgi lirikada esa bu holat u qadar sezilmasligini» aytadi.

Lirik asarlar janrini belgilashda mazmunni ham asos qilishgan. Ammo bu qadimda bo‘lgan. Yangi she’riy janrni yaratish bu hamma ijodkor asarida yangilik qilib uni janrning yangi turi deb ayta olmaydi, albatta. Ular ham mavjud qoidalar bosqichidan o‘tadi. H.Olimjon she’riy shaklda yozilgan har qanday asarning she’rligini, undan so‘ng uni ma’lum bir janrga doirligini aniqlash mumkinligini

aytgan. I.Sulton esa she’rda har qanday vaqtda ham qolip bo‘lishini va shu omil she’rni belgilashini ta’kidlaydi. Agar poetik qolip sezilmasa janr yo‘qoladimi yoki yo‘q degan savol tug‘ilishi tabiiy.Unda janr qiyofasi qorishiq «sof janr talablaridan holi tarzda bo‘ladi. Agar masalani aniq oladigan bo‘lsak muammo nimada ?

Ikki tomonda ikki xil janr tizimining tafovuti mavjud ya’ni aruz va barmoqdir.

Aruz vaznida mumtoz adabiyot janrlari: ruboiy ,g‘azal ,musaddas, murabba, muashshar va h.k. Barmoq vaznidagi she’riy janrlar: doston, sonnet, qo‘shiq, aytishuv, alla.

Aruz vaznidagi mumtoz sherlar sodda tilda yozilganligi sabab o‘quvchi uni anglashiga hech qanday mushkulot tug‘dirmaydi. Davrning turli ijodkori bo‘ladimi yoki bir ijodkorning aruzda yozilgan turli janr namunalari bo‘ladimi hammasi janr qolipidan chiqmagan holda yozilgan.Barmoq esa yuqorida aytilganidek, mustaqillik davridan so‘ng lirikada yangi janrlar paydo bo‘ldi va bu mavjud janrlarning yanada kengayishi ayni barmoqda yozilgan she’rlarni tahlil qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaryapti. Bunga ayrim misollarni keltirsak,ular individual ijodiy ekspriment tarzida maydonga kelgan janrlar deb ataladi. Ya’ni qayirma, ignabarg, uchchanoq, fiqra. Bular o‘zi qanday janr?

Qayirma-nutqimizda obdon yetilgan ,tobiga kelgan narsa,ish,harakat,amal ma’nolarini anglatadi. Bu so‘zda pishiqlik,puxtalik ma’nolari bor. Azim Suyun butun boshli «Ey do‘st» she’riy kitobini qayirma janrida yozgan.Abdulla Oripov ham Azim Suyunning qayirmalariga alohida e’tibor berib ,mustaqil janr sifatida e’tirof etgan: «Biz ruboiy, tuyuq, fard degan janrlarni bilamiz. Menimcha, bularga qayirma ham alohida janr bo‘lib qo‘shiladi. Chunki A.Suyunning g‘ayrati va mehnati bilan qayirma ham alohida janr xususiyatiga ega bo‘ladi».

«Ey do‘st « bilan shoir to‘rtlikni (murabbani) qayta shakl va ma’no jihatidan yangiladi. «Ey do‘st « qayirmalari: [A.Suyun 2009: 181]

Ey do‘st!

Haq yo‘lin tartibin buzayotgan kim ?

Olam sirlar ipin uzayotgan kim?

Dilim menga dedi:-O‘zing-ku axir

Men dedim: -Men bo‘lsam tuzayotgan kim?

Ey do‘st!

Dunyo barcha uchun bir jadalgoh joy

Kimning joyi sahro, kimniki saroy

Do‘st bag‘ri meniki,unda bo‘lsa bas

Bir qadah may yoki bir payola choy

Usmon Azimning «Brut» qayirmasi

Padarimni Pompey o‘ldirdi.

Ko‘ksimda o‘ch tursa-da muzlab

Vatanimni suygani uchun

Men Pompeyga qilaman xizmat.

Ignabarg janri-faqat bir qatordan iborat she’r. Ushbu janrda Anvar Obidjon samarali ijod qilgan. Bu janr haqiqatda ham yangi janr, negaki buning mumtoz adabiyotda muqobili yo‘q.

Anvar Obidjonning ignabarg she’rlari:

Sharqda uxlab ,uyg‘onar g‘arbda .

Go‘rkovdan ham diplom so‘rar u.

Didsiz suluv -nonsiz ziyofat.

Romanlarin yozar ….ketmonda.

O‘g‘lidan qarz so‘rar sho‘rlik .

Inson o‘ldi tug‘ildi qabr .

Yoy o‘qtaldi tankka bolakay.

Uxlasa sal halol yashaydi.

Uchchanoqlar

Rahmat senga, ey burga

Qonim ichsang ham birga

Yurding og‘ir kunimda .

Xudo ma’yus ko‘zimda
Shayton yashar so‘zimda
Tilim juda do‘zaxi .

U- pahlavon, botir
Olar lek ko‘p xavotir
Miltig‘i bor jinnidan

Uchchanoq – nomida anglashilgandek uch misradan iborat she’r janri. U mumtozadabiyotdagi musallasdek uch misradir. A.Obidjon bu janrda she’rlar yaratgan va yuqoridagilar misol bo‘ladi.

Firqa arabcha» qism, bo‘lak» ma’nolarini anglatadi. Firqa-adabiy badiiy asardan olingan hikmatli so‘z, go‘zal parcha. Farida Afruz she’riyatida firqa alohida ahamiyatga ega. U firqalarni «Tashbih» kitobiga kiritgan.

Firqalar.

- Qashshoqlik
davlatdir
Nodonlikdan ko‘ra
- Sen unchalar badbaxt emassan
Tanimaysan
Baxtingni xolos

- Quyushqonga sig‘mas ijodkor
Sarhad uning o‘limi demak
Chegaradir unga qabriston.

- Yana to‘lg‘onish
Yana iztirob
Soat millari sayrab tolmaydi

Xulosa qiladigan bo‘lsak, individual janrlar ma’lum bir ijodkorning ijodiga va uslubiga xos janrlardir. Ulardagi mazmun chegara bilmaydi, shakli esa aruz vaznidagi fard, musallas, murabba’ kabi janrlarga yaqin. Bu hodisa o‘zbek she’riyatida janrlarning turg‘un emasligi va doim rivojlanib, sayqallanib borayotganidandir. Bunda insoniyatning dunyoqarashidagi o‘zgarishlar sabab bo‘lgan. Chunki endi she’riyat go‘zallikni tashqaridan emas, ichkaridan, inson botinidan izlay boshladi va bu o‘zbek she’riyatini mazmunan va shaklan o‘zgartirib yubordi. Biz bunday hodisalardan birini individual janrlar misolida ko‘rib o‘tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Fitrat.Tanlangan asarlar. IV jild. –T.:Ma’naviyat, 2006.
2.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
3. Azim Suyun. Ey do‘st. –T.:Yangi avlod, 2009.
4. Anvar Obidjon. Tanlangan she’rlar. –T.: Sharq, 2006.
5. Farida Afro‘z. O‘sha kun bugundir. Saylanma. 1-jild. –T.: Sharq, 2013.

TOHIR MALIKNING «NOMUS» ASARI TALQINIDA BADIIYLIK

Abdirashidova Dildora Ozod qizi
Alisher Navoiy nomidagi TOSHDO‘TAU
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. Z.Mirzayeva

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining muhim vakillaridan biri Tohir Malikning «Nomus» hikoyasi badiiy- estetik nuqtai nazaridan zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlaridan, jumladan ziddiyat asosida, qiyosiy tipologik aspektda tahlil qilnadi. Bundan tashqari maqolada asarning kompozitsiyasiga xos xususiyatlar, uning muallif konsepsiyasidagi o‘rni kabi jiahatlar haqida ham gap boradi.*

Kalit so‘zlar: *kompozitsiya, syujet elementlari, ramz, e’tiqod.*

Ma’lumki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchi bashariyatning ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tohir Malik asarlari zamon bilan hamnafas, u asarlarida hayotiy hikoyalar keltiradi.» Tiriklik suvi» kitobda o‘rin olgan»Nomus» hikoyasida, T.Malik asar kompozitsiyasini qahramonlarining harakatlari orqali ochib bera olgan, asarda badiiylik va falsafiylik bor. Chunki bu hikoya diniy va dunyoviy tomonlama juda boydir. Yozuvchi bu hikoyatni «Ota-ona va elning duosini olib yashayotgan singillarimga atadim» deb yozadi.

Tohir Malikning asarlarida falsafiylik, badiiylik yuqori o‘rinda turadi. Yozuvchining «Nomus» asari «badiiylik» cho‘qqisiga chiqqan asar desak mubog‘lag‘a bo‘lmaydi.Asarda shunday tariflanadi: «Bu qizni Alloh go‘zal bir suratda yaratmish edi. Bu chiroy egasini yuz shoir ko‘rsami edi, barchasi aqldan ozardi.» Bo‘lub jilvagar yuz tuman mozvash, vale jilva ichra sukun birla xash» deb bitilgan satrlar ham kamarvash yuzidan taraluvchi nur oldida so‘nib qolarmi edi... Qiz dunyoga kelib, qulog‘iga azon aytilar mahalda otasi «Mohinur» deb ism qo‘yib yanglishilmagan edi [Tohir Malik, 2019: 87].

Asar boshlanishidan «tugun» bilan boshlanib, «yechim» bilan tugaydi. Bu esa asarning mohiyatini oshirib, o‘quvchiga qiziqish uyg‘otadi. Yozuvchi hikoyasida ikki qahramonning hayotini, bir-biriga qarama qarshi qilib tasvirlaydi, ammo ikki qahramonning maqsadi bitta ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi bu orqali konfliktni yaqqol namoyon qila olgan. «Mo‘mina buvasining qo‘lida tarbiya topadi, judayam aqlli qiz bo‘lib voyaga yetadi, ammo uni o‘ziniki qilmoqchi bo‘lganlar ham topilardi. Shuning uchun, buvasi uni nihoyatda asrab avaylaydi va uni bir oddiy, kambag‘al yigitga turmushga beradi. Mo‘minaning turmush o‘rtog‘i juda yaxshi inson edi, ularning hayoti yaxshi edi. Ammo hayot har doim ham bir xil bo‘lavermas ekan. Mo‘minaning turmush o‘rtogi xaj safariga yo‘l oladi, Mo‘mina uyda qoladi. Mo‘minani erining ukasi unga birinchi, kelin bo‘lib kelgan kunidayoq unga oshiq edi. Akasi safarga ketganidan foydalanib Mo‘minaga tegajog‘lik qila boshlaydi, Mo‘mina esa o‘zini himoya qiladi. Mo‘minani visoliga yeta olmagach, unga bo‘g‘tonlar yog‘dirib, Mo‘minani nomussizlikka ayblaydi. Odamlar bu voqeadan keyin Mo‘minani toshburon qilishadi, ammo Mo‘minaning aybi yo‘qligini

bilgan Olloh taolo uni omon qoldiradi. Bu Mo‘mina uchun birinchi sinov edi. Mo‘mina nomusini asrab avaylash uchun ko‘plab qiyinchiliklarga chidashiga tog‘ri keladi. «Birinchi qahramoning hayotini yuqorida qisqacha keltirib o‘tdik, yozuvchining mahoratini -asarda keltirilgan qahramonlarning ismlari bilan ham bog‘lash mumkin. Bilamizki, islom dinida ism qo‘yish Ota-onaning muhim burchlaridan biri hisoblanadi.Shunga ko‘ra yozuvchi qahramonlarning ismlarini ham,ularning xatti-harakatlariga hamohang tarzda qo‘ya olgan. Mo‘minaning ismi qahramonga munosib tanlangan,sababi qahramonimiz islomiy oilada voyaga yetgan,buvasi ham Shayx bo‘lgan,shuningdek keyinchalik shu ismga munosib bo‘la oldi. Xaqiqiy mo‘min ayoli bo‘ldi.Adibning asaridagi har bir detal ramz bo‘la oladi.

Yozuvchi,ikkinchi qahramonini tasvirlashda estetik yondasha olgan. Ikkinchi qahramonini tasvirlash orqali asardagi «ziddiyat»ni ko‘rsata olgan.Asarda Mohinurning hayoti esa Mo‘minaning hayotini aksidir. Mohinur qizlik vaqtida nomusi yo‘lida, otasini nomusini asrash uchun o‘z nomusidan kechishga majbur bo‘ladi. Nomusi yo‘lida ko‘plab odamlarni joniga qasd qiladi. Ammo, keyinchalik taqdiriga tan berib, joniga qasd qilgan insonlar uchun xaj safari o‘taydi. Bularning bari nomusini asrash uchundir. Buni yaqqol dalilini shu sovlar bilan ifodalash mumkin. «Mohinur boshidan kechiran barcha voqealarni Shayxga bayon qilib bulgach, chuqur xo‘rsindi-yu, jimib qoldi. Ko‘p yillardan beri ezib kelayotgan dard yuki picha yengillashganday tuyuldi. Shayx esa eshitganlariga bir ishonib, bir ishonmay muttasil xolda turdi. Mohinur boshini ko‘tarishga, uning ko‘zlariga qarashga botina olmadi. Yanada past ovozda bayoniga yakun yasadi.

– O‘shandan beri har yili Kabatulloh sari otlanaman. Hozirga qadar yetovlon uchun xaj qldim. Agar umrim vafo qilar bo‘lsa, zimmamda yana to‘rt marta xaj qilish vazifasi turibti. Bayonimni eshitib, «makr va xiylada senga teng keladigan kishi aslo bo‘lmas», deb meni aybsitmoqqa xaqlisiz. Men esam, «bu yo‘lga meni nafsim chorlamadi, nomus kuchidan bu gunoh ishlarni qilmoqqa majbur edim», deb o‘zimni oqlamoqqa haqli emasdirman... Siz, muhtaram zotdan duo umididadurman, o‘shga ilinjim yo‘qdir...». Asarda yozuvchi ikki qahramonning hayotini bir-biriga

bog‘lay olgan, asar «tugun»bilan boshlanib «yechim» tugallanishi o‘quvchi uchun estetik zavq beradi. Tohir Malikning falsafiy yozuvchi ekanligiga yana bir bor amin bo‘lishingiz mumkin. «Tohir Malik o‘zbek adabyotida badiiy fantastika,sarguzasht janrlarining rivojiga Kattan hissa qo‘shdi. Yozuvchining ko‘plab asarlari million adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egalladi.

Xalqimiz tarixining eng og‘ir davrlarini badiiy yo‘l bilan tasvirlash va jamoatchilikda yetqazishda ham adib ibrat ko‘rsatdi», – deya keltirib o‘tgan edi, Xurshid Davron «Tohir Malik haqida muxtasar so‘z» maqolasida.

Yozuvchi hikoyada ikki qahramonning taqdirini qiyosiy-tipologik yo‘l bilan ochib bera olgan. Voqealar rivojida, Mo‘mina nomusi yo‘lida hech kimga zarracha ham zarar yetkazmadi, o‘z kuchi bilan hamma narsani yengadi va oxirida baxtli hayotga erishadi. Mohinur esa nomusini oqlash uchun ko‘plab insonlarni ayanchli yo‘l bilan bo‘lsada hayotiga zomin bo‘ladi. Tohir Malik ushbu asarida zamonning ruxini aks etiradi Hozirgi kunda o‘z nomusini pullaydiganlar ham oramizda topiladi. Ammo hikoyamizning bosh qahramonlari esa buning aksidir. Ular nomuslarini asrash uchun ko‘plab qiyinchiliklarni boshdan o‘tqazdilar. Adabiyotimizga bunday asarlarning yaratilishi bizning yutug‘imizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tohir Malik. Tiriklik suvi. –T.: Davr press, 2019.
2. www.kh-davron.uz

G‘AFUR G‘ULOM IJODI VA SHE’RIYATINING BADIIY TAHLILI

Baxtiyorova Zarnigor
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
2-kurs talabasi

Annotasiya

Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi haqida so‘z yuritamiz. Ijodkorning she’rlarini umumiy tahlil qilamiz va undagi she’riy san’atlarni topamiz. G‘oyaviy bir xil she’rlarining o‘xshash va farqli tomonlarini o‘rganamiz.

Tayanch so‘zlar: *Mazmunli va mashaqqatli hayot yo‘li, sermahsul ijod, vaqt va sog‘inch kuylangan jumlalar, sabrli otalar timsoli aks etgan jumlalar.*

G‘afur G‘ulom o‘zbek adabiyotining zabardast vakili, uning hayot yo‘liga ibratga loyiq. 1903-yil Toshkent shahridagi oddiy bir dehqon oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi oddiy qora xalq kishisi bo‘lishiga qaramay ancha savodli , adabiyotga ihlosmand , rus tili yaxshi biladigan va ora-orada o‘zi ham she’rlar yozib turadigan ma’rifatli insonlardan biri bo‘lgan. Uning uyiga Muqumiy, Furqat, Asiriy, Xislat kabi shoirlar kelib turgan. Shu muhit yosh G‘ofurni adabiyotga bo‘lgan mehrini kundan kunga ortishiga turtki bo‘lgan. Ammo otasi hayotdan erta ko‘z yumadi . Mirza Orif otaning o‘limi 9 yoshli ijodkorning bo‘yniga juda ko‘p mas’ulyatni yuklaydi. Oradan 6 yil o‘tib yagona suyanchiq onasining ham vafoti G‘afur G‘ulomni uka-singillarning yagona suyamchig‘I qilib qo‘yadi. Shu davrda G‘ofurning «qilmagan xizmati, tutunmagan ishi» qolmaydi. Yosh adib oila boqish uchun kosiblik, aravakashlik, hattoki, bosmaxonada harf teruvchilik kabi ishlarda o‘zini sinab ko‘radi. Hayoti qiyinchilik va o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarda o‘tgan bo‘lsa ham bir zum ilm olishdan cheklanmagan. Rus-tuzem maktabida, kryinchalik muallimlar tayyorlaydigan maktabda o‘qiydi. So‘ng o‘zini journalistlik va o‘qtuvchilik sohalarida sinab ko‘radi. Yuqorida aytib o‘tkanimizdek ijodkor yoshligidan yetim qolgan va o‘sha davrda butun bir insoniyatning balosi bo‘lgan va minglab insonlarni yostig‘ini qurutgan 1-jahon urushi shoir ijodiga tushkunlik motivlari kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Mana shunday og‘ir kunlarni yosh G‘ofur o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani va yuragining tubuga ta’siri tufayli uning qalbida insonparvarlik va yetimparvarlik hislari juda erta kurtak yozadi. Shoirning o‘zi aytishicha, uning dastkabki she’r mashqlari ayanan yetim bolalarga va ualrning hayoti haqida bitilgan.

O‘z ijodini she’rdan boshlagan adib keyinchalik kata-katta janrlarga qo‘l ura boshlaydi. «Kambag‘al dehqon», «Sharq haqiqati» , kabi gazetalarda , «Mushtum» jurnalida ko‘plab maqollalari, feleyton va hikoyalari dunyo yuzuni ko‘radi. G‘afur G‘ulom 45 yillik ijodi davomida kitobxonlar dilidan o‘rin oladigan asarlar yozib qolishga ulgurdi. Adib ko‘plab she’rlar, dostonlar yozdi. Sho‘ro siyosati va turli xil siyosiy zulmlar ostida ham xalqni yuksak ko‘tarinki ruhda yashashga va mehnat

qilishga undadi. Shoir 1930-1935 –yillar «Ko‘kan» , dostinini va «To‘y» , «Ikki vasiqa’’ balladalarini yaratadi. Ammo har doim ijod bor joyda tanqid va tahlillar ham mavjud bo‘ladi. Masalan , «Ko‘kan» dostoni hozirgi davr talablariga mos emas deb ancha yillardan buyon tanqidga uchrab kelmoqda. Sababi, ushbu asarda bosgdab oyoq jamoalashtirish siyosati maqtalgan va maqtalganligi bilan bir qatorda siyosiy zulm- fojealar realistik ifodalanmagan . shu sababli, haligacha ijodkorning shu asariga nisbatan fikrlar biroz salbiyligicha qolmoqda.

Adibni butun xalqqa ma’lum va mashhur qilgan asari «Shum bola’’ qissasidir. 1936-yil dunyo yuzuni ko‘rgan ushbu asar 60-yillar qayta nashr qilinadi. Said Ahmad ushbu asarni «Mushtum» jurnalining har bir sonida bosib chiqarilishiga mas’ul bo‘lgan . ijod shinavandalari har bir sonini chiqiqshini intiqlik bilan kutilgan. «G‘ofur akani yozuv stoliga o‘tkazish qiyin edi. Ammo she’r yozsa yoki hikoya bitsa qiziqib ketardi va ijodga butunlay sho‘ng‘ib ketardi. Shu jumladan «Shum bola» asari ham boshlanishi biroz og‘ir keldi ammo qiziq zavq bilan yakunlandi».[114]

Ushbu asar «Ko‘kan» poemasidan farqli ravishda kirlangan va chirkin hayot boricha ochiq-oydin aks ettirilgan. Ko‘sa maddoh obrazidan tortib uyini bangixonaga aylantirgan muloyim bir Hoji buva obrazlari yaqqol tasvirlangan.

Umr g‘animat, vaqt o‘tkinchi har bir lahza oltinga tengdir. Shoir shunday bir go‘zal jumlalar bilan aks ettirib beradi:

Yashash soatining oltin kapkiri
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o‘z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Ushbu parcha hayotning juda tez yeldek o‘tib ketishi haqida kuylaydi. Soat bir marta aylanib kelguncha koinot o‘z qudrati bilan yangi bir umr yaratishga qodir. Soatni qimmat metalga qiyoslab «oltin kapkir» deb nomlash tashbeh san’atini yuzaga keltiradi. Bu dunyo o‘tkinchi hammamiz kelib kutguvchimiz. Umar Xayyom

[114] Said Ahmad. Tanlangan asrlar. III jildlik. III jild.-T.: “Sharq”, 2000. 40-45-betlar

bitganidek, «Biz kelib ketguvchi to‘garak jahon, na boshi bordir, na so‘ngi a’yon». Boylik va mol-dunyo o‘tkinchidir. Inson faqatgina o‘zidan yaxshi nom qoldira olishi mumkin. G‘afur G‘ulom nomni abadiy qoldirish uchun hammaga zo‘rligingni isbotlashing shart emas deb ta’kidlaydi:

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma’budin yoqmoq shart emas.
Ko‘plarning baxtiga o‘zlikni jamlab
Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas.

Tarixdan bizga ma’lumki Gerostrat o‘zini zo‘rligini isbotlash uchun Diana ma’budini yoqib yuboradi. Ushbu jumlalarda tarixiy shaxs nomlarini keltirib talmeh san’atidan foydalangan. Shuni aytib o‘tish kerak, «Vaqt» she’ri adibga soat sovg‘a qilgan jiyani mayor Hamidulla Husayn o‘g‘liga bag‘ishlangan. G‘afur G‘ulomni nazmda vatan, tinchlik va do‘stlik, mehr-muhabbatning otashin kuychusi edi. «Sen yetim emassan» she’rida yurtiga bo‘lgan mehrini shunday ta’riflaydi:

Hamma o‘rganganimdan yaxlit xulosa
O‘z yurtim yerida ungan har maysa
Begona yurtlarning gulidan afzal.

Shoir milliy g‘ururni va xalq fazillatlarini kuylashga ko‘proq e’tibor qaratadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek, G‘afur G‘ulom dunyoga ajal solgan birinchi va ikkinchi jahon urushi davrlaridan yashab o‘tgan. Urush uning boshiga ham bir qancha kulfatlar solib o‘tgan. Jigarbandining urush paytida jon kechib vatan uchun jang qilib yurganlari va otaning farzandga bo‘lgan mehri va sog‘inchi «Sog‘inish» she’rida tasvirlangan. Ushbu she’rda « o‘zbek otasi» degan iborani o‘z talqin qiladi. «Ne qilsa otaman, meros hissiyot» jumlasi oraqli faqat farzandga nisbatan jonkuyarlik qilish «o‘zbek onasi»ga xos emas, kun –u tun ko‘chada tirikchilik ko‘yida yonib-kuyib yurgan otalarga ham mehr tushunchasi meros ekanligini isotlaydi. Yolg‘iz o‘g‘li Jo‘raxonning o‘zga yurtlarda, vatan himoyasida qay ahvolda yurgani haqida o‘y-tushunchalar adibni hech qachon tark etmagan. Otaning

sog‘inchi shunchalik kuchliki, u har bir narsadan umidlanadi, najot so‘rab hattoki quyoshga ham topinadi:

Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

G‘afur G‘ulom nafaqat yaxshi ijodkor adib, shu bilan bir qatorda dardkash , mehribon ota hamdir. Buni isbotini quydagi jumlalar orqali bilishimiz mumkin:

O‘rog‘-u gulqaychi, istak ko‘tarib
Hovurimni bosishga boqqa jo‘nadim
Hasharchi qo‘shni qiz-uning sevgani
Ma’yus bosar edi orqamdan odim.

Ota sifatida dardkash va og‘li bilan sirdosh ekanini bilish mumkin. Hasharchi o‘sha qiz uning sevgani ekanini bilgan. O‘roq, gulqaychi,istak nomlarini sanash oraqli tanosub san’atini yuzaga keltirgan. G‘afur G‘ulomning ijodkor sifatida yutug‘i shundaki, har bir asarining so‘ngi umidbaxsh sadolar bilan yakulanadi. Shu sababli asarlari o‘quvchi qalbida kelajakka bo‘lgan umidlarni jonlantiradi.

Shoir Matnazar Abdulhakim suhbatlarining birida G‘afur G‘ulomga shunday ta’rif beradi: «She’r shoirning yuragi yetib, aqli yetmagan nuqtalardan boshlanadi». Shoirning ilk she’ri ushbu ta’rifga yaqqol misol bo‘ladi. Dastlabki she’rining nomi «Go‘zallik nimada» deb nomlangan. Ushbu she’rida muallif go‘zallik tushunchasini zamon ko‘zgusi sifatida anglashga harakat qilib, uni ijtimoiy hayot bag‘ridan qidiradi. She’rda «Xalq manfaati yo‘lidagi mehnat hamisha go‘zaldir, san’at – faqat xalq uchundir» degan fikrlarni ilgari suradi. Shoir go‘zallik deganda doimiy tushunchalarimiz xato ekanligini, tashqi go‘zallik o‘tkinchiligini insoniyatga tushuntirishga harakat qiladi. Haqiqiy go‘zallik mohiyatini anglatishga urunadi:

Go‘zallik –ishlayish
Manglayni terlatish
Go‘zaldir unga ish
Maqtansa yarashar!

G‘afur G‘ulom hayoti juda mazmunli va sermahsul ijod bilan o‘tgan. Ijodkorning o‘zi ta’kidlaganidek, ijod u uchun hayotining ajralmas bir qismi bo‘lgan. Asarlarining so‘ngida kelajakka bo‘lgan ishon ufurib turadi. Har qanday qiyinchiliklarda ham tushkunlikka tushmaydigan shaxs sifatida barcha insonlarga o‘rnak bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

“AZAL NAQQOSHI TARH AYLARDA…”

Abdukamol Abdujalilov,
Tosh DO‘TAU magistranti
a.abdumutalovich@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alishe Navoiyning taqdir masalalari qalamga olingan birgina g‘azali tadqiq etilgan. Unda shoirning so‘z qo‘llashdagi mahorati, badiiy san’atlardan mukammal darajada foydalana olishi va inson va olam, ishq-muhabbat haqidagi qarashlari ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *“Xazoyin ul ma’oniy” kulliyoti, g‘azal, taqdir masalasi, she’riy san’atlar, to‘rt unsur, tasavvufiy qarashlar.*

Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning hayot yo‘llari va amalga oshirgan ishlari barchamiz uchun ibratdir. Hazrat kishi boshiga kelguvchi har qanday yaxshiligu yomonlik taqdirdan ekaniga, banda bu o‘tkinchi dunyoda amali va niyatiga yarasha yashab o‘tishi va shunga mos holda nasiba olishiga qalban ishonganlar va o‘z asarlariga shu fikrni singdirganlar. Bu borada har birimiz hazratdan ulgi olsak arziydi.

Alisher Navoiyning qazo va qadar haqidagi qarashlari aks etgan nazmiy va nasriy asarlari bisyor. Jumladan, “Qoshi yosinmu deyin”, “Jong‘a chun dermen”, “Qaro ko‘zim” kabi g‘azallarida ham oshiqlik bandaga Haqdan in’om etilishi, bunday ulug‘ ne’mat har qanday kishiga-da nasib etmasligi uqdiriladi.

“Xazoyin ul maoniy” kulliyotining birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar”da 489 raqam ostida keluvchi g‘azal ham yuqoridagi kabi mavzu bilan hamohang. “Azal naqqoshi tarh aylarda…” deb shartli nomlaganimiz ushbu she’rda ulug‘ shoir hayotda mavjud bo‘lgan turli g‘aroyib hodisalarning barchasini qazoi qadar

tushunchasiga go‘zal tarzda bog‘laydi. Dunyodagi jamiki odamzod, hayvonot, nabotot va jamododning asl holati va evrilishlarini Yagona, mutlaq qudrat sohibi bo‘lgan Allohdan deb biladi.

Jumladan, g‘azalning birinchi bayti quyidagicha:

Azal naqqoshi tarh aylarda gul bargi namudorin,

Magar pargor qildi bulbuli sargashta minqorin.

Dastlab baytdagi ma’nosi biroz murakkab bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini aniqlab olsak:

1. Azal – avvalgi, boshlanishi bo‘lmagan, ya’ni doimo mavjud.
2. Tarh aylamoq – loyihasini chizmoq, rejasini tuzmoq.
3. Namudor – ko‘rinish, shakl.
4. Magar – balki, shekilli, -mikan (taxminni ifodalovchi modal so‘z).
5. Pargor – aylana chizuvchi asbob, sirkul.
6. Sargashta – boshi aylangan, sargardon.
7. Minqor – qushning tumshug‘i.

Ushbu so‘zlardan foydalanib baytning nasriy bayonini quyidagicha ifodalash mumkin:

“Hamma narsaning ilk Naqqoshi gul bargining shaklini chizayotganda, ehtimol sargardon bulbulning tumshug‘ini sirkul qilgandir”.

Azal sifati berilayotgan eng birinchi Naqqosh kim? Albatta, bu barcha narsalarning yaratguvchisi bo‘lgan Zot. Alisher Navoiy birinchi baytda o‘zi va o‘quvchiga murojaat qiladi. “Gul shaklining yaratilishida Alloh taolo bulbul tumshug‘idan foydalangan bo‘lsa kerak, aks holda bu qush gulning ishqida bunchalar fig‘on chekmagan, atrofida girdikapalak bo‘lmagan bo‘lardi”, demoqchi.

Shoir bu o‘rinda shakliy va holat o‘xshashligiga urg‘u beradi. Ya’ni gul bargi va bulbul tumshug‘ining shakli o‘zaro o‘xshash, qolaversa bulbulning aynan gul atrofida parvona ekanligi uning tumshug‘i bilan bog‘liq. Ma’lumki, sirkul (pargor)ning bir uchi markazdagi qo‘zg‘almas nuqtada bo‘ladi, ikkinchi uchi esa, aynan shu nuqta atrofida aylana hosil qiladi. Naqqosh bulbul tumshug‘idan sirkul

o‘rnida foydalangani uchun ham bulbul gul atrofida aylanadi. Buni chuqur anglagan shoir bu shakliy va holat o‘xshashliklarini mohirona dalillab, husni ta’lil san’atini yaratadi. Bulbul tumshug‘ining sirkulga, gul bargining shakliga o‘xshatilishi o‘z navbatida tashbeh san’atini vujudga keltiradi. Gul, barg, bulbul, minqor kabi bir-birini taqozo etuvchi tushunchalarning bir o‘rinda qo‘llanganligi tanosub san’atidir.

G‘azalning birinchi baytida “magar” modal fe’li yordamida o‘z fikriga taxmin ma’nosini yuklagan shoir, ikkinchi baytda taqdir masalasida deyarli ikkilanmay so‘z yuritadi:

Qazo mashshotasi parvonalar jismi kuli birla

Hamonokim, yorutdi shamning mir’oti ruxsorin.

Bu baytdagi tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar quyidagilar:

1. Qazo – taqdir; tasodif, kutilmagan ish; (bu yerda o‘lim ma’nosida).
2. Mashshota – pardozchi, oro beruvchi.
3. Mir’ot – ko‘zgu, oyna.

Baytning nasriy bayoni tubandagicha:

“Hattoki o‘limni ham go‘zal qilguvchi Zot parvonalarning yongan jismini shamning chehrasi uchun ko‘zgu qildi”.

Yonib turgan shamning nuriga parvonaning intilishi, oxir oqibat uning taftida kuyib kulga aylanishi hayotiy hodisa. Ko‘plab shoirlarimiz bu holatni o‘z ijodida tilga olgan, parvonaning oshiqqa, shamning yorga o‘xshatilishi keng qo‘llanilgan.

Alisher Navoiy buning sababini o‘quvchiga boshqacharoq yo‘sinda anglatadi. Ya’ni parvonaning shamga tinimsiz intilishi bejiz emas. Agar biz parvonani qism, shamni butun deb qarasak, qismning butunga intilishi tabiiy holat ekani ayonlashadi. Ilmda Alloh olamni O‘z jamoliga ko‘zgu sifatida yaratdi, degan tushuncha mavjud. Demak, bu o‘rinda Alloh Butun, qolgan jamiki narsalar qismlardir. Qismlar bir paytning o‘zida ham Butunga qarab intiladi ham Unga ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi. Bu holatda esa o‘lim parvona uchun o‘sha onda eng go‘zal narsa bo‘lib ko‘rinadi. Shoir baytda parvona va shamning holatlarini yuqoridagi kabi tushunchaning kichik

ko‘rinishi sifatida gavdalantiradi. Mashshota, ko‘zgu, parvona, sham so‘zlarining bir yerda kelishi bu baytda ham tanosubni keltirib chiqaradi.

Uchinchi baytda shoir Navoiy o‘z fikrini kuchaytirib ikkinchi shaxsga bilvosita murojaat qiladi:

Degin, Majnun qaro jonining uzgan rishtasidindur
Ki, sun’ ilgi mutarro qildi Laylo zulfi zunnorin.

Oldin quyidagi so‘zlarning ma’nosini aniqlashtirib olsak:

1. Rishta – ip, arqon, bog‘lab turuvchi narsa.
2. Sun’ – yaratish, qudrat.
3. Ilig – qo‘l.
4. Mutarro – taralgan, jilo berilgan.

5. Zunnor – musulmon yurtlarda xristian va yahudiylarning majburan bog‘lab yuradigan belbog‘i, chilvir.

Yuqoridagi baytning nasriy bayoni:

“Har narsani san’at darajasida yaratuvchi qo‘l tarab, jilo bergan Layloning zunnordek sochi Majnun qora jonining uzilgan ipidan, degin”.

Demak, Laylo yor sochining qoraligi, ismining Laylo ekani, Majnunning joni ham qora ekanligida ramziylik mavjud. Olloh bu ikki oshiq-ma’shuq hali tug‘ilmaslaridan ilgari ularning taqdirlarini o‘zaro bog‘lab qo‘ygan. Alisher Navoiy bu baytda Laylo sochini zunnorga qiyoslaydi. O‘rta asrlarda musulmon mamlakatlarida istiqomat qiluvchi yahudiy yoki nasroniylar boshqalardan ajralib turishlari uchun beliga belbog‘ bog‘lab yurishga majbur qilinardi. Mana shu belbog‘ “zunnor” deb atalgan. Tasavvufda bu so‘zning bir qancha ma’nolari bor. Ishq yo‘liga qadam qo‘ygan oshiq bu yo‘lda toyib ketmasligi uchun belini mahkam bog‘laydi. Layloning sochi bo‘lsa Majnunga bu yo‘lda ko‘mak berguvchi belbog‘ kabi.

Baytda qo‘llangan yana bir birikma “Sun’ ilgi”dir. Lug‘atda “sun’” so‘zining qudrat, san’at kabi ma’nolari bor. “Ilig” turkiycha so‘z bo‘lib, qo‘l ma’nosida kelmoqda. Agar biror narsa yuksak mahorat bilan yaratilsa, uning yaratuvchisiga

nisbatan san’atkor deyiladi. Agar san’atkorning barcha yaratiqlari benuqson va go‘zal bo‘lsa, ishtiboh yo‘qki, U Ollohdir. Aqida kitoblarida, xususan, So‘fi Olloyorning “Maslak ul-muttaqin” asarida shunday keladi: “Xudoning sakkiz sifati bor. Uchinchisi – Hayot, ya’ni tirik demak. Ammo tirikligi tan va jon birla emasdur va har nimaki xalq (maxluq)da bor, Anda yo‘qdur”.

Yuqoridagi gapdan ma’lum bo‘lyaptiki, Olloh taoloning “Hayot” sifati bo‘lsa-da, Uning hayotligi insonlar kabi tana va jonga asoslanmagan. Hech bir maxluqotning shakli Xoliqda takrorlangan emas. Shunday ekan, hazrat Navoiy nazarda tutgan “Sun’ ilgi” tom ma’nodagi inson qo‘lini anglatmaydi.

Shuningdek, Alisher Navoiy ayni baytda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni mohirona ishlatgan. Bular Laylo va qora jon; jon rishtasi, zulf va zunnor so‘zlaridir. Ularning bir bayt tarkibida mujassamlashgani yana tanosub san’atini yuzaga chiqargan. Shu bilan bir qatorda Layli va Majnun so‘zlari talmeh san’atini hosil qilgan.

Magar Farhod jonidin sizib qonidin etti rang
Qadar suvratgari Shirin labi la’li shakarborin.

Baytda kelgan quyidagi ikki so‘zning ma’nosiga to‘xtalsak:

1. Qadar – taqdir, yoziq.
2. Shakarbor – shakar yog‘dirguvchi, shakarli.

Baytning nasriy bayoni shunday:

“Balki Taqdir musavviri Shirinning shakarli, la’li labini chizish uchun Farhod jonidan sizib chiqqan qonni rang sifatida ishlatgandir, ehtimol”.

Parvardigorning Musavvir degan sifati bor. Bu o‘n sakkiz ming olamdagi barcha narsalarning shakl-u shamoilini, rangu fe’l-atvorini belgilab bergan ma’nosidadir.

Baytdan shu narsa anglashilyaptiki, har narsaning qadarini olamlar yaralishidan ellik ming yil oldin “chizib” qo‘ygan Zot Farhodning shirin jonidan sizib chiqqan qonni Shirinning shakar sochuvchi labini chizayotgan paytda rang

qilib ishlatgan. Labning la’l kabi qizilligi qondan, shakar sochishi va shirinligi jondandir.

Shoir baytda Farhod, Shirin, jon, qon so‘zlari orqali tanosub va talmeh san’atlarini yaratadi.

Nihoyat oshiq shuncha tayyorgarlikdan keyin ma’shuqaga bevosita murojaat qilishga kuch topadi:

Tarozi bargi gul, ip rishtayi jon, tosh la’l etti
Chekarda xozini hikmat labing yoquti miqdorin.

Ma’nosi murakkabroq so‘zlar quyidagilar:

1. Chekmoq – o‘lchamoq, tortib ko‘rmoq *(bu o‘rinda).*
2. Xozini hikmat – jamiki hikmatlarning xazinadori.
3. Shakarbor – shakar yog‘diruvchi, shakarli.

Nasriy bayonni tubandagicha berish mumkin:

“Hikmatlar xazinadori labingdagi yoqut miqdorini o‘lchayotganda gul yaprog‘idan palla, jon rishtasidan ip, la’ldan qadoq tosh sifatida foydalangan”.

Dunyoda mavjud narsalarning hikmati faqat Yaratganga ayon. Bu hikmatlarning xazinadori ham Uning o‘zi. Ketma-ket kelgan ikki baytda lab timsolining berilishi bejiz emas, albatta. Tasavvuf ilmida lab ilohiy ishqdan bahra olish, ishq sharobidan totish, abadiy hayotga erishish kabi ma’nolarni bildiradi. Ishq yo‘lidagi bu xazinalarga yetmoqning o‘zi dushvor ish. Chin oshiq esa doimo shunga intiladi, uning hayotdagi eng katta maqsadi ham shu. Shuning uchun ham u yorining har qanday istagini hech ikkilanmay bajarishga tayyor. Keyingi ikki baytda buning isbotini ko‘ramiz:

Qarog‘larim emastur, balki topqach ko‘zga qoqmishmen,
Itardin vahm etib, raxshing sitomin balki mismorin.

Baytdagi ma’nosi qiyinroq so‘zlar quyidagilar:

1. Itmoq – ketib qolmoq, yo‘qolmoq.
2. Raxsh – tez yuguruvchi ot, tulpor.
3. Sitom – otning egar-jabduqlari.

4. Mismor – mix, pona.

Yuqoridagi so‘zlardan foydalanib baytning nasriy bayonini beramiz:

“Ko‘zlarimdagi qorachiqlar emas, balki tulporing ketib qolishidan qo‘rqib, uning egar jabdug‘larini, yo‘q-yo‘q, ponasini ko‘zimga qoqib qo‘ydim”.

Oshiq ma’shuqaning tulporiga minib ketib qolishidan bezovta. Shuning uchun u otning oyog‘iga qoqilguvchi mixini ko‘zlariga qoqib qo‘ygan, toki ot biror yerga ketib qolmasin.

Baytda ot, egar-jabduq, pona kabi so‘zlar tanosub san’atini hosil qilgan. Ponani ko‘zga qoqish esa mubolag‘ani yuzaga chiqaradi.

Yettinchi baytda oshiq yana bir jasorat ko‘rsatishga qaror qiladi:

Ayog‘ing kiprigimdin og‘rigan bo‘lsa, yorib ko‘ksum
Issiq qonimg‘a qo‘ykim, ul hino-o‘q, cheksun ozorin.

Ushbu baytda ma’nosi murakkab so‘zlar deyarli yo‘q. Faqat – o‘q yuklamasi bugungi kun o‘quvchisi uchun biroz tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Bu yuklamaning ishlatilishi qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Uning *darhol, tezda, shu zahoti* kabi ma’nolari bor. Turkiy tilda ijod qilgan ko‘pgina shoirlar – Lutfiy, Navoiy, Bobur undan o‘z ijodlarida samarali foydalanishgan. Bugungi kunga kelib iste’moldan chiqib ketgan.

Nasriy bayon quyidagicha:

“Agar oyoqlaring kiprigimdan ozor topgan bo‘lsa, ko‘ksimni yor. Oyoqlaringni issiq qonimga boskim, toki qon ularga xino kabi ta’sir etib shu ondayoq og‘rig‘ini olsin”.

Oshiq yorning yo‘liga kipriklarini to‘shagan, biroq ma’shuqaning oyoqlari shu qadar nozikki, kipriklar ularga tikan kabi botishi mumkin. Mana shundan xavotirga tushgan oshiq ma’shuqaga ko‘ksini yorishni va undan chiqayotgan issiq qonga oyoqlarini bosishni taklif etmoqda. Xinoning faqat chiroy bag‘ishlovchi vosita bo‘lib qolmay, og‘riqni ham bartaraf etish xususiyatiga egaligi o‘quvchiga ma’lum.

Bu yerda oyoq va kiprik so‘zlarining bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi bilan shoir ta’zod san’atini yaratadi.

Navbatdagi sakkizinchi bayt maqtadan oldingi bayt bo‘lib, unda shoir yuqorida tadrijiylik asosida yuritib kelayotgan fikrlarini avj pardaga ko‘taradi:

Xarobat ahli uru dog‘, derkim, kuyduring soqiy,
Davo yo‘q sirmabon qochmoqdin o‘zga shayx dastorin.

Birinchi galda ayrim so‘zlarning ma’nosiga to‘xtalsak:

1. Xarobat ahli – mayxona kishilari, vayrona joy odamlari.
2. Ur – yalang‘och, kiyimsiz.
3. Dog‘ – juda qiynalgan, kuygan; yonib-kuygan.
4. Soqiy – may quyuvchi.
5. Sirmamoq – yulib olmoq, tortib olmoq.
6. Dastor – boshga o‘raluvchi mato, salla; taqvodorlik belgisi *(bu yerda).*

Baytning zohiriy bayoni tubandagicha:

“Xarobat kishilari ishqdan kuyib kul bo‘lishdi, shunda ham soqiyga yana va yana kuydiring, deydi. Endi hattoki shayx bo‘lsa ham uning dastorini olib qochishdan o‘zga chora yo‘q”.

Xarobat, soqiy, shayx, dastor kabi so‘zlarning tasavvufiy ma’nolaridan bexabar o‘quvchi bu baytda shoir nima demoqchi bo‘lganini anglashga qiynaladi. Chunki bu so‘zlarni zohiriy ma’noda tushunish chalkashlikka olib kelishi mumkin.

Qadimda bu foniy dunyoning yolg‘onlaridan voz kechib, o‘zini oxirat ishlariga bag‘ishlagan kishilar bir yerga yig‘ilib ilohiy ishqdan, haqiqiy va abadiy dunyodan suhbat qurganlar. Ularga bu yo‘lda murshidlar, ya’ni ustozlar yo‘lboshchilik qilgan. Bunday kishilar nafsiy g‘am-tashvishlardan yuz o‘girishgan. Bu kabi hodisalar adabiyotga ham ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Biroq ular adabiyotga biroz ramziylik asosida o‘zlashgan.

Buni yuqoridagi baytdan ham anglash mumkin. Undagi *xarobot* ishq yo‘liga qadam qo‘yganlarning yig‘ilguvchi joyi, *soqiy* esa ularga ilohiy ishqdan ta’lim berguvchi murshid. Ilohiy ishqdan kuyganlar shu darajaga yetganki, edi ular uchun

bu yo‘lda shohu gado bir. Ular ishq mayini ichish uchun barcha narsasini sotib, yalang‘och holda qolgan. Bunday qarasa, faqat shayxninggina boshda dastori bor. Bular esa shuni ham sotsayu may olib ichishsa...

Ulug‘ shoir g‘azalning maqtasida yana taqdir masalasiga ko‘chadi va o‘zining hukm o‘rnidagi so‘ngi xulosasini bayon qiladi:

Magar bo‘ldi quyun tufrog‘ ila yel, may, su birla o‘t
Yasarda masti sargardon Navoiy xilqati zorin.

Maqtadagi anglash qiyin bo‘lgan so‘zlar:

1. Sargardon – kezib yuruvchi, sarson bo‘lgan.
2. Xilqat – yaratiq, yaratilish.

Nasriy bayonni quyidagicha ifodalash mumkin:

“*Xoliq Navoiyning zor va sargardon xilqatini yaratayotganda tuproq bilan shamol quyunni, suv bilan olov mayni hosil qilgan, shekilli”.*

Ilmda bu dunyodagi barcha narsaning asosida to‘rt unsur yotadi deb uqdiriladi. Bular: tuproq, havo, suv va olov. Har bir yaratiqning tarkibida bu unsurlar mavjud. Qaysi birining ko‘p yoki kam ekaniga qarab inson fe’l-atvorini belgilash mumkin. Agar kishi tanasida olov ko‘p bo‘lsa, u tez, jahldor, ehtirosli bo‘ladi. Agar suvning miqdori ko‘p bo‘lsa, u kishi sokin va bosiq fe’lga ega bo‘ladi.

Hazrat Alisher Navoiy esa bu kabi tushunchalardan foydalangan holda ajoyib fikrni izhor qilmoqda. Ya’ni Parvardigor shoirning vujud va ruhini payvandlar ekan, tuproq va havoni bir-biriga qo‘shilib quyun bo‘lishini, suv va olov birlashib mayga aylanishini iroda etgan. Shu sabab ham oshiq bir umr sargardon va mast. Chunki bu uning taqdiriga azaldan bitilgan.

Yuqoridagi g‘azalni tahlil qilish jarayonida shu narsaga yana bir bor amin bo‘ldikki, ulug‘ shoirning she’rlardagi badiiyat juda yuqori. Har bir g‘azal fasohat va balog‘at ilmiga to‘lgan qalb xazinasidan in’om qilingandek. Birikmalar nihoyat darajada tig‘iz, qisqa jumlaga ulkan ma’no yuklash qobiliyati esa, tahsinga sazovor. Har bir baytda kamida ikkitadan badiiy san’atning qo‘llanishi ham g‘azal poetikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimizning bu kabi yuksak pog‘onadagi ijod namunalarini o‘rganish biz yoshlarning oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Alisher Navoiy asarlarini chuqur anglash, his etish ma’naviyatimizning rivojiga sezilarli ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Dilnavoz Yusupova. Aruz va poetikaga kirish. Toshkent: Akademnashr, 2020.
3. Najmiddin Komilov. Ma’nolar olamiga safar, Toshkent: Tamaddun, 2012.
4. Yoqubjon Is’hoqov, So‘z san’ati so‘zligi. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
5. Alisher Navoiy. Xislatli hikmatlar va ibratli rivoyatlar, Nashrga tayyorlovchi: Abdumurod Tilavov. Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2015.
1. Abdulla Qahhor. Asarlari. Besh jildlik. 5-jild. Toshkent, 1989. 77-bet
2. G‘afur. G‘ulom. Tanlangan asarlari. Besh jildlik.1-jild. Toshkent, 1964.
3. A. Akbarov. G‘afur.G‘ulom. T.: «Yosh gvardiya», 1974.

BADIIY ASAR TAHLILI – O‘QUVCHI DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Kumushbibi Matkarimova

ToshDO‘TAU 4-kurs talabasi
matkarimovakumushbibi@gmail.com

Adabiyot fani o‘quvchi – kitobxonni badiiy ijod durdonalari bilan tanishtirish orqali, badiiy asarda tasvirlangan voqelik ta’sirida axloqiy qarashlar bilan birqatorda, undagi dunyoqarash va milliy ongni ham tarbiyalaydi. Ta’kidlamoq joizki, adabiy materiallarda aks ettirilgan ijtimoiy voqelik, asar qahramonlari xarakteridagi ijobiy xislatlar, jumladan, vatanparvarlik, xalqparvarlik xususiyatlari o‘quvchilarga estetik zavq bag‘ishlashdan tashqari rivojlantiruvchi ta’lim sifatida ham ahamiyatga ega. Adabiy ta’limda o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda asar tahlili orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatishning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Ma’lumki, qobiliyatsiz o‘quvchi yo‘q. Har bir o‘quvchida qaysidir sohaga qiziqish, talant, qobiliyat, iqtidor, fikr mavjud. Ammo ko‘pchilik o‘quvchilar o‘z fikrini to‘g‘ri bayon eta olmaydi. Bir xil o‘quvchilarning og‘zaki nutqida, boshqa

birlarining esa yozma nutqidagi kamchiliklarni kuzatish natijasida ham bir xil xulosaga kelmoqdamiz: badiiy asarni o‘qishgina yetarli emas, balki birgalikda, jamoa tarzida tahlil ham qilmoq lozim. To‘g‘ri, shogirdlarimizning ko‘pchiligi OTMda o‘qimasdan kasb-hunar o‘rganishi mumkin, lekin biz savodxon, kitobxon o‘quvchilarni tarbiyalash natijasida yutqazmaymiz: butun umr kitobga oshno, undan hayotiy muammolar yechimini, boshini qotirgan savollar javobini topa oladigan barkamol shaxsni tarbiyalaymiz. Qolaversa, tahlil jarayonida o‘quvchi tomonidan asarning asl mohiyat-mazmunini tushunish, anglash, yuqish va yuqtirish jarayoni roy beradi. Bir so‘z bilan aytganda katta hayot sinovlariga tayyorgarlik ko‘riladi. Bu esa o‘qituvchining juda katta yutug‘idir. Shuning uchun ham “bolaning yoshi, shaxsi, dunyoqarashi doimo adabiy ta’lim jarayonining diqqat markazida bo‘lishi kerak. Darsda o‘quvchi shaxsini shakllantirish asosiy vazifaga aylantirilishi zarur. Adabiyot saboqlarida shakllanib kelayotgan avlodni filolog mutaxassis qilish emas, balki sog‘lom ma’naviyatli odam sifatida tarbiyalash maqsad sanalishi kerak. O‘quvchilar o‘rganilayotgan asar qahramonlarini jonli odamlar sifatida tushunishlari, tuyishlari va ulardan ibrat olishlari darkor”[1,51].

Badiiy adabiyot – insonshunoslik. U qaysi bir tuzumda bo‘lmasin, odamlarning dunyoqarashini, xatti-harakatlarini, ularning jamiyatdagi mavqei va o‘rnini, shular bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi. Shunday ekan, tahlilda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini tinglab ularni tahlil etish orqali dunyoqarashni shakllantirish bo‘lmog‘i maqsadga muvofiq. Badiiy adabiyot ijtimoiy hayotning in’ikosidir, uning tasvir obyekti esa inson hayoti, uning surati va siyrati, ijtimoiy hayotda bo‘layotgan voqea-hodisalardir. Albatta, ijodkorni ta’sirlantirib asar yaratishga majbur qilgan voqea- hodisa kitobxonda ham shunday taassurot uyg‘otishi va kerakli xulosani chiqara olishi uchun o‘qituvchi rahbarligidagi tahlil suv va havodek zarur. O‘quvchi kerak bo‘lsa, bu jarayonni intiq kutishi, sog‘inishi lozim. Tahlil jarayoniga to‘g‘ri yondashuv o‘quvchilarning ongiga, his-tuyg‘usiga va dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va uning fikrlarini o‘zgartira oladi. Adabiy materialning g‘oyasini o‘quvchining o‘zi mulohaza qilib

topadigan darajaga olib chiqadi. Har bir o‘quvchi o‘z bilimi, qobiliyati, iqtidori, dunyoqarashi va imkoniyatlari darajasida uni hal etishga kirishadi. Aynan ana shu ta’sir o‘quvchilarda turli xil dunyoqarashni shakllantirishi mumkin. “Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog‘lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo‘lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo‘ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko‘rsatuvchi ijobiy xususiyatlardir” [1,58].

O‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish va o‘z mustaqil fikrini ochiq bayon qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda, eng asosiysi, o‘quvchilar o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lishi lozim. Asarning asl mohiyatini anglab yetish uchun tahlilni quyidagi tarzda bosqichma-bosqich olib borish mumkin. Bunday bosqichli tahlil jarayonini vaqt va sharoit taqozosiga ko‘ra istagancha o‘zgartirish, qisqartirish, ijodiy qayta ishlash mumkin:

1. Asarning eng ta’sirli nuqtasi.
2. Asarning eng mavhum nuqtasi.
3. Asarning eng yoqimsiz nuqtasi.
4. Asarning eng yoqimli nuqtasi.
5. Asarning original nuqtasi.
6. Asarning an’anaviy nuqtasi.
7. Asarning integratsion tahlili…

1. Asarning eng ta’sirli nuqtasi. Har bir o‘quvchi asardagi unga ta’sir qilgan nuqtani daftariga yozadi va nima uchun shu joyi ta’sir qilganligini dalillar bilan ko‘rsatib beradi.

2. Asarning eng mavhum nuqtasi. Asarning tushunarsiz joyini daftariga yozadi. O‘qituvchi tushunilmagan so‘z, holat, epizodga izoh, tushuntirish beradi. Bu asarni yanada yaxshi anglashga yordam beradi.

3. Asarning eng yoqimsiz nuqtasi. Asardagi yoqmagan epizodni yozadi. Nima uchun shu joyi yoqmaganligini tahlil qilib beradi hamda asardagi yoqmagan joyini o‘z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda o‘zgartiradi.

4. Asarning eng yoqimli nuqtasi. Asardagi yoqimli so‘z, jumla, obraz va hokazolarni yozadi. Tahlil qilib beradi hamda sheriklarni ham bu holatga oshno qiladi…Ish mana shu tarzda davom etadi. Dars xulosasi, albatta, o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib ayadigan bo‘lsak, o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish uchun fikrlashga undovchi usullarni ko‘paytirish lozim. Darsda shunga undovchi, ya’ni fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi usullarni o‘ylab topsak va amalda undan foydalana olsak, bora-bora asar tahlili darslari eng jonli, qiziqarli, muhimi, o‘quvchilar faol bo‘lgan darslarga aylanishi shubhasiz. Bunday darslar o‘quvchi-ning dunyoqarashini kengaytirishdan tashqari hayotga boshqacha optimistik nazar bilan qaray boshlashga o‘rgatishi ham tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma. –T.: Barkamol fayzmedia, 2018.–352 bet.

2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi “O‘zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti, 2010.

TA’LIMDA INNOVATSION JARAYON VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Shaxnoza Abdullayeva
ToshDO‘TAU talabasi

Ulkan rivojlanish va turli xil o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan hozirgi davrda ta’lim tizimida ham yangi va zamonaviy o‘zgarishlar shiddat bilan rivojlanmoqda. Xususan,innovatsion axborot texnologiyalarini barcha sohalarga keng joriy etish va ularning imkoniyatlaridan foydalanish jadallashmoqda.

O‘quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarni qo‘llash tarafdorlari o‘qitish sifatini yaxshilash, aynan ana shu vositalarga bog‘liq deb hisoblaydilar. Tegishli uslubiy tavsiyalar ta’lim jarayonida texnik muhitni yaratishga,ya’ni texnologiya tushunchasini o‘qitish jarayoniga qo‘llash masalalariga qaratildi. Dastlab “komputerli qilishga yo‘naltirish kabi keng qamrovli imkoniyatlarni beradi.

Ta’limda “zamonaviy texnologiya” va “yangi axborot texnologiyasi” kabi tushunchalar vujudga keldi. Bular pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik vosita sifatida qo‘llanila boshlandi.[1.10]

O‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yuritish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.Shuni inobatga olgan holda nafaqat ta’limda, har bir soha va tarmoqlar: u iqtisodiyot sohasi bo‘ladimi,tibbiyot bo‘ladimi,davlat organlari-yu,ijtimoiy tarmoqdan tortib siyosiy sohagacha bo‘lgan barcha jabhalarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiya-laridan foydalanish to‘g‘risida qator farmon va buyruqlar e’lon qilindi.

Ta’limda axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi ko‘plab qulaylik va yengilliklar olib keladi:

-fan tarmoqlarini axborotlashtirish;

-o‘quv jarayonini intellektuallashtirish;

-o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish;

-masofaviy o‘quv kurskarini tashkillashtirish;

-elektron adabiyotlarni yaratish;

-o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

-o‘quvchilarning bilim darajasini nazorat qilish;

-nazorat va sinov testlarini amalga oshirish va shu kabi qator qulayliklarni keltirib chiqaradi.

Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarining keng tatbiq etilishi o‘quvchilarni faqat bilim egallashga o‘rgatish emas,balki ta’lim oluvchilarga darsda va darsadan tashqari jarayonda mustaqil ta’lim olishga,axborotlarni tahlil qilishga va ular ustida samarali ishlarni amalga oshirishga keng imkoniyat yaratib beradi.

Ta’lim tizimini jahon ta’lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, kadrlar tayyorlash milliy dasturida “o‘quv jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash” zarurligi ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan.[1.17]

Ma’lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta’limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslangan bo‘lib,u ta’lim oluvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirmog‘i kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya markazida ta’lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning subyekti va obyekti bo‘lgan ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi turadi. Shunday ekan bu ikki shaxs o‘rtasida o‘zaro muloqot, hamkorlik, bir-biriga ko‘rsatadigan ta’sir jarayonlari yuksak darajada, zamonaviy va milliy talablar asosida bo‘lishi zarur.

Xususan, ona tili va adabiyoti ta’limida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan unumli foydalanish ta’lim samaradorligiga ulkan hissa qo‘shmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar,xususan,til ta’limi va adbiyot ta’limida **Microsoft Word, Micrisofr Power Point, iSpring,Microsoft Publisher, Exel, Adope Photoshop, CorelDraw** va shu kabi bir qancha amaliy dasturlardan foydalanish mumkin.

Respublikamizda ma’naviy yetuk, chuqur bilimli, jismonan sog‘lom bo‘lga barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘lida bir qancha amaliy ishlar bajarilmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biridir.

Masofali o‘qitish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shakli bo‘lib, ta’limoluvchilar va beruvchilar o‘rtasida qator imkoniyatlarni taqdim etuvchi ta’lim tizimidir. Ushbu tizimdan foydalanilganda foydalanuvchilar ma’lim bir belgilangan joyga, belgilangan vaqtda borishlariga hojat qolmaydi. Ular o‘zlari istagan paytda tizimga kirishi, ya’ni ta’lim vaqtini o‘zlariga qulay vaqtga qo‘yishlari, moddiy jihatdan ham tejamkorlikka erishishlari, vaqtni tejashlari, o‘z ustilarida mustaqil shug‘ullanishlari va shu kabi qulayliklarni taqdim etadi. O‘qitishning bu shaklida o‘quvchilarga mos ta’lim predmetini erkin tanlash va shu soha orqali zamonaviy axborot texnologiyalar yuzasida yanada chuqur bilimga ega bo‘lish va axborot almashish imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.[2.115]

O‘quv jarayonini komputerlashtirish, masofali o‘qitishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan o‘quv-uslubiy ta’minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Masofali o‘qitishda o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o‘qitish vositalari va h.) internet texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi.

Masofali o‘qitishni tashkil qilish va takomillashtirishda internet tarmoqlarida ta’lim portallari tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim portalida ushbu o‘quv tizimini tashkil qilishda umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki,zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta’lim sohasida ham keng foydalanilishi ta’lim olish va berish jarayoni samaradorligini oshiradi va jarayon mobaynida ta’limga oid turli xil axborotlarni olish va uzatishda kommunikatsion bilim va ko‘nikma hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.Abdullayeva “Yangi pedogogik texnologiyalar” Toshkent-2009
2. S.Muhamedova, M.Abdullayeva “O‘zbek tili va ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” Toshkent-2017
3. WWW.uzedu.uz
4. WWW.iSpring.ru
5. Ziyonet.ru

ABDULLA QAHHOR LUG‘ATI

Tolipova Nilufar
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shijoatli shaxs, jasoratli yozuvchi, so‘zga talabchan munaqqid, adabiyot jonkuyari, “So‘z zarshunosi” Abdulla Qahhorning xalqona iboralar, maqollar va obrazli ifodalari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qahhor lug‘ati, xalqona iboralar, maqollar, obrazli ifodalar.*

Abdulla Qahhor XX asr o‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan iste’dodli adiblardan biridir. Adib adabiyotimiz tarixida “Temirchining zargar o‘g‘li”

(N.Komilov), “Haqiqatgo‘y yozuvchi” (S.Mamajonov), “Xalq dilining ko‘zgusi” (Mirtemir), “Xalq vijdoni” (O‘.Umarbekov), “Adabiyotimiz faxri” (O.Yoqubov), “Jasoratli adib” (I.Haqqulov) kabi go‘zal tahsinlarga sazavor bo‘lgan. Istedodli adib roman, qissa, komediya va ko‘plab hikoyalari, jo‘shqin publististik maqolalari, nutqlari bilan adabiyotimiz xazinasini boyitdi. Yozuvchining o‘zini ta’biri bilan aytganda, u so‘z “zarshunos”idir. Adibning bundan qariyb ko‘pi bilan 60-70 yil, kami bilan 50-40 yil oldin yozilgan bitiklari hamon eskirmagan. Yozuvchi kitobxonga bir fikrni anglatish yoki bir narsani tasavvur qildirish uchunk kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerakligini uqtiradi va bu qoidaga hamisha o‘zi ham amal qiladi. “O‘xshatish adabiy asarda juda katta o‘rin tutadi, lekin u kitobxonning tez anglashiga, tasavvur qilishiga yordam bermasa, hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi” deb yozadi adib bir o‘rinda. Yozuvchi o‘quvchiga oz ma’lum bo‘lgan yoki mutlaqo ma’lum bo‘lmagan narsa unga juda ham ma’lum bo‘lgan narsaga o‘xshatilishi kerak degan xulosaga keladi.

Yozuvchimizning “Yoshlar bilan suhbat” asarining “Abdulla Qahhor lug‘ati” deb nomlangan qismini o‘qir ekanman, adibning xalqona iboralar, maqollar, obrazli ifodalari meni o‘ziga jalb etdi.

Shu ma’noda, adib asarlarida ko‘rinish beruvchi bu muhim fazilatlarning asosiy bazasi uning ustida naqadar zahmat chekib mehnat qilgani uning turli daftarlarga yozgan ko‘chirmalari, izohlari, sharhlari bu fikrimizni tasdiqlaydi. Adibning “Mening rohat va farog‘atda o‘tkazgan minutlarim yozgan, o‘chirgan, yana o‘chirgan minutlarimdir” degan iqrorlari Abdulla Qahhorning hayotidagi eng muhim e’tiqodi ADABIYOT va YOZUVCHILIK ekanini yana bir karra isbotlaydi. Adib asarlarida berilgan ba’zi bir obrazli xalqona iboralarning o‘zgarishga uchrab, boshqacha variantlarning ommalashib ketishi esa istemoldagi jonli o‘zbek tilining taraqqiyotini ko‘rsatadi. [1.12] Masalan: “Tarelka tutdi” (Qahhor ta’biri bilan aytganda, “Xushomadgo‘ylik qildi”) iborasi Abdulla Qahhorlar davrida shu tarzda ishlatilgan. Ammo bugungi kunda “Tarelka tutdi” iborasi deyarli ishlatilmaydi. Ammo uning boshqacha variantlari xalq tilida yashamoqda. Masalan: “Laganini

qoqdi", "Soyasiga ko‘rpacha soldi" kabi obrazli xalqona frazeologizmlar fikrimizga dalil bo‘ladi. Nazarimizda, rus-yevropa tilidan kirib kelgan "tarelka" so‘zi xalq tiliga unchalik singishmagan ko‘rinadi. Shuning uchun, "Tarelka" o‘rniga "Lagan" ko‘proq muqobil variant sifatida xalq tilida yashab qoldi. [1.11]

Yana bir gap: xalqona, milliy asar yaratish uchun YOZUVCHI muttasil xalq tilini o‘rganishi darkorligi Abdulla Qahhor tajribalaridan ko‘rinib turibdi. Xalq tilidan yiroq tushgan asarlar siyohi qurimasdan turib, muallifga ham, u yaratgan "klassik asar" ga ham shu daqiqada janoza o‘qilishi shoyon haqiqat. Demak, Abdulla Qahhor asarlari xalq tilidan, folkloridan to‘yib, qonib suv ichgani uchun ham o‘lmas va mangulikka daxldor.[1.11]

"Ashula to‘g‘risida" maqolasida esa ko‘ngilga xush kelmaydigan ashulani "eski aravaning g‘iyqillashi" ga o‘xshatadi. [2. 218] "Uyat" nomli maqolada "Uyat faqat insonga xos tuyg‘udir. Hayvon uyat paydo qilolmagani uchun insonga yaqinlasholmaydi, lekin inson uyatini yo‘qotib hayvonga yaqinlashib qolishi mumkun. Til-jag‘i insonda ortiq deysizmi?" – degan fikrni aytadi.

Qachon odam qatoriga sanarlar,,

Bor o‘lgan birla echkuning soqoli?.. baytini keltirgan.

Bularning til-jag‘i echkining soqoliday gap – odamlik nishonasi emas, deydi. [1.115]

"O‘g‘ri" hikoyasini oladigan bo‘lsak, "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin" iborasi asar g‘oyasini, "Yo‘qolmasdan oldin bormidi" iborasi esa obrazni yoritib bergan.[3.175] Bundan tashqari quyidagi bir qator iboralar milliy tilimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishiga ishonaman.

Suvga urib ketdi. Qochdi. Yo‘qolib ketdi .

Aravacha qilish. Yosh bola qilish . Aldash .

Tuyaning dumi yerga tekkanda. Hech qachon bo‘lmaydi.

Ali xo‘ja – Xo‘ja ali. Baribir. Farqsiz.

Tomdan tarasha tushganday. Qo‘pol. To‘satdan, daromadsiz .

Dumingni bosmadim. Sen itmisan? Senga tegishli bo‘lmagan, shaxsingga to‘qinmagan narsa uchun jahling chiqmasin.

To‘ppining tagida odam bor. Suhbatda begona yoki shu gapni eshitishi kerak bo‘lmagan kishi bo‘lmagan.

Sirkasi suv ko‘tarmaydi. Sal gapga jahli chiqadi.

Ikki pulning ustida do‘mbaloq oshadi. Pulni yaxshi ko‘radi. Xasis.

Anqog‘a shofi. Yo‘q. Sira topilmaydi.

Anqoning tuxumi. Noyob narsa.

Boshi nechta? O‘ldiraman. Qo‘rqadi .

Suyagi yo‘q. “Jon” deydi. Juda xohlaydi.

Mening sovunimga kir yuvmabdi. Menga ishi tushmagan. Mening g‘azabimni bilmaydi.

O‘g‘zining bir chetidan chiqib ketadi. Pisand qilmaydi (miqdorni).

Poxol solib ketdi. Aldadi. Va’da qilib va’dasiga vafo qilmadi.

Loydan hushtak. Bebaqo.

Bo‘yoqchining nili emas. Osonlik bilan bo‘lmaydi .

Ko‘z quloq bo‘l. Qarab tur, hushyor bo‘l.

Daryodan bir tomchi. Juda oz.

Urpoq bo‘lmaydi. Juda oz, sira yetmaydi.

Oshqovoq qirib chiqdim. Kechasi bilan uxlamadim.

Yulduz sanab chiqdim. Kechasi bilan uxlamadim.

Ho‘kizning qulog‘iga tanbur chertibman-da. Shuncha aytgan gapimni uqmadingmi? Bekorga ketdimi?

Karnaychidan bir puf-da! Sendan nima ketadi?

Mo‘ylabingni ko‘tar, o‘tib ketay. Kattalik qilasan.

Lof desa ola qopni olib yuguradi. Oshirib so‘zlaydi. Vahima qiladi.

Yog‘och otga mindirdi. Aldadi.

Puling cho‘ntagingda. Ixtiyoring o‘zingda.

Kesakdan o‘t chiqdi. G‘ayritabiiy. Yangilik.

Nonini tuya qiladi. Go‘sxo‘r qildi. Aldadi.

Tuyog‘ingni shiqillat. Ket . Yo‘qol.

Burga tepdi. Og‘ridi . Kasallandi .

Eshakmiya yegan. Jinni.

Qo‘li egri. O‘gri

To‘ppisi tor keldi. O‘ylanib qoldi.

Afandining hisobxaltasi. Noto‘g‘ri hisob.

Devor bo‘lmasa, ko‘chani ko‘radi. “Aqlli”.

Ataladan suyak chiqdi. Kutilmagan narsa.

Qorning og‘riydimi? O‘z foydang bo‘lgani holda sendan nima ketdi? Qabul qilmaysan .

Dumidan ko‘tarsang, turadi. Oriq.

Abdulla Qahhor asarlarini qayta o‘rganish, xalqona iboralar, maqollar va lug‘atini qayta o‘rganish, ularni yangi bir nigoh bilan tahlil qilish vaqti yetdi. Adib ijodiy merosini tadqiq qilish orqali o‘quvchi zamon-yozuvchi-qahramon uchligini chuqurroq anglaydi. Shuningdek, Abdulla Qahhor maqolalari tahlilida adib lug‘atini asar konteksti bilan birga o‘rganish zarurati bor. Zero, shunda adibning xalqona iboralari, matn osti ma’nolar, lug‘ati to‘liq anglashiladi. “Yoshlar bilan suhbat”, “Haq so‘zning kuchi” kabi asarlarni yosh avlodga yetkazish ma’naviy burchimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abdulla Qahhor . “Yoshlar bilan suhbat”. – T.:Akademnashr, 2017.
Abdulla Qahhor . “Tanlangan asarlar”, 3-jild, -T. “Tamaddun”, 2017.
Abdulla Qahhor . “O‘tmishdan ertaklar”. T.Yangi asr avlodi, 2019.

10-11 SINF ADABIYOT DARSLIKLARIDA BADIIY SAN'ATLARNING o'QITILISHIGA DOIR MUMMOLAR VA ULAR YUZASIDAN TAKLIFLAR

Abdialimova Mahfuza Safarboy qizi
TOShDo'TAU I kurs magistranti
mahfuzaabdualimova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada 10-11-sinf adabiyot darsliklarida keltirilgan mumtoz badiiy asarlarni ikki xususiyati, ya'ni ma'naviy yoki lafziy san'atga oidligiga ko'ra tahlil etish zarurligi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviy san'atlar, badiiy san'atlar, tashbeh, tajnis, talmeh, tazod.*

Darhaqiqat, adabiyot inson ruhiyatini shakllantiruvchi, uning kamolotida beqiyos o'ringa ega bo'lgan so'z san'atidir. Adabiy asarlar orasida mumtoz adabiyot namunalari o'zining badiiy-estetik kuchi, ma'no va mazmun ko'lami, ijtimoiy-siyosiy davrni badiiy so'z vositasida namoyon qila olish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Umumta'lim darsliklarining aksariyatini mumtoz badiiy asar namunalari tashkil qiladi. Ularni teran anglashimiz, badiiy estetik zavq olishimiz uchun she'riy san'atlarni mukammal bilish talab etiladi. Xususan, 10 va 11-sinf adabiyot darsliklarida Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Atoyi, Anbar Otin, Dilshodi Barnolar ijodidan namunalar keltirilgan.

Dastavval o'quvchida haqli savol tug'iladi. Badiiy san'atlar o'zi nima? **Ilmi badi'** - (arabcha "badi'" -go'zal, ajoyib, chiroyli, nodir, nafis, yangi paydo bo'lgan narsa) Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar,ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha bo'lib, mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar ilmi badi'ning asosini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib ilmi bad'i sanoyi ilmi deb ham yuritiladi. Turkiy tilda ilmi badi' masalalari aks etgan asarlardan biri Shayh Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" hisoblanadi. Risolaning uchinchi qismi badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda 97 san'at turi haqida ma'lumotlar

keltirilgan. Ilmi badi'ga doir nisbatan mukammalroq va mufassalroq bo‘lgan asar Atoulloh Husayniyning "Badoyi'us-sanoyi" risolasidir. Unda tarixda ilk bor badiiy san'atlar 3 ta katta guruhga ya'ni : lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga ajratilgan[115]. Bu borada badiiy san'atlarni mufassal o‘rgangan olim Y.Is'hoqov mumtoz adabiyotimizda qo‘llangan asosiy she'riy san'atlarni ularning she'riy matn doirasidagi vazifasidan kelib chiqqan holda 10 ta guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etgan.[116]

Lafziy san'atlar nutqning ifoda usuli, xususan, so‘z shakli bilan aloqador sheriy san'atlarni o‘z ichida qamrab oladi. Atoulloh Husayniy lafziy san'atlar guruhiga tarsi', tajnisli tarsi', radd(qaytarish) san'ati va uning turlari,qalb va uning turlari,, sa'j, tashtir, tajziya, tasri', tasmit, aks, tardid, zulqofiyatyn, tavshih, talavvun, mulamma', muqatta', mavassal, jam' ul-huruf, murabba' yoki musoviyat tarafayn, mudavvar, mushokala va boshqa san'atlarni kiritadi. Lafziy san'atlar shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrni yuksak badiiy nafosat bilan yetkazishga xizmat qilishi zarur.

Badiiy san'atlarning ikkinchi katta guruhi ma'noning birlamchiligiga asoslangan bo‘lib, bu haqida badi'ilmida ma'noviy san'atlar deb yuritiladi. Y.Is'hoqov tasnifida ular a) qiyosiy–assotsiativ usullar (tashbih, talmih, tansiq us-sifat va boshalar), b) fikrni dalillash (motirovka) yo‘llari (husni ta'lil,tamsil,irsoli masal va boshqalar), d) istioraviy-ramziy tasvir usullari (majoz, istiora, kinoya va boshqalar), e) emotsional-mubolag‘ali tasvir usullari (mubolag‘a, tashbihning ayrim turlari, ruju, murojaat, savol-u javob va boshqalar) kabi guruhlarga ajratgan. Z.Mamajonov ularni o‘xshatish asosidagi san'atlar (tashbih, tamsil, talmih, irsol ul-masal, laff va nashr), ma'joz asosidagi san'atlar (istiora, kinoya, tashxis, intoq), belgini kuchaytirish asosidagi asosidagi san'atlar (mubolag‘a, tafrit, iyg‘ol va b.) ifoda usullari asosidagi san'atlar usullari asosidagi san'atlar (mulamma', tajohilu

orif, mazhabi kalomiy, husni ta’lil, ruju’, savolu javob, nido va b.) degan guruhlarga ajratadi.

Mushtarak san’atlar tazod, tajnis, ishtiqoq, iqtibos, aqd, tazmin, tatabbu’ baroati istihlol kabi she’riy san’atlarni tashkil etadi.[3]

Maktab darsliklarida, asosan, tarsi’, tardi aks, musoviyat tarafayn, tajziya, kitobot san’atlari ishtirok etgan g‘azallarning qo‘llanilishi lafziy san’atlarni puxta o‘rganish zariyatini yuzaga keltiradi. 9-sinf adabiyot darsligidagi “G‘azalda badiiy tasvir vositalarning o‘rni” mavzusi doirasida talmeh, husni ta’lil, tashbeh, jonlantirish, mubolag‘a, ishtiqoq, tazod kabi she’riy san’atlarning nazariy ma’lumot o‘rnida keltirilishi o‘quvchilar uchun foydali. She’riy san’atlarga doir qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanish inson tafakkuriga, uning yuksalishiga, so‘z nafosatini his etishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda o‘quvchilarga faqat nazariy ma’lumot beribgina qolmay ularni amaliy mashg‘ulot sifatida darsni amalga oshirish o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalrning mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Dars jarayonida so‘zlarning nafaqat grammatik balki, ma’noviy vazifa bajarishining ham guvohi bo‘lishadi. She’riy san’atlardan bexabar o‘quvchi uchun 5, 6, 7, 8, 9, 10 va 11-sinf adabiyot darsliklaridagi g‘azallar, ruboiy va tuyuqlar o‘ta zerikarli tuyuladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun, avvalo, 5-sinfdanoq mumtoz adabiyot bilan tanishtirish barobarida she’riy san’atlarni amaliy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishimiz zarur. Bunda mumtoz adabiyot namunalarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar daftarini ishlab chiqish samara beradi. Darslikdagi mavjud mumtoz adabiyot vakillarining asarlaridan keltirilgan parchalarni baytma-bayt tahliliga qarshiman. Boisi, baytma-bayt tahlilni o‘qituvchi bilan birgalikda mashg‘ulot sifatida bajarganda samaradorlik nisbatan yuqori bo‘ladi.

Ona tili va adabiyot fanidan bilish darajasini baholashning milliy test sinovi namunaviy test topshiriqlarida adabiyot qismining 35-40 savollari g‘azal tahlili, bevosita she’riy san’atlar orqali anglashilgan ma’no mazmunni bilish darajasiga ko‘ra yo‘naltirilgan savol va topshiriqlardan iborat. Har bir g‘azalning mohiyati

ruhiy, hissiy kechinmalarini ifodalashda she'riy san'atlarni farqlash ko‘nikmasi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak,o‘quvchilarda baytlarni tahlil etish ko‘nikmasini amaliy tarzda shakllantirish uchun topshiriqlar, tahliliy mashg‘ulot daftarlarni ishlab chiqish zarur. Darsliklardagi adabiyotshunos olimlarning fikrlari ularni izlanishga emas, balki, tayyor ma’lumotdan foydalanishgao‘rgatadi. Adabiyot darslarining tashkil etilishidagi eng kata kamchilik ham shunda. Ulardagi odatiy tartibni innovatsion yondashuv asosida yuqori samaradorlikka olib borishning izchil rejasini, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. D.Yusupova. - Toshkent: ”TA’LIM-MEDIA” nashriyoti, 2019. 184 bet.
2. Исҳоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. - Тошкент: Зарқалам, 2006
3.Атоулоҳ Ҳусайний Бадойиъус-с-санойиъ/ Форсчадан А.Рустамов таржимаси. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

LIRIK VA LIRO EPIK ASARLARNI O‘RGATISH USULLARI

Abduxalilova Rushana
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lirik va liro-epik asarlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ayrim mulohazalar tahlil qilingan. Bundan tashqari, “Farhod va Shirin” dostoni va navoiy asarlarini o‘qitish tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*. Janr, lirika, liro-epik, metodika, janr, adabiy tur.*

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo‘ladi. Taniqli metodist M. A Ribnikova:,, Metodik usullarni asar tabiyati taqazo qiladi…Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she’rni rejalashtirish maqsadga muofiq bo‘lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o‘qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o‘quvchilarning badiiy o‘qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfga o‘qtuvchining o‘zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi

va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bian dalillanadi, masal esa unda ko‘zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi”. Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib turadi. Prof. Q.Yo‘ldoshevning yozishicha, “turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o‘zgarib ketmaydi, lekin o‘quvchining asarga yondoshishi, munosabat tarsi o‘zgaradi”. Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, “asarlarni tur va janr xususiyatlarga ko‘ra o‘rganish san’atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi”.

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, yani undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o‘xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o‘y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o‘rganish, sharhlash orqali o‘zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalaniladi. Bularning orasida adabiy o‘qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o‘qishda matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o‘zak muammolari o‘quvchining ko‘z oldida osonroq gavdalanadi. Adabiy o‘qishda dastlabki urg‘u tushishi lozim bo‘lgan o‘rinlar ajratiladi, ular o‘quvchilarning ongiga ham, tuyg‘ulariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Gap epik asarlar ustida borar ekan, ularda “har qanday hissiyot voqealar qa’riga berkitilgan” bo‘lishiga e’tibor berish zarurati bo‘ladi, chunki “qahramonlarni hayotiy voqealar og‘ushida ko‘rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o‘quvchidan bu sezimlarni ilg‘ab olish talab qilinadi. Adabiyot o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zamiridagi badiiy ma’noni ilg‘ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi”.

Adabiy o‘qish o‘qituvchining ish faoliyatidagi asosiy metodik vosita bo‘la oladi. Adabiy o‘qish vositasida alohida olingan qahramonning yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqei, asar mavzusi, yozuvchi

ko‘zda tutgan badiiy-estetik niyatning ifoda tarziga e’tibor tortilishi mumkin. Masalan, akademik litseylarning 1-bosqichida Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni yoki Rabg‘uziyning “Qissayi Rabg‘uziy” asarini o‘qish jarayonida har ikki adib tanlagan janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o‘quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko‘zda tutilgan badiiy-estetik mohiyat mag‘zini chaqa olmaydilar. Natijada ulardagi haqiqiy badiiy tarovat yo‘qqa chiqadi, ular o‘quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his- tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga yordam berolmaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining adabiy dasturlarida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotiga mansub bo‘lgan xilma-xil janrlardagi epik asarlarni o‘rganish ko‘zda tutiladi. Jumladan, 5-sinfda “Uch og‘a-ini botirlar”, “Susambil” xalq ertaklari, H. Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, Hans Xristian Andersenning “Bulbul”, Janni Rodarining “Hurushni eplolmagan kuchukcha”, Anvar Obidjonning “Odil Burgutshohva”, “Zamburug laqabli josus haqida ertak” adabiy ertaklari, Alisher Navoiyning “Sher bilan Durroj”, Sa’diyning kichik hikoyalari, Abdulla Qodiriyning “Uloqda”, G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam”, Oybekning “Fonarchi ota”, N. Norqobilovning “Oqbo‘yin”, Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyalari, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissalari berilgan. Ko‘rinib turibdiki, faqat 5-sinfning o‘zidayoq epik turga mansub bo‘lgan xilma- xil janrlardagi asarlar taqdim etilgan. Ayni paytda boshqa sinflarda og‘zaki ijodning doston, yozma adabiyotning roman janrlaridan namunalarni o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Xuddi shuning uchun ham ularning har biriga o‘zlari mansub bo‘lgan janrlar nuqtai nazaridan yondashilishi zarur bo‘ladi, aks holda, o‘quvchilarda noto‘g‘ri taassurot yuzaga kelishi, ko‘zda tutilgan badiiy-estetik samara olinmasligi mumkin. Adabiy asarning, jumladan epik turga mansub bo‘lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta’limning o‘zak masalalaridan biridir. U “O‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan

muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat” yaratadi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar asarning poetic mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga e’tibor qaratadi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi. Hatto ayni bir xil janrlardagi epik asarlar tahlilida ham o‘ziga xos yondashuvlar talab etiladi. Alisher Navoiyning “Hamsa”si tarkibida beshta doston bor. Ularning barchasi bir xil janrda yozilgan. Shunga qaramay, ularning har biri o‘z oldiga mutlaqo boshqa- boshqa badiiy- estetik maqsadlarni qo‘ygan. Demak, ularni tahlil qilishda ham shu andozadan kelib chiqish zarur bo‘ladi. “Hayrat ul-abror” falsafiy- didaktik doston. Unda adibning olam va odamga qarashidagi o‘ziga xosliklar falsafiy-axloqiy ruhdagi hikoya, qissa va mulohazalar orqali ifodalanadi.

“Farhod va Shirin”da qahramonlik yo‘nalishi ustivor. U ishqiy-romantikaga to‘yintirirlgan qahramonlik dostonidir. “Layli va Majnun” esa adabiyotimiz tarixidagi “eng fojiaviy ishq qissasi” sifatida mashhurdir. “Sab’ayi sayyor” – ishqiy-sarguzasht yo‘nalishda bo‘lsa, “Saddi Iskandariy” qahramonlik dostonidir. Ularda insoniyatning o‘ziga xos ruhiy olami, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma’naviy qarashlari, o‘sha davrlardagi ijtimoiy hayot manzaralari aks etgan. Ularda voqealar qamrovi nihoyatda keng, ishtirok etuvchi qahramon va personajlarning soni ham ko‘p, ularning har biriga bog‘liq ravishda esa muallif ko‘zda tutgan badiiy niyat ham rang-barangdir. Tahlil jarayonida mana shu rang-baranglik ham doimiy e’tiborda turishi kerak bo‘ladi. Ularning qay birini tahlil qilayotganda qanday usul va yo‘llardan foydalanish kerak degan, savolga bir xildagi javob berish mumkin emas. Bu vazifani alohida olingan sharoit, sinfning o‘ziga xosligi, o‘quvchilarning adabiy tayyorgarligi, qolaversa, o‘qituvchining o‘z bilim va tajribasidan kelib chiqib hal etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Epik asarlarni tahlil qilishda ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o‘rinda turadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5, 6-sinflarda asosan eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o‘rganiladi. Yirik epik asarlarni

o‘rganish esa yuqori sinflarda, shuningdek, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘rganilishi rejalashtirilgan. Ularning har birini o‘rganishda o‘ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Masalan, akademik litseylarning 2-bosqichida Navoiyning epik asarlari, jumladan, ” Xamsa” dostonlarini o‘rganish belgilangan. Dastlab, Navoiyning hayoti va ijodi o‘rganilar ekan, unda adibning adabiy merosi, bu merosning faqat o‘zbek adabiyoti rivojida emas, balki umumturkiy adabiyot tarixida ham, jahon adabiyoti tarixida ham nihoyatda ulkan voqea bo‘lganligi qayd etiladi. So‘ng adibning asar ustidagi jiddiy mehnatini ko‘rsatib beruvchi epizodlarga e’tibor tortiladi. Bunday o‘rinlar beshala dostonda ham istagancha topiladi. O‘qituvchi o‘zi uchun qulay bo‘lgan variantdan foydalanishi mumkin.

Bularning natijasida o‘quvchilarda Alisher Navoiy dohosini ta’minlagan ijodiy rivojlanish bosqichlari haqidagi asosli va real tasavvurlar hosil bo‘ladi. Ular adib ijodining ilmiy-ma’rifiy hamda badiiy estetik ahamiyatini teranroq ilg‘aydilar. Bunga erishish esa osonlikcha kechmaydi. Bu natija turli-tuman metod va usullar qo‘llanishini taqazo etadi. Bular orasidan biz o‘qituvchining kirish so‘zi, yakunlovchi ma’ruzasi, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Ularda asarlardagi asosiy g‘oyaviy-badiiy mag‘iz, alohida olingan epizodlarning asarning yaxlit sujeti va kompozitsiyasi bilan aloqadorligi, oldingi sinflarda Navoiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan materiallarni eslash va takrorlash nazarda tutilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yana bir narsani eslatish ham o‘rinli bo‘ladiki, hajmiga ko‘ra yirik bo‘lishiga qaramay, zamonaviy romanlarni tahlil qilish ham oson bo‘lmasada, Navoiy asarlarini, umuman, mumtoz epik asarlarni tahlil qilishning qo‘shimcha qiyinchiliklari oz emas. Ayniqsa, ulardagi eskirgan so‘zlarning ko‘pligi, o‘sha davr badiiy talablari, shuningdek, bevosita adib uslubi bilan bog‘liq holatlar shular jumlasidandir. Buning ustiga yirik epik asarlarni o‘rganish uchun talab etiladigan vaqt ham nihoyatda chegaralangan. Qisqa vaqt ichida nihoyatda katta vazifalarni

hal qilish zaruriyati o‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham qo‘shimcha imkoniyatlarni qidirishni taqozo etadi.

Metodist olim Safo Matjonning guvohlik berishicha, “Ayrim o‘qituvchilar epik asarlar tahlilini jo‘nlashtirib, yozuvchini o‘quvchi bilan yonma-yon qo‘yadilar. Holbuki o‘quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o‘tkazishda o‘quvchilar oldiga “Qahramonning bu ishi to‘g‘rimi?”, “Uning o‘rnida bo‘lganda nima qilar eding?” kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o‘rniga: “Shu vaziyatda qahramon o‘zini boshqacha tutishi mumkinmidi?”, “Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?” singari savollar qo‘yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug‘iladi”.

Rus metodistlarining guvohlik berishicha, “Belkin qissalari” va “Dama qarg‘a” o‘qigan o‘quvchilar Pushkin prozasini uning bor boyligi bo‘yicha tasavvur qila olishmaydi. Asosan qissalarning sujeti tushuniladi, bu ham uning qisqaligi uchun juda chuqur o‘zlashtirilmaydi. O‘ninchi sinf o‘quvchilari mustaqil o‘qishdan keyin muallif nuqtai nazarini ham, Pushkin prozasining badiiy fazilatlarini ham anglab yetishmaydi”. Biz bu fikrni Alisher Navoiy va mumtoz adabiyotimizning boshqa namoyondalari ijodiga nisbatan ham tatbiq qilishimiz mumkin.

Aslida Alisher Navoiy ijodining, ayniqsa, “Xamsa” dostonlarining poetik o‘ziga xosliklarini puxta o‘zlashtirish, keying davrlardagi mumtoz adabiyotimiz vakillari yaratgan asarlar mohiyatini oson va qulay o‘zlashtirishning puxta asosi bo‘lishi kerak. Mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichida o‘qituvchi Alisher Navoiyning muhtasham “Xamsa” sining yaratilish tarixi haqida qisqacha ma’lumoti bo‘lishi mumkin. Bu ma’lumotlar o‘qituvchining ma’ruzasi tariqasida ham, sinfning tayyorligiga qarab suhbat asosida ham o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma’lumki, “Xamsa” 1483 – 1485 yillar orasida – ikki yilda yozilgan. Shunga qaramay, uning tarkibidagi har bir doston mazmun mohiyatiga ko‘ra ham, tuzilishi va tarkibiga ko‘ra ham bir-biriga o‘xshamaydi. O‘qituvchi ma’ruzasi davomida har bir dostonga xos bo‘lgan xususiyatlarni muayyanlashtirish uchun

orada o‘quvchilarni suhbatga chorlashi, savol-javoblardan foydalanishi mumkin. “Xamsa” turkum dostonlarini o‘rganishda Navoiyning adib sifatidagi, shu asarning muallifi sifatidagi munosabatlari ayricha ahamiyat kasb etadi. Dostonlarning barchasida inson va uning hayotdagi o‘rni, shu o‘ringa uning ma’suliyati alohida e’tibor bilan chiziladi. Xamsa dostonlarining sujet qurilishida, kompozitsiyasida ham bu masalalar tegishli inikosini topgan. Jumladan, ulardagi alohida olingan bir qator obrazlar borki, adib o‘zi zamondosh bo‘lgan davr voqealari yoki tarixiy o‘tmish misolida insoniy xarakterlarning takrorlanmas qiyofalarini ko‘rsatib beradi. Ba’zan ularni voqealarning tabiiy rivoji ichida tasvirlab bersa, ba’zan ularga o‘zining konkret munosabatini juda ochiq ravishda ifodalaydi. Har qanday holatda muallifning shu qahramonlarga bo‘lgan munosabati uning kitobxonlarga ham aytadigan gapi borligining dalolati bo‘la oladi. O‘zi tasvirlayotgan voqea yoki xarakterlar silsilasi vositasida u kitobxonni ham tegishli manzillarga yo‘llab turganday bo‘ladi. Navoiy asarlarida ijtimoiy hayotga oid barcha qatlamlarning vakillarini kuzatish mumkun. Ular orasida shohlar, vazirlar, savdogarlar, dehqonlar, kemachilar, kosiblar, olimlar, shoirlar va boshqalar mavjud. Bularning barchasi tilga olinar ekan, ularning orasidagi o‘zaro munosabatlar ham, bu munosabatlarning namoyon bo‘lish shakllari ham bir-bir qalamga olinadi. Yaxlit holda esa biz o‘sha davrdagi jamiyat uchun muhim bo‘lgan asosiy qonuniyatlar bilan ham tanishib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008
2. Karimov I. Adabiyotga e’tibor–ma’naviyatga, kelajakka e’tibor.–T.: 2009
3. Dolimov S., Ubaydullayev X., Ahmedov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: 1967
4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: 2006
5. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o‘rganish. –Toshkent: 1986
6. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: 1996
7. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: 2002
8. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: 2008
9. Salaev F., Kurboniyozov G. Atamashunoslik atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: 2010
10. Zunnunov A. O‘zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. –T: 1973

HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA BOLALAR OBRAZI

Qurbonova Visola
Alisher Navoiy nomidagi
ToshhDO‘TAO‘magistranti
qurbonovavisola@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adabiyotning bola tarbiyasidagi ahamiyati va tabiat talqini masalalari yoritilgan. Unda Sh.Xolmirzayev va N.Norqobilovning badiiy mahorati va novatorlik san’ati ko‘rsatib berilgan*.

Kalit so‘zlar: *hikoya, majoz, obraz, talqin, badiiyat, ruhiyat, ta’lim, tarbiya, tahlil, novator.*

Annotation. *This article discusses the importance of literature in child rearing and issues of nature interpretation. It shows the artistic skills and innovative art of Sh.Kholmirzaev and N.Norkobilov.*

Keywords: *story, metaphor, image, interpretation, art, psyche, education, upbringing, analysis, innovator*.

Bola tarbiyasida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Chunki unda ijodkorning hayotiy tajribasi? Ma’naviy haqiqati muhim bo‘ladi. Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va ma’daniyatining saqlovchisi bo‘lgan kattalar muloqoti tufayli insoniyatning ko‘p asrlik tajribalarini o‘zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Yosh avlod ma’naviy-axloqiy tomondan dunyoga kelgan kundanoq tarbiyalanib boradi. Chunki ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishning ilk uchqunlari go‘dak dunyoga kelib onasini ko‘rgan paytdanoq boshlanadi desak mubolaga bo‘lmaydi. Negaki, aynan go‘dak uchun ona tili bilan aytilgan ona allasi, uning erkalashlari tarbiyaning bu turiga zamin bo‘ladi. Mazkur jarayonning amalga tatbiqini esa insoniy muloqotning eng muhim vositasi- til orqaligina yetkazish mumkindur. Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda eng asosiy bosh vazifalardan biri bolalarga ona tilida so‘zlashni o‘rgatish, ularning nutqini rivojlantirish va ularni nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishdir. Bola tarbiyasida o‘z ona tili va adabiyot katta maktab vazifasini o‘taydi. Bolalar dunyosini, ruhiyatini avaylab asramo g‘imiz lozim. Hayotning murakkabliklarga sabot va matonat bilan chidashga, uning zalvorli sinovlarini yengib o‘tishga, eng qiyin damlarda ham o‘zligini yo‘qotmay oldinga intilishiga o‘rgatadigan beminnat

maslahatchi, samimiy do‘st – bu adabiyot, adabiy ta’lim hisoblanadi. Bolada hayotni, hayotiy voqea-hodisalarni bilishga, odamlar va ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tu g‘ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo‘ladi. Badiiy asarni o‘qish jarayonida esa, bolada ana shu qiziqish rivoj topadi, ularni san’at olamiga olib kiradi, o‘quvchining yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda ularning badiy didi o‘sishiga turtki bo‘lib hizmat qiladi.Har ikkala adib Shukur Xolmirzayev va Normurod Norqobilovning bolalar adabiyotiga oid hikoyalarini o‘qib, shuni kuzatdimki, tahlil qilingan hikoya qahramonlarining milliy adabiy jarayonda tutgan o‘rni uning yaratilgan zamondagi odamlar yoki tekshirilayotgan davr kishilari tafakkuriga ta’siri o‘rganilishi lozimligini angladim. Hikoyalaridagi barcha komponentlar (g‘oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) asosiy bosh qahramon bola obraziga o‘zaro bog‘langan hamda shu tariqa asarda obraz rivojlanib boradi. Asarning syujet chizig‘i esa bevosita obraz bilan bog‘liq. Hikoyani tahlil qilish jarayonida yangiyangi qirralari ochilib bordi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o‘qishni, idrok etishni, ya’ni sintez qilishni talab etmay qolmaydi. Eng avvalo, asarda qanday ijtimoiy qonuniyat bolalar obrazi orqali ochilganini tahlil qilish zarur. Asarda adib e’tiqodining olamni ko‘rish, anglash, tushuntirish hamda aks ettirish jarayonlarida bolalar personajining namoyon bo‘lishi yetakchilik qiladigan hikoyalariga e’tibor qilinishini bosh vazifa qilib oldim.Tadqiqotning tahliliy jarayonida psixologik yo‘nalishda har ikkala adibning ijodkor shaxs sifatida o‘ziga xosligi jarayon psixologiyasi, asar ustida ishlash usuli, shu jarayondagi ruhiy holati va ularning tahlillanayotgan asarda qoldirgan nuqsi, uning saviyasiga ko‘rsatgan ta’siri kabilar o‘rganilib, psixologik yo‘nalishdagi tahlilda o‘rganilayotgan asar filologik hodisa sifatida ham til, ham tasvir vositalari, hamda ular o‘rtasidagi davomiylik va novatorlik nuqtai nazaridan tekshirilmo g‘ini maqsad qildim. So‘zning o‘z va badiiy ma’nosi konteksdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning ham hayotiy, ham estetik sabablari singari bir qator jihatlarga ustuvor e’tibor qaratiladi.

Badiiy asarning o‘ziga xosligi, jozibasi va ta’sir qilish sabablarini aniqlash orqali bolalarda ta’sirchan qalb, hassos tuy g‘ular, sog‘lom estetik did, ravon va ifodali nutq shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko‘ra tadqiqotda o‘rganilayotgan mavzu badiiy asar matnining hayotiy va badiiy mantiqi hamda estetik jozibasini kashf etish orqali tarbiyalanuvchilarda, komil insonga xos ma’naviy belgilarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat tarzida ta’rif berish kerak. Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya’ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o‘xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o‘y-xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o‘rganish sharhlash orqali o‘zlashtiriladi.

Sh.Xolmirzayevning har bir bosh qahramon darajasiga ko‘tarilgan bola obrazida bolalarcha sho‘hlik va o‘yinlar, tabiat go‘zalliklaridan zavqlanish kabi oddiy tog‘lik qishloq bolasi harakter qiyofasida o‘z ifodasini topadi. Orzular osmonida parvoz qiluvchi “bolalar adabiyoti”ni Sh.Xolmirzayevning qahramonlarisiz tasavvur qilish qiyin. Yozuvchi uslubidagi o‘ziga xos tomoni shundaki, hikoya qissalaridagi har bir bola “bola tili”da sodda qiziqarli ravon mazmundor va “to g‘lik sheva”si bilan aniq va ifodali, lo‘nda gapiradi. “Keyinchalik tushundimki, o‘qiganlarimning “hikoya” degan narsa bilan aloqasi juda kam ekan. Ular shunchaki ermak uchun yozilgan yoki, umuman, adabiyotni tushunmaslik oqibatida paydo bo‘lgan mahsulotlar ekan. Bu o‘rinda menga e’tiroz bo‘lishi mumkin: nima, shunaqa mazmunda hikoya yozish mumkin emasmi? Aslo unday demoqchi emasman, yozish mumkingina emas, zarur ham, lekin gap o‘rniga qo‘yishda” [Xolmirzayev, 1966, 207].

Sh. Xolmirzayev o‘z hikoyalarida bola ruhiyatini kitobxonlarga tez va oson, yetkazib bera olgan, u xalq tilinipuxta egallagan , bolalarning mayda ko‘z il g‘amas dunyosini jo‘n va lo‘nda tarzda, qalb sezgisi bilan his qila olgan. Asarlarida surxon vohasi koloriti yorqin sezilib turadi uning hikoyalarini tabiat fonisiz tasavvur qilish qiyin. Personajlari orqali jonivor hayvon qushlarga bo‘lgan mehr muhabbati tabiatni asrash, mehnatni sevishni o‘rgatadi.

“Ko‘ngil” hikoyasi “ruhiyati o‘zgarib turuvchi” bola personaji nutqidan hikoya qilinadi.Ushbu obraz o‘z-o‘zini taftish qiluvchi bola qiyofasida aks etadi.Hikoya so‘ngiga kelib barcha ayblarini anglagan holda nutqini yakunlaydi. Ammo endi, “vayron bo‘lgan ko‘ngil” ko‘ngil olmoqga “kechikkan ko‘ngil”ni kechira oladimi? Shusiz ham ko‘ngli yarim Narzulla obrazi “kaklik” detaliga ega chiqishni emas, ta’masiz chin do‘stlik, samimiylikni istagan. U ham do‘sti singari ovga chiqadi uni ham ovchi singari kaklikda haqqi bo‘lishiga qaramay, do‘sti unga o‘z haqini taqsimlamadi. O‘zligidagi kibrni yenga olmadi. *“Belbog‘ni unutgan bo‘lib, etigimning qo‘njini torta-torta eshikga chiqdim. Narzulla ayvonda belbo g‘ni menga chiqarib berdi.*

-Nima, ikkoviniyam menga menga bermoqchimisan?

Kulimsiradi.Yerga qaragancha belbo g‘ni belimga bo g‘lay boshladim.

-Unisi semiz ekan,- dedi Narzulla yalanib,-bunisi oriq ekan,mazasi yo‘q.

Men miq etmay belbo g‘ni bo g‘ladim.Onasi bilan hayrlashdimda,bu yoqga o‘tib kaklikni bittasini beraman, deganday:

-Narzi, senga bir gapim bor,-dedim.

Darvozadan chiqgach:

-Xayr endi,-dedim.-Tezroq borishim kerak uyga.

-Hm…-dedi Narzulla.-Lekin bunisi juda o‘ g‘ir ekan…

-Ha dedim va ketdim.Lekin ko‘chaga burilayotib, o‘girilib qaradim. Narzulla bo‘ynini qashib turar,menga pastdan tikilardi… [Xolmirzayev, 2007:3-4]. Ayni shu holatda Narzullaning portreti hikoyaning tub asl mohiyatini ko‘rsatib beradi. Kaklikdan birini ber deya olmagan, do‘stini kuzatishga chiqgan Narzulla qiyofasidagi aks etgan ilinj o‘ziga hos tarzda ifoda etilgan. *“Shukur Xolmirzayev qahramonlar psixologiyasini, odatda uning hatti-harakatlari, gap-so‘zlari, imo-ishoralari orqali mahorat bilan ko‘rsatadi”* [Do‘stmuhammad, 1995:48].

Yozuvchi Normurod Norqobilovning har bir hikoyasida bola ko‘ngli, uning his-tuy g‘ulari, orzu-umidlari tabiat bilan chambarchas holda yoritilgan, tuy g‘ulari mahorat bilan ochib berilgan bo‘lib, har bir insonga bola ko‘ngli qanchalar nozik

bo‘libgina qolmay balki bola ko‘ngli podsho ekanligi o‘z tasdi g‘ini topadi. Adibning “Keksa tut”, “Kapalak” singari hikoyalarida bola ko‘ngli har qachon mehr-muhabbatga tashna ekanligi va har bir bolaning yoshligiquvnoqlikda o‘tishiga chorlagan. Baxtli bolalik qanday bo‘ladi? Bola qalbini vayron qilayotgan kim yoki kimlar? Bu kabi savollarga Normurod Norqobilovning asarlaridan javob topish mumkin. Adibning “Kapalak” hikoyasida murg‘akkina bolaning o‘y-hayollari jonli tabiat bilan muloqat qilishi qushlar, o‘simliklar, daraxtlar, hasharotlar bilan tabiat bilan oshno bo‘lishi yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmirzayev Sh. Saylanma 1-jild.Hikoyalar. – T.,SHARQ, 2007. – B.3-4.
2. Xurshid Do‘stmuhammad. Xozirgi o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi.Fil.fan.nomzodi…diss. – T., 1995. – B.48.
3. Xolmirzayev Sh. // “Sharq yulduzi”,1966, 11-son, 207-bet.

MUNDARIJA

Sirojiddinov Sh. GLOBAL TA’LIMDAN MILLIY MAQSADLAR TOMON....4

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA

Abdullayeva M. ADABIYOT O‘QITISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI……6
Qozoqboy Yo‘ldosh “MEHROBDAN CHAYON” ROMANINING O‘QUV TAHLILINI AMALGA OSHIRISH METODIKASI……12
*Mirzayeva Z.*ADABIY TA’LIMGA KONSEPTUAL YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI.....22
Matchonov S. ADABIY TA’LIMDA KITOBXONLIK MUAMMOSI.....30
Qodirov V. TIL VA ADABIYOT TA’LIMIGA YANGICHA YONDASHUVLAR YUZASIDAN MULOHAZALAR…….39
Matyoqubova T. LIRIK KECHINMANI O‘QUVCHIGA “YUQTIRISH” MAHORATI……43
Kambarova S. ADABIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING TADQIQOTCHI-LIK FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH……...50
Yuldasheva N. PEDAGOGIK MAHORAT: SIFATLI DARS - KUTILGAN NATIJA……..60
Ishonxanova I. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI “MEHR VA SUHAYL” HIKOYATINING O‘QITILISHI YUZASIDAN MULOHAZALAR……..…71
Mavlonova K. O‘QUVCHILARNI ONA TILI IMKONIYATLARI BILAN TANISHTIRISH MAZMUNI……75
Abdiraimov Sh. DAVLAT TA’LIM STANDARTI VA O‘QUV DASTURLARI-NING BAHOLAH TIZIMIGA TA’SIRI.....78

ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

Homidjon Homidiy Mallayev – Navoiyshunos……83
Qozoqboy Yo‘ldosh MILLIY RUH POSBONI…….....88
Jumaxo‘ja Nusratullo NAVOYISHUNOSLIKNING YECHIMINI KUTAYOT-GAN MUAMMOLARI……101
Xamrakulova X. ABDULLA QAHHORNING ADABIY ESTETIK QARASHLARI……111
Jo‘raeva G. BOLALAR HAJVIY SHE’RIYATI – G‘OYAVIY-MA’RIFIY VA ETIK-ESTETIK TARBIYA QUROLI……120
Shukurova Z. “QISASI RABG‘UZIY”DA HAYVONOT DUNYOSINING PAYDO BO‘LISHI HAQIDAGI MIFLAR……130
Ahmedov H. ALISHER NAVOIY: SHAXSIYAT VA IJOD UYG‘UNLIGI.....134
*Isayeva Sh.*RUHIYAT TASVIRINI O‘RGANISH MASHAQQATI ……...138

Raxmonova Sh. ERKIN VOHIDOV G‘AZALIYOTIDA VASLNING O‘RNI.....142
Jabborova M. “QISSAI JAMSHID” ASARINING POETIK XUSUSIYAT-LARI…...…….....148
Hamrayev K. Xayrullayev A. HIKOYA JANRIDA “ILK UCHRASHUV”, “AYRILIQ”,“VISOL” MOTIVI……157
Ametova O. YUSUF XOS HOJIBNING OBRAZ YARATISH MAHORATI…164
Aliqulova H. YOR-YOR QO‘ShIQLARI VA XALQONA SO‘ZNING O‘ZIGA XOS IFODASI……170
Xayrullayev A. Hikoya janrida badiiy nutq shakllarining o‘rni…….....175
Yo‘ldoshev O‘. O‘ZBEK ARUZI TARIXI VA TARAQQIYOTI….....183
Ziyayeva Y.“Saddi Iskandariy” dostonida tamagirlikning qoralanishi.....184
Nazarova D. HUVAYDO IJODIDA AN’ANA VA O‘ZIGA XOSLIK.....190
Mamiraliyev Q. FAXRIYOR SHE’RLARIDA JANRLAR MASALASI.....198
Fayziyeva D. XOJAGON TARIQATI TASAVVUF NAMOYONDALARI HAQIDA ALISHER NAVOIY QARASHLARI…….....202
Xayitaliyeva N. POETIK NUTQNING YETAKCHI XUSUSIYATLARI.....207
Yoqubova S. ChO‘LPON SAFARNOMALARIDA LIRO-EPIK TASVIR USULI…….....213

ADABIYOT O‘QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR

Qozoqboy Yo‘ldosh “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIGA METODIK YONDASHUV……220
Husanboyeva Q.“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONINI MUAMMOLI O‘RGANISH……229
Niyozmetova R. ASAR QAHRAMONLARINING SHAXSIY SIFATLARINI ANGLASH MASALALARI……245
Boltaboyeva O. NAMANGAN ADIBLARI IJODINI O‘RGANISHDA QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQ METODIDAN FOYDALANISH (XILVATIY IJODI MISOLIDA) ……..……..249
Ubaydullayev N. ABDULLA QODIRIYNING HAYOT YO‘LINI O‘RGANISHDA AVTOBIOGRAFIK ASARLARNING O‘RNI.....256
Abdurahmonova S .ADABIYOT DARSLARIDA YANGI ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI……262

TALABALAR MINBARI
ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION G‘OYALAR

Ashirova Sh. ONA TILI TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TALABLARI.....269
Karimova Y. «BOBURNOMA» ASARIDAGI HIKMATLARNING XALQ OG‘ZAKI IJODIGA UYG‘UN XUSUSIYATLARI.....275
Abdurahmonova M. RAMZ – UNIVERSAL BADIIY VOSITA.....282

Jazilova M. MAQOLLARNI O‘RGANISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....291
Kadirova N.O. MUTOLAA KONSTRUKTIV JARAYON SIFATIDA.....297
Hayitboyeva D. UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA ABDULLA QODIRIY IJODINI O‘RGANISHNING AHVOLI.....307
Muhammadiyeva M. MUMTOZ ASARLARNI O‘QITISHDA MAVZULI-ELEKTRON LUG‘ATLAR YARATISH.....314
Mahmado‘stov A.Sh. TOG‘AY MURODNING HAYOTI VA IJODI.....317
Norqulov N. XOJA HIKOYATLARIDA IJTIMOIY ADOLAT TALQINI.....321
Norqulova M «ALPOMISH» DOSTONINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV.....328
Esonov R. ADABIY TA’LIMDA VIRTUAL LABORATORIYALAR TASHKIL ETISH METODIKASI.....332
Tursunboyeva Sh. RETROSPEKTIV SYUJETNING ASAR BADIIYATIDAGI O‘RNI.....339
Jo‘rayeva M. CHARXIY DEVONI HAQIDA…….342
Mulloqulova SH. QUR’ONIY G‘OYALARNING BADIIY TALQINI.....344
Yuldasheva M. «SADDI ISKANDARIY» DOSTONIDA HUKMDORLAR OBRAZI HAQIDA.....348
Jumag‘ulova D. «ALPOMISH» DOSTONI - TARIXIY HAQIQAT.....352
Toshboyeva D. QOFIYANING O‘ZAK TARKIBIGA KO‘RA TURLARINING BAYTLARDA QO‘LLANISHI……356
Xidirova H. TOG‘AY MUROD ASARLARIDA DAVR QIYOFASI VA BADIIY HAQIQAT.....360
Rustamova X. NAZM-U NASR QIYOSI.....363
Jo‘rayev Sh. SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA MUHABBAT MAVZUSI TALQINI.....366
Yusupova N. ABDULLA ORIPOVNING «SOHIBQIRON» ASARIDA RUHIYAT TALQINI.....372
Habibullayeva S. NAZAR ESHONQUL NASRIDA OBRAZLAR DINAMIKASI.....379
Narziyeva M. SHARQ ADABIYOTIDA O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING MILLATPARVARLIK RUHI TALQINIGA DOIR MULOHAZALAR.....387
Ismoilova N. ADABIYOT DARSLARIDA BADIIY ASARLARNI O‘QITISH VA TAHLIL QILISH.....393
Abduhamidova S. ABDULLA ORIPOV IJODIGA BIR NAZAR.....398
Yusupova G. ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA INDIVIDUAL JANRLAR.....400
Abdirashidova D. TOHIR MALIKNING «NOMUS» ASARI TALQINIDA BADIIYLIK.....405
Baxtiyorova Z. G‘AFUR G‘ULOM IJODI VA SHE’RIYATINING BADIIY TAHLILI.....408
Abdujalilov A. “AZAL NAQQOSHI TARH AYLARDA…” 413

Matkarimova K. BADIIY ASAR TAHLILI – O‘QUVCHI DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA……422
Abdullayeva Sh. TA’LIMDA INNOVATSION JARAYON VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI……425
Abduxalilova R. LIRIK VA LIRO EPIK ASARLARNI O‘RGATISH USULLARI.....429